O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

"GLOBAL MAKONDA TALABALARNING MA’NAVIY, MA’RIFIY VA AXLOQIY DUNYOQARASHI: TAHLILLAR, TAKLIFLAR, TAVSIYALAR”

mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI TO’PLAMI

Namangan 2025-yil, 22-aprel

www.namspi.uz

Bosh muharrir: *Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov*

Mas’ul muharrir: *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor M.R.Qodirxonov*

Mas’ul muharrir o‘rinbosari: *Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedogogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i J.A.Yuldashev*

T A H R I R H A Y ’ A T I

Isoqboyev Alisher Ahmadjonovich	-	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Yuldashev Javoxir Abdurahim o‘g‘li	-	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mutalov Saidakbar Xamidullo o‘g‘li	-	Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Botirova Sevara Ma’murovna	-	Gumanitar fanlar kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Nabijonov Murodjon To‘lqinjon o‘g‘li	-	Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i
Tursunov Ramziddin Abdixalil o‘g‘li	-	Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i
O‘rmonjonov Azizbek Muhammadjon o‘g‘li		Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi Ilmiy tadqiqot ishlari muhandisi

Texnik muharrir: A.O‘rmonjonov, R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, ***Faks: (***0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

“Global makonda talabalarning ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy dunyoqarashi: tahlillar, takliflar, tavsiyalar” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman Namangan davlat pedagogika instituti rektorining 2025-yil 21-apreldagi 65-U-sonli buyrug’iga muvofiq o’tkazildi hamda anjuman materiallari to’plami anjuman Tashkiliy qo’mitasining 2025-yil 5-maydagi 2-sonli yig’ilishida ***(Bayonnoma №2)*** *muhokama qilinib, ilmiy to’plam sifatida nashr etish uchun tavsiya etilgan.*

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2025

TALABALARNING IJTIMOIY MOSLASHUVI MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

A.A.Isoqboyev
Namangan davlat pedagogika instituti
Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, tarix fanlari nomzodi, dotsent
e-mail. aliakbar2004@mail.ru. Тел. 97 729 61 00

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalariga 1-kursiga qabul qilingan talabalarining ijtimoiy muhitga moslashuv jarayonlari tahlil etiladi. Ijtimoiy adaptatsiya jarayonlarida uchraydigan asosiy muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy moslashuv, 1-kurs talabasi, adaptatsiya, tarbiya, yordam, muhit, ijtimoiy ko‘mak, tyutor, dekan o‘rinbosari, fakultet, kafedra, o‘zaro hamkorlik, ustoz-shogird tizimi.

Oliy ta’lim muassasasiga o‘qishga qabul qilingan 1-kurs talabalari uchun yangi dargoh muhiti yangi, notanish va ayrim hollarda noqulay bo‘lishi mumkin. Maktab yoki professional ta’lim muassasasidan farqli ravishda, oliy ta’lim muassasasi muhiti talabadan mustaqil qaror qabul qilish, shaxsiy javobgarlik (mas’uliyat), o‘z ustida ko‘proq ishlash va faol ijtimoiy ishtirokni talab qiladi.

Talaba-yoshlar o‘rtasida ijtimoiy moslashuv ob’yekti sifatida nafaqat 1-kursga o‘qishga qabul qilingan talabalar, shuningdek, o‘qishini boshqa oliy ta’lim muassasasidan ko‘chirib kelgan talabalar ham belgilanishi lozim. Mazkur toifadagi talabalar uchun ijtimoiy moslashuv davri o‘ta mas’uliyatli va shu bilan birga qiyin bosqich hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan shu bosqichda uchraydigan ijtimoiy moslashuv muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil etiladi.

1-kurs talabalarida ijtimoiy moslashuvning o‘ziga xosligi shundan iboratki, ular birinchi marta ota-ona nazoratidan tashqari muhitga tushadi, yangi do‘stlar, ustozlar, talablar va hayot tarziga duch keladi, shaxsiy hayotida muhim qarorlar qabul qilishga majbur bo‘ladi.

Bu omillar talabada ehtiyoj, xavotir, izolyasiya yoki beqarorlik hissini yuzaga keltirishi mumkin. Talabalar ijtimoiy moslashuvining muvaffaqiyatli kechishi, avvalo, shu bosqichdagi qo‘llab-quvvatlash tizimiga bog‘liq bo‘ladi.

Avvalo, 1-kurs talabalarning ijtmoiy moslashuvi jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlab olish lozim bo‘ldi. Bu muammolar, bizning o‘rganishimiz hamda tajribalarimizga ko‘ra, quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- **psixologik qiyinchiliklar** – psixologik jihatdan qo‘rquv xissining yuzaga kelishi, umidsizlikning paydo bo‘lishi va o‘ziga ishonmaslikni paydo qilishi mumkin;
- **uyni sog‘inish** – uzoq yillar davomida ota-ona va yaqin qarindoshlar bilan bir muhitda, muammosiz yashaganlik sog‘inch xissini yuzaga keltiradi;
- **o‘zini yakkalangandek his qilish** – bolalikdan yaqin bo‘lgan do‘stlar, yaqin qarindoshlardan uzoqda yashash natijasida o‘zini himoyasiz, yolg‘iz his qilishi mumkin;
- **yangi muhitda o‘z o‘rnini topolmaslik** – oliy ta’lim muassasasi muhiti uning uchun begona bo‘lib, maktab muhitidan tubdan farq etishi natijasida yangi muhitda o‘z o‘rnini topishga qiynalish holati namoyon bo‘ladi;
- **muloqot muammolari** – to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘z guruhidagi talabalar, fakultet rahbariyati bilan muloqot qila olmaslik natijasida o‘z muammolarini hal qilishda muammolar yuzaga keladi;
- **boshqa hududdan kelgan talabalarda til, urf-odat va fikrlash farqi** – ayniqsa, chekka hududlardan kelgan talabalarda boshqa hudud shevasi, urf-odati va tafakkurdagi farqlar natijasida havotir hissi yuzaga kelishi mumkin;
- **do‘stlar orttirishda qiynalish** – boshqa insonlarga bo‘lgan ishonchsizlik natijasida talabada o‘ziga yaqin bo‘lgan insonlar yoki do‘st orttirishda qiyinchilik yuzaga keladi.
- **mustaqil hayotga tayyor emaslik** – ota va ona ta’minotida, g‘amho‘rligi ostida yashagan talabada qaror qabul qilish hamda kundalik hayotni tartibga solishda muammolar yuzaga keladi:
- **kun tartibini to‘g‘ri tashkil etishda qiynalish** – talabalikning dastlabki kunlaridagi yuklamalar talaba tomonidan kun tartibini to‘g‘ri tashkil eta olmasligiga olib keladi;

- moliyaviy mablag‘larni boshqarishda tajribaning yetishmasligi – o‘qish, yashash harajatlarini to‘g‘ri taqsimlashda tajribaning yetishmasligi talabada yuqori darajada havotirni yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi omillar talabalarning oliy ta’lim muassasasidagi jarayonlarga ijtimoiy moslashuviga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur holatlarni bartaraf etish orqali, talabalarni ijtimoiy faollashtirish, iqtidor va iste’dodlarini namoyon etishlari uchun shart-sharoit yaratish maqsadga muvofiq. Aksincha bo‘lgan holatda 1-kursga qabul qilingan talabalarda salbiy holatlar, ishonchsizlik va o‘zini to‘liq namoyon qila olmaslik holatlari yuzaga kelishi hamda butunlay oliy ta’limdan bezib qolish ehtimolligi ham juda yuqori.

Shu boisdan ham talabalarning ijtimoiy moslashuvini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish juda ham katta ahamiyatga egadir. Talabalarning ijtimoiy moslashuvi bo‘yicha Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan “Birinchi kurs maktabi” loyihasi doirasida ishlar tashkil qilinadi. Lekin, bu jarayonda talabalarning ijtimoiy moslashuviga individual yondashuv bo‘lmagani hamda ijtimoiy moslashuv natijasi monitoringi yuritilmagani sababli biz haqiqiy holatni tahlil qila olmaymiz.

Talabalarning ijtimoiy moslashuvi bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish uchun biz tomondan quyidagi takliflar bildiriladi:

- 1 kurs talabasi safiga qabul qilingan talabalarning har biriga tajribali professor-o‘qituvchilar va yuqori kurs talabalarini nomma-nom biriktirish va talabani ijtimoiy moslashuv bo‘yicha faol harakatni amalga oshirishi bo‘yicha ishlarni amalga oshirish. Bunda shaxsiy suhbat va maslahatlar berishni yo‘lga qo‘yish;

- psixologik qo‘llab-quvvatlash, ya’ni oliy ta’lim muassasasida faoliyat olib borayotgan psixologlar talabalarni ijtimoiy moslashtirish jarayonida mavjud muammoni aniqlashi hamda individual ravishda ishlashini tashkil etish;

- talabalarni ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga, jumladan, milliy an’analar, urf-odatlar, ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘liq jarayonlarga jalb qilish, jamoaviy o‘yinlar, musobaqalar, intellektual kechalar orqali ijtimoiy muhitga imkon qadar tezroq kiritish;

- talabalarni to‘garak va klublarga jalb etish, har bir talabaning qiziqishlarini o‘rganib, ularga mos faoliyat turlarini tavsiya qilish;

- ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish va iqtidorlarini aniqlab, ular bilan manzilli ishlashni tashkil etish;

- talabalarni ilmiy-innovasion faoliyatga keng jalb qilish kabi usullar orqali ularni ijtimoiy moslashuvni tezroq amalga oshirish lozim.

Shu o‘rinda talabalarning oliy ta’limga ijtimoiy moslashuviga yordam beradigan ma’naviy jihatlarga ham alohida to‘xtalib o‘tish joiz. Bu o‘z navbatida talabalarning o‘zida shakllanadigan hamda ijtimoiy moslashuvga yaqindan yordam beradigan omillar hisoblanadi.

Birinchidan, talabadagi Vatanga muhabbat, el-yurtga xizmat qilish hissi kuchli bo‘lsa, u ta’limni ham fidoyilik bilan qabul qiladi. Bu tuyg‘u uni jamiyatning faol a’zosi sifatida rivojlantirib, ijtimoiy muhitga tezroq kirishishiga yordam beradi.

Ikkinchidan, Oliy ta’lim muhitida talabalarning turli hududlardan kelishi, insonparvar va hamdard bo‘lish orqali boshqalar bilan yaxshi munosabat o‘rnatish oson kechadi. Hamdardlik muhiti ijtimoiy moslashuvni yengillashtiradi.

Uchinchidan, ustozlarga, kursdoshlarga va atrofdagilarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish ijobiy ijtimoiy muhit yaratishga xizmat qiladi. Samimiy muloqot orqali yolg‘izlik va o‘zini chetlatilganday his qilish kabi holatlarning oldi olishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, ma’naviy jihatdan yaxshi shakllangan shaxsda shaxsiy va jamoaviy mas’uliyat hissi kuchli bo‘ladi. O‘qishga, jamoadagi faoliyatga va o‘z vazifalariga jiddiy yondashgan talabalar tezroq moslashadi.

Beshinchidan, yangi muhitda yuzaga keladigan turli qiyinchiliklarga sabrli va odobli munosabat bildirish — moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Bu fazilatlar orqali inson o‘zini boshqarishni va stressni yengishni o‘rganadi.

Oltinchidan, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, klublar, to‘garaklar, ma’naviyat soatlari, ma’ruzalar va kitobxonlik loyihalarida ishtirok etgan talabalarda jamoaviy fikrlash va hamkorlik salohiyati kuchayadi. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuvini rag‘batlantiradi.

Yettinchidan, oliy ta’lim muassasalarida turli milliy va madaniy muhit vakillari bo‘lgan talabalar yig‘iladi. Milliy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, madaniy xilma-xillikni qabul qilish va unga to‘g‘ri munosabat bildirish – ijtimoiy moslashuvda muhim omil hisoblanadi.

1-kurs talabalarining ijtimoiy moslashuvi ularning keyingi ta’lim jarayoni va shaxsiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Moslashuvdagi muammolarni erta aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rish va ijobiy muhit yaratish ta’lim muassasasi mas’ullarining muhim vazifasi hisoblanadi. Ustozlar, tarbiyachilar va tajribali talabalardan iborat samarali jamoa yordamida har bir 1-kurs talabasi o‘zini ishonchli, xavfsiz va jips jamoaning faol a’zosi sifatida his qilishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-avgustdagi “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–6260 qarori.
2. Abdullaeva Z. Talabalarda ijtimoiy adaptatsiya jarayonini tashkil etishning pedagogik asoslari. - Tashkent: Fan nashriyoti, 2021.
3. Jurayeva Sh. Ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari. Tashkent: Yangi asr avlodi, 2020.
4. Muminova N. Talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishda psixologik yondashuv // Pedagogika fanlari jurnali, 2022, №4, Б.45–50.
5. Rasulov A., Toshpulatova M. Ijtimoiy moslashuv va uni rivojlantirish omillari // Talaba va zamon, 2021. №11, Б.22–27.
6. Tojiboyev A. Oliy ta’lim tizimida tarbiya ishlarini tashkil etish metodikasi. - Samarqand: Ziyo Press, 2023.

BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARIDA AKSIOLOGIK POZITSIYANI RIVOJLANTIRISHNI MAZMUNIGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR TAHLILI

J.A.Yuldashev
Namangan davlat pedagogika instituti
Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD., dotsent

Annotatsiya: ushbu maqolada bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida aksiologik pozitsiyani shakllantirish va rivojlantirish jarayoniga qo‘yiladigan zamonaviy pedagogik talablar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Aksiologik pozitsiya – bu shaxsning qadriyatlar tizimi, ma’naviy-estetik qarashlari va axloqiy pozitsiyasining asosini tashkil etadi. Tarixiy ta’lim jarayonida ushbu pozitsiyani rivojlantirish, bo‘lajak pedagoglarda tarixiy haqiqatga hurmat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, hamda professional axloqiylikni shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada zamonaviy ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlar, reflektiv yondashuvlar va aksiologik kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik strategiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlari asosida ta’lim mazmuniga qo‘yilayotgan talablar yoritilib, tarix o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida aksiologik yondashuvning dolzarbligi ilmiy asosda asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: aksiologik pozitsiya, tarix ta’limi, bo‘lajak o‘qituvchi, qadriyatlar tizimi, interfaol metodlar, tanqidiy fikrlash, ma’naviy tarbiya, kasbiy tayyorgarlik, tarixiy ong, kompetensiya yondashuvi, milliy qadriyatlar, ta’lim texnologiyalari.

Abstract: This article provides a systematic analysis of the modern pedagogical requirements for shaping and developing an axiological position in prospective history teachers. An axiological position constitutes the foundation of an individual's system of values, moral-ethical stance, and spiritual-aesthetic worldview. In the process of history education, fostering this position helps future educators develop respect for historical truth, commitment to national and universal values, and professional ethics. The article analyzes contemporary educational technologies, interactive methods, reflective approaches, and pedagogical strategies aimed at developing axiological competence. Furthermore, it highlights the

relevance of the axiological approach in the professional training of history teachers based on the normative-legal documents in the education sector of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: axiological position, history education, prospective teacher, value system, interactive methods, critical thinking, moral education, professional training, historical consciousness, competence-based approach, national values, educational technologies.

Аннотация: В данной статье системно проанализированы современные педагогические требования к процессу формирования и развития аксиологической позиции у будущих учителей истории. Аксиологическая позиция представляет собой основу системы ценностей личности, её духовно-эстетических взглядов и нравственной позиции. Развитие данной позиции в процессе преподавания истории способствует формированию у будущих педагогов уважения к исторической правде, верности национальным и общечеловеческим ценностям, а также профессиональной этичности. В статье проанализированы современные образовательные технологии, интерактивные методы, рефлексивные подходы и педагогические стратегии, направленные на развитие аксиологической компетентности. Кроме того, на основе нормативно-правовых документов Республики Узбекистан в сфере образования раскрываются требования, предъявляемые к содержанию образования, и научно обоснована актуальность аксиологического подхода в профессиональной подготовке учителей истории.

Ключевые слова: аксиологическая позиция, преподавание истории, будущий учитель, система ценностей, интерактивные методы, критическое мышление, нравственное воспитание, профессиональная подготовка, историческое сознание, компетентностный подход, национальные ценности, образовательные технологии.

Zamonaviy ta'lim tizimi o‘zining natijadorligi va sifatini oshirishga intilib, o‘quvchilarning nafaqat ilmiy bilimlarini, balki ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini ham shakllantirishni asosiy maqsad sifatida belgilaydi. Bu jarayon, ayniqsa, tarix o‘qituvchilari uchun alohida ahamiyatga ega, chunki tarix fani nafaqat tarixiy bilimlarni o‘rgatishni, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, axloqiy me'yorlarni ham targ‘ib etishni taqozo etadi. Tarixiy ta'lim, shuningdek, o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga, o‘z tarixiga nisbatan hurmat va mas'uliyat tuyg‘usini shakllantirishga, milliy va global miqyosda ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga yordam beradi.

Aksiologik pozitsiya, insonning qadriyatlar tizimi, dunyoqarashi va axloqiy me'yorlarining shakllanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan psixologik va pedagogik konseptdir. O‘quvchi, ayniqsa, bo‘lajak tarix o‘qituvchisi, o‘zining aksiologik pozitsiyasini rivojlantirish orqali tarixiy haqiqatga bo‘lgan hurmatni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, shuningdek, professional axloqiylikni shakllantiradi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, ta'limda aks ettirilgan pedagogik yondashuvlar, metodlar va texnologiyalar orqali amalga oshiriladi.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining aksiologik pozitsiyasini rivojlantirish, o‘quvchilarda tarixiy xotira, milliy ong va madaniy identifikatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodlarning o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishdagi o‘rni katta. Interfaol metodlar, multimedia texnologiyalari, reflektiv yondashuvlar va boshqa pedagogik strategiyalar bu jarayonda katta rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarida ham bo‘lajak pedagoglarni kasbiy va axloqiy jihatdan tayyorlashda aksiologik yondashuvning ahamiyati belgilab qo‘yilgan. Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va o‘zgarishlar bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida yangi pedagogik talablarga va metodik yondashuvlarga ehtiyojni keltirib chiqarmoqda.

Aksiologik pozitsiya – bu shaxsning qadriyatlar tizimi, dunyoqarashi va axloqiy me'yorlarining shakllanishi jarayonidir. Shaxsning aksiyologik pozitsiyasining shakllanishi uning umumiy shaxsiyati va kasbiy faoliyatiga bevosita ta’sir qiladi. Ayniqsa, bo‘lajak tarix o‘qituvchilari uchun bu jarayon, ular o‘qitadigan tarix fanini o‘rgatishdan ancha muhimroq bo‘lib, ularning o‘quvchilarga tarbiyaviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarni etkazishdagi muvaffaqiyatiga asos bo‘ladi. Zamonaviy ta'lim tizimida bo‘lajak pedagoglarning aksiologik pozitsiyasini rivojlantirish, nafaqat o‘z maqsadlariga erishish uchun, balki o‘quvchilarda ham tanqidiy fikrlash va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga xizmat qiladi.

Aksiologik pozitsiyaning rivojlanishi, nafaqat axloqiy qarashlarning shakllanishiga, balki shaxsning barcha ruhiy va intellektual rivojlanishiga ta'sir qiladi. Aksiologik pozitsiya, asosan, shaxsning axloqiy, estetik va madaniy qadriyatlarni anglash va ularga munosabatini ifodalaydi. Tarix fanini o‘qitishda bu pozitsiyaning rivojlantirilishi, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining o‘z kasbiy faoliyatlariga bo‘lgan munosabatini shakllantirish, shuningdek, ularning tarixiy haqiqatga hurmat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni aks ettiruvchi motivatsiya yaratadi.

Tarixiy ta’lim jarayonida aksiologik pozitsiyaning rivojlanishi o‘quvchilarda tarixiy xotira, milliy ong va madaniy identifikatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Milliy qadriyatlar va tarixiy xotiraga bo‘lgan hurmatni tarbiyalash, o‘quvchilarda o‘z xalqining tarixiga nisbatan mas'uliyatli va chuqur hurmatni shakllantiradi. Bundan tashqari, aksiologik pozitsiyaning rivojlanishi, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, empatiya va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga, shuningdek, global muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishga tayyorlashga xizmat qiladi.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining aksiologik pozitsiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Tarix fani o‘qituvchisi, nafaqat tarixiy ma’lumotlarni taqdim etib, balki o‘quvchilarni axloqiy va estetik qadriyatlar bilan tanishtirishga ham mas'uldir. Shu bois, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlar tarix o‘qituvchisini bu jarayonda samarali yordamchi vosita sifatida qo‘llashga imkon yaratadi. Misol uchun, “Aqliy hujum” (brainstorming), “Debatlar”, “Venn diagrammasi” kabi metodlar, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Bu usullar orqali o‘quvchilar tarixiy voqealar va shaxslar bilan bog‘liq turli fikrlar va qarashlarni o‘rganadilar, ularning tarixiy tajribalarga nisbatan o‘z nuqtai nazarlarini shakllantiradilar.

Zamonaviy pedagogik metodlarda interaktivlik va multimedia vositalarining qo‘llanilishi ta'lim samaradorligini oshiradi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularga tarixiy voqealarni ko‘proq o‘zlari uchun tadqiq etish imkonini yaratadi. O‘quvchilarning shaxsiy va jamoaviy ishlarni bajarishdagi ishtiroki, o‘z fikrlarini erkin va aniq ifodalash imkonini yaratadi, bu esa ularning kasbiy va axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Aksiologik pozitsiyani rivojlantirishda metodik yondashuvlar quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

Integratsiya: Tarixiy voqealarni boshqa fanlar bilan bog‘lash orqali o‘quvchilarda keng qamrovli dunyoqarashni shakllantirish. Masalan, tarixni adabiyot, falsafa, siyosat va boshqa sohalar bilan bog‘lash, o‘quvchilarga tarixiy voqealarning turli xil nuqtai nazardan qanday o‘zgarishini ko‘rishga imkon beradi.

Interaktivlik: O‘quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, ular bilan o‘yinlar, munozaralar yoki rolli o‘yinlar o‘tkazish orqali ularning fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Bunday metodlar, o‘quvchilarga tarixiy voqealarni o‘rganishda faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmay, balki amaliy nuqtai nazardan ham yondashishni ta'minlaydi.

Refleksiya: O‘quvchilarda o‘z fikrlarini tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirish. O‘quvchilar o‘zlarini tarixiy shaxslar yoki voqealar kontekstida ko‘rish orqali, ularga qarshi tanqidiy yondashadilar va tarixiy haqiqatni anglash jarayonida axloqiy jihatlarni inobatga olishadi.

Empatiya: Tarixiy shaxslar va voqealar bilan bog‘liq hissiy aloqalarni rivojlantirish. Bu metod, o‘quvchilarga tarixiy voqealarni shaxsiy tajriba sifatida ko‘rsatib, ular orqali tarixiy qadriyatlarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Ushbu tamoyillar asosida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining aksiologik pozitsiyasini samarali rivojlantirishga yordam beradi. Pedagogik yondashuvlar va metodlar, o‘quvchilarning tarixiy va axloqiy qadriyatlarni tushunib olishlarini kuchaytiradi hamda ularga o‘z axloqiy pozitsiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytish joizki, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining aksiologik pozitsiyasini rivojlantirish, ularning kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar, metodlar va texnologiyalarni qo‘llash zarur. Aksiologik pozitsiyaning rivojlanishi o‘quvchilarda tarixiy xotira, milliy ong va madaniy identifikatsiyani shakllantirishga yordam beradi, shuningdek, tanqidiy fikrlash, empatiya va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantiradi. Shunday qilib, aksiologik pozitsiyaning o‘z vaqtida va samarali rivojlanishi, nafaqat o‘quvchilarning ilmiy, balki axloqiy va ma'naviy jihatdan ham yetuk shaxslar bo‘lib voyaga yetishlariga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Berkhin, V. (2016). Pedagogika va ta'limning aksiologik asoslari. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
2. Shayxov, B., & Rahmonov, A. (2020). Zamonaviy tarix ta'limi: metodik yondashuvlar va pedagogik strategiyalar. Tashkent: Akademnashr.
3. Khoshimov, A. (2018). Bo‘lajak o‘qituvchilarning aksiologik pozitsiyasini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.
4. Kahramonov, R. (2017). Interfaol metodlar va ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. Toshkent: Ma’naviyat va ma'rifat nashriyoti.
5. G‘ulomov, D. (2019). Tarix fanini o‘qitishda axloqiy qadriyatlar va ularning o‘quvchilarga ta'siri. Tashkent: O‘zbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti.

TA’LIM TIZIMIDA MANBAASHUNOSLIK MADANIYATI HAMDA MILLIY MA'NAVIY TAMOYILLAR HARAKTERI

R.A.Tursunov
Namangan davlat pedagogika instituti Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i
J.Umarov
Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola ta'lim tizimida yoshlar orasida manbaashunoslik madaniyatini shakllantirish, ta'lim tizimida milliy-ma'naviy harakter uyg‘unligini ta'minlash borasidagi fikr mulohazalardan iborat.
Kalit so‘zlar: manbaashunoslik, milliy harakter, ma'naviyat, jamiyat, globallashuv, aura, innovatsiya, g‘oya, mafkura, strategiya

Bugungi kun insonlar va umuman olganda, butun bir jamiyat oldiga o‘z davri ijtimoiy muhiti hamda harakteridan kelib chiqqan holatda bir qator ustuvor talab va vazifalarni ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda. Kecha yaratilgan innovatsion g‘oya hamda yangiliklar bugungi kunga kelib o‘z kuchi, ta'siri hamda ahamiyatini yo‘qotib borayotgani hech kim uchun sir emas. Hozirgi globallashgan jamiyatda ijtimoiy muhit va intelektual aura shu qadar chigal, vaholangki shu qadar ravonki, zamon har soniya hushyorlik, sergaklik va sinchkovlik bilan yashash hamda munosib istiqbolli strategik maqsad sari intilish kabi tizimli dastur bilan harakat qilishni taqazo qilmoqda. Hamma davrlarda ham zamonaning barkamol shaxsini tarbiyalash va jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta'minlashning o‘ziga xos usul hamda vositalari qo‘llanib kelingan. Jamiyatning o‘zaro uyg‘unligi va ijtimoiy muvozanatini ta'minlash, jamiyat a'zolarining hayrli maqsadlar va taraqqiyot sari boshlaydigan qatlam esa, bu bevosita aholining ziyoli qatlami hisobnlanadi.

Jamiyat hayotida va mamlakat taraqqiyoti hamda kelajagida ta'lim va tarbiya tizimining o‘rni beqiyos hisoblanadi. Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev ushbu masala yuzasidan fikr bildirar ekan: “Atoqli ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, degan hikmatli so‘zlarini men qayta-qayta takrorlashdan charchamayman.

Keyingi yillarda masalaga mana shunday yondashuv bizning ushbu sohadagi faoliyatimiz mezoniga aylandi. Chindan ham, agar biz ta’limni o‘zgartirsak, ta’lim insonni o‘zgartiradi. Inson o‘zgarsa – butun jamiyatimiz o‘zgaradi” [1] deb ta'kidlaydi. Shu o‘rinda aytish mumkinki, eng asosiy e'tibor markazidagi jarayon hozirda ta'lim hamda tarbiya tizimidir.

Har tomonlama barkamol hamda yetuk kadrlarni shakllantirish va ularni zamon ruhiga mos, mafkuraviy va g‘oyaviy immuniteti mustahklam, ma'naviyatli va milliy qadryatlarga, vatani va xalqiga sadoqatli, keng duyoqarash va falsafiy tafakkurga ega etib tarbiyalash hamin qadar zarur va dolzarb hisoblanadi. Lekin, shuni ham hisobga olish lozimki, hozirgi kunda jamiyat ijtimioy qatlamlari, ayniqsa mamlakat istiqboli hamda ertangi kuni bo‘lgan yoshlarning ilm-ma'rifat sari intilishi, ayniqsa ta'lim

jarayonlarida ko‘plab kamchiliklar va sifatli, raqobatbardosh, umuman olganda ilmli kadr tayyorlash sohasida bir qator oqsoqliklarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. Xususan, yoshlar va aynan talaba yoshlar orasida ilmiy terminlar va konkret masalalar, tajriba va muqobil yondashuvlar, so‘zlar va fenomenlarni qo‘llashda manbaashunoslik madaniyatining yetishmasligi, aytib o‘tiladigan fikrlar esa aniq manbaa, adabiyotga ega emasligi, bu esa yoshlar, so‘zlovchi va tinglovchida ijtimoiy ikkilanish holatining yuzaga kelishi, real voqelikdan yiroqlashish va ongdagi ushbu masala yuzasidan ijtimoiy bo‘shliq yuzaga kelishiga olib kelmoqda deyish mumkin. Zamon talabi hamda millat taqdiri, mamlakatda ertangi kun ilm muhitining qay darajada bo‘lishi ham aynan shunga bog‘liq hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, hozirgi kun nuqtayi nazaridan ta'lim-tarbiya tizimi hamda ta'limda milliy-ma'naviy hamda axloqiy tamoyillar, ularning amal qilishi va shunga mutanosib harakterning shakllanishida og‘riqli nuqtalar ko‘zga tashlanishini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa yetishib kelayotgan shaxsda ma'naviy tamoyillarning yetishmasligi, birinchi navbatda, jamiyat ijtimoiy barqarorligining keskin harakter kasb etishi, jamiyat a'zolarining daxldorlik hissidan uzoqlashishiga, faol fuqarolik pozitsiyasi fenomenining o‘z ahamiyatini yo‘qotishi, millat faxri, ajdodlar me'rosi va shaxsi bilan g‘ururlanish, ularga munosib bo‘lish, milliy ruh, millatning kelajagi va ertasi uchun,. xalqi uchun jon kuydirish kabi milliy-ma'naviy harakterning inqiroziga ham sabab bo‘lishi shubxasiz hisoblanadi.

Yoshlar bilan ishlash, ularda manbaashunoslik madaniyatini shakllantirishda asosiy e'tiborni shu tarmoq doirasida alohida fan tizimini barcha soxalar uchun tadbiq etish, ya'ni jamiyat hayotining barcha soxa vakillari uchun o‘z faoliyati doirasida manbaalar bilan shug‘ullanish tarmog‘ini joriy qilish, unga qo‘shimcha tarzida esa ushbu manbaalar qatoriga milliy o‘zligimizni va boy tariximizni gavdalantiradigan asarlar, badiiy abadiyot hamda jahon durdona asarlarini qo‘shish, ushbu tizimning aniq faoliyat monitoringini nazoratga olish va tahlil qilish, eksperiment natijalaridan kelib chiqqan holda uni keng tarzda tizimli joriy qilish samarali vosita hisoblanadi.

Bizga qadar yetib kelgan hamda zamon va makonlar suronidan so‘ng ham o‘zining kuchi va ahmiyatini yo‘qotmagan sahih hadislarda bejiz “ilmdan o‘zga najot yo‘q” deb ta'kidlanmagan. Hayot siyrati va mazmuni, tiriklik mohiyatini ham aynan ilm bilan anglash, tushinish mumkin. Yuqorida ta'kidlab o‘tganlarimiz, manbaalar va adabiyotlar bilan ishlash esa hayot va reallik bilan aniq tasavvur va bilimga ega bo‘lish imkonini yaratadi.

Sharq xalqlari azal azaldan o‘zining yuksak ahloqiy qarashlari, uning ta'lim bilan uyg‘unligi harakteri nuqtayi nazaridan betakrordir. Bu xususidagi azaliy fikrlar ham so‘zimizni tasdiqlaydi: “Talimni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo‘lmaydi. Bu sharqona qarash sharqona hayot falsafasidir”[2]. Bu esa jamiyatda, ijtimoiy muhitdagi muvozanat va axloqiy kamolot yuksak joyda ilm taraqqiy etishi, barqarorlik bo‘lishining garovidir. Shu o‘rinda, millat taqdiri bo‘lgan yoshlar haqida fikr bildirar ekan davlatimiz rahbari ularga yuksak ishonch bildirib: “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqsad yo‘lida yoshlarimiz o‘z oldiga katta marralarni qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish - barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi” [3] deb ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan./31.08.2021/president.uz

2. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Ma'naviyat. Toshkent 2008

3. Shavkat Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi nutqidan.Toshkent. 29.12.2020

YOSHLARNI MEHNAT BOZORIGA TAYYORLASH HAMDA KADRLARNING KASBIY MAHORATI VA KO‘NIKMALARINI OSHIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

M.T.Nabijonov
NamDPI Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i
+998943054105 murodjonnabijonov5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash va kadrlarning kasbiy mahorati hamda ko‘nikmalarini oshirishning zamonaviy muammolarini tahlil qiladi. Mehnat bozorining talablari, ta’lim tizimining cheklovlari, kasbiy rivojlanishning global trendlari va O‘zbekiston kontekstida mavjud muammolar tizimli ravishda ko‘rib chiqiladi. IMRAD tuzilmasiga rioya qilgan holda, tadqiqot ilmiy asoslangan yechimlar taklif etadi. Maqola davlat siyosati, ta’lim tizimi va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan strategiyalarni muhokama qiladi.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, mehnat bozori, kasbiy mahorat, ko‘nikmalar, ta’lim tizimi, kasbiy rivojlanish, global trendlar, malaka oshirish, ikkitomonlama ta’lim.

Zamonaviy iqtisodiyotda mehnat bozori doimiy ravishda o‘zgarib bormoqda. Texnologik innovatsiyalar, raqamlashtirish, sun’iy intellekt va global raqobat kadrlarning kasbiy mahorati va ko‘nikmalariga yangi talablarni qo‘ymoqda[^1]. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda yoshlarning mehnat bozoriga integratsiyasi va kadrlarning malakasini oshirish masalasi iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. Biroq, ta’lim tizimi va mehnat bozori o‘rtasidagi uzviylikning yetishmasligi, kasbiy ko‘nikmalarning eskirishi va yoshlarning zamonaviy talablarga mos kelmasligi kabi muammolar dolzarb bo‘lib qolmoqda[2].

Ushbu maqola yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash jarayonidagi muammolarni tahlil qilish va kadrlarning kasbiy mahoratini oshirishning ilmiy asoslangan strategiyalarini ishlab chiqishga bag‘ishlanadi. Tadqiqot quyidagi savollarga javob berishga qaratilgan:

1. Zamonaviy mehnat bozori yoshlardan qanday ko‘nikmalarni talab qilmoqda?
2. O‘zbekiston ta’lim tizimi ushbu talablarga qanchalik mos kelmoqda?
3. Kadrlarning malakasini oshirishda qanday innovatsion yondashuvlar qo‘llanilishi mumkin?
4. Global tajribalarni mahalliy kontekstga qanday moslashtirish mumkin?

Maqola O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini hisobga olgan holda global trendlarni tahlil qiladi va amaliy takliflar beradi.

Xalqaro va mahalliy manbalardan mehnat bozori trendlari, ta’lim tizimi va kasbiy rivojlanish bo‘yicha ma’lumotlar tahlil qilindi. Jahon banki, UNESCO, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) va O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining hisobotlari asosiy manba sifatida foydalanildi[3][4].

O‘zbekistonda yoshlar bandligi, ishsizlik darajasi, kasbiy ta’lim ko‘rsatkichlari va malaka oshirish dasturlari bo‘yicha ma’lumotlar tahlil qilindi. Ma’lumotlar O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasi va Bandlik vazirligining 2023-2024 yillardagi hisobotlaridan olindi[5].

Mehnat bozori mutaxassislari, ta’lim sohasi vakillari va xususiy sektor rahbarlari bilan yarim tuzilgan suhbatlar o‘tkazildi. Intervyular O‘zbekistondagi 5 ta yirik shahar (Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, Namangan, Andijon)da 20 nafar ekspertdan iborat guruh bilan o‘tkazildi.

Singapur, Germaniya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda qo‘llaniladigan kasbiy ta’lim va malaka oshirish modellari O‘zbekiston sharoitlari bilan solishtirildi[6].

Tadqiqot geografik jihatdan O‘zbekistonga yo‘naltirilgan bo‘lib, global tajribalarni mahalliy kontekst bilan integratsiya qilishga e’tibor beriladi. Ma’lumotlar tahlilida SPSS dasturiy ta’minoti yordamida statistik korrelyatsiya va trend tahlillari amalga oshirildi.

Mehnat bozorining talablari: Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy mehnat bozori nafaqat texnik bilimlarni, balki yumshoq ko‘nikmalarni (soft skills) ham talab qilmoqda. Xalqaro Mehnat Tashkilotining 2023 yilgi hisobotiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha ish beruvchilarning 78% dan ortig‘i quyidagi ko‘nikmalarni muhim deb hisoblaydi[7].

Raqamli savodxonlik – Sun’iy intellekt, ma’lumotlarni tahlil qilish, dasturlash va raqamli platformalar bilan ishlash ko‘nikmalari.

Yumshoq ko‘nikmalar: Jamoaviy ish, muammolarni hal qilish, vaqtni boshqarish, moslashuvchanlik va kommunikatsiya qobiliyatlari.

Tadqiqot ko‘nikmalari: Yangi bilimlarni o‘zlashtirish va doimiy o‘qish qobiliyati.

O‘zbekistonda yoshlarning 62% dan ortig‘i mehnat bozori talablariga to‘liq javob bera olmaydi, bu esa ishsizlik darajasining oshishiga (2024 yilda 9.1%) va iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib kelmoqda[8].

O‘zbekiston ta’lim tizimi nazariy bilimlarga katta e’tibor qaratadi, ammo amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjud:

- Eskirgan dasturlar: Oliy va kasb-hunar ta’limi dasturlari mehnat bozori talablariga sekin moslashmoqda. Masalan, IT sohasida talab qilinadigan Python yoki ma’lumotlar tahlili kabi kurslar faqat cheklangan muassasalarda o‘qitiladi[9].
- Infratuzilma yetishmovchiligi: Kasb-hunar ta’limi markazlarining 70% dan ortig‘i zamonaviy jihozlar bilan ta’minlanmagan[10].
- O‘qituvchilar malakasining pastligi: O‘qituvchilarning 45% dan ortig‘i so‘nggi 5 yil ichida malaka oshirish kurslarida qatnashmagan[11].

Malaka oshirish kurslarining cheklangan qamrovi: 2023 yilda faqat 120,000 nafar kishi malaka oshirish kurslarida qatnashgan, bu umumiy ishchi kuchining 1% dan kamrog‘ini tashkil qiladi[12].

Ish beruvchilar va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikning yetishmasligi: Xususiy sektorning 80% dan ortig‘i ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilmaydi[13].

Yoshlarning motivatsiya darajasining pastligi: Yoshlarning 55% i o‘z-o‘zini rivojlantirishga yetarli motivatsiyaga ega emas, bu iqtisodiy omillar (past ish haqi) va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq[14].

Singapur va Germaniyada qo‘llaniladigan “ikkitomonlama ta’lim” (dual education) modeli muvaffaqiyatli natijalar ko‘rsatmoqda. Bu modelda talabalar nazariy bilimlarni oliygohda, amaliy ko‘nikmalarni esa korxonalarda egallaydilar. Masalan, Germaniyada kasbiy ta’limning 60% dan ortig‘i korxonalar tomonidan moliyalashtiriladi[15].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash va kadrlarning kasbiy mahoratini oshirish uchun tizimli islohotlar zarur. Quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Ta’lim dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish uchun xususiy sektor bilan hamkorlikda yangi kurslar ishlab chiqish. Masalan, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (big data) bo‘yicha dasturlar joriy etilishi mumkin[16].
- Amaliy mashg‘ulotlar va stajirovkalar ulushini oshirish.
- Raqamli platformalar orqali masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish, masalan, Coursera yoki Udemy kabi platformalarni mahalliy kontekstga moslashtirish[17].
- Xususiy sektor bilan birgalikda zamonaviy jihozlangan kasbiy ta’lim markazlarini tashkil etish.
- Ish beruvchilar tomonidan moliyalashtiriladigan malaka oshirish dasturlarini joriy etish, masalan, korxona ichidagi treninglar.
- “Ishga joylashish kafolati” dasturlarini ishlab chiqish, bu orqali talabalar o‘qishni tugatgandan so‘ng darhol ish bilan ta’minlanadi[18].
- Karyera bo‘yicha maslahat berish markazlarini tashkil et BELOW:ish, bu yoshlarga kasb tanlashda yordam beradi.
- Davlat tomonidan grantlar va stipendiyalar ajratish orqali o‘z-o‘zini rivojlantirishni rag‘batlantirish.
- Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarga qaratilgan motivatsion kampaniyalar tashkil etish[19].
- Germaniya va Singapur tajribasiga asoslanib, “ikkitomonlama ta’lim” modelini sinov tariqasida joriy etish. Bu model O‘zbekistonning IT, qurilish va ishlab chiqarish sohalari uchun moslashtirilishi mumkin[20].
- Janubiy Koreyaning “K-Work” dasturiga o‘xshash yoshlarni xorijiy mehnat bozoriga tayyorlash dasturlarini joriy etish[21].

Ushbu takliflar O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, davlat, xususiy sektor va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash va kadrlarning kasbiy mahoratini oshirish O‘zbekiston iqtisodiyotidagi muhim vazifalardan biridir. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ta’lim tizimi va mehnat bozori

o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash, zamonaviy ko‘nikmalarni rivojlantirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali ushbu muammolarni hal qilish mumkin. Global tajribalarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish, xususan, ikkitomonlama ta’lim modelini joriy etish va xususiy sektor bilan hamkorlikni kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Kelgusida davlat siyosati ushbu yo‘nalishlarga ustuvorlik berishi va yoshlarning mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Bank. (2023). Uzbekistan Labor Market and Education System: Analysis and Recommendations. Washington, DC: World Bank.
2. UNESCO. (2022). Global Education Trends and Vocational Development. Paris: UNESCO Publishing.
3. International Labour Organization. (2023). Skills for the Future: Global Labor Market Trends. Geneva: ILO.
4. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. (2024). Yoshlar bandligi statistikasi. Toshkent: Bandlik vazirligi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). Mehnat bozori ko‘rsatkichlari. Toshkent: Davstat.
6. Müller, W., & Shavit, Y. //Dual Education Systems: Lessons from Germany and Singapore. - Journal of Vocational Education & Training, (2023). 75(3), 245-267.
7. International Labour Organization. (2023). Global Skills Outlook. Geneva: ILO.
8. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. (2024). Ishsizlik darajasi tahlili. Toshkent: Bandlik vazirligi.
9. Rahimov A. O‘zbekiston ta’lim tizimidagi IT kurslarining holati // Ta’lim va innovatsiyalar jurnali, (2023).12(4), 56-63.
10. Toshkent viloyati kasb-hunar ta’limi boshqarmasi. Infratuzilma tahlili hisoboti. Toshkent. (2023).
11. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. O‘qituvchilar malakasini oshirish statistikasi. – Toshkent: XTV,2024.
12. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. Malaka oshirish dasturlari hisoboti. – Toshkent. (2023).
13. O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi. Xususiy sektor va ta’lim hamkorligi tahlili. – Toshkent. 2023.
14. Saidov M. O‘zbekiston yoshlarining motivatsiya omillari. *Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali. – (2024). 15(2), 34-42.
15. Euler, D. The German Dual System: A Model for Vocational Training. Berlin: Springer. (2023)
16. Kim, J., Park S. Big Data and AI in Vocational Education // International Journal of Educational Technology, (2023), 10(1). – B89-102.
17. Coursera. Global Trends in Online Learning. Retrieved from https://www.coursera.org.
18. Singapore Ministry of Education. SkillsFuture Program Analysis. Singapore: MOE. – 2023.
19. Lee, K. Motivating Youth for Career Development. //Journal of Career Development, 51(2), (2024). – 123-137.
20. Hoeckel K. Adapting Dual Education to Developing Countries. OECD Education Working Papers, (2023). №. 287.
21. South Korea Ministry of Employment and Labor. K-Work Program: Preparing Youth for Global Markets. Seoul: MOEL. (2023)

INKLYUZIV TA’LIMDA MUSIQA SAVODXONLIGINI OSHIRISH: ZAMONAVIY PEDAGOGIK USULLAR VA STRATEGIYALAR

A.M.O‘rmonjonov
Namangan davlat pedagogika instituti
70111301-Musiqa ta’limi va san’at mutaxassisligi 2-kurs magistranti
azizbekormonjonov2@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqola inklyuziv ta'limda musiqa savodxonligini oshirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik usullar va strategiyalarni tahlil qiladi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi barcha o‘quvchilarga, shu jumladan maxsus ehtiyojlari bo‘lganlarga, teng ta'lim imkoniyatlari yaratishdir. Musiqa savodxonligi esa o‘quvchilarning musiqa asboblarini ijro etish, musiqani tinglash va tahlil qilish kabi qobiliyatlarni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Maqolada musiqa ta'limida differensial yondashuvlar, gamifikatsiya, texnologiyalardan foydalanish va kollaborativ o‘qish kabi zamonaviy pedagogik usullar orqali o‘quvchilarning umumiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko‘rsatishi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maxsus ehtiyojli o‘quvchilarning musiqa ta'limidagi o‘ziga xos ehtiyojlari va ularni qondirish uchun qo‘llaniladigan yondashuvlar ham tahlil etilgan. Maqola musiqa ta'limining inklyuziv usullarini qo‘llashning nafaqat akademik, balki ijtimoiy va hissiy rivojlanishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta'lim, zamonaviy pedagogik usullar, differensial ta'lim, gamifikatsiya, kollaborativ o‘qish, musiqa ta'limi, estetik rivojlanish, ijtimoiy integratsiya, hissiy intellekt.

Аннотация: Данная статья анализирует современные педагогические методы и стратегии, направленные на повышение музыкальной грамотности в инклюзивном образовании. Основная цель инклюзивного образования заключается в создании равных образовательных возможностей для всех учащихся, включая тех, кто имеет специальные потребности. Музыкальная грамотность включает в себя развитие таких навыков, как игра на музыкальных инструментах, слушание музыки и её анализ. В статье рассматривается, как современные педагогические методы, такие как дифференцированный подход, геймификация, использование технологий и совместное обучение, влияют на общее развитие учащихся. Также анализируются особенности потребностей учащихся с особыми потребностями в музыкальном обучении и подходы, которые применяются для их удовлетворения. Статья подчеркивает, что применение инклюзивных методов музыкального образования оказывает положительное влияние не только на академическое развитие, но и на социальное и эмоциональное развитие.

Ключевые слова: инклюзивное образование, современные педагогические методы, дифференцированное обучение, геймификация, совместное обучение, музыкальное образование, эстетическое развитие, социальная интеграция, эмоциональный интеллект.

Abstract: This article analyzes modern pedagogical methods and strategies aimed at improving music literacy in inclusive education. The main goal of inclusive education is to create equal educational opportunities for all students, including those with special needs. Music literacy involves developing skills such as playing musical instruments, listening to music, and analyzing it. The article examines how modern pedagogical methods, such as differentiated approaches, gamification, the use of technology, and collaborative learning, impact the overall development of students. It also analyzes the specific needs of students with special needs in music education and the approaches used to meet these needs. The article emphasizes that the application of inclusive methods in music education positively affects not only academic development but also social and emotional development.

Keywords: inclusive education, modern pedagogical methods, differentiated learning, gamification, collaborative learning, music education, aesthetic development, social integration, emotional intelligence.

Inklyuziv ta'lim – bu barcha o‘quvchilarning, shu jumladan, maxsus ehtiyojlarga ega bo‘lganlar va o‘zgacha qobiliyatlarni talab qiluvchi bolalar uchun ta'lim tizimiga teng huquqli ravishda jalb qilinishi va ular uchun individual ta'lim sharoitlarini yaratish tamoyilidir. Inklyuziv ta'lim nafaqat ta'lim muassasalarida barcha o‘quvchilarni birgalikda ta'lim olish imkoniyati bilan ta'minlashga qaratilgan, balki ularning ijtimoiy

integratsiyasini, emosional va psixologik rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Bu ta'lim modeli, o‘quvchilarni faqat akademik jihatdan emas, balki ijtimoiy va hissiy jihatdan ham rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olib, ular uchun eng maqbul ta'lim sharoitlarini yaratishga imkon beradi.

Musiqa savodxonligi esa musiqa asboblarini chalish, musiqa asarlarini ijro etish, musiqiy tuzilishlarni tahlil qilish, musiqiy hissiyotlarni ifodalash va musiqaning turli janrlarini tushunish kabi ko‘plab komponentlarni o‘z ichiga oladi. Musiqa savodxonligi faqat musiqa ijrosi yoki nazariyasi bilan cheklanmaydi, balki insonning hissiy va estetik rivojlanishiga ham katta ta'sir ko‘rsatadi. Shuningdek, musiqa orqali o‘quvchilarda jamoada ishlash, kommunikatsiya, va o‘zaro hamkorlik kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni ham rivojlantirish mumkin. Musiqa, uning hissiy va psixologik ta'siri orqali, o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, shuningdek, stressni kamaytiradi va ijtimoiy moslashuvni yengillashtiradi.

Inklyuziv ta'limda musiqa savodxonligini oshirish – bu o‘quvchilarning ta'limdagi umumiy muvaffaqiyatini yaxshilash uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin. Musiqa ta'limi o‘quvchilarga nafaqat akademik bilimlar, balki muhim ijtimoiy va hissiy ko‘nikmalarni ham beradi. Maxsus ehtiyojli o‘quvchilarga musiqani o‘rgatish orqali ularning individual imkoniyatlari, qobiliyatlari va xohishlariga mos ravishda ta'lim berish mumkin. Bunda musiqa ta'limining interaktiv va moslashuvchan usullari muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy pedagogik usullar va strategiyalar, masalan, gamifikatsiya, raqamli ta'lim vositalari va kollaborativ yondashuvlar, musiqa savodxonligini oshirishda o‘quvchilarga yanada samarali ta'lim berish imkonini yaratadi.

Inklyuziv ta'limda musiqa savodxonligini oshirishning afzalliklari juda ko‘p. Avvalo, musiqa ta'limi o‘quvchilarni birgalikda ishlashga, jamoa ruhini shakllantirishga, ijtimoiy muloqot va hamkorlikka o‘rgatadi. Musiqaning psixologik ta'siri esa, o‘quvchilarda o‘zini ifoda etish va hissiy intellektni rivojlantirishga yordam beradi. Musiqa, shuningdek, kognitiv jarayonlarni yaxshilaydi, ya'ni xotira, diqqat va tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi. Bu xususiyatlar, maxsus ehtiyojlarga ega o‘quvchilarga ta'lim berishda, ularga ijtimoiy va akademik integratsiya uchun muhim imkoniyatlar yaratadi.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik xususiyatlarini o‘rganish va tadqiq etish juda muhimdir. Yoshlarni oilaga psixologik tayyorlashda oila haqida chuqur bilimlarni va hayotiy tajribalarni o‘rganib boruvchi oila institutlari, oila markazlari va mahalla qumitalari, ta'lim muassasalari ham o‘z javobgarligini oshirib borishini talab qiladi. O‘zbekistonda yiliga o‘rtacha 250-300 ming yangi oila qurilib turibdi, ammo, shu bilan birga, har yili o‘rtacha 45-49 ming ajralishlar ham kuzatilmoqda. Bularga proporsional ravishda negadir ajrimlar sonida ham keskin yuqorilash kuzatilgan. Statistika agentligi 2022

yilda O‘zbekistonda qayd etilgan nikohdan ajralish holatlari haqida ma'lumotini taqdim qildi. Agentlik keltirayotgan raqamlar o‘tgan yilgisi bilan taqqoslanganda 24 foizga oshgani ko‘rinadi.

Hozirgi kuzatishlar natijasiga qaraganda, ko‘pchilik ota-onalar farzandlarini oilali qilish maqsadida mol-dunyo va sep yig‘adilar, sovchilik, qudachilik bordi-keldilarini qiladilar va kattaroq to‘y qilish bilan o‘z burchlarini ado etgan bo‘lib, erkin nafas oladilar. Ammo eng muhim masalalardan biri bo‘lgan narsa - qizlarini kelinlikka, o‘g‘illarini kuyovlikka tayyorlash eslaridan chiqib qoladi. Ming afsuski, ko‘pchilik yoshlar go‘shangaga oila, er-xotinlik hayoti, ularning o‘zaro munosabatlari, haq-huquqlari hamda burch va mas'uliyatlari haqidagi bilimlardan bexabar holda kiradilar. Hammamizga ma'lumki, yoshlar oila qurishning dastlabki kunlaridan kelin-kuyovning yaqinlari, kuyov jo‘ralar, kelin yangalar ularga qanday qilib bo‘lsa ham umr yo‘ldoshini bo‘ysindirishga qaratilgan bachkana odatlarni o‘rgatib borishi ham achinarli holdir. Yoshlarni ota-onalik roliga oldindan tayyorgarlik ko‘rishi haqida fikrlarni berishning o‘zi bizni millatda uyat hisoblanadi-yu, lekin ayrim doiralarda kelinlik va kuyovlikka nomzodlar to‘y kuni g‘arbcha raqs tushishga bir necha oy davomida katta miqdorda mablag‘ to‘plab, alohida dars olishi, mashq qilishlari, yoki sevgi tarixi lahzalarini fotosessiya qilishiga uyalmaymiz. Bu masalalarga alohida psixolog mutaxassislarni jalb qilib e'tibor qaratilishi lozimdir.

Oilaviy hayotga tayyorlashda dastlab yoshlarda oilaviy turmush to‘g‘risidagi tasavvurlarinin aniqlash va ularni to‘g‘ri shakllantirish ta'lim-tarbiyaning muhim tomoni bo‘lib, yoshlarning ota-onalik roliga psixologik tayyorgarlik ko‘rishni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning har tomonlama yetuk shaxs bo‘lishga intilishi, psixologik holatlari, oilaviy munosabatlari, o‘zga jinsga nisbatan moyillikning kuchaygan davri psixologiyasini chuqur anglab yetib, kelgusi hayotlarini poymol qilmasliklari uchun tarbiyaviy tomonlariga ham e'tibor qaratilishi lozim. Kelgusida oilaning mustahkam bo‘lishida yoshlar oila qurishga intilishida dastlab o‘zlarining sihat-salomatligiga qarashi, samimiy munosabatlarni shakllantirishi, sharm-hayosi, iffati, ldob-axloqi, mexnatsevarligi, jamoatchilik o‘rtasida o‘zini tuta bilishi hamda gigiyenik, jinsiy tarbiya masalalarini puxta egallab borishiga bog‘liq.

Muhokama va natijalar: topilmalar yoshlarning ota-ona roliga tayyorgarligida sezilarli bo‘shliqni ko‘rsatadi. Ko‘pgina respondentlar bolaning rivojlanishi va ota-onalarning samarali strategiyalari haqida cheklangan bilimga ega ekanligini ko‘rsatdilar.

Tadqiqotlarning umumiy maqsadi ham oila qurish ostonasida turgan yoshlar va yosh oilalar hayotida duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolarga oqilona yechim topishlarida yordam berish hisoblanadi. Nikohlanuvchi yoshlarni oilaviy hayot psixologiyasi, oila iqtisodi va byudjeti, reproduktiv salomatligi, farzand tarbiyasi, oiladagiTadqiqotlar kuzatishlar natijasidan xulosa qilamizki, yoshlarni ota-onalik roliga psixologik tayyorgarlik ko‘rish uchun faqat bir yoqlama yondashuvlar biz kutgan samaradorlikni oshirib beravermaydi. Yoshlar ota-ona roli, ota-onalik burchi, mas'uliyati hislarini his qila olishi uchun ularda ma'lum darajada amaliy tajribalar, ilmiy tushunchalar talab qilinmoqda. Uning uchun yoshlarda nikoh qurishga munosabati, nikohga tayyorgarligi va nikoh qurish motivlari, oila haqidagi tasavvurlari, qarashlarini to‘g‘ri shakllantirishga yordam ko‘rsatish lozim. Bu o‘z navbatida kelajakdagi oilaning psixologik savodxonligini oshirish maqsadida o‘quv kurslarni kuchaytirish talab qiladi. yoshlarimiz "Men gender guruh vakilaman", "Men bulg‘usi ota-onaman", "Sog‘lom ota-ona - sog‘lom farzand", "Oilada sog‘lom muhit", "Oiladagi shaxslar" kabi har xil tizimli psixokorreksion dasturlar ishlab chiqilishi zarur.

Oilaga psixologik tayyorlash kurslarida yoshlar oiladagi ota-ona roliga hurmat iblan qarashi va er-xotin bir-birlarini yaxshi tushunishi, ishonchi oiladagi asosiy qadriyatlar ekanligini anglab boradi. Zamonaviy oilalar bunga intilishlari kerak mezoni ostida doim yangilangan, innovasion texnologiyalarga boyitilgan ko‘rslar qiziqarli bo‘lishi ham kerak. Chunki, bugungi yoshlarning fikrlashlari o‘tkir, keng va kreativ shaklda rivojlanib bormoqda.

Xulosa. tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, bola tarbiyasiga samarali ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar va hissiy qo‘llab-quvvatlash bilan birlashtirgan ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi.

Xulosa o‘rnida yoshlarimiz ota-onalik roliga psixologik tayyorgarligida oila to‘g‘risidagi barqaror tasavvurlarini va tushunchalarini boyitish, zarur bo‘lgan psixologik bilimlar bilan kuchaytirishga qaratilgan oilaga tayyorlash o‘quv markazlariga ehtiyoj mavjud. Bu tarzdagi o‘quv markazlarda malakali psixologlar faoliyati va o‘quv dasturlar, olib borilayotgan innovasion tadqiqotlarni joriy etish lozim. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ota-onalik rolini tushunishi, ota, onaning rolini bajarish qobiliyati va har bir ijtimoiy

rolga uning ijrochisiga yuklangan mas'uliyatni his qilishi, er-xotin roliga psixologik tayyor bo‘lishini ta'minlaydigan o‘quv kurslar, o‘quv mashg‘ulotlariga zaruratini sezmoqdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. F.M.Qo‘chqarova. Pedagogik konfliktologiya. /darslik/. –T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021. 216 b.[1],[5]
2. Ijtimoiy psixologiya. O‘quv uslubiy majmua . O‘.Shukurova. N.B. Xakimova – GulDU. 2022 – 304 bet [2],[3],[4],[7]
3. Pedagogik konfliktologiya [Matnl: укув кулланма / Ahmedova M. -Toshkent: «Donishmand ziyosi» МЧЖ, 2020. - 304-b.[6]

TALABALARINING KOGNITIV KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

G.A.Amanova
Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogika universiteti talabalarining kognitiv kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga qanday pedagogik sharoitlar yordam berishini aniqlash va unga ta’sir qiluvchi omillarni ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar. Pedagogik shartlar, omillar, motivatsiya, kognitiv kompetensiya.

Аннотатsiя. В данной статье мы рассмотрим, какие педагогические условия способствуют формированию и развитию познавательной компетентности студентов педагогического вуза и факторы оказывающие на нее влияние.

Ключевые слова. Педагогические условия, факторы, мотиватsiя, познавательная компетентность.

Abstract. In this article we will consider what pedagogical conditions contribute to the formation and development of cognitive competence of students of a pedagogical university and the factors influencing it.

Keywords. Pedagogical conditions, factors, motivation, cognitive competence.

Kognitiv kompetensiya – bu shaxsning fikrlash, o‘rganish, xotirada saqlash, muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish va boshqa bilish jarayonlari bilan bog‘liq qobiliyatlari va ko‘nikmalarining majmuasi. Boshqacha qilib aytganda, bu insonning aqliy resurslaridan samarali foydalanish qobiliyatidir. Kognitiv kompetensiya har bir insonning shaxsiy va professional hayotida muhim rol o‘ynaydi. U o‘qishda, ishda muvaffaqiyatga erishishga, kundalik muammolarni hal qilishga va o‘z hayotini yaxshilashga yordam beradi. Kognitiv kompetensiyani rivojlantirish orqali inson o‘zining intellektual salohiyatini oshirishi va hayotda ko‘proq yutuqlarga erishishi mumkin.

Kognitiv kompetensiyani rivojlantirish uchun turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillar shaxsiy, subyektiv, tashkiliy, ijtimoiy va texnologiyaviy xususiyatlarga bog‘liq bo‘lib, talabalarning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Shaxsiy omillar. Nomidan ko‘rinib turibdiki, bu ta’lim jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy xususiyatlaridir, shuning uchun ularni o‘qituvchi va talabaning shaxsiyati bilan bog‘liq omillarga bo‘lish mumkin. Talabaning shaxsiy xususiyati bilan bog‘liq bo‘lgan omillarga qobiliyat, tajriba, o‘quv faoliyatini amalga oshirishga tayyorligi (avvalgi o‘quv jarayonida kognitiv kompetensiyaning rivojlanish darajasi), muloqot qilish qobiliyati, tengdoshlari va o‘qituvchilar bilan muloqot qilish tajribasi, jamoadagi maqomi, universitetga kirish sabablari kiradi. Ushbu turdagi omillarning mavjudligi amalda o‘qituvchiga bog‘liq emasligi sababli, ularni bor deb hisoblash kerak va biz o‘z ishimizda ularni faqat ma’lum ta’lim strategiyalarini tanlashni belgilovchi omil sifatida eslatib o‘tamiz. O‘qituvchining shaxsiy xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan omillarga kasbiy (shu jumladan pedagogik, metodik, madaniy, kommunikativ va boshqalar) kompetentlik, pedagogik uslub va boshqalarni misol qilishimiz mumkin.

Subyektiv omillar. Talabaning kognitiv faoliyatiga va uning kompetensiyalarining rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omil sifatida uning kognitiv faoliyati, munosabatlariga o‘zaro ta’siri va ta’lim jarayonining

boshqa holatlarini subyektiv idrok etishi mumkin. Shaxsiy omillardan farqli o‘laroq, subyektiv omillar ta’lim jarayonini maqsadli boshqarish va o‘quvchi bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish orqali yaratilishi mumkin. Bu yerda shaxsning kognitiv faoliyatining subyektiv manzarasi asosiy hisoblanadi: shaxsiy g‘oyaning mavjudligi, o‘z faoliyati natijalarining ijtimoiy ahamiyatini anglash, jarayondan zavqlanish, o‘z harakatlarini sinovlar, vazifalar va funksiyalar sifatida idrok etish orqali bu faoliyatni ta’minlaydigan o‘zaro ta’sirning mavjudligi. Talabaning muayyan ta’lim muammolarini hal qilishga tayyorligi, o‘qitishning oldingi bosqichida erishilgan kognitiv va boshqa kompetensiyalarining rivojlanish darajasi, bilimlar, ko‘nikmalar, o‘quv faoliyati tajribasi va unga bo‘lgan munosabat ustuvor hisoblanadi.

Tashkiliy omillar ta’lim va tarbiyaning bevosita sharoitlarini, talabalar faoliyatini tashkil etish xususiyatlari va mazmunini ifodalaydi. Ushbu omillarga ta’lim faoliyati mazmuni va tashkil etilishi, shaxslararo munosabatlar, jamoadagi muloqot, talabalarning yashash sharoitlari, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi munosabatlar, ta’lim muassasasining atrof-muhit – jamiyat bilan o‘zaro munosabatlari kiradi.

Kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishda ko‘rib chiqiladigan omillarning aksariyati aynan ushbu turga tegishli: birinchi navbatda, o‘quv jarayonini shunday tashkil etish talabalarning mustaqil ishlashi samarali bo‘lishiga va jamoada qulay psixologik muhitni yaratilishiga olib keladi.

Kognitiv faoliyatning kreativlik – reproduktivlik, o‘ziga yoki o‘zidan tashqariga yo‘nalganlik, murakkablik – soddalik, jamoaviy ahamiyati va b.q. xususiyatlari ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shunday qilib, tashkiliy va faoliyat xususiyatlariga, kognitiv jarayon ishtirokchilarining tarkibi, uni tashkil etish usullari: faoliyatning birgalikdagi va individuallik darajasi va ularning o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek, ushbu faoliyat subyektining mustaqillik darajasi kiradi.

Pedagogik faoliyat bilan bog‘liq o‘quv-bilish jarayonini boshqaruvchi omillar:

• talabalar faoliyatini boshqarish (o‘quv jarayoni mazmuni, shakli, o‘quv jarayonini tashkil etish va b.q.);

• qulay muhitni yaratish, shaxslararo munosabatlarni, talabalarning kundalik hayotini boshqarish;

• ta’lim muassasasining tashqi muhit bilan o‘zaro aloqalarini boshqarish;

• “ustoz-shogird” o‘zaro munosabati;

• talaba uchun o‘quv va bilish faoliyatining subyektiv ahamiyatini oshirishga yordam beradigan pedagogik faoliyat;

• talabalarni tanlash va saralash (kirish (ijodiy) imtihonlar, o‘qishdan chetlashtirish).

Biz pedagogik (boshqaruv) faoliyatning diagnostika, rejalashtirish, tashkil etish, tahlil qilish kabi elementlari haqida gapirishimiz mumkin. Binobarin, pedagogik shart-sharoitlarning to‘rtinchi turi bu tarbiya metodlari va pedagogik texnologiyadir.

Tashkiliy va shaxslararo omillarga ta’lim muassasasidagi ichki muhitning xususiyatlari, shuningdek, ta’lim jarayoni ishtirokchilarining shaxslararo munosabatlari holatiga taalluqli barcha narsalar (o‘qituvchi va talaba munosabati, talabalar o‘rtasidagi munosabatlar) kiradi. Ushbu komponent insonparvarlik darajasi, mustaqillik, ijodkorlik, talabalarning tarkibi (yoshi, jinsi, ijtimoiy holati) kabi xususiyatlarga ega.

Ijtimoiy omillar ta’lim muhitining atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sirini o‘z ichiga oladi: talabalar va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari talabalari uchun, masalan, bu universitetning nufuzi darajasi, hozirgi kunda mutaxassislikka bo‘lgan talabning ko‘pligi, maktab, kollej, litseylar uchun universitet tomonidan taqdim etilgan qo‘shimcha ta’lim, ijtimoiy va kasbiy imkoniyatlar bo‘lishi mumkin.

Axborot-texnologik omillar ta’lim jarayonining resurslar ta’minotini, kadrlar bilan ta’minlashni (o‘qituvchilarning kasbiy fazilatlari, talabalarning kognitiv faoliyatini moddiy ta’minlashni (uskunalar, o‘quv materiali va boshqalar), o‘quv jarayoni uchun me'yoriy-metodik dasturiy ta’minotni, o‘quv jarayonini PR qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi.

Ushbu omillar talabaning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki ular talaba fikrlash qobiliyatlari, muammolarni hal qilish va yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishda faol ishtirok etishni ta’minlaydi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Зеер Э.Ф., Шахматова Н. Личностью ориентированные технологии профессионального развития специалиста. - Екатеринбург, 1999. –С. 58.

2. Иванов Д.И. Компетентности и компетентностный подход в современном образовании/ Д.И. Иванов // Воспитание. Образование. Педагогика.-2007.-№6(12).

3. Raximov Z. Pedagogik kompetentlik ta’lim jarayoni rivojlanishining muhim omili sifatida. https://cyberleninka.ru/
4. Хуторской, А.В. Развитие одарённости школников. Методика продуктивного обучения. Пособие для учителя –М.: Гуманит. изд. сентр ВЛАДОС, 2000. – 320 с

TALABALARDA UCHRAYDIGAN STRESSLI HOLATLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH IMKONIYATLARI

J.B.Majidov
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jizzax davlat pedagogika universiteti **majidov-jdpi@mail.ru**

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda uchraydigan stress holati va uni bartaraf etish yuzasidan ayrim mulohazalar keltirib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar:stress,talaba, intellekt,ijtimoiy intellekt, stressni korreksiyalash.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamon taraqqiyoti o‘z navbatida informatsiya oqimining keskin oshib borishi bilan harakterlanadi. Axborotlar oqiminng va texnk taraqqiyotning jadallashuvi jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib borishi bilan birgalikda insonning yangicha sharoitga moslashib borishini ham talab etmoqda. Bu o‘z navbatida inson psixologiyasida mavjud sharoitga nisbatan yangicha reaksiyasiyani vujudga keltirib, xulq-atvorda ham namoyon bo‘lmoqda. Mana shunday psixologik holatlardan biri stress holatidir. Stress inglizcha (stress) so‘zidan olingan bo‘lib, bosim, zo‘riqish,tanglik degan ma’nolarni anglatadi. Asabiylik turli jismoniy va aqliy yuklamalarning xaddan oshib ketishi, xavfli vaziyat tug‘ilgan paytlarda, zarur choralarni zudlik bilan topishga majbur bo‘lganda vujudga keladigan ruhiy holatdir.

Stress kishining o‘ta faol yoki o‘ta sust harakatida ifodalanadi. Hissiy zo‘riqish holatida individning hatti-harakati kishi nerv tizimining tipiga, nerv jarayonlarining kuchliligi yoki ojizligiga jiddiy ravishda bog‘liqdir.

Yu. V. Shcherbatix tomonidan o‘tkazilgan tajribalarda stress va boshqa hissiy zo‘riqishlar insonning yozuviga ham ta’sir ko‘rsatishini isbotladi. Masalan, yomon kayfiyat ta’sirida harflar orasidagi masofa kengayib, harflarning eniga kattalashib ketishiga ta’sir etadi. Yaxshi kayfiyatda esa kishining yozuvi mayda harflar bilan, chiroyli holda yoziladi.

O‘quv faoliyatiga xos hissiy zo‘riqishlar o‘smirlarning fikricha, ish qobiliyatining pasayishi va charchoqning ortishi bilan bog‘liq. Hissiy zo‘riqishlarning salbiy ta’siri shuningdek, uyquning buzilishi, behuda shoshilish, vaqtning yetishmasligida ham namoyon bo‘ladi.

Ish qobiliyatining pasayishi va uyquning buzilish darajasi ko‘plab ob’ektiv va sub’ektiv omillar ta’siriga bog‘liqdir.

Ba’zi mualliflar tomonidan stress tarkibiga kiruvchi hissiy zo‘riqishlar paytida namoyon bo‘ladigan xulq-atvor reaksiyalarining quyidagi tasnifi keltiriladi:

- impulsiv shakli – haddan ziyod qo‘zg‘aluvchanlik, tormozlanish faolligining pasayishi, xato va shoshilinch harakat;
- tormozlovchi shakli – asab tizimi zaxirasining pasayishi hisobiga himoyalovchi tormozlanishning kuchayishi;
- generalizatsiyalovchi shakli – kutilmagan harakatlar.

Stress vaqtida odatda, intellektual faoliyatning barcha sohalari – hatto xotira va diqqat ham o‘zgarishi mumkin.

Diqqat ko‘rsatkichlariga xos buzilishlar, eng avvalo, katta yarim sharlar po‘stloq qismida hissiy zo‘riqishni vujudga keltirgan omil bilan bog‘liq markaz atrofida vujudga kelgan dominanta bilan bog‘liq. Bunda muhim ob’ektlar ustida diqqatning to‘planishi qiyinlashadi, tez chalg‘ish kuzatiladi.

Ongning doimo hissiy zo‘riqishni vujudga keltirgan sabablarini tahlil qilish bilan bandligi, undan chiqish yo‘llarini axtarish xotira ko‘lamini toraytiradi, zarur materialni qayta esga tushirishni qiyinlashtiradi.

Shuningdek, hissiy zo‘riqishlar paytida ikkita yarim sharning o‘zaro ta’sirining o‘zgarishi ham mumkin, ya’ni “emotsional” – o‘ng yarim shar “mantiqiy” – chap yarim shardan ustun bo‘ladi. Aqliy faoliyatning susayishi stressni vujudga kelishiga ta’sir ko‘rsatgan vaziyatdan chiqish yo‘llarini topishni qiyinlashtiradi.

V.L. Marishuk va V.I. Yevdokimovlarning yozishicha, stress vaqtida aqliy jarayonlarga xos buzilishlar dominantaning fiziologik tushuncha ekanligidan dalolat beradi. Hissiy zo‘riqish vaqtida salbiy induksiya qonuniga ko‘ra dominanta boshqa qo‘zg‘alish o‘chog‘ini o‘chiradi.

Stressning intellektual faoliyatdagi belgilari:

Diqqat – to‘planishi qiyinlashadi, tez chalg‘iydi, ko‘lami torayadi.

Tafakkur – mantiqiylikning buzilishi, tarqoqligi, qaror qabul qilishning qiyinlashuvi, ijodiy imkoniyatlarning pasayishi.

Xotira – operativ xotiraning yomonlashuvi, qayta esga tushirishning qiyinlashishi.

Hissiy zo‘riqishlar organizmdagi barcha fiziologik jarayonlarga – hazm qilish, qon aylanishi, nafas olish tizimi faoliyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Tortinchoq, odamovi, uyatchan, pessimist, asab tizimi kuchsiz, introvert kishilarda stress bilan bog‘liq psixosomatik o‘zgarishlar boshqalarga nisbatan yaqqol ifodalanadi.

Hissiy zo‘riqishlar inson psixikasining turli jabhalarini qamrab olishi mumkin. Bu, eng avvalo, umumiy hissiy fonda namoyon bo‘ladi, ya’ni g‘amgin, ma’yus, pessimist bo‘lib qoladi. Uzoq muddat davom etgan stress ta’sirida inson normal holatdagiga nisbatan behalovat, muvaffaqiyatga nisbatan ishonchi sust bo‘lib qoladi.

O‘quv faoliyati bilan bog‘liq stresslarni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, kelajakda bo‘ladigan holatlar – qo‘rqish, stressning yuqori darajadagi tajovuzkorlik, o‘ziga nisbatan ishonchsizlik, depressiv (tushkun) kayfiyat, tinchlik bermaydigan fikrlar, o‘zini ojiz his qilish kabi ko‘rinishlarida namoyon bo‘lishi mumkin.

Imtihon bilan bog‘liq stresslar o‘rta umumta’lim maktabi o‘quvchilari, ayniqsa, oliy maktab talabalari psixik zo‘riqishlari ichida markaziy o‘rinda turadi. So‘nggi yillarda o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, imtihon stressi o‘smirlarning asab tizimi, yurak-qon aylanish tizimi va immun tizimi faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Boshqa bir tadqiqotda aniqlanishicha, imtihon stressi kofein qabul qilish bilan qo‘shilsa o‘smirlarda qon bosimining keskin ko‘tarilishiga olib kelishi mumkin. Uzoq davom etuvchi va kuchli hissiy zo‘riqishlar vegetativ nerv sistemasining simpatik va parasimpatik bo‘limlarini faollashtirib yuboradi.

Imtihonlarga tayyorgarlik davridagi noxush omillarga quyidagilar kiradi:

- jadal aqliy faoliyat;
- mushaklar tizimidagi zo‘riqishlar;
- harakat faolligining cheklanishi;
- uyqu tartibining buzilishi;
- o‘smirlar ijtimoiy mavqeining o‘zgarish ehtimoli bilan bog‘liq hissiy zo‘riqishlar.

Bularning barchasi organizm normal hayot faoliyatini ta’minlovchi vegetativ nerv sistemasini haddan ziyod zo‘riqishiga olib keladi. Imtihon vaqtida yurak qisqarishlari chastotasi oshadi. Arterial bosim ortadi. Hissiy va psixoemotsional zo‘riqishlar darajasi ortadi. Imtihonlarni topshirib bo‘lgandan so‘ng bu ko‘rsatkichlar normaga darrov qaytmaydi. Buning uchun bir necha kun vaqt talab qilinadi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan aniqlanishicha, imtihon stressi talabalar salomatligiga xavf tug‘dirishi ham mumkin. O‘z navbatida, imtihon stressi har doim ham zarar keltiruvchi distress darajasiga o‘tavermaydi. Ba’zi vaziyatlarda psixologik zo‘riqishlar o‘quvchining o‘z oldiga qo‘ygan o‘quv vazifalarini hal etish uchun imkoniyatlarini mobilizatsiya qilishga yordam beradi. Shuning uchun ba’zi o‘ta ta’sirlanuvchan o‘quvchilarda uni ta’sirini kamaytirish, korreksiyalashga to‘g‘ri kelsa, inert, kam motivlashgan o‘quvchilarda uni kuchaytirish kerak bo‘ladi. Imtihon stressi darajasini korreksiyalashni ko‘plab vositalari mavjud – ular: farmakologik preparatlar, psixik o‘z-o‘zini boshqarish, mehnat va dam olishni optimizatsiyalash usullaridir.

Talabalarda o‘qiv yili yakunida ayniqsa imtihon paytida frustratsiya holatining yuzaga kelishi ham stresslarni chaqiradi. Frustratsiya “frustration” so‘zidan olingan bo‘lib, rejani barbod bo‘lish, fikrni, g‘oyani yo‘qotish degan ma’nolarni anglatadi ya’ni muvaffaqiyatsizlikka uchragandagi jaroxatlantiruvchi xolatni bildiradi. Imtihondagi muvafaqqiyatsizliklar ko‘pincha hissiy emotsional sohada va hulq-atvorda

nomoyon bo‘ladi. Masalan talaba imtixonda yetarlicha natijani qo‘lga kirita olmasa, atrofdagilarga nisbatan serjahl, aybni birovdan ahtaradigan bo‘lib qoladi.

Stessni haqida qanchalik ko‘p bilmaylik, lekin uning yechimi borasida ko‘pchilik aniq bir to‘xtamga kelishi va mavjud vaziyatni o‘nglashga kirishishi har doim ham oson kechavermaydi.

Stressli holatlarni bartaraf etish borasida fikr yuritganda uchta asosiy yo‘lni yodda tutish lozim bo‘ladi. Bular:

- uyqu;
- jismoniy tarbiya;
- ovqatlanish.

Yuqoridagi sanab o‘tilgan stressni yengish yo‘llaridan unumli foydalanib, uyqumizni meyorga keltira olsak, jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishni kun tartibiga aylantira olsak, ovqatlanish rejimini yo‘lga qo‘yaolsak stressni yengish borasida amaliy qadamlar tashlash bilan birgalikda, o‘zimizga ishonchimiz ortib borishiga ham erishamiz.

Fransuz psixologi J.Piajje “intellekt” insonning jamiyatga moslashuvida asosiy quroldir deb ta’kidlagan edi. Bugungi globallashgan zamonda zamonda talabalarda ijtimoiy intellektning rivojlantirish ham stressli vaziyatlardan oson chiqishga katta yordam beradi. Ijtimoiy intellektning asosiy vazifalaridan biri uzoq muddatli o‘zaro munosabatlarni shakllantirishdir. O‘zaro munosabatlarning darajasi va xarakterini tushungan holda kelajakda bir-biriga ijobiy ta’sir o‘tkazish va munosabatlarni mustahkamlashdan iboratdir.

Ijtimoiy intellekt muayyan vaqt uchun asab-psixik holatni, ijtimoiy muhit omillarini va ijtimoiy munosabatlarning qanchalar muvaffaqiyatliligini aniqlaydi, shuningdek, uni energiya konsunerasiyasini talab qiluvchi, emosional zo‘riqish, stress noqulayliklari, favqulodda holatlarda hamda shaxs inqirozi holatlarida saqlash imkoniyatini beradi.

Ijtimoiy intellektning favqulotda yuz beradigan inqirozlar, uzoq cho‘ziladigan stresslar, o‘z-o‘ziga bo‘lgan hurmatni tushunib yetishi holatlarida yordam beruvchi mobilizasion funksiyasi juda muhim hisoblanadi. Ijtimoiy intellekt insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda sodir bo‘ladigan hodisalarni prognoz qilish va ularga tayyor turish imkoniyatini beradi hamda psixologik zo‘riqishlarga bo‘lgan bardoshni mustahkamlaydi.

Umuman olganda stressli holatlar shaxsning hayotiy qiyinchiliklarga nisbatan tajribalarini oshib, irodasi toblasa, ayrim holatlarda esa turli xil zararli odatlarga berilib ketishini ham ta’minlashi mumkin. Bu eng avvalo shaxsning nerv dinamik hususiyatlariga bog‘liq holda kechsada, bizning vazifamiz talabalarga mazkur vaziyatga nisbatan pozitiv ko‘z bilan qarash, ya’ni o‘qituvchilarning qattiqqo‘lligi va talabchanligi, tanbehi bizning yangi bilimlarni egallashimizga kelajakda munosib kadr bo‘lib yetishimizga yordam beradi degan aqidani singdirib borish bilan bir qatorda ularning sotsial intellektini ham rivojlantirib borishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xaydarov F.I. Stress yoki ruhiy muvozanatni saqlash osonmi?(o‘quv metodik qo‘llanma) Toshkent-2003

2. Шербаков Ю.В. Психология стресса и методы его коррекции. –П., 2006

3. Т.М.Адизова. Психокорреция. Учебное пособие. Т., 2005, 70-б.

4.Majidov, J. B. (2022). SOTSIAL INTELLEKT VA UNING INSON HAYOTIDAGI O ‘RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(2), 608-613.

5.Majidov, J. (2020). Social intelligence How a set of abilities, ensuring the adaptation of the individual in society. Archive of Scientific Publications JSPI.

6.Bahrom o‘g‘li, B. B. (2025). TALABALARDA IJTIMOIY QO ‘LLAB-QUVVATLASH DARAJASI VA YOLG‘IZLIK HISSI O‘RTASIDAGI O ‘ZARO BOG ‘LIQLIK. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari, 17(1), 345-350.

VOKAL ASOSLARI NAZARIYASI

I.N.Po‘latjonova
NamDPI Musiqa ta’lim yo‘nalishi 1-kurs MUS-BU-24 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada vokal san’atining kelib chiqishi, rivojlanishi hamda uning turli guruhlarga bo‘linishi yozma manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: vokal, opera, ovoz, parda, qism, tonallik, xonanda, konsert.

Xonandalik ovozi tushunchasi - Xonandalik ovozi insonning kuylash qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lib, nutqdan farqli ravishda aniq balandlikka ega va uzoq davom etishi mumkin. Ovoz xonandalik san’atida asosan unli tovushlarda namoyon bo‘ladi. Inson xonandalik ovozidan bolalikdan boshlab, musiqiy eshitish qobiliyati va ovoz apparati rivojlanish darajasiga qarab foydalanishni boshlaydi. Xonandalik ovozi maishiy (qo‘yilmagan) va kasbiy (professional qo‘yilgan) turlarga ajratiladi. Ovozni "qo‘yish" deb, uni professional qo‘llashga moslashtirish va rivojlantirish jarayoni tushuniladi. Ovozning yorqinligi, go‘zalligi, jarang kuchi, davomiyligi, diapazon kengligi, bardoshliligi va nozikligi kabi sifatlar ko‘p jihatdan ovoz apparatining tabiiy xususiyatlari bilan belgilanadi hamda ovozni rivojlantirish orqali mukammallashtirilishi mumkin.

Ovoz opera, konsert kuylash, xalq qo‘shiqlari, estrada kuylash va ularni shakllantirish uchun qo‘yiladi. Xonandalik ovozining muhim jihatlaridan biri – tembr go‘zalligi va tovushni uzoq tutib tura olish qobiliyatidir. Opera-konsert ijrosi uchun mo‘ljallangan ovoz katta zallarda yaxshi eshitilishi, ya’ni "parvozga ega" bo‘lishi lozim. Metallik va parvozlilik xususiyatlariga ega ovozlar ovoz spektrining yuqori obertonlari bilan ajralib turadi. Ovozning muhim sifati – uning kuchi bo‘lib, opera kuylash vokal kuylashga qaraganda ko‘proq kuch talab qiladi, chunki katta zalni to‘ldirishga va orkestr jo‘rligi fonida eshitilishga qodir bo‘lishi lozim.

Vokal ijrochiligi va uning rivoji. Romanslar – bitta ovoz uchun yozilgan hamda turli mavzu, xarakter va tuzilishdagi vokal-kamera asarlari bo‘lib, bu janr jahon va o‘zbek kompozitorlari ijodida keng rivojlangan. O‘zbekiston kompozitorlari xalq qo‘shiqlari ohangida romanslar yaratib, janrni yanada boyitdilar. Jumladan, Alisher Navoiy, Furqat, Muqumiy g‘azallari asosida Sulaymon Yudakov, Mutal Burxonov, Muxtor Ashrafiy, T. Sodiqov kabi kompozitorlar tomonidan romanslar yaratilgan. Vokal uchun mo‘ljallangan musiqiy drama va operalardagi ariyalar keng ko‘lamli, lirik va dramatik mazmunga ega asarlar hisoblanadi. Xonandalar vokal-texnik bilimlarini mukammal egallashlari uchun kosta-abdominal (aralash nafas), yumshoq hujum mashqi, aniq intonatsiya, artikulyatsiya, legato, stakkato, harakatchanlik, kantilena, arpedjio, filirovka kabi uslublarni o‘rganishlari lozim.

Ovozning hosil bo‘lish jarayoni. Vokalda ovoz hosil qilish jarayoni, nafas, ovoz tarbiyasi juda muhim hisoblanadi. Har qanday elastik jism tebranganda atrof-muhitdagi zarrachalarni harakatga keltiradi va tovush to‘lqini hosil bo‘ladi. Inson tanasida ovoz burmalari shunday elastik a’zo hisoblanadi. Nutq va qo‘shiq esa ovoz burmalari va nafasning o‘zaro aloqasidan hosil bo‘ladi. Qo‘shiq aytish jarayoni nafas olish bilan boshlanadi. Havo burun va og‘iz bo‘shlig‘i, bo‘g‘iz, traxeya, bronxlar va o‘pkadan o‘tadi. Keyin esa bosh miya asab signallari ta’sirida ovoz burmalari yopiladi va nafas chiqarish boshlanadi. Yopilgan ovoz burmalari chiqayotgan havo yo‘lini to‘sib, uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi. Vokal ijrochiligi bilan shug‘ullanuvchilar nafas olish mexanizmini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishlari shart. Shu sababli mashhur vokal pedagogi F. Lamperning quyidagi fikri muhim ahamiyatga ega:

"Qo‘shiqchi ovoz tarbiyasini ovoz bilan emas, aql bilan ishlashdan boshlashi kerak. Agar ovoz noto‘g‘ri ishlatilib, charchatilsa, uni tiklashning iloji bo‘lmaydi."

Vokal texnikasida o‘mrov nafas olish, ko‘krak nafas olish va qorin nafas olish kabi turlari mavjud. O‘mrov nafas olish juda yuzaki bo‘lib, vokal san’ati uchun yaroqsizdir. Qo‘shiq aytishda ko‘krak va qorin nafas olish usullari keng qo‘llaniladi.

Rezonatorlar va ularning ahamiyati. Rezonator – ovoz burmalari va nafasning o‘zaro aloqasi natijasida vujudga keladigan tovushlarni kuchaytiruvchi akustik bo‘shliqdir. Tovushlar 80% atrofidagi energiyasini o‘rab turgan to‘qimalar orqali yo‘qotadi, qolgan qismi esa rezonator bo‘shliqlari orqali kuchayadi.

Rezonator turlari:

Yuqori rezonatorlar – bo‘g‘iz va bosh bo‘shliqlari.
Ko‘krak rezonatori – ovozga hajmlilik va jaranglilik beradi.
Xonandalik san’atida ijro uslublari. Xonandalik ijrochiligi uch turga bo‘linadi:
Binnigiy – sun’iy usul bo‘lib, ovozlarni dimog‘da sado berish orqali ifodalash.
Gulligi – tomoq kuchaytirilib, qiyinchilik bilan talqin etiladigan ijro uslubi.
Ishkami – eng yoqimli va sifatli ijro bo‘lib, kuchli tembr, keng diapazon va tushunarli, jarangdor ovoz bilan ifodalanadi.

Xulosa. Xonandalik san’ati – inson ovozining tabiiy imkoniyatlarini to‘g‘ri shakllantirish va rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. Har bir xonanda o‘zining individual ovoz tembriga ega bo‘lishi lozim. Shuning uchun ovozni professional tarzda rivojlantirish, nafas nazorati va rezonatorlardan to‘g‘ri foydalanish vokal ijrochiligining muhim jihatlaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Vokal asoslari", Toshkent, 2008.
2. "Vokal texnikasi asoslari", Toshkent, 2011.
3. "Vokal va zamonaviy musiqa", Buxoro, 2020.

TURLI XALQLARNING MUSIQIY AN’ANALARI

I.N.Po‘latjonova
NamDPI Musiqa ta’lim yo‘nalishi 1-kurs MUS-BU-24 guruh talabasi

Anotatsiya: Musiqa xalqlarning madaniy o‘ziga xosligi va tarixiy rivojlanishini aks ettiruvchi muhim san’at turidir. Har bir xalqning musiqiy an’analari o‘ziga xos melodiya, ritm, cholg‘u asboblari va ijro usullariga ega bo‘lib, milliy hamda etnik identitetni shakllantiradi. Turli xalqlarning musiqiy an’analari ko‘pincha diniy marosimlar, folklor va ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog‘liq.

Kalit so‘zlar: turli xalqlar musiqasi, musiqiy ijro, xalq musiqasi, musiqa va madaniyat, musiqiy an’analari.

Kirish. O‘rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati azaldan o‘ziga xos va boy merosga ega bo‘lib, bu hududning tarixiy va madaniy aloqalari asrlar davomida shakllangan an’analar bilan boyigan. Ushbu hududda yashovchi turli xalqlarning musiqa san’ati ularning turmush tarzi, diniy e’tiqodlari va tarixiy rivojlanish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq. Musiqa xalqlarning madaniy o‘ziga xosligini ifoda etuvchi va boshqalarga tanituvchi muhim vositadir. Shu sababli, turli an’anaviy janrlar va ijrochilik uslublari shakllangan. Mazkur maqola O‘rta Osiyo xalqlarining musiqiy madaniyatidagi o‘zaro integratsiyaning ahamiyati, rivojlanish bosqichlari hamda bu jarayonning zamonaviy musiqiy san’atga ta’sirini chuqur o‘rganishni maqsad qiladi.

Asosiy qism. Turli xalqlarning musiqiy an’analari har bir millatning madaniy merosi, tarixiy tajribasi va ijtimoiy muhitini aks ettiradi. Musiqa nafaqat estetik zavq bag‘ishlovchi san’at turi, balki xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlovchi, ularning hayot tarzi, qadriyatlari va urf-odatlarini ifodalovchi kuchli vositadir. Quyida dunyoning turli xalqlari musiqiy an’analari haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

O‘zbek musiqasi o‘zining an’anaviy maqom san’ati bilan mashhur bo‘lib, unda tonlar va ritmlar aniq tartibda joylashgan. Maqom — ijrochining musiqiy ohang va qo‘shiqlarni o‘ziga xos tarzda boshqarish san’atidir. Shuningdek, o‘zbek xalq musiqasida shashmaqom, xalq qo‘shiqlari, instrumental ijro va raqslar muhim o‘rin tutadi.

Yapon musiqasi minimalizm va tabiiy tovushlarga asoslangan. Xalq musiqasi asosan shamisen, koto va shakuhachi kabi cholg‘u asboblari bilan ijro etiladi. Gagaku — yapon saroy musiqasi bo‘lib, u an’anaviy marosimlar va voqealar uchun ishlatiladi. Yapon musiqasi estetik tamoyillar va ohangning ma’nosiga katta e’tibor qaratishi bilan ajralib turadi.

Afrika musiqasi o‘zining ritmik boyligi bilan mashhur. Afrikaliklar musiqada vokal, ritm va instrumental kompozitsiyalarni kuchli ifodalaydi. Musiqa ijtimoiy va diniy marosimlarda hamda xalq raqslarida muhim rol o‘ynaydi. Djembe, bongolar va taqirlar kabi urib chalinadigan cholg‘u asboblari ritmik struktura va ohangni shakllantirishda asosiy o‘ringa ega.

Yevropa musiqasi, ayniqsa, klassik musiqa, asrlar davomida rivojlanib, turli uslub va janrlarni o‘z ichiga olgan. Simfoniyalar, opera, orkestr asarlari va kameralar ushbu musiqiy merosning ajralmas qismidir. Ludwig van Beethoven, Johann Sebastian Bach va Wolfgang Amadeus Mozart singari bastakorlar Yevropa musiqasining yorqin vakillaridandir.

Hind musiqasi an’anaviy raga tizimi bilan mashhur. Raga — muayyan kayfiyat va holatni ifodalovchi melodik tuzilma. Hind musiqasi asosan vokal va instrumental shakllarda bo‘lib, sitar, tabla kabi asboblar bilan ijro etiladi. Hind klassik musiqasi bilan bir qatorda, Bollywood musiqasi ham katta mashhurlikka ega.

Turk musiqasi xalq musiqasi va maqom san’ati bilan mashhur. Ushbu musiqada turk xalqlarining o‘ziga xos harmoniyalari, tembrlari va vokal uslublari aks etadi. Ney, tanbur, saz kabi cholg‘u asboblari turk musiqasining asosiy qismidir. Turk musiqasi Yevropa va Osiyo xalqlari musiqasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Lotin Amerikasi musiqasi jazz, samba, salsa, tango kabi jonli va jo‘shqin janrlardan iborat. Ushbu musiqalar ko‘pincha raqs bilan uyg‘unlashgan bo‘lib, ularda tezkor ritmlar va o‘ziga xos melodiyalar mavjud. Ushbu musiqalar ispan, afroamerikalik va mahalliy xalqlarning madaniy merosidan shakllangan.

Arab musiqasi maqom tizimiga asoslangan bo‘lib, unda murakkab ritmik va melodik strukturalar mavjud. Nay, ud, qanun kabi cholg‘u asboblari arab musiqasida keng qo‘llaniladi. Arab musiqasi asosan diniy marosimlar va festivallarda muhim o‘rin tutadi.

Xulosa. Turli xalqlarning musiqiy an’analari har bir millatning ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Ular nafaqat o‘z xalqining madaniy ifodasi, balki xalqlararo aloqalar va madaniy o‘zaro ta’sirning muhim qismidir. Musiqa xalqlarning tarixiy tajribalarini, turmush tarzini va bugungi madaniy o‘zgarishlarini mujassamlashtirgan betakror san’at turidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karomatov, F. (1987). O‘zbek xalq musiqasi tarixi. Fan nashriyoti.
2. Sagdullayev, A. (2001). O‘zbek mumtoz musiqa merosi. Toshkent: Sharq.
3. Zokirov, M. (1989). Sharq musiqa an’analari va ularning taraqqiyoti. Toshkent: Fan.

MASOFAVIY TA'LIMDA AKADEMIK SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH VOSITASI SIFATIDA AUTOPROCTORING TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI VA MUAMMOLARI

M.K.Saidov.[1], U A.Rustamov[2]
[1]Computer Science teacher at Bukhara University of Innovation, E-mail: umid.rustamov@bui.uz
[2] Computer Science teacher at Bukhara University of Innovation, E-mail: mehriddin.saidov@bui.uz

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot masofaviy ta'limda akademik halollikni ta'minlash uchun qo‘llaniladigan autoproctoring texnologiyalarining samaradorligi va muammolarini o‘rganadi. COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta'lim modellariga o‘tilishi bilan akademik halollikni ta'minlash muammosi yanada dolzarblashdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy autoproctoring tizimlari akademik halollikni ta'minlashda yuqori natija ko‘rsatayotgan bo‘lsa-da, texnologik, huquqiy, psixologik va pedagogik xarakterdagi bir qator muammolar mavjud. Autoproctoring tizimlarining texnologik imkoniyatlari va pedagogik yondashuvlar o‘rtasidagi muvozanatni ta'minlash masofaviy ta'limda akademik shaffoflikni oshirishning eng samarali yo‘li ekanligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: masofaviy ta'lim, autoproctoring, akademik halollik, onlayn baholash, nazorat tizimlari, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi.

Kirish. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ta'lim sohasini tubdan o‘zgartirdi, ayniqsa COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta'lim modellariga o‘tilishi natijasida. Masofaviy ta'lim modellari ta'lim olishning yangi imkoniyatlarini taqdim etish bilan birga, akademik halollikni ta'minlash borasida qator muammolarni keltirib chiqardi [1]. Bu vaziyatda autoproctoring texnologiyalari masofaviy baholash jarayonlarida akademik halollikni ta'minlashning muhim vositasi sifatida qo‘llanila boshlandi.

Autoproctoring (avtomatlashtirilgan kuzatuv) tizimlari talabalarning imtihon jarayonida xatti-harakatlarini sun'iy intellekt, mashinali o‘qitish algoritmlari va kompyuter ko‘rish texnologiyalari yordamida kuzatish va tahlil qilish orqali akademik qoidabuzarliklarni aniqlashga mo‘ljallangan dasturiy yechimlaridir [2]. Bu tizimlar veb-kamera orqali talabalarning yuz harakatlarini, ko‘z qorachig‘i harakatini, muhitni, fon shovqinini, klaviatura va sichqoncha harakatlarini kuzatib boradi, shuningdek ko‘pincha ekranni ham yozib oladi.

Akademik halollik ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, bilimlarni baholashning ishonchliligi va haqiqiyligi, shuningdek, ilmiy faoliyatda axloqiy me'yorlarni saqlashni ta'minlaydi. Masofaviy ta'limda esa akademik halollik masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi jismoniy masofa akademik qoidabuzarliklarni nazorat qilishni murakkablashtiradi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi autoproctoring texnologiyalarining masofaviy ta'limda akademik halollikni ta'minlashdagi samaradorligi va muammolarini kompleks tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida turli autoproctoring tizimlari, ularning texnologik imkoniyatlari, samaradorligi, shuningdek, ushbu tizimlarni qo‘llashda yuzaga keladigan huquqiy, axloqiy va pedagogik muammolar o‘rganiladi.

Adabiyotlar tahlili. Autoproctoring texnologiyalari va ularning ta'lim sohasidagi qo‘llanilishi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili bu sohadagi tadqiqotlarning bir necha yo‘nalishda olib borilayotganini ko‘rsatadi

Autoproctoring texnologiyalarining texnik jihatlari. Autoproctoring tizimlari turli texnologik yondashuvlarga asoslangan bo‘lib, ular orasida sun'iy intellekt, mashinali ko‘rish, yuz ifodalarini tahlil qilish, ko‘z harakatlarini kuzatish va qurilma ekranini nazorat qilish kabi texnologiyalar asosiy o‘rin tutadi [3]. Dastlabki avtomatik kuzatuv tizimlari asosan veb-kameralar orqali nazoratni amalga oshirgan bo‘lsa, zamonaviy tizimlar ko‘p modalli ma'lumotlarni tahlil qilish orqali akademik qoidabuzarliklarni aniqlash aniqligini sezilarli darajada oshirdi [4].

Li va boshqalar [5] o‘z tadqiqotlarida ko‘rsatishlaricha, zamonaviy autoproctoring tizimlari nafaqat talabaning yuz harakatlarini, balki uning o‘tirish holatini, muhitdagi shubhali obyektlarni, fon shovqinini, brauzer faolligini va klaviaturada yozish uslubini ham tahlil qilish orqali akademik qoidabuzarliklarni aniqlash samaradorligini oshirmoqda.

Autoproctoring tizimlarining samaradorligi. Adabiyotlar tahlili autoproctoring tizimlarining samaradorligi to‘g‘risida turli xil natijalarni ko‘rsatmoqda. Qator tadqiqotlar autoproctoring texnologiyalarining qo‘llanilishi akademik halollikni ta'minlashda ijobiy natija berayotganini ta'kidlashadi [6]. Jumladan, Guangul va boshqalar [7] tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, autoproctoring tizimlarining qo‘llanilishi baholash jarayonlarida plagiat va boshqa akademik qoidabuzarliklarni 42-67% gacha kamaytirishga erishilgan.

Biroq, boshqa tadqiqotlar autoproctoring tizimlarining akademik halollikni ta'minlashdagi cheklanganliklarini ham ko‘rsatmoqda. Xususan, Dawson [8] ning tadqiqoti autoproctoring texnologiyalari asosan shubhali xatti-harakatlarni aniqlashga qaratilganligi, ammo bu xatti-harakatlar har doim ham haqiqiy akademik qoidabuzarlik emasligini ta'kidlaydi. Bunda "soxta ijobiy" ko‘rsatkichlar nisbati yuqori bo‘lishi mumkin.

Psixologik va pedagogik jihatlari. Autoproctoring tizimlarining qo‘llanilishi talabalarning psixologik holatiga ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Cooper va boshqalar [11] ning tadqiqoti ko‘rsatishicha, autoproctoring nazorati ostida bo‘lgan talabalar yuqori darajadagi stress va xavotirni his qilishlari mumkin, bu esa ularning imtihon natijalariga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuningdek, autoproctoring tizimlarining pedagogik samaradorligi ham muhim masala hisoblanadi. Onlayn baholashda autoproctoring texnologiyalariga haddan tashqari tayanish o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi ishonchga asoslangan munosabatlarga salbiy ta'sir qilishi mumkin [12].

Autoproctoring tizimlarining muammolari. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, autoproctoring tizimlarining qo‘llanilishi quyidagi asosiy muammolarni keltirib chiqarmoqda:

1. Texnologik muammolar. Tadqiqot doirasida o‘rganilgan autoproctoring tizimlarining aksariyati (69%) talabalarning internet tezligi va qurilma xususiyatlariga sezgir bo‘lib, texnik nosozliklar tufayli "soxta ijobiy" xatolarni keltirib chiqarishi mumkin [13]. Talabalarning 62% i autoproctoring tizimlaridan foydalanish jarayonida kamida bir marta texnik muammolarga duch kelganini ta'kidlashgan.

Bundan tashqari, autoproctoring tizimlarining turli ijtimoiy-demografik guruhlarga mansub talabalar uchun bir xil ishlash samaradorligi muammosi ham mavjud. Tadqiqot natijalari ko‘rsatishicha,

ayrim sun'iy intellektga asoslangan autoproctoring tizimlari turli irq va jinsga mansub talabalarni aniqlashda turlicha aniqlikka ega bo‘lishi mumkin [14]. Bu esa adolat tamoyillarini buzishi va ayrim talabalar guruhlariga nisbatan nohaq munosabatni keltirib chiqarishi mumkin.

2. Huquqiy va axloqiy muammolar. Tadqiqotda ishtirok etgan talabalarning 74% i autoproctoring tizimlari orqali ularning shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligi to‘g‘risida xavotirda ekanliklarini bildirgan. O‘qituvchilarning 58% i esa autoproctoring tizimlarini qo‘llashda ma'lumotlarni himoya qilish qonunchiligi talablariga to‘liq rioya qilinmayotganligini ta'kidlashgan [15].

Shuningdek, autoproctoring tizimlarining talabalarning xususiy hayotiga nisbatan haddan tashqari aralashuvi (masalan, uy muhitini kuzatish, mikrofonni yoqish majburiyati) axloqiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Talabalarning 68% i bu holat ularning shaxsiy huquqlarini cheklashini ta'kidlashgan.

3. Psixologik va pedagogik muammolar. Tadqiqot natijalari autoproctoring tizimlarining qo‘llanilishi talabalarning psixologik holatiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishini tasdiqlamoqda. So‘rovnomada ishtirok etgan talabalarning 81% i autoproctoring nazorati ostida yuqori darajada stress va xavotirni his qilishlarini bildirgan [16]. Bu esa imtihon natijalariga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

Intervyu natijalari ko‘rsatishicha, autoproctoring tizimlarining qo‘llanilishi o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi ishonchga asoslangan munosabatlarga ham ta'sir qilmoqda. O‘qituvchilarning 45% i autoproctoring tizimlarining haddan tashqari qo‘llanilishi talabalar bilan o‘zaro ishonchni yo‘qotishga olib kelishi mumkinligini ta'kidlashgan [17].

Autoproctoring tizimlarini takomillashtirish yo‘nalishlari. Tadqiqot natijalariga asoslanib, autoproctoring tizimlarini takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlar taklif etiladi:

1. Texnologik takomillashtirish

- Autoproctoring tizimlari algoritmlari va sun'iy intellekt modellarini takomillashtirish, jumladan, turli demografik guruhlarga mansub foydalanuvchilar uchun teng ishlashini ta'minlash [18].
- "Soxta ijobiy" ko‘rsatkichlarni kamaytirish uchun mashinali o‘qitish algoritmlarining aniqligini oshirish.
- Internet tezligi va qurilma xususiyatlariga bog‘liq bo‘lmagan holda ishlay oladigan optimal yechimlarni ishlab chiqish.

2. Huquqiy va axloqiy jihatlarni takomillashtirish

- Autoproctoring tizimlarini qo‘llashda ma'lumotlarni himoya qilish qonunchiligi talablariga to‘liq rioya qilish mexanizmlarini ishlab chiqish [19].
- Talabalarning shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlash uchun ma'lumotlarni shifrlash va xavfsiz saqlash tizimlarini joriy etish.
- Autoproctoring tizimlari tomonidan to‘planadigan ma'lumotlar hajmini optimallashtirish va faqat zarur ma'lumotlarni to‘plash.

3. Pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish

- Autoproctoring texnologiyalari va pedagogik yondashuvlar o‘rtasidagi muvozanatni ta'minlash [20].
- Autoproctoring tizimlarini qo‘llashda talabalarning psixologik holatini hisobga olish va stress omillarini kamaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish.
- Autoproctoring texnologiyalari bilan bir qatorda, akademik halollikni ta'minlashga qaratilgan boshqa pedagogik usullarni ham qo‘llash (masalan, ochiq kitob imtihonlari, loyiha asosidagi baholash, portfolio).

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, autoproctoring texnologiyalari masofaviy ta'limda akademik halollikni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi va qoidabuzarliklarni aniqlab, oldini olishda yuqori samaradorlikka ega. Biroq, bu texnologiyalarning qo‘llanilishi bir qator texnik, huquqiy, axloqiy va pedagogik muammolarni keltirib chiqaradi.

Autoproctoring tizimlarini samarali qo‘llash uchun texnologik imkoniyatlar va pedagogik yondashuvlar o‘rtasidagi muvozanatni ta'minlash, talabalarning shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlash, va psixologik omillarni hisobga olish zarur. Bundan tashqari, autoproctoring texnologiyalari bilan bir qatorda, akademik halollikni ta'minlashga qaratilgan boshqa pedagogik usullarni ham qo‘llash tavsiya etiladi.

Kelajakda autoproctoring texnologiyalari sun'iy intellekt va mashinali o‘qitish sohasidagi yutuqlar bilan yanada takomillashib borishi kutilmoqda. Biroq, bu texnologiyalarni qo‘llashda insoniy omil va pedagogik tamoyillar doimo ustuvor bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Alruwais, N., Wills, G., & Wald, M. (2021). Identifying factors that affect the acceptance and use of e-assessment by academics in Saudi universities. Education and Information Technologies, 26(2), 1723-1747.

[2] Ullah, A., Xiao, H., Barker, T., & Lilley, M. (2022). A study of automated student identification and authentication for online assessment. International Journal of Distance Education Technologies, 17(3), 59-78.

[3] Hylton, K., Levy, Y., & Dringus, L. P. (2021). Utilizing webcam-based proctoring to deter misconduct in online exams. Computers & Education, 92, 53-63.

[4] Garcia-Peñalvo, F. J., Corell, A., Abella-García, V., & Grande-de-Prado, M. (2021). Recommendations for mandatory online assessment in higher education during the COVID-19 pandemic. In Radical Solutions for Education in a Crisis Context (pp. 85-98). Springer.

[5] Li, M., Luo, L., Sikdar, S., Nizam, N. I., Gao, S., Shan, H., ... & Kruger, U. (2023). Exam monitoring in online education with artificial intelligence. IEEE Transactions on Learning Technologies, 15(4), 413-426.

[6] Atoum, Y., Chen, L., Liu, A. X., Hsu, S. D., & Liu, X. (2022). Automated online exam proctoring. IEEE Transactions on Multimedia, 19(7), 1609-1624.

[7] Guangul, F. M., Suhail, A. H., Khalit, M. I., & Khidhir, B. A. (2022). Challenges of remote assessment in higher education in the context of COVID-19: a case study of Middle East College. Educational Assessment, Evaluation and Accountability, 32(4), 1-17.

[8] Dawson, P. (2021). Defending assessment security in a digital world: preventing e-cheating and supporting academic integrity in higher education. Routledge.

[9] Coghlan, S., Miller, T., & Paterson, J. (2021). Good proctor or "big brother"? AI ethics and online exam supervision technologies. Ethics and Information Technology, 23(3), 255-265.

[10] Selwyn, N., O‘Neill, C., Smith, G., Andrejevic, M., & Gu, X. (2021). A necessary evil? The rise of online exam proctoring in Australian universities. Media International Australia, 181(1), 57-68.

[11] Cooper, A., Chen, Y., & Terada, Y. (2021). Students' perceptions of remote online assessments in higher education during the COVID-19 pandemic. International Journal of Educational Research Open, 2(2), 100081.

[12] Kharbat, F. F., & Abu Daabes, A. S. (2021). E-proctored exams during the COVID-19 pandemic: A close understanding. Education and Information Technologies, 26(6), 6589-6605.

[13] González-González, C. S., Infante-Moro, A., & Infante-Moro, J. C. (2022). Implementation of E-proctoring in Online Teaching: A Study About Motivational Factors. Sustainability, 12(9), 3488.

[14] Woldeab, D., & Brothen, T. (2023). 21st Century assessment: Online proctoring, test anxiety, and student performance. International Journal of E-Learning & Distance Education, 34(1), 1-24.

Ta'limiy faoliyat – bu bolalarga bilim berish, ularning ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish jarayonidir. Bu jarayonda bolalar dunyoqarashi kengayib, mantiqiy fikrlash, kuzatish va analiz qilish qobiliyatlari shakllanadi. Ta'limiy faoliyatning asosiy maqsadi bolaning intellektual rivojlanishini ta'minlashdir.

Tarbiyaviy faoliyat esa bolalarda ijtimoiy, axloqiy, ma'naviy va estetik qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Bu jarayon orqali bola jamiyatga moslashadi, o‘zining his-tuyg‘ularini boshqaradi va axloqiy me'yorlarga amal qilishni o‘rganadi. Tarbiyaviy faoliyatning asosiy vazifasi – bolalarda ijtimoiy muhitga moslashish va sog‘lom hayot tarziga rioya qilishni rivojlantirishdir.

Maktabgacha ta'limda ta'limiy va tarbiyaviy faoliyat bir-birini to‘ldiradi. Ushbu faoliyatlarning bir-biridan ajralib qolishi bolaning har tomonlama rivojlanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Quyidagi asosiy jihatlar ularning uzviy bog‘liqligini ta'minlaydi:

Intellektual va axloqiy rivojlanishning uyg‘unligi: Bolalarda bilim olish jarayoni axloqiy qadriyatlarni shakllantirish bilan uyg‘unlashganda, ularning ma'naviy va intellektual rivojlanishi muvozanatli kechadi.

Faoliyatga asoslangan o‘rganish: Bolalar o‘yin, amaliy mashg‘ulotlar va kuzatishlar orqali bilim olish bilan birga, jamoada ishlash, axloqiy tamoyillarga rioya qilish kabi tarbiyaviy malakalarni egallaydilar.

Ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish: Ta'lim jarayonida bolalar bir-biri bilan muloqot qilishni o‘rganadi. Bu ularning ijtimoiylashuvini va jamoada o‘zini tutish qoidalarini egallashiga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim amaliyotida ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatning uzviy bog‘liqligini ta'minlash uchun quyidagi amaliy usullarni qo‘llash muhim:

Kun tartibini to‘g‘ri tashkil qilish: Ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatni bir-birini to‘ldiradigan tarzda rejalashtirish.

Oilaviy hamkorlik: Ota-onalar bilan muntazam aloqada bo‘lish, ularni tarbiyaviy jarayonga jalb qilish.

Individual yondashuv: Har bir bolaning rivojlanish darajasi va xususiyatlarini hisobga olib, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatning uzviy bog‘liqligi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Ushbu jarayonning samaradorligini oshirish uchun integratsiyalashgan yondashuv, o‘yinli texnologiyalar, muammoli ta'lim va hamkorlikda o‘qitish kabi metodlardan foydalanish zarur. Maktabgacha ta'limdagi ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatni izchil va uyg‘un ravishda tashkil qilish, kelajak avlodning bilimli, ma'naviyatli va ijtimoiy moslashgan shaxs bo‘lib yetishishiga zamin yaratadi.

Xulosa: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatning uzviy bog‘liqligi bolalarning kompleks rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki bolalar shaxsiyatining tarbiyaviy jihatlarini rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Tarbiya va ta'limning muvofiqligi, bolalarga ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni singdirish, ularni muloqot, mustaqil fikrlash va ijodkorlikka yo‘naltirishda katta rol o‘ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga to‘g‘ri ta'lim va tarbiya berish, ularning kelajakda o‘zligini shakllantirish, ijtimoiy muhitga moslashishi va jamiyatga foydali shaxslar bo‘lib yetishishlariga yordam beradi. Shunday qilib, ta'lim va tarbiya o‘rtasidagi uyg‘unlik bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Sh. Shodmonova. Maktabgacha pedagogika. T., «Fan va texnologiyalar», 2019.
2. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. (Tuzuvchilar: J. Hasanboyev, X. To‘raqulov, O. Hasanboyeva, N. Usmonov). T., «Fan va texnologiyalar», 2009.
3. Turg‘unov S.T., L.A. Maqsudova, H.M. Tojiboyeva, G.M. Nazirova, M.A.Umaraliyeva Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish,sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari Toshkent 2014.
4. Djuraeva B.R., Tojiboeva H.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendenstiyalari Toshkent, - O‘zPFITI. – 2015.
5. Djuraeva B.R., Umarova X.A., Tojiboeva H.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimi monografiya Toshkent, Real print. – 2017.

“RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA “ROBOTOTEXNIKA ASOSLARI” FANINI O‘QITISHNING INNOVASION METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH

D.D.Yavqochdiyev
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta’lim muhitida “Robototexnika asoslari” fanini o‘qitishni takomillashtirish masalalari har tomonlama tadqiq etilgan. Xususan, raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi, fanni o‘qitishda interaktiv platformalardan, simulyatorlardan, virtual laboratoriyalar va onlayn muhitlardan foydalanishning afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, “Robototexnika asoslari” fanining xususiyatlari va uni o‘qitishdagi muammolar tahlil qilingan hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida samarali o‘qitishga doir metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim muhiti, robototexnika ta’limi, fanni o‘qitish metodikasi, STEAM, o‘quvchi kompetensiyasi, interaktiv texnologiyalar, loyihaviy o‘qitish.

Kirish So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jahon miqyosida jadal sur’atlarda rivojlanishi inson faoliyatining barcha jabhalarida, jumladan, ta’lim sohasida ham tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, ta’lim mazmuni va shaklini modernizatsiya qilish, o‘qitish usullarini qayta ko‘rib chiqish kabi vazifalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi nafaqat o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga, balki ta’lim jarayonini tashkil etish usullari, fanlarni o‘qitishdagi yondashuvlar, bilimlarni o‘zlashtirish mexanizmlariga ham yangi yondashuvlarni taqozo etmoqda.

Robototexnikani o‘qitishda o‘quv faoliyatning ahamiyati, bola tafakkurining rivojlanishiga ta’siri robototexnika bo‘yicha ham klassik, ham zamonaviy adabiyotlarda asoslab berilgan. Shunday qilib, robototexnikani o‘qitishning zamonaviy metodlarining asosiy g‘oyalarini Logo dasturlash tilini yaratuvchisi S.Papert ilmiy tadqiqot ishlaridan topish mumkin.

Papert logotip muhiti bolalarga sun'iy intellektni o‘rganish orqali o‘qitish imkonini beradi degan fikrni taqdim etadi va asoslaydi. A.R. Karberri va A.F. Makkena izlanayotgan mutaxassislarni yuqori sifatli muhandislik tayyorlash uchun modellashtirishda dizayn faoliyatining ahamiyatini ta’kidlaydilar. Tadqiqotlar shuni ta'kidlaydiki, robototexnika kursi talabalarni maxsus dasturlash tillaridan foydalangan holda robotlarni ishlab chiqish va boshqarishda rag‘batlantirish hamda rag‘batlantirish uchun kuchli vositalarga ega. Shuningdek, xorijiy mualliflar "hisoblash, fikrlash" atamasini kiritadilar, uning shakllanishi bir qator muammolarni hal qilishda eng samarali hisoblanadi.

Raqamli ta’lim muhiti (RTM) — bu axborot texnologiyalari, raqamli resurslar, interaktiv platformalar, simulyatorlar va onlayn muloqot vositalari orqali ta’lim jarayonini tashkil etishga yo‘naltirilgan zamonaviy ta’lim tizimidir. Bunday muhitda ta’lim oluvchilar nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtiradilar, balki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tajriba o‘tkazish, jamoaviy ishlash kabi amaliy faoliyatlarga ham keng jalb etiladilar. Bu esa ta’lim jarayonini individuallashtirish, tezkor fikr almashish va yuqori faollik bilan tashkil etish imkonini beradi.

Ayniqsa, texnik va muhandislik yo‘nalishlaridagi fanlarni o‘qitishda raqamli muhitning imkoniyatlari katta ahamiyat kasb etadi. Chunki bu fanlar nazariya va amaliyotning uzviy bog‘liqligiga asoslangan bo‘lib, ularni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar, vizuallashtirish va simulyasiya usullaridan samarali foydalanish talab etiladi. Xususan, “Robototexnika asoslari” fanini raqamli ta’lim muhitida o‘qitish — bugungi kunning muhim va dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu fan o‘quvchilarda algoritmik fikrlash, texnik tafakkur, ijodkorlik, muammoli vaziyatlarni hal qilish, dasturlash va STEM-kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Mazkur maqolada “Robototexnika asoslari” fanini raqamli ta’lim muhitida samarali o‘qitishni takomillashtirish masalalari ilmiy asosda tahlil etiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv platformalar, virtual muhitlardan foydalanish imkoniyatlari, metodik yondashuvlar va fanni o‘qitishdagi muammolar o‘rganiladi hamda amaliyotda qo‘llash uchun taklif va tavsiyalar taqdim etiladi.

Ushbu tadqiqotda “Robototexnika asoslari” fanini raqamli ta’lim muhitida samarali o‘qitishni takomillashtirishga qaratilgan metodik yondashuvlar va amaliy yechimlar tahlil qilindi. Ilmiy izlanish davomida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari, interaktiv ta’lim platformalari hamda xorijiy va mahalliy tajribalarga asoslangan tahlillar qo‘llanildi.

Tadqiqotda quyidagi asosiy metodlardan foydalanildi:

Tahliliy-tarixiy usul: raqamli ta’lim muhitining rivojlanish bosqichlari, uning ta’lim tizimidagi o‘rni va “Robototexnika asoslari” fanini o‘qitishga ta’siri o‘rganildi. Shuningdek, mavjud adabiyotlar, ilmiy manbalar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi.

Tadqiqot ob’yekti sifatida o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida va umumta’lim maktablarida joriy etilgan “Robototexnika asoslari” fani, uning o‘quv rejalari, darsliklari va metodik qo‘llanmalari tanlandi. Shuningdek, fanni raqamli muhitda o‘qitishga xizmat qiluvchi elektron platformalar va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni o‘rganildi.

Metodlar asosida fanni raqamli muhitda qanday qilib samarali tashkil etish mumkinligi, qaysi vositalar orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini oshirish mumkinligi aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida “Robototexnika asoslari” fanini raqamli ta’lim muhitida o‘qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator amaliy va nazariy natijalarga erishildi. Ushbu natijalar asosida ushbu fanni zamonaviy raqamli vositalar asosida tashkil etishning afzalliklari, mavjud muammolari va yechim yo‘llari tahlil qilindi.

Horijiy tajribaning tahlili shuni ko‘rsatdiki, raqamli robototexnika ta’limida integratsiyalashgan yondashuv (STEAM/STEM) samarali natijalar beradi.

Finlyandiya, Yaponiya, AQSH kabi mamlakatlar tajribasi asosida “Robototexnika asoslari” fanini tabiiy fanlar, matematika va texnologiya bilan bog‘liq holda o‘qitish o‘quvchining mukammal kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi. O‘quvchilar bilimni faqat yodlab emas, balki qo‘llash, yaratish va muammoni yechish orqali egallaydilar.

Xulosa: Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, **“Robototexnika asoslari” fanini raqamli ta’lim muhitida samarali tashkil etish ta’lim sifati va o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini oshirishda muhim omil ekanini yaqqol ko‘rsatdi. Raqamli muhitda fanni o‘qitishdagi interaktiv yondashuvlar, simulyatorlar va dasturlash platformalari o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, ularni ijodkorlikka va mustaqil izlanishga undashda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda.**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кузнецов И. П. Кибернетические диалоговые системы. – М.: Наука, 1976. – 293 с.
2. Глушков В. М. Кибернетика. Вопросы теории и практики. – М.: Наука, 1986. – 488 с.
3. Воротников С. А. Информационные устройства робототехничес-ких систем: учеб. пособие. – М.: Изд-во МГТУ им. Н. Э. Баумана, 2005. – 384 с
4. Sultanov, R.O., Хуррамов, А.Ж., (2021). Robototexnika kursini takomillashtirish (kelajak kasblari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash uchun). Kasb-hunar ta’limi , Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal 2023-yil, 2-son, 40-42.

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA’LIM O‘QITUVCHILARINI MAXSUS KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

A.E.Nuriddinov
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi o‘qituvchisi
Ch.A.Erkinova
SamDAQI akademik litsey o‘quvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim jarayonida integrativ yondashuv asosida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Аннотатция: В данной статье рассматриваются вопросы формирования специальных компетенций будущих педагогов технологического образования на основе интегративного подхода в образовательном процессе.

Annotation: This article covers the issues of developing special competencies of future technological education teachers based on an integrative approach in the educational process.

Kalitso‘zlar:Integratsiya,texnologiya,tendensiya,kompetentsiya,tafakkur,prinsip, faoliyat,xalqaro,innovatsiya, bilim, ta’lim,modernizatsiyalash,qobiliyatlar.

Ключевые слова: Интегратсия, технология, тренд, компетенция, мышление, принцип, деятельность, международный, инноватsiя, знание, образование, модернизатсия, способности.

Key words: Integration, technology, trend, competence, thinking, principle, activity, international, innovation, knowledge, education, modernization, abilities

Jahon hamjamiyatida har qanday davlatning mavqei aholisining turmush darajasi hamda siyosiy va iqtisodiy faolligi bilan belgilanadi.Globallashuv sari borayotgan hozirgi dunyoda davlatning xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining omili hisoblanadi. Davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o‘sishini taminlovchi omillar ta’lim sohasini rivojlanishiga bevosita bog‘liq. Integratsiya-ayrim bo‘laklarning yoki elementlarning bir-birlariga qo‘shilishi hamda bir butunga aylanishi demakdir.M.G.Chepikov o‘zining «Integratsiya nauki» kitobida integratsiya so‘zi asosida integral yotishini asoslab bergan. Shu sababli biz integratsiya ta’riflariga to‘xtalishni lozim topdik. «Integratsiya» atamasi nisbatan yangi bo‘lib, mazmun va mohiyat jihatdan uzoq tarixga ega. Integratsiya–juda keng ma’noli tushuncha. Bugungi kunga kelib, kishilar o‘qitishda integratsiya jarayonining mohiyatini, uning rivojlantiruvchi funksiyalarining amalda qo‘llanilishi, sayyoramizdagi muhim ekologik muammolarni hal qilish va yerda hayotni saqlab qolish mumkinligini anglagan holda, unga katta e’tibor qaratmoqdalar.

Ayniqsa, yosh avlodning ilmiy dunyoqarashini, ularning ekologik madaniyatini shakllantirishda, ta’limda integratsiya jarayonining muhimligi dunyo olimlari tomonidan alohida qayd etilmoqda. Ta’limda integratsiya – bilimlarning bir-biri bilan organik birlashishi va yangi, yagona barqaror umumlashgan-yaxlit bilimni hosil qilish degan ma’nolarni anglatadi.Integratsiya tushunchasiga berilayotgan ta’riflar turlicha bo‘lib, bu ta’riflarning umumiylik tomoni: integratsiya-bu atrofimizdagi borliqqa yaxlit, bir butun ob’ekt sifatida qarashga erishishdan iborat."Integratsiya" tushunchasi, bevosita XVIII asrlarda G.Spenser tomonidan o‘z qo‘lyozmalarida qo‘llanilgan. Ta’limda integratsiyaning nazariy, metodologik, pedagogik va psixologik asoslarini predmetlararo boshlanishga chuqur yondashgan holda o‘rganish, buyuk klassik pedagoglardan Ya.A.Komenskiy, E.Rosmesler, F.Yunge, Dj.Dyui keyinroq, ta’limda integrativ yondashuvni tashkil etishning pedagogik va psixologik xususiyatlarini ochishda katta xizmat qilgan Yu.K.Babanskiy, S.L.Rubinshteyn,Ye.N.Kabanova-Miller, Yu.A.Samarin, Yu.M.Kolyagin, N.S.Svetlovskaya, I.A.Mironenko, M.G.Chepikov, N.K.Chapaev kabi olimlarning bu sohadagi xizmatlari o‘z aksini topgan.

Bugun integratsiyani didaktikani ta’limda muhim sistemalashtiruvchi tamoyili deb qarashga asos bor.Shuningdek ta’limni integrativ tashkil etishning muhim prinsiplaridan biri-integratsiya va differensiatsiyaning birligi prinsipidir. Integratsiya va differensiatsiya dialektik nuqtai nazardan biri-birlarini aniqlashtiruvchi ajratib bo‘lmas kategoriyalardan hisoblanadi.Ularni mustaqil kategoriyalar deb ajratib o‘rganish, pedagogik tadqiqotning metodologik yetishmovchiligi deb qaraladi. Ilmiy nuqtai-nazardan qaralganda, integratsiyaning asosini olamning yaxlitligi,uni tashkil etuvchi elementlarning o‘zaro aloqadorligi,o‘zaro munosabatlari tashkil etadi. Pedagogik, ta’limiy jihatdan esa, integratsiya uzviylik, fanlararo aloqadorlik, predmet materiallari orasidagi o‘zaro aloqadorlikni ifodalaydi.

U bilimlarni o‘zaro bir-birlarini to‘ldiruvchi,kengaytiruvchi, chuqurlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qilib, o‘quv predmetlari mazmunini, eng kamida, DTS darajasida sintezlovchi, mantiqan tugallangan natijasi hisoblanadi. Integrativ ta’lim, talabadan yangi materialni o‘rganishda, oldingi o‘rganilgan materiallar va boshqa predmetlardan olgan bilimlardan keng foydalanishni, oqibatda ulardan amaliyotda keng qo‘llashni talab qiladi.

U o‘quvchining ilmiy dunyoqarashi kengaya borishi va dinamik rivojlanishiga mustahkam poydevor yaratadi.Ta’limda integratsiyaga turli predmetlardagi bilimlarni yagona maqsad asosida, o‘zaro bog‘langan holda, rivojlantirish formasi deb qarash mumkin. Zamonaviy ta’lim tendensiyalari orqali jadal rivojlanuvchi va o‘zgarib turuvchi jamiyat zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlarini qanoatlantirishga qodir yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlab borish zarurligini talab etmoqda. Shu bois integrativ yondashuv asosida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirish, dasturlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Oliy ta’limda bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilaridan pedagogik tayyorgarlik va mahorat talab etiladi.

Malaka talablarida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisiga pedagogik faoliyat bo‘yicha quyidagi talablar qo‘yilgan: – dunyoqarash bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi; gumanitar va tabiiy –ilmiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi; – tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi; – insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma’naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga

ola bilishi; – axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bilishi o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi; - elektron axborot ta’lim muhitida ta’lim jarayonini pedagogik loyihalashtirish; – tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi; – yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi; – bitta xorijiy tilni erkin so‘zlashuv darajasida egallagan bo‘lishi; – sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e’tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish uquv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi belgilab qo‘yilgan. Shuningdek bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisi ta’limning samarali shakl va usullarini izlab topishi,o‘quv uslubiy tayyorgarlik faoliyatini kuchaytirish,o‘zining kasbiy kompetentligini shakllantirishda maxsus fanlardan mashg‘ulotlarni tashkil etishning shakl, metod, vositalarini to‘g‘ri tanlay olishi lozim. Bizning fikrimizcha bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisi o‘zini mutaxasisligi bo‘yicha egallagan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishi bilan birga pedagog uchun muhim bo‘lgan kasbiy sifatlarga ega bo‘lishi (o‘z-o‘zini rivojlantirish, yangiliklarga intilishi) yoki bir so‘z bilan aytganda kasbiy kompetentlikga ega bo‘lishi kerak. Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan xolda, xalqaro standartlar darajasida mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta’minlash maqsadida qabul qilingan. Kompetentlik –biror soha bo‘yicha har tomonlama chuqur bilimga ega bo‘lgan va shuning uchun ham fikri salmoqli, ishonchli hisoblangan kishining sifati”.

Kompetentlik shaxsning doimo rivojlanib boruvchi sifatlaridan biri bo‘lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni echish qobiliyati, o‘z bilimi, o‘quv va hayotiy tajribalari,qadriyatlari va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari. Kompetentlik atamasi ta’lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib keldi.Bu tushuncha noan’anviy vaziyatlarda yoki kutilmagan hollarda o‘zini qanday tutish, muloqotga kirishish, tomonlar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutish, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda,hamisha rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda qanday harakat qilishi kerakligi to‘g‘risida nazariy bilimlar zarurligini ko‘rsatadi.

Kompetentlik - bu bilimlarni namoyon etishning o‘ziga xos turi bo‘lib,shaxsning umumiy intelektual rivojlanishida,kasbiy masalalarni maksimal darajada samarali hal qila bilish va tevarak atrofni ob’ektiv baholay bilish imkonini beruvchi aqliy tajribaning tarkibiy qismlari, axborotni qayta ishlash mexanizmi, individual ravishda intelektual faoliyatni tanlay bilish ko‘nikmasining shakllanganligida o‘z ifodasini topadi.

Xorijiy adabiyotlar tahlilida, kompetentlik “chuqur bilimlar egasi”, “murakkab masalalarni echish qobiliyati”, “o‘z paytida dolzarb faoliyatni amalga oshirish qobiliyati” kabi ma’nolarni anglatadi. Kompetentlik o‘z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o‘z amaliy faoliyatida qo‘llashni talab qiladi.

Ye.F.Zeer muhim kompetensiyalarni shaxsning turli kasbiy faoliyatga moslashishi va samarali faoliyat ko‘rsatish uchun ma’lum ishlarni bajarishda zarur bo‘ladigan, ko‘nikma va malakalar shaxsiy sifatlar va qobiliyat sifatida ta’riflaydi. U muhim kompetentliklar tuzilmasidagi to‘rta kichik guruhni alohida ko‘rastib o‘tadi.Bular: kasbiy yo‘nalganlik; kasbiy kopetentlik; kasbiy ahamiyatga ega sifatlar; kasbiy ahamiyatga ega psixofiziologik xususiyatlar. Pedagogik kompetentlik- o‘qituvchining shaxsiy imkoniyatlari,uning mahorati(bilim va tajriba), ma’lum bir doiradagi o‘zining bilim va ko‘nikmalariga tayanib muammolarining echishi.

Maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada) tashkil etish); Shaxsiy kompetentlik (o‘z-o‘zini rivojlantirish,o‘z-o‘zini namoyon etish); Induvidial kompetentlik (o‘z-o‘zini boshqarish,kasbiy rivojlanish va yangiliklar yaratish);Ijtimoiy kompetentlik (qo‘shimcha faoliyatni xamkorlikda tashkil etish). R.V.Ovcharovaning fikricha,pedagogik kompetentlik bu shaxsning pedagogic faoliyatga tayyorgarligida ko‘rinadigan psixologik sifatlarini yig‘indisidir(xarakter,temperament v.x.k) Pedagogik kompetentlik – bu o‘qituvchining kasbiy – psixologik xususiyati bo‘lib, pedagogik faoliyatni tashkil etish va boshqarishda sub’ektiv shart-sharoitdagi amaliynazariy xarakatni ifodalovchi sifatlar yig‘indisi.

Kasbiy kompetentlik tushunchasi esa ma’lum bir aniq faoliyat bo‘yicha qo‘llaniladi. Ilmiy – pedagogik adabiyotlarda “kasbiy kompetentlik”atamasi bilan bir qatorda , ma’no jixatidan unga yaqin bo‘lgan “professionalizm”, “kasbiy mahorat”, “malaka”, o‘z kasbining ustasi” kabi tushunchalar qo‘llanilib

kelinadi. Hozirgi kunda “professionalizm” atamasi o‘rniga ko‘pincha “kompetensiya”tushunchasi qo‘llaniladi.

Birinchi tushuncha faqat ma’lum bir kasb mahoratini, malakasini aks ettiradi. Ikkinchi “kompetensiya”tushunchasi esa malakalar zaxirasi, bazasi degan ma’noni anglatadi. U shaxsning mustaqil faoliyat ko‘rsata olish, har qanday ishga ijodiy yondashish, doimo bilimlarini yangilab borish, aql-farosatliligi, turli soxa tizimlari va iqtisodiyot bo‘yicha fikrlay olish qobiliyati, muloqotlar olib boorish mahorati, jamoadagi hamkorligi, xamkasblari bilan muloqotga kirishuvchanligi kabi sifatlarni aks ettiradi. Kasbiy kompetentlikni izohlari turlicha yuzaga keldi: -ma’lum bir mehnat funksiyasini bajarish qobiliyati; -“malaka”, “mahorat” kabi inson ko‘nikmalari (A.K.Makarova); -kasbiy ma’lumotlilik darajasi; -insonning tajribasi va individuallik qobiliyati,uning o‘z bilimi va malakasini oshirib borishga intilishi, uning ishga ijodiy yondashuvi va o‘z ishiga mas’uliyati(B.S.Gershunskiy) -kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lish(O.A Abduqudusov, X.F.Rashidov); -bilim, mahorat,o‘ziga xoslik va shaxsning o‘quv tarbiya jarayonlarini tashkil etishdagi qobiliyat (V.A.Sitarov) -shaxsning tajribasi, ma’lumotining ijtimoiy yo‘naltirilganligi, insonning ma’lum bir maqsad yo‘lidagi amaliy faoliyati natijalari; kasbiy bilimlarini hayotda samarali qo‘llashi kabi shaxsning o‘ziga xos sifatlari va kompetentligi (L.N.Ponamarov) Kasbiy kompetentlikka ko‘p qirrali funksiyalarni bajarish,bir kasbiy faoliyat doirasida qator ijtimoiy bilimlarga tayanish, faoliyat ko‘rsatish turlarini kengaytirish orqali erishadi. Ye.F.Zeerning ta’kidlashicha, kasbiy kompetentlikning funksional rivojlanishini tadbiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog‘ida kompetentlikning turli ko‘rinishlari mujassamlanib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatlari bilan aloqasi kuchayib borishini ko‘rsatdi.Aytish joizki, kompetentlik darajasi kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o‘zini o‘zi anglash, o‘z kuchiga ishonish, o‘zga insonlar tomonidan ko‘rsatilgan kamchiliklarni to‘g‘ri qabul qilish va shaxsning kamolotini belgilab beruvhi shaxsiy xususiyatlari bilan aniqlanadi.

N.N.Nasarenus fikricha, “kasbiy kompetentlik”sub’ektning salohiyati hisoblanib, uning bu sifati malaka oshirish jarayonida namoyon bo‘ladi.Shu bilan birgalikda, uning bu sifati mustaqil faoliyati davomida takomillashib boradi,u o‘z kasbining ustasi bo‘lib etishadi,oliy mahorat egasiga aylanadi.U kasbi-kori sir-asrorlarini chuqur egallaydi,axborotlar bilan ishlashda ijodiy yondashadi. M.A.Choshanovni fikriga ko‘ra, kasbiy kompetentlik doimo rivojlanib boruvchi dinamik hodisa bo‘lib,malaka oshirish va o‘z ustida ishlash jarayonining natijasi hisoblanadi. Bilim va mahorat, hatto ijobiy yo‘nalish ham vaqt o‘tishi bilan eskirib qoladi, jamiyatning zamonaviy talablariga, yangi texnologiyalarga mos kelmasligi mumkin. Jamiyat ham, odamlar, muammolar ham o‘zgarib bormoqda. Demak, bu vazifalarni echish uchun yondashuv va metodlarni ham o‘zgartirish talab etiladi.

Shu sabab kompetensiya masalasi dolzarbligicha qoladi.Demak mutaxassisi inson faoliyatida shu davrgacha ma’lum bo‘lgan kasbiy tajriba na’munalari, madaniy boyliklarini bilishi talab etiladi. B.S.Gershunskiy kasbiy kompetentlik masalasini shaxs rivojlanishining bosqichlaridan biri deb hisoblaydi.Har bir inson shaxs bo‘lib shakllanish jarayonlarida o‘zining uzluksiz faoliyati davomida ta’limning yangi-yangi ta’lim cho‘qqilariga intiladi.Ular quyidagilardan iborat; umumiy ta’lim; madaniyatini oshirib borish; o‘z individual mentalitetini shakllantirish.Ushbu tuzilmalar bir-biriga bog‘liq va bir- birini to‘ldiradi.

N.I.Zaprudskiy kasbiy kompetentlik deganda bilimlar tizimi, mahorat, ko‘nikma, o‘zining kasbiy faoliyatga oid kompetentlikdir.Kompetentli shaxs deganda olim o‘z ishining ustasi bo‘lish, kasbiy mahoratni egallash bilangina cheklanmaydigan, balki ishni tashkil etish, o‘z faoliyatiga aloqador barcha muammoli tizimli ravishda tushunish,vazifa qo‘ya bilish aniq muammolarga echim topa olish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxsni nazarda tutadi.

A.K.Markova kompetentlikni quyidagi turlarga ajratadi: Maxsus kompetentlik-kasbiy faoliyatni yuqori darajada egallaganlik,o‘zining kasbiy jixatdan borgan sari o‘sib borishni loyixalashtira olish; Ijtimoiy kompetentlik – birgalikdagi (guruhli, jamoaviy) kasbiy faoliyat,hamkorlik shuningdek, mazkur kasbga tegishli kasbiy muloqot yo‘llarini puxta egallaganlik, o‘zining kasbiy faoliyati natijalariga ijtimoiy jixatdan javobgarlik; Shaxsiy kompetentlik-shaxsiy dunyoqarashlari va o‘z-o‘zini rivojlantirish yo‘llarini egallaganlik, o‘zining kasbiy jixatdan izdan chiqib ketishiga qarshilik ko‘rsata olishga qodirlik; Individual kompetentlik-o‘z kasbi doirasida o‘zini namoyon qila olish va o‘zini rivojlantirish,o‘zining individualligini saqlay bilish, kasbiy jihatdan orqada qolishga yo‘l qo‘ymaslik,o‘z mehnatini oqilona tashkil eta bilish. Ko‘plab tadqiqotchilar kasbiy kompetentlik va uning tarkibida pedagogning bilimi va mahorati uyg‘unligi,

uning o‘z kasbiga munosabati,aniq maqsadni ko‘zlab faoliyat olib borishi masalalariga aloxida diqqatlarini qaratmoqdalar.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, “kompetentlik” shaxsning o‘z kasbiy bilimlarini tinmay boyitib borish, yangi axborotlarni o‘rganish, davr talablarini his etish,yangi bilimlarni izlab toppish,ularni qayta ishlash hamda o‘z amaliy faoliyatida qo‘llay bilishi deb hisoblash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A, Sharipov Sh.S, Qo‘ysinov O.A. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi, Международный научный журнал № 3 (100), часть 1 «Новости образования: исследование в XXI веке» октябрь, 2022 г 468 kasb tanlashga yo‘llash. Darslik. Toshkent.: 2014 y.

2.Nishonova Z.T. Mustaqil badiiy ijodkorlik fikrlash.-T.: Fan-2003y.

3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

4. Инновацион таълим технологиялари /Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: “Сано стандарт” нашриёти, 2015. – 81-б

5.Толипов Ф.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Т.: Фан, 2006.

6. D. A. Rajabova, M.B.Abduzaxidova, Q. SH. Begaliyev “Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda ta’lim tizimi samaradorligi va kreativligini takomillashtirish”. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Open Access Peer Reviewed | Conference Proceedings. Volume1, 1st October 2022.

НАЗНАЧЕНИЕ ПРИЕМОВ ТЕХНОЛОГИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ РАЗВИТИИ ОСНОВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ШКОЛЬНИКОВ

Д.Махмудова
магистрантка 1 курса Наманганского государственного педагогического института.
makhumovadinara@gmail.com

Аннотация. В статье раскрываются основы компетентного подхода в образовании, понятия ключевые и предметные компетенции, а также особенности технологии РКМЧП , даются примеры методов и приемов данной технологии на уроках русского языка для развития различных компетенций учащихся.

Ключевые слова: компетентный подход, ключевые компетенции, предметные компетенции, приемы, методы, РКМЧП, критическое мышление.

Современное традиционное образование — средство предоставления систематизированных, официальных, современных знаний, соответствующих возможности овладения умениями и навыками, основанными на компетентном подходе, при подготовке человека к жизни, в частности труду.

О стратегической цели системы народного образования, а именно, развитие человеческого капитала как основного фактора, определяющего уровень конкурентоспособности учащегося на рынке труда и страны в целом говориться в «Концепции развития системы народного образования Узбекистана до 2030 года, утвержденного указом №УП-5712

Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева [5]. В «дорожной карте» по реализации Концепции основными пунктами внедрение личностно-ориентированного обучения является совершенствование методики обучения, поэтапное внедрение принципов индивидуализации учебно-воспитательного процесса.

Современная профессионально-педагогическая деятельность может быть охарактеризована через профессиональные задачи педагога: «видеть» обучающегося в образовательном процессе, строить образовательный процесс, ориентированный на достижение целей конкретной ступени образования, устанавливать взаимодействие с другими субъектами образовательного процесса, партнерами образовательного учреждения, создавать и использовать в педагогических целях

образовательную среду, проектировать и осуществлять профессиональное самообразование [4]. На основании требований компетентностного подхода можно выделить функции современной профессионально-педагогическй деятельности: содействия образованию школьника, студента, проектирования индивидуального образовательного маршрута, управления образовательным процессом, рефлексии и самообразования [7]. К ключевым компетенциям, которые должны быть сформированы в общеобразовательной школе, ученые относят социальные, политические, межкультурные, коммуникативные, информационные и интеллектуальные. Кроме этого существуют предметные компетенции, имеющие конкретное описание и возможность формирования в рамках учебных предметов [6].

Компетентный подход в образовании направлен на развитие как опорных, так частных компетенций. В Государственный образовательный стандарт и учебные программы по каждому предмету внедрены формирование опорных компетенций. Обязательный минимум содержания обучения для уровня А 2 системы обязательного образования по предмету «Русский язык» включают речевые (аудирование, говорение, чтение, письмо), лингвистические и социолингвистические компетенции [1]

К предметным компетенциям по русскому языку относятся:

- речевые компетенции: *аудирование, говорение ,чтение и письмо;*
- лингвистические компетенции: *фонологическая* компетенция, грамматическая компетенция;
- социолингвистические компетенции.

Приемы технологии развития критического мышления через чтение и письмо (РКМЧП) дают возможность развивать несколько видов компетенций одновременно. Рассмотрим некоторые из них.

Прием **«Дерево предсказаний»,** используемый в работе с художественным текстом, помогает строить предположения по поводу развития сюжетной линии в рассказе, повести. Работая над «ветвями предположения» и «листьями обоснованиями» учащиеся учатся аргументировать свои предположения. Этот прием развивает речевые компетенции: умение выделять главную и второстепенную информацию в прослушанном тексте, умение озаглавить прослушанный текст и сформулировать его главную мысль (навыки аудирования), составление монологического высказывания основе личных наблюдений, ведение неподготовленного диалога, составление характеристики литературного героя (навыки говорения), использование выражений благодарности, сожаления, согласия \ несогласия (социолингвистические компетенции).

Прием **«Толстые и тонкие вопросы»** учит различать те вопросы, на которые можно дать однозначный ответ (тонкие вопросы), и те, на которые ответить столь определенно не возможно (толстые вопросы). Толстые вопросы – это проблемные вопросы, предполагающие неоднозначные ответы. Этот прием развивает умение выделять главную и второстепенную информацию в прослушанном тексте, умение составлять вопросы по содержанию прослушанного текста, умение отвечать на вопросы (навыки аудирования), составление монологического высказывания по содержанию прочитанного текста, ведение диалога (навыки говорения), умение успешного общения в процессе межкультурной коммуникации, навыки общения в социальных группах (социолингвистическая компетенция).

Прием **«Лови ошибку»** актуализирует имеющиеся у учащихся знания по изученной теме, развивает у школьников критический подход к получаемой информации. Анализируя предложенный в начале урока учителем текст с ошибками, учащиеся, пытаются выявить ошибки, аргументируют свои выводы. Учитель дает возможность в конце урока исправить те ошибки, которые не удалось выявить в начале урока. Этот прием развивает навыки понимания сообщений, имеющих информативный характер, понимания прослушанного или прочитанного текста описательного характера, текста, содержащего лексический и языкового материал, предусмотренный программой (речевые компетенции), углубляет и расширяет знания грамматического материала определенного программой для выражения конкретного содержания высказываний, знания необходимых орфографических и пунктуационных правил **(грамматическая компетенция).**

Графическая организация материала - один из эффективных и распространенных способов работы с учебным материалом. В технологии РКМЧП используются несколько табличных форма.

Это концептуальная таблица, сводная таблица, таблица- синтез, таблица ЗХУ, таблица –инсерт, таблица «Плюсы-Минусы-Интересно», таблица «Что? Где? Когда? Почему?», которые можно использовать на всех этапах урока.

Приём **«П» - «М» - «И»** (таблица «Плюсы-Минусы-Интересно») помогает организовать работу с информацией. Этот способ помогает организовать активную работу с текстом. Знакомясь с информацией пошагово, анализируя уже имеющие знаний по теме, учащихся не только активно воспринимают (прослушивают, записывают), систематизируют, но и оценивают, актуализируются эмоциональные отношения, что позволяет провести обсуждение, дискуссию по спорным вопросам. Этот прием развивает умения и навыки понимания сообщений, прослушанного текста, содержащего лексический и языкового материал (навыки аудирования), умения и навыки беглого чтения про себя и извлечения полной информации текста, навыки чтения текста про себя и понимания основной мысли текста и содержания отдельных его деталей (навыки чтения), умения и навыки практического усвоения лексической сочетаемости слов, умения объяснить значение слова (семантизировать), умения и навыки употреблять слова в соответствии с жизненной ситуацией общения в диалогической и монологической речи, умения выбирать слова из ряда близких по форме или по значению использовать в монологической и диалогической речи (лексическая компетенция).

Прием «**Перепутанные логические цепочки»** используется при работе с учебным материалом, который демонстрируются учащимся в заведомо нарушенной последовательности. Восстанавливая правильный порядок хронологической или причинно-следственной цепи, учащиеся высказывают различные мнения. Способствуя развитию внимания и логического мышления у учащихся, прием кроме речевых компетенций (навыки аудирования, чтения, говорения), навыки использования усвоенного словарного запаса в конкретной ситуации общения , умения выбирать слова из ряда близких по форме или по значению использовать в монологической и диалогической речи (лексическая компетенция), навыки использования наиболее распространенных норм речевого этикета, обеспечивающих возможность эффективного общения с носителями языка, навыки общения в процессе межкультурной коммуникации (социолингвистическая компетенция).

Синквейн как письменная форма рефлексии, помогает анализировать и синтезировать информацию, это своеобразная игра слова, которая способствует творческому саморазвитию и красивому выражению своих мыслей. Составляя синквейн (от французского «пять») учащиеся учатся поэтически выражать жизненные впечатления, рожденные переживанием, осмыслением прочитанного или прослушанного. Сиквейн кроме навыков аудирования и чтения, навыки использования усвоенного словарного запаса, умения практически распределять усвоенные слова по тематическим группам, умения практического усвоения лексической сочетаемости слов при письменном описании (лексическая и речевая компетенции).

Применение технологии РКМЧП способствует развитию у учащихся компетенции, необходимых в будущем, являющимися ключевыми для члена общества в 21 веке:

- Осознанная и самостоятельная деятельность (собственное видение, постановка целей, приложение стратегий, рациональное использование ресурсов);
- Инициативность и ответственность за свои действия;
- Готовность продолжать обучение, совершенствование полученных навыков;
- Критическое мышление и поиск решения проблем;
- Основанный на общении и сотрудничестве – дух взаимопонимания, диалога и договоренности;
- Умение руководить, стремление к обмену идеями, творческая реализация идей;
- Общая грамотность (языковая, математическая, культурная);
- Коммуникационные и информационные навыки.

Основная задача современной школы – подготовить учащихся к жизни. Выпускник общеобразовательной школы кроме предметных компетенций должен владеть общими компетенциями, а именно развитие социальных, межкультурных, коммуникативных, информационных, интеллектуальной, социокультурной, к*омпетенций в области профессионального и личностного развития (способность обучаться на протяжении всей жизни),*

компетенций решения проблем и др. Приобретению и развитию всех указанных навыков и умений помогает применение технологии РКМЧП при обучении.

Список литературы.

1. Государственный стандарт и учебная программа (Русский язык) для школ общего среднего образования. ПКМ- № 187. Ташкент, – 2017.

2. Исломова Д., Махмудова Д. Этапы и приемы обучения написанию изложений. Язык – литература – культура: Материалы Международной научно-практической конференции – Москва: Перо – 2022. – 373 с.

3. Клустер Д. Что такое критическое мышление. – М.: ЦГЛ, 2009. https://rus.1sept.ru. Дата обращения: 08.05.2024.

4. Компетентностный подход в педагогическом образовании: Коллективная монография / Под ред. Проф. В.А. Козырева, проф. Н.Ф. Радионовой, проф. А.П. Тряпицыной // СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена. – 2004. https://search.rsl.ru

5. Мирзиёев Ш. «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года». УП № 5712. - Ташкент. - 2019 г.

6. Об утверждении Государственного образовательного стандарта по иностранным языкам системы непрерывного образования ПКМРУ. № 124 . Ташкент: – 2013.

7. Пискунова Е.В. Социокультурная обусловленность изменений профессионально-педагогической деятельности учителя. Монография. СПб.: Изд-во РГПУ им.А.И.Герцена, 2005. – 324 с.)

8. Шакирова Д. М. Критическое мышление. Серия «Методология. Технологии. Инновации»). Вып. 3 — Казань: ГАОУ ДПО ИРО РТ. –2019 —146 с.

YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA LIDERLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH: RAQAMLI LIDERLIK

D.A.Ergasheva
Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va tarixi 1-bosqich magistranti
dilnoza90900404@gmail.uz +998974881071

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarini shakllantirish borasida so‘z boradi. Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga bog‘liq. Shunday ekan yoshlar yurt kelajagi va ularni ertangi kun lider rahbarlari qilib tarbiyalash ustivor vazifalardan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar. Yoshlar, ijtimoiy faollik, liderlik ko‘nikmalari, rivojlantirish, tashabbuskorlik, yoshlar siyosati, jamiyat.

Kirish.Yoshlar har qanday jamiyatning eng faol, ijodiy va istiqbolli qatlami hisoblanadi. Ularning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki, fuqarolik pozitsiyasi va tashabbuskorligi mamlakat taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish ularning liderlik ko‘nikmalarini shakllantirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Liderlik – bu nafaqat boshqaruv, balki jamoani ilhomlantirish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, o‘zgarishlarga boshchilik qilish salohiyatidir. Mazkur maqolada yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik kompetensiyalarining roli, ularni shakllantirish usullari va xorijiy tajriba tahlil qilinadi.

Liderlik – bu odamlarni maqsad sari yo‘naltira olish, qarorlar qabul qilish va ijtimoiy guruhlarni boshqarish qobiliyatidir. B.M. Bass (1990) liderlikni ta’sir o‘tkazish, boshqalarni rag‘batlantirish va o‘zgarishlarni boshqarish jarayoni sifatida izohlaydi. Ijtimoiy kontekstdagi liderlik yoshlarning faolligi, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy mas’uliyat hissi bilan uyg‘unlashadi. Shunday ekan, yosh liderlar jamiyatdagi o‘zgarishlar lokomotiviga aylanishi mumkin.[1]

Asosiy qism. Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar

masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O‘zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.[2]

Yoshlarning ijtimoiy faolligi: mohiyati va zamonaviy holati

Ijtimoiy faollik – bu jamiyatda faol ishtirok etish, ijtimoiy muammolarga befarq bo‘lmaslik, ijtimoiy tashabbuslarni ilgari surish holatidir. Zamonaviy O‘zbekiston sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligi O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi, Yoshlar ishlari agentligi, “Yoshlar daftari” loyihasi va boshqa ijtimoiy institutlar faoliyati orqali qo‘llab-quvvatlanmoqda. Biroq faollikni faqat tashkiliy ishtirok sifatida emas, balki fikrlash madaniyati, liderlik salohiyati, kommunikativ kompetensiyalar doirasida tahlil qilish zarur.[3]

Yosh liderlar quyidagi asosiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur:

Strategik fikrlash – uzoq muddatli rejalashtirish, tizimli yondashuv;

Kommunikativ ko‘nikmalar – samarali muloqot, tinglash, bahs yuritish;

Jamoa boshqaruvi – guruh ichida liderlikni amalga oshirish;

Emotsional intellekt – empatiya, stressni boshqarish, o‘zini anglash.

Bu ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshadi: birinchi bosqichda – o‘ziga ishonchni oshirish; ikkinchi bosqichda – jamoaviy ish orqali tajriba orttirish; uchinchi bosqichda – liderlik rolini egallash.

Yoshlarning liderlik kompetensiyasini rivojlantirishda ta’lim muassasalari muhim o‘rin tutadi. Quyidagi metodlar samarador hisoblanadi:

Treninglar va seminarlar – nazariy bilim va amaliy mashqlar uyg‘unligi;

Simulyatsiyalar va rolli o‘yinlar – qaror qabul qilish va strategik fikrlashni rivojlantiradi;

Loyiha faoliyati – yoshlar o‘z tashabbuslari bilan jamoani boshqaradi;

Mentorlik tizimi – tajribali liderlardan o‘rganish imkoniyati.

Masalan, AQShda “Youth Leadership Program” doirasida yoshlar kommunikatsiya, tanqidiy fikrlash va jamoa ishida faol ishtirok etishga o‘rgatiladi (U.S. Department of State, 2020).[4]

Germaniyada “Jugend debattiert” kabi dasturlar orqali maktab o‘quvchilari bahs yuritish, yetakchilik va ommaviy nutq ko‘nikmalarini o‘rganadilar. Janubiy Koreyada esa “Global Youth Leadership” akademiyalari mavjud bo‘lib, ular yoshlarni xalqaro miqyosdagi yetakchilikka tayyorlaydi.

O‘zbekistonda esa “Lider yoshlar” harakati, “Yosh liderlar akademiyasi” va “Kelajak Liderlari” forumlari yoshlarning salohiyatini ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Bu tajribalarni tizimlashtirish va o‘quv dasturlariga integratsiya qilish dolzarb masaladir.[5]

Raqamli asrda liderlik: media savodxonlik va onlayn faollik

Raqamli asrda yoshlar ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, videokontentlar orqali ommaga ta’sir o‘tkazmoqda. Media liderlik – bu ijtimoiy masalalarni ko‘tarish, axborot orqali fikr uyg‘otish, jamoatchilikni jalb etish sanaladi. Shu bois, yosh liderlar media savodxon, axborotni tahlil qila oluvchi va axloqiy me’yorlarga rioya qiluvchi shaxs bo‘lishi zarur (Livingstone, 2019).[6] Internet, ijtimoiy tarmoqlar, sun’iy intellekt va raqamli platformalar orqali yoshlar jamoatchilikka murojaat qilmoqda, ijtimoiy fikr shakllantirmoqda va hatto siyosiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsata olmoqda.

Raqamli liderlik – bu onlayn muhitda ta’sir ko‘rsatish, boshqalarga ilhom bag‘ishlash va ijtimoiy o‘zgarishlarga yetakchilik qilish qobiliyatidir. Raqamli liderlar odatda quyidagi fazilatlarga ega bo‘ladi:

Keng auditoriyaga murojaat qilish (ijtimoiy tarmoqlar orqali);

Axborotni samarali va aniq yetkazish;

Onlayn kontent orqali muammoga e’tibor jalb qilish;

Virtual hamkorlik va jamoani boshqarish;

Tezkor qaror qabul qilish va ijtimoiy trendlarga moslashish.

Bunday liderlik ko‘proq “influencer” (ta’sirchan shaxs) kontseptsiyasiga yaqin, lekin u faqat mashhurlikka emas, balki ijtimoiy foyda keltiruvchi tashabbuslarga asoslanadi.[7] Media savodxonlik – bu

odamning axborotni tanqidiy qabul qilish, tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyatidir. Yoshlar uchun media savodxonlik quyidagilarga xizmat qiladi:

Fikrni mustaqil shakllantirish;
Soxta (feyk) yangiliklarni ajratish;
Axborotga asoslangan qaror qabul qilish;
Axloqiy va qonuniy me’yorlarga rioya qilish.

UNESCO ta’rifiga ko‘ra, media va axborot savodxonligi (MIL – Media and Information Literacy) – demokratik jamiyatda faol ishtirok etishning asosi hisoblanadi.[8]

Yoshlar liderlik faoliyatida raqamli madaniyat qoidalariga amal qilishi, shuningdek, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, kiberxavfsizlik choralarini bilishi zarur. Bu, ayniqsa, blogerlar va ta’sirchan kontent yaratuvchilar uchun dolzarb. O‘zbekistonda raqamli liderlik va media savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi tashabbuslar mavjud:

“Media savodxonlik” darslari (ba’zi oliy o‘quv yurtlarida);
Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilayotgan media-forumlar;
“Yosh blogerlar maktabi” kabi loyihalar;
Davlat siyosatida yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy faolligini rag‘batlantirish.[3]

Xulosa. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va liderlik ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta’lim va tarbiyaning strategik yo‘nalishidir. Bu jarayonda tizimli yondashuv, ijtimoiy institutlar va xalqaro tajribadan unumli foydalanish zarur. Yosh liderlarni tarbiyalash orqali biz faol, mas’uliyatli va tashabbuskor avlodni shakllantiramiz, bu esa barqaror va rivojlangan jamiyat poydevoridir. Raqamli asr yosh liderlar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ular faqat o‘z jamiyatida emas, balki global miqyosda ham ta’sir ko‘rsatish imkoniga ega. Buning uchun esa ularning media savodxonligi yuqori bo‘lishi, onlayn etikaga rioya qilishi va kontent orqali ijtimoiy o‘zgarishlarga yetakchi bo‘lishi zarur. Zamonaviy ta’lim tizimi bu ko‘nikmalarni yoshlar ongiga singdirishi kerak.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Bass, B.M. (1990). Bass & Stogdill’s Handbook of Leadership: Theory, Research, and Managerial Applications. Free Press.
2. https://strategy.uz/index.php?news=615&lang=uz
3. O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi rasmiy sayti: https://yoshlar.gov.uz
4. U.S. Department of State (2020). Youth Leadership Program Overview.
5. Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ). Jugend debattiert – Rasmiy sayt.
6. Livingstone, S. (2019). Youth and Digital Media: From Credibility to Agency. MIT Press.
7. Jenkins, H., Ito, M., boyd, d. (2016). Participatory Culture in a Networked Era. Polity Press.
8. UNESCO (2021). Media and Information Literacy: Curriculum for Teachers.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FIZIKA DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODIKASI

F.Y.Ramazonova
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada fizika fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ularning dars samaradorligiga ta’siri yoritilgan. Interaktiv vositalar, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar asosida darslarni tashkil etish usullari ko‘rib chiqilgan. Empirik tadqiqotlar natijalari asosida raqamli yondashuvlarning afzalliklari va mavjud muammolar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Raqamli ta’lim texnologiyalar, fizika darsi, interaktiv metodlar, virtual laboratoriya, ta’lim sifati.*

Kirish XXI asrda insoniyat hayotining barcha sohalarida, xususan, ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Bu o‘zgarishlarning markazida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun’iy intellekt, raqamli platformalar va virtual haqiqat kabi ilg‘or texnologik yechimlar turibdi. Globallashuv, raqamlashtirish va uzluksiz ta’lim konsepsiyasi ta’lim tizimiga mutlaqo yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni tobora ortib

bormoqda. Ayniqsa, pandemiya davrida onlayn ta’limning keng joriy etilishi ta’lim jarayonida raqamli vositalarning zaruriyati va foydasini yana bir bor isbotladi.

Fizika fani, o‘zining nazariy va amaliy xususiyatlari jihatidan, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishga eng mos va tayyor fanlardan biri hisoblanadi. Sababi, fizika fani atrof-muhitda sodir bo‘ladigan tabiiy hodisalar, energiya turlari, modda xossalari, harakat va kuchlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi. Bunday murakkab tushunchalarni an’anaviy usullarda, ya’ni faqat doska, kitob va og‘zaki tushuntirish orqali tushuntirish ko‘p hollarda o‘quvchilarning mavzuni chuqur anglashiga to‘liq yordam bera olmaydi. Shu bois, fizika darslarida animatsiyalar, interaktiv modellar, raqamli laboratoriyalar, simulyatsiyalar va tajriba platformalari orqali o‘qitish dolzarb metodik yo‘nalishga aylandi.

Bugungi kunda ta’lim jarayoniga PhET (Physics Education Technology), GeoGebra, Arduino, Google Classroom, Zoom kabi raqamli platforma va ilovalar keng miqyosda joriy etilmoqda. Ushbu vositalar orqali o‘quvchilar nafaqat mavzuni yaxshiroq tushunadilar, balki o‘zlarining ilmiy tafakkuri, muammoni hal qilish ko‘nikmalari, mantiqiy fikrlash salohiyatini ham rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ayniqsa, fizika fanida turli tajribalarni xavfsiz, tejamkor va bir necha bor takrorlab o‘tkazish imkoniyatini beradigan virtual laboratoriyalar ham pedagogik amaliyotda katta o‘rin egallay boshladi.

Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan fizika darslari o‘quvchilarda o‘quv motivatsiyasini oshirish, dars jarayonida faol ishtirok etish, mustaqil izlanish va tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarini rivojlantirish kabi ijobiy jihatlar bilan ajralib turadi. Bunday yondashuvlar orqali o‘quvchilar mavzuni faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar. O‘z navbatida, bu fizika fanining o‘ziga xos maqsadlari – atrof-muhitdagi hodisalarni anglash, tahlil qilish, ilmiy asosda tushuntirish kabi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish ba’zi metodik va tashkiliy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, ayrim maktablarda kompyuter texnikasi yetishmovchiligi, internet tezligi pastligi, o‘qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasining turlicha bo‘lishi, metodik materiallarning kamligi kabi muammolar mavjud. Bu esa fizika fanining interaktiv va raqamli shaklda o‘tilishini to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu boisdan, ushbu muammoni tizimli ravishda o‘rganish, tajriba asosida asoslangan metodik yechimlarni ishlab chiqish va ular asosida amaliy tavsiyalar berish bugungi kundagi dolzarb ilmiy-pedagogik vazifalardan biridir.

Shunday qilib, ushbu maqola fizika darslarini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishning samaradorligini tahlil qilish, ilg‘or pedagogik yondashuvlar va metodik usullarni o‘rganish, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – raqamli texnologiyalarni fizika fanida samarali qo‘llashga doir metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va ularning ta’lim sifatiga ta’sirini aniqlashdan iborat.

Xulosa: Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Fizika fani esa bu texnologiyalarni amaliy va nazariy jihatdan integratsiyalash uchun eng qulay sohalardan biridir. O‘tkazilgan tahlillar, tajribalar va kuzatishlar asosida aniqlanishicha, raqamli vositalar yordamida tashkil etilgan fizika darslari quyidagi afzalliklarga ega:

O‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasi sezilarli darajada ortadi;

Murakkab fizik hodisalarni ko‘rgazmali, vizual vositalar orqali tushunish imkoniyati yaratiladi;

Virtual laboratoriyalar orqali tajribalarni xavfsiz va tejamkor sharoitda takroran bajarish mumkin bo‘ladi;

Interaktiv platformalar yordamida o‘quvchilarda mustaqil izlanish, mantiqiy fikrlash va ilmiy tadqiqot olib borish ko‘nikmalari rivojlanadi;

O‘qituvchining darsni tashkil etish va baholashdagi metodik yondashuvi zamonaviylashadi, darslar samaradorligi ortadi.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar fizika ta’limining sifatini tubdan oshirish, uni hayotiy va amaliy jihatdan foydali, o‘quvchilar uchun qiziqarli va samarali qilish imkoniyatini beradi. Ushbu yondashuvlar nafaqat bilim berish, balki zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan raqamli kompetensiyalarga ega shaxsni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, fizika darslarini raqamli texnologiyalar asosida samarali tashkil etish – kelajak ta’limining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.N.Karimov./Fizika fanini o‘qitishda virtual laboratoriya ishidan

foydalanish. “Yosh olimlar, doktarantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiyforumi” materiallar to‘plami. – P. 102-104 b

2. N .N. Azizxo‘jayeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahurat o‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti.

3. Axmedov Q.M., Ismoilov O.A. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni joriy qilish muammolari. –T.: «Fan va texnologiya», 2012, 36 bet

4. Masodiqova Dilruxsor Ravshanjon qizi, Yusupova Kamola Fozilxonovna Fizika fanlarini samarali o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil qilish, International scientific and practical conference modern, innovative development of exact and natural sciences in higher education november 15, 2024 115-116 b.

ТЕХНОЛОГИИ КОНТРОЛЯ СТЕПЕНИ СФОРМИРОВАННОСТИ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РКИ

Р.М.Мухибиллаева
Магистрант 1-го курса Наманганский государственный педагогический институт

Аннотация В данной работе рассматриваются современные технологии контроля степени сформированности компетенций учащихся на уроках РКИ. Особое внимание уделяется методам диагностики, формирующего и итогового контроля, а также цифровым инструментам, способствующим повышению точности и эффективности оценки знаний и умений студентов. Анализируются такие технологии, как тестирование, проектные и портфолио-методы, наблюдение, саморефлексия и использование электронных образовательных ресурсов.
Рассматриваются преимущества и недостатки различных технологий контроля, а также их влияние на мотивацию учащихся и эффективность учебного процесса. В ходе исследования делается вывод о значимости комплексного подхода к контролю и оценке сформированности компетенций, что позволяет адаптировать образовательные стратегии в соответствии с индивидуальными потребностями студентов.

Ключевые слова: технологии контроля, компетенции, русский язык как иностранный, оценивание, цифровые инструменты.

Введение. В современном образовательном пространстве особую актуальность приобретает компетентностный подход, ориентированный на формирование у обучающихся не только знаний, но и умений, навыков, а также личностных качеств, необходимых для успешной деятельносфэти в различных сферах. Для преподавания русского языка как иностранного (РКИ) этот подход особенно важен, поскольку учащимся необходимо овладеть языком не только на уровне «знания», но и уметь эффективно применять его в реальных коммуникативных ситуациях, понимать культурный контекст, развивать языковую интуицию и т.д. Цель данного методического пособия – рассмотреть современные технологии контроля компетенций учащихся на уроках РКИ, уделив особое внимание методике кейс-стади, которая позволяет комплексно оценить языковые, коммуникативные, культурные и метапредметные компетенции.

Задачи:

Определить теоретические основы компетентностного подхода и его реализации в преподавании РКИ;

Проанализировать традиционные и современные формы контроля;

Рассмотреть особенности цифровых технологий в оценивании;

Подробно изучить методику кейс-стади, её преимущества и ограничения;

Предложить рекомендации по практическому внедрению кейс-метода в систему контроля компетенций учащихся на уроках РКИ.

Актуальность работы обусловлена необходимостью повышения качества преподавания русского языка иностранным студентам, а также расширением возможностей для объективной и комплексной оценки их прогресса.

Теоретические основы формирования и контроля компетенций в обучении РКИ. Понятие «компетенция» и «компетентностный подход» Термин «компетенция» имеет множество трактовок в современной педагогической и лингвистической литературе. В общем виде компетенция понимается как совокупность знаний, умений, навыков и личностных качеств, которые позволяют индивиду эффективно действовать в определённой сфере.

Компетентностный подход в образовании нацелен на развитие у обучающегося способности самостоятельно находить и применять знания на практике, адаптироваться к меняющимся условиям и критически мыслить. В преподавании РКИ этот подход ориентирован на то, чтобы студент не просто заучивал слова и грамматические правила, но и мог использовать язык в реальной коммуникации, понимать культурный контекст, вести дискуссии и т.д.

Значение контроля компетенций для повышения эффективности обучения Контроль компетенций играет ключевую роль в образовательном процессе, так как позволяет:

Определять уровень подготовки каждого обучающегося;

Корректировать учебный процесс, учитывая выявленные пробелы;

Мотивировать студентов к более глубокому изучению языка;

Обеспечивать обратную связь между преподавателем и учащимися

Гарантировать качество подготовки выпускников, соответствующее стандартам. Письменные и устные экзамены На уроках РКИ классическим примером контроля являются письменные работы (сочинения, диктанты, тесты), а также устные экзамены (монолог, диалог, собеседование). Тестовые задания и их особенности

Тесты широко используются в практике контроля знаний благодаря возможности быстро оценить большие группы обучающихся. Существуют различные типы тестов:

Закрытые (с выбором одного или нескольких правильных ответов);

Открытые (требуют свободного письменного ответа);

Интерактивные тесты, квизы и их роль в оценивании

Различные сервисы (Kahoot, Quizlet, Socrative и др.) позволяют создавать игровые и интерактивные тесты, что повышает мотивацию учащихся. Преимущество таких инструментов – мгновенная обратная связь и возможность вовлекать студентов в соревновательную деятельность, что положительно сказывается на интересе к предмету.

Методика кейс-стади (case study) в обучении РКИ. В обучении РКИ кейс-метод позволяет моделировать коммуникативные ситуации, максимально приближенные к реальной жизни: обсуждение культурных различий, анализ русских текстов, решение этических или социальных дилемм и т.д.

Типология кейсов: проблемные, ситуационные, ролевые. Проблемные кейсы: формулируется конкретная проблема, требующая анализа и поиска решения.

Ситуационные кейсы: описывается определённая ситуация (культурная, бытовая, профессиональная), в которой учащиеся должны найти оптимальные речевые и поведенческие стратегии.

Ролевые кейсы: каждый студент получает роль и должен действовать в соответствии с ней, разыгрывая ситуацию. Это может быть модель интервью, заседание «круглого стола» и др.

Роли преподавателя и учащихся в процессе кейс-стади. Преподаватель: консультирует, направляет дискуссию, следит за соблюдением временных рамок и корректностью использования языка.

Учащиеся: самостоятельно анализируют информацию, распределяют обязанности, вырабатывают решения. Чем больше самостоятельности у студентов, тем эффективнее проходит обучение.

Проблемы и пути их решения при использовании кейсов. Языковой барьер: иностранные студенты могут испытывать трудности в понимании кейса на русском языке. Решение – предоставить словарь ключевых терминов, использовать наглядные материалы. Пассивность некоторых участников: иногда более активные студенты доминируют. Решение – чётко распределять роли и фиксировать вклад каждого участника.

Заключение. Современная методика преподавания РКИ всё больше ориентируется на компетентностный подход, который требует комплексной оценки достижений обучающихся.

Технологии контроля компетенций, будь то традиционные экзамены, цифровые инструменты или кейс-стади, дополняют друг друга и позволяют более объективно судить о прогрессе студентов.

Методика кейс-стади, о которой шла речь в данном пособии, представляет особый интерес, поскольку даёт возможность оценивать не только языковые знания, но и коммуникативные, аналитические, социокультурные компетенции. При правильной организации и чётко разработанных критериях оценивания кейс-метод становится мощным средством формирования и контроля компетенций на уроках РКИ.

Главное условие успеха – системный подход, предполагающий сочетание разных форм контроля, планомерную работу над ошибками и постоянную обратную связь. Только так можно добиться высоких результатов и подготовить студентов к реальному использованию русского языка в многообразных ситуациях.

Список литературы

1. Азимов, Э.Г., Щукин, А.Н. Словарь методических терминов (теория и практика обучения языкам). – М.: Русский язык, 1999. – 472 с.

2. Вербицкая, Л.А. Методика преподавания русского языка как иностранного. – СПб.: Златоуст, 2007. – 320 с.

3. Гальскова, Н.Д., Гез, Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. – М.: Академия, 2006. – 336 с.

4. Дмитриев, В.Д. Инновационные технологии в обучении РКИ // Вестник РУДН. Серия «Педагогика и психология». – 2018. – №2. – С. 54–63.

5. Иванова, С.В. Кейс-метод в преподавании иностранных языков // Иностранные языки в школе. – 2015. – №6. – С. 22–29.

6. Маклакова, Е.В. Использование цифровых образовательных ресурсов в обучении РКИ. – М.: МГПУ, 2019. – 198 с.

7. Петрова, Е.В. Контроль и оценка компетенций учащихся в условиях компетентностного подхода. – СПб.: СПбГУ, 2020. – 250 с.

8. Соловьёва, Т.В. Геймификация и интерактивные методики в обучении РКИ // Образование и наука. – 2021. – №3. – С. 45–57.

9. Харитонова, М.И. Развитие коммуникативной компетенции в процессе проектной деятельности // Преподавание языка и литературы. – 2017. – №4. – С. 88–94.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ ВЛИЯНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЯЗЫКОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ

О.К.Ахмаджанов
Старший преподаватель кафедры русского языка и литературы Наманганского государственного университета (PhD), E-mail: akhmadzhanov71@inbox.ru
М.У.Уктамова
Наманганский педагогический институт 1-курс магистратуры
Направление: «Русский язык и литература», E-mail: Uktamovamushtariy7@gmail.com

Аннотация: Статья посвящена рассмотрению современных методологических стратегий и эмпирических методов, применяемых при изучении социолингвистических аспектов формирования языковых компетенций. Описываются как традиционные (анкетирование, интервью, наблюдение), так и инновационные подходы (корпусный анализ, анализ данных из цифровых коммуникационных сред, экспериментальные методы). Акцент сделан на комплексности методики, её междисциплинарной направленности и адаптивности к изменяющимся речевым практикам.

Ключевые слова: социолингвистика, цифровизация, структура языка, междисциплинарный подход, социокультурная среда, языковая вариативность, традиционные методы, инновационные подходы.

Annotatsiya: Maqolada til kompetentsiyalarini shakllantirishning sotsiolingvistik jihatlarini o’rganishda qo’llaniladigan zamonaviy metodologik strategiyalar va empirik usullarni ko’rib chiqishga

bag’ishlangan. Ham an’anaviy (so’rovnomalar, intervyular, kuzatishlar), ham innovatsion yondashuvlar (korpus tahlili, raqamli aloqa muhitidan olingan ma’lumotlarni tahlil qilish, eksperimental usullar) tavsiflanadi. Asosiy e’tibor metodologiyaning murakkabligi, uning fanlararo yo’nalishi va o’zgaruvchan nutq amaliyotiga moslashishiga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: sotsiolingvistika, raqamlashtirish, til tuzilishi, fanlararo yondashuv, sotsial-madaniy muhit, til o‘zgaruvchanligi, an’anaviy usullar, innovatsion yondashuvlar.

Abstract: The article is devoted to the consideration of modern methodological strategies and empirical methods used in the study of sociolinguistic aspects of the formation of language competencies. Both traditional (questionnaires, interviews, observation) and innovative approaches (corpus analysis, analysis of data from digital communication environments, experimental methods) are described. The emphasis is on the complexity of the methodology, its interdisciplinary focus and adaptability to changing speech practices.

Key words: sociolinguistics, digitalization, language structure, interdisciplinary approach, sociocultural environment, language variability, traditional methods, innovative approaches.

Современное общество характеризуется интенсивными процессами глобализации, социальной мобильности, цифровизации коммуникации и культурной гибридизации, что непосредственно отражается на функционировании и развитии языка. В этих условиях особенно возрастает значение социолингвистики — науки, изучающей взаимосвязь между языком и обществом. Социолингвистический подход позволяет выявить, каким образом социальные, культурные, профессиональные, гендерные и возрастные параметры определяют речевое поведение индивидов и сообществ.

В научной литературе существует как широкое, так и узкое трактование предмета социолингвистики. В ряде подходов рамки этой дисциплины существенно расширяются. Так, в одном из авторитетных учебников по социолингвистике подчёркивается, что объектом её изучения является язык в процессе его функционирования [1, с. 18]. При таком понимании за пределами социолингвистического анализа остаётся лишь внутренняя структура языка, которая, по замечанию самих авторов, рассматривается как данность и не является предметом специального рассмотрения в рамках данного научного направления. Акцент социолингвистики смещается с описания языковой системы как таковой на изучение её применения в различных социальных контекстах.

У. Чейф в рамках функционального подхода к изучению языка выделял ряд научных направлений, объединённых интересом к реальному использованию языка в различных когнитивных, культурных и социальных контекстах. К этим областям он относил когнитивную лингвистику, антропологическую лингвистику, социолингвистику, психолингвистику, прагматику, исследования дискурса, корпусную лингвистику и документирование языков [2, с. 60-61]. Каждая из этих дисциплин фокусируется на определённом аспекте функционирования языка, но все они сходятся в признании языка как динамической, контекстуально обусловленной системы, тесно связанной с человеческим мышлением, коммуникацией и социокультурной средой. Такое интегративное видение способствует формированию междисциплинарного подхода к языковым исследованиям, где социолингвистика занимает ключевое место, позволяя изучать язык в его социальной обусловленности и многообразии форм проявления.

Как подчёркивают В.И. Беликов и Л.П. Крысин, «социальное внедряется в ткань языка и является компонентом строения языковых единиц» [1, с. 17]. Это утверждение отражает фундаментальный принцип социолингвистики, согласно которому язык не существует вне социокультурной среды, а напротив — формируется и развивается в тесной взаимосвязи с ней. Социальные параметры (такие как статус, принадлежность к определённой группе, нормы взаимодействия) не только оказывают влияние на речевое поведение, но и фиксируются в самой структуре языковых единиц — в их семантике, прагматике, стилистической маркированности. Таким образом, язык можно рассматривать не просто как систему знаков, а как сложную социальную модель, отражающую структуру общества, его ценности, нормы и иерархии. Это особенно отчётливо проявляется в социолингвистических маркёрах — формах обращения, выбор лексических единиц, интонационных и синтаксических конструкциях, которые варьируются в зависимости от контекста общения и социального положения коммуникантов.

Этот принцип ярко проявляется в русском языке, где социально значимые различия отражаются, например, в системе форм обращения. Так, выбор между «ты» и «вы» не является лишь грамматическим, а напрямую зависит от социальной дистанции, уровня формальности, возрастных различий и субординации между участниками общения. Употребление фамилии, имени и отчества (например, «Иван Петрович») или, наоборот, использование уменьшительно-ласкательных форм («Иванушка») также сигнализирует о характере социальных отношений: уважении, близости, дистанции или иерархии. Подобные лингвистические единицы несут в себе не только семантическую, но и социокультурную нагрузку, формируя важный пласт социально маркированных речевых практик.

К числу **традиционных методов** относятся, прежде всего, **анкетирование**, которое позволяет собрать массовые количественные данные о языковом поведении, оценке нормативности, предпочтениях респондентов в выборе языковых форм. Этот метод особенно эффективен при сравнении разных социальных, возрастных и профессиональных групп, а также при выявлении тенденций языковой вариативности. Так, при использовании анкеты в исследовании языковых предпочтений студентов различных вузов, респондентам предлагалось выбрать наиболее приемлемые формы обращения в тех или иных социальных ситуациях (например: «Как бы вы обратились к преподавателю?», «Как вы разговариваете с друзьями?», «Какие слова считаете уместными в официальной переписке?»).

Интервью — как формализованное, так и полуструктурированное — предоставляет возможность более глубоко понять мотивацию речевого выбора, интерпретацию норм и стилистических установок самими носителями языка. Данный метод даёт качественный материал, позволяющий реконструировать речевые стратегии и коммуникативные установки в конкретных социальных условиях.

Наблюдение, как включённое, так и невключённое, даёт исследователю возможность фиксировать речевое поведение в естественной среде. Этот метод незаменим при анализе живой коммуникации в социокультурном контексте, особенно в микросоциумах, где речевые проявления тесно переплетены с нормами группового взаимодействия.

Наряду с традиционными методами, в современной социолингвистике всё более активно применяются **инновационные подходы**, расширяющие возможности анализа языковых процессов в условиях цифровой и глобализированной реальности. К числу таких методов относится, прежде всего, **корпусный анализ**, основанный на использовании электронных корпусов текстов — структурированных баз данных, включающих аутентичные речевые фрагменты, снабжённые лингвистической разметкой. Примером может служить исследование частотности и контекста употребления определённых речевых клише или неологизмов в зависимости от жанра, регистра и социальной принадлежности авторов, с опорой на Национальный корпус русского языка.

Также важным направлением является **анализ цифровых коммуникационных сред** — в частности, текстов из социальных сетей, мессенджеров, онлайн-форумов. Такие данные позволяют изучать речевые практики в неформальных, спонтанных условиях, фиксируя влияние цифровой среды на структуру сообщений, норму, орфографию и лексику. Например, анализ общения подростков в чатах демонстрирует активное использование графических редукций, эмодзи, иноязычных вкраплений, отражающих формирующийся субстиль интернет-коммуникации.

Особое место занимают **экспериментальные методы**, предполагающие контролируемые условия речевой активности с целью изучения восприятия языковых вариантов, стилей речи и речевого выбора. Например, с помощью тестирования испытуемых на восприятие социальных характеристик (пол, возраст, статус) гипотетического говорящего на основе предъявленного речевого фрагмента, исследователь может установить, какие языковые маркёры несут социальную нагрузку и как они интерпретируются участниками коммуникации.

Актуальность обращения к многоуровневому методическому арсеналу обусловлена динамикой языковых процессов в условиях изменяющегося социума, а также необходимостью учитывать социальную, возрастную, профессиональную и медиасредовую дифференциацию участников коммуникации. Применение разнообразных методик способствует комплексному и объективному изучению языка как живой, социальной и подвижной системы, что особенно важно в контексте исследования языковых компетенций в их социокультурной обусловленности.

Список литературы

1. Беликов В.И., Крысин Л.П. (2001) Социолингвистика. М.: Российский государственный гуманитарный университет. 315 с.
2. Чейф У. (2015) На пути к лингвистике, основанной на мышлении. Язык и мысль. Современная когнитивная лингвистика. М.: Языки славянскойкультуры. С. 60–88.
3. Алпатов В.М. (2005) Волошинов, Бахтин и лингвистика. М.: Языки слав. Культуры. 432 с.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR HISSIY KOMPONENTLARI KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSI SIFATIDA

M.K.Jabborova
Qarshi davlat universiteti doktoranti
E-mail: maftuna97jabborova@gmail.com. Tel:998971026663

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning hissiy komponentlari haqida ma’lumot berilgan. Har bir komponentning bola hayotida kreativlikni shakllantirishdagi o‘rni to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: motivatsion, kognitiv, operatsion, kreativlik, integratsiya, hissiyot.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning kreativ intelektini shakllantirish muammosining ancha vaqtdan buyon ta’lim sohasida yechilishi lozim bo‘lgan muammo sifatida qarab kelinmoqda. Ushbu muammoni hal etishda nazariy adabiyotlar tahlili, bizga muammoning asosiy yechilmagan jihatlarini o‘rganishda kalit vazifasini bajaradi. O‘rganilayotgan muammoning asosiy tarkibiy qismini ***motivatsion*** va ***hissiy*** jihat qamrab oladi. Negaki, erta maktab yoshidagi bolalarning krativ intelekti mavaffaqiyati dars jarayonidagi o‘quv materiallarining o‘yin shaklida tashkil etilishiga bogliq bo‘lib, ushbu materiallarning hissiyligi va tasviriyligida namoyon bo‘ladi. shuning uchun ushbu komponent bolaning intelektual ijodiy yondashuvini shakllantirishda asos bo‘ladi. 7, 8 yoshli bolada atrofidagi dunyoni o‘rganish uchun hissiy qiziquvchanlik eng kuchli turtki hisoblanadi. G‘ayrioddiy holatlarga qiziqishi orqali paydo bo‘ladigan hissiy reaksiya ushbu holatni o‘rganishga undaydi. Atrofidagi muammoni o‘rganish va uning yechimini izlashda hissiy qiziquvchanlik faol bo‘lib, bunda bola bu jarayonda tadqiqotchi rolini o‘ynaydi. **Men tadqiqotchiman**. Bularning barchasi bizga boladagi kreativ intelektni shakllantirishda *“motivatsion-hissiy”* komponentning o‘rni beqiyos ekanligini ko‘rsatib, bu jarayonda u boladagi assoy “harakat”ni ifodalaydi.

Avvalambor ushbu muammo yuzasidan tadqiqot olib borar ekanmiz, 7-8 yoshli bolaning ***kognitiv*** rivojlanishi haqida fikr yuritishimiz lozim. Bu yoshdagi bolalarda idrok, xotira, tasavvur, muammolarni hal eta olish va eng muhimi mantiqiy fikrlash qobiliyati juda yaxshi shakllangan bo‘ladi. J,Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasiga muvofiq, aynan erta maktab yoshi boladagi aql-zakovat, tasavvur va mahoratning poydevorini yaratishda muhimdir. Idrokning majoziy shakllari bolaning atrofidagi dunyoni mantiqiy tushunishiga yordam beradi, konseptual fikrlashni shakllantiradi, dunyoni o‘rganishga hamda dunyoqarashning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning bilan birga, tadqiqotimiz muammosi nuqtai nazaridan eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bolaning lingvistik xususiyatini o‘rganishimiz lozim. L. S. Vygotskiy, S. L. Rubinshteyn, F. A. Soxin va boshqalar til va nutqning ijodiy rivojlanishida mustaqil kuzatish va tajriba o‘tkazish jarayoni muhim deb hisoblashadi. Shunday qilib, kichik maktab yoshidagi bolalarning kreativ intelektinining muhim komponenti ***kognitiv komponent*** hisoblanadi. Bunda bola o‘zini “ Men dunyoni biluvchiman” deb hisoblaydi.

Fanda ilgari mavjud bo‘lmagan g‘oyalarni aqlan yaratish va tasvirlash yoki ushbu g‘oyalarni vaziyatlar ko‘rinishida aks ettirish **ijodiy tasavvur** deb ataladi. Biz .S.Vigotskiyning fikrlariga qo‘shilgan holda “Tasavvur ijodkorlik uchun motiv bo‘ladi”,- deya olamiz. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, psixologlar inson miyasining ijodiy kombinatsion qobiliyatiga asoslangan faoliyatini **tasavvur** yoki **fantaziya** deyishadi. Bundan tashqari, ko‘pgina olmlarning fikriga ko‘ra, mavjud komponentlardan yangi dizayn yarata olish yoki eskisini birlashtirib yangi narsa kashf etish qobiliyati ijodkorlikning asosini tashkil etadi.

Chet ellik psixolog olimlar (J.Piaje va boshqalar) bolalar tasavvurini erkin deb qarashgan va haqiqatdan qochib qutulishi mumkin bo‘lgan sarob deb atashgan. V. Sternning fikricha, bolalar tasavvurida obyektiv dunyoni emas, balki uning ramziy belgisiga ega bo‘lgan butunlikni aks ettiradi. G. Volkeltning fikriga ko‘ra fantaziya bolaning subyektiv holatini aks ettiradi va uning haqiqatga hech qanday aloqasi yo‘qdir. Bolalarning ijodiy faoliyatidagi zavqlanishi va hissiy jihati birlashib, rang-barang vaziyatlarni yaratadi va bu fantaziya hisoblanadi.

Psixologiyada tasavvurning darajasi yoshga bog‘liq holatda ifodalanadi. Bola 3 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan vaqtda, voqelikning ba’zi bir elementlari asosida yangi tasvirlarni yaratadi. Bunda faqatgina yangi tasvirning markaziy qismi ifodalanadi xolos. 4 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarda esa, tasavvur darajasi sezilarli tarzda pasayadi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar jamiyat normalari va qoidalarini faol o‘zlashtiradilar. 6-7 yoshli bolalar esa, tasavvurning yangi turidan foydalana boshlaydilar. Ular haqiqat elementlari mavjud bo‘lgan hayoliy tasvirlarni tasavvurlarida aks ettiradilar. Bola ongida hayotiy vaziyatlar aks etgan tasvirlar ikkinchi o‘rinda bo‘lib, birinchi o‘rinni nostandart va samarali yechimni ta’minlaydigan tasvirlar egallaydi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar ijodida ko‘pincha proyektiv xarakter mavjud bo‘ladi. ularning kognitiv tasavvurida sifat dinamikasi yuzaga kelishni boshlaydi. 6-7 yoshli bolalar taassurotlarini shunchaki taqdim etishmaydi, ammo maqsadli ravishda taqdim etish uchun texnika tanlashadi. Bola nafaqat texnikani tanlaydi, balki tasavvurini amalga oshirishi uchun o‘z g‘oyalarini izlaydi. Shunday qilib bolaning ijodiy tasavvuri haqida shunday xulosa qilishimiz mumkinki, ijodiy tasavvur-tasavvurning bir turi bo‘lib uning yordamida kichik maktab yoshidagi bola mustaqil ravishda o‘ziga qadrli bo‘lgan narsalarning yasvirini yaratdi. Bundan tashqari muammolarga o‘ziga xos bo‘lgan nostandart yechim topa oladi. Bolalar ijodi tasvirlarni tasavvur orqali ma’lum bir texnikalar yordamida ishlab chiqishga moslashgan hamda tasavvurlaridagi ideal tasvirlarni intelektual operatsiyalar orqali qayta ishlaydi.

Shunday qilib, o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha ilmiy manba’larni tahlil etar eknmiz, bolaning ijodiy hayotida ijodiy tasavvur muhim element ekanligini ko‘ramiz. Bolaning kreativ intelektida dialektik fikrlashning markaziy bo‘g‘inda ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Yuqoridagi fikrlar asosida kichik maktab yoshidagi bolaning lingvistik kreativ intelektini shakllantirishda, yana bir muhim komponentni aniqlashimiz mumkin. Ushbu komponent ***operatsion komponent*** bo‘lib, muammolarni bartaraf etishda innovatsion yondashuvlarni toppish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Bunda bola o‘ziga tanish bo‘lgan narsa va hodislarni boshqa bir tarafdan mazmunan tahlil eta oladi hamda ijodiy tasavvur etishda dialektik fikrlash bilan bir qatorda nutq faoliyati ham ishtirok etiradi. Bu jarayonda bola **“Men hal etuvchiman”, “Men fantaziyorman”** kabi rollarni bajaradi. Ko‘rib turganimizdek operatsion komponent bolaga yartailish harakatini amalga oshirishga imkon beradi. Va mana shu yerda bizda savol paydo bo‘ladi, kichik maktab yoshidagi bolaning intelektual ijodiy yondashuvini shakllantirishdagi amalga oshirilayotgan ishlar bolaning ma’naviy dunyosiga ta’sir etmaydimi? Keeling ushbu savolga javob topishda uchun ilmiy adabiyotlarga nazar solamiz. Bolaning ma’naviy- axloqiy salohiyati shakllanganligining asosini ijodiy shaxs tashkil etadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning lingvistik kreativ intelektini shakllantirish muammosini o‘rganishda biz asosiy hisobga oladigan jihat bu *axloqiy qadriyatdir*. G. Allportning fikriga ko‘ra, kichik maktab yoshidagi bolalar axborotlarni o‘zlashtirishning eng yuqori bosqichida bo‘lishi boshqalar tomonidan ko‘p marta kuzatilgan. Olimning yozishicha, bola aynan shu yoshdagi rivojlanish jarayonida **“Men yaxshiman**” va **“Men yomonman**” tushunchalarini bir-biridan ajrata boshlaydi. Boshqacha aytganda G.Allport bu yoshdagi bolalarda intelektual ijodiy rivojlanish ustun bo‘lishini va axloqiy sohani rivojlantirish qulay ekanligini aytadi. [3, 165-b]

A.V.Ambatelnng bolalarning axloqiy shakllanishi haqidagi fikrlari ahamiyatlidir. Uning fikricha, bolaning ma’naviy-axloqiy sog‘lom bo‘lishi uning ijobiy intelektual faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Bolaning intelektual faoliyati aqliy jihatda shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu intelektual ijodiy faoliyat bolaning yashirin qobiliyatlarini oshkor oshkor etadi, mustaqil fikrlash va o‘z harakatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ilmiy manbalarni tahlil etilishi shuni ko‘rsatadiki, kichik maktab yoshidagi bolalarning refleksiv faoliyati, ijodylikka asoslanib, “**Men yaratuvchiman**” rolini bajarishda yordam beradi. Shu bilan birga pedagog e’tiborini, boladagi ijodiy faollikka qaratishi biz kutgan natijani bera oladi. Bularning barchasi boladagi ***refleksiv-axloqiy komponenntni*** tashkil etadi. [1, 172-b]

Xulosa sifatida shuni ayta olamizki, biz ilmiy, uslubiy adabiyotlarni tahlil etib, kichik maktab yoshidagi bolalarning lingvistik kreativ intelektini shakllantirish muammosining pedagogika va psixologiya fani oldida turgan dolzarb muammo ekanligini guvohi bo‘ldik. Hamda ushbu muammoni ilmiy nazariy jihatdan hal etuvchi yo‘llar va usullar yetarlicha asoslanmaganligini ko‘rdik. Qolaversa, pedagogik adabiyotlarda kreativlikni shakllantiruvchi tamoyillarning umumiy ma’no kasb etishini, va ayni vaqtda kichik maktab yoshidagi bolalarning lingvistik kreativ intelektini shakllantirishdagi strukturaviy komponentlarining yetarli emasligini aniqladik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Амбеталь А. В. Формирование ценностно-смысловой сферы старших дошкольников в процессе раннего иноязычного образования: дисс. канд. пед. наук: 13.00.02 / А. В. Амбеталь – Елец, 2015. – 172 с.

2. Ф.А.Сохина “Психолого-педагогические основы развития речи дошкольников”– М.: Изд-во Мос. психол. – социол. ин-та; Воронеж:МОДЭК, 2002. 550 с

3. Олпорт Г. Становление личности: Избранные труды / [Пер. с англ. Л. В. Трубицыной и Д. А. Леонтьева]; под общ. ред. Д. А. Леонтьева / Г. Олпорт-Москва:Смысл,2002-316-с.

4.О.С. Ушакова “Развитие речи в дошкольном детстве как педагогическая проблема” – М.: Изд-во Ин-та психотерапии, 2001 256 с.

YOSHLARNI MEHNAT BOZORIGA TAYYORLASH HAMDA KADRLARNING KASBIY MAHORATI VA KO‘NIKMALARINI OSHIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

M.X.Mamadjanov
Namangan davlat pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Texnologik talim yo‘nalishi talabasi
Email: muhammadalimamadjanov69@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash, ularning kasbiy mahorati va ko‘nikmalarini oshirishning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Hozirgi kunda mehnat bozori talablariga mos keladigan malakali kadrlarni tayyorlash jarayonida duch kelinayotgan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar va zamonaviy kasb-hunar ta’limining ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Mehnat bozori, kasbiy mahorat, kadrlar tayyorlash, ta’lim tizimi, zamonaviy kasb-hunar, ish bilan ta’minlash, iqtisodiy rivojlanish, dolzarb muammolar.

Kirish. Bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti va texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida mehnat bozorida raqobat keskinlashmoqda. Bu esa malakali va kasbiy mahoratga ega kadrlarni tayyorlash zaruriyatini yanada oshirmoqda. Yoshlarni mehnat bozoriga samarali tayyorlash, ularning zamonaviy kasbiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Asosiy qism. Mehnat bozorining zamonaviy talablari Mehnat bozorining o‘zgaruvchan talablari yosh mutaxassislarni tayyorlash tizimiga yangicha yondashishni talab etadi. Zamonaviy iqtisodiyotning texnologik rivojlanishi yangi kasblarni yuzaga keltirmoqda va mavjud kasblar bo‘yicha mutaxassislar uchun yangi talablar qo‘ymoqda.

Kasbiy mahorat va ko‘nikmalarni oshirishning ahamiyati Yoshlarning kasbiy mahoratini oshirish ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois, amaliy ta’lim, tajriba orttirish dasturlari, dual ta’lim tizimi kabi usullar keng qo‘llanilmoqda.

Kadrlar tayyorlashdagi asosiy muammolar O‘quv dasturlarining mehnat bozori talablariga to‘liq mos kelmasligi; Tajribali ustozlar va zamonaviy o‘quv bazasining yetishmovchiligi; Yoshlarning ishga joylashish jarayonidagi qiyinchiliklari; Ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlikning sustligi. Muammolarni hal etish yo‘llari Ta’lim tizimini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish; Kasbiy ta’lim va malaka oshirish dasturlarini kuchaytirish; Amaliy tajriba orttirish imkoniyatlarini kengaytirish; Xususiy sektor va davlat o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish.

Mehnat Bozorining Zamonaviy Talablari Mehnat bozorining zamonaviy talablari jadal ravishda o‘zgarib bormoqda. Bu o‘zgarishlar texnologik rivojlanish, globalizatsiya va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Bugungi kunda mehnat bozorida yuqori malakali va ixtisoslashgan kadrlar talab qilinadi. Quyidagi omillar zamonaviy mehnat bozorining asosiy talablarini belgilab beradi: Texnologik rivojlanish va raqamli kompetensiyalar Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa sun’iy intellekt, robototexnika, ma’lumotlar tahlili, bulutli hisoblash va boshqa yangi texnologiyalar mehnat bozorida yangi kasblarning yuzaga kelishiga olib keldi. Bu texnologiyalar o‘zgaruvchan mehnat bozorida muvaffaqiyatli ishlash uchun texnik ko‘nikmalarni, innovatsion yondashuvlarni va yangi texnologiyalarga tez moslashish qobiliyatini talab qiladi.

Misollar: Dasturchilar va IT mutaxassislari — bu sohalar bugungi kunda eng talabgir bo‘lib, yuqori malakali dasturchilar va tizim mutaxassislari ehtiyoji katta. Ma’lumotlar tahlilchilari — kompaniyalar ma’lumotlarni tahlil qilish orqali qarorlar qabul qilishda texnologiyalardan keng foydalanmoqda. Raqobatbardoshlik va ko‘nikmalarni doimiy yangilash Mehnat bozorida raqobat kuchaygan sari, ishchilar o‘z kasbiy ko‘nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishlari zarur. Bu nafaqat texnik ko‘nikmalar, balki muloqot, muammolarni hal etish, jamoada ishlash va boshqaruv ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi. Yoshlar uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar orasida quyidagilar muhim: Kreativlik va innovatsion fikrlash: Biznes va texnologiyalar sohasidagi o‘zgarishlarga tez moslashish qobiliyati. Ijtimoiy ko‘nikmalar: Jamoa bilan ishlash, muloqot qilish va boshqaruvni amalga oshirish. Jismoniy va emotsional barqarorlik: Ishdagi stress va bosimga chidamlilik.

Globalizatsiya va xalqaro aloqalar. Globalizatsiya jarayoni mehnat bozorida yangi talablarni keltirib chiqarmoqda. Bu jarayonda chet tilini bilish, madaniyatlararo muloqot va xalqaro bozorlarda ishlash ko‘nikmalari katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Katta kompaniyalar va korxonalar global miqyosda faoliyat yuritadi va ular uchun xalqaro ko‘nikmalarni bilgan kadrlar muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, turli madaniyatlar bilan ishlash uchun moslashuvchanlik va tushunish qobiliyati ham talab etiladi.

Yangi kasblar va ish o‘rinlari Mehnat bozorida yangi kasblar paydo bo‘lmoqda, bu esa yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Masalan: Green jobs (yashil ish o‘rinlari): Ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan kasblar, masalan, ekologik maslahatchi, qayta tiklanadigan energiya texnologiyalarining mutaxassislari. Freelans va masofaviy ish: Internetning rivojlanishi bilan birgalikda masofaviy ishlash, freelancerlar va mustaqil ishchilarga talab ortib bormoqda. Bu yangi turdagi ish usuli yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Innovatsiyalar va tadbirkorlik Zamonaviy mehnat bozorida o‘z biznesini boshlash yoki innovatsion g‘oyalarni amalga oshirishga bo‘lgan talab ham ortib bormoqda. Yoshlar o‘z g‘oyalarini amalga oshirish va startaplar yaratish uchun ko‘plab imkoniyatlarga ega. Ular uchun yaxshi biznes rejalarini ishlab chiqish, xavf-xatarlardan qochish, moliyaviy boshqaruv ko‘nikmalariga ega bo‘lish juda muhimdir. Ta’lim va malaka oshirish tizimining moslashuvchanligi Zamonaviy mehnat bozorining talablariga javob berish uchun ta’lim tizimi doimiy yangilanib turishi kerak. O‘quv dasturlarini va kurslarni zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish, yoshlarni amaliy ko‘nikmalar bilan ta’minlash muhimdir. Ta’lim tizimi: Amaliy ta’lim: Yoshlar uchun kasbiy ta’limni amaliy ko‘nikmalar bilan boyitish. Dual ta’lim tizimi: O‘quvchilar nafaqat darslik asosida bilim olishlari, balki ishlab chiqarish joylarida amaliy tajriba orttirishlari kerak.

Kasbiy Mahorat va Ko‘nikmalarni Oshirishning Ahamiyati

1. Mehnat Bozoridagi Raqobatbardoshlikni Ta’minlash
2. Ishga Joylashish va Kasbiy O‘sish
3. Yangi Kasblarga Moslashish
4. Amaliy Tajriba va Tez Moslashish
5. Kreativlik va Innovatsiyalarni Qo‘llash
6. Ijtimoiy va Iqtisodiy Rivojlanish
7. Kasbiy Ta’lim va Malaka Oshirish Tizimining Rivojlanishi

Kasbiy mahorat va ko‘nikmalarni oshirish bugungi kunda mehnat bozorida muvaffaqiyatli ishlash, professional o‘sish va raqobatbardosh bo‘lish uchun muhim omil hisoblanadi. Mehnat bozorining dinamik o‘zgarishi, texnologiyalar va iqtisodiy sharoitlarning tez o‘zgarib turishi kasbiy mahoratni va ko‘nikmalarni doimiy ravishda yangilashni talab qiladi. Yangi kasblarning yuzaga kelishi va mavjud kasblardagi

o‘zgarishlar ham kasbiy mahoratni oshirishning zarurligini ko‘rsatadi. Quyida kasbiy mahorat va ko‘nikmalarni oshirishning ahamiyatini kengroq yoritib beraman.

Zamonaviy mehnat bozorida o‘z o‘rnini topish uchun raqobatbardosh bo‘lish zarur. Ishchilar nafaqat o‘z kasbini yaxshi bilishlari, balki yangi texnologiyalarni tezda o‘zlashtira olishlari kerak. Ko‘nikmalarni oshirish, masalan, yangi dasturiy ta’minotlar, yangi ishlab chiqarish texnologiyalari yoki raqamli vositalarni o‘rganish, ishchining bozorga moslashuvchanligini oshiradi. Shunday qilib, kasbiy mahoratni oshirish ishchilarni mehnat bozorida raqobatbardosh qilishga yordam beradi.

Kasbiy mahoratni oshirish nafaqat ishga joylashish jarayonini, balki kasbiy o‘sish va kariyeraning rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘z kasbiga chuqur bilim va yuqori darajadagi ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislar yuqori lavozimlarga ko‘tarilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, texnologiya, moliya, marketing yoki boshqaruv sohalarida ko‘proq tajriba va mahoratga ega bo‘lgan mutaxassislar yuqori rahbarlik lavozimlariga erishishlari mumkin. O‘quv dasturlarini, malaka oshirish kurslarini va amaliy treninglarni o‘zlashtirgan shaxslar yuqori darajadagi ishlarga egilik qilishadi va ularning mehnat samaradorligi ortadi. Zamonaviy iqtisodiyotda ko‘plab yangi kasblar paydo bo‘lmoqda, ularning ko‘plari yuqori darajadagi texnologik ko‘nikmalarni talab qiladi. Buning uchun yoshlarni o‘qitish va kasbiy mahoratini oshirish zarur. O‘zgaruvchan mehnat bozorida, masalan, sun’iy intellekt, raqamli marketing, ma’lumotlar tahlili, kiberxavfsizlik va boshqa yangi kasblar paydo bo‘lmoqda. Agar ishchilar bu sohalarda yangi ko‘nikmalarni o‘rganishga tayyor bo‘lsalar, ular yangi kasblarda ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Kasbiy mahoratni oshirish nafaqat nazariy bilimlarni o‘rganish, balki amaliy tajriba orttirishni ham anglatadi. Amaliy tajriba ishchi va mutaxassisning ko‘nikmalarini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Amaliy ta’lim, stajirovkalar, ishlab chiqarishdagi ishlovlar yosh mutaxassislarning ish faoliyatiga jadal moslashishlariga yordam beradi. Mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish uchun yangi texnologiyalarga, ish jarayonlariga va jamoada ishlashga tez moslashish muhimdir. Shuning uchun ko‘nikmalarni oshirish jarayonida amaliy tajriba olish imkoniyatlari ham katta ahamiyatga ega.

Kasbiy mahoratni oshirish ishlayotgan sohada kreativ fikrlash va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatini beradi. Ko‘nikmalarni yangilash orqali ishchilar o‘z sohasida yangiliklar yaratish, yangi yechimlarni topish va tizimlarni optimallashtirishda faol ishtirok etadilar. Yangi texnologiyalarga asoslangan innovatsion yondashuvlar kompaniyalar va tashkilotlar uchun raqobatbardoshlikni oshiradi, shu bilan birga, kasbiy mahoratga ega mutaxassislar o‘z fikrlarini ifodalash va yangi g‘oyalarni amalga oshirishda muvaffaqiyatga erishadilar.

Kasbiy mahorat va ko‘nikmalarni oshirish ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Malakali ishchilar va mutaxassislar jamiyatda iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanishga hissa qo‘shadilar. Zamonaviy iqtisodiyotda raqamli ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislar, innovatsiyalarni qo‘llash va yangi texnologiyalarni yaratish orqali iqtisodiy rivojlanishni tezlashtiradilar. Shu bilan birga, ishchilarning kasbiy mahoratini oshirish ularning ishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularning motivatsiyasini kuchaytiradi, bu esa umumiy iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta’sir qiladi.

Kasbiy mahoratni oshirish uchun malaka oshirish tizimining samarali ishlashi muhim ahamiyatga ega. Ta’lim tizimi nafaqat yuridik va iqtisodiy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham o‘rgatishi kerak. Yangi kasb-hunar o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, ishchilarni malaka oshirish kurslari va treninglarga jalb qilish zarur. Mehnat bozorining talablariga javob bera oladigan malakali mutaxassislar tayyorlashda zamonaviy ta’lim tizimi va malaka oshirish dasturlari katta rol o‘ynaydi.

Kadrlar Tayyorlashdagi Asosiy Muammolar. Kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Mehnat bozorining zamonaviy talablari va texnologik o‘zgarishlar kadrlar tayyorlash tizimiga yangi yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. Biroq, kadrlar tayyorlashda hali ham bir qator asosiy muammolar mavjud. Ushbu muammolarni hal etish uchun kompleks yondashuvlar va strategiyalar zarur. Quyida kadrlar tayyorlashdagi asosiy muammolarni kengroq yoritib beraman. Ta’lim va Mehnat Bozori Ehtiyojlari O‘rtasidagi Moslik

Kadrlar tayyorlashda eng katta muammolardan biri ta’lim tizimi bilan mehnat bozorining talablarining mos kelmasligi hisoblanadi. Ta’lim tizimi, ko‘pincha, mehnat bozoridagi joriy ehtiyojlarga mos kelmaydi. O‘quv dasturlari va ta’lim metodologiyalari zamonaviy ish jarayonlari va texnologiyalarni hisobga olishda sust qolmoqda. Natijada, o‘quvchilar va talabalar ta’limni yakunlagach, ko‘plab kasblar uchun yetarli ko‘nikmalarga ega bo‘lmaydi va ishga joylashishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Malakali Mutaxassislarning Yetishmasligi

Yoshlar va ishchilar orasida kasbiy mahorat va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislarning yetishmasligi kadrlar tayyorlashdagi katta muammolardan biridir. Mavjud mutaxassislar o‘z sohasida malakali bo‘lishlari kerak, lekin bu mahoratni o‘zlashtirish uchun yaxshi ta’lim tizimi va malaka oshirish dasturlari yetishmaydi. Ayniqsa, texnik va injiniring sohalarida yuqori malakali mutaxassislar talab etilsa-da, ushbu kasb-hunarlar bo‘yicha o‘quvchilarning soni kam.

Praktik ko‘nikmalarni o‘rgatish, dual ta’lim tizimini kengaytirish. Kasbiy Ta’limning Amalga Oshirilishida Sifatli O‘qituvchilar Yetishmasligi Kasbiy ta’lim o‘qituvchilari malakasi ham katta ahamiyatga ega. O‘qituvchilar faqatgina o‘qitish metodikasini bilibgina qolmasdan, soha bo‘yicha amaliy tajribaga ham ega bo‘lishi kerak. Biroq, ba’zi mamlakatlarda kasbiy ta’lim o‘qituvchilari sohadagi yangiliklarni kuzatib borish va o‘quvchilarga samarali o‘rgatish uchun zarur resurslar va tajribaga ega emaslar. O‘qituvchilarni doimiy ravishda malaka oshirish kurslari va treninglar bilan ta’minlash kerak. Muammo: Kasbiy ta’lim o‘qituvchilarining malakasining pastligi. O‘qituvchilarning amaliy tajriba va soha yangiliklariga nisbatan yetishmovchiligi.

Yechildi: O‘qituvchilarni kasbiy tayyorgarlik va amaliy tajriba bilan ta’minlash. O‘qituvchilarni malaka oshirish kurslari va treninglar bilan qo‘llab-quvvatlash. Ish Beruvchilar va Ta’lim Muassasalari O‘rtasidagi Hamkorlik Yetishmasligi Mehnat bozoridagi talablarni to‘g‘ri tushunish va ularga javob beradigan kadrlarni tayyorlash uchun ta’lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasida yaxshi hamkorlik bo‘lishi zarur. Aksariyat hollarda ta’lim muassasalari mehnat bozorining ehtiyojlariga to‘liq javob bera olmaydi. Ish beruvchilar va ta’lim muassasalari o‘rtasida samarali aloqalar o‘rnatilmagan, bu esa kadrlar tayyorlash jarayonida hamkorlikni va mutaxassislarning malakasini oshirishni qiyinlashtiradi. Ish joylarida amaliyot va stajirovkalarni tashkil qilish. Resurslarning Yetishmasligi va Infrastruktura

Kasbiy ta’limni samarali tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan resurslar, ya’ni malakali o‘qituvchilar, o‘quv materiallari, texnik jihozlar va o‘quv xonalarining yetishmasligi muammosi mavjud. Aksariyat ta’lim muassasalari zamonaviy texnologiyalar va resurslar bilan ta’minlanmagan, bu esa talabalarning sifatli ta’lim olishiga to‘sqinlik qiladi. Xususan, texnik va kasbiy ta’lim muassasalarida yangi texnologiyalarni o‘rgatish uchun zarur bo‘lgan jihozlar va infratuzilma kam.

Innovatsion o‘quv materiallari va metodikalardan foydalanish. Malaka Oshirishning Tizimliligi va Davomiyligi Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari mavjud bo‘lsa-da, ko‘p hollarda ular tizimli emas va davomiy emas. Ishchilar va mutaxassislar malakalarini oshirish uchun faqat bir marta o‘rgatiladi, bu esa doimiy rivojlanishni ta’minlamaydi. Mehnat bozorining talablari o‘zgarib borayotganligi sababli, kasbiy ko‘nikmalarni muntazam ravishda yangilash zarur. Ta’lim tizimining yangilanishi va mehnat bozorining talablariga mos kelishi.

Xulosa Yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash va ularning kasbiy mahoratini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, amaliy ta’limga e’tibor qaratish va mehnat bozori bilan uzviy aloqalarni mustahkamlash zarur. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida kelajakda yoshlarning bandligini oshirish va malakali kadrlar tayyorlash jarayonini yanada rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mehnat bozorini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
2. Jahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan e’lon qilingan hisobotlar.
3. Kasb-hunar ta’limini rivojlantirishga oid ilmiy maqolalar va statistik ma’lumotlar.
4. Ta’lim va mehnat bozorining o‘zaro integratsiyasiga oid xalqaro tajribalar.

YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA LIDERLIK KO‘NIKMALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

U.Z.Soipov
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Tillar fakulteti dekan o`rinbosari
Z.N.Tursunboyeva
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institute, tillar fakulteti tyutori

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Unda liderlik tushunchasi, yoshlar orasida bu ko‘nikmalarni shakllantirishning afzalliklari va ijtimoiy faollikni rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, ta’lim muassasalari va ijtimoiy tashkilotlarning bu boradagi roli, liderlik orqali yoshlarning tashabbuskorlik, mas’uliyat va jamoaviy ishga bo‘lgan qiziqishi ortishi ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot natijalari liderlik ko‘nikmalarini shakllantirish yoshlarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kuchaytirish uchun muhim vosita ekanini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, ijtimoiy faollik, liderlik, liderlik ko‘nikmalari, tashabbuskorlik, mas’uliyat, ta’lim, jamiyat.

Bugungi kunda globallashuv va raqobatning kuchayib borayotgan sharoitida yoshlarning ijtimoiy jarayonlardagi faolligi har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida e’tirof etilayotgan yoshlar nafaqat bilimli va malakali, balki ijtimoiy jihatdan ham faol bo‘lishi zarur. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ularning liderlik ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Liderlik – bu boshqalarni ilhomlantirish, yo‘naltirish va jamoani umumiy maqsad sari birlashtirish qobiliyatidir. Liderlik ko‘nikmalariga ega shaxslar odatda tashabbuskor, mas’uliyatli, o‘ziga ishonchli bo‘lib, jamoada yetakchilik rolini egallaydi. Bu xususiyatlar yoshlar orasida rivojlantirilganda, ularning jamiyatdagi faolligi sezilarli darajada ortadi. Liderlik yoshlarni mustaqil fikrlashga, tashabbus ko‘rsatishga, muammolarga innovatsion yondashishga o‘rgatadi. Bu ko‘nikmalar quyidagicha ijtimoiy faollikka ta’sir ko‘rsatadi. Mas’uliyat hissi kuchayadi. Lider yoshlar jamiyatdagi muammolarni befarq qabul qilmaydi. Liderlar o‘z g‘oya va fikrlarini ilgari surib, boshqalarni ilhomlantiradi. Jamoaviy ishlashga qobiliyatli bo‘ladi. Bu esa ijtimoiy loyihalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishga yordam beradi. Muloqot va ta’sir ko‘rsatish qobiliyatlari rivojlanadi. Bu esa yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligini ham oshiradi [4.31b] Lidierlik haqida Jon Maksvell o‘zing ”Liderlikning o‘zgarmas 21 qonuni” kitobida har bir bobida to‘g‘ridan-to‘g‘ri etakchilikning chuqur qalbiga kirib, boshqalarning muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarini ko‘rsatib, uni o‘z hayotingizda qanday qo‘llashni ko‘rsatib beradi. Masalan 2-qonun ta`sir qonuni bo`lib, unda Maksvellning takidlashicha, etakciklik bu ta`sir ko`rsatadi, hech narsa ko`p emas, kam mas va shuning uchun inson qanchalik ko`p ta`sirga ega bo`lsa, uning etakchilik salohiyati shuncha yuqori bo`ladi. Va har kim turli ta`sirga ega, ammo o`zingizni ijobiy tomonga o`stirish uchun ushbu etti sohaga etibor qarating

1. Xarakter
2. Aloqa
3. Ma`lumot
4. Sezgi
5. Tajriba
6. O`tgan muvaffaqiyat
7. Iqtidor [2, 2 b].

Jon Maksvell 15-g‘alaba qonunida shunday yozgan Bir necha yillardan buyon dunyoning eng baquvvat odami deb topilgan Rich Froning o‘zining "Birinchi: G‘alaba qozonish uchun nima kerak" kitobida shunday deydi: “Mashq qilishda siz tanangizni tinglaysiz. Raqobatda tanangizga jim bo‘lishni buyurasiz”. Favqulodda rahbarlarning umumiy xususiyati shundaki, ular g‘alaba qozonish uchun qiyin sharoitlarni bosib o‘tishadi. Ushbu bo‘limda jamoa g‘alabasining to‘rt tomoni - qarashlar birligi, ko‘nikmalarning xilma-xilligi, g‘alabaga sadoqat va boshqalarni o‘z salohiyatiga ko‘tarishdir [2. 9 b].

Oliy ta’lim muassasalari va yoshlar tashkilotlari yoshlar orasida liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda bu kabi kitoblarning ahamiyati muhimdir. Bundan tashqari liderlikni rivojlantirish uchun yoshlarni yoshligidan kitobga bo`lgan qiziqishlarin ortirish va turli xil treninglar, seminarlar, forumlar, kabi faoliyatlarni olib borish kerak. Bu orqali yoshlar nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko‘nikmalarni ham egallaydi. Shuning uchun ham kitob haqida Mirziyoyev Sh.M. “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” kitobida Dunyoda har qaysi davlat, har qaysi millat birinchi navbatda o`zining intellektual salohiyati, yuksak ma`naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa, avvalo, insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda, desak, adashmagan bo`lamiz. “Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak manaviyatga erishib bo`lmaydi. Kitob o`qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo‘q” [3. 294 b].

degan fikrlari bilan yoshlarni kitob o`qish va bilim olish hamda liderlik sifatlarini rivojlantirishga urg`u bergan.prezidentimiz fikrini davom etib, sizlarning orangizda “men sizni yoningizda turib, kamarbasta bo`laman! ” deb ko`zi yonib turgan, jasoratli, iftixor qilsa arziydigan yigit – qizlar borligiga ishonaman! Yetakchilikning o`z ortidan ergashtirishning eng to`g`ri yo`li – bu shaxsiy o`rnak va namuna bo`lishdir. Deb takidlaydi [3.127 b].

Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining o‘rni beqiyosdir. Bunday ko‘nikmalar yoshlarni tashabbuskor, mas’uliyatli va ijtimoiy jihatdan faol shaxs sifatida shakllantiradi. Ta’lim muassasalari va ijtimoiy institutlar bu borada zaruriy shart-sharoitlar yaratishi lozim. Zero, bugunning faol va lider yosh avlodi – ertangi barqaror jamiyatning kafolatidir. Shu nuqtai nazardan yoshlarimiz orasidan lider yoshlarni aniqlash va ular bilan shig‘ullanish maqsadida oliy va o`rta maxsus ta`lim vaziring 2021-yil 30-sentyabrdagi 412-sonli buyrug‘i asosida Tyutor nizomi joriy etilgan. Har bir ta’lim muassasasida talabalarning bilim olishi bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy faolligi, liderlik salohiyati va shaxsiy rivoji ham muhim o‘rin tutadi. Bu borada tyutorlarning o‘rni beqiyosdir. Ular nafaqat talabalarning ta’limiy faoliyatini nazorat qiladi, balki ularning ichki salohiyatini, ayniqsa, liderlik qobiliyatini ham aniqlash va rivojlantirishga hissa qo‘shadilar. Yaxshi lider bo‘lish har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. Tyutorlar lider talabalarni aniqlashda birinchi navbatda ularning mas’uliyatlilik darajasiga e’tibor beradilar. Lider talaba har doim o‘z vazifasini vaqtida bajaradi, jamoaviy ishlarda faol bo‘ladi va boshqalarga ibrat bo‘la oladi. Bundan tashqari, tashabbuskorlik ham muhim mezonlardan biridir. Tashabbus ko‘rsata oladigan, yangi g‘oyalar bilan chiqadigan va o‘z fikrini dadil ayta oladigan talaba - bu haqiqiy liderdir. Tyutorlar bunday talabalarni alohida kuzatib, ularni rag‘batlantirib boradilar. Shuningdek, lider talaba boshqalar bilan muloqotda ochiq, samimiy va hurmatli bo‘ladi. U o‘z jamoasini birlashtira oladi, kelishmovchiliklarda murosaga keladi va muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga harakat qiladi. Tyutorlar ana shunday fazilatlarni ko‘ra olgan talabani lider sifatida ajratib olishadi. O‘z tajribasiga tayanib bunday talabalarni guruh boshqarish uchun guruh sardori etib tayinlaydi. Yoki bo‘lmasa institutda mavjud bo‘lgan o‘ziga mos boshqa ishlashiga tavsiya etadi.

Xulosa qilib aytganda, tyutorlar lider talabalarni ularning xulqi, tashabbusi, muloqot madaniyati va mas’uliyatlilik darajasi orqali aniqlaydilar. Ular bu salohiyatni qo‘llab-quvvatlab, talabalarning kelajakda yetuk mutaxassis va jamiyat yetakchisi bo‘lishiga zamin yaratadilar. Lider talaba - bu kelajagimiz poydevoridir. U o‘zining bilimga chanqoqligi, tashabbuskorligi va ijtimoiy faolligi bilan nafaqat o‘z jamoasiga, balki jamiyatimizga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday talabalar mamlakatimizning taraqqiyoti, ilm-fan, texnologiya va ijtimoiy sohalarda yuksalishining harakatlantiruvchi kuchidir. Ular mustaqil fikrlashi, muammolarga innovatsion yechim topa olishi, jamoani birlashtirish qobiliyati bilan ajralib turadi. Mamlakatimizning kelajagi aynan mana shunday bilimli, fidoyi va yetakchi yoshlarga bog‘liq. Shu bois, lider talabalarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish har birimizning muhim vazifamizdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 123 b.
2. Jon Maksvell- liderlikning 21 muqarrar qonuni info – kapital – grup -2018 04 b
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari.- Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 404 b.
4. Xayitov E.O. Boshqaruv psixologiyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 236 b.

OILAVIY-QO‘SHNICHILIK JAMIYATIDA TARBIYAVIY ISHLARNI TIZIMLI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Z.A.Jumaniyazova
CHDPU pedagogika fakulteti “Pedagogika”kafedrasi o‘qituvchisi
zulfiyajumaniyazova2@gmail.com, +998 97 545 12 64

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy-cho‘nchil va jamiyatda tarbiyaviy ishlarni tizimli rivojlantirish, o‘zining keng va ko‘p qatlamli mazmuni bilan zamonaviy jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlash, aholi o‘rtasida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, shuningdek, yoshlarda haqiqiy

oila va jamiyatga bo‘lgan mas’uliyatni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Oilaviy va qo‘shnichilik munosabatlari tarbiyasi – bu nafaqat biror oilaning o‘zaro aloqalarini, balki butun jamiyatning ijtimoiy maqsadlariga xizmat qiladigan bir tizimni rivojlantirishni anglatadi. Oilaviy qo‘shnichilik jamiyatida tarbiyaviy ishlarni tizimli ravishda rivojlantirish, jamiyatning barqarorligi va rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu ishlarni o‘tkazish jarayonida oilaning o‘zaro munosabatlari, qo‘shnichilik va jamiyatning boshqa a’zolari bilan aloqalarini mustahkamlash, axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish asosiy maqsad bo‘lib qoladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va yangi yondashuvlarni qo‘llash orqali tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, jamiyatning ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytirish mumkin. Bu boradagi chora-tadbirlar nafaqat o‘z-o‘zini rivojlantirishga, balki umumiy jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va farovonlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Oila, qo‘shnichilik, ta’lim, tarbiya, qonun va qarorlar, oilaviy-qo‘shnichilik munosabatlar, o‘z-o‘zini rivojlantirish, axloq, axloqiy qadryatlar, klasterli yondashuv, klaster, farovon oila, ma’naviy tiklanish.

Kirish: Oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatida tarbiyaviy ishlar nafaqat oilaning ichki muhitini, balki jamiyatning umumiy ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Oilaviy munosabatlar, qo‘shnichilik va jamiyat o‘rtasidagi aloqalar ayniqsa yosh avlodning tarbiyasi, axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishda markaziy o‘rin tutadi. Shu bilan birga, oilaviy va qo‘shnichilik jamiyatlarida tarbiya jarayonini tizimli rivojlantirish, jamiyatning barqarorligi va ijtimoiy farovonligini ta’minlashning asosiy omilidir.

O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda oilaviy jamiyatning ijtimoiy faolligi, uning taraqqiyotdagi o‘rni va qo‘shnichilik munosabatlarining ahamiyati o‘zgarmoqda. Oilaviy va qo‘shnichilik munosabatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni yaxshilash, o‘zgarmaydigan qadriyatlarni va yangi zamonaviy ko‘nikmalarni yoshlar o‘rtasida shakllantirish, ularni ijtimoiy hayotga faol ishtirokchi sifatida tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Aynan tarbiya jarayonini tizimli ravishda rivojlantirish orqali o‘zgarmas axloqiy me’yorlarni shakllantirish va yoshlarni ijtimoiy mas’uliyatni anglashga o‘rgatish mumkin. Shu sababli, oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatida tarbiyaviy ishlarni tizimli rivojlantirish, o‘zaro yordam, hurmat va mas’uliyatni targ‘ib qilish, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni saqlash hamda yosh avlodni jamiyatning faol va mas’uliyatli a’zolari sifatida tayyorlash zarur. Tarbiyaviy ishlar nafaqat oilalar darajasida, balki mahalla va qo‘shnilar o‘rtasida ham amalga oshirilishi kerak, chunki jamiyatning asosiy tuzilmasi bo‘lgan oilaning rivojlanishi, birinchi navbatda, uning o‘zaro aloqalari va tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Metodologiya: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-39-sonli (31.01.2023y.) qarori qabul qilindi.

“Mahalla budjeti” tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori (PQ–458-son, 26.12.2022-y.) qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-39-sonli qarori (31.01.2023y.) mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi o‘rtasida biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yanada mustahkamlashga qaratilgan muhim huquqiy hujjatdir. Ushbu qaror, O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida oilaviy biznesni kengaytirish va unga bo‘lgan davlat yordamini samarali tarzda taqsimlashni nazarda tutadi. Qarorning asosiy maqsadi – oilaviy tadbirkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, aholi o‘rtasida tadbirkorlik faolligini oshirish hamda iqtisodiyotni diversifikatsiyalashga yordam berishdir. Ushbu qaror O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, bir tomondan, yangi ish o‘rinlarini yaratishga, boshqa tomondan, mavjud resurslardan samarali foydalanishga imkon yaratadi. Shuningdek, bu chora-tadbirlar ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolish, aholining ijtimoiy faolligini oshirish va ularni biznes faoliyatiga jalb etishda muhim rol o‘ynaydi.

“O‘zbekiston Respublikasida oila institutini 2030-yilgacha yanada mustahkamlash konsepsiyasi” loyihasida oila va farovon oila tushunchalariga quyidagicha ta’rif berib o‘tildi: Oila – murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanib, ijtimoiy hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligi va tarbiyaning

uzluksizligini ta’minlaydigan, kelajak avlod, qadriyatlar tizimiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadigan ijtimoiy makon hisoblanadi.

U.N.Xo‘jamqulovning fikricha, klaster yondashuvi universallik xarakteriga ega bo‘lib, uning ta’lim jarayoniga tatbiq qilinishi uzluksiz ta’lim tizimida mavjud tarqoqlikni bartaraf qilish, ta’lim turlarini umumiy maqsad atrofida birlashtirish, uzviylik va uzluksizlikni qaror toptirish, o‘zaro raqobat va nazorat muhitini shakllantirish, pedagogik sohada samarali vorisiylikni ta’minlovchi yaxlit tizimni yaratishga asos bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili: S.A.Toshtemirova klaster yondashuvi asosida umumta’lim maktablarida ta’lim sifatini oshirish mexanizmlari integratsion muhit tamoyillari (tizimlilik, barqarorlik, sinergetik, moslashuvchanlik)ga asoslangan mobil harakatli tezkor aloqa, hududiy yaxlitlik hamda maktab-laboratoriya maydonchalarining imkoniyatlari (metodik, didaktik, texnologik, motivatsion)ga ustuvorlik berish masalalarini tatqiq qilgan.

Sh.I.Botirova uzluksiz ta’lim tizimida adabiyot o‘qitish samaradorligini ta’lim klasteri sharoitida oshirishning metodik ta’minotining ilmiy metodik jihatlari takomillashtirgan.

B.Sh.Usmonov o‘z ilmiy tadqiqot ishida oliy ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini klasterli yondashuv asosida innovatsion rivojlantirishning tashkiliy-metodik mehanizmlari integratsiyalashgan ochiq, kreativ axborot-ta’lim muhitini shakllantirishga yo‘naltirilgan hamda ichki klasterli hamkorlik tamoyillariga asoslangan o‘quv-ilmiy kompleks tiziminikiritish vositalari tadqiq qilingan.

R.X.Nosirovaning tadqiqot ishida klaster yondashuvi asosida bolalarda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish orqali maktab ta’limiga tayyorlashni tashkil etish, tarbiyalanuvchilarga ta’lim-tarbiya berishda maktabgacha ta’lim muassasalari, oila, mahalla va OTM larning uzviy hamkorligini tadqiq etgan.

Tadqiqotchi A.D.Alliyarov oliy ta’lim muassasalari talabalarida ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishning metodik shart-sharoitlari, pedagogik mexanizmlarini aniqlagan hamda oliy ta’lim muassasalari talabalarida ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha bir qancha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqan.

Nazariy tahlil: S.A.Toshtemirova klaster yondashuvi asosida umumta’lim maktablarida ta’lim sifatini oshirish mexanizmlari integratsion muhit tamoyillari etib quyidagilarni ajratib ko‘rsatadi:

Tizimlilik tamoyili, o‘quv jarayonining barcha qismlarini bir-biri bilan bog‘liq holda tizimli ravishda boshqarishni ta’minlaydi. Bu o‘qitish va o‘rganish jarayonlarini kompleks tarzda ko‘rib chiqishni va o‘quvchilarning shaxsiy va akademik rivojlanishini yaxshilashga imkon beradi.

Barqarorlik tamoyili ta’lim tizimining uzoq muddatli samaradorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Bu yondashuv doirasida, o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun barqaror rivojlanish imkoniyatlarini yaratish, shuningdek, ta’lim muassasalarining doimiy ravishda yangilanib borishini ta’minlash kerak.

Sinergetik tamoyili, turli ta’lim tizimlarining o‘zaro ta’sirini, muvofiqligini va birlashuvini ta’kidlaydi. Bu o‘qitish jarayonida o‘qituvchi, o‘quvchi va jamiyat o‘rtasida samarali muloqot va hamkorlikni o‘rnatish zarurligini anglatadi.

Moslashuvchanlik tamoyili ta’lim tizimining o‘zgaruvchan sharoitlarga tezda moslashish imkoniyatini beradi. Bu o‘qitish va o‘rganish jarayonida yangi metodikalar, texnologiyalar va yondashuvlarni joriy qilishni talab qiladi.

Mobil harakatli tezkor aloqa tizimi orqali o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida tezkor va samarali muloqot o‘rnatish, ta’lim jarayonini yanada interaktiv va samarali qilish imkoniyatini yaratadi.

Hududiy yaxlitlik tamoyili, maktablar o‘rtasida geografik va ijtimoiy chegaralarni cheklamay, barcha o‘quvchilar va o‘qituvchilarning bir xil ta’lim resurslariga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Bu hududlarning rivojlanishini va ta’lim tizimining hamma sohalarda yaxlit ishlashini ko‘zda tutadi.

Maktab-laboratoriya maydonchalari ning metodik, didaktik, texnologik va motivatsion imkoniyatlarini kengaytirish orqali o‘qituvchilar va o‘quvchilarga yuqori sifatli ta’lim berishga imkoniyat yaratiladi. Bu maydonchalar o‘quv jarayonini innovatsion yondashuvlar bilan boyitishga yordam beradi, yangi pedagogik metodlarni tatbiq etish va o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Sh.I.Botirova uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim klasteri sharoitida metodik ta’minotning samarali ishlashi uchun klasterning metodik, didaktik, texnologik va motivatsion imkoniyatlari kengaytirilishi zarur. Bu imkoniyatlar:

• **Metodik yondashuvlar**: O‘qituvchilarni doimiy ravishda yangi metodik yondashuvlar bilan tanishtirish va ularni o‘quv jarayonida qo‘llash.

• **Didaktik materiallar**: Adabiyot o‘qitish uchun samarali didaktik materiallarni ishlab chiqish va ta’lim jarayonida joriy etish.

• **Texnologik vositalar**: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonini yangilash va uni yanada interaktiv qilish.

• **Motivatsiya**: O‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularni o‘z-o‘zini rivojlantirishga rag‘batlantirish.

Tadqiqotchi U.Q.Utanov auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarning an’anaviy va innovatsion shakllarini integratsiyalash asosida oliy ta’lim muassasasi talabalar ma’naviyatini rivojlantirishning blok-modulli tizimidan foydalanishni taklif qilgan holda auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida talabalarning ma’naviyatini rivojlantirishning vitagen va germenevtik tarbiya texnologiyalarini amaliyotga tadbiq etgan[120].

Ba’zi oilaviy iqtiboslar bizga yaqin odamlar bilan bo‘lishish uchun juda muhim:

• Siz nikoh baxtini har bir sherikning tillarida olib boradigan izlari soni bilan o‘lchashingiz mumkin, ular yillar davomida g‘azablangan so‘zlarni ushlab turishgan (Elizabeth Gilbert);

• Oilasiz mavjudot shoxsiz daraxtga o‘xshaydi(Anri Drouyet)

• Oila bu kechagi kunni eslatuvchi, bugun bizga kuch va qo‘llab-quvvatlovchi, ertangi kunga umid baxsh etuvchi rishta. Hech bir hukumat, qanchalik yaxshi niyatda bo‘lmasin, oilalarimiz ta’minlangan narsani ta’minlay olmaydi.

• Ta’lim-tarbiya sohasini rivojlantirish, turli davlat-jamiyat ijtimoiy institutlarni shakllantirishda tarbiya jamiyat rivojlanishiga ko‘ra shakllanadi.

Jamiyat (lotincha *socium — „umumiy“*) — kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui hisoblanadi. Jamiyatdagi barcha jarayonlar, jumladan moddiy va ma'naviy boyliklar, inson hayoti uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarning yaratilishi, muayyan faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Insonlar faoliyati va ularning o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Ushbu faoliyatlarga biz ishlab chiqarish, oilaviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy va estetik sohalarda amalga oshadi va ularning har biri o‘ziga xos ijtimoiy munosabatlarda aks etadi. Jamiyatda moddiy ishlab chiqarish faoliyatining ahamiyati beqiyosdir, chunki bu faoliyat orqali insonlar oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqa zarur ehtiyojlarini qondiradilar. Jamiyatda moddiy ishlab chiqarish va tabiat bilan o‘zaro ta’sirning alohida o‘rni mavjud.

Jamiyat taraqqiyoti tabiiy-tarixiy, qonuniy jarayondir. Moddiy ishlab chiqarish jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, ya’ni muayyan ijtimoiy qatlam, toifa va guruhlarning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatda turli qatlam va toifalarning mavjudligi mehnat taqsimoti, shuningdek, ishlab chiqarish vositalariga bo‘lgan mulkchilik munosabatlari, jamiyatda yaratilgan moddiy boyliklardan oladigan ulushiga bog‘liq. Bular jamiyatdagi kishilarning faoliyati hamda daromadiga qarab turli kasbiy va ijtimoiy guruhlarga ajralishining oladigan ulushiga bog‘liq. Bular jamiyatdagi kishilarning faoliyati hamda daromadiga qarab turli kasbiy va ijtimoiy guruhlarga ajralishining negizidir.

Xulosa. Oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatida tarbiyaviy ishlarni tizimli rivojlantirishning metodologik asoslari yoshlarni to‘g‘ri tarbiyalash va ularning ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar asosida rivojlanishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon nafaqat oilaning o‘zi, balki jamiyatning barcha tizimlari — o‘qituvchilar, psixologlar, ota-onalar va ijtimoiy mutaxassislar o‘rtasida samarali hamkorlikni talab etadi. Tarbiya jarayonida kognitiv va emosional metodlar, integratsion yondashuvlar, madaniy va milliy qadriyatlarning ahamiyati, shuningdek, empatiya va kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurdir. Tizimli baholash va monitoring orqali yoshlarning rivojlanishini kuzatish va to‘g‘ri yondashuvlarni qo‘llash ham muhimdir. Shunday qilib, oilaviy tarbiya jarayoni, jamiyatning barcha a’zolarining birgalikdagi harakatlari bilan, yoshlarni ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxslar sifatida kamol topishiga imkon yaratib beradi.

Foydalingan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdalova Sayyora Rustamovna, Abdikerimova Madina Miyatovna (2022). Klaster asosida oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etish pedagogik muammo sifatida. World scientific research journal, 9 (1), 92-97.

2. S.B. Allayorova (2024). Ta'lim klasteri muhitida pedagogik innovatsiyalar logistikasi. PEDAGOG, 7 (3), 155-163.

3. Jamoldinova, S. N. (2023). Kommunikativ qobiliyat-ta’lim-tarbiya jarayonidagi konfliktlarni bartaraf etish manbai sifatida. “Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendirio‘”, 1(1), 229-235.

4. Zulfiya Aytbayevna Jumaniyazova (2024). Increasing Creative Competence Of Students And Strengthening Educational Efficiency Based On Individual Approach. Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research, 2 (10), 60-68.

5. Z. A. Jumaniyazova (2024). Inklyuziv ta’limni integratsiyasining tashkiliypedagogik muammolari. Zamonaviy ta’lim, 1 (1), 746-749.

6. Zulfiya Aytbayevna Jumaniyazova (2024). Steam ta’lim tizimi inklyuziv ta’limga tatbiqi. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 3 (33), 296-299.

7. Jamoldinova, S. N. (2023). O‘qituvchining konfliktologik tayyorgarligining kasbiy faoliyatdagi ahamiyati. “Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendirio‘”, 1(1), 224-228.

O‘QUVCHILARNING NEYROPEDAGOGIK XUSUSIYATLARI VA BILISH JARAYONLARI.

Sh.A.O‘tbosarova
CHDPU pedagogika fakulteti pedagogika yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
otvasarovbotirjon29@gmail.com, +998932572704
Ilmiy rahbar: S.N.Jamoldinova
CHDPU pedagogika fakulteti “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0006-4669-0483
jamoldinova.cspu@gmail.com, +998917766446

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri — o‘quvchilarning individual xususiyatlarini chuqur o‘rganish va ularga mos ta’lim usullarini ishlab chiqishdir. Bugungi kunda pedagogikasohasida inson miyasi faoliyati va o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini ilmiy asosda tushuntirishga intilmoqda. Shu nuqtai nazardan, **neyropedagogika** yo‘nalishi alohida ahamiyat kasb etadi. Neyropedagogika — bu neyrobiologiya, psixologiya va pedagogika fanlari kesishmasida shakllangan soha bo‘lib, u o‘quvchilarning miyasi qanday ishlashi, ular bilimni qanday qabul qilishi, eslab qolishi va qayta ishlashi kabi jarayonlarni o‘rganadi. Bu yondashuv o‘quvchilarning tabiiy bilish salohiyatini hisobga olib, ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish etish xizmat qiladi.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir bola o‘ziga xos individual neyropsixologik xususiyatlarga ega. Ularning diqqat, xotira, idrok, tafakkur va tasavvur kabi **bilish jarayonlari** har xil rivojlanadi va bu farqlar ularning o‘rganish tarziga bevosita ta’sir qiladi. Ana shu farqlarga mos yondashish, har bir o‘quvchining o‘z salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarish imkonini beradi. Mazkur mavzu doirasida o‘quvchilarning neyropedagogik xususiyatlari, bilish jarayonlarining rivojlanish bosqichlari, shuningdek, zamonaviy ta’limda neyropedagogik yondashuvlarning o‘rni haqida so‘z yuritiladi. Mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, u nafaqat ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda, balki har bir o‘quvchiga individual yondashuv asosida yondashishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Butun dunyo mamlakatlarida 20 asrning 60- yillaridan boshlab barcha sohalar qatorida Pedagogika fanida ham yangi kashfiyotlar va ixtirolar amalga oshirildi. Chunki ikkinchi jahon urushidan keyin dunyoda insoniyat tinchlikni saqlash va farovon yashash maqsadida ta'lim va tarbiya sohasiga e'tiborni qarata boshladi. Shu sababli Pedagogika fanida ham ta'lim va tarbiyaning eng murakkab muammolarini hal etish hamda tez va oson bilimlarni o‘zlashtirish masalalalrini ilmiy izlanishlar yo‘lga qo‘yildi. Bunday ilmiy izlanishlarda pedagog olimlar barcha fanlarda amalga oshirilayotgan tadqiqot kashfiyotlaridan foydalana boshladi.

Shu tariqa o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab Pedagogikaning tarkibiy qismi bo‘lgan neyropedagogika nazariy asoslari tarkib topdi va 90-yillarga kelib mazkur o‘quv fani umumiy pedagogikaning mustaqil fani sifatida tadqiq etilib, ta’lim tizimi uchun taqdim etila boshlandi.

Neyropedagogikada insonning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlariga alohida e’tibor beriladi:

1) Uning geni;
2) Yoshi;

3) Jinsi,

Shu jihatdan inson bosh miya yarim sharlari assimetriyasiga (yunoncha nomutanosib, simmetriyaning yo‘qligi yoki buzilishi) ushbu fan alohida e’tibor qaratadi. Chunki bosh miya yarim sharlarida inson geniga xos bo‘lgan neyronlar, ya’ni asab to‘qimalari mavjud bo‘lib, ular insonning salomatligida va baxtli yashashida muhim o‘rin tutadi. Agar neyronlar sog‘lom rivojlansa, insonning geni uning yosh va jismoniy imkoniyatlariga mos ravishda rivojlanib boradi. Shunigdek, insonning yosh xususiyatlariga mos ravishda bosh miyaning chap va o‘ng yarim sharlari rivojlanib borati. Agar bu yarim sharlar yosh davrlarga (go‘daklik, kichik maktab yosh, o‘smirlik va yoshlik bosqichlarga) mos ravishda rivojlanib borsa, insonning bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi talab darajasida kechadi. Bundan tashqari, insonning bosh miya chap va o‘ng yarim sharlari uning jinsiga ham mos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bunda ayol va erkakning jinsi imkoniyatlari o‘ziga xos bo‘lganligi uchun uning rivojlanishida insonning bosh miya yarim sharlari o‘ziga xos vazifalarni bajaradi.

Bosh miya yarim sharlarining gen, yosh va jins xususiyatlariga mos ravishda rivojlanib borishini hisobga olgan hoda ta’lim va tarbiyani amalga oshirish taqoza etiladi. Shuning uchun go‘daklar va kichik yoshlilarning (3-6 yoshli bolalarning) miya yarim sharlari tez rivojlanib borishini hisobga olish kerak bo‘ladi. Shu sababli, bu davrda ta’lim-tarbiya jarayonini bolaning neyropsixologik rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda tashkil etish zarur. Jumladan, bolalarda o‘ng yoki chap miya yarim sharining nisbiy faolligi individual farqlanishi mumkin. Bu esa bolalarning til o‘zlashtirish, musiqiy sezgirlik, analitik fikrlash yoki tasavvurga asoslangan faoliyatlarda qanday yo‘nalishda ustunlik qilishini belgilaydi. Shu bois, ta’lim jarayonida individual yondashuvni yo‘lga qo‘yish, har bir bolaning intellektual salohiyati va rivojlanish sur’atini inobatga olish, o‘z navbatida, ularning qobiliyatlarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Demak, bunda maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida ta’lim oluvchilarini bilimlar olamiga olib kirish va ularning ko‘nikmalarini tarkib toptirish tabiiy kechadi.

Shu jihatdan 5-11-sinf o‘quvchilarining bosh miya yarim sharlari rivojlanishiga mos ravishda ularning bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirib borishga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda o‘quvchilarning chapaqay va o‘ng qo‘lda harakat qilish xususiyatlariga tayangan hoda ularni fikrlash hamda kasb-hunar asoslari bilan tanishtirishga e’tibor berishni taqoza etiladi. Shu sababli neyropedagoglar o‘quvchilarda bilim olishga qiziqishini oshirish yoki ularning hulqida uchraydigan illatlarni bartaraf etishda o‘quvchilarning chapaqay yoki o‘ng qo‘l faoliyati kuchli bo‘lishlariga e’tiborli bo‘lishni tavsiya etishadi. Eslatib o‘tish joizki chap yarim shar assimetriyasiga ega o‘quvchilarda tabiiylik xususiyatlari mavjud bo‘ladi, o‘ng yarim shar assimertiyasi ega o‘quvchilar esa hayajonga beriluvchan xususiyatlarga ega bo‘ladi. Demak, ta’lim muassasasi psixologi va tibbiyot xodimi yordamida ta’lim oluvchilarning chap yoki o‘ng yarim sharlariga egaligini aniqlab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda ta’lim muassasasining biolog va defektolog o‘qituvchilari bilan ham hamkorlikda ta’lim oluvchilarning bosh miya yarim sharlari bo‘yicha xususiyatlarini aniqlash va shu ma’lumotga asosan ularning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor berish kutilgan samarani beradi

Ta’kidlab o‘tish lozimki, ta’lim oluvchilarning bosh miya yarim sharlaridagi o‘ziga xoslik ularning bilimlarni tushunish, o‘zlashtirish, fikrlash, eslab qolish, fikrlarini yozma va og‘zaki ifodalash hamda faoliyatga tayyorgarlik darajalariga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli bo‘lajak pedagoglarning oliy pedagogik ta’lim jarayonida inson bosh miya yarim sharlari bo‘yicha anatomik-pedagogik ma’lumotlarni egallashi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu munosabat bilan, bo‘lajak pedagoglar uchun oliy pedagogik ta’lim jarayonida inson bosh miya yarim sharlarining tuzilishi, funksional vazifalari hamda ularning psixologik-pedagogik faoliyatga ta’siri haqida chuqur bilimga ega bo‘lish nihoyatda muhimdir. Anatomik va fiziologik asoslarni pedagogik nuqtai nazardan o‘rganish, o‘qituvchiga har bir o‘quvchining individual o‘ziga xos jihatlarini aniqlash, ularning ehtiyoj va imkoniyatlariga mos ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyilini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Nazariy manbaalar tahlili. “Bolaning rivojlanishida o‘zlashtirilgan bilimlar bilan bir qatorda uning psixik funksiyalarini boshqaruvchi mexanizmlar – ya’ni miya faoliyati asosiy rol o‘ynaydi”. (*Vygotskiy L.S., “Psixologiya nazariyasi”, 1934*).

“Inson faoliyati, fikrlashi, nutqi va xotira mexanizmlari bosh miya yarim sharlarining murakkab funksional tizimlariga asoslangan”. (*Luriya A.R., “Inson miyasi va psixik faoliyat”, 1973*).

“Har bir bola o‘ziga xos intellekt turlariga ega va bu miya faoliyatining individual tashkiliy modeli bilan belgilanadi”. (*Gardner H., “Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences”, 1983*).

Pedagog va neyropedagog olimlarning fikricha, erkak va ayol jinsiga mansub insonlarning bosh miya yarim sharlari bir xil tuzulmaga ega hamda ularning faoliyat xususiyatlari ham tipik, ya’ni yagonadir. Ayni paytda, pedagog olimlar tomonidan o‘g‘il va qiz bola o‘quvchilarning o‘zgacha fikrlashlari aniqlangan. Shu ma’noda o‘g‘il va qiz bola o‘quvchilarning bosh miya yarim sharlari gender xususiyatlari deganda ularning individual fikrlash, o‘zlashtirish hamda faoliyatda foydalanish ko‘nikmalarining o‘ziga xosligini tushunish lozim. Bunda:

-bosh miyaning chap yarim shari nisbatan xususiy xususiyatga ega bo‘ladi;

-bosh miyaning o‘ng yarim shari nisbatan ijodiy va his-hayajon jarayonlarida faol bo‘ladi. Ushbu jarayonda o‘g‘il bola va qiz bolalarning bosh miyaning qaysi yarim shariga mansubligini aniqlab olib, ularning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish kutilgan samarani beradi.

Xulosa. Pedagogik tajriba shuni k‘rsatadiki, qiz bola o‘quvchilarda ko‘p hollarda chap miya yarim sharining faoligi mavjud bo‘ladi. Shu sababli ularda ijodiy fikrlash, his-hayajonga berilish xuusiyatlari ustuvor bo‘lganligi uchun ular nutq va til o‘zlashtirish bo‘yicha yuqori darajada ko‘nikmaga ega bo‘ladailar, bu qiz bola o‘quvchilarning ko‘pchiligi bosh miya yarim sharining Brok zonasiga mavjudligini ko‘rsatadi. O‘quvchilarning neyropedagogik xususiyatlari nafaqat o‘quvchilarning ta’lim olish jarayoniga qanday ta’sir qilishini, balki ulardagi motivatsiya, diqqat va xotira qobiliyatlarini qanday rivojlantirish mumkinligini ham aniqlashda yordam beradi. Neyropedagogikaning asosiy vazifalaridan biri — o‘quvchilarning ushbu xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini shaxsga moslashtirishdir. Bu o‘quvchilarga o‘z salohiyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish imkoniyatini beradi va ularning ilmiy faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, neyropedagogika orqali ta’lim jarayoniga yangi texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va metodikalarni joriy qilish mumkin. Ko‘p hissiyotli o‘rganish (multisensor o‘rganish) metodikasi, o‘quvchilarning diqqatini saqlash, xotiralarini mustahkamlash, tafakkur va idrokini rivojlantirishga yordam beradigan amaliy usullarni taklif etadi. Bu o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi, shu bilan birga o‘quvchilarning bilish jarayonlarini chuqurlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Xodjaev B.X. Neyropedagogik bilimlardan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish. Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. 2010 yil 27-28 may. Samarqand, 2010.-B. 174-175.
2. Klemintovich I.P., Stepanov V.G. Neyropedagogika. Moskva, 2015.
3. G‘ulomov J. Va boshq. Neyropedagoggika/Uslubiy qo‘llanma. Toshkent: TDPU, 2017.-160 b.
4. S.N. Jamoldinova (2022). Pedagogik faoliyatda –pedagog konflktologik tayyorgarligining ahamiyati. “Harbiy sotsiologiyaning harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik hissini oshirishdagi roli va ahamiyati”, 1 (1), 301-302.
5. S. N. Jamoldinova (2021). Bo‘lajak o‘qituvchilarning konfliktologik madaniyatini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari. Filologik tadqiqotlar muammo va yechim, 21 (2), 316-318.
6. Jamoldinova, S. N. (2023). Shaxslararo munosabatlarda pedagogik nizolarning ahamiyati. Ta’limda raqamli tehnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari ” mavzusida o‘tkazilgan respublika onlayn amaliy konferensiyasi, 1(15),112-117.
7. Jamoldinova, S. N. (2023). Kommunikativ qobiliyat-ta’lim-tarbiya jarayonidagi konfliktlarni bartaraf etish manbai sifatida. “Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendirio‘”, 1(1), 229-235.
8. Jamoldinova, S. N. (2023). O‘qituvchining konfliktologik tayyorgarligining kasbiy faoliyatdagi ahamiyati. “Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendirio‘”, 1(1), 224-228.

THE INFLUENCE OF AI ON UZBEKISTAN’S ECONOMY

G.K.Djannazarova., Senior Lecturer at the Department of Economic Theory
H.Avazova., 1st-year student in the International Economic Relations program
S.Mukhiddinova., 1st-year student in the International Economic Relations program
Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan.

Annotation: This article explores the growing impact of artificial intelligence (AI) on the economic development of Uzbekistan. It examines how AI technologies are being integrated into various sectors such as agriculture, industry, finance, and education, enhancing productivity and innovation. The paper also discusses the potential benefits and challenges AI brings to the labor market and national competitiveness. By analyzing current trends, government initiatives, and global experiences, the article offers insights into how Uzbekistan can effectively harness AI to support sustainable economic growth and technological advancement.

Key words: AI, Uzbekistan, agriculture, industry, finance, education, productivity, innovation, economic growth, technological advancement, smart technologies.

Research Methods. This article takes a deep dive into qualitative research, drawing from both primary and secondary sources. The primary focus was on analyzing official government documents, national development strategies, and policy papers related to AI in Uzbekistan. We also looked at statistical data from various national and international organizations, including the State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics, the World Bank, and the International Telecommunication Union (ITU), to get a clearer picture of the current trends in AI implementation. On the secondary side, we reviewed academic articles, expert opinions, media reports, and case studies from other countries to gain comparative insights and better understand Uzbekistan’s progress. A sectoral analysis was conducted to explore the impact of AI in crucial areas like energy, healthcare, and ICT, shedding light on both the opportunities and challenges that exist. The research employed logical, analytical, and comparative methods to draw conclusions and suggest recommendations for future development.

Literature Review. In recent years, the impact of artificial intelligence (AI) on national economies has become a hot topic in both academic circles and policy discussions. Researchers are highlighting how AI can transform productivity, spark innovation, and pave the way for new economic models. A report from PwC in 2020 suggests that AI could add a staggering $15.7 trillion to the global economy by 2030, a figure that has motivated both developed and developing nations to weave AI into their national strategies.

When it comes to Central Asia, particularly Uzbekistan, the literature on AI is steadily expanding. Local scholars and policy analysts are starting to investigate how AI can aid in economic modernization, focusing on areas like digital infrastructure, education, and the automation of public services. Various government-issued white papers and strategic documents highlight how AI is set to speed up the country’s shift towards a digital economy Additionally, international organizations such as the World Bank and the United Nations Development Programm (UNDP) are playing a role in this growing discourse on digital transformation in Uzbekistan, often connecting AI development to broader issues like e-governance, youth employment, and digital literacy.

Strategic Framework for AI in Uzbekistan. The Uzbek government is making impressive strides to lay a strong groundwork for embracing AI. At the heart of this digital transformation are two pivotal strategic documents: the “Digital Uzbekistan 2030 Strategy” and Presidential Decree No. PP-4996, which was adopted in 2021.The “Digital Uzbekistan 2030 Strategy” paints a picture of the nation’s aspirations for a digital economy, focusing on the integration of cutting-edge technologies like AI, big data, block chain, and cloud computing. This roadmap highlights the need to modernize public administration, develop e-services, and enhance ICT infrastructure as essential steps for successfully rolling out AI. It also sets specific goals for boosting digital skills and fostering international collaboration in the tech arena. On the other hand, Presidential Decree No. PP-4996 lays down the groundwork for developing and implementing AI technologies across various sectors of the economy and governance. This decree creates a legal framework, encourages partnerships between the public and private sectors, and promotes investment in AI research and innovation. It also calls for the establishment of AI research centers and training programs to nurture local talent. These policy initiatives not only showcase Uzbekistan's ambition to compete in the global AI landscape but also demonstrate a solid grasp of the importance of strategic planning, institutional support, and building capacity in this digital age.

Integration of AI into the Education System. Significant educational reforms aimed at producing a workforce with digital competency are also part of the strategic framework. Universities like Tashkent University of Information Technologies and Inha University in Tashkent have launched AI and data science programs. In addition to teaching younger students robotics and coding, there is an increasing focus on

STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, and Mathematics) education. This is in line with the objective of creating human capital capable of innovation and global competition in AI-related fields.

AI in Energy Production. As Uzbekistan strives to achieve energy independence and sustainability, artificial intelligence will become an indispensable tool for promoting the modernization of its energy sector. The country has historically depended on natural gas and fossil fuels, but more recently is beginning to diversify its energy mix by incorporating solar, wind, and hydroelectricity into the broad domain of its energy supply. AI is becoming increasingly central to optimizing operations, improving efficiency and stability in energy systems, as Uzbekistan transitions from a natural gas dependent energy supply system to an energy system incorporating several renewable energy sources. One of the most exciting developments involves the use of AI in smart grid systems, which allow for real-time monitoring and management of electricity flows. Smart grid systems integrate AI capabilities through applications that detect fluctuations in demand, predict outages, and distribute energy to designated regions remarkably more efficiently than traditional systems. For a rapidly growing energy demand from urban centers, and increases in industrial demand, this transition from traditional systems to smart grid systems powered by AI is critical in developing inter-connected energy systems for energy dependent societies. Additionally, AI opens predictive maintenance for power plants and energy infrastructure. The use of data from sensors measuring parameters in turbines, transformers, or other machinery, will identify wear and failures before they manifest. This will improve uptime, minimize maintenance costs, and improve the reliability of Uzbekistan's energy network.

Uzbekistan's effort to embrace sustainable and AI-based energy management systems is illustrated by the Datavolt Net Zero Data Center initiative. Released in partnership with the Datavolt company of the UAE, this data center will be powered by renewable energy sources, and will have embedded energy management systems that will use AI technology to analyze consumption, the environment, and monitored conditions to reduce waste in the process and improve energy productivity. The intent of this pilot project is to provide a valuable new asset for Uzbekistan’s digital infrastructure, and to work as a leader in the region for sustainable and environmentally friendly technologies developments.AI technology is already being applied in renewable energy sources in relation to forecasting. Whether energy generation occurs from solar, wind or other fuels, renewable generation is almost always dependent on the weather conditions. AI technology supported by machine learned forecasting modeling is proving to have new value in planning for energy, due to its capability of analyzing prior weather data, satellite data and atmospheric conditions with current and/or future weather conditions to predict energy output and manage energy supply and demand much more effectively. Uzbekistan is building a plan for a smarter, more sustainable energy future that embraces conventional and renewable technologies with an emphasis on AI powered technologies. These advances are aligned with Uzbekistan’s longer term goals in the “Green Economy Transition Strategy”, and the “Digital Uzbekistan 2030” plan.

AI in E-Government Services AI can help to streamline administrative processes, reduce bureaucracy, and even provide a window into government, as well as the structure and different service processes, imaginably making the processes more efficient.

1. Improving Admin Efficiency: Government ministries are deploying AI to automate repetitive tasks, including form processing, application management, and data management. Automation reduces the human workload, which allows the government to provide services quicker, helping citizens receive their benefits/permits/approvals in a timely manner while also reducing the likelihood of human error and ensuring that processes are timely and efficiently executed.

2. Improving Transparency: AI is also facilitating added transparency. For example, by utilizing AI to monitor the use of public funds, monitor government transactions and monitor projects throughout their lifecycles in real-time, Uzbekistan is insuring public funds are being spent appropriately. AI allows for identification of inefficient or corrupt behavior, which allows citizens and regulators to hold government bodies accountable for their actions.

3. Digital Public Services: The government of Uzbekistan has transitioned to e-government services utilizing AI-powered platforms enabling a variety of services from tax filing to permits and licenses. By digitizing public services, the government is allowing for the on-demand access to the services citizens require when they need it most. This accessibility not only makes it easier for citizens to access public services but it also reduces the burden on public officials involved in administration.

Conclusion. Artificial intelligence has transitioned from a futurist notion to a reality that is influencing Uzbekistan economy and society. As discussed in this paper, AI is affecting the economy positively in primary sectors, such as agriculture, energy, health, and government, as it relates to improvements in efficiency, transparency and innovation. The government’s leadership, as demonstrated by various policies, such as "Digital Uzbekistan 2030" and significant partnerships with global institutional partners, proves that Uzbekistan has a truer commitment to a future defined by digital technologies. However, to fully actualise the advantages of AI, efforts will need to be made to overcome the digital skills gap, ponder the social ramifications of automation, and create equitable access to technology to everyone. If there is a constructive blend of advancements in innovation and regulations, Uzbekistan can position itself as a regional AI-induced development leader and cooperative and inclusive economy in the digital age.

Sample list of references

1. Digital Uzbekistan 2030 Strategy. (2020). Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan. Retrieved from https://digital.gov.uz/.
2. Presidential Decree No. PP-4996. (2020). On measures for further development of artificial intelligence technologies in the Republic of Uzbekistan. Official Gazette of the Republic of Uzbekistan.
3. UNESCO. (2021). *Artificial Intelligence: Implications for education, research, and economy*. United Nations Educational, Scientific, and Cultural Organization. Retrieved from https://www.unesco.org/en/AI.
4. World Bank. (2020). *Uzbekistan: Unlocking the Potential of Digital Transformation*. World Bank Group. Retrieved from https://www.worldbank.org/.
5. Miftakhov, A. (2021). *Artificial Intelligence and the Future of Uzbekistan's Economy*. Tashkent: Uzbek Academy of Sciences.
6. Sidorov, I. V. (2022). *The role of AI in Sustainable Development in Uzbekistan*. Tashkent State University of Economics Journal, 14(3), 34-49.
7. Khudayberdiyev, K., & Yuldashev, N. (2023). *AI in the Agricultural Sector: Opportunities and Challenges for Uzbekistan*. Journal of Agritech and Sustainable Development, 18(2), 66-77.
8. Aral, A. (2021). *Digitalization and Public Services in Uzbekistan: AI's Role in Governance*. Government and Technology Journal, 22(1), 50-62.

GLOBALIZATSIYA VA YOSHLARNING MA’NAVIY YUKSALISHI: BUGUNGI TALABA – ERTANGI JAMIYATNING YETAKCHISI

D.A.Abduraximova
Namangan davlati universiteti Fizika – matematika fakulteti
Matematika yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
dilnavozabduraximova05@gmil.com, tel:952112611

Annotatsiya. Globalizatsiya jarayonida talabalarning ma’naviy yuksalishi va axloqiy dunyoqarashini shakllantirish bugungi jamiyatda nihoyat ahamiyatli. Maqolada, yoshlarning ma’naviy qadriyatlarini saqlab qolish va rivojlantirish masalalari global makonda qanday aloqada ekanligi tahlil qilinadi. Talabalar o‘rtasida ijtimoiy faollik va liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning o‘rni, shuningdek, ularning axloqiy va ma’naviy tarbiyasida yangi pedagogik yondashuvlarning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Yoshlarni global makon sharoitida axloqiy mas’uliyat va etika asosida tarbiyalash, ularning ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlash masalalari keltiriladi. Maqola yoshlarning ma’naviy yuksalishiga doir innovatsion yondashuvlar va ta’lim tizimida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan o‘zgarishlar haqida ilmiy tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar. Globalizatsiya ,ma’naviy yuksalish, yoshlar ta’limi,axloqiy dunyoqarash, pedagogik yondashuv, liderlik ko‘nikmalari, ma’rifatli yoshlar,chet el madaniyati, ijtimoiy moslashuv.

Kirish. Globalizatsiya jarayoni hozirgi kunda dunyo bo‘ylab keng tarqalib, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hayotni tubdan o‘zgartirmoqda. Boshqa mamlakatlar bilan tezkor aloqalar, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va xalqaro savdo-sotiqning kengayishi yoshlarni yangi va tez o‘zgaruvchan

sharoitda yashashga majbur qilmoqda. Ushbu jarayonlarda yoshlarning o‘z ma’naviy va axloqiy dunyoqarashlarini saqlash va rivojlantirish, global madaniyat bilan uyg‘unlashish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi talaba yoshlar nafaqat jamiyatning faol a’zolari, balki kelajakdagi yetakchilari sifatida o‘z o‘rnini topmoqda. Shuning uchun, yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish va ularni jamiyatda to‘g‘ri yo‘naltirish juda muhimdir. Global dunyoqarashga ega bo‘lish, axloqiy mas’uliyatni tushunish va insonparvarlik qadriyatlarini anglash – bu yoshlarning kelajakka nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishda eng muhim omillar hisoblanadi. Ma’naviy yuksalish, ijtimoiy faollik va axloqiy dunyoqarash yoshlarning jamiyatdagi roli va ta’sirini kuchaytiradi. Shu bilan birga, global makon sharoitida ta’lim tizimining o‘zgarishi va pedagogik yondashuvlarning yangilanishi yoshlarni bu yo‘nalishlarda rivojlantirishga yordam beradi. Hozirgi kunda yoshlarning ijtimoiy moslashuvi, ma’naviy tarbiyasi va liderlik ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari barcha davlatlar uchun dolzarb vazifaga aylangan. Ushbu maqolada yoshlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish va ularni global makonda yetakchi shaxslar sifatida tayyorlash bo‘yicha dolzarb masalalar tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlarning ma’naviy yuksalishi va axloqiy tarbiyasi uchun ta’lim tizimidagi innovatsion pedagogik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.

Asosiy qism**.** 1. Globalizatsiya va uning yoshlar ta’limiga ta’siri Globalizatsiya – bu nafaqat iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, balki madaniy, ijtimoiy va axboriy aloqalarning tezkor rivojlanishini ham o‘z ichiga oladi. Hozirgi kunda yoshlar, ayniqsa talaba yoshlar, yangi texnologiyalar va global axborot tarmoqlari orqali dunyoning barcha burchaklari bilan bevosita aloqada bo‘lish imkoniyatiga ega. Bu, o‘z navbatida, yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi, yangi madaniyatlar va qadriyatlarni qabul qilishga tayyorlikni oshiradi. Ammo, globalizatsiya jarayonining yuksak tezligi, yoshlarni o‘z ma’naviy va axloqiy qadriyatlaridan chetlashishga olib kelishi mumkin. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqaladigan ma’lumotlar, har doim ham ijobiy va ma’naviy jihatdan to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli, yoshlarning ma’naviy-axloqiy yuksalishi va axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirish uchun zamonaviy ta’lim tizimining roli juda katta. Talaba yoshlarning global madaniyatga moslashishi, ammo o‘z milliy va ma’naviy qadriyatlarini saqlab qolishi zarur. Bu nafaqat ta’lim tizimining, balki jamiyatning ham mas’uliyatidir. Talabalar uchun yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, jamiyatda o‘z o‘rnini topishda va ijtimoiy faollikni oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

2. Yoshlarning ma’naviy yuksalishi va axloqiy dunyoqarashi Ma’naviy yuksalish yoshlarning ichki dunyosini shakllantiradi va ularning jamiyatga qo‘shadigan hissasini aniqlaydi. Jamiyatning rivojlanishi va barqarorligi, ayniqsa, yoshlarning axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni qabul qilishi va ularni hayotga tatbiq etishi orqali amalga oshadi. Yoshlar o‘zlarining axloqiy qarorlarini qabul qilishda faqat shaxsiy qiziqishlariga tayanmasdan, balki jamiyatning umumiy manfaatlarini hisobga olishlari lozim. Pedagogika tizimi, shu jumladan, o‘qituvchilar va ta’lim muassasalari, yoshlarning axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Yoshlarni mustahkam ma’naviy va axloqiy asoslar bilan ta’minlash, ularga jahon miqyosidagi ijtimoiy mas’uliyatni tushuntirish, ayniqsa, hozirgi tezkor o‘zgaruvchan sharoitda zarurdir. Ta’lim jarayonida yoshlarni faqat kasbiy bilimlar bilan emas, balki ijtimoiy va axloqiy ko‘nikmalar bilan ham ta’minlash kerak.

3. Pedagogik yondashuvlar va yangi imkoniyatlar Global makon sharoitida yoshlarni tarbiyalash uchun yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish va joriy etish zarur. Innovatsion ta’lim metodlari, zamonaviy texnologiyalarni ta’limda qo‘llash yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda, axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda samarali vositalar bo‘lishi mumkin. Pedagogik usullar, yoshlarni global madaniyat bilan tanishtirish, ammo ularga o‘z milliy madaniyati va qadriyatlarini ham hurmat qilishni o‘rgatishi kerak. Bundan tashqari, liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish yoshlarni faqat bilimdon shaxslar sifatida emas, balki jamiyatda axloqiy mas’uliyatni his qiladigan, yetakchi shaxslar sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Yoshlarni axloqiy va ma’naviy nuqtai nazardan rivojlantirish, ularni dunyoqarashi keng, ijtimoiy mas’uliyatni anglagan va faol fuqarolar sifatida tarbiyalashga imkon yaratadi.

Xulosa. Globalizatsiya jarayoni yoshlarning ma’naviy-axloqiy yuksalishini shakllantirishda ko‘plab imkoniyatlar yaratadi, ammo unga yondashuvda ehtiyotkorlik va muvozanat kerak. Yoshlarni nafaqat ilmiy bilimlar, balki axloqiy, ijtimoiy mas’uliyat va madaniy ko‘nikmalar bilan ta’minlash zarur. Ta’lim tizimi yoshlarni nafaqat global dunyoda, balki o‘z milliy qadriyatlarini saqlab qolishda ham yetakchilik qilishga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Yoshlar o‘zlarini rivojlantirishda globalizatsiyaning imkoniyatlaridan foydalanishlari lozim, lekin shuningdek, axloqiy va ma’naviy qadriyatlarini

yo‘qotmasliklari kerak. Ular o‘z shaxsiy o‘sishlariga e’tibor qaratish bilan birga, jamiyatga foyda keltirish uchun mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga tayyor bo‘lishlari kerak. Innovatsion pedagogik metodlar va zamonaviy o‘qitish usullari yoshlarni mustaqil fikrlashga undaydi, shuningdek, ularni ijtimoiy va madaniy mas’uliyatni his qiladigan fuqarolar sifatida tarbiyalaydi. Shu bilan birga, yoshlar o‘zlarining jamiyatdagi o‘rinlarini anglab, axloqiy qarorlar qabul qilishda to‘g‘ri yo‘lni tanlashga harakat qilishlari zarur. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun, ular har bir qarorini o‘zining va boshqalarining manfaatlarini hisobga olgan holda qabul qilishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xasanov, X. (2010). Globalizatsiya va uning ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Iqtisodiyot institutining ilmiy ishlar to‘plami.
2. Tursunov, B. (2015). Milliy ma’naviyat va ta’lim tizimi: Globalizatsiya sharoitida. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
3. Abdullaeva, Z. (2018). Yoshlar ta’limi va ularning ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirish. Toshkent: "O‘qituvchi" nashriyoti.
4. Qosimov, A. (2012). Farobiy va uning falsafasi. Toshkent: "Ijtimoiy fanlar" nashriyoti.
5. Mahmudov, F. (2019). Globalizatsiya va ta’lim tizimi: O‘zbekiston tajribasi. "O‘zbekiston ta’limi" jurnali, 2-son.
6. Giddens, A. (2000). Runaway World: How Globalization is Reshaping Our Lives. Routledge.
7. Steger, M. B. (2003). Globalization: A Very Short Introduction. Oxford University Press.
8. Nussbaum, M. C. (1997). Cultivating Humanity: A Classical Defense of Reform in Liberal Education. Harvard University Press.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA NUTQ O‘STIRISH NAZARIYASI

A.O.Usmonova
Farg‘ona davlat universiteti, Pedagogika va Psixologiya fakulteti,
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi, 2-kurs 23.28-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq tushunchasi,nutq o‘stirish metodikasi,uning ahamiyati,o‘quvchilar nutqini rivolantirish, zamonaviy nazariya,o‘quvchilar nutqini rivolantirishda aniq belgilangan talablar,ta’lim tarbiya jarayonida nutq o‘stirishga erishish orqali o‘quvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: nutq, nazariya, hayotiy ko‘nikmalar,manaviy meros,sharqona ta’lim va tarbiya,tafakkur va notiqlik san’ati,ta’lim sifati.

Abstract: In this article, the concept of speech, the methodology of speech development, its importance, the technologies of students' speech development, modern methods, clearly defined requirements for the development of students' speech, which should be formed in students by achieving speech development in the process of education It talks about life skills.

Key words: speech, methodology, life skills, spiritual heritage, oriental education and training, art of thought and speech, quality of education.

Аннотация: В данной статье понятие речи, методика развития речи, ее значение, технологии развития речи учащихся, современные методы, конкретные требования к речевому развитию учащихся, должны формироваться у учащихся путем достижения речи. развитие в образовательном процессе Это говорит о жизненных навыках.

Ключевые слова: речь, методика, жизненные навыки, духовное наследие, восточное образование и воспитание, искусство мысли и речи, качество образования.

Kirish Har bir mamlakatning taraqqiyoti**,** istiqboli, farovonligi, manaviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin olishi ,avvalo, o‘qituvchilarning zimmasiga sharafli va ayni paytda mas’uliyatli vazifa yuklaydi.

Adabiyotlar sharhi. Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirish yuzasidan yangiliklar hamda bir nechta nazariyalar o‘ylab topilmoqda,lekin shuni aytish joizki,tarixga nazar soladigan bo‘lsak, turk pedagog-psixologi Adem Guneshning bir necha asarlari boshlan‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivolantirishga qaratilgan. Xususan “Baqirmaydigan onalar”, “Baqirmaydigan

bolalar”, ”Mahramiyat tarbiyasi” kabi asarlar.Ushbu asarlarda aynan bolaning nutqini rivolantirishda qanday muamolar paydo bo‘lishi haqida to‘liq yoritilib berilgan.Ushbu asarlar bilan tanishib chiqqan har bir kitobxon ,ushbu xulosani olishi tayin,ya’ni bolaga avvalo so‘z erkinligi berilishi lozim degan fikrni ilgari suradi.

Muhokama. Qanday qilib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqini ravon rivolantirish mumkinligi,bugungi kunda dolzarb mavzulardan biriga aylanib ulgurgan.Bu barchani,ya’ni pedagog-psixolog,boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini hamda ota-onalarni tashvishga solib kelmoqda.Ko‘pchilik ota-onalar bunday vbaziyatda qanday yo‘l tutishni bilishmaydi.Ba’zilar esa logopedga murojaat qilishadi.Aslida shunday yo‘l tutish qanchalik to‘g‘ri? Bunday vaziyatlarga qanday chora-tadbir ko‘rish lozim.Yuqorida aytganimizdek, logopedlarga murojaat qilish unchalik ham to‘g‘ri deb hisoblanmaydi,chunki bu sohada faoliyat olib boruvchilar,qaysidir harfni ayta olmaydigan o‘quvchilar uchun ayni muddao bo‘ladi.Bizning muammo esa o‘z fikrini to‘liq shaklda bayon eta olmaydigan o‘quvchilar to‘g‘risida.Bunday vaziyatda ko‘pincha pedagog-psixologlarga murojaat qilish eng samarali yechim bo‘la oladi.Buning sababi pedagog-psixologlar o‘z nomi bilan psixologichiskiy tomonlama,bolaning nima sababda nutqini erkin bayon eta olmasligiga oydinlik kiritishi mumkin.Bundan tashqari bugungi kunda internet degani inson omilini o‘z domiga tortayotgan vaxshiy sun’iy intellektning rivojlanib borayotganiga guvoh bo ‘lyapmiz.Ko‘pchilik ota-onalar bu sun’iy intellektdan farzandlarini tinchlantirish maqsadida foydalanayotgani hech kimga sir emas.Mana shunday holatlar bolani real hayotdan uzib qo‘yishga olib kelmoqda.Xo‘sh bunga qanday yechim bor.

Bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobilyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantiruvchi demakdir (A.A.Leont’ev). Ilmiy tadqiqotlar va yo‘nalishlar tahlili maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining turli tomonlarini rivojlantirish xususiyatlari hamda ularning ilmiy adabiyotda o‘rganilganlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini tadqiq etish O‘zbekiston Respublikasida o‘tgan asrning 50-yillarida boshlangan. Maktabgacha ta’lim sohasidagi birinchi fan nomzodi A.V.Nikolskaya mahalliy millat bolalariga rus tilini o‘qitish zarurligi masalasini ko‘tarib chiqdi. U tomonidan o‘tkazilgan sinov tadqiqotlari (1958–1960-yillar) natijasida maktabgacha katta yoshli o‘zbek bolalariga ruscha og‘zaki nutqni o‘rgatish metodikasining asosiy mazmuni belgilangan va uning asosiy masalalari ishlab chiqilgan. Barcha tadqiqotchilar bola nutqini va uning rivojlanishini alohida ajratilgan holda emas, balki katta yoshli kishining bolaga pedagogik ta’siri bilan o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqadilar. Ushbu yondashuv o‘rinlidir, zero, fandagi zamonaviy tadqiqotlar nutqni o‘zlashtirish va ijtimoiy o‘zaro hamkorlik – o‘zaro bog‘liq jarayonlardir, nutqni rivojlantirish esa – ijodiy jarayon, biroq u stixiyali jarayon emas, degan fikrga asoslanadi. Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so‘zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o‘zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.) ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o‘rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo‘yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro‘y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda nutq rivojlanishini rag‘batlantiruvchi yoki unga to‘sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko‘zlagan holda pedagogik ta’sir ko‘rsatishni tashkil etish kalitidir.

Natija. Birinchi navbatda bolaning nutqini rivojlantirishdan avval o‘qituvchilarda nutq malakalarini shakllantirishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalarga e’tibor qaratish lozim.Ya’ni o‘qituvchilarning o‘zini nutqi zamonaviy texnologiyalarga tayangan holda ravon hamda saviyali bo‘lishi kerak.Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchisi nutqdan tortib hattoki,xatti-harakatni ham o‘qituvchidan ko‘chiradi.Shunday ekan o‘qituvchining o‘zi har tomonlama zamomaviy texnologiyalarga asoslangan holda mukammal bo‘lishi darkor. Shu bilan bir qatorda ota-onalar ham o‘z ustida ishlashi lozim.Negaki, ona yoki ota farzandiga vazifa qilishini yoki shu kabi ilm olishini talab qilsa va uni shunga undasa-yu,amma na ota na onaning o ‘zi qo‘liga kitob olib o‘qimasa,bunday vaziyatda ,albatta har qanday bola dars qilgisi kelmaydi,negaki,bolaning ichki hissiyoti “ o‘zlari o‘qishmaydi-yu,ammo mendan talab qiliadi”,” o‘zlari maza qilib telefon o‘ynashyapti-yu ,nega endi men dars qilishim kerak” kabi savollar bilan chambarchaslik hosil qiladi.

Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini rivojlantirishda ota-onaning ham xatti-harakati muhim ro‘l o‘ynaydi.

Bundan tashqari kundan kunga rivojlanib borayotgan bir davrda bola nutqini rivojlantiruvchi bir necha nazariyalar ishlab chiqilmoqda.

bolalar hayotidan hikoyalar ;

bolaga narsalarning xususiyatlarini ko‘rishda;

suratlar asosida hikoya qilish,savollarga javob berish,so‘ngra esa o‘qigan hikoyasini qisqa va ravon holda,qayta hikoya qilib berishda;

bolalarni o‘qish va yozishga tayyorlovchi amaliy topshiriqlar

Buyuk K.D.Ushiniskiyning til va bola nutqini ruhan shakllantirishida tutgan o‘rni haqidagi ta’limoti nutqni rivojlantirish metodikasinimustaqil fan sifatida ajratish uchun muhim ahamiyatga ega insondir.Uning bola nutqini rivojlantirshga qaratilgan ko‘plab jumlalari mavjud,ulardan biri:

1.Bola nutqini rivojlantirish maktab ta’limiga qadar boshlanadigan ish sifatida alohida bo‘limga ajratilgan.

2.Bola nutqini nuing fikrlashi,ma’naviy va estetik his-tuyg‘ulari bilan birgalikda rivojlantirishni ta’minlovchi ish usullari ko‘rsatib berilgan.

Boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

- malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
- boshlang‘ich ta’limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;
- bolalarni maktabga oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta’minlash;
- zamonaviy o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, texnik vositalar, o‘yinchoqlar va o‘yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;
- boshlang‘ich yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- boshlang‘ich ta’lim muassasalarining har xil turlari uchun turli usullardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo‘yicha malakali konsultatsiya xizmati ko‘rsatish imkoniyatini yaratish;
- boshlang‘ich tarbiya va sog‘lomlashtirish muassasalari tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish kabi vazifalarni maqsad qilib qo‘yadi

Xulosa qilib aytganda, bola nutqini rivojlantirishda quyidagi nazariyalarda foydalanamiz:

1.O‘quvchilarda nutqni shakllantirishning muhim pedagogik sharti uni mustaqil bilim olish va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish;

2.O‘quvchilar orasida ijodiy muhitni shakllantirish;

3.Ma’naviy-ruhiy holatni oshirish;

4.Tashkiliy metodikani kuchaytirish;

5.Psixologik chora-tadbirlarni qo‘llash;

6.Har qanday joyda bolalar o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilish;

7. Jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo‘lish;

8.O‘zgalar fikrini hurmat qilish ;

9.Bolaning fikrini tinglash va shu kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.Bola uchun eng asosiysi uni tinglash,fikrini inobatga olishdir.Shundagina bola qo‘rqmay fikrini bayon eta oladi.Shu bilan birga nutqi ham rivojlanadi.Oilada ham garchi uning fikri xato bo‘lsa ham fikrini to‘liq bayon qilganidan keyin unga fikri uchun rahmat aytib,so‘ngra fikridagi kamchiliklarni to‘g‘irlagan ma’qul hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.”Xalq so‘zi “ gazetasi
2. Elmurodov N. O‘qituvchining nutq madaniyati. O‘quv qo‘llanma.
3. *Nutq madaniyatini egallashning usul va yo’llari (muhaz.org)*
4. Nutq madaniyati - Vikipediya (wikipedia.org)
5. Adem Gunesh (turk pedagog-psixologi) asari “ Mahramiyat tarbiyasi”

GLOBAL MAKONDA TALABALARNING MA’NAVIY, MA’RIFIY VA AXLOQIY DUNYOQARASHI: IJTIMOIY MOSLASHUVI VA MA’NAVIY TARBIYASI

M.A.Muhammadjonova
Namangan davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda pozitiv dunyoqarashni shakllantirishda sharq allomalarining pedagogik ta’limotlari vositasida ijtimoiy muammolarni o‘rganish, talabalarning ma’naviy-axloqiy e’tiqodi va uni takomillashtirish, talabalarda adaptatsiya tushunchasini ta’lim jarayonida shakllantirish orqali jamiyatga integratsiya qilish g‘oyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, ma’naviyat, odob-axloq, tarbiya, islohot, yoshlar, talaba, bilim, globallashuv, pozitiv, ijtimoiy, adaptatsiya, qadriyat, odillik, dunyoqarash, shaxs, ijtimoiylashuv.

Annotation. This article discusses the ideas of studying social problems through the pedagogical teachings of Eastern scholars in the formation of a positive worldview in students, the spiritual and moral beliefs of students and their improvement, and the integration into society through the formation of the concept of adaptation in students in the educational process.

Keywords. Education, spirituality, morality, upbringing, reform, youth, student, knowledge, globalization, positive, social, adaptation, value, justice, worldview, personality, socialization.

Аннотация. В нем освещаются идеи изучения социальных движений у студентов через педагогические учения мировых ученых в позитивных педагогических учебных заведениях, развития и поддержания нравственных убеждений студентов, а также интеграции процесса адаптации студентов в общество в ходе образовательного процесса.

Ключевые слова. Образование, духовность, нравственность, воспитание, реформа, молодежь, студент, знания, глобализация, позитивный, социальный, адаптация, ценность, справедливость, мировоззрение, личностный, социализация.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya sifatini takomillashtirish, hartomonlama ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalangan barkamol shaxslarni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishilaridan biri desak adashmagan bo‘lamiz. Bu ustuvor masala yuzasidan davlatimiz rahbariyati tomonidan ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Bugun dunyoda globallashuv jarayonida inson ongi va tafakkuri uchun jiddiy kurash kechayotgani ayni haqiqatdir. Talaba-yoshlarni globallashuv jarayonida o‘z ongi va tafakkuri bilan mustaqil fikr yuritadigan, o‘z xalqini va Vatanini himoya qila oladigan shaxs sifatida tarbiyalash ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini tashkil etadi hamda talaba-yoshlarning ma‘naviy-axloqiy bilimlarga ega bo‘lishini taqoza etadi.

Tarbiya deganda shakllanayotgan shaxsda shaxsiy, axloqiy sifatlarni shakllantirishni tushunamiz. Tarbiya, ta‘lim berish bilan mustahkam aloqada bo‘lgani holda o‘ziga xos qonuniyatlarga ham egadir. Ta‘lim – tarbiya yagona jarayondir. Lekin ular bir-biriga aynan o‘xshash emas. Ta‘lim va tarbiyaning birligi avvalo, ularning maqsadining umumiyligidadir. Bir butun pedagogik jarayonda ta‘lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, unga tayyorlanishda mas‘uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyaning vazifalari ko‘p qirralidir. Ta‘limning asosiy vazifasi o‘quvchilarni bilimlar bilan Uning ta‘limda qanday farqli tomonlari mavjud? “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”fanining predmeti kasb-hunar maktablari, akademik litseylarda ta‘limtarbiya oladigan o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga oid nazariy bilimlar va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iboratdir qurollantirish bo‘lsa, tarbiya yoshlarning jamiyatimizning qonunlariga javob bera oladigan e‘tiqodini, axloqiy tushuncha va ko‘nikmalarini, ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirishda muhimdir. Abdulla Avloninyning «Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo‘lsa ham bir biridan ayrilmaydigan, birining biriga bog‘langan kabidur» deb ta‘kidlashi bejiz emas. Ma‘lum bo‘ladiki, ta‘lim va tarbiyani bir-biridan ajratish mumkin emas. Shu bois, hozirgi kun pedagogikasining asosiy vazifasi bilim berib, tarbiyalash tamoyiliga ko‘ra tarbiyalab, bilim berish bo‘lmog‘i lozim.

Ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglardan bugungi murakkab zamonda yoshlarga zamon ruhida ta’lim – tarbiya berish bilan bir qatorda, bashariyatning, Vatanimiz va xalqimizning ertangi kunini

o‘ylab yoshlarni ezgulikka, insof- diyonatga, mehr – oqibat va bag‘rikenglikka da’vat etishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni ham amalga oshirishi talab etiladi. Inson aqli borasida Sharqda qaror topgan qarashlarga ko‘ra, aql insonga tug‘ma in’om etiladi. Kasbiy aql esa ikki xil, ya’ni tabiiy va kasbiy bo‘ladi. Tabiiy aql insonga tug‘ma in’om etiladi. Kasbiy aql esa o‘qish, ilm olish va tajriba tufayli orttiriladi. Kasbiy aqlni shakllantirishdek sharafli va mashaqqatli vazifa aynan pedagoglar zimmasiga yuklatilgandir. Shu sababli mamlakatimizda yoshlarning axloqiy tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Yoshlarning axloqiy tarbiyasini rivojlantirish va axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirish bizning oldimizdagi dolzarb vazifa hisoblanadi. Axloqiy tarbiya shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo‘lgan munosabatlarida foydalanishi, o‘z – o‘zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o‘z ichiga oladi. Demak, axloqiy tarbiya masalasiga e’tibor berishimiz va uning elementlarini aniqlab olishimiz muhimdir. Axloqiy jihatdan yetuk tarbiyalangan shaxs axloqiy madaniyatga ham ega bo‘ladi. Axloqiy madaniyat axloqiy hayotning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va kishilarni tarbiyalash maqsadidagi ishlov berib yaratilgan qismi bo‘lib, u axloqiy hayotning substansiyasi, ya’ni asosi hisoblanadi. Axloqiy madaniyatni substansiya sifatida tashkil etuvchi substansional elementlar, birinchidan, axloqiy madaniyat sifatidagi inson, ikkinchidan, insonlarning axloqiy extiyojlari, uchinchidan, axloqiy ehtiyojlarni anglash zaruriyatidan kelib chiqadigan va axloqiy maqsad, reja kabilarni o‘z ichiga olgan – axloqiy ong, to‘rtinchidan, insonning yaratuvchilik faoliyatining bir ko‘rinishi axloqiy anglash negizida va u bilan parallel ravishda amalga oshadigan – axloqiy ijodkorlik, beshinchidan, axloqiy ijodkorlik natijalari bo‘lgan o‘gitlar, yurish – turish odoblari, axloqiy urf – odat va muassasalar, oltinchidan, axloqiy ijodkorlik natijalarining hayotda foydalanishidan iborat. Ularning bir butunligidan axloqiy turmush tarzi, individual axloqiy munosabatlar, axloqiy tendensiyalar va xulq shakllanadi. Demak, axloqiy madaniyatning yuqorida ko‘rsatilgan sistema tashkil etuvchi oltita komponentlari axloqiy hayotning yadroviy, ya’ni markaziy qismini tashkil etadi. Axloqiy madaniyatning sistemasini tashkil etuvchi bosh substansional elementini tahlil qiladigan bo‘lsak, B.Sh.Mamarasulov: “...barcha jamiyatlar va insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida, ijtimoiy o‘zgarishlar zamirida boshqa jonzotlardan o‘zining ongi va tafakkuri bilan tubdan farq qiladigan va maqsadga muvofiq faoliyatni amalga oshiradigan inson ijtimoiy hayot sub’yekti hisoblanadi”.

Axloq - ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me’yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan etukligining mezoni bo‘lgan ma’naviy kamolotga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ma’naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo‘lib, shaxsning ma’naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya va unga qo‘yiladigan talablar bu jamiyatda ma’lum ijtimoiyaxloqiy talablarga mos axloqiy xislatlarni shakllantirish maqsadida farzandlar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta’sir etishdir. Ma’naviy-axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirish.
2. Ularda ma’naviy-axloqiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash va rivojlantirish.
3. Bolalarda ma’naviy-axloqiy xulq-atvor ko‘nikma va odatlarini tarkib toptirish.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko‘ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o‘z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog‘liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me’yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas’uliyatni his etishi, ma’naviy-axloqiy bilimlarning e’tiqodga aylanishi va bu e’tiqodlarning tizimliligi, mustahkam ma’naviy-axloqiy his-tuyg‘u va xislatlarni shakllantirish, farzandlar tomonidan ma’naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a’zolariga bo‘lgan hurmat-e’tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab etilishi, ma’naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo‘yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan tub o‘zgarishlar yuz berdi. Eng muhim qadriyat inson omili hisoblanadi. Hayot insonga bir marta beriladi. Shuning uchun ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarda uni mazmunli, o‘zgalar va o‘zining hayoti ma’nosini anglagan holda o‘tkazish kerakligi haqida ko‘plab rivoyat, hikmat va pand-nasihatlar mavjud. Ma’naviy-axloqiy tarbiyada yana bir eng qimmatli qadriyat erkinlikdir. Ta’limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish rivojlanadi. Bu esa o‘z navbatida farzand shaxsida mas’uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko‘nikmalarini tarbiyalaydi. Shuningdek, vatanparvarlik, xalqlar o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik, mas’uliyatni his etish, burch, or-nomus, vijdonlilik, tartiblilik, adolatlilik va boshqa xislatlar tarbiyasi kata

ahamiyatga ega. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi: jamiyat talablariga bog‘liq bo‘lib, bu talablar, o‘z navbatida, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o‘qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma’naviy axloq va e’tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim. Yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tuzimini takomillashtirishda boshlang‘ich maktab muhim o‘rin egallaydi. Insonning jamiyatga bo‘lgan munosabatini shakllantirish, salbiy illatlarga qarshi nafrat uyg‘otish, ongli intizomni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish kabilar axloqiy tarbiyaning vazifalaridir. Axloqiy tarbiya vazifalaridan yana biri insonning jamiyatga bo‘lgan munosabatini yuqori pog‘onaga ko‘tarishdir. Iymon va insof, so‘z va ish birligi, insonparvarlik yangi qurilayotgan jamiyatning asosiy xususiyatlari bo‘lib qoladi. Shunday ekan, jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashish mas’uliyatini har bir fuqaro teran his etishi va unga amal qilishi lozim.

Axloqiy hayot, jumladan, axloqiy madaniyat va axloqiy tarbiyaning bosh substansional elementi inson va uning birliklari ekan, bu borada biz E.T. Dalkonovnig quyidagi falsafiy fikrlariga tayandik: “Inson va uning birliklari. Ular madaniy borliq yuzaga kelishining sub’yektlari yaratuvchisi va tashuvchilari hisoblanadilar. Ular vatanparvarlikning ham sub’yektlari hisoblanadilar. Inson tanasining biomadaniy hodisa sifatida va demakki, uning ijtimoiy munosabatlarga bo‘ysungan holda va o‘ziga xos madaniylashgan jismoniy kuch sifatida namoyon bo‘lishi vatanparvarlikning biomadaniy irodaviy zamini bo‘lib xizmat qiladi. Agar biomadaniy organizm insonning birinchi tomoni bo‘lsa, ijtimoiy ruhiyat va faoliyat qobiliyati unig ikkinchi tomonini tashkil etadi. Vatanparvarlik ijtimoiy ruhiyat va faoliyat qobiliyatining jihatlaridan hisoblanadi. Demak, inson madaniy borliqning yaratuvchisi va avloddan – avlodga tashuvchisi ekan, u vatanparvarliksiz yuz bermaydi”. Fikrimizcha, vatanparvarlik ham axloqiy tarbiya natijasida insonda shakllanadigan xususiyat hisoblanadi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev: “Biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotmaydigan yana bir masala, bu farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb – hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir”. Demak, vatanparvarlik axloqiylik tamaddunlaridan biri hisoblanadi. Axloqiylik esa insonlarning ijtimoiy madaniy qismi tarkibiga kiradi.

Kadrlar tayyorlash muammosi, ayniqsa, ta‘lim muassasalarida tarbiyaviy ish tizimini samarali tashkil etish masalalari yuzasidan qator ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilinib, amalga oshirildi. Talabalar va yoshlarning ma‘naviy madaniyatini rivojlantirish shakllari va usullari (konferentsiya darslari; dars; amaliy dars; o‘yin darsi; sayohat darslari; rolli o‘yinlar darslari; o‘quv faoliyati; ekskursiya; davra suhbatlari; kichik guruhlarda ishlash; ma‘naviy madaniyatni shakllantirish usullari: muammoli vaziyat; qiyosiytushuntirish tahlili; asarlar ustidagi badiiy-ma‘rifiy ishlar; ijodiy ish; kontseptual tahlil; mantiqiy tahlil; timsollar tahlili; ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarni izohlash va o‘rganish; mustaqil ish va boshqalar) tizim muhim o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘zbek xalqining ma’naviy-axloqiy sifatlari, milliy odat, an’ana va fazilatlar borki, ular boshqa xalqlarda yo‘qligidan tashqari, insoniyat ma’naviyatining nodir zarvaraqlari sifatida boshqalarda hayrat uyg‘otishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Azarov Yu.P. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991. – 67 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.:”O‘zbekiston” – 2017 y. 295 – 297 b.
3. Dalkonov E.T. Vatanparvarlik shakllanishi va amal kilishning bog‘liqlik qonuniyatlari (Ijtimoiy falsafiy tahlil). Falsafa fanlari nomzodi... dissert. Avtoreferati.-T., 2011. 12 – bet.
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.:”O‘zbekiston” – 2017 y. 295 – 297 b.
5. https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0032/2.19.pdf
6. https://tarbiyaviy.uz/asos/mavzular/m2/m4.htm

TARBIYASI QIYIN O‘SMIRLAR PSIXOLOGIYASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

M.T.Bozorova
Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika va nazariyasi tarixi yo‘nalishi 1-kurs magistranti
E-mail: mbozorova21@gmail.com Telefon raqami: +998939140107

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarbiyasi qiyin o‘smirlarning psixologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari va bu muammolarni hal qilish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. O‘smirlik davri insonning psixologik rivojlanishidagi eng murakkab va o‘zgaruvchan davr bo‘lib, bu davrda o‘smirlar o‘zligini anglash, mustaqillikni rivojlantirish va ijtimoiy ta'sirlar bilan yuzlashadilar. Maqolada tarbiyasi qiyin o‘smirlarning qarama-qarshi xulq-atvori, raqobat hissi, ijtimoiy ta'sirlar va emotsional beqarorlik kabi psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, o‘smirlar bilan samarali muloqot qilish, o‘zaro hurmat, sabr-toqat va ijtimoiy faoliyatlar orqali bu muammolarni qanday bartaraf etish mumkinligi haqida maslahatlar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, tarbiyasi qiyin o‘smirlar, psixologiya, emotsional beqarorlik, mustaqillik, ijtimoiy ta'sir, qarama-qarshi xulq-atvor, shaxsiyat shakllanishi, sabrlilik, o‘zaro hurmat.

Kirish. O‘smirlik davri inson hayotining eng murakkab va o‘zgaruvchan bosqichlaridan biridir. Bu davrda nafaqat jismoniy o‘zgarishlar, balki psixologik va hissiy o‘zgarishlar ham yuz beradi. O‘smirlar o‘zlarining ichki dunyosini va tashqi muhit bilan o‘zaro aloqalarini yangilab, shaxsiyatlarini shakllantirish jarayonini boshlaydilar. Aynan shu davrda o‘smirlar ko‘pincha o‘zligini anglash, ijtimoiy muhitga moslashish, shaxsiy mustaqillikni rivojlantirish kabi muhim masalalar bilan duch keladilar. Tarbiyasi qiyin o‘smirlar – bu o‘z xulq-atvorida, emotsional holatida yoki ijtimoiy munosabatlarida aniq muammolarni ko‘rsatadigan o‘smirlardir. Ular ko‘pincha ota-ona, o‘qituvchi yoki jamiyat bilan o‘zaro munosabatlarda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu o‘smirlarning psixologiyasi murakkab bo‘lib, ular turli xil ichki va tashqi omillar ta'sirida xulq-atvorlarini o‘zgartiradilar. Bunday o‘smirlarning o‘zini anglash, hissiy holatlari, ijtimoiy faollik va mustaqillik intilishlari ko‘pincha qiyinlashadi, bu esa ularda psixologik beqarorlikka olib kelishi mumkin [1].

Ushbu tadqiqotning maqsadi, tarbiyasi qiyin o‘smirlarning psixologiyasini o‘rganish va ularning xulq-atvori, hissiy va ijtimoiy rivojlanishidagi xususiyatlarni tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda o‘smirlarning psixologik muammolarini aniqlash, bu muammolarni hal qilish uchun samarali yondashuvlarni ishlab chiqish va tarbiyasi qiyin o‘smirlarni qo‘llab-quvvatlashda psixologik metodlarning o‘rni tahlil etiladi. Bu mavzu, o‘smirlar psixologiyasini chuqurroq tushunish va ularning rivojlanishida yuzaga keladigan muammolarni samarali hal etishga yordam beradigan ilmiy izlanishlarga yo‘l ochadi. Tadqiqotning natijalari, tarbiyasi qiyin o‘smirlar bilan ishlashda pedagoglar, psixologlar va ota-onalar uchun amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Adabiyotlar tahlili. Tarbiyasi qiyin o‘smirlarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish uchun turli xil ilmiy asarlar, psixologik va pedagogik tadqiqotlar, shuningdek, amaliy tajribalar tahlil qilindi. O‘smirlik davri, o‘zgarishlar, ichki kurashlar va shaxsiyat shakllanishi bo‘yicha olib borilgan izlanishlar o‘ziga xos ahamiyatga ega. Bu bo‘limda, o‘smirlar psixologiyasini o‘rganishga oid asosiy ilmiy manbalar va yondashuvlar tahlil qilinadi. Erik Erikson (1968) o‘zining shaxsiyat rivojlanishining bosqichlari nazariyasida o‘smirlik davrini "kimlik va rolni chalkashtirish" bosqichi sifatida ta’riflaydi. Bu davrda o‘smirlar kimligini anglash va ijtimoiy roli to‘g‘risida qarorlar qabul qilishga intiladilar. Ular ko‘pincha turli ijtimoiy guruhlar, oilaviy munosabatlar va ta’lim tizimida o‘z joylarini aniqlashga harakat qiladilar. Eriksonning fikriga ko‘ra, agar o‘smirlik davrida kimlikni shakllantirish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshmasa, natijada "rolni chalkashtirish" holati yuzaga keladi, bu esa psixologik beqarorlikka olib keladi [2].

Tarbiyasi qiyin o‘smirlar psixologiyasini o‘rganishda, xulq-atvorning qarama-qarshiligi va emotsional beqarorlikning katta ahamiyati bor. Diana Baumrind (1966) o‘zining tarbiya uslublari nazariyasida ota-onalar tomonidan qo‘llaniladigan turli tarbiya uslublarining o‘smirlar psixologiyasiga ta’sirini tahlil qiladi. Baumrind, o‘smirlarning psixologik rivojlanishiga asosan uchta asosiy ota-ona tarbiyasi uslubini ajratadi: avtokratik (muqaddaslikka asoslangan), demokratik (o‘zaro hurmatga

asoslangan) va permissiv (erkinlikni ta’minlovchi). Avtokratik uslubda tarbiyalanadigan o‘smirlar ko‘pincha qo‘rqinchli, o‘zini ifoda etishda qiyinchiliklarga duch keladigan va emotsional beqaror bo‘lishadi. Permissiv tarbiya uslubida esa, o‘smirlar ko‘proq mustaqil, ammo ular ko‘pincha chegaralarning yo‘qligi sababli mas'uliyatni sezmasliklari mumkin.

O‘smirlarning psixologik beqarorliklarini tushunishda, John Bowlbyning iltifotli bog‘lanish nazariyasi ham muhimdir. O‘smirlik davrida bolaning ota-onalar bilan bo‘lgan munosabatlari ularning ijtimoiy va hissiy holatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bowlby (1969) o‘zining bog‘lanish nazariyasida, o‘smirlarning emotsional rivojlanishida ota-ona va oila bilan bo‘lgan aloqalar katta rol o‘ynashini ta'kidlaydi. Bu nazariya asosida, o‘smirlarning psixologik beqarorliklarini yengillashtirish uchun ota-onalar va tarbiyachilar tomonidan hissiy bog‘lanishning barqaror bo‘lishi zarurligi ko‘rsatilgan. O‘smirlar ko‘pincha ijtimoiy ta'sirlar va guruh bosimi ostida o‘z fikrlarini va xulq-atvorini shakllantiradilar. Bu, ayniqsa, o‘smirlarning do‘stlari va ijtimoiy tarmoqdagi munosabatlarida o‘zini namoyon qiladi. Albert Banduraning (1977) ijtimoiy o‘rganish nazariyasi, o‘smirlarning ijtimoiy muhiti, ularning o‘zaro munosabatlari va boshqalarni kuzatish orqali o‘rganish jarayonini tushuntiradi. Bandura, o‘smirlarning xulq-atvori ularni atrof-muhitdagi shaxslarning xulq-atvorini kuzatib o‘rganish orqali shakllanishini ta’kidlaydi [3].

Zamonaviy tadqiqotlarda, o‘smirlik psixologiyasini o‘rganish uchun yangi metodologiyalar va yondashuvlar qo‘llanilmoqda. Masalan, Daniel Goleman (1995) tomonidan ilgari surilgan hissiy intellekt nazariyasi, o‘smirlarning o‘z hissiyotlarini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Goleman, o‘smirlik davrida hissiy intellektning rivojlanishi, o‘smirning emotsional beqarorligini kamaytirishi va ularni stressga bardoshli qilishga yordam beradi, deb hisoblaydi. Shuningdek, Lev Vygotskiyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasi ham o‘smirlarning ijtimoiy o‘zgarishlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Vygotskiy (1978) o‘smirlarning kognitiv rivojlanishida ijtimoiy muhit va madaniyatning ta'sirini ta'kidlagan. U, ijtimoiy o‘rganish jarayonida, o‘smirlar atrofdagi kattalar bilan o‘zaro aloqalar orqali dunyoqarashlarini kengaytiradilar, deb hisoblaydi. Tarbiyasi qiyin o‘smirlar bilan ishlashda samarali usullarni ishlab chiqish uchun, ularning psixologik xususiyatlari va hissiy holatlarini yaxshilab tushunish zarur. O‘smirlarning hissiy muammolarini hal qilishda, Carl Rogersning gumanistik psixologiyasi (1961) o‘zining amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi. Rogers, o‘smirlar bilan ishlashda empatiya va faol tinglashni, shuningdek, o‘zini anglash va o‘ziga bo‘lgan ishonchni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarni ta’kidlaydi.

Muhokama. Tarbiyasi qiyin o‘smirlarning psixologiyasini o‘rganish, nafaqat ularning xulq-atvorini tushunish, balki bu davrda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishning samarali yo‘llarini topish uchun juda muhimdir. O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va o‘zgaruvchan bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda biologik, hissiy, ijtimoiy va kognitiv o‘zgarishlar amalga oshadi, bu esa o‘smirning psixologik rivojlanishiga ta'sir ko‘rsatadi. Tadqiqotimizda shuni ko‘rsatdikki, tarbiyasi qiyin o‘smirlar psixologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari ko‘plab ijtimoiy va emotsional faktorlar bilan bog‘liq. O‘smirlik davrida emotsional beqarorlik va hissiy o‘zgaruvchanlik juda ko‘p uchraydi. O‘smirlar ko‘pincha o‘zlarini tushunmasliklari, o‘zaro munosabatlarda yoki o‘ziga bo‘lgan munosabatda noaniqliklar mavjudligi tufayli hissiy beqarorlikni boshdan kechirishadi [4]. Tadqiqotimizda shuni aniqladikki, tarbiyasi qiyin o‘smirlar ko‘pincha o‘z ichki dunyosidagi qarama-qarshiliklar, o‘zligini anglashdagi qiyinchiliklar va ijtimoiy ta'sirlar tufayli muammolarni boshdan kechiradilar. Bu holat, o‘z navbatida, ularning xulq-atvorida salbiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. O‘smirlar ko‘pincha do‘stlarining fikriga ko‘proq ahamiyat beradilar, bu esa ularning o‘zligini shakllantirishda muhim omil bo‘ladi. Boshqalar tomonidan qadrlanish istagi va guruhning bir qismi bo‘lish zaruriyati, ularning xulq-atvorini yo‘naltiruvchi kuchga aylanadi. Bu ijtimoiy ta'sirlar ko‘pincha o‘smirlarni o‘z his-tuyg‘ulari va fikrlarini boshqarishda qiyinchiliklarga duchor qiladi [5]. Shu bois, tarbiyasi qiyin o‘smirlarni o‘rganishda, ijtimoiy va emotsional muhitning roli alohida e'tibor talab qiladi. Tarbiyasi qiyin o‘smirlar ko‘pincha o‘zining kimligini aniqlashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular ko‘pincha ota-onalar va jamiyat tomonidan qo‘yilgan chegaralar bilan kurashadilar, bu esa o‘zining mustaqilligini topishga bo‘lgan intilish bilan bog‘liq. Bu jarayon, ba'zan ota-onalar va o‘smirlar o‘rtasidagi ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. O‘smirlar o‘zlarini faqatgina ijtimoiy guruh va do‘stlarining talablari asosida qadrlashadi, bu esa ularda o‘zligini anglashdagi notekislikka olib kelishi mumkin. Tarbiyasi qiyin o‘smirlar psixologiyasini o‘rganish, nafaqat ular bilan ishlashda muammolarni bartaraf etishga yordam beradi, balki ularning o‘sish va rivojlanish jarayonini ham yaxshilaydi [6]. Tadqiqotimizda,

o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari, tarbiyasi qiyin o‘smirlarning emotsional beqarorligi, ijtimoiy ta'sirlar va mustaqillik intilishining ularga ta’siri tahlil qilindi. Shuni ta'kidlash kerakki, o‘smirlarni muvaffaqiyatli tarbiyalash va ularning psixologik holatini yaxshilash uchun doimiy va ijobiy muloqot, empatiya va hissiy intellektni rivojlantirish zarur.

Xulosa. Tarbiyasi qiyin o‘smirlar psixologiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, o‘smirlik davrining murakkab va o‘zgaruvchan tabiatini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. O‘smirlik davrida yuzaga keladigan emotsional beqarorlik, kimlikni shakllantirishdagi qiyinchiliklar, ijtimoiy ta’sirlar va mustaqillik intilishi kabi faktorlar, tarbiyasi qiyin o‘smirlarning psixologik holatiga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Tadqiqotimizda o‘smirlarning hissiy o‘zgaruvchanligi, o‘zini anglash jarayoni va ijtimoiy guruhlarning ta’siri muhim psixologik omillar sifatida tahlil qilindi. Tarbiyasi qiyin o‘smirlar bilan ishlashda, ularning psixologik holatini yaxshilash uchun empatiya, ijobiy muloqot va hissiy intellektni rivojlantirish zarur. O‘smirlarning psixologik muammolarini hal qilishda, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish va o‘zini anglash jarayonini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o‘smirlar bilan ishlashda ota-onalar va pedagoglarning rollari katta bo‘lib, ularning ijtimoiy va emotsional muhitini barqarorlashtirish orqali tarbiyasi qiyin o‘smirlarning psixologik holatini yaxshilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Zaripov, M. (2017). O‘smirlarning psixologik rivojlanishida o‘zini anglash va muammolar. Toshkent: O‘zbekiston ta'lim akademiyasi nashriyoti.
2. Yusupov, T. (2015). Psixologik rivojlanish va tarbiya: O‘smirlar va yoshlar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
3. G‘ulomov, X. (2011). O‘smirlar psixologiyasi. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.Baumrind, D. (1966). Effects of Authoritarian Child Rearing Practices on Child Behavior. Child Development.
4. Bowlby, J. (1969). Attachment and Loss: Volume 1. Attachment. Hogarth Press.
5. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Prentice Hall.
6. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. Bantam.

YANGI O‘ZBEKISTONDA TALABA-YOSHLARNING HUQUQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH CHORALARI

R.O.Orifjonov
Toshkent davlat yuridik universiteti jinoiy-odil sudlov yo`nalishi 1-bosqich talabasi.
rasulorifjanov17@gmail.com Tel: +998 91 356 52 62

Annotatsiya: mazkur maqola huquqiy madaniyati va bilimi yetarli darajada shakllangan yosh avlodni tarbiyalashda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan va istiqboldagi bir qator muhim jihatlarni tahlil qiladi va mavzu yuzasidan takliflar beradi. Mavzu fuqarolik jamiyatini barpo etish kabi muhim vazifalarning amalga oshirilishi uchun ham muhim omil bo‘lgani bilan dolzarbdir.

Kalit so‘zlar: huquqiy dunyoqarash, Yangi O‘zbekiston, ijtimoiy-siyosiy islohotlar, jamoatchilik nazorati, huquqiy ong, yuridik kadrlar, fuqarolik jamiyati.

Аннотация: В статье анализируется ряд важных аспектов текущей и перспективной работы в Узбекистане по воспитанию подрастающего поколения с достаточно развитой правовой культурой и знаниями, а также даются предложения по данной теме. Тема актуальна, поскольку она также является важным фактором в реализации таких важных задач, как построение гражданского общества.

Ключевые слова: правовое мировоззрение, Новый Узбекистан, общественно-политические реформы, общественный контроль, правосознание, юридические кадры, гражданское общество.

Abstract: this article analyzes a number of important aspects of the current and future work in Uzbekistan in educating the younger generation with a sufficiently formed legal culture and knowledge, and makes suggestions on the topic. The topic is also relevant as it is an important factor for the implementation of such important tasks as building a civil society.

Keywords: legal worldview, New Uzbekistan, socio-political reforms, public control, legal consciousness, legal personnel, civil society.

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy islohotlarning keng aholi qatlamlariga yetib borishi va tobora fuqarolik jamiyatining qaror topa borishi uchun ham yoshlarning, jumladan talaba-yoshlarning huquqiy savodxonligi, ularning jamiyatda huquqiy tafakkur jihatidan to‘g‘ri qarorlar qabul qilishlari, huquqlarini himoya qilishlari va mas’uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalanishlari zarurat hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ushbu zaruratning qay darajada muhimligini ta’kidlagan holda: “Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, bugungi va ertangi kunimizning xal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.” – deb munosabat bildirgan edilar. [1]

Huquqiy savodxonlik tushunchasi fuqaroning o‘z huquqlari va majburiyatlarini bilishi, ulardan qanday foydalanishini tushunishi va o‘z huquqlarini himoya qilishda faol bo‘lishini anglatadi. Huquqiy savodxonlik yoshlarni faollikka, adolatga va qonun ustuvorligiga undaydigan omil sifatida yurtimizda ham tobora dolzarblashib bormoqda. Talaba-yoshlarda huquqiy tarbiya va madaniyatni shakllantirish, ularning huquqiy ongini yuridik jarayonlarni tushuna oladigan darajada faollikka imkon beruvchi tayanch bilimlarni egallashlariga erishish uchun bir qator choralar mavjud.

Yurtimizda talaba-yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish choralaridan biri ularning bilim va ko‘nikmalarini oshirish orqali amalga oshiriladi. Nafaqat yuridik kadr sifatida ta’lim olishni maqsad qilgan talabalar, balki har bir oliy ta’lim muassasi bitiruvchilari jamiyatda o‘z haq-huquqlarini va shuning barobarida majburiyat va burchlarini anglagan shaxs sifatida bilim va malakalarga ega bo‘lmog‘i lozim. Ta’lim dasturlaridan huquqiy profilaktik tadbirlarni o‘tkazish, jinoyatchilikning avj olib borayotgan turlariga qarshi kurashishni nazarda tutuvchi mavzular, davra suhbatlari va seminar treninglar o‘rin olishi talabalarga nazariy jihatdan muhim ko‘rsatmalarni yetkazishga xizmat qiladi.

2019-yildagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” PF-5618-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida ham ayni jihatlar e’tiborga olinib, oliy ta’lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshiruvchi ta’lim mavzularini oshirish belgilangan edi. Ushbu farmonda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda ta’lim muassasalarida turli huquqbuzarliklar, qoidabuzarliklar, giyohvandlik va boshqa salbiy hodisalarning oldini olish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilishini va ularning amalga oshirilishini ta’minlasin.” deb belgilangan. [2]

Yoshlar ertangi kun egalari sifatida jamiyat taraqqiyotining yo‘naltiruvchi kuchi sifatida xizmat qiladi. O‘zbekistonda esa, yoshlar siyosati bilan bog‘liq masalalarda ta’limning imkoniyatlaridan unumli foydalanishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. Bunday intilishlar qatoriga talaba-yoshlar uchun maxsus huquqiy ta’lim dasturlarini joriy etish bilan bog‘liq choralarni misol sifatida keltirish mumkin. Oliygohlarda “Huquqshunoslik” fanlari yoki yuridik bilimlar doirasida talabalar uchun amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilib, davlat organlari bilan hamkorlikda seminarlar tashkil etilishi, yoshlarni onlayn formatda ta’lim olish imkoniyatlari bilan ta’minlash imkoniyatlarini oshirish va ularda huquqshunoslik bo‘yicha videolektsiyalar, maqolalar va interaktiv testlardan foydalanish orqali yuridik ta’limni o‘zlashtiruvchilarning qamrovini oshirib borish orqali amalga oshiriladi.

Ma’lumki, huquqiy davlatni barpo etish jamiyatdagi rivojlangan huquqiy tizimni, xalqning yuksak darajadagi huquqiy va siyosiy madaniyatini taqozo etadi. [3] Huquqiy dunyoqarashi sayoz bo‘lgan yoshlar jamiyat uchun katta havfga aylanadi va huquqbuzarliklarning sodir etuvchisiga aylanishi mumkin. Ta’lim jarayonida esa, talabalar bilan huquq ta’limi samarali yo‘lga qo‘yilishi ushbu hatarlarning oldini olishi tabiiy. Yuridik ta’lim faqatgina ta’lim muassasalari bilangina cheklanmasdan axborot makonida huquqiy savodxonlikni oshiruvchi ma’lumotlar bazasi bilan boyitilishi va muntazam takomillashtirilishi lozim.

2019-yilda tasdiqlangan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi” da “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta’lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e’tibor qaratish, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni singdirish, **shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini** targ‘ib qilish” vazifalarining amalga oshirilishida ta’limning o‘rniga yuqori baho berilgan edi. [4]

Talaba-yoshlarning huquqiy ongi va tafakkurini mustahkamlashda institutsional islohotlarning o‘**rni ham yuqori.** Yevropada ko‘pgina institutsional talabalar tashkilotlari talabalar uyushmalari deb

ataladi, bu ularning talabalar huquqlarini himoya qilish bilan shug‘ullanayotganini ko‘rsatadi. [5] G‘arbda talabalarning yoshlar orasida faol qatlam sifatida ko‘rilishi ularning huquqlari uchun kurashda yangi tendensiyani yuzaga chiqardi. Yosh senzlari, huquqiy javobgarlik yoshini belgilash, ta’lim tizimini demokratlashtirish, yoshlar huquqlari va manfaatlarining zamonaviy istiqbollari kabi masalalarda yoshlarning tashabbuslari ortib borib yoshlar parlamentlari va uyushmalari tobora kuchayib ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarida keskin progressiv siljishlar kuzatildi. Garchi bunday tajribalarning qay darajada o‘zini oqlashi vaqt masalasi bo‘lsa ham, ushbu tajribalarning ijobiy jihatlaridan foydalanish masalalari o‘rganilishini hozirgi global integratsion jaryaonlar taqozo qilmoqda.

Yoshlar ishlari agentligi kabi davlat tashkilotlari bilan birga nodavlat tashkilotlari ham ushbu jarayonda qonunchilik talablariga rioya qilgan holda qatnashishlari mumkin. Mazkur tashkilotlar yosh avlodni huquqiy ongini yuksaltirish maqsadida turli treninglar va seminarlarni o‘tkazadi. Bu tadbirlarda ishtirok etgan talaba-yoshlar o‘z huquqlari haqida kengroq bilimga ega bo‘lishadi. Tashkilotlar yoshlarni huquqiy bilimlar bo‘yicha o‘tkaziladigan bir qator ijtimoiy-huquqiy loyihalar yoshlarning ijtimoiy faoliyatini rag‘batlantirishga yordam beradi. 2017 - 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Huquq bilimdonlari”, “Siz qonunni bilasizmi?”, “Tafakkur sinovlari”, “Konstitutsiya — baxtimiz poydevori” respublika ko‘rik-tanlovlarini o‘tkazilishi belgilangani, yoshlarning huquqiy bilimlarga qiziqishlarini rag‘batlantirishga hissa qo‘shdi. [6]

Yosh kadrlarning barcha sohalar qatori yuridik va siyosiy jabhalarda faolligini oshirish va ularning jamiyat hayotidagi o‘rnini mustaxkamlash bilan ham Yangi O‘zbekistonda talaba yoshlarning huquqiy madaniyati oshirilmoqda. “Yoshlar parlamenti” faoliyatining **yo‘**lga qo‘yilishi yoshlarning qonunchilikdagi tashabbuslariga e’tiborni oshirgan bo‘lsa, yuridik kadrlar orasida yosh huquqshunoslarning salmog‘i ortib borayotgani va faollashuvi ularning davlat va jamiyat bilan dahldorligi va huquqiy jihatdan tafakkuri sezilarli yuksalib borayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa qilinadigan bo‘lsa, yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda mavqeyini oshirib borish va bunda tegishli tartibda islohotlar yo‘nalishini belgilovchi institutsional islohotlar, oliy ta’lim muassasalari hamkorligi orqali ko‘zlangan natijalarga erishish uchunta’lim dasturlaridan huquqiy savodxonlikni oshiruvchi darslarning oshirilishi talaba-yoshlar huquqiy dunyoqarashini oshiradi. Ta’lim orqali ko‘zlangan maqsadlarni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari orqali berib boriladigan huquqiy masalalardagi materiallar va jamoatchilik nazoratidan ham foydalanish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутк /Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент: «Узбекистан» НМИУ, 2016. 13-бет.
2. https://lex.uz/ru/docs/-4149765 09.01.2019-yildagi Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida PF-5618-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni [Murojaat qilingan sana: 16.04.2025]
3. Таджиханов У., Саидов А. Хукукий маданият назарияси. Дарслик. 2 томли. 2-том / Масъул мухаррир академик Ш.З. Уразаев - Т.: Узбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1998.- 82-бет.
4. https://lex.uz/ru/docs/-4149765 09.01.2019-yildagi Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida PF-5618-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni [Murojaat qilingan sana: 16.04.2025]
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Student_rights_in_higher_education [Murojaat qilingan sana: 16.04.2025]
6. S.Botirova, B.Varisova. “Zamonaviy yoshlarning ilmiy va innovatsion tashabbuslari: yangicha yondashuvlar va transformatsiyalar” mavzusidagi II respublika talabalar ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 1-Sho‘ba. Yangi O‘zbekistondagi zamonaviy ta’lim va ilm-fan sohasidagi islohotlar talaba-yoshlarning o‘rni va ahamiyati. I qism. T.: O‘R JXU, 2025. 330-bet.

YANGI O‘ZBEKISTON O‘QUVCHI-YOSHLARINING MA’NAVIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY TAFAKKURNI O‘RNI

A.B.Qambarov
Namangan davlat pedagogika instituti “Falsafiy va tarixiy fanlar” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Tel : 998 94 907 27 80 abduzabborkambarov15@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchi-yoshlarning ma`naviy tarbiyani rivojlantirishda tarixiy tafakkurni ijtimoiy falsafiy jihatdan tadqiq qilish, mamlakatimiz yoshlarining tarixiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: tarixiy tafakkur, tarixiy xotira, ma`naviy tarbiya, jamiyat, qadriyatlar, tarixiy ong, mustaqillik, ma’naviyat.

Ma’lumki, xar bir millatning qiyofasi, uning katta kichikligidan qat’i nazar, eng birinchi uning milliy ongi va dunyoqarashida shakllanadi. Milliy ong shakllanishida tarixiy ong va tafakkurning o‘rni beqiyosdir. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev aytganidek, “Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz zarur: milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”[1]. Tarix, bugungi kunning o‘tmish va kelajak bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Umuman, u tarixiy o‘tmish va bu qarashlar ifodalangan mafkuraviy munosabatlarga oid muayyan qarashlar tizimini ifodalaydi. Tarix o‘zini barcha jamiyatlar uchun xos bo‘lgan madaniy xotira sifatida namoyon qiladi. Tarixiy tafakkur madaniy xotira sifatida faqat tarixiy ongning kech shaklidir. O‘tmish xotirasi madaniyati avlodlar o‘zgarishida ijtimoiy-madaniy o‘ziga xoslikni ko‘paytirishning ob’ektiv usulidir[2]. Inson dunyoni kuzatadi va tushunadiki, odamlar undan oldin yashagan va uning vafotidan keyin ham yashashda davom etadi. Bu ustunlik qiladi: dunyoning mustaqil ravishda mavjudligi bilan kelishish qiyin jarayon hisoblanadi. Chuqur va teran fikrlaydigan odamgina, uning mavjudligining oxiri dunyoning oxiri degan taassurotga ega bo‘ladi. Insoniyat ongi – shuurida o‘tmishdan boshlab, tarixiy tafakkur shakllanmoqda, u sof insoniy faoliyat mahsuli bo‘lib, uning borligini ochib beradi. Tarixiy tafakkur orqali inson harakati o‘tmishga oid tarzda tizimlanadi va kelajak bashorat qilinadi.

Moziy aniq bo‘lishi qiyin bo‘lgan tajribaga asoslangan faktlardan iborat bo‘ladi. Tarixni oldindan ko‘ra bilish nafaqat o‘tmish voqealari, balki kelajakni baholash, xulosalar chiqarish qobiliyatida namoyon bo‘ladigan hozirgi kunni tuzatishdir. Fikrlash o‘zgaradi, farqlanadi. Voqealarga yana bir bor kirib, inson o‘zining ahamiyati va dunyodagi o‘rnini tushunadi. Nihoyat, u zamonaviy hayot o‘tmishdagi avlodlar faoliyati bilan shartlanganligini, zamonaviy faoliyat esa kelajak avlodlar xulq-atvorida namoyon bo‘lishini tushunadi. Bugun yoshlar ongida tarixiy xotira va tarixiy tafakkurni shakllantirishning o‘rni quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, tarixiy tafakkur yoshlarda tarixiy xotirani tiklanishiga, milliy g‘urur, milliy ruhni kuchaytirishga yordam beradi;

Ikkinchidan,tarixiy xotira va tarixiy tafakkur yoshlarning o‘zligini anglash, ma’naviy qadriyatlarimizni e’zozlash, milliy tiklanishni amalga oshirishga xizmat qiladi;

Uchinchidan, tarixiy xotira va tarixiy tafakur mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni amalga oshirishda, yoshlarning keng safarbarligi va ishtirokining ta’minlanishiga yordam beradi;

To‘rtinchidan, tarixiy tafakkur tarixga falsafiy munosabat, yondashuv shakllanishiga, bu esa tarixiy hodisalarni teran tahlil qilish, rivojlanish qonuniyatlarini teran anglash va shundan kelib chiqib voqea hodisalar mantiqiy hosilasini ko‘ra bilish va taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Beshinchidan, tarixiy tafakkur mustaqillikni mustahkamlashning, yoshlarning jamiyatdagi o‘rnini belgilashning, ijtimoiy faolligini oshishi, atrofda bo‘layotgan voqea hodisalarga loqayd bo‘lmaslikning omili bo‘lib xizmat qiladi. Zero, mustaqillik xalqimizning tarixiga, ma’naviy merosiga, o‘zligini anglashiga imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Bu esa tarixiy xotira va tafakkurning shakllanishiga, boy dunyoqarashga ega bo‘lgan barkamol yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Sobiq ittifoq davrida qadimdan shakllanib kelgan milliy qadriyat, an’analarimizga salbiy ta’sir qiladigan turli hil yo‘llar bilan yo‘qotishga, tariximizni

soxtalashtirishga xarakat qilindi. Jumladan, insonlar tamonidan uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratilgan va rivojlantirilgan ma’naviy boyliklar, ijtimoiy ongning ilmiy, badiiy,huquqiy,diniy ahloqiy, falsafiy shakllarini, kishilarning g‘oyalarini, tasavvurlarini, dunyoqarashi, aql-idroki, butun ma’naviy olamni qamrab olinadi.

Yangi O‘zbekistonda o‘quvchi-yoshlarda tarixiy tafakkur shakllantirishda ma’naviyatning o‘rni beqiyosdir. Yoshlarda ma’naviy –ahloqiy qarashlarning rivojlantirish orqali tarixiy – madaniy qadriyatlarga hurmat xissini shakllantirish kerak. Shundan ko‘rinib turibdiki, ya’ni ijtimoiy-siyosiy faollikni oshiruvchi, insonning ma’naviy –ahloqiy jihatdan bezaydigan ajoyib halqimiz ma’naviyati, ma’naviy hayoti shakllanishi va rivojlanishi tarixiga nazar solsak, uning zaminlari nihoyatda mustahkam ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Tarix saboqlaridan shu narsa aniq va ravshanki, qaysi bir davlat yoki jamiyat o‘zining moddiy boyliklariga ishonib, asosiy e’tiborni uni ko‘paytirishga qaratib, xalqning madaniyatini, insonning ma’naviy extiyojlarini rivojlanashini o‘ylamas ekan, u albatta, inqirozga yuz tutadi. Yangi O‘zbekistonda muhim bo‘lib turgan vazifalardan biri, fikri, dunyoqarashi, zamonaviy bilimga va tafakkurga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyasidir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan kunlardanoq, yangi tarixiy sharoitlarda o‘zgarib borayotgan jamiyatga munosib, har tamonloma etuk va barkamol yoshlarni tarbiyalash kun tartibidagi dolzarb muammolardan biri sifatida belgilandi. buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, engilmas sarkarda va arboblarimizning jasorati yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak.[3] Demak shuni bilishimiz kerakki, bu vazifani amalga oshirishda ta’lim-tarbiya tizimini zimmasiga ham ulkan mas’uliyat yuklangan bo‘lib, bu borada ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Demak, shuni bilishimiz kerakki, yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda mashaqqatli, ammo natijasi barchamizga yuksak iftixor baxsh etuvchi zahmatli vazifadir. Zero, tarix sahnalarida o‘tmishi qora qilib ko‘rsatilgan, ma’naviyati poymol etilgan, ma’rifatparvarlari tazyiq ostiga olinib, qatag‘onga uchragan xalq va millatning asl tarixiy yuzini qayta tiklash, milliy merosini o‘rganish, bugungi avlodlar zimmasidagi dolzarb vazifalardan biri sanaladi va jamiyatda tarixiy tafakkurining rivojlanishi ushbu vazifaning sifatli va samarali bajarilishiga hal etuvchi omil sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси.-Т.:“0`zbekiston”, 2021. -Б.288.
2. Ассман Я. Культирная память-М.:2004. -С. 17.
3. 2019 йилда мамлакатимизни ривожлантиришнинг энг муҳим устивор вазифалари тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиеёвнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи, 2018 йил 29 декабр.

GLOBAL MAKONDA TALABALARNING MA’NAVIY, MA’RIFIY VA AXLOQIY DUNYOQARASHI: IJTIMOIY MOSLASHUVI VA MA’NAVIY TARBIYASI

M.Dovranova
Farg'ona Davlat Universiteti, Sotsiologiya yo'nalishi talabasi

XXI asr — globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal taraqqiyoti va madaniyatlararo integratsiya asridir. Bu jarayonlar inson hayotining barcha jabhalariga, xususan, yoshlar ongining shakllanishi, ularning ma’naviy-axloqiy mezonlari va ijtimoiy moslashuviga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayni paytda dunyoqarashlar qarama-qarshiligi, g‘oyaviy-ma’naviy kurashlar kuchayib borayotgan bir davrda, yosh avlod, ayniqsa, talabalar qatlamining sog‘lom dunyoqarashini shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb ijtimoiy va pedagogik masalaga aylanmoqda.

Globallashuv yoshlarning tafakkurida yangicha axborot makoni va g‘oyaviy muhitni shakllantirmoqda. Bu jarayonda talaba-yoshlar internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat orqali turli g‘oyaviy oqimlar ta’siriga duch kelmoqda. Mazkur sharoitda ular orasida ma’naviy beqarorlik, axloqiy mezonlarning zaiflashuvi, ijtimoiy muvozanatning yo‘qolishi, ruhiy tushkunlik va begonalashuv kabi salbiy holatlar kuzatilmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun bunday salbiy ta’sirlarning oldini olish, ularni ijtimoiy hayotga moslashuvchan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan shaxslar sifatida shakllantirish ustuvor vazifadir.

Shu nuqtai nazardan, globallashuv sharoitida talabalarning ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy dunyoqarashini o‘rganish, bu yo‘nalishda mavjud muammolarni aniqlash va samarali tarbiya strategiyalarini ishlab chiqish ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. Bugungi talabalar nafaqat bilimli mutaxassis, balki yuksak ma’naviyatli, mustahkam axloqiy qarashlarga ega, tanqidiy va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy mas’uliyatni chuqur anglaydigan shaxs bo‘lishi lozim. Buning uchun esa ularning ijtimoiy moslashuvi va ma’naviy tarbiyasiga zamonaviy pedagogik, sotsiologik va psixologik yondashuvlar asosida kompleks yondashish zarur.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, unda globallashuv sharoitida talabalar shaxsining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar tizimli tarzda tahlil qilinadi, mavjud muammolar aniqlanadi va ularni bartaraf etishning amaliy mexanizmlari asoslab beriladi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar negizida innovatsion tarbiya metodikasi va g‘oyaviy-ma’naviy immunitetni shakllantirish yo‘llari taklif qilinadi.

Globallashuv sharoitida yosh avlodning ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy tarbiyasi masalasi bugungi kunda ko‘plab soha vakillari — pedagoglar, psixologlar, sotsiologlar, faylasuflar hamda siyosatshunoslar tomonidan o‘rganilayotgan dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mavzuga doir adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, talabalarning dunyoqarashi va ijtimoiy moslashuvi masalasiga turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning har biri ma’lum ijtimoiy, madaniy va milliy kontekstda shakllangan.

Xususan, o‘zbek olimlaridan A. Yo‘ldoshev, H. Hasanov, M. Juraev, B. Qosimov, Sh. Toshpo‘latov va boshqalar o‘z tadqiqotlarida yoshlarda milliy ong, g‘urur, ma’naviy yetuklik va sog‘lom dunyoqarashni shakllantirishda oilaning, ta’lim tizimining va jamiyatning tutgan o‘rni haqida muhim fikrlar bildirganlar. Ularning asarlarida yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlar va tarixiy xotiraning ahamiyati alohida ta’kidlanadi.

Shuningdek, xorijiy tadqiqotchilardan A. Toffler, S. Xantington, E. Fromm, J. Habermas, M. Castells kabi olimlar globallashuvning inson ongiga, g‘oyaviy qarashlariga va ijtimoiy xulq-atvoriga ko‘rsatadigan ta’siri haqida tahliliy yondashuvlar bildirgan. Ular yoshlarning shaxsiy dunyoqarashi, identiteti, ma’naviy izlanishlari globallashuv sharoitida qanday o‘zgarishga uchrashi mumkinligini psixologik va sotsiologik asoslarda o‘rganadilar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘plab ilmiy ishlarda yoshlarning g‘oyaviy immunitetini shakllantirish, milliy identitetni mustahkamlash va axloqiy qadriyatlarni singdirish zarurligi ta’kidlangan bo‘lsa-da, talabalarning ijtimoiy moslashuvi va ma’naviy barqarorligi globallashuv kontekstida, zamonaviy kommunikatsion texnologiyalar va yangi axborot muhitining bevosita ta’siri nuqtai nazaridan yetarli darajada chuqur o‘rganilmagan.

Mazkur tadqiqotda mavjud nazariy yondashuvlar asosida quyidagi ilmiy-uslubiy metodlar qo‘llanildi:

Tadqiqot metodlari:

Tarixiy-tahliliy metod – ma’naviy va axloqiy qadriyatlarning shakllanish tarixini, milliy tarbiya an’analarini o‘rganishda qo‘llanildi.

Taqqoslash (komparativ) metodi – turli davlatlar va madaniy muhitlarda talaba-yoshlar tarbiyasiga oid yondashuvlarni qiyosiy o‘rganishda ishlatildi.

Empirik metodlar (so‘rovnoma, suhbat, kuzatuv) – oliy ta’lim muassasalari talabalari orasida ularning ma’naviy dunyoqarashi, axloqiy munosabatlari va ijtimoiy moslashuvi bo‘yicha real holatni o‘rganish uchun amaliyotga tadbiq qilindi.

Sotsiologik tahlil – ijtimoiy muhit va guruh omillarining talaba shaxsiga ta’sirini o‘rganishda asosiy vosita bo‘ldi.

Psixologik diagnostika usullari – talabalarning ichki ruhiy holati, ijtimoiy moslashuv darajasi va axloqiy qarashlarini aniqlashda foydalandi.

Modellashtirish va prognostik metod – talabalarda sog‘lom dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy tizimni ishlab chiqish va baholashda qo‘llanildi.

Ushbu metodlar orqali olib borilgan tahlillar va kuzatuvlar asosida talabalar orasida mavjud real muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Olib borilgan nazariy, empirik va tahliliy tadqiqotlar asosida quyidagi muhim ilmiy natijalarga erishildi:

1. Talabalarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashida globallashuv ta’sirining ko‘zga ko‘ringan o‘zgarishlari aniqlangan:

So‘rovnoma va suhbatlar asosida aniqlanishicha, talabalarning aksariyati zamonaviy axborot texnologiyalariga yuqori darajada bog‘liq bo‘lib, bu ularning shaxsiy qarashlari, qadriyatlari va axloqiy me’yorlariga bevosita ta’sir qilmoqda. Jumladan:

63% talaba ijtimoiy tarmoqlar orqali olgan axborotlarni asosiy ma’lumot manbasi deb hisoblaydi;

48% talaba jamiyatdagi ma’naviy qadriyatlarni “eski tushunchalar” deb ataydi;

Faqatgina 29% talabalar milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyani shaxsan muhim deb biladi.

Bu ko‘rsatkichlar globallashuvning talaba shaxsiga axborot, madaniyat va g‘oyaviy jihatdan bevosita ta’siri mavjudligini ko‘rsatadi.

2. Ijtimoiy moslashuv darajasi bilan ma’naviy barqarorlik o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi:

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ijtimoiy jihatdan faol, jamoat ishlarida qatnashuvchi talabalar orasida ma’naviy-axloqiy barqarorlik, fuqarolik pozitsiyasi va sog‘lom dunyoqarash ancha yuqori bo‘ladi. Aksincha, ijtimoiy faolligi past bo‘lgan talabalar ko‘proq beqarorlik, begonalashuv va individualistik qarashlarga moyil bo‘lishi kuzatildi.

3. Ma’naviy tarbiya jarayonida ta’lim tizimi va oilaning roli yetarli darajada samarali emasligi aniqlandi:

Talabalarning 52 foizi maktab va kollej bosqichidagi ma’naviy-ma’rifiy mashg‘ulotlarni “quruq nazariya” deb baholagan, 60 foizdan ortig‘i esa oilada bu borada yetarli tarbiya berilmaganini tan olgan. Bu esa ta’lim va tarbiya tizimida amaliy, shaxsga yo‘naltirilgan, innovatsion yondashuvlar yetishmasligini ko‘rsatadi.

4. Ma’naviy immunitet shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar aniqlashtirildi:

G‘arb ommaviy madaniyatining kuchli ta’siri;

G‘oyaviy tarbiya jarayonining yetarli darajada tizimli olib borilmasligi;

Ommaviy axborot vositalarining ayrim holatlarda milliy qadriyatlar va axloqiy me’yorlarga zid axborotlarni targ‘ib qilishi;

Talabalarning mustaqil tanqidiy fikrlash ko‘nikmasining pastligi.

5. Talabalar orasida sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirishda quyidagi shart-sharoitlar samarador bo‘lishi isbotlandi:

Ta’limda interfaol metodlar (debatlar, “case-study”, muammoli ta’lim)dan foydalanish;

Talabalarni real hayotiy vaziyatlarda axloqiy tanlovga undovchi amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish;

Ma’naviy tarbiya dasturlarini milliy qadriyatlar asosida yangilash;

Axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirish.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, globallashuv sharoitida talabalarning ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy qarashlari yangi shakllanish bosqichida turibdi. Bu jarayon ikki tomonlama — rivojlanish va yemirilish kuchlari o‘rtasida kechmoqda. Agar bu jarayon ongli, tizimli va milliy manfaatlarga asoslangan tarbiya bilan boshqarilmasa, yoshlarning ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy barqarorligi xavf ostida qolishi mumkin. Shuning uchun ma’naviy tarbiyani faqat ma’ruza shaklida emas, balki hayotga yaqin, zamonaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil qilish dolzarbdir.

Xulosa qilib aytish joizki, olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, globallashuv zamonaviy talaba-yoshlar shaxsining shakllanishiga, ularning dunyoqarashi, axloqiy mezonlari va ijtimoiy moslashuv darajasiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri bo‘lib bormoqda. Bu jarayonda yoshlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi o‘zgarishga uchramoqda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatda ma’lum ziddiyatlar vujudga kelmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Globallashuv yoshlar ongida yangi axborot va madaniy muhitni shakllantirmoqda, bu esa ular orasida individualizm, ma’naviy beqarorlik va axloqiy relativizmning kuchayishiga olib kelmoqda.

Talabalarning ijtimoiy moslashuvi va ma’naviy barqarorligi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, shaxsning jamiyatga faol integratsiyalashuvi, fuqarolik pozitsiyasining shakllanishi ko‘p jihatdan uning ma’naviy-axloqiy qarashlariga tayangan holda ro‘y beradi.

Ta’lim tizimi va oilaning ma’naviy tarbiya jarayonidagi ishtiroki yetarli darajada tizimli emas. Bu esa talabalarda g‘oyaviy immunitetning shakllanishini sustlashtirmoqda.

Ma’naviy tarbiyada interaktiv, innovatsion va shaxsga yo‘naltirilgan metodlarni joriy qilish zarur. Faol metodlar orqali yoshlarni o‘z fikrini asoslashga, tanqidiy tahlil qilishga va ongli tanlov qilishga o‘rgatish mumkin.

Ommaviy axborot vositalari va raqamli makonda yoshlar ongini himoya qilish mexanizmlari takomillashtirilishi zarur, chunki zamonaviy yoshlarning axloqiy ongiga aynan virtual makon kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi asosida yoshlar ongida sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish — strategik vazifa bo‘lib, bu borada davlat, jamiyat va ta’lim tizimining uzviy hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, talabalar orasida sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish, ularni jamiyatga to‘laqonli moslashtirish va global madaniy oqimlar qarshisida barqaror g‘oyaviy pozitsiyaga ega bo‘lgan shaxs sifatida tarbiyalash uchun zamonaviy, tizimli va milliy ruhdagi tarbiya konsepsiyasini amaliyotga tadbiq etish muhimdir. Bu esa nafaqat oliy ta’lim muassasalarining, balki jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari faoliyatini yangicha yondashuv asosida tashkil etishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yo‘ldoshev A. *Milliy g‘oya – xalq e’tiqodi va ma’naviyati asosidir*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
2. Qosimov B. *Ma’naviyat asoslari*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001.
3. Hasanov H. *Yoshlarda g‘oyaviy immunitetni shakllantirishning nazariy asoslari*. – Toshkent: Ma’rifat, 2017.
4. Juraev M. *Ma’naviy tarbiyaning dolzarb masalalari*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
5. Toshpo‘latov Sh. *Zamonaviy ta’lim va ma’naviyat*. – Toshkent: Fan, 2019.
6. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
7. Habermas J. *The Theory of Communicative Action*. – Boston: Beacon Press, 1984.

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИВАЮЩИЕ ОРФОГРАФИЧЕСКИЕ НАВЫКИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Ф.К.Фазлиддинова
Магистрант 1-го курса Наманганский государственный педагогический институт
О.К.Ахмаджанов
Наманганского государственного университета

Аннотация В данной работе рассматриваются современные технологии развивающие орфографические навыки учащихся на уроках русского языка. Особое внимание уделяется методам диагностики, формирующего и итогового контроля, а также цифровым инструментам, способствующим повышению точности и эффективности оценки знаний и умений студентов. Анализируются такие технологии, как тестирование, проектные и портфолио-методы, наблюдение, саморефлексия и использование электронных образовательных ресурсов. Рассматриваются преимущества и недостатки различных технологий контроля, а также их влияние на мотивацию учащихся и эффективность учебного процесса. В ходе исследования делается вывод о значимости комплексного подхода к контролю и оценке сформированности компетенций, что позволяет адаптировать образовательные стратегии в соответствии с индивидуальными потребностями студентов.

Ключевые слова: технологии контроля, компетенции, русский язык как иностранный, оценивание, цифровые инструменты.

Abstract This paper considers modern technologies that develop students’ spelling skills in Russian language lessons. Particular attention is paid to the methods of diagnostics, formative and final control, as well as digital tools that help to increase the accuracy and efficiency of assessing students' knowledge and skills. Technologies such as testing, project and portfolio methods, observation, self-reflection and the use of electronic educational resources are analyzed. The advantages and disadvantages of various control technologies, as well as their impact on student motivation and the effectiveness of the educational process are considered. The study concludes that an integrated approach to monitoring and

assessing the development of competencies is important, which allows adapting educational strategies to the individual needs of students.

Keywords: monitoring technologies, competencies, Russian as a foreign language, assessment, digital tools.

Введение. В современном образовательном процессе особое внимание уделяется формированию и оценке компетенций учащихся. При обучении русскому языку как иностранному (РКИ) важно не только передать лексико-грамматический материал, но и проверить, насколько успешно учащиеся усвоили его и могут применять на практике.

Цель статьи – исследовать современные технологии контроля сформированности компетенций учащихся на уроках РКИ, выявить их эффективность и предложить методические рекомендации.

Задачи:

1. Рассмотреть теоретические основы контроля компетенций.
2. Изучить виды и методы контроля на уроках РКИ.
3. Проанализировать цифровые технологии и инновационные подходы к оцениванию.
4. Разработать практические рекомендации по эффективному использованию технологий контроля.

Актуальность работы обусловлена необходимостью повышения качества преподавания русского языка иностранным студентам, а также расширением возможностей для объективной и комплексной оценки их прогресса.

Теоретические основы формирования и контроля компетенций в обучении РКИ. Понятие «компетенция» и «компетентностный подход» Термин «компетенция» имеет множество трактовок в современной педагогической и лингвистической литературе. В общем виде компетенция понимается как совокупность знаний, умений, навыков и личностных качеств, которые позволяют индивиду эффективно действовать в определённой сфере. Компетентностный подход в образовании нацелен на развитие у обучающегося способности самостоятельно находить и применять знания на практике, адаптироваться к меняющимся условиям и критически мыслить. В преподавании РКИ этот подход ориентирован на то, чтобы студент не просто заучивал слова и грамматические правила, но и мог использовать язык в реальной коммуникации, понимать культурный контекст, вести дискуссии и т.д.

Теоретические основы контроля компетенций Понятие и структура компетенций Компетенции – это совокупность знаний, умений и навыков, позволяющих учащемуся решать практические задачи в рамках изучаемого предмета.

При изучении РКИ выделяют несколько ключевых компетенций:

- Коммуникативная – способность использовать язык в реальных ситуациях.
- Лингвистическая – знание грамматики, лексики и фонетики.
- Социокультурная – понимание норм общения в русскоязычной среде.
- Стратегическая – способность компенсировать нехватку знаний за счёт контекста.

Роль контроля в обучении РКИ

Контроль играет важную роль в образовательном процессе, так как позволяет:

- Оценить текущий уровень знаний учащихся.
- Выявить пробелы в обучении.
- Скорректировать методику преподавания.
- Мотивировать студентов к дальнейшему изучению.

Виды контроля компетенций

Существуют различные виды контроля в обучении РКИ:

- Предварительный – перед началом обучения для определения уровня владения языком.
- Текущий – регулярная проверка в процессе обучения (тесты, задания).
- Рубежный – контроль на определённом этапе (например, в конце модуля).
- Итоговый – комплексная проверка знаний по завершении курса.

Методы и технологии контроля на уроках РКИ

Традиционные методы контроля

К традиционным методам контроля на уроках РКИ относят:

- Тестирование – закрытые и открытые вопросы, задания на соответствие.

• Письменные работы – эссе, диктанты, изложение.
• Устные проверки – диалоги, монологи, презентации.

Хотя эти методы широко применяются, они имеют ограничения: могут быть субъективными, требуют много времени на проверку и не всегда позволяют объективно оценить коммуникативные навыки. Современные технологии контроля В последние годы в преподавании РКИ активно используются цифровые технологии и инновационные подходы. Среди них: Цифровые тестовые платформы Использование онлайн-платформ (Quizlet, Kahoot, Google Forms) позволяет автоматизировать процесс тестирования и получать мгновенные результаты.

Интерактивные задания Применение цифровых упражнений на платформах LearningApps, Socrative помогает разнообразить контроль знаний. Геймификация Игровые методы (квесты, соревнования, ролевые игры) делают процесс проверки знаний более увлекательным и мотивирующим.

Искусственный интеллект и автоматизированные проверки Современные технологии позволяют использовать AI-системы для анализа устной и письменной речи, выявления ошибок и предоставления рекомендаций.

Заключение Контроль степени сформированности компетенций учащихся – важный элемент процесса обучения русскому языку как иностранному. В современных условиях цифровые технологии позволяют сделать процесс проверки знаний более эффективным, объективным и увлекательным.

Основные выводы:

1. Контроль компетенций включает различные методы – от традиционных тестов до инновационных технологий.
2. Цифровые платформы и искусственный интеллект повышают точность и скорость оценивания.
3. Комбинация методов контроля позволяет получить наиболее объективные результаты.

Внедрение современных технологий в процесс контроля знаний способствует повышению качества обучения и мотивированности учащихся.

Список литературы

1. Гальскова Н. Д., Гез Н. И. Теория обучения иностранным языкам. – М.: Академия, 2006.
2. Соловова Е. Н. Методика обучения иностранным языкам: базовый курс. – М.: Просвещение, 2011.
3. Richards J. C. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014.
4. Никитенко З. Н. Инновационные технологии контроля знаний учащихся в преподавании иностранных языков. – СПб.: Издательство СПбГУ, 2018.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.

M.Sh.Dehqonova
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi (PhD)
dehqonovam@gmail.com: +99890 407 82 93
S.M.Marupova
Farg‘ona davlat universiteti talabasi
sarvinozmarupova3@gmail.com +99893 710 04 13

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta’limda loyihalash usulidan foydalanish orqali bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida pedagogik loyihalash kompetentligini rivojlantirish mazmuni, pedagogik loyihalash kompetentligining mohiyati va konseptual asoslarini shakllantirish masalasi tahlil etilgan. Loyihalash usulining mazmuni, metodik yondashuvlari va uning ijtimoiy faollikni rivojlantirishdagi o‘rni ochib berilgan. Maqolada bo‘lajak pedagoglarda i loyihaviy ishlanmalarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, loyihalash usuliga doir misollar keltirilib, ularning ta’lim jarayonidagi

roli tahlil qilingan. Mazkur tadqiqot natijalari oliy pedagogik ta’lim tizimida loyihalashtirish texnologiyalarini joriy etishning samarali yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Loyihalash, bo‘lajak o‘qituvchi, **ta’lim jarayoni,** loyihalash kompetentligi, loyihalash faoliyati, uzluksiz ta’lim.

Mamlakatimiz uzluksiz ta’lim tizimida yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida o‘qitiladigan umumta’lim va kasbiy fanlar mazmunining izchilligini ta’minlash maqsadida tayanch ko‘nikmalar hamda har bir o‘quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda xususiy kompetensiyalar belgilangan. Paragrafda bo‘lajak o‘qituvchilar loyihalash kompetentntligi mazmuni hamda ularni rivojlantirish imkoniyatlari xususida to‘xtalamiz.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Konsepsiya (lot. conseptio-to‘plash, birlashtirish, tizim, ibora) Qarashlar, fikrlar yo‘nalishi tizimi, fikr yuritish, dunyoni tushuntirish, anglash usuli”, deb izohlanadi. Shuningdek, konsepsiya so‘ziga nisbatan biror voqea, hodisa, jarayon, alohida olingan mavzu, bo‘lim yoki butun boshli fanni tushuntirishda tayanch bo‘lib xizmat qiladigan tushuncha sifatida anglash lozimligi uqtiriladi. Paragrafda loyihalash kompetentligi modeli mazmun-mohiyati, spetsifikasi hamda mezonlari hamda ularni rivojlantirish imkoniyatlari xususida to‘xtalamiz.

Jamiyat, ilm-fan, texnologiyalar taraqqiyoti o‘qituvchining loyihalash usuliga doir bilim va ko‘nikmalar mazmuniga muntazam o‘zgarishlar kiritish zaruratini taqozo qiladi.

Kompetentlik atamasi asli psixologik tadqiqotlar asosida pedagogik tushunchaga o‘tgan. Kompetentlik turli standart va nostandart vaziyatlardapedagogning o‘zini qanday tutishi, hamkorlari bilan muloqotga kirishishi, loyihalash vazifalarini amalga oshirishda faollik ko‘rsatishi, o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmasiga egalikni anglatadi.

Pedagogning kompetentligi pedagog shaxsidan egallagan bilimlariga tayangan holda biror faoliyat turida bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llay olish yuzasidan kerak bo‘ladigan minimal tajribani talab qiladi. Bundan talabalarning loyihalash usulini egallaganligiga qo‘yiladigan talablarni belgilash hamda umumkasbiy fanlaridan mashg‘ulotlarni loyihalash ham mustasno emas.

Professorlar N.A.Muslimov, M.B.Urazovalar o‘qituvchi kasbiy kompetenligi sifati uning o‘z ustida ishlashi, ta’lim jarayonini loyihalay olishi, uni boshqarishi, ta’lim subyektlarining o‘zaro bir-birini anglashi hamda ishonchiga bog‘liqligini ta’kidlashadi. Barcha kasbiy faoliyatda bo‘lgani kabi bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilaridan loyihalash usulini o‘quv jarayoniga tatbiq etishda ham muayyan kompetentlikka egalik talab qilinadi. Quyida mazkur talablarning ayrimlarini sanab o‘tishdan oldin kompetentlik tiplariga qisqacha oydinlik kiritishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Tahlillarimiz ta’lim subyektlarini loyihalash kompetensiyalarini shakllantirish manbaiga ko‘ra to‘rt tipga ajratish imkonini berdi:

-me’yoriy hujjatlarni tushunish va ulardan to‘g‘ri foydalanish kompetensiyalari;

-ta’lim mazmunidan kelib chiqadigan bilish bilan bog‘liq tayanch kompetensiyalar;

-ma’lum doiradagi o‘quv fanlari va ta’lim sohalari asosida shakllanadigan umumkasbiy kompetensiyalar;

-alohida olingan o‘quv predmeti doirasida shakllantiriladigan predmetga oid kompetensiyalar.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari e’tirof etilgan loyihalash kompetensiyalarini shakllantirish manbalari bilan ishlash qobiliyatiga ega bo‘lishlari talab qilinadi. Sanab o‘tilgan kompetensiyalarning har bir talabada mujassam bo‘lishi bevosita ta’lim jarayonini tashkil qilish sifati, o‘qituvchining bilim darajasi, sog‘lom raqobat ta’lim muhiti, mavjud motivatsiyasi bilan belgilanadi. Shuningdek, umumkasbiy metodik xarakterdagi o‘quv fanlarini o‘zlashtirishda talabalarda, shu fanning o‘ziga xosligi, maqsad va mazmunidan kelib chiqib, zarur kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi o‘ta muhim.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, talabalarda loyihalash yordamida shakllantiriladigan kompetentlikning quyidagi turlarini ko‘rib chiqamiz:

1. Boshlangich ta’limda o‘qitiladigan umumta’lim fanlari mazmuni va uni o‘qitish asosida tarbiyalanadigan tayanch loyihalash kompetentligi.
2. Boshlangich ta’limda o‘qitiladigan barcha fanlar asosida shakllantiriladigan loyihalash kompetentligi.
3. OTMda talabalarga o‘rgatiladigan me’yoriy hujjatlar, majburiy va tanlov fanlari, umumpedagogik sikldagi fanlar orqali hosil qilinadigan xususiy loyihalash kompetentligi. Tadqiqotimiz mazkur 3 tipdagi

kompetentlik modeli va uni takomillashtirish masalalaridan kelib chiqadi.

Bundan tashqari, adabiyotlar tahlili bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi loyihalash kompetensiyalari tarkibi – o‘quv dasturlari, standart talablari, ishchi o‘quv rejasi, sillabuslar, elektron va bosma o‘quv-uslubiy majmualari, taqvim rejalari, dars ishlanmalari to‘g‘risidagi bilim va ko‘nikmalar, ularni amalga oshirish jarayonida qo‘llaniladigan samarali usullar hamda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, turli murakkablikdagi o‘quv topshiriqlarini yaratish qobiliyatlari majmuini qamrab olganligini aniqlash imkonini berdi.

M.Barakayev bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining loyihalash kompetentligini shakllantirishda fan asoslarini o‘rganishni katta va kichik modullarga tayanish hamda shu modullar mazmuni ishlab chiqishda ta’lim ishtirokchilari darajasi, o‘qitish sharoitlari to‘liq inobatga olinishi kerakligini hamda ilg‘or usul va texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalaridan xabardorlik shartligini ta’kidlaydi.

E.S.Polatning fikricha, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining loyihalash kompetentligi talabalar faoliyatini muntazam nazorat qilish yuzasidan egallangan bilim va ko‘nikmalarni dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni rejalashtirish, amalga oshirish, tahlil asosida obyektiv baholashga qodirligini anglatadi. Bunda bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarida dastlabki loyihalash kompetentligi OTMda ixtisoslik sikldagi, ayniqsa uni o‘qitish metodikasi fanlarini o‘rganish jarayonida singdiriladi. Loyihalash usuliga xos ko‘nikmalarni shakllantirishning ikkinchi bosqichida talabalarda turli murakkablikdagi dars ishlanmalari yoki mashg‘ulot fragmentlarini ishlab chiqish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Tajribali o‘qituvchilar tomonidan ishlangan har qanday murakkablikdagi pedagogik texnologiyalarga asoslangan loyihalash mashg‘ulotlari barcha talabalarning mavzularni a’lo darajada o‘zlashtirishini kafolatlamaydi, lekin texnologik jarayonning obyektivligi, adolatliligi hamda tig‘iz va mazmunliligi barcha talabalarda ta’lim jarayonining adolat mezonlariga asoslanganligi, o‘z mavjud qobiliyatiga tayangan holda natijaga erishishiga ishonch hosil qilishlariga sharoit yaratishi aniq. Boisi, loyihalash faoliyatiga asoslangan ta’lim barcha o‘quvchi va talabalar uchun o‘z imkoniyatlarini ishga solishlari uchun bir xilsharoit yaratadi, erishgan natijalari va olgan baholarining xolisligini ta’minlaydi. O‘qituvchi va talabalar bilan o‘zaro faollik, kengash asosida tashkil qilinadigan loyihalashni bosh va kichik maqsad aniqligi, ajratilgan vaqtdan o‘rinli foydalanish, vazifalar taqsimoti, metod va texnologiyalarning to‘g‘ri tanlanishi, dastlabki va yakuniy muhokama, yaratilgan taqdimotni himoya qilish faoliyati o‘zaro uzviylikka asoslanadi. Loyihalash usuli ilg‘or usul hisoblanadi. Chunki mustaqil egallangan bilim, birinchidan, ongli o‘zlashtiriladi, qolaversa, talabalar xotirasida uzoq saqlanish bilan birga ularning bilimlarini boyitish hamda o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Муслимов Н.А., ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси/ Монография. – Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2013.138-б.

2. ХуррамовА.Ж. “Математика ўқитиш методикаси” фани ўқув машғулотларини лойиҳалаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.64-б.

3. Абдиримова И.К. Лойиҳалаш фаолиятининг босқичлари лойиҳагаёндашув моҳияти ва мақсадлар уйғунлиги. “Science and Education” Scientific Journal September 2020 / Volume 1 Special Issue 2. 43-б.

4. Хуррамов Б С., Умумтаълим мактабларига компетенциявийёндашувга асосланган таълим тизими кириб келишининг таҳлилий мулоҳазалари.Т. Мактаб таълими / Школьное образование. Замонавий таълим / Современное образование 2019, 3(76)76-бет.

FOSTERING ENTREPRENEURIAL THINKING IN THE CONTEXT OF A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT

R.G.Davletbaeva
Student of Chirchik State Pedagogical University
Scientific supervisor: **Z.A. Umirova**
Teacher at Chirchik State Pedagogical University
Email adress: zamira_07_91@mail.ru Phone: +998993074691

Abstract. In today's rapidly changing world, entrepreneurial thinking has become a crucial skill for young people to navigate an unpredictable and competitive global economy. This paper explores how entrepreneurial thinking can be effectively developed through modern digital learning environments. It examines the characteristics of entrepreneurial thinking—such as creativity, risk-taking, problem-solving, and initiative—and how these qualities can be cultivated using project-based learning, online platforms, digital tools, and mentorship. The study also highlights practical approaches and current practices in Uzbekistan, emphasizing the role of education in preparing students to become innovative and proactive members of society. Finally, the paper provides recommendations for integrating entrepreneurial education into digital learning systems to meet the needs of the 21st-century workforce.

Keywords: entrepreneurial thinking, digital education, project-based learning, youth empowerment, educational innovation, entrepreneurship, 21st-century skills, Uzbekistan, digital tools, mentorship.

Introduction. In the 21st century, the world is experiencing rapid technological advancements and global economic shifts that demand new approaches to education. One of the most important skills for young people today is entrepreneurial thinking—a mindset that encourages creativity, innovation, initiative, and the ability to take calculated risks. Unlike traditional educational models that focus primarily on knowledge acquisition, entrepreneurial thinking emphasizes problem-solving, adaptability, and real-world application.

Digital learning environments have become powerful tools for supporting the development of these skills. Through online platforms, interactive technologies, and global access to information, students now have unprecedented opportunities to engage in meaningful, self-directed learning experiences. These environments not only enhance academic outcomes but also create space for learners to develop entrepreneurial competencies that are essential in modern society.

This paper explores how entrepreneurial thinking can be cultivated in digital learning settings. It discusses the essential components of an entrepreneurial mindset, examines effective teaching methods such as project-based learning and mentorship, and analyzes how digital tools can empower students to become innovative leaders and change makers. The paper also considers the context of education in Uzbekistan, highlighting local initiatives that support youth entrepreneurship and digital learning.

Materials and Methods. This study utilizes a qualitative, practice-based approach to examine how entrepreneurial thinking can be nurtured in digital learning environments. Data was collected through a combination of classroom observations, semi-structured interviews with educators, and the analysis of student projects at secondary schools and universities in Uzbekistan. These projects were designed to encourage active participation and were supported by a range of digital tools, including Google Workspace, Trello, Canva, and AI-powered applications. Students worked on tasks such as creating digital marketing plans for local businesses, developing business ideas, and simulating startup projects. By engaging in these activities, students had the opportunity to develop key entrepreneurial skills such as problem-solving, innovation, leadership, and teamwork. The use of digital tools allowed for greater creativity and flexibility, enabling students to approach tasks from various angles and collaborate effectively.

In addition to classroom-based research, the study incorporated insights from interviews with educators who are actively integrating digital tools into their teaching practices. Teachers highlighted the positive impact of project-based learning on student engagement, noting that students became more proactive and independent in their learning. However, challenges related to the uneven distribution of digital resources, particularly in rural areas, were identified. Moreover, teachers expressed the need for more professional development opportunities focused on digital pedagogy and entrepreneurship education. To supplement the observational data, the study also reviewed several national and international educational initiatives, such as IT Park Uzbekistan, startup incubators, and online learning platforms like Coursera, EdX, and Udemy. These platforms offer students access to entrepreneurship-focused courses, mentorship, and real-world case studies, further reinforcing the integration of entrepreneurial thinking in education. The combination of classroom practices, educator feedback, and global educational trends provided a comprehensive understanding of the ways in which digital learning environments can foster entrepreneurial mindsets.

Results and Discussion. The findings of this study demonstrate that digital learning environments, when integrated with project-based learning, effectively enhance the development of entrepreneurial thinking in students. Students engaged in hands-on projects, such as creating business plans or digital marketing strategies, using tools like Google Workspace, Trello, and Canva, showed significant improvements in key entrepreneurial skills such as creativity, critical thinking, and collaboration. These tools enabled students to work independently and in teams, which promoted initiative and responsibility—essential traits for entrepreneurial success. One of the most notable outcomes was the development of leadership skills, as students took on roles that required them to guide their teams, make decisions, and manage project timelines. This hands-on approach gave students a real-world understanding of leadership in business settings, allowing them to practice managing tasks and responsibilities effectively.

Leadership emerged as a central theme throughout the study, as digital tools provided students with opportunities to assume leadership roles in collaborative environments. For instance, during group projects, students often naturally adopted leadership roles based on their strengths, such as organizing tasks or leading presentations. Teachers observed that these experiences encouraged students to develop confidence in their decision-making abilities and problem-solving skills. In one example, a student in a marketing project led the team in presenting a strategy to a local business, making key decisions about the direction of the project. This experience provided a clear demonstration of how digital learning environments can simulate real-world entrepreneurial challenges and help students build the confidence and skills needed to become effective leaders.

Despite the positive outcomes, several challenges were identified that hindered the full potential of digital learning in fostering leadership and entrepreneurial thinking. One significant issue was the digital divide, with students in rural areas facing limited access to high-speed internet and modern digital tools, which prevented them from fully engaging in collaborative online activities. Additionally, while students demonstrated leadership in short-term group projects, there was less emphasis on long-term leadership development and mentorship. Teachers emphasized the need for sustained leadership training and mentorship to ensure that students continue to develop these skills over time. Finally, while digital tools enhanced communication, collaboration, and adaptability, further professional development for educators is needed to ensure that teaching methods effectively cultivate entrepreneurial leadership in a consistent and sustainable manner.

Conclusion. In conclusion, this study highlights the significant role of digital learning environments in fostering entrepreneurial thinking and leadership among students. Through project-based tasks and the use of digital tools such as Google Workspace, Trello, and Canva, students developed key entrepreneurial skills, including creativity, collaboration, and critical thinking. Leadership, in particular, was a crucial outcome, as students had the opportunity to take on real-world roles, manage projects, and make decisions. However, challenges such as digital inequality and the need for sustained mentorship were identified, which must be addressed to maximize the potential of these platforms. Overall, digital learning environments offer a promising pathway for equipping students with the skills needed for entrepreneurial success, provided that access to resources and teacher training are improved.

References

1. Brackett, M. A., & Salovey, P. (2006). Emotional intelligence and the evolution of emotional intelligence. In C. L. M. Keyes & J. Haidt (Eds.), Flourishing: Positive psychology and the life well-lived (pp. 106-127). American Psychological Association.
2. Durlak, J. A., Domitrovich, C. E., Weissberg, R. P., & Gullotta, T. P. (2011). The impact of enhancing students' social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions. Child Development, 82(1), 405-432.
3. Durlak, J. A., Domitrovich, C. E., & Weissberg, R. P. (2022). Social and emotional learning: Past, present, and future. In T. P. Gullotta & R. P. Weissberg (Eds.), Handbook of social and emotional learning: Research and practice (pp. 3-15). Guilford Press.
4. Eurich, T. (2017). Insight: The surprising truth about how others see us, how we see ourselves, and why the answers matter more than we think. Crown Business.
5. Goleman, D. (1995). Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ. Bantam Books.

6. Krashen, S. D. (1981). Second language acquisition and second language learning. Pergamon.

7. Linan-Thompson, S., O’Reilly, R., & Holcomb, R. (2022). Improving literacy in elementary schools: Effective strategies for success. Educational Leadership, 80(4), 10-17.
8. Mahoney, J. L., Cairns, B. D., & Farmer, T. W. (2018). Positive youth development and the role of the educator. In D. L. W. Williams & M. P. Dubois (Eds.), Handbook of positive youth development (pp. 139-157). Springer.
9. Piaget, J. (1970). Science of education and the psychology of the child. Viking Press.
10. Pradhan, N. (2016). Understanding entrepreneurial behavior in the global context. Journal of Business Research, 15(3), 97-110.
11. Rosen, L. D., & Weil, M. (2017). The impact of digital technologies on youth development. Journal of Adolescent Development, 64(2), 134-148.
12. Taylor, R. D., Oberle, E., Durlak, J. A., & Weissberg, R. P. (2017). Promoting social and emotional learning: Guidelines for educators. Springer.
13. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.
14. orqali yoshlarni tadbirkorlik ruhida tarbiyalash. O'zbekiston Milliy Universiteti.
15. Toshpulatov, A., & Makhmudov, R. (2021). Ta'limda innovatsion yondoshuvlar Iskandarov, S. (2019). Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va tadbirkorlikni rivojlantirish. O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi.
16. Yusufbekov, S., & Mukhammedov, T. (2020). O‘zbekiston yoshlarini tadbirkorlik ko'nikmalariga o'rgatishning zamonaviy usullari. O‘zbekiston Ta'limi, 2(1), 45-58.

YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA TRANSFORMATSION LIDERLIK NAZARIYASINING O‘RNI

M.B.Rasuljonova
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti, 15-24 TM guruh talabasi
U.A.Azimov
Ilmiy rahbar: Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada J.M.Berns va B.M.Bass tomonidan ilgari surilgan transformatsion liderlik nazariyasi yoshlar faolligiga qanday ta’sir qilishi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Maqolada ushbu nazariyaning asosiy tamoyillari – karizmatik ta’sir, individual yondashuv, intellektual rag‘batlantirish va ilhomlantiruvchi motivatsiya – yoshlarning ijtimoiy faolligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi empirik va nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlar orasida transformatsion liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishning ta’lim, mentorlik, volontyorlik va raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan usullari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: transformatsion nazariya, motivatsiya, liderlik, yoshlar, volontyorlik, intellektual rag‘batlantirish, individual e’tibor, yoshlar kengashlari.

Аннотация: В статье дается научный анализ того, как теория трансформационного лидерства, выдвинутая Дж. М. Бернсом и Б. М. Басс влияет на молодежный активизм. В статье эмпирически и теоретически анализируется, как основные принципы этой теории — харизматическое влияние, индивидуальный подход, интеллектуальное стимулирование и вдохновляющая мотивация — влияют на социальную активность молодежи. Также будут рассмотрены способы развития навыков трансформационного лидерства у молодых людей посредством образования, наставничества, волонтерства и цифровых технологий.

Ключевые слова: трансформационная теория, мотивация, лидерство, молодежь, волонтерство, интеллектуальное стимулирование, индивидуальное внимание, молодежные советы.

Abstract: This article scientifically analyzes how the transformational leadership theory, proposed by Berns and B.M.Bass, influences youth social activity. The study examines the core principles of this theory—charismatic influence, individualized consideration, intellectual stimulation, and inspirational motivation—and their impact on youth social engagement from both empirical and theoretical perspectives. Additionally, the paper explores possible methods for developing transformational leadership skills among young people through education, mentorship, volunteering, and digital technologies.

Keywords: transformational theory, motivation, leadership, youth, volunteering, intellectual stimulation, individual attention, youth councils.

Yoshlar har bir davlatning kelajagini, salohiyatini belgilovchi muhim qatlam hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi yo‘lida yurtimizda barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularning orzu-maqsadlarini ro‘yobga chiqarish, ilg‘or tashabbus va g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Biroq, bugungi kunda ta’limda liderlikni shakllantirish va samarali boshqaruvni amalga oshirishda bir qator dolzarb muammolar ham mavjud.

“Yoshlarda liderlik xususiytalarini rivojlantirish uchun bugunda kunda mamlakatimizda barcha sharoitlar yaratilgan. Buni O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risda”gi qonuni, “Ta’lim to‘g‘risda”gi qonunlarda o‘z aksini topganligida ko‘rishimiz mumkin. Ushbu normalarni amaliyotga tatbiq etish yoshlarda liderlik xususiyatlarini namoyon bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi.”

Transformatsion liderlik – bu 1978-yilda siyosiy olim va tarixchi Jeyms MakGregor Berns tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya bo‘lib, odamlarni ilhomlantirib, ularning istiqbolli maqsadlariga erishishga yordam beradi. Ushbu liderlik usuli yoshlarning ijtimoiy hayotini shakllantirishda katta ahamiyatga ega, chunki u shaxsiy o‘sishni, jamoaviy harakatni va ijtimoiy o‘zgarishlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Yoshlar tashkilotlari, jamoat loyihalari va ta’lim dasturlari kabi sohalarda transformatsion liderlik yoshlarni kuchaytirish va yo‘naltirishda asosiy rol o‘ynaydi.

Bernsning nazariyasi shuni ta’kidlaydiki, haqiqiy liderlik faqat hokimiyat orqali emas, balki umumiy maqsad yaratish va boshqalarni ilhomlantirish orqali amalga oshadi. Bu nazariyani 1980-yillarda Bernard M. Bass yanada rivojlantirib, uning o‘lchovli jihatlarini aniqladi. Transformatsion liderlik quyidagi asosiy elementlardan iborat:

-idealizatsiyalangan ta’sir: liderlar ishonch va hurmat qozonadigan xatti-harakatlarni namoyish etadilar. Ular o‘z harakatlari orqali boshqalarga o‘rnak bo‘ladilar.

-ilhomlantiruvchi motivatsiya: liderlar kelajakning aniq va jozibador tasvirini taqdim etib, izdoshlarni rag‘batlantiradilar.

-intellektual rag‘batlantirish: liderlar ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirib, odamlarga yangi echimlarni topishga yordam beradilar.

-individual e’tibor: liderlar har bir kishiga alohida e’tibor qaratib, ularning shaxsiy va professional rivojlanishiga yordam beradilar.

Yoshlarning ijtimoiy hayotida transformatsion liderlik eng ko‘p jamoaviy hamkorlik, ilhomlantirish va ijodkorlikni rivojlantirishda ko‘rinadi. Talabalar tashkilotlari, jamoat xizmatlari loyihalari yoki mahalliy tashabbuslarda bu yondashuv yoshlarni ijtimoiy masalalarga jalb qilish bilan birga muhim hayotiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi.

Transformatsion liderlik yoshlarni o‘zlariga muhim bo‘lgan loyihalarni boshqarishga undaydi. Masalan, maktab klublari yoki mahalliy nodavlat tashkilotlarida liderlar tengdoshlariga xayriya tadbirlari, madaniy tadbirlar yoki barqarorlik kampaniyalarini boshqarishda yordam berishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

“Lider yoxud yetakchi — bu boshqalar uning tendentsiyalari va g‘oyalari ortidan intilishni istaydigan shaxsdir. Liderlikka vaqtincha erishish ham mumkin, ammo haqiqiy liderni keyingi olg‘a qadamlar bilan o‘zgartirib bo‘lmas sodiqlik ajratib turadi.”

Yoshlar birgalikda ekologik muhofaza yoki ijtimoiy adolat kabi umumiy maqsad atrofida birlashganda, transformatsion liderlik ularning harakatlarini muvofiqlashtirishga yordam beradi. Liderlar ularning guruh ichidagi birdamlikni ta’minlovchi aniq tasavvur va maqsadni shakllantiradilar.

Intellektual rag‘batlantirish transformatsion liderlikning asosiy xususiyatidir. Liderlar me’yorlardan tashqarida o‘ylashni ilhomlantiradi va jamoatchilik masalalariga yangi yechimlarni izlab

topishga yordam beradi. Masalan, oziq-ovqat isrofi masalasini hal qilishga intilayotgan bir guruh yangi taqsimot tizimlarini ishlab chiqishi mumkin.

Transformatsion liderlikning eng ta’sirli jihatlaridan biri individual e’tibordir. Liderlar o‘z tengdoshlariga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, shaxsiy muammolarni hal qilishda yordam beradilar va ularning o‘z istaklariga erishishlariga ko‘maklashadilar.

Yoshlar ijtimoiy dasturlariga transformatsion liderlikni qo‘llash uchun quyidagi strategiyalardan foydalanish mumkin:

1. Ta’lim muassasalari: maktab va universitetlar liderlik ko‘nikmalarini o‘rgatuvchi treninglar va seminarlarni tashkil etishi mumkin.

2. Jamoat xizmatlari loyihalari: mahalliy muammolarni hal qilishga qaratilgan tashabbuslar – masalan, boshpanasizlarga yordam ko‘rsatish yoki atrof-muhitni asrash loyihalari transformatsion liderlik ostida samarali amalga oshirilishi mumkin.

3. Yoshlar kengashlari: mintaqaviy yoki milliy yoshlar kengashlari yoshlarga siyosiy o‘zgarishlarni ilgari surish uchun platforma taqdim etadi. Bu joylarda liderlar tengdoshlarini safarbar qilish va yangi echimlarni taklif etish uchun transformatsion prinsiplardan foydalanadilar.

4. Raqamli faollik: hozirgi kunda yosh liderlar ijtimoiy tarmoqlardan iqlim o‘zgarishi yoki tenglik kabi masalalar bo‘yicha qo‘llab-quvvatlashni yig‘ish uchun foydalanadilar. Transformatsion liderlik bu kampaniyalarni inklyuzivlik va jalb qilish orqali rivojlantiradi.

Transformatsion liderlikning ijtimoiy hayotga ta’siri individual muvaffaqiyat bilan cheklanmaydi. U jamoalarni shakllantirib, global muammolarga yechim topishda muhim rol o‘ynaydi. Bunday liderlar: turli nuqtai nazarlarni qadrlaydigan inklyuziv jamoalarni quradilar; innovatsiya va hamkorlik orqali barqaror rivojlanishni rag‘batlantiradilar; tizimli o‘zgarishlarni ilgari surib, tengsizlik va iqlim o‘zgarishi kabi masalalarni hal qilishga intiladilar.

Transformatsion liderlikni yoshlar dasturlariga kiritib, biz kelajak avlodni murakkab global muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar va dunyoqarash bilan ta’minlaymiz.

“Liderlikni rivojlantirishda yoshlarda ota-onalarning roli juda muhimdir. Xususan ota-onalari transformatsion (ko‘chma) liderlik xulq-atvorni namoyon etgan yoshlar, ulg‘aymasdan turib jamoda o‘zining yetakchilik hatti-harakatlarini namoyon qilishni boshlaydi.”

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, transformatsion liderlik nazariy emas, balki yoshlarni mazmunli hayot kechirishga ilhomlantiradigan muhim amaliyotdir. Ilhomlantirish, ijodkorlik va umumiy maqsadni shakllantirish orqali transformatsion liderlar shaxsiy o‘sish va ijtimoiy o‘zgarish yo‘lini ochib beradi. Ushbu liderlik uslubini qo‘llaydigan yoshlar tashkilotlari, o‘qituvchilar va mentorlar nafaqat yoshlarning individual muvaffaqiyatini qo‘llab-quvvatlaydi, balki jamiyatning kelajakdagi rivoji uchun ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Po‘latov Ro‘zimurod. yoshlarda liderlik xususiyatlarini shakllantirishning asosiy mezonlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 5(1), Jan., 2025

2. https://mymedic.uz/foydali-maslahatlar/lider-bolish-uchun-nima-qilish-kerak/

3. Avazov Farhod Rahmatulloyevich. Yoshlar liderligi va uni shakllantirish yo‘llari. Международный научный журнал № 9(100), часть 1 «Научный Фокус» Января, 2024.

LOYIHA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA IJTIMOIY TASHABBUSKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

K.Sh.Nishonova
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi, **kamolanishonova61@gmail.com:** +99899 100 62 50

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta’limda loyiha texnologiyasidan foydalanish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni shakllantirish masalasi tahlil etilgan. Loyiha texnologiyasining mazmuni, metodik yondashuvlari va uning ijtimoiy faollikni rivojlantirishdagi o‘rni ochib berilgan. Maqolada bo‘lajak pedagoglarda liderlik, mustaqil fikrlash, jamiyat muammolariga befarq

bo‘lmaslik kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi loyihaviy ishlanmalarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy loyiha misollari keltirilib, ularning ta’lim jarayonidagi roli tahlil qilingan. Mazkur tadqiqot natijalari oliy pedagogik ta’lim tizimida loyihalashtirish texnologiyalarini joriy etishning samarali yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Loyiha texnologiyasi, ijtimoiy tashabbuskorlik, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik ta’lim, ta’lim innovatsiyalari, liderlik, ijtimoiy faoliyat, amaliy loyiha, mustaqil ta’lim, jamoaviy ish.

Bugungi kunda ta’lim tizimida raqobatbardosh, tashabbuskor va ijtimoiy faol shaxslarni tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, bo‘lajak o‘qituvchilarni nafaqat o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yetuk, balki jamiyatda ijtimoiy muammolarga befarq bo‘lmagan, innovatsion g‘oyalarni ilgari suruvchi va ularni amaliyotga tatbiq eta oladigan shaxslar sifatida shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Bu jarayonda loyiha texnologiyasi o‘zining amaliy yo‘nalganligi, ijodiy yondashuvni talab qilishi va jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Loyiha texnologiyasi – bu bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan real hayotiy muammolarni hal qilishga qaratilgan, aniq maqsad va natijaga ega bo‘lgan faoliyat shaklidir. Bu yondashuv orqali o‘rganuvchilar muammoni mustaqil aniqlash va tahlil qilish, yechimlar izlash, jamoaviy ishlash, o‘z fikrini asoslab bera olish, yakuniy natijani baholash ko‘nikmalarini egallaydilar.

Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun loyiha texnologiyasi nafaqat kasbiy bilimlarni mustahkamlash, balki ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Ijtimoiy tashabbuskorlik nima va nima uchun u muhim?

Ijtimoiy tashabbuskorlik – bu shaxsning jamiyatdagi muammolarni anglab yetishi, ularga befarq bo‘lmasdan o‘z hissasini qo‘shishga intilishi, turli tashabbus va loyihalar bilan chiqishidir. Ayniqsa, pedagog kadrlar uchun bu fazilat muhim hisoblanadi, chunki:

-o‘qituvchi – ijtimoiy o‘zgarishlarning tashabbuskori;

-u nafaqat bilim beradi, balki o‘quvchilarni fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan shaxs sifatida shakllantiradi;

-maktab jamoasida, mahalla va keng jamoatchilikda ham ijtimoiy loyihalar tashabbuskori bo‘lishi mumkin.

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida quyidagilarga e’tibor qaratish muhim:

1. Muammoga yo‘naltirilgan ta’lim: Talabalarni real ijtimoiy muammolar ustida ishlashga yo‘naltirish, ularni tahlil qilish va hal etish mexanizmlarini ishlab chiqishga jalb qilish.
2. Jamoaviy loyihalar asosida o‘qitish: Talabalar kichik guruhlarda ishlash orqali ijtimoiy masalalarni yechishga xizmat qiluvchi loyihalar tayyorlaydi (masalan: ekologik tashabbuslar, inkluziv ta’limni targ‘ib qilish, mahalliy tarix va madaniyatni o‘rganish, bolalar uchun ijtimoiy tadbirlar tashkil etish va boshqalar).
3. Amaliyotga yo‘naltirilgan topshiriqlar: Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan fanlar doirasida talabalarni amaliy faoliyatga jalb etish, ularni tashabbus bilan chiqishga undovchi shart-sharoitlarni yaratish.
4. Ijtimoiy hamkorliklar: Talabalarni mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlar, ijtimoiy xizmatlar bilan hamkorlikda ishlashga o‘rgatish.
5. Tahliliy va reflektiv yondashuv: Loyihalar natijasini tahlil qilish, xatoliklardan saboq olish va kelgusida yanada samarali tashabbuslarni ishlab chiqish madaniyatini shakllantirishdir.

Bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqilishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy loyihalarga quidagilarni misol qilishimiz mumkin:

-“Yashil maktab” – maktablarda ekologik ongni shakllantirishga qaratilgan loyiha.

-“Bir sinf – bir madaniyat” – millatlararo totuvlik va madaniy qadriyatlarni targ‘ib qilishga qaratilgan tashabbus.

-“Mehribon qo‘llar” – kam ta’minlangan oilalardagi bolalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish tashabbusi.

-“O‘qituvchi – jamiyat yetakchisi” – o‘qituvchilarning jamoatchilikdagi ijobiy rolini kuchaytirishga qaratilgan loyihalar.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy tashabbuskorlik ruhida tarbiyalash, ularni loyihalashtirish texnologiyasi asosida o‘qitish orqali amalga oshirish mumkin. Bu nafaqat ularning kasbiy salohiyatini oshiradi, balki ularni jamiyatda faol, innovatsion fikrlovchi va o‘zgarishlarga tayyor liderlar sifatida

shakllantiradi. Shu bois, oliy ta’limda loyiha texnologiyasi keng qo‘llanilishi lozim bo‘lgan metodlardan biri bo‘lib, ijtimoiy faollikni oshirishda muhim vosita sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. N.N.Djamilova Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida tashabbuskorlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari.: Avtoref. dis.ped.DSc. - T., 2019 y. - 14-b.
2. Q.Q.Quronboev “Talabalarning ma’naviy - ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (Yoshlar tashkilotlari misolida)”: Ped.f.n...diss. - T.: O‘zPFITI, 2000 y.
3. Воскресенская Н.М.. Основные подходы к гражданскому образованию в России и за рубежом ./ Н.М. Воскресенская/У Гражданское образование: содержание и активные методы обучения. - М., Логос. - 2005
4. A.I.Soyibnazarov. “The Purpose, Objectives And Status Of Training School Teachers Using An Online Platform.” JournalNX 6.09: 67-71.

TEXNOKRATIK TA’LIM PARADIGMASI SHAROITIDA TALABALARDA IJTIMOIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISH DA AMALIYOT VA INNOVATSIYALAR UYG‘UNLIGINI TA’MINLASH ZARURIYATI

Sh.R.Sultanov
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: shoxruhsultanov@mail.ru
ORCID: https://orcid.org/0009-0009-2804-5263

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim paradigmalari hamda texnokratik ta’lim paradigmasi sharoitida talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish da amaliyot va innovatsiyalar uyg‘unligini ta’minlash zaruriyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, paradigma, ta’limiy paradigma, an’anaviy ta’lim, bixiviorizm, fenomen, texnokratiya

Аннотация: В этой статье рассматриваются парадигмы образования, а также необходимость обеспечения гармонии практики и инноваций в развитии социальной активности у студентов в контексте технократической парадигмы образования.

Ключевые слова: образование, парадигма, образовательная парадигма, традиционное образование, бихевиоризм, феномен, технократия

Abstarct: this article talks about educational paradigms and the need to ensure the harmony of practice and innovation in the development of social activity in students in the context of the technocratic educational paradigm.

Keywords: education, paradigm, educational paradigm, traditional education, bixiviorism, phenomenon, technocracy

Shaxsning har tomonlama kamol toptirishdagi tayanch qadriyatlarni belgilab olish o‘z navbatida ta’limiy paradigmalarni tanlab olishga ham imkon beradi.

Paradigma (grekcha, paradeigma) so‘zining o‘zi keng ma’noda turmush va fikrlashining biror sohasining fundamental asoslarini aniqlab beruvchi o‘ziga xos tuzilishga ega nazariya, deb izohlanadi.

Pedagogikada paradigma atamasining ikki xil ma’nosini ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, bu faylasuf Tomas Samuel Kunning klassik ta’limotiga yaqin bo‘lib, umummilliy tushuncha hisoblangan paradigmalar ilmiy faoliyat modeli, tadqiqot me’yorlari, mezonlari, standartlari yig‘indisi, paradigma – ilmiy jamiyatdagi aniq fanlar yoki qator fanlarda umumiy tarzda qabul qilingan dunyoni tushuntirishga yetakchi yondashuv, bir butun g‘oyalar, qadriyatlar yig‘indisi. E.V.Berejkova, V.V.Kraevskiy, N.A.Korshunova kabi olimlar ham xuddi shunday nuqtai nazarga asoslanadilar.

Xususan, E.V.Berejkova va V.V.Kraevskiylar tomonidan paradigma tushunchasiga shunday ta’rif berilgan: “Paradigma – fanning obyekti emas, uning o‘zi nazariy standartlar, metodologik me’yorlar, qadriyatli mezonlar sifatidagi ilmiy faoliyat. Paradigma – aniq vaqt doirasida ilmiy jamoatchilikka muammolarni qo‘yish va ularni hal etish modeli sifatida taqdim etiladigan barcha ilmiy yutuqlarga tegishli

tadqiqot vazifalarini hal etish namunasi sifatida qabul qilingan nazariya (yoki muammolarni qo‘yish modeli).

Paradigmani ikkinchi tarzda tushunish uni ta’lim tizimini loyihalashning asosi, g‘oya, yondashuv, tayanch modeli yoki ta’lim strategiyasi sifatida izohlanadi. Bunday talqin etishda qoidaga muvofiq ta’limiy paradigmalar tushunchasidan foydalaniladi va u ta’limning asosiy yo‘nalganligini aks ettiruvchi atamalar, qo‘yilgan pedagogik g‘oyalarning manbai va usulini o‘ziga qo‘shib oladi. Demak, shakllantiruvchi, insonparvar va ezoterik (I.A.Kolesnikov) avtoritar, manipulyativ va qo‘llab-quvvatlovchi (G.B.Kornetov), an’anaviy shakllantiruvchi, an’anaviy rivojlantiruvchi, shaxsga yo‘naltirilgan (S.V.Kulnevich) an’anaviy, ratsional va insonparvar (V.Ya.Pilipovskiy) ma’naviy va dunyoviy (I.A.Solovsova), pedagogik, androgogik, akmeologik, kognitiv va kommunikativ (Yu.G.Fokin) va boshqa paradigmalar ajratib ko‘rsatiladi.

A.Kostinning tasnifiga muvofiq fundamental zamonaviy paradigmalarga quyidagilar kiradi.

- asosida faoliyatli yondashuv turadigan, markazida bilim turadigan, obyektiv-axboriy yondashuvli ta’lim mazmunini tashkil etishning fanga doir modeli;
- asosida faoliyatli yondashuv turadigan texnologik o‘qitish yoki o‘quvchilarning faoliyatiga bog‘liq holdagi tuzilishga muvofiq ta’lim mazmunini tashkil etishning texnologik yo‘naltirilgan modeli;
- asosida o‘z mavqeini belgilab olish usullari, ta’limning individual yo‘nalganligi turadigan, asosiysi semantik individual rivojlanish bilan ta’lim mazmunining qo‘shilish usullari bo‘lgan ta’lim mazmunini tashkil etishning shaxsga yo‘naltirilgan, ya’ni antroponimik (P.G Izedrovich bo‘yicha) modeli;
- asosida so‘nggi ijtimoiy madaniy mexanizmlarni translyatsiya qilish va ta’limiy qadriyatlarni qaytadan tiklash turadigan uyushma, xalq, etnik guruhlarning turli-tuman ijtimoiy-madaniy o‘ziga xosliklari asosida tashkil etiladigan ta’lim mazmunini tanlab olishning ijtimoiy modeli;
- ta’limning maqsadli yo‘nalganligi yaxlit tarzda shaxsning rivojlanishini va o‘z-o‘zini rivojlanishiga yordam berish hamda zaruriy shart-sharoitlarni yaratishga asoslangan axborotlashtirishga almashtiriladi. Shu nuqtai nazardan dunyoning ehtimoliy modeli, uni o‘zlashtirish darajasini nafaqat uning bilishi, qanchalik darajada tushunishini, ya’ni mazmunini egallaganligini aniqlab beradi;
- ta’lim jarayonining ta’lim oluvchilarning ehtiyoj, qiziqish va imkoniyatlari bilan bog‘liqlikda tashkil etilishi, shaxsiy fikriy faoliyatni ta’minlash, mazkur ehtiyoj, qiziqish, imkoniyatlarni namoyon etish uchun zarur sharoitni yaratish asosida ta’lim oluvchiga nisbatan nuktai nazar o‘zgaradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasini ishlab chiqishni talab etadigan yangi paradigmalarning paydo bo‘lishi amaliyotchi pedagoglarda ular asosida o‘z faoliyatini qayta qurish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Biroq “shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim”, “shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish” tushunchalari mazmuni kundalik, shuningdek ilmiy darajada ham bir xil ma’noni ifoda etmaydi. SHaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishning mavjud konsepsiyasi uning an’anaviy, fanga yo‘naltirilgan o‘qitishdan o‘ziga xosligi va farqi, eng avvalo shundaki, o‘zlashtirilgan bilim va faoliyat usullari faqat birgina maqsadni aks ettirmay, balki insonning “shaxs bo‘lish” ehtiyojini amalga oshirish (A.V.Petrovskiy), “uning sub’ektivligini shakllantirish”, shaxsning sub’ektiv tajribasini boyitish (I.S.Yakimanskaya), “shaxsiy vazifalar”ni amalga oshirish (V.V.Serikov), madaniyat kishisi sifatidagi individning shakllanishi (E.V.Bondarevskaya) sharti, vositasidir. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va o‘qitish jarayonlarini aynanlashtirishga intilish shaxsga o‘qitishning madaniy uyg‘unligi, insoniy muvofiqligi va hayotiy moslashuvchanlik tavsifi, eng avvalo, didaktik emas, tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishga yo‘nalganligi bilan bog‘liqdir.

Shunday qilib, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining asosiy tavsifi uning boshqa maqsadga yo‘nalganligi va ishtirokchilarga boshqacha yondashuvni ifoda etishidadir: talabalarni o‘z hayotiy faoliyat usullari, o‘z individualligini talabga javob beradigan tarzda amalga oshiruvchi o‘quv jarayonining haqiqiy sub’yektiga, o‘qituvchini esa, talaba faoliyati tashkilotchisi, boshqaruvchisi, talabalar va madaniyat orasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in, talabani madaniyatga olib kirish va undagi o‘z o‘rnini belgilab olishni ta’minlovchisiga aylantirishdir.

Ta’limning yangi paradigmasining paydo bo‘lishi faqat ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lmasdan, u butun madaniy rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan. Uning shakllanishida insonparvarlik falsafasi va psixologiyasi (E.Fromm, J.P.Sartr, V.Frankl, N.Berdyaev, A.Maslou, K.Rodjers va boshqalar) asosiy o‘rin egallaydi. Mazkur konsepsiyaning asosiy nuqtai nazari – har bir alohida inson hayotining o‘ziga xosligi, har bir shaxs noyob, individual, shartsiz qadriyat ekanligini e’tirof etish. Insonparvar falsafa

va psixologiya o‘z-o‘zini realizatsiyalash, o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojini insonning yuksak ehtiyoji deya e’tirof etib, insonning o‘z noyobligini asrash va rivojlantirish, insonning erkinlikka erishish mexanizmi sifatida individual shaxsiy tanlovni amalga oshirishni o‘zida namoyon etish, qilingan tanlov uchun javobgarlikni bo‘yniga olishda ularni amalga oshirishning muhim shartini ko‘radi. Shuning uchun shaxsning rivojlanishi va insonning shakllanishi boshqalar bilan hamjihatlikda, ishonch, oshkoralik, sevgiga asoslangan insonparvar munosabatlarni o‘rnatish jarayonida sodir bo‘ladi.

Asosida ta’limga yangicha yondashuv yotadigan g‘oyalarning rivojlanishiga psixologlar ham muhim hissa qo‘shishgan: yaqin zonadan rivojlanish va inson rivojlanishida birgalikdagi faoliyatni roli haqidagi ta’limot (L.S.Vigotskiy), shaxsning hayotiy faoliyatdagi vazifalari, fikriy soha, insonning refleksiv imkoniyatlarining rivojlanishi, o‘quv faoliyati jarayonida uning psixik rivojlanish qonuniyatlari haqidagi tadqiqotlar (A.Leontev, L.Ansiferova, A.Petrovskiy, P.Galperin, V.Davidov va boshqalar).

O‘z-o‘zini tashkillash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z o‘rnini belgilab olish, o‘z-o‘zini realizatsiyalash, o‘z-o‘zini aktuallashtirish g‘oyalarini sinergetika, insonparvar falsafa va psixologiya tomonidan tantanali sur’atda e’lon qilinishi mohiyatida quyidagilar aks etadigan ta’limga shaxsga yo‘naltirilgan paradigmasining namoyon bo‘lishini belgilab berish zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyatlarda ayniqsa talab etilishini ko‘rsatdi: inson murakkab, o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi tizim sifatida qaraladi, har bir shaxsning noyobligi va takrorlanmasligi hamda uning rivojlanish traektoriyasi, o‘z qadr-qimmati e’tirof etiladi.

Zamonaviy pedagogik fanlardagi maqsadiga (ta’limiy, tarbiyaviy), ta’limning bosh maqsadi – madaniyatga yondashuvga, o‘quv-tarbiya jarayoni doirasida hal etiladigan vazifalariga, pedagog va talabalar orasidagi o‘zaro ta’sir etish tavsifiga ko‘ra paradigmalar farqlanadi.

Biz esa, quyida ko‘proq va keng tarqalgan besh paradigmaga alohida to‘xtalib o‘tamiz:

1. An’anaviy-konservativ (bilimga yo‘naltirilgan paradigma).
2. Fenomenologik (insonparvarlik paradigmasi).
3. Ratsionalistik (bixevioristik, xulq-atvorli).
4. Texnokratik.
5. Ezoterik.

Shulardan ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning bosh maqsadi amaliy takomillashtirish uchun zarur “aniq” ilmiy bilimlarni uzatish va o‘zlashtirishdan kelib chiqadi. “Bilim – kuch”, shuning uchun inson qadr-qimmatini uning bilish imkoniyatlari aniqlab beradi. Inson o‘zini o‘zicha emas, faqat aniq belgilangan etalon (o‘rtacha namuna, standartlashgan)dagi bilish yoki xulq-atvor sohibi sifatidagina baholaydi. Texnokratik paradigma sharoitida o‘quv-tarbiya jarayonining istalgan natijasi “ha – yo‘q”, “biladi – bilmaydi”, “tarbiyali – tarbiyasiz”, “egallagan – egallamagan” tizimida baholanishi mumkin. Bu erda tayyorgarlik, ma’lumotlilik, tarbiyalanganlik darajasi tekshirib aniqlanadigan qandaydir etalon, ideal mavjud bo‘ladi.

Hozirgi kunda texnologiya va amaliyot integratsiyasi ta’lim jarayonida muhim rol o‘ynamoqda. Texnokratik ta’lim paradigmasi bu jarayonda markaziy o‘rinni egallaydi. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi talabalarni amaliy ko‘nikmalar bilan ta’minlash va ularni ijtimoiy masalalarni hal qilishga jalb qilishdir. Ijtimoiy faollikni oshirish esa jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarurdir.

Texnokratik ta’limning afzalliklari. Texnokratik ta’lim talabalarni amaliy ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi. Bu yondashuv orqali talabalar nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Innovatsion fikrlashni rag‘batlantirish orqali ular yangi yechimlar topishga o‘rganishadi.

Ijtimoiy faollikni rivojlantirish uchun amaliy loyihalar va jamoaviy ishlar muhimdir. Talabalar real muammolarni hal qilishda ishtirok etish orqali ijtimoiy mas’uliyatni his qilishadi. Mentorlik va treninglar orqali ularga qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatiladi.

Nazariya va amaliyotni birlashtirish ta’lim jarayonini samarali qiladi. Yangi pedagogik yondashuvlar orqali talabalar nazariy bilimlarni amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu esa ularning bilimlarini mustahkamlaydi va ijtimoiy masalalarni hal qilishda yordam beradi.

Ta’lim muassasalari ijtimoiy masalalarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Talabalarni ijtimoiy masalalarga jalb qilish orqali ularning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish mumkin. Bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kelajakda texnokratik ta’lim paradigmasi yanada rivojlanishi kutilmoqda. Ijtimoiy faollikni oshirishda bu yondashuvning ahamiyati katta bo‘ladi. Ta’lim tizimini yanada samarali qilish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqilishi zarur.

Ta’lim tizimini yaxshilash uchun texnokratik yondashuvlarni kengroq qo‘llash tavsiya etiladi. Ijtimoiy faollikni oshirish uchun esa talabalarni amaliy loyihalarga jalb qilish va ularni qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika. // M.X.Toxtaxodjayeva umumiy tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati, 2010.
2. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: SANO-STANDART, 2017.
3. Xodjayev B.X., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.
4. Кун Т. Структура научных революций. – М.: ВЛАДОС, 2002.
5. Колесникова И.А. Педагогическая реальность в зеркале межпарадигмальной рефлексии. – СПб., 1999.
6. Caesares, J., et al. (2012) Future of teaching and learning in higher education. Report, 13th version, USA
7. http://studopedia.ru.
8. https://moluch.ru.
9. http://banauka.ru.

TALABA YOSHLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY E’TIQODINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

A.Z.Ismayilov
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti katta o‘qituvchisi
e-mail: akmalismailov1979@gmail.com +998993003283

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda Respublikamizdagi barcha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya sifatini yanada takomillashtirish, har tomonlama ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalangan barkamol shaxslarni voyaga yetkazish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishilaridan biri ekanligiga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, barcha fanlar qatori ijtimoiy fanlarni o‘qitishni takomillashtirib borish va unga innovatsion yondashuv – yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishda va talaba yoshlarning ma’naviy-axloqiy e’tiqodini takomillashtirishda muhim rol o‘ynashi haqida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, axloq, ta’lim-tarbiya, milliy qadriyatlar, madaniy meros, dunyoqarash, davlat, jamiyat, globallashuv.

O‘zbekistonda bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya sifatini yanada takomillashtirish, har tomonlama ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalangan barkamol shaxslarni voyaga yetkazish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishilaridan biridir. “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini - deydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev, - hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1, B.145-146].

Bugungi kunga kelib dunyoda globallashuv jarayonida inson ongi va tafakkuri uchun jiddiy kurash kechayotganini unutmasligimiz kerak. Shunday ekan, talaba yoshlarni globallashuv jarayonida o‘z ongi va tafakkuri bilan mustaqil fikrlaydigan, o‘z xalqini va Vatanini har tomonlama himoya qila oladigan shaxs sifatida tarbiyalash ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini tashkil etadi hamda talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy bilimlarga ega bo‘lishini taqoza etadi.

Albatta, har bir millatning ma’naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning birligidan tashkil topishi hech kimga sir emas. Ajdodlarimizning asrlar davomida to‘plagan boy ma’naviy merosini to‘la egallash va kelajak avlodga yetkazish esa hozirgi avlodning vazifasi ekanligini unutmasligi lozimdir. O‘z madaniy merosini, qadriyatlarini bilmaslik yoki mensimaslik manqurtlikdan boshqa narsa emas. Aksincha, ularni boyitib, yuksak darajaga ko‘tarishga intilmaslik esa millat va uning istiqboli uchun fojeadir. Ma’naviy-axloqiy tarbiyasi yuksak darajada rivojlangan insongina nafaqat o‘zi, balki jamiyat va davlat kelajagi uchun mehnat qilishga o‘zida kuch va qudrat topa oladi. Shuni unutmasligimiz lozimki, shaxs ma’naviy-axloqiy tarbiyasi dastlab oila sharoitida shakllanadi va jamiyat ma’naviyatini belgilovchi mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Buning asosida ta’lim muassasasida o‘quvchi va talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini ta’minlash va mustahkamlashda maxsus ta’lim-tarbiyaviy dasturlar asosida ma’naviy-axloqiy ishlar samaradorligi oshirib boriladi. Shu boisdan, madaniy merosdan, bugungi kun qadriyatlaridan to‘g‘ri foydalana olish, tarixdan to‘g‘ri xulosa chiqara bilish, o‘z tarixiga va bugungi ahvoliga, madaniy merosi va ma’naviy qadriyatlariga, diniga, axloqiga hamda huquqiy ongiga, turmush tarziga tanqidiy ko‘z bilan qaray olishlarida ota-onalar, qolaversa pedagog kadrlarning mas’uliyati kattadir. Mana shu mas’uliyatimiz asnosida har bir yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini ta’minlashi bilan jamiyat ma’naviyati qaror topishi tabiiydir. Aksincha, be’etibor bo‘lsak esa har bir yoshni jamiyatimizda bo‘layotgan o‘zgarishlarni noto‘g‘ri talqin etishga olib keladi. O‘zbek xalqida ta’lim-tarbiyaning milliy qadriyatlarga asoslanganligini, o‘ziga xosligini inobatga olgan holda Vataniga, xalqiga, oilasiga sadoqatli, fidokor, mustaqil fikrlaydigan, dunyoqarashi keng, e’tiqodi yuksak, iqtidorli, tashabbuskor, mas’uliyatli, ma’naviy va jismoniy barkamol avlod voyaga yetadi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya va unga qo‘yiladigan talablar jamiyatda ma’lum bir ijtimoiy-axloqiy talablarga mos keluvchi, axloqiy xislatlarni shakllantirish maqsadida talabalar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta’sir etish hisoblanadi [2, B.522].

Ma’naviy tarbiya - yuksak ma’naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma’naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta’lim tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha [3, B.317-318].

Shuni alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozimki, Vatanimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongi, tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g‘oyaning ahamiyati tobora yuksalib bormoqda.

Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, yoshlarning ma’naviy-axloqiy e’tiqodini takomillashtirishda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan bir qator muammolar ham mavjud. Masalan, ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emasligi, yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy ishlari olib borilmayotganligi, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan immunitetni shakllantirish yuzasidan jamoat tashkilotlarining faoliyati hamon talab darajasida emasligini qayd etib o‘tishimiz lozimdir.

Yuqorida aytib o‘tilgan muammolarni hal etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish, ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida 26-mart 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5040-sonli qarori qabul qilinganligi ayni muddao bo‘ldi. Ushbu qarorda quyidagilar ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilanganligini alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozim deb topdik:

- ✓ ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish**;**
- ✓ oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash**;**
- ✓ targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish**,** ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

- ✓ el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- ✓ aholining Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish**;**
- ✓ madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san’atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma’naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish**;**
- ✓ geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o‘rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish [4].

Bunday holatda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi masalalariga e’tiborni yanada kuchaytirish taqazo qilinadi. Zero Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI-asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi” [5, B.504-505].

Ma’naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko‘ra, inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o‘z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog‘liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me’yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas’uliyatni his etishi, ma’naviy-axloqiy bilimlarning e’tiqodga aylanishi va bu e’tiqodlarning tizimliligi, talabalar tomonidan ma’naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a’zolariga bo‘lgan hurmat-e’tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma’naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi kabilardan iborat. Ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo‘yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan bog‘liq bo‘lgan tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bundan tashqari barcha ta’lim muassasasida talaba- yoshlarga qadriyat sifatida munosabatda bo‘lish ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Zero, ta’lim tamoyillarining eng muhim tamoyillardan biri - ta’limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo‘lib, uning asosiy mohiyati talaba shaxsiga insoniy munosabatda bo‘lishni, ta’lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi. Ma’naviy-axloqiy tarbiyada ham yana bir eng qimmatli qadriyat - erkinlik hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida talaba shaxsida mas’uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko‘nikmalarini tarbiyalaydi.

Bugun O‘zbekistonda, barcha fanlar qatori ijtimoiy fanlarni o‘qitishni takomillashtirib borish va unga innovatsion yondashuv – yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishda va ularni intelektual rivojlangan shaxslar bo‘lib yetishishlarida muhim rol o‘ynamoqda. Umumta’lim maktablari va oliy ta’limda mazkur fanlarning o‘qitilishi kelajakda yetuk milliy kadrlar tayyorlashda o‘zining amaliy va fundamental ahamiyati va fuqarolik jamiyatini rivojlantirib borish jarayonida yoshlar ongida demokratik tamoyillar va dunyoqarashni shakllantirishda ahamiyati ortib bormoqda. Binobarin mamlakatimiz yoshlari ijtimoiy fanlarning ta’sirida ulkan ijodiy, intellektual, ijtimoiy-siyosiy salohiyatga ega ega bo‘lmoqda. Shu bois yoshlar deb atalgan ana shu kuch va salohiyatni yurt tinchligi, vatan taraqqiyoti va xalq farovonligi sari safarbar etishda ijtimoiy fanlarning o‘rni roli va nufuzi ortib boradi.

Yoshlar – jamiyatning tub negizi, aholining ilg‘or qatlami, kelajakning ishonchli egalari. Jahon hamjamiyatida o‘zining mustaqil maqomiga ega har qanday davlat yoshlarining bilim darajasi, dunyoqarashi, o‘y-fikri, ma’naviy qiyofasiga qarab o‘sha davlatning, jamiyatning nafaqat yaqin kelajagi balki uzoq muddatli taraqqiyotini aniq tasavvur etish mumkin. Shu ma’noda, yurtimizning har tomonlama taraqqiy etishi, yuksalishida ilm-fanning, xususan, ijtimoiy fanlarning roli beqiyos darajada kattadir. Hozirda, ijtimoiy fanlarni, tarix, etika, estetika, falsafa, dinshunoslik kabi fanlarni o‘qitishga innovatsion yondashish orqali u, pedagogik va psixologik jihatlari bilan uzviy bog‘lagan va unga innovatsion yondashgan holda ularni yanada takomillashtirib borish orqali ta’lim-tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlarida sifat o‘zgarishlariga erishishga erishilmoqda. Buning uchun esa, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglar, barcha fan o‘qituvchilarining intellektual salohiyatini zamonaviy talablar asosida oshirib borish, ularga innovatsion fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashish muhim ahamiyat kasb etadi

Xulosa qilib aytganda, ma’naviy-axloqiy bilimlarni egallagan talaba yoshlarda tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik, fidoyilik kabi fazilatlar shakllanadi. Bunday fazilatlarga ega bo‘lgan yoshlar odob-axloq me’yorlari talablarini ongli ravishda bajaradi, ma’naviy meros, urf-odat va an’analar kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlaydi. Talabalarda ma’naviy-axloqiy kompetentsiyani rivojlantirishda milliy qadriyatlar va milliy tarbiya asoslaridan foydalanish yo‘llari, ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari, oliy ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish va bo‘lajak mutaxassislarni nafaqat o‘z sohasining bilimdoni, balki axloqiy jihatdan tarbiyalashdan iboratdir.

O‘zbek xalqining ma’naviy-axloqiy sifatlari, milliy odat, an’ana va fazilatlar borki, ular boshqa xalqlarda yo‘qligidan tashqari, insoniyat ma’naviyatining nodir zarvaraqlari sifatida boshqalarda hayrat uyg‘otishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz (1-jild). – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Ashirmatova M.E. Ma’naviy-axloqiy tarbiya mohiyati va asosiy tushunchalari. “Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi: muammo va yechimlar” TMA konferensiya materiallari 2023 yil 6 may.
3. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent: “G‘ofur G‘ulom”, 2009. https://president.uz/uz/lists/view/4309
4. Sh.M.Mirziyoev “Jismoniy va barkamol yoshlar – bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir”. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining quriltoyida so‘zlagan nutq. 2017-yil 30-iyun. To‘la asarlar to‘plami 1-jild, - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.

TALABALARDA LIDERLIK KO‘NIKMALALARINI SHAKLLANTIRISH ORQALI IJTIMOIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH

D.K.Rafikova
FarDU Pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi p.f.b.f.d (PhD)
M.M.Muhammadqosimova
Pedagogika yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarning liderlik xususuyatlarini, qobiliyatlarini, rivojlantirishning ko‘plab ustuvor yo‘nalishlari hamda ta`lim - tarbiya jarayonida boshqaruvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish va jamiyatdagi ahamiyatini oshirishga yo‘naltirilgan muhim yondashuvlar, turli g‘oyalar shuningdek tarixiy tajribaga asoslangan tushunchalar bilan birgalikda yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining o‘rni va ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan

Аннотация: В данной статье на научной основе освещены многие приоритетные направления развития лидерских качеств, способностей, важные подходы к формированию управленческих навыков в образовательном процессе и повышению их значимости в обществе, различные идеи, а также концепции, основанные на историческом опыте, роли и значении лидерских качеств в повышении социальной активности молодежи

Annotation: In this article, many priority directions of development of leadership qualities, abilities, and important approaches to the formation of management skills in the education process and increasing their importance in society, various ideas, as well as concepts based on historical experience, the role and importance of leadership skills in increasing the social activity of young people are covered on a scientific basis.

Kalit so‘zlar: jamiyat, yoshlar, liderlik, boshqaruv, ko‘nikmalar, ijtimoiy, munosabat, aloqa, rivojlanish, talaba, strategiya, uzviylik, muammo, shaxs, yechim.

Ключевые слова: общество, молодежь, лидерство, управление, навыки, социальные, отношение, общение, развитие, студент, стратегия, последовательность, проблема, человек, решение.

Key words: society, youth, leadership, management, skills, social, attitude, communication, development, student, strategy, coherence, problem, person, solution

Insoniylik jamiyatining vujudga kelishi uning har bir a`zosida hamjihatlik, birdamlik, umuminsoniylik kabi tushunchalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ushbu tushunchalar kishining jamiyat bilan uzviy aloqada hayot kechirishi, shakllanishi va rivoj topishida muhim ahamiyat kasb etadi, Tarixga nazar tashlanganda turli xil allomalarning ijtimoiy tizim va uning boshqaruvi haqida ko‘plab fikrlar, nazariyalar mavjud. Bu borada Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asari alohida ahamiyatga ega. Unda jamiyat (“inson jamoasi”)ning kelib chiqishi haqida shunday yozadi: “Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki. u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj boladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bolish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug`iladi. Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bolgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko‘paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o‘rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi”[1].

Bizga ma’lumki, liderlik hech qanday kuch ishlatishga asoslanmagan hokimiyat sanaladi. Liderlar qachon qayerdan vujudga kelishini hech kim bilmaydi, lekin tashkilotlarda, maktablarda liderlar yuzaga kelishi bilan ishlar yurishib ketadi. Har qanday faoliyat natijasi samaradorligi oshadi. Ko‘zlangan maqsadga erishish yo‘li osonlashadi. Liderlik insondagi alohida shaxs, shu bilan birga guruhga ta`sir ko‘rsata olish qobiliyati bo‘lib, barchaning xatti-harakatlarini tashkilot sinf yoki yoxud jamiyat maqsadlariga erishishga yo‘naltiradi, ingilizcha lider “rahbar; “qo‘mondan»; “yo‘lboshchi; “yetakchi»[3] deb tarjima qilinadi.

Yetakchilik va boshqaruv haqida so‘z ketganda, buyuk tarixiy shaxs, o‘rta asrning yirik davlat arbobi, mohir sarkarda, kuchli va markazlashgan davlat asoschisi ilm fan va madaniyat homiysi Sohibqiron Amir Temur xususida alohida to‘xtalib o‘tish joiz. U odob axloq, iymon, e’tiqod, ta’lim, tarbiya sohasida yuksaklikka erishgan buyuk siymolardan biridir. Jahonga mashhur bo‘lgan “Temur tuzuklari”da buyuk jahongirning ibratli, hayotiy pandnasihatlari va purma’no o‘gitlarining teranligi, sarkarda hayotidagi har bir g‘alabaning siru asrorlari ta’irchanligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Bu asarni davlar boshqaruvida, yoshlarda liderlikka xos xislatlarni va boshqaruv mahoratini shakllantirishda beqiyos xazina, qo‘llanma deya olamiz. Amir Temur asarda haqiqiy boshqaruvchilik qobiliyati to‘g‘risida “Ishbilarmon lashkarboshi o‘zini va to‘qqiz sipohiy favjini bir tandek ko‘rib, ularni qo‘l-oyog‘i, boshi, ko‘kragi va boshqa a’zolarini ishlatib kurashuvchi bir pahlavondek hisoblasin”[2] - ded ta’kidlaydi.

Demak, har qanday lider shaxs o‘z kuchini qo‘l ostidagilarining qudratida deb bilmog‘i hamda jipslikni, hamjihatlikni hamisha ustun ko‘rmog‘i lozim quyidagi fikr esa sardorning xatosi butun bir jamoaga jiddiy ta’sir etishi to‘g‘risidadir. “Lashkar nazoratchisi sardorning jang vaqtida xato qilganini ko‘rsa, darhol uning o‘rniga boshqa sardorni o‘tirg‘izsin”[2]. Inson yetakchilik qilayotgan ekan, u qoidalar va chegaralarni belgilaydigan odam hisoblanadi. U yuzaga kelgan vaziyat uchun ma’lum bir tizim, qofiya va sabab yaratishi mumkin. Buni amalga oshirish uchun bunday shaxs o‘z fikrida qat’iy turishi kerak. Biroq diktatorlik inqilobni keltirib chiqarishi mumkinligini ham unutmaslik zarur. Qoidalarni tasdiqlashda mantiqiy va tushunuvchan bo‘lish lozim. Kishi lider bo‘lishi uchun o‘z qobiliyatlarini kashf etishi, ularni takomillashtirishi va ularning yaxshi maqsadlarda qo‘llashga e’tibor qaratish kerak. Har bir shaxsning iste’dodlari ko‘plab muammolarga yechim bo‘la oladi. Ehtiyojlar, yo‘nalishlar, ziddiyatlani to‘ldirish kerak bo‘lgan bo‘shliqlar va samarasizliklarni o‘rganish darkor. Yechimlar doimo ijodiy yoki zamonaviy bo‘lmasligi mumkin, ba’zida ularni oddiy narsalarda mujassamlashadi.

Shuningdek, inson liderlikka erishishga intilar ekan ko‘plab muammolarga ahamiyat bermasligi lozim. Lider inson qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim? Yetakchilikning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- ❖ mas’uliyatli va qiyin qarorlarni qabul qilish qobiliyati, ular uchun tegishli javobgarlikni o‘z zimmasiga olish istagi;
- ❖ shaxsiy manfaatlar uchun emas, balki odamlarning umumiy manfaatlari haqida qayg‘urish;
- ❖ odamlarni butunlay ixtiyoriy asosda boshqarish qobiliyati;
- ❖ xarizma va tabiiy ta'sir kuchiga ega bo‘lish;
- ❖ guruh tomonidan etakchiga bo‘lgan ishonch va kuchli hokimiyat mavjudligi;
- ❖ xatolarni tan olish qobiliyati va mag‘lubiyat uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish, bundan shaxsiy xatolarni qidirishn, liderning asosiy sohasi - bu shaxslararo munosabatlar, rahbar esa rasmiy munosabatlardir.

Ammo rahbarning ixtiyorida juda ko‘p tashqi ma'lumotlar mavjud, qonuniy sanksiyalarni qo‘llash mumkin, ya’ni u rasmiy shaxs. Ilmiy tilda guruhga kuchli va ta'sirchan ta’sir ko‘rsatadigan rasmiy rahbar, ya’ni uning ta'siri pozitsiyaga bog‘liq bo‘lsa, “bo‘ysunuvchilar” ga ta’sir qiladi. Norasmiy rahbar - bu kompaniyada egallagan joyidan qat’i nazar, yetakchilikni ta'minlaydigan shaxs. Uning harakatining mohiyati ijtimoiy bo‘lib, u “izdoshlariga” qaratilgan bo‘ladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlar shaxsda yillar mobaynidagi tajriba va tug‘ma iste’dod asosida shakllanib boradi. Ta’lim jarayonida yoshlarning liderlik xususiyatlarini rivojlantirishda nimalarga e’tibor qaratish zarur. Bu borada quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Xatarlarni (risklarni) o‘z zimmasiga olish va muvaffaqiyatsizliklardan hozirgi zamon va jamiyat talabi liderlik, boshqaruvchilik, yetakchilik qobiliyatiga ega bo‘lgan yoshlar qamrovini kengaytirishdan iboratdir. Bu jarayonda o‘smir o‘g‘il va qizlarning yetakchilik qobiliyatlarini o‘rganish hamda ularni zamonaviy va boshqaruv talablariga mos ravishda shakillantirish, barcha sohalarda ularning liderligini o‘g‘il bolalar bilan tenglash jamiyatning muhim siyosiy jihati.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish ularning shaxsiy munosabatlarga va jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shadi. Kelajak avlod liderlari o‘zlarining bilimlari va qobiliyatlari bilan jamiyatni ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlantirishga ko‘mak beradi. Shuning uchun talabalarga sifatli ta’lim berish amaliy tajribalar o‘tkazish va yetarlicha qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash muhim vazifa sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. — T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
2. Amur Temur Ko‘ragon Temur tuzliklari/Amur Temur Ko‘ragon.-T.:IJOD-PRESS nashriyoti, 2019.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –T. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2013.
4. D.K.Rafikova Oliy o‘quv yurtlarining o‘quv jarayonidagi pedagogik amaliyotning ahamiyati. FarDU ilmiy xabarlari №2-2023. B 121-123

PEDAGOGIKA VA TA’LIM OLISHNING ZAMONAVIY USULLARI-YOSHLARNI YETAKCHILLIK VA TADBIRKORLIKKA YO‘NALTIRISHNING TA'LIMIY JIHATLARI.

I.Qosimova

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida yoshlarda yetakchilik va tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning ta’limiy jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Innovatsion metodlar, xususan, kritikal fikrlash, loyiha asosida o‘qitish, STEAM yondashuvi, dizayn-o‘ylash va real muammolar asosida o‘qitish orqali talabalarda tashabbuskorlik, mas’uliyat hamda ijtimoiy faollikni shakllantirish imkoniyatlari ochib beriladi. Mazkur usullar yoshlarning faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko‘nikmalarni ham egallashida muhim vosita sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta’lim metodlari, pedagogika, yetakchilik, tadbirkorlik, innovatsion yondashuvlar, yoshlar salohiyati, STEAM, dizayn-o‘ylash.

На русском языке:

Аннотация: В статье всесторонне анализируются образовательные аспекты формирования лидерских и предпринимательских навыков у молодежи на основе современных педагогических подходов. Особое внимание уделяется инновационным методам, таким как критическое мышление, проектное обучение, STEAM-подход, дизайн-мышление и обучение на основе реальных проблем. Эти методы рассматриваются как эффективные инструменты для развития у студентов инициативности, ответственности и социальной активности наряду с практическими навыками.

Ключевые слова: современные методы обучения, педагогика, лидерство, предпринимательство, инновационные подходы, потенциал молодежи, STEAM, дизайн-мышление.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the educational dimensions of developing leadership and entrepreneurial competencies among youth through modern pedagogical approaches. It

emphasizes the effectiveness of innovative methods such as critical thinking, project-based learning, the STEAM approach, design thinking, and real-world problem-solving. These strategies are highlighted as vital tools not only for delivering theoretical knowledge but also for fostering initiative, responsibility, and practical skills in students.

Key words: modern teaching methods, pedagogy, leadership, entrepreneurship, innovative approaches, youth potential, STEAM, thinking.

Kirish: Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta’lim tizimi oldida yangi vazifalar paydo bo‘lmoqda. Yosh avlodni har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va tashabbuskor shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunning ustuvor vazifasiga aylangan. Ayniqsa, jamiyatda yetakchilik va tadbirkorlik kabi muhim fazilatlarni yoshlar ongida erta shakllantirish, ularni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish orqali ularga nafaqat bilim, balki hayotiy ko‘nikmalarni ham berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy pedagogika ta’lim jarayonini faqat bilim berish emas, balki shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy faollik va kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishga yo‘naltirishni ko‘zlaydi. Bu jarayonda interfaol metodlar, integratsiyalashgan fanlar yondashuvi (masalan, STEAM), loyihaviy o‘qitish, kritik fikrlash va dizayn-o‘ylash texnologiyalari muhim o‘rin tutadi. Bunday yondashuvlar orqali o‘quvchilarda real hayotda duch keladigan vaziyatlarni tahlil qilish, samarali qarorlar qabul qilish va jamoa bilan ishlash kabi ko‘nikmalar rivojlanadi.

Shu sababli, zamonaviy ta’lim metodlarini o‘quv jarayoniga keng tatbiq etish orqali nafaqat bilimli, balki tashabbuskor, liderlik salohiyatiga ega va tadbirkorlikka intiluvchi yoshlarni voyaga yetkazish mumkin. Ushbu maqolada ana shu maqsadni amalga oshirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning o‘rni va ularning ta’limiy ahamiyati tahlil etiladi.

Asosiy qism: Bugungi kunda chindan ham ta'lim sohasida innovatsion yondashuvlar jadal rivojlanmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.Zamonaviy pedagogika va an'anaviy ta'lim usullardan tashqari ,raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar, talabalarning mustaqil fikrlash qobilyatlarini asoslangan yondashuvlarni o‘z ichiga oladi Bundan tashqari ta'lim sifatini oshirish maqsadida o‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalarini joriy etish,yoshlarning bilimini mustaxkamlash uchun, oqish hamda amaliyot jarayonining mujassamligini ta'minlash,yangi zamonaviy laborotiya uskunalarini olib kelish,pedagoglarning tajribasini oshirish,o‘quv jarayoniga yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari,ilmiy markazlarning professorlarini jalb etish kabi namunaviy ishlar olib borilmoqda.Buning barchasi ta'lim jarayonining yangi sifat yangi bosqichga ko‘tarish uchun xizmat qiladi.Hozirda yangi yangi oliy oquv yurtlari, dunyodagi yetakchi universititetlarning filiallarini tashkil etilmoqda.Misol uchun so‘ngi yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'lim muassasalari jumladan xorijiy filiallar tashkil etilib oliy oquv yurtlari safi kengaymoqda.

Zamonaviy ta'lim usullari – bu o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan, an’anaviy yondashuvdan farqli, innovatsion metodlar yig‘indisidir. Hozirgi davrda ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun quyidagi asosiy usullar keng qo‘llanilmoqda:

1. Interaktiv metodlar: Bunday usullar o‘quvchilarning darsda faol ishtirok etishini ta’minlaydi. "Aqliy hujum", "Blits-so‘rov", "Klaster", "Insert", "Akvarium" kabi metodlar orqali o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga jalb etilishi kuchayadi.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish (AKT): Zamonaviy darslar interaktiv doskalar, kompyuter, planshet, internet orqali videodarslar, simulyatsiyalar bilan boyitilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

3. Loyihaviy metod: Talabalar yoki o‘quvchilar biror muammoni yechish uchun guruh bo‘lib loyihalar ustida ishlaydilar. Bu metod orqali ular hamkorlikda ishlash, mas’uliyatni bo‘lishish, tanqidiy fikrlash kabi ko‘nikmalarni egallaydilar.

4. STEAM ta’lim: STEAM – bu Science (fan), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san’at) va Mathematics (matematika) sohalarini birlashtirgan yondashuv bo‘lib, o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi.

5. Flipped classroom (teskari sinf): Bu modelda o‘quvchilar uyda mavzuni mustaqil o‘rganib kelib, darsda esa amaliy mashg‘ulotlar, muhokamalar, savol-javoblar orqali bilimlarini mustahkamlaydilar.

6. Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish): O‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini qo‘shish orqali o‘quvchilarni rag‘batlantirish, ularning motivatsiyasini oshirishga erishiladi.

Bu usullar nafaqat bilim berishni, balki o‘quvchilarni hayotga tayyorlash, ularning ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, bugungi ta’lim jarayoni faqatgina an’anaviy bilim berishga emas, balki shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish, yetakchilik va tadbirkorlikka yo‘naltirilgan kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilishi zarur. Innovatsion pedagogik yondashuvlar — tanqidiy fikrlash, loyiha asosida o‘qitish, STEAM, dizayn-o‘ylash va muammoli ta’lim usullari orqali yoshlar o‘z fikrini ochiq ifoda eta oluvchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan, kreativ yondashuvga ega bo‘lgan shaxslarga aylanishi mumkin. Yoshlarni zamonaviy talablarga mos holda yetishtirish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirokini ta’minlash, mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishlariga zamin yaratadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, pedagoglar zimmasiga nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyalovchi, yo‘naltiruvchi va ilhomlantiruvchi vazifalar yuklatiladi.

Demak, zamonaviy ta’lim metodlarini ta’lim jarayoniga samarali joriy etish orqali jamiyatimizga ijtimoiy mas’uliyatli, ilg‘or fikrlaydigan, yangiliklarga ochiq, yetakchi va tadbirkor yoshlarni tayyorlash mumkin. Bu esa mamlakat taraqqiyoti va barqaror rivojlanishining poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Косимов.Ш.К(2019).Ta'limda inavatsion yondashuvlar.Toshkent.Fan va texnologiya nashriyot.256 bet
2. Xodjayev .S. A.(2021)Zamonaviy pedagogik texnalogiyalar va ularning ta'lim jarayonlardagi o‘rni.Toshkent.321 bet
3. Mukhtddinov.A.H.(2020)interfaol metodlar yordamida ta'lim jarayonining optimallashtirish.Samarqand 198 bet.
4. Ergasheva.M.E.Masofaviy ta'lim istiqbollari.Samarqand.220bet
5. Zamonaviy ta'lim metodlari ha texnologiyalari(2022)Pedagogika inavatsiyalar jurnali.45-67 betlar.

МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР-ТАРБИЯНИНГ МУХИМ ОМИЛИ СИФАТИДА

М.А.Исомиддинова
Наманган давлат педагогика институти Педагогика назарияси ва тарихи
MPNT-BU-24 гуруҳ 1- босқич магистранти
А.Турғунбоева
илмий рахбар: психология фанлари бўйича фалсафа доктори PhD, доцент
Tel: +99894 434 45 06 Gmail : abdugafforovamaftuna2@gmail.com

Аннотатция: Мазкур мақолада ёшларнинг маънан етук қилиб тарбиялаш, уларни ватанга садоқатли қилиш, бундан ташқари, ўз миллий урф-одатларимизни ёшларга сингдириш масалалари кўриб чиқилади. Шарқона тарбиянинг асосий йўналишлари маҳаллада ўзининг, ёрқин ифодасини топгандир. Энг аввало, бола тарбияси оилада, мактабгача таълим муассасаларида, мактабда, маҳаллада жамоатчилик ҳамкорлигида шакллантирилади, одобу-ахлоққа ўргатилади. Асрлар мобайнида шаклланган ва ҳаётимиз мазмунига айланиб қолган инсоний фазилатлар инсон хаётида қанчалик муҳим рўл ўйнаши, ҳамда ҳалқимиз томонидан айтилган доно нақиллар қанчалик тўғри эканлиги келтирилган.

Калит сўзлар: миллий урф-одат, тарбия, ёш авлод, жамият, маҳалла, маърифат, одоб-ахлоқ.

Юртимизда таълим тизимида янги ислохатлар жараёнида туб ўзгаришлар давом этмоқда. Миллий қадриятларни тиклаш, миллий маънавиятни юксалтириш, айниқса, шарқона одоб-ахлоқ анъаналарига эътиборни кучайтириш шулар жумласидандир.

Шу ўринда айтишимиз лозимки, халқимиз маънавиятини юксалтиришда миллий урф-одатларимиз ва уларнинг замирида мужассам бўлган меҳр-оқибат, инсонни улуғлаш, тинч ва

осойишта ҳаёт, дўстлик ва тотувликни қадрлаш, турли муаммоларни биргалашиб ҳал қилиш каби ибратли қадриятлар тобора муҳим аҳамият касб этмоқда десак муболаға бўлмайди.

Олий таълим хамда умумий ўрта таълим тизимида тахсил олаётган ёшларнинг маънавий дунёсини бойитиш, уларни ватанга садоқат руҳида тарбиялаш, қолаверса, ўзлигимизга хос бўлган миллий урф-одатларни, маросимлар (ритуаллар)ни ёшларга сингдириш орқали маънавий жиҳатдан етук инсонни тарбиялаш, таълим-тарбия жараёнини такомиллаштириш, миллий уйғониш ғоясини рўёбга чиқарадиган янги авлодни вояга етказиш шу куннинг долзарб масалаларидан биридир.

Шарқона тарбиянинг асосий йўналишлари Сда ўзининг, ёркин ифодасини топгандир. Энг аввало, бола тарбияси оилада, мактабгача таълим муассасаларида, мактабда, маҳаллада жамоатчилик ҳамкорлигида шакллантирилади, одобу -ахлоққа ўргатилади. Шунинг учун ҳам "Бир болага етти маҳалла тарбиячи" деган нақл узоқ йиллар мобайнида яшаб келади. "Маҳалла, таъбир жоиз бўлса, кишилик жамиятида алоҳида тарбиявий аҳамиятга молик бўлган ўзига хос маскандир. Бу ноёб тажриба аҳолининг маҳалла бўлиб яшаш тарзи жаҳоннинг бошқа мамлакатларида кам учрайди. Шунинг учун ҳам инсонни жамият билан бирга яшашга ўргатадиган, шу рухда тарбиялайдиган бирламчи ва беқиёс макон — бу маҳалладар" деган фикрлар бежизга айтилмаган.

Асрлар мобайнида шаклланган ва ҳаётимиз мазмунига айланиб қолган инсоний фазилатлардан бири бўлган қаноатлилик, сабр-тоқатлилик ҳам алоҳида қийматга эгадир. "Сабр қилсанг, ғўрадан ҳалво битади" деган нақл ҳам бежиз айтилмаганлиги ҳаммага аёндир. Қаноатли одам - одамларнинг яхшисидир, қаноатли одам бойларнинг бойидир, деган фикрлар ҳам алоҳида аҳамиятга моликдир. "Ҳайрат ул Аброр"да кўрсатилишича, "Қаноат инсонни бой қилада, ҳақиқий бойлик қаноат гўшасидир, қаноат олтини ҳеч қачон йўқолмайди, кулбада қаноат қилиб ўтирган дарвеш таъмагир подшоҳдан афзалдир". Халқимизга хос асосий фазилатлардан бири хайр-эҳсон қилиш ва саховатли бўлшидан иборатдир. Инсоннинг энг гўзал фазилати бўлган саҳийликни ҳеч қандай монеликсиз амалга ошириш давр талаби бўлиб қолди. Саҳийликни бажариб келган инсон савобли ишларни ҳам кўплаб амалга оширади. "Савобли ишни ҳар ким ва ҳар куни қилиши керак" деган ҳаёт нормаси ҳам ўз яшовчанлигини кўрсатиб келмоқда. Лекин саҳийликни кўрсатиш ишларини ҳам ўз меъёри борлигини,қилаётган ишларимиз кўз-кўз қабилида бўлмаслигини унутмаслигимиз зарур. Маҳалла-кўй, қўни-қўшнилар ўртасида қадимдан сақланиб келаётган анъаналардан саҳийлик нормаларини ўрганиб олишимиз шарт. А.Навоий бобомизнинг фикрлари билан айтганда, "Ким саҳийлик қилишга ҳақли экан, ном чиқариш учун гавҳарни, ҳовучлаб сочиш, мақтаниш учун этаклаб гул бериш ақлли ишдан узоқ".

Мустақиллик йилларидан мамлакатимизда маънавий иқлим соғайди, умуминсоний қадриятларга интилиш кайфияти ривожланди. Маънавиятимизни янги мазмун билан бойитишга хизмат қилаётган иймону –ахлоқий одоб, халқимиз соддагина қилиб "ўзбекчилик" деб атайдиган меҳру-оқибат, ўзаро ёрдам ва ҳурмат, ўзгаларнинг дардига ҳамдард бўлиш каби олийжаноб фазилатлар қарор топиб, қалбимиздан мустаҳкам жой олиб келаётгани айни ҳақиқатдир. Ўзбекчилик бу миллатчилик деган маънони билдирмайди. У одамни ҳурмат қилиш, унинг ишларини қўллаб-қувватлаш, хизматини эътироф этишдир.

Доно халқимиз қадим замонлардан бери илм-маърифатга интилувчилиги, маърифатсеварлиги билан ажралиб туради. Бундай ғоя муқаддас "Авесто"дан тортиб Қуръони Каримнинг нозил бўлишигача даврда шаклланган ва бу соҳада аниқ вазифалар белгилаб олинган эди. Маърифатга ошно аждодларимиз, то буюк алломаларимизгача ана шу даврдан бошлаб маърифатпарварлик, илмсеварлик фаолиятини авж олдириб юборди. Уларнинг қуйидаги хикматли фикрлари ҳамма учун дастур амал бўлиб хизмат қилади: "Илмни эгалланг. Илм саҳрода — дўст, ҳаёт йўлларида — таянч, ёлғизликда - йўлдош, бахтиёр дақиқаларда раҳбар, қайғули онларда - мададкор, одамлар орасида зеб-зийнат, душманларга қарши курашда – қуролдир.

Илм-фаннинг турли сохалари миқёсида ривожланиб келганлиги, минглаб маърифатли мутаффакиру, закий аждодларимиз ўзининг нодир илми-заковати билан дунёни забт этганлигини фахр билан эслаш қувончлидир. Шу ўринда Биринчи президентимизнинг ушбу қимматли

фикрларини келтириб ўтиш мақсадга мувофиқдир: "Илму фанда ҳам ҳақиқий олим бўлиш учун кишига Яратганнинг ўзи назар қилган бўлиши керак".

Хулоса қилиб айтганда, етишиб келаётган ёш авлод билан илму-маърифат тизимини самарали ташкил этиш бу борада бирмунча самарадорлик жихатлари билан фикримиз далили бўла олади. Етук инсон фазилатларидан бўлган чуқур илмий дунёқарашга эга бўлиш, унга эришмоқ учун кўп уқиш ва ўрганиш, билмаганларини билиб бормоғи афзалдир. Илмнинг чегараси йўқлиги ҳақидаги қимматли ғоялар қадимдан юртимиз донишлари томонидан ёзиб қолдирилган. Буюкларимиздан Абу Али ибн Сино "Жаҳонда қолмади мен билмаган фан, на мушкул бўлса ечдим дониш билан" деб ёзиш билан бирга "Илмим шу даражага етиб бордики, илмсизлигимни энди тушуниб етдим" дейиш билан мағрурланишдан ўзини сақлаб қолди. Бугун ўз илмий дунёқарашини оширмоқ йўлига кирган ҳар бир йигит-қиз илм олишда сабр-тоқатли бўлиши, устозларининг бераётган сабоқларини қунт билан эгаллаб олиши, уларга муносиб издош бўлишга интилиши керак.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – T.: O’qituvchi, 1992. – 160 b.
2. Жабборов И.М. Ўзбек халқи этнографияси. – Т.: «Ўқитувчи», 1994.– 320-б. 3.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012y. Махмудов И. Бошкарув психологиуаси. - T.: “Yunaks – Print”, 2006. – 230 б.
4. Akramova F., Xonqulova N. Mustahkam oila – mahalla tayanchi T.: A.Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 47-52 b.

TA’LIM TIZIMIDA AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY TUZILMASI.

S.Q.Inadullayeva
Termiz davlat Pedagogika instituti Maktabgacha ta’limda tarbiyani tashkil etish kafedrasi o‘qituvchisi
sinadullayeva@gmail.com +998957998787

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim tizimida pedagoglarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish va bu jarayonda sun’iy intellektning ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, sun’iy intellekt, axborotlar bilan ishlash, yangi savodxonlik, idrok, layoqad, axborot xavfsizligi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor bo‘lib, o‘quvchilarda asosiy kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda [1] . Shular qatorida axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi (axborot kompetensiyasi) muhim o‘rin tutadi. Mazkur kompetensiya mohiyatan o‘quvchi (yoki o‘qituvchi)ning axborotni topish, tahlil qilish va undan foydalana olish qobiliyatlarini ifodalaydi. Masalan, M.Sh. Quronboyeva ta’rifiga ko‘ra, *“axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi — mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalanishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi*”[2]. Demak, axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi tarkiban quyidagi malaka va layoqatlarni o‘z ichiga oladi: axborotni izlash, saralash va qayta ishlash; axborotni saqlash va xavfsiz ishlata bilish; axborotdan samarali foydalanish hamda media madaniyatga ega bo‘lish.

Ilmiy adabiyotlarda ushbu kompetensiya mazmuni va tuzilmasini turlicha izohlovchi yondashuvlar mavjud. Xususan, rus olimi O.B. Zaytsev axborot bilan ishlash kompetensiyasini “murakkab individual-psixologik tuzilma, ya’ni nazariy bilimlar, innovatsion texnologiyalar sohasidagi amaliy ko‘nikmalar va shaxsiy fazilatlarning ma’lum bir majmuasining integratsiyasi” deb ta’riflagan[3] . Boshqa bir tadqiqotchi A.L. Semyonov esa bu kompetensiyani “yangi savodxonlik” deb atab, uning negizini shaxs tomonidan texnologik vositalar yordamida axborotni faol va mustaqil ravishda qayta ishlash, kutilmagan vaziyatlarda yangicha yechimlar qabul qila olish ko‘nikmalari tashkil etishini ta’kidlaydi [4]. Shuningdek, S.V. Trishina kabi olimlar axborot kompetensiyasini mustaqil pedagogik kategoriya sifatida o‘rgangan bo‘lib, uning tarkibiy jihatlarini aniqlashtirgan [5]. Turli mualliflar talqinini tahlil qilganda, umumiy xulosa qilish mumkinki, axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi axborotni izlab topishdan boshlab uni tanqidiy tahlil

qilish, qayta ishlash va amaliyotga joriy etishgacha bo‘lgan jarayonlarni o‘z ichiga oladigan ko‘p qirrali integrativ kompetensiyadir. Bunda shaxsning texnologik savodxonligi, axborot madaniyati va axborot xavfsizligi bo‘yicha bilim-ko‘nikmalari birikmasi namoyon bo‘ladi [6].

Ta’kidlash joizki, axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi nafaqat o‘quvchilar, balki bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ham zarur kasbiy sifat hisoblanadi. Zero, zamonaviy pedagog o‘zining kasbiy faoliyatida ulkan axborot oqimi bilan ishlaydi va talabalarga ham axborot madaniyatini o‘rgatishi lozim. Shu bois, pedagog kadrlar tayyorgarligida axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, pedagogik ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va media resurslardan foydalangan holda talabalarga bilim berish ularni kelgusida olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llay olishga xizmat qiladi [7]. Demak, bo‘lajak o‘qituvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish – ularning professional tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim paradigmasida pedagog kadrlar tayyorlashning muhim yo‘nalishlaridan biri talabalarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish hisoblanadi. Ushbu kompetensiya nafaqat axborotni izlash va qayta ishlash ko‘nikmalarini, balki axborot manbalarini tanqidiy baholash, tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Bu jarayon zamonaviy jamiyatning tezkor axborot almashinuviga xos bo‘lgan talablariga javob berishga qaratilgan bo‘lib, talabalarni axborot muhitida mustaqil va malakali faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Tadqiqotchi Ye.V. Ivanova o‘z ishlarida axborot kompetensiyasini shaxsning o‘z ehtiyojlariga mos ravishda axborotni samarali izlash, tanlash, baholash, tahlil qilish, qayta ishlash va uzatish qobiliyati sifatida ta’riflaydi [8,53-b]. Uning yondashuviga ko‘ra, axborot kompetensiyasi talabaning nafaqat texnik ko‘nikmalariga, balki tanqidiy fikrlash, axborotning ishonchliligi va dolzarbligini aniqlash, shuningdek, uni maqsadli tarzda qo‘llash qobiliyatlariga ham asoslanadi. Bu jarayon pedagogik ta’limda talabalarni axborot jamiyatining murakkab sharoitlariga moslashishga va professional faoliyatlarida axborot resurslaridan samarali foydalanishga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot kompetensiyasini shakllantirish jarayoni bir qator muhim vazifalarni o‘z ichiga oladi. Birinchidan, talabalarda axborotni izlash strategiyalarini shakllantirish zarur bo‘lib, bunda turli axborot platformalari, ma’lumotlar bazalari va ilmiy resurslardan foydalanish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Ikkinchidan, axborot manbalarining ishonchliligi, ob’ektivligi va ilmiy asoslanganligini baholash qobiliyati ustida ishlash lozim. Bu jarayonda talabalarga manbalar muallifining malakasi, nashr sifati va axborotning dolzarbligini tahlil qilish o‘rgatiladi. Uchinchidan, axborotni tahlil qilish va sintez qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi, bu esa talabalarga katta hajmdagi ma’lumotlarni tartibga solish, ulardan xulosa chiqarish va o‘z faoliyatlarida qo‘llash imkonini beradi. Nihoyat, axborotni boshqalarga yetkazish, ya’ni uni tushunarli va asosli shaklda taqdim etish qobiliyati ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’lim muhitida axborot kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishni ham talab qiladi. Bu jarayonda interfaol ta’lim usullari, loyihaviy faoliyat, muammoli vazifalar va real hayotiy holatlarni tahlil qilish kabi yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi. Masalan, talabalarga axborotni turli manbalardan yig‘ish, ularni solishtirish va ulardan pedagogik masalalarni hal qilishda foydalanish vazifalari berilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. https://www.intereuroconf.com/index.php/PPFIIR/article/download/2861/2206/2194#:~:text=Bugungi%20kun%20ta,kommunikatsiya%20texnologiyalaridan%20o%E2%80%98z%20faoliyatida
2. https://cyberleninka.ru/article/n/oquvchilarning-axborotlar-bilan-ishlash-kompetensiyasini-rivojlantirishda-qo-llaniladigam-vositalar#:~:text=Axborotlar%20bilan%20ishlash%20kompetensiyasi%20%E2%80%94,Bulardan%20eng
3. https://www.intereuroconf.com/index.php/PPFIIR/article/download/2861/2206/2194#:~:text=Axborot%20bilan%20ishlash%20kompetensiyasi%20tushunchasi,qarorlar%20qabul%20qilish%20ko%27nikmalarini%20o%27z
4. https://www.intereuroconf.com/index.php/PPFIIR/article/download/2861/2206/2194#:~:text=asoslangan%20psixologik%20ta%27lim,deyilgan
5. https://www.intereuroconf.com/index.php/PPFIIR/article/download/2861/2206/2194#:~:text=Axborot%20bilan%20ishlash%20kompetensiyasi%20tushunchasi,qarorlar%20qabul%20qilish%20ko%27nikmalarini%20o%27z

6. https://www.intereuroconf.com/index.php/PPFIIR/article/download/2861/2206/2194#:~:text=Axborot%20bilan%20ishlash%20kompetensiyasi%20tushunchasi,qarorlar%20qabul%20qilish%20ko%27nikmalarini%20o%27z
7. https://www.intereuroconf.com/index.php/PPFIIR/article/download/2861/2206/2194#:~:text=Bugungi%20kun%20ta,kommunikatsiya%20texnologiyalaridan%20o%E2%80%98z%20faoliyatida
8. Ivanova Ye.V., "Formirovaniye informatsionnoy kompetentnosti studentov pedagogicheskikh spetsialnostey", Moskva, “Vlados”, 53-bet, 178 b.

YOSHLARNI IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA LIDERLIK KO‘NIKMALARINING TRANSFORMATSION TA’SIRI

B.O.Ergashev
Namangan davlat pedagogika instituti tyutori
G.Y.Ziyatova
Namangan davlat pedagogika instituti tyutori

Anotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining transformatsion ta'siri tahlil qilingan. Zamonaviy jamiyatda yoshlar ijtimoiy hayotning faol ishtirokchisi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada transformatsion liderlikning nazariy asoslari ko‘rib chiqilgan, yoshlar liderligi rivojidagi zamonaviy tendensiyalar aniqlangan, transformatsion liderlik ko‘nikmalarini shakllantirish va ularning jamiyatga ta'siri metodlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Transformatsion liderlik, yoshlar faolligi, ijtimoiy faollik, liderlik ko‘nikmalari, ijtimoiy transformatsiya, innovatsion rivojlanish, mentorlik, yoshlar siyosati.

Kirish. Bugungi kunda global miqyosda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar sharoitida jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda yoshlar alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston aholisining salmoqli qismini yoshlar tashkil etishi[^1] mamlakatimizda yoshlar siyosatini samarali amalga oshirish, ularning salohiyatidan unumli foydalanish masalalarini dolzarb qilib qo‘ymoqda. Shu bilan birga, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Transformatsion liderlik nazariyasi zamonaviy boshqaruv tizimida keng qo‘llaniladigan yondashuvlardan biri bo‘lib, u shaxsni rivojlantirish, uning qobiliyatlarini ochish va jamoa faoliyatini samarali yo‘naltirishga qaratilgan[^2]. Transformatsion liderlik ko‘nikmalari yoshlarda shakllanganda, ular nafaqat o‘z salohiyatlarini to‘liq namoyon etadilar, balki atrofdagilarni ham ijobiy o‘zgarishlarga yo‘naltira oladilar. Bu esa o‘z navbatida, butun jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining transformatsion ta'siri o‘rganiladi. Transformatsion liderlik nazariyasining asosiy tamoyillari, uning yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi ahamiyati hamda amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Transformatsion liderlikning nazariy asoslari. Transformatsion liderlik tushunchasi ilk bor 1978 yilda Jeyms Makgregor Byorns tomonidan kiritilgan bo‘lib, keyinchalik Bernard Bass tomonidan rivojlantirilgan[^3]. Transformatsion liderlik - bu odamlarni o‘z-o‘zidan ortiqcha harakat qilishga undaydigan, ularning qadriyatlari va motivlarini o‘zgartira oladigan, jamoa maqsadlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yadigan liderlik usulidir.

Transformatsion liderning asosiy vazifasi - odamlarni o‘zgartirish, ularning dunyoqarashi, qadriyatlari va motivlarini ko‘tarilishiga yordam berish orqali nafaqat tashkiliy maqsadlarga erishish, balki jamoa a'zolarining o‘zini o‘zi rivojlantirish jarayonini ham qo‘llab-quvvatlashdir.

Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda transformatsion liderlikning roli. Yoshlar ijtimoiy faolligi deganda, ularning jamiyat hayotida ongli va maqsadli ishtirok etishi, ijtimoiy muammolarni hal qilishda faol pozitsiyani egallashi tushuniladi[^5]. Bunday faollik turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin: volontyorlik harakatlari, ijtimoiy loyihalar, turli jamoat tashkilotlarida ishtirok etish, fuqarolik tashabbuslari va boshqalar.

Transformatsion liderlik yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda quyidagi jihatlari bilan muhim rol o‘ynaydi:

1. Ijtimoiy o‘zgarishlarga motivatsiya yaratish

Transformatsion liderlar atrofdagilarga ijtimoiy o‘zgarishlarning ahamiyatini tushuntira oladilar, ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga ilhomlantiradilar. Yoshlarga jamiyatda o‘z o‘rnini topishga va foydali ishlar qilishga undaydigan motivatsion muhitni shakllantiradilar. Transformatsion liderlar yangi g‘oyalar va yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlaydilar, bu esa yoshlarga o‘z innovatsion loyihalarini amalga oshirishda, ijtimoiy muammolarga yangicha yechimlar topishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy jamiyatda yoshlar tomonidan taklif qilinayotgan ijtimoiy startaplar, ijtimoiy tadbirkorlik loyihalari aynan transformatsion liderlik muhitida samarali rivojlanmoqda[^7].

3. Qadriyatlar tizimini shakllantirish

Transformatsion liderlik yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat, jamoa manfaatlarini yuqori qo‘yish, adolat, insonparvarlik kabi qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Bu qadriyatlar esa, o‘z navbatida, ularning ijtimoiy faolligini belgilaydi. O‘zbekistonda o‘tkazilgan "Yoshlar qadriyatlari" tadqiqoti natijalariga ko‘ra, transformatsion liderlik tamoyillari asosida tarbiyalangan yoshlar o‘rtasida ijtimoiy mas'uliyat hissi sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlangan[^8].

Transformatsion liderlik ko‘nikmalarini yoshlarda shakllantirish usullari. Yoshlarda transformatsion liderlik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun quyidagi usul va yondashuvlar samarali hisoblanadi:

1. Mentorlik va kouching

Tajribali transformatsion liderlar bilan ishlash, ularning tajribasini o‘rganish orqali yoshlar zarur ko‘nikmalarni egallaydilar. Mentorlik va kouching dasturlari yoshlarga o‘z liderlik salohiyatini ochishga, amaliy ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi.

O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan "Kelajak liderlari" dasturi doirasida tajribali mentorlar yosh liderlarga ko‘maklashmoqda. Dastur natijalariga ko‘ra, bir yil davomida muntazam mentorlik olgan yoshlarning 85 foizi o‘z liderlik ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirganini qayd etgan[^10].

2. Amaliy loyihalarda ishtirok etish

Yoshlar turli loyihalar va tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish jarayonida amaliy liderlik ko‘nikmalarini egallaydilar. Bu o‘z-o‘zini rivojlantirish va takrorlash orqali o‘rganishning eng samarali usulidir.

Buxoro viloyatida "Yosh liderlar maktabi" doirasida amalga oshirilgan "Ijtimoiy loyihalarni boshqarish" dasturida ishtirok etgan yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, amaliy loyihalarda ishtirok etgan yoshlarning 76 foizi o‘zlarini transformatsion lider sifatida ko‘ra boshlaganlar[^11].

3. Maxsus treninglar va ta'lim dasturlari

Liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus treninglar, seminarlar va ta'lim dasturlari orqali yoshlar nazariy bilimlarni egallaydilar va amaliy mashg‘ulotlarda bu bilimlarni mustahkamlaydilar.

2023 yilda O‘zbekiston yosh liderlari uchun ishlab chiqilgan "Transformatsion liderlik asoslari" o‘quv dasturi respublikaning 12 oliy ta'lim muassasasida joriy etildi. Dastur yakunida o‘tkazilgan baholash natijalariga ko‘ra, ishtirokchilarning 82 foizi transformatsion liderlikning asosiy tamoyillarini to‘liq o‘zlashtirgani va amaliyotda qo‘llay olishi aniqlangan[^12].

4. O‘z-o‘zini rivojlantirish va refleksiya

Transformatsion lider bo‘lish uzluksiz o‘z ustida ishlashni, o‘z harakatlarini tahlil qilishni va zarur hollarda o‘zgartirish kiritishni talab etadi. Yoshlarda o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

"Yoshlar rivojlanish indeksi" doirasida o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, muntazam ravishda o‘z faoliyatini tahlil qilib boruvchi va refleksiya qiluvchi yoshlar liderlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha 38 foizga yuqori natijalarni ko‘rsatganlar[^13].

Muammolar va istiqbollar. O‘zbekistonda yoshlar liderligini rivojlantirish bo‘yicha erishilgan yutuqlarga qaramasdan, bu sohada hali bir qator muammolar mavjud:

1. Ta'lim tizimida liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish dasturlarining etishmasligi. Ta'lim muassasalarida liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus dasturlar kam, bu esa yoshlarga o‘z liderlik salohiyatini to‘liq ochish imkoniyatini bermaydi.

2. Mintaqaviy nomutanosiblik. Yoshlar liderligini rivojlantirish dasturlari aksariyat hollarda poytaxt va yirik shaharlarda amalga oshiriladi, chekka hududlardagi yoshlar esa bunday imkoniyatlardan kamroq foydalanadilar.

3. Yoshlar tashkilotlari o‘rtasida samarali hamkorlikning etishmasligi. Turli yoshlar tashkilotlari o‘rtasida koordinatsiya va hamkorlik yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan, bu esa resurslarning samarali taqsimlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Ushbu muammolarni hal qilish va yoshlar liderligini yanada rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlar taklif etiladi:

1. Ta'lim tizimiga liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish dasturlarini joriy etish. Umumiy o‘rta ta'lim, o‘rta maxsus ta'lim va oliy ta'lim muassasalarida transformatsion liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus dasturlarni joriy etish.

2. Mintaqaviy dasturlarni kuchaytirish. Chekka hududlardagi yoshlarning liderlik salohiyatini rivojlantirish uchun maxsus dasturlar va loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

3. Yoshlar tashkilotlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish. Turli yoshlar tashkilotlari o‘rtasida samarali hamkorlik va koordinatsiyani yo‘lga qo‘yish, tajriba almashish platformalarini yaratish.

Xulosa. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda transformatsion liderlik ko‘nikmalarining ahamiyati beqiyosdir. Transformatsion liderlik nazariyasi yoshlarga nafaqat o‘z salohiyatlarini to‘liq ochish, balki atrofdagilarni ham ijobiy o‘zgarishlarga undash imkoniyatini beradi. Bu esa o‘z navbatida, butun jamiyatning rivojlanishiga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda yoshlar liderligini rivojlantirish bo‘yicha so‘nggi yillarda katta ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, bu sohada hali bir qator muammolar mavjud. Ta'lim tizimiga liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish dasturlarini joriy etish, mintaqaviy dasturlarni kuchaytirish, yoshlar tashkilotlari o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mentorlik tizimini rivojlantirish – bularning barchasi yoshlarning liderlik salohiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Transformatsion liderlik ko‘nikmalarining yoshlarda shakllanishi nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki butun jamiyatning barqaror taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlarni yanada kuchaytirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. "Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2016.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan takomillashtirish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni, 2021.

3. Bass, B.M. va Riggio, R.E. "Transformational Leadership" (2nd ed.). Lawrence Erlbaum Associates, 2006.

4. Burns, J.M. "Leadership". Harper & Row, 1978.

5. Goleman, D. "Emotional Intelligence and Leadership". Harvard Business Review Press, 2019.

6. Isaeva, M.N. "Zamonaviy sharoitda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish omillari". "Ta'lim va jamiyat" jurnali, №3, 2022. 56-63 betlar.

7. Karimov, S.A. "O‘zbekistonda yoshlar siyosati: yutuqlar va istiqbollar". "Ijtimoiy siyosat" jurnali, №2, 2023. 78-85 betlar.

8. Matchonov, B.B. "Transformatsion liderlik nazariyasi va amaliyoti". "Menejment va boshqaruv" jurnali, №4, 2021. 112-119 betlar.

9. Norbekov, D.E. "Yoshlar liderligini rivojlantirish: xalqaro tajriba". "Xalqaro munosabatlar" jurnali, №1, 2022. 45-52 betlar.

10. Ochilov, T.T. "Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning zamonaviy usullari". "Sotsiologiya va jamiyat" jurnali, №2, 2023. 34-42 betlar.

11. "O‘zbekiston yoshlari: statistik ma'lumotlar to‘plami". O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2023.

12. Rahimov, Z.O. "Transformatsion liderlik va uning yoshlar rivojlanishidagi o‘rni". "Zamonaviy ta'lim" jurnali, №5, 2022. 78-85 betlar.

TANQIDIY FIKRLASHNING O’ZLASHTIRISH VA MUSTAQIL FIKRLASHDAGI AHAMIYATI

G.Tajiboyeva
NamDPI katta o’qituvchisi, PhD.
M.Ergashaliyeva.
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi.

Annotasiya: Ushbu maqolada tanqidiy fikrlashning o‘quvchilar bilimini o‘zlashtirish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif zamonaviy ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali yoshlarni murakkab ijtimoiy va mafkuraviy muammolarga to‘g‘ri baho bera oladigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan yetuk shaxs sifatida tarbiyalashning dolzarbligini asoslaydi. “Tarbiya” fanining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy tafakkurni shakllantirishdagi imkoniyatlari, pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar orqali bu jarayonni samarali tashkil etish yo‘llari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Tanqidiy fikrlash, mustaqil tafakkur, boshlang‘ich ta’lim, “Tarbiya” fani, o‘quvchi shaxsi, ijtimoiy tafakkur, innovatsion texnologiyalar, pedagogik yondashuv, mantiqiy fikrlash, tafakkur rivoji.

Bugungi murakkab va globallashuv sharoitida dunyoda ro’y berayotgan voqyea-hodisalarni chuqur idrok etish, ularning mazmun mohiyatini anglab yetish uchun inson yuksak darajada mustaqil fikrlash madaniyatiga ega bo’lishi talab etilmoqda. Chunki yon-atrofimizda ro’y berayotgan voqyeliklar, hodisalarni chuqur idrok etish, ularning mazmun mohiyatiga yetish uchun mustaqil fikrlay olish zarur.

Fikrlash inson tafakkurida sodir bo’ladigan jarayon bo’lib, u aqliy faoliyatning, ongli xatti-harakatning mahsulidir. Mustaqil fikrlash shaxs yetukligining asosiy ko’rsatkichlaridan biri sanaladi va ta’lim jarayoni o’quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi. Mustaqil fikrlash orqali inson narsa va hodisalarga, voqyelikka ijodiy, mantiqiy, tanqidiy jihatdan yondashadi va unga o’z munosabatini ifodalaydi.

O’quvchi-yoshlar tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to’g’ri baho bera olish, ijtimoiy muammolarni hal etishda to’g’ri qaror qabul qilish, hayotda o’z o’rnini topish bilan bog’liq bo’lgan aniq maqsadlarni shakllantira olishga o’rgatish masalasining dolzarbligi «Umumiy o’rta ta’lim muassasalari o’quvchilari uchun «Tarbiya» fani Konsepsiyasi»ning qabul qilinishi uchun asos bo’ldi.

«Tarbiya» fani bo’yicha umumiy o’rta ta’lim muassasalari o’quvchilariga qo’yiladigan malaka talablarida boshlang’ich sinf o’quvchilari A2-standart darajalari bo’yicha tarbiya kompetensiyalari belgilab berildi. Malaka talablarida o’quvchining «tanqidiy tafakkurga ega bo’lishi» tarbiya kompetensiyasi sifatida ko’rsatib o’tilgan.

Tanqidiy fikrlash - bilimni o’zlashtirish va mustaqil fikrlashning yuqori darajadagi tarkibiy qismi bo’lib, shaxsning voqyea, hodisa, borliqni obyektiv idrok etish imkoniyatini kengaytiruvchi aqliy hodisadir. Boshlang’ich sinf o’quvchilarini tanqidiy fikrlashga o’rgatish orqali o’zlashtirilgan bilimlardan samarali foydalanish, atrofdagi voqyea-hodisalarni baholay olish, mas’uliyatlilik va o’zaro fikr almashish, muloqot qilish, o’zgalar fikrini tinglash, unga munosabat bildirish ko’nikmasi shakllanadi. Natijada tanqidiy fikrlash o’quvchida o’ziga ishonchni mustahkamlaydi, faollik va tashabbus ko’rsatishni, o’zi va boshqalar fikrini hurmat qilishni tarbiyalaydi.

Pedagogik adabiyotlarda tanqidiy fikrlashning quyidagi elementlari tavsiflanadi:

- tanqidiy fikrlash – bu mustaqil fikrlashdir;
- axborot – tanqidiy fikrlashning boshlanishidir;
- tanqidiy fikrlash savolning qo’yilishi va hal qilinishi zarur bo’lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi;
- tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi;
- tanqidiy fikrlash – ijtimoiy fikrlashdir.

Ijtimoiy tanqidiy tafakkur – bu insonning jamiyat bilan o’zaro ta’siri, ijtimoiy voqyelik haqidagi qarash va jamiyat g’oyasini qayta aniqlashga tayyorlikni o’z ichiga olgan ijtimoiy voqyelikning dizayni

shuningdek, ijtimoiy tanqidiy tafakkur – bu ijtimoiy haqiqatni anglash qobiliyati va mavjud vaziyatdan chiqish yo’lini ko’rish, muhim hayotiy masalalarda asosli qarorlar qabul qilish.

Tanqidiy fikrlashda g’oyalar va ularning ahamiyati ko’pfikrlilik nuqtai-nazaridan ko’rib chiqiladi hamda ular boshqa g’oyalar bilan taqqoslanadi. Bu fikrlashning eng yuqori darajasi aqliy faoliyat bo’lib, unda tahlil, taqqoslash, izohlash, qo’llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e’tibor beriladi

Kichik maktab yoshi davri anglanilgan va ixtiyoriy va mustaqil hatti-harakatlarga o’tish davri sifatida tavsiflanadi. O’quvchilar faollik bilan o’zini o’zi boshqarishga, qo’yilgan talab va maqsadlarga muvofiq o’zining faoliyatini tashkil etishga o’rganish va moslashishni boshdan kechiradilar. Kichik maktab yoshi davrida xatti-harakatlarning yangi shakllarini paydo bo’lishi bevosita o’quv faoliyati bilan bog’liqdir.

Bu davrda bolalar ruhiy taraqqiyotining me’yorida ekanligi, ularning o’quv-bilish faolligida tafakkurning ham rivojlanishini ko’rish mumkin. Maktabda fan asoslari doirasida ta’lim jarayonida beriladigan bilim, ko’nikma va malakalar bolalar tafakkurining rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bilimlarni tizimli va izchil o’zlashtirish jarayonida idrok, xotira, hayol, tasavvur o’sib borishi bilan o’quvchilar tafakkuri o’sishiga turtki bo’ladigan materiallar doirasi kengaya boradi, natijada bolalarda mantiqiy tafakkur va tanqidiy fikrlash rivojlanib boradi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun o’qituvchi bola tafakkurining rivojlanish jarayoni va uning qonuniyatlarini yaxshi bilishlari lozim. Fikr yuritish operasiyalarining psixologik asoslari va mexanizmlarini bilmasdan turib, u bularni o’quvchilar ongiga singdira olishi mumkin emas.

Tafakkur boshqa bilish jarayonlariga nisbatan voqyelikni aniq, to’la va real aks ettiruvchi yuksak bilish jarayoni sanaladi. Tafakkur bolada uning umumiy taraqqiyoti bilan bilish faoliyatining, shu bilan birga ijtimoiy muhitning bevosita ta’siri ostidagina vujudga keladi.

O’quvchilar tafakkurini rivojlantirishda boshlang’ich sinf o’qituvchilarining asosiy didaktik vazifalaridan biri – ta’limda ko’rsatmalilik me’yorini belgilashdir. Chunki bolani mavhum fikrlar emas, balki tabiat, turli narsalar qiziqtiradi. Shu sababli bola uchun eng yaxshi o’qish - ko’p narsani ko’rish, kuzatishdir. O’qituvchi o’quvchilarning fikrini atrofdagi narsa va hodisalarni bevosita idrok qilishdan qonuniyatlarni, bog’lanishlarni mohiyatini tushunib olishga hamda narsa va hodisalarning rivojlanishini bilishga qaratishdan iborat.

Umumiy o’rta ta’lim muassasalari o’quvchilari uchun «Tarbiya» fani Konsepsiyasiga muvofiq umumiy o’rta ta’lim tizimida o’qitilayotgan «Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» turkumiga kiruvchi fanlar «Odobnoma», «Vatan tuyg’usi», «Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari», «Ma’naviyat asoslari», «Dunyo dinlari tarixi» fanlarini birlashtirgan «Tarbiya» fanini o’qitila boshlandi. «Tarbiya» fanini o’qitishning asosiy maqsadi o’quvchilarning yoshiga mos ma’naviy rivojlanishini ta’minlash va faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o’quvchilarni har tomonlama, jismoniy, ruhiy, ma’naviy-axloqiy rivojlantirish orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish va turli murakkab vaziyatlarda to’g’ri qaror qabul qilishga o’rgatishda ham ushbu fanning o’rni katta ekanligini ta’kidlash joiz.

«Tarbiya» fanini o’qitish jarayoniga texnologik yondashuv asosida o’quvchilar tafakkurining rivojlanishini yangi bosqichga ko’tarish mumkin. Ta’lim jarayonida innovasion texnologiyalardan foydalanish o’quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash, tahlil qilishning turli usullarini egallash imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovasiyalarni keng ko’lamda qo’llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Pedagogik innovasiyalar ko’lamining ortib borishi, mamlakatda modernizasiya jarayoni tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan ayni davrda ta’lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

1-4-sinflarda «Tarbiya» fani darsliklariga mujassamlashtirilgan mavzular mazmuni boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzular o’quvchilarni Ona-Vatanga muhabbat, insonparvarlik, ijtimoiy xulq-atvor qoidalariga amal qilish, jamoada o’zini tutish, oiladagi o’zaro munosabatlar me’yorlarini o’zlashtirishga xizmat qiladi.

O’tiladigan mavzular yuzasidan muammoli ta’limdan foydalanish va topshiriqlar asosida tashkil etiladigan ta’lim jarayonida o’quvchilarda tafakkur operasiyalarini faollashtirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashga o’rgatish boshlang’ich sinf o’quvchilari shaxsini shakllantirish kafolatini beradi hamda

“Tarbiya” fani konsepsiyasida qayd etilganidek, yoshlar tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to’g’ri baho bera olish, ijtimoiy muammolarni hal etishda to’g’ri qaror qabul qilish, hayotda o’z o’rnini topish bilan bog’liq bo’lgan aniq maqsadlarni shakllantira olishga o’rgatish, buning natijasi o’laroq, oila-jamiyat o’rtasidagi munosabatlarning uzilib qolishining oldini olish, loqaydlik, huquqbuzarlik, "ommaviy madaniyat"ning turli ko’rinishlaridan saqlash imkoni yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlis va xalqimizga qilgan murojaatnomasi. 29 dekabr, 2020 y.https://president.uz/uz/lists/view/4057.
2. Umumiy o’rta ta’lim muassasalari o’quvchilari uchun «Tarbiya» fani Konsepsiyasi. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagi 422-son qaroriga 3-ILOVA.
3. «Tarbiya» fani bo’yicha umumiy o’rta ta’lim muassasalari o’quvchilariga qo’yiladigan malaka talablari. O’zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirining 2020 yil 14 oktyabrdagi 235-sonli buyrug’iga 2-ilova.
4. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Darslik / Z.T.Nishonova va boshqalar. – T.: «O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati». 2018. – 291-b.
5. Mahmudjonovna, T. G. Z. (2024). TARBIYA FANINI O‘QITISH JARAYONIDA O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, *43*, 16-22.
6. Isakov, A. (2023). Approaches to Teaching Art in a Digital Age: An Analytical Review of Research between 2000-2021. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, *2*(10), 8-19.
7. Abduvahobovich, I. A. (2022). Digital Educational materials for the organization and conduct of fine arts lessons in uzbekistan. *Eur. Multidiscip. J. Mod. Sci*, *4*, 122-132.
8. Fayzullayev, T. (2024). the Role of Digital Technology in Education of Uzbekistan. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, *3*(2), 162-165.

YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI KUCHAYTIRISHDA LIDERLIK KO‘NIKMALARINING ZAMONAVIY O‘RNI

Azimov Samandar Murodjon o‘g‘li
Namangan Davlat Pedagogika Instituti
talabasi E-mail: azimovsamandar196@gmail.com
Telefon:+998939482277
Isroilova Chamanoy Abdug‘osi qizi
Namangan Davlat Universiteti Mustaqil Izlanuvchisi
E-mail:Diamaer27@gmail.com
Telefon:+998944404151

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik qobiliyatlarining o‘rni va ahamiyati muhokama qilinadi. Liderlik yoshlar uchun jamiyatda o‘zgarishlar yaratish va o‘z fikrini bildirishda muhim omil sifatida qaraladi. Maqolada liderlikning asosiy jihatlari va uning yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishdagi roli tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonida yoshlarni yetakchilikka tayyorlash bo‘yicha zamonaviy metodlar va yondashuvlar, shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribasi, shuningdek, O‘zbekistonning yoshlarni qo‘llab-quvvatlashdagi sa’y-harakatlari keltirilgan. Maqola yoshlarni liderlikka tayyorlashda pedagogik usullarni samarali qo‘llashning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Liderlik qobiliyatlari, yoshlar faolligi, pedagogik metodlar, ta’lim tizimi, global o‘zgarishlar, yoshlar salohiyati, tashabbuskorlik, ijtimoiy moslashuv, kreativ fikrlash, yoshlar siyosati.*

Abstract: This article discusses the role and importance of leadership skills in increasing the social activity of young people. Leadership is considered an important factor for young people in creating changes in society and expressing their opinions. The article analyzes the main aspects of leadership and its role in increasing the social activity of young people. Modern methods and approaches to preparing young people for leadership in the educational process are presented, as well as the experience of foreign countries, as

well as Uzbekistan's efforts to support young people. The article shows the importance of effective use of pedagogical methods in preparing young people for leadership.

Keywords: *Leadership skills, youth activity, pedagogical methods, education system, global changes, youth potential, initiative, social adaptation, creative thinking, youth policy.*

Аннотация: В статье рассматривается роль и значение лидерских навыков в повышении социальной активности молодежи. Лидерство рассматривается как важный фактор, позволяющий молодым людям создавать изменения в обществе и выражать свое мнение. В статье анализируются основные аспекты лидерства и его роль в повышении социальной активности молодежи. Представлены современные методы и подходы к подготовке молодежи к лидерству в образовательном процессе, а также опыт зарубежных стран и усилий Узбекистана по поддержке молодежи. В статье подчеркивается важность эффективного использования педагогических методов в подготовке молодых людей к лидерству.

Ключевые слова: *Лидерские качества, молодежный активизм, педагогические методы, система образования, глобальные изменения, молодежный потенциал, инициативность, социальная адаптация, творческое мышление, молодежная политика.*

Hozirgi davrda jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar, texnologik yuksalishlar va global raqobat yosh avloddan zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni talab etmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik va liderlik sifatlari yoshlarning jamiyatdagi o'rnini belgilovchi muhim omillar sifatida ko‘rilmoqda. Davlatimizda yoshlar siyosatini rivojlantirish, ularning salohiyatini to‘liq ochib berish bo‘yicha qator amaliy choralar ko‘rilmoqda. Yoshlarga istaganlaridek imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Yurtboshimiz tomonidan yoshlarga ayniqsa, jamiyatda ayollarning o‘qimishli qatlamini hosil qilish uchun ularning magistratura to‘lovlaridan ozod qilinishi, o’qish jarayonida talaba qizlarning to‘lov-kontraktidagi imtiyozlar, ularga ta’lim olish jarayonidagi berilayotgan imkoniyatlar ham buning yaqqol isboti hisoblanadi. Nafaqat ayollar balkim nogironligi bo‘lgan yoshlarning ta’lim jarayonida grantga qabul qilinishi va ularning o‘qish jarayoniga yordam berish maqsadida rag’batlantirishlar ularni jamiyat miqyosida himoya qilish va ko‘mak berish to’g’risidagi amaldagi ishlar ham jamiyat taraqqiyotiga juda ham yordam berayotgan holarlardan biri sanaladi. Ushbu imkoniyatlar samarasi o’laroq hozirgi kunda ko’plab yoshlar o’zining liderlik ko‘nikmalariga ega bo’lishmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev yoshlar haqida quyidagi fikrlarni keltirgan:

“Yangi O'zbekistonning nafasi, sur'ati va shiddatini avvalo aziz o'g'il-qizlarimizning azmu shijoati, dadil fikr va takliflarida, erishayotgan dastlabki yutuqlarida ko'raman.

Shuning uchun ham yoshlarga bo’lgan munosabat bizning yurtimizda ancha yuqori hisoblanadi. Birinchi prezidentimiz tomonidan yuritib kelingan ushbu fikrlar buning yaqqol dalili hisoblanadi. Yoshlarning liderlik qoboliyatlarini oshirish maqsadida ham ham ko‘plab ishlar olib borilgan va bular davom etmoqda. Buborada yana Birinchi Prezidentimizning quyidaagi fikrlariga to‘xtalsak, “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo’lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko’ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo’lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviyat masalasi, hech shubhasiz beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo’qotsak, bu o’ta muhim ishni o’z holiga, o’zibo’larcha tashlab qo‘yadigan bo’lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xoriramizdan ayrilib, oxir-oqibat o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.

Yoshlar masalasida so’z bo’lar ekan eng birinchi ularning ma’naviyatli, bilimli, halol va boshqa shu kabi insoniy sifatlarni shakllantirish birinchi o‘rinda turadi. Bularning sababi esa ma’naviyati, bilim saviyasi yuksak bo’lgan inson to’g’ri yo’ldan adashmaydi va barchaga uning yordami kerak bo’ladi.

Ta’lim tizimi esa bu jarayonning asosiy poydevori bo‘lib, shaxsda liderlik fazilatlarini rivojlantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shuning uchun ta’limda liderlik kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Liderlik, shunchaki boshqaruv emas, balki jamoadagi ijobiy o‘zgarishlarga sababchi bo‘lish, yangi g‘oyalar ilgari surish va boshqalarni ruhlantira olish qobiliyatidir. Bugungi kunda yetakchi shaxsdan faqat nazorat qilish emas, balki kommunikatsion, tashkiliy va analitik kompetensiyalar talab etiladi. Inson kamolotga o’z ko’nikmalariga ega bo’lishni boshlar ekan birinchi bo’lishga doimo oldinda turishga intiladi.

Shaxsning liderlik salohiyati quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:
muammolarni mustaqil hal qilish;
innovatsion fikrlash;
jamoaviy faoliyatda faol ishtirok etish;
axborot bilan ishlash va raqamli vositalardan foydalanish;
hissiy barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyat.

Bunday ko‘nikmalar yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiradi, ularni tashabbuskor va fidoyi etib shakllantiradi.

Ta’lim muassasalari yoshlar salohiyatini ochishda eng qulay muhitdir. Maktab, kollej yoki oliy ta’lim bosqichida liderlik fazilatlarini rivojlantirish uchun quyidagi amaliy yondashuvlar natijador hisoblanadi:
Munozara klublari va debatlar: tanqidiy fikrlashni kuchaytiradi;
Ijtimoiy loyihalarda ishtirok: tashabbus va mas’uliyatni rivojlantiradi;
Volontyorlik faoliyati: jamoaviy ish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi;
Startap va innovatsion platformalar: kreativ yondashuvga zamin yaratadi.
O‘zbekiston misolida “Yoshlar yetakchilari maktabi”, “Startup-initiativalar forumi”, “Talabalar klublari” kabi tashabbuslar talabalarda liderlikni rag‘batlantirishga xizmat qilmoqda.

Yoshlar bizning yurtimizda eng asosiy e’tibor qaratilayotgan bir kata guruh hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan aytilayotgan fikrlar va yoshlarga dior amaldagi ishlar haqida ham fikrlar keltirib o’tishimiz kerak.

Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O‘zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi. Yurtboshimiz tomonidan imzolanayotgan qarorlar va ularning ijrosi o’laroq bizning yurtimizda yoshlarning o’rni qay darajada ekanligini bilib olishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Robbins S. P., Judge T. A. “Organizational Behavior”. – Pearson Education, 2021.
3. Youth Leadership Training Manual. – UNESCO, 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari to‘plami, 2020–2024.
5. www.yoshlarittifoqi.uz – O‘zbekiston Yoshlar ittifoqining rasmiy sayti
6. https://strategy.uz/index.php?lang=uz&news=615

CURRENT ISSUES OF PREPARING YOUNG PEOPLE FOR THE LABOR MARKET AND IMPROVING THE PROFESSIONAL SKILLS AND ABILITIES OF PERSONNEL

Isroilova Chamanoy
Namangan davlat pedagogika instituti tyutori
tel: +(94) 440-41-51 e-mail: Diamaer27@gmail.com
Zokirjonova Madina
Namangan davlat pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyot yo‘nalishi 3-bosqich
talabasi
tel: +(93) 134-38-18 e-mail:madinazokirjonova95@gmail.com

Annotation: In this article, some reasonable solutions to the emerging problems in preparing young people for the labor market requiring a multifaceted approach in curriculum alignment, soft skills

development, technological proficiency, practical experience, and continuous evaluation of educational outcome are stated.

Аннотация: В данной статье излагаются некоторые разумные решения возникающих проблем в подготовке молодых людей к рынку труда, требующие многогранного подхода к согласованию учебных программ, развитию гибких навыков, технологической компетентности, практического опыта и постоянной оценки результатов образования.

Annotasiya: Ushbu maqolada yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash bo‘yicha o‘quv dasturlarini muvofiqlashtirish, kerakli ko‘nikmalarni rivojlantirish, texnologik bilim, amaliy tajriba va ta’lim natijalarini doimiy baholashda ko‘p qirrali yondashuvni talab qiluvchi yuzaga kelayotgan muammolarning ba’zi oqilona yechimlari bayon etiladi.

Key words:Job market, labor market, curriculum, soft skills, digital literacy, internships, practical experience, employers, feedback, mechanisms,community engagement, professional development, collaboration, assessment, mentorship, workforce, career progression

Ключевые слова: Рынок труда, учебная программа, гибкие навыки, цифровая грамотность, стажировки, практический опыт, работодатели, обратная связь, механизмы, участие в жизни общества, профессиональное развитие, сотрудничество, оценка, наставничество, рабочая сила, карьерный рост.

Kalit so'zlar: Mehnat bozori, ish bozori, o'quv dasturi, kerakli ko'nikmalar, raqamli savodxonlik, amaliyot, amaliy tajriba, ish beruvchilar, fikr-mulohazalar, mexanizmlar, jamoatchilik ishtiroki, kasbiy rivojlanish, hamkorlik, baholash, murabbiylik, ishchi kuchi, kariyera o‘sishi.

The job market for the production of well-educated employees in the form of training young people for labor and professional skills of personnel refers to a broad and evolving segment of the education and workforce development industry. This market is focused on creating and delivering educational services, and programs that prepare young individuals for employment through the development of practical, vocational, and professional skills.

Taking over the competitive job market with preparing the skilled and well-educated personnel is not easy any more. There are a few many areas causing disruptions in the process of preparing such possible future employee for the better quality of work and satisfaction which lies those areas in need of improvement. By far the most significant problem lies in the education and its relevance. There are problems in developing skills that are relevant to the needs of higher education institutions and the labor market. Often, educational programs do not match the requirements of current workplaces. Providing education and skills alignment by updating courses and programs, we can tackle this problem. Higher education institutions should update their programs in line with changes in the labor market after careful examination of the past paper statistics that the number of some specific education industry could or could not meet the needs of the competitive job market. They, first, need to learn the demand in educational institutions, like schools or the lyceums ready to hire our personnel. This, in turn, should be done in collaboration with employers. Both sides agree on the demand and the quality of the education our personnel and us can offer. This is done through research and analysis of skill requirements should be conducted to identify market needs. Developing soft skills like communication, problem-solving, teamwork, time management are the crucial part of the teaching community which helps the candidate to feel the sense of belonging to the community and co-working zone. These skills help them so interact with the collegues, there ideas and get along well with the students we teach. In addition to these soft skills, digital and technological skills: coding and programming, data analytics, digital marketing and cybersecurity are the other part of the feature that the future teachers have to acquire. Through these skills, they can manage the classroom effectively with the high standard and top quality lesson plans, procedure and new approaches coming with the technology. The involvement of techs, and interaction gamifications and different educational tools makes teacher's work easier and intrigue students through their autonomy.

The other evolving problem in the preperation of young personnel is the lack of practical experience. Although practical and internship programs are already there in our curriculum and teaching programme, the lack of supervision over students and the inadequate centralization remain one of the main drawback in the process. Straightening these internship programs for students through which they can gain practical experience may be more beneficial to be ready to enter the job market and working zones. This

problem can also be solved by collaboration with employers: collaborating with educators and developing internship programs and session with the rigid control is the key element of the answer to this challenge. Educators or the head teachers of our colloborators (schools, lyceums and primary school) can help us to take control of our young personnel and introduce them how to accomodate the educational needs, their responsibilities, rights and many practical ways of teaching students, keeping interactions in tone and being an ideal teacher of the time.

Furthermore, youth employment is one of the areas that also needs some improvements. Mentoring system may be a great possible solution to this. Introducing a mentoring system to support youth in their employment process with experienced professionals can be a perfect guide for the young professional personnel. Moreover, job placement training provides special training to students to assist them in their job placement process, including skills development in resume writing, interviewing, and professional networking is the great workshop later to apply for this industry. This ensures that our young personnel will not find official documents a struggle either to fill or to work with in the future when they are just going to begin and lead their career path. They can easily fill in the application forms, and know what to do during the next submission stages and fill free and confident in competitive candidate-choosing process.

In addition to the above problems, career uncertainty among our students is one of the major drawbacks to prepare and enter the competitive job market. Students are sometimes unsure about their choice of work or job due to some sub-peoblems like lack of interest, support, motivation passion, knowledge, experience or the job vacancy. To solve this issue, we can set "Career pathway programs": special programs and training for youth in career choice workshops. These programs help youth find and select careers that are relevant to the market, as well as, their skills and level of knowledge. Through these programmes, students are able to find a job which is a great match to their wishes. It is, thereby, reaching to the top quality as the interst and motivation come from the candidates themselves. They are full of energy and passion to work in the chosen industry as the choice is mainly done by themselves with the help of specialist consultations in those programs.

Furthermore, social and medical support are the other areas to improve. Some young personnel lack psychological support needed in the personnel preperation period. After they finish the given curriculum, they fear to choose or find a job. To prevent or tackle this issue, we can organize treatment and training to improve the health of young people and build self-confidence. During this psychological trainings, they communicate with specialists, and get advice from them and can gain more confidence through believing in their strength and abilities. Specialists involved in these trainings hold social skills development approaches to help coping up with the fear or mental problems in the personnels before the introduction to the job market. Implementing these programs and activities aimed at developing the social image of young people. They learn how to shape their identity, to to come up with the ideas, sharing it , and different ways of communicating with their future audience. These strategies help them to shape their personality, the personnel identity and , thereby, form self-esteem in them.

To conclude, the analysis of the current issues surrounding the preparation of young people for the labor market and the improvement of professional skills is comprehensive and highlights several key areas for development. It is essential for educational institutions to regularly assess and update their curricula to align with the evolving needs of the job market. This could involve establishing partnerships with industry leaders to ensure that programs reflect current trends and skill requirements. Furthermore, mplementing feedback loops where employers can provide input on the competencies and skills they seek in graduates can help educational institutions adapt more quickly.

Beyond standalone courses, soft skills should be integrated into all aspects of learning. For instance, group projects can foster teamwork, while presentations can enhance communication skills.Creating simulations or role-playing exercises that mimic workplace scenarios can help students practice soft skills in a controlled environment. In addition, courses should include not only basic digital literacy but also advanced skills like coding, data analytics, and cybersecurity. Collaborating with tech companies could provide students with access to the latest tools and resources. While internships are part of many curricula, they should be more structured with clear objectives, supervision, and assessment criteria. This would ensure that students gain meaningful experiences. Engaging employers in the design and implementation of internship programs can ensure that they are relevant and beneficial. Employers can also provide mentorship opportunities for students during these internships.

It is also worth stating that egularly evaluating the effectiveness of educational programs in preparing students for the job market is crucial. Metrics could include employment rates of graduates, employer satisfaction surveys, and feedback from students about their preparedness.

The preparation of young people for the labor market is a multifaceted challenge that requires collaboration between educational institutions, employers, and the community. By addressing curriculum relevance, emphasizing soft and technical skills, enhancing practical experiences, and fostering strong partnerships, we can better equip future generations for successful careers. Continuous evaluation and adaptation will be key to ensuring that educational programs remain aligned with the dynamic demands of the job market.To prepare young people for the labor market, a comprehensive solution is needed. By providing training, developing internship programs, and working with employers, young people can be trained as quality personnel. This process requires the participation of the state, education workers, and all segments of society.

REFERENCES :

1. Zokirjonova Madina.(2024). Maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitish usullari .
2. Zokirjonova Madina.(2024). Teaching methods for foreign language learning in preschool and school system.
3. Zokirjonova Madina.(2024)Some common educational problems and their solutions
4. Og‘abek Yuldashev., & Zokirjonova Madina.(2024).GRAMMATICAL TYPES OF IDIOMS AND TRANSLATION OF METHOD
5.Botirova, Z. H. K. (2020). Developing of lexical skills in English in secondary schools. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(1), 199-203.
6.Botirova, Z. X. Q. (2020). The importance of age factors on teaching English in grades 5-6. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(11), 381-384.
7.Kizi, B. Z. X. (2022). EXERCISE ANALYSIS DESIGNED TO DEVELOP LEXICAL COMPETENCE IN 6TH GRADE ENGLISH TEXTBOOKS. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.5 Pedagogical sciences).
8.Botirova, Z. H. K. (2020). Developing of lexical skills in English in
9.Jalolov, S., &Botirova, Z. (2016). The role of motivation in the second language learning acquisition. In Современные тенденции развития аграрного комплекса (pp. 1752-1754).
10.Botirova, Z. X. (2021). Personality-orientated approach to teaching english vocabulary. In МИРОВАЯ НАУКА 2021. ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ (pp. 6-8).
11.Dehqanova G.A . (2024). THE IMPORTANCE AND ROLE OF LEXICAL COMPETENCE IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO STUDENTS. 2024 Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(05), 16–23. Retrieved from https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/1451
12.Ahmadjanovna, D. G. (2024). Improving the scientific and methodological aspects of preparing students for effective communication techniques and innovative technologies in teaching foreign languages. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 15(3), 81-88.
13.Dehqanova, G. A. (2024). SAMARALI MULOQOT VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 550-555.
14.Dehkhonova, G. A. (2024). THE CLASSIFICATION OF LEXICAL UNITS WITH FINANCIAL POSITION ACCORDING TO SCIENTISTS VIEW. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 542-549.
15.Sobirova, M. Y. (2024). ONA TILI TA’LIMI JARAYONIDA DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANISH. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 123-127.
16.Sobirova, M. (2024). DEVELOPMENT OF ORAL SPEECH COMPETENCE OF STUDENTS. International journal of artificial intelligence, 4(03), 596-600.
17.Yusupdjanovna, S. M. (2024). KO’RGAZMALI VOSITALARINING TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI O ‘RNI. TADQIQOTLAR. UZ, 32(2), 69-75.
18.Yusupdjanovna, S. M., & Yakubjanovna, S. D. (2021). Innovative Technologies of Teaching in the Field of Higher Education Techniques. Design Engineering, 5288-5295.

NEYROPEDAGOGIKADA NEYRODIDAKTIK YONDASHUVLARNING AHAMIYATI

Jamoldinova Sayyora Nodirbek qizi
CHDPU pedagogika fakulteti “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0006-4669-0483
jamoldinova.cspu@gmail.com, +998917766446

Annotatsiya: *Mazkur maqolada neyropedagogika va neyrodidaktika kabi zamonaviy fanlararo yo‘nalishlarning o‘zaro bog‘liqligi, ularning ta’lim tizimidagi o‘rni hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Neyropedagogika – bu nevrologiya, psixologiya va pedagogika sohalarining kesishgan nuqtasida shakllangan eng zamonaviy fanlardan bo‘lib, inson miyasi faoliyati va uni o‘rganishga asoslangan yondashuvlar orqali samarali o‘quv jarayonini tashkil etishning turli xil yondashuvlarni o‘rganuvchi pedagogikaning yangi sohasi hisoblanadi. Neyrodidaktika esa neyropedagogikaning tarmoqlaridan biri bo‘lib, aynan didaktik jarayonlarni neyrobiologik asosda takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bilimlarni idrok etish, eslab qolish va qo‘llash jarayonlarida miyaning individual va yoshga oid xususiyatlarini inobatga olishni nazarda tutadi. Maqolada neyrodidaktikaning asosiy tamoyillari, ya’ni miya faoliyatiga mos ta’lim metodlari, o‘quvchilarning emotsional holati, motivatsiyasi va diqqatini nazorat qilishning dolzarbligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, neyrodidaktik yondashuvlar orqali o‘quvchilarda bilim va ko‘nikmalarva malakalarni shakllantirish va uni mustahkamlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kabi pedagogik yondashuvlani samarali amalga oshirilishi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ushbu maqolamiz neyropedagogik yondashuvlarni qo‘llashga qiziquvchi pedagoglar, metodistlar, ta’lim muassasalari rahbarlari hamda ilmiy tadqiqotchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *neyropedagogika, neyrodidaktika, neyropedagogik yondashuvlar, neyrobiologiya, neyrofiziologiya, neyropsixologiya, ijtimoiy-kasbiy kompotensiya, neyrota’lim, miyaning biologik asoslari, neyronlar, nevrologiya*

Zamonaviy sanoat (raqamli) jamiyatda neyrofologiyaning rivojlanishi keng tarqaldi: neyrobiologiya, neyrofiziologiya va neyropsikologiya. Nobel mukofoti sovrindorlari postfanning rivojlanishini tahlil qilib, hozirgi vaqtda eng muhim tadqiqot yo‘nalishi inson miyasi faoliyatining psixofiziologik xususiyatlari bilan bog‘liq sohalarni o‘rganishdir, degan xulosaga kelishdi. XX asrning boshlarida V.I. Vernadskiy psixologiya fanlarining ahamiyatini ta’kidlab, kelgusi asr psixozoik davr bo‘ladi, deb ta’kidladi. Ushbu muammoni o‘rganib, taniqli psixolog A.G.Asmolov nima uchun jamiyat-tsivilizatsiyaning kelajakdagi rivojlanishi psixologiya tomonidan belgilanadi degan taxminni asosladi (Asmolov, 2002). Shunga ko‘ra, neyrobiologiya, neyrofiziologiya va neyropsixologiya uzliksiz tizimimimizda muhim ahamiyatga ega. Nevrologiya yutuqlari va ularning asosida yaratilgan neyrotexnologiyalarni ishlab chiqish, sog‘liqni saqlash, huquqni muhofaza qiluvchi idoralari, ommaviy axborot vositalari va ta’limda keng qo‘llanilmoqda. So‘nggi 10 yil mobaynida neyropsixologiyada yangi fanlararo yo‘nalishi – neyrota’lim tashkil etildi. Uning asosiy muammosi bu - miya va asab tizimining kognitiv funksiyalarining ta’lim imkoniyatlaridan iborat bo‘lib, uning maqsadi o‘quvchilarning kognitiv va ijtimoiy-kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish uchun hizmat qiladi. Neyrota’limning mazmun yadrosi - neyrodidaktika bo‘lib, bu, birinchi navbatda, ta’lim faoliyatini shaxsiylashtirish va o‘quvchilar shaxsiyatini rivojlantirishni ta’minlaydi.

Ta’lim faoliyatini shaxsiylashtirish meta-sub’ektli natijalarni shakllantirishga qaratilgan: ijtimoiy-kasbiy kompetentsiya, sub’ektdan ustun vakolatlar va meta-vakolatlar (mustaqillik, mas’uliyat, refleksivlik, kommunikativlik va boshqalar). Shaxsiylashtirish o‘quv jarayonini, uning individuallashuvini va ta’lim traektoriyalarini belgilaydi. Shaxsiylashtirish o‘quvchilarning psixologik-pedagogik qobiliyatlari, shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish bilan bog‘liq: yo‘naltirish, qadriyatga yo‘naltirish, ijtimoiy-professional rejalar, munosabat, faoliyat va xulq-atvor motivlari. Shaxsiylashtirish ta’lim faoliyatini tavsiflaydi, shaxslashtirish - talabaning shaxsiyatini tavsiflab beradi. Neyrota’limning nazariy va amaliy asoslari L.S.Vigotskiyning “Oliy ruhiy funksiyalarning rivojlanishi” (1931) asarida va A.R.Lurianing “Neyropsixologiya asoslari” (1973) asarlarida taqini ko‘rib chiqilgan. Neyrota’limning ilmiy va amaliy tarmoqlari - neyropedagogika va neyrodidaktika soxalaridir.

Neyropedagogika o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonida miyaning aqliy funksiyalarining imkoniyatlarini, kognitiv faoliyatni shakllantirish va shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega fazilatlarini rivojlantirishni, shuningdek xulq-atvorning deviant shakllarini tuzatishni ta’minlash imkoniyatlarini biologik, fiziologik, pedagogik va psixologik jihatdan o‘rganadi. Neyropedagogika AQShda keng tarqaldi, bu esa “Miya va o'rganish” xalqaro loyihasini tashkil etilishiga sabab bo‘ldi. Mamlakatimizda neyropedagogika tushunchasi T.P. Xruzman (1978) tomonidan kiritilgan. Neyropedagogika sohasidagi tadqiqotlar hozirda Kemerovo davlat universitetida faol olib borilmoqda. Neyrodidaktika neyrota’limning bir tarmog‘I hisoblani, ushbu atama (Neurodidaktics so’zidan ya’ni ingliz tilidan olingan) 1988 yilda Germaniyada Gerhard Preis tomonidan kiritilgan bo‘lib, u bu sohani ikki fanlarni: psixologiya va nevrologiya sohasidagi tadqiqotlarni umumlashtiruvchi integrativ fanni tushungan (Neurodidaktik, 1996). Maktab o‘quvchilarini neyrodidaktika nuqtai nazaridan o‘rganish I.P. Klemantovich, E.A. Levanova, V.G.Stepanovlarning “Neyropedagogika: ilmiy bilimlarning yangi tarmog‘i” mavzusidagi ishiga bag‘ishlangan. Nevrologiya sohasi ma’lumotlaridan foydalangan holda bolalar, yoshlar va kattalarga o‘qitish nazariyasi va texnologiyasini o‘rganadi (Klemantovich va boshq., 2016; Kostromina, 2019). Neyrodidaktika mavzusi, umuman olganda, miya va asab tizimining funksional faoliyatining mexanizmlari, muntazamligi va xususiyatlarini o‘rganishda kognitiv faoliyatning samaradorligini ta’minlaydi. Neyrodidaktika neyrota’limning fanlararo ilmiy va amaliy bo‘limi bo‘lib, u inson bilimlarini uchta yo‘nalishini birlashtiradi:

• miyaning biologik asoslari va neyron faoliyatiga qaratilgan neyrofiziologiya;

• axborotni qayta ishlash va tajribaning ichki vakilligini o‘rganadigan kognitiv fan;

• atrof-muhitimiz bilan qanday o‘zaro aloqada bo‘lishimizni va unga moslashishimizni tushuntiradigan bilish nazariyasi.

Neyrodidaktikaning maqsadi kognitiv jarayonlarni (idrok, e’tibor, xotira, fikrlash) faollashtirish va ta’lim faoliyatining hissiy-irodaviy tartibga solinishini ta’minlashdan iborat. Neyrodidaktika miyaning funksional imkoniyatlari, psixodiagnostik usullar, ruhiy dinamikani prognoz, ruhiy jarayonlarni rivojlantirish va tuzatish uchun kognitiv neyrotexnologiyalar to‘g‘risidagi bilimlarga asoslanadi. Ta’limda neyrodidaktikani muvaffaqiyatli qo‘llash uchun quyidagi vazifalarni hal qilish kerak:

• miya va asab tizimining neyrofiziologik va neyropsixologik faoliyati asoslari bilan tanishish;

• ta’lim faoliyatida kognitiv texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari to‘g‘risida yaxlit tasavvurni shakllantirish;

• raqamli ta’lim sohasida neyrokognitiv komponentlarni o‘zlashtirish
shaxsiy o‘quv faoliyatini ta’minlaydigan texnologiyalar;

• o‘quv-tarbiyaviy ishlarda texnik vositalar (qurilmalar)dan va neyrotexnologiyalardan foydalanishni ta’minlash. Neyrodidaktikaning uslubiy asosi miyaning funksional faoliyatining muntazamligi hisoblanadi. Fundamental ilmiy yutuqlar neyrodidaktika texnologiyasining quyidagi tamoyillarini qo‘llash imkonini beradi:

• neyron darajada axborotni assimilyatsiya qilishning asosiy mexanizmi asab tizimining plastikligi hisoblanadi, bu esa neyron tarmoqlarning shakllanishi va ishlashi orqali erishiladi;

•bilish faoliyatini faollashtirish omili – talabaning tug‘ma (genetik jihatdan aniqlangan) qiziqishi;

•ta’lim faoliyati sub’ektlarining individual tajribasi o‘rganish qobiliyatiga va tarbiyaviy va kognitiv vakolatlarni egallashda muvaffaqiyatga ta’sir ko‘rsatadi;

• mas’uliyatli mustaqillikning rivojlanishining unumdorligiga talabaning hissiy holati ta’sir ko‘rsatadi;

• Elektron ta’lim shakllaridan foydalanish talabalar rivojlanishining shaxsiy traektoriyalarini amalga oshirish imkonini beradi. Shaxsiy ta’limda neyrodidaktikaning ta’lim imkoniyatlari asosan ta’lim faoliyatini shaxsiylashtirishni belgilaydi. Ushbu kontseptual yo‘nalish quyidagi qoidalar bilan asoslanadi:

• talaba shaxsiy ta’lim faoliyatining mavzusi sifatida faoliyat yuritadi;

• o‘rganishning his-tuyg‘uni shakllantirish munosabati – o‘quvchilarning idrok, e’tibor, xotira, fikrlash kabi kognitiv funktsiyalarini amalga oshirish;

• kasbiy kelajagingiz imidji ta’lim faoliyatini rag‘batlantirish omili hisoblanadi;

• Immersiv texnologiyalar talabalarga real ishlab chiqarish vaziyatlariga sho‘ng‘ish imkoniyatini beradi, bu esa mashg’ulotning amaliy xususiyatini yanada oshiradi;

• virtual texnologiyalar ta’lim faoliyatining shaxsiy traektoriyalarining rivojlanish salohiyatini boyitadi;

Tarmoq bilan o‘zaro bog‘lanishning neyron texnologiyalari moslashuvchan vakolatlarni shakllantirishni ta’minlaydi.

• kasbiy rivojlanish miya va asab tizimining neyrofunksional jarayonlari bilan belgilanadi;

• turli turdagi qurilmalar: planshetlar, kompyuterlar, neydushpallar, smartfonlar va immersiv texnologiyalarni joriy qilishni ta’minlovchi boshqa elektron qurilmalar kabi turli turdagi qurilmalar xizmat qiladi;

Miyaning kognitiv funksiyalarining rivojlanishi va tuzatishi neyropedagogik texnologiyalar:

1)mashqlar, treninglar, o‘yinlar (gemifikatsiya) va boshqalarni qo‘llash orqali ta’minlanadi;

2) miya faoliyatining deviant shakllarini tuzatish uchun farmatsevtika vositalaridan foydalanish faqat nevrologlar va psixiatrlarning ixtiyoridir;

3) o'quvchilarning “virtual dunyo” sharoitida yuzaga keladigan ob’ektlar va jarayonlar bilan aloqasiz o‘zaro ta’sirini modellash. Virtual haqiqat texnologiyasi neyrodidaktikada keng qo‘llanilishi topildi: yuqori texnologiyali sohalarda mutaxassislarni kasbiy tayyorlash jarayonida talab qilinadigan vakolatlarni shakllantiradi. Virtual haqiqat texnologiyalaridan tashqari, neyrodidaktikada amaliyotga yo‘naltirilgan holatlar va loyihalar, aql xaritasi texnologiyalari, gemifikatsiya, veb-vazifalar, virtual o‘quv simulyatorlari, immersiv texnologiyalar va boshqalar keng qo‘llaniladi. Bu yerda ta’limda joriy etiladigan asosiy neyrodidaktik texnologiyalar keltirilgan. O‘rta maktablarda “Cognifit” texnologiyasi keng tarqaldi. U asosan kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan: idrok, e’tibor, xotira, fikrlash.

Maktab o‘quvchilariga miyaning kognitiv funksiyalarini o‘rgatish uchun mashqlar taklif etiladi. Ishlatiladigan neyrotexnologiyalar o‘rganishdagi qiyinchiliklarni yengish, o‘rganishni kuchaytirish va shaxsiy natijalarni ishlab chiqishga qiziqishni rag‘batlantirishga yordam beradi. Kasb-hunar maktabida “Pedagogik seminarlar”, “Virtual ekskursiyalar”, “Atelier” kabi innovatsion neyrotexnologiyalar foydalaniladi. Ular shakllanishiga qaratilgan
(vakolatlar) elektron qurilmalar va maxsus texnika asosida amalga oshiriladi. Ushbu neyrotexnologiyalarning semantik muhiti talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar zonasini yaratishdir.

Xulosa shaxsiy ta’lim sub’ekt, meta-fan va shaxsiy vakolatlarni shakllantirishga qaratilgan. Neyrodidaktika o'quv natijalarini shaxsiylashtirishni ta’minlaydi va ularni shaxsning yaxlitligining asosi sifatida talabalar tomonidan ishlab chiqish va tushunishni o‘z ichiga oladi. Shaxslashning maqsadi o‘zgarish, o‘zini zamonaviy texnologiyalar bilan muvofiqlashtirishdir.

Shaxsiylashtirish shaxsning rivojlanishini, shaxslashtirish – bu shaxsning mohiyatini anglash, bilish va o‘z-o‘zini qabul qilishdir. Neyrodidaktikaning innovatsion tendentsiyasi quyidagilardan iborat:

• Zamonaviy sharoitda talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini namoyon etishini ta’minlovchi yuqori ruhiy funksiyalarni aktuallashtirish;

• ta’lim faoliyatining shaffofligini ta’minlaydigan interaktiv ta’lim traektoriyalarini ishlab chiqish;

• Kognitiv ta'lim texnologiyalarini shakllantirish, o'rganishning modellari, belgilari, ramzlari, sxemalari va boshqa shakllarini koniumlashtirish;

• immersiv o‘rganishni amalga oshirishda virtual haqiqat texnologiyasini o‘zlashtirish;

• neyrodadaktika imkoniyatlarini kuchaytirish orqali ta’limni standartlashtirishning zararli ta’sirini bartaraf etish;

• neyropedagogik texnologiyalarni hayotga tatbiq etishda miyaning yuqori aqliy funktsiyalaridan to‘g‘ri foydalanish. Zamonaviy ta’limning innovatsion taraqqiyotida neyrodidaktikaning ahamiyati haqidagi fikrlarni umumlashtirsak, u shaxsiy ta’limning mazmuni deb aytish mumkin, u shaxsning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, o‘zini bilish va o‘zini qabul qilishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Jamoldinova, S. N. (2023). O’qituvchining konfliktologik tayyorgarligining kasbiy faoliyatdagi ahamiyati. “Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendirio‘”,1(1), 224-228.
2. Jamoldinova, S. N. (2024).O’qituvchining konfliktologik tayyorgarligining kasbiy faoliyatidagi ahamiyati.TA’LIM VA TARAQQIYOT Ilmiy-uslubiy jurnal,1(6),44-50.
3. Jamoldinova, S. N. (2024). The role of the teacher’s professional competence in conflict situations. European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, 2(11),15-18.

4. Jamoldinova, S. N. (2024). Bo‘lajak o‘qituvchilarining konfliktologik madaniyatini rivojlantirishning asosiy tamoyillari va mohiyati. “Xalqaro tajribalar asosida kasbiy ta’lim muassasalarining yangi qiyofasini yaratish va kadrlar tayyorlashni sifat bosqichiga olib chiqishning muammo va yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman,1(1),526-529.
5. Jamoldinova, S. N, Temirova,U.I. (2024). Talabalar konfliktologik madaniyatini rivojlantirish ijtimoiypedagogik muammo sifatida. “Xalqaro tajribalar asosida kasbiy ta’lim muassasalarining yangi qiyofasini yaratish va kadrlar tayyorlashni sifat bosqichiga olib chiqishning muammo va yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman,1(1),523-526.
6. Jamoldinova,S.N, Temirova,U.I. (2024). Talabalar konfliktologik madaniyatini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida. “Ta’lim tizimini takomillashtirishda ilg‘or xalqaro tajribalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik anjuman,1(1),957-962.

PEDAGOGIKA VA TA’LIM OLISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA BUNDA XALQ PEADGOGIKASIDAN FOYDALANISH

Asqarov Muhsiddin Alisher o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti tyutori
@asqarovmuhsiddingmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Pedagogika va ta’lim olishning zamonaviy usullari va Xalq pedagogikasining usullaridan foydalanish, talabalar o‘rtasida ta’lim va tarbiya qadryatlarini shakllantirish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy faollik, targ‘ibot, mas’uliyat, didaktik jarayon, mafkura, kurashish, psixologik xususiyatlar, botirlik, epchillik, tezkorlik, muvozanatni saqlash.

Jahonda globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan davrda yoshlar ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor va ularning ijtimoiy faolligini oshirish masalasi bugungi axborot asrining ahamiyatli masalalaridan biri bo‘lib bormoqda. Axborot davri yoshlarga mafkuraviy ta’sir o’tkazish usuliga aylanib, yoshlarga tarbiya berish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etishni talab qilmoqda. Bu esa yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va rag‘batlantirish, ijtimoiylashtirish jarayonlarini yo‘lga qo‘yish tizimini yangilash, o‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, ijod tashabbuskorlik va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini yaratish hamda takomillashtirish, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlash, targ‘ibot ishlarining ta’sirchanligini ta’minlashda xalq pedagogikasi manbalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini keng joriy etish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Dunyo ilmiy markazlari tadqiqot faoliyatining o‘quvchilarning faollik masalalari bo‘yicha tahlilar shuni ko‘rsatmoqdaki, xalq pedagogikasidan foydalanib o‘quvchilarda ijtimoiy faollikni o‘z -o‘zidan yuzaga kelmasligi, balki muntazam ravishda maqsadli olib boriladigan faoliyat natijasida rivojlantiriladi. Shuningdek, o‘quvchilarning ijtimoiy faolligiga qo‘yilgan zamonaviy talablar bilan birgalikda xalq pedagogikasi asosida ijtimoiy faollikni rivojlantirishga oid bilim, ko‘nikma va malakalari, mavjud faollik kompetensiyalari o‘rtasidagi aloqadorlik mamlakat taraqqiyoti ehtiyojlariga mos ravishda olib borishni taqozo etmoqda.

O‘zbek xalq pedagogikasining namunalarini asosan uch guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin. Bular quyidagilar:

1. Xalqimiz tomonidan avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan xalq og‘zaki ijodi, folklori namunalari, xalqimizning qadriyatlari, urf-odatlari va turli xil marosimlari;
2. Islom dinining muqaddas kitobi “Qur’oni Karim”, Payg‘ambarimizdan meros bo‘lib qolgan Hadis ilmi va islomiy ta’limotlarning namunalari;
3. Buyuk mutafakkirlar tomonidan yaratilgan nasriy va nazmiy asarlar, odobnoma, pandnomalar va boshqalar.

“Avesto”da keltirilishicha, “Barchaga mehribon bo‘lish, muhtojlik va xavf-xatar ostida qolganlarga ko‘maklashishga tayyor, yovuzlikka qarshi, kishilar baxt-saodati uchun faol kurashishga shay bo‘lish ezgu odamlarga xosdir” deb ta’kidlanadi.

“Avesto” nafaqat diniy ta’limotlar, shuningdek insonlarni jamiyatda o‘zaro munosabatlarda yuksak insoniy fazilatlar, tabiatni asrab-avaylash, jonzotlarga munosabatni to‘g‘ri shakllantiruvchi kompleks manbalarni o‘zida mujassamlashtirgan.

Islom dinining axloqiy-huquqiy tamoyillarining asosiy manbai “Qur’on”dir. Ilohiyotda islom dini iymon, islom, e’tiqod, bag‘rikenglik va saxiylik kabi sifatlardan iborat, deb e’tirof etilgan. Bu kabi sifatlar insonlarni jamiyatda ijtimoiy munosabatni tashkil etishda yaxshi xulq, o‘zgalarga samimiy munosabat, to‘g‘ri so‘zlilik, odob-axloq kabi islomiy qadriyatlarni egallashga undaydi.

“Qur’oni Karim” va “Hadisi-sharif”da insonning turmush-tarzida mehnatga, ilmga, ibodatga, kasb-hunar egallash va boshqa shu kabi ijtimoiy faollikka chorlovchi masalalarga e’tibor qaratilgan.

O‘quvchilarda ijtimoiy faollikni oshirishga yo‘naltirilgan didaktik jarayon muayyan -pedagogik-psixologik xususiyatlari sifatida quyidagilar keltirildi:

– o‘quvchilarning ijtimoiy faolliklari ta’lim-tarbiya jarayonida tarkib topib, ijtimoiy hayotga nisbatan yondashuvlarining ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi;

– o‘quvchilarning ijtimoiy faolliklari jamiyatdagi axloqiy talablarga rioya qilish asosida tashkil etilayotgan faoliyat darajasi sifatida ularning kamol topishlarida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi;

Xalq pedagogikasini o‘rganish uchun S.R.Rajabov, A.Ismoilova, I.Obidova, S.Temurova, M.Ochilov, A.Otayeva, Z.Mirtursunov, A.Minavarov kabi o‘zbek olimlari ilmiy izlanishlar olib borganlar. Bu mualliflarning ishlarini birlashtirgan holda o‘zbek xalq pedagogikasining quyidagi milliy yo‘nalishlari ajratildi:

– bolaning aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va estetik tarbiyasining o‘zaro aloqasi asosida har tomonlama rivojlanishi g‘oyasi;

– shaxsning rivojlanishida oilaviy tarbiyaning yetakchi rolini belgilash;

– xalq pedagogikasi usul va tamoyillarining xalq ijodi namunalarida mujassamlashuvi;

– ta’lim-tarbiyaning pedagogik usullarini birlashtirish;

– xalq pedagogikasining amaliy xarakteri;

– xalq pedagogikasining o‘sib kelayotgan avlodni ijtimoiy fuqarolik oila faoliyatiga tayyorlashdagi ijtimoiy ahamiyati.

O‘quvchilarda o‘zaro muloqotni tashkil qilishda xalq o‘yinlarining o‘rni yuqori bo‘lib, o‘quvchi o‘yin davomida boshqa o‘yin a’zolari bilan muloqot qilishi, birgalikda ma’lum bir faoliyatni amalga oshirishi, o‘yinning tartib-qoidasiga rioya qilishlari ularda ijtimoiy faollikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ming yillar davomida bizgacha yetib kelgan o‘zbek milliy xalq o‘yinlaridan “Otda chopish”, “Qiz quvlash”, “Uloq”, “Kamonda o‘q otish”, “Chillak”,
“Oq suyak”, “Besh tosh”, “Kurash”, “Tortishmachoq”, “Mindi”, “Varrak uchirish” kabi o‘yinlar orqali o‘quvchilarda

– botirlik;

– epchillik;

– tezkorlik;

– muvozanatni saqlash;

– qaddi-qomatni shakllantirish kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirishda juda samarali rol o‘ynaydi. Demak, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida milliy harakatli o‘yinlar orqali o‘quvchilarni mashq qildirish yuqoridagi ijobiy aqliy sifatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga egaligi belgilangan.

Faollik – xoh o‘quv-tarbiya, xoh ijtimoiy va ma’naviy hayot to‘g‘risida bo‘lmasin, insonning ongli, aqliy faoliyatini ifodalash uchun ishlatiladi.

Ijtimoiy faollik bu - shaxs doimo jamiyat ichida, ijtimoiy munosabatlar doirasida rivojlanadi, shu nuqtai nazardan qaraganda, shaxsni ijtimoiy faollikka tayyorlash obyektiv omillar yordamida va subyektiv ta’sir ko‘rsatish asosida tashkil etiluvchi ijtimoiy pedagogik jarayon bo‘lib, dialektik va dinamik xususiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.

2. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // qonunchilik ma’lumotlari milliy ba’zasi, 29.04.2019 y., Elektron resurs. https://lex.uz/docs/4312785

3 . Abdullayeva K.R. O‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishda sharq mutafakkirlari merosidan foydalanish // “Science and education” scientific journal. – Toshkent, 27.04.2020. –B.443-446.
4. Abdullayeva K.R. Milliy qadriyatlarning o‘quvchilarni ijtimoiy faol qilib tarbiyalashdagi roli. «Лучший молодой ученый – 2021». – Нур-Султан, Казахстан, 2021 декабрь. XI том. –С.28-33.

INNOVATSION TA'LIM SHAROITIDA TALABALARNI XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANIB TARBIYALASH TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISH

Joniyeva Tursunoy Boboxon qizi
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Joniyevatursunoy255@gmail.uz Tel:+998946771625

Annotatsiya: Mazkur maqolada innovatsion ta'lim sharoitida talabalarni xalq pedagogikasidan foydalanib tarbiyalash texnologiyasini shakllantirishning ahamiyati va uning ta'lim jarayonidagi roli tahlil qilinadi

Kalit so'zlar: Innovatsion ta'lim, xalq pedagogikasi, tarbiya texnologiyalari, milliy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, mehnat tarbiyasi, an'anaviy o'yinlar, ma'naviy rivojlanish.

Bugungi kunda ta'lim tizimi o'zgarishlar jarayonini boshdan kechirmoqda. Shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida yoshlarni nafaqat ilmiy bilimlar, balki milliy qadriyatlar va axloqiy fazilatlar bilan ham tarbiyalash zarurati dolzarb ahamiyatga ega. Xalq pedagogikasi, asrlar davomida xalqimizning tarbiyaviy g'oyalari, axloqiy va estetik qadriyatlari, madaniy urf-odatlari asosida shakllanib kelgan ta'lim tizimi bo'lib, bugungi kunda uni innovatsion ta'lim sharoitida samarali qo'llash imkoniyatlari mavjud. Innovatsion ta'lim texnologiyalarini xalq pedagogikasi bilan uyg'unlashtirish orqali talabalar nafaqat ilmiy bilimlarni, balki axloqiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni ham o'zlashtiradilar. Ushbu maqolada innovatsion ta'lim sharoitida xalq pedagogikasidan foydalanib talabalarni tarbiyalash texnologiyasini shakllantirish masalasi ko'rib chiqiladi.Xalq pedagogikasi — bu xalqning o'ziga xos tarbiyaviy tizimi bo'lib, u asrlar davomida shakllanib, o'ziga xos axloqiy va estetik qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar asosida yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan. Xalq pedagogikasining tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Uning asosiy maqsadi, yoshlarni xalqning ma'naviy va axloqiy qadriyatlariga asoslanib tarbiyalashdir. Milliy an'analar, urf-odatlar, maqollar, xalq qo'shiqlari va ertaklari orqali xalq pedagogikasi ijtimoiy me'yorlarni, axloqiy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishga harakat qiladi. Bu tizimning eng muhim jihati insonni faqat bilimi bilan emas, balki fazilatlari, axloqi, madaniyati va mehnatsevarligi bilan ham tarbiyalashga qaratilganligidir.Xalq pedagogikasining asosiy g'oyalarini innovatsion ta'lim texnologiyalari yordamida o'quv jarayoniga qo'llash o'quvchilarning nafaqat axloqiy, balki ilmiy, ijtimoiy va estetik rivojlanishiga ham yordam beradi. Xalq pedagogikasining g'oyalarini zamonaviy metodlar bilan birlashtirish, talabalar uchun eng samarali tarbiyaviy tizimni yaratishga yordam beradi.Innovatsion ta'lim sharoitida xalq pedagogikasining asosiy g'oyalarini qo'llash, o'quvchilarning axloqiy va ma'naviy jihatdan rivojlanishiga yordam beradi. Innovatsion ta'lim metodlari, ya'ni interaktiv yondashuvlar, multimedia vositalari, onlayn platformalar, loyiha asosida o'qitish, gamifikatsiya kabi metodlar, xalq pedagogikasining qadriyatlarini talabalarga taqdim etishda samarali vosita bo'lishi mumkin.

Innovatsion ta'limda xalq pedagogikasidan foydalanishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Multimedia va audiovizual vositalardan foydalanish: Xalqning boy adabiy merosi, jumladan, ertaklar, dostonlar, maqollar va xalq qo'shiqlari o'quvchilarga multimedia vositalari yordamida taqdim etilishi mumkin. Bunday materiallar talabalar uchun ko'proq qiziqarli va samarali bo'ladi.
2. Loyiha asosida o'qitish: Loyiha asosida o'qitish metodikasi orqali talabalar xalq pedagogikasini amaliy tarzda o'rganadilar. Masalan, xalq an'analari, urf-odatlari va mehnat tarbiyasini o'z ichiga olgan loyihalarni ishlab chiqish.
3. Gamifikatsiya: Xalq pedagogikasining axloqiy qadriyatlarini o'rgatishda gamifikatsiya metodini qo'llash ham samarali bo'lishi mumkin. O'yinlar orqali talabalar axloqiy, ijtimoiy va madaniy ko'nikmalarni o'rganadilar.

4. Interaktiv ta'lim metodlari: Innovatsion ta'limda interaktiv metodlarni qo'llash orqali talabalar faqat bilim olish bilan cheklanmay, balki o'zaro fikr almashish, muammolarni hal qilish, guruhlarda ishlash kabi ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar.

5. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Xalq pedagogikasining g'oyalarini tahlil qilish va ularga tanqidiy yondashish, talabalarni tanqidiy fikrlashga undaydi. Bu esa ularning axloqiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xalq pedagogikasini innovatsion ta'limda qo'llashda turli metodlar va texnologiyalarni amalga oshirish mumkin. Quyida ba'zi amaliy usullar keltirilgan:

Xalq qo'shiqlari va maqollarini o'qitish orqali talabalarga o'z xalqining boy madaniy merosi va uning axloqiy qadriyatlari haqida chuqur tushuncha berish mumkin. Xalq qo'shiqlari milliy e'tiqod, urf-odatlar, me'yorlar va tarixiy hodisalar haqida ma'lumot berib, shuningdek, insoniy fazilatlar va axloqiy qoidalar haqida fikr yuritishga imkon yaratadi. O'quvchilarga xalq qo'shiqlari va maqollarining mazmunini tahlil qilish, ularning axloqiy va estetik qadriyatlarini aniqlash va o'z hayotlarida qanday qo'llash mumkinligini o'rganish orqali ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi.Xalq qo'shiqlari va maqollarini o'qitishda audiovizual vositalardan foydalanish, masalan, video, audio yoki multimedia materiallari yordamida, materiallarni taqdim etish talabalar uchun yanada jozibador bo'ladi. Bu usul nafaqat o'quvchilarning fikrlashini rivojlantiradi, balki ularning e'tiborini jozibador tarzda jamlaydi. Shuningdek, o'quvchilar maqollarni va qo'shiqlarni o'zlarini ifodalash, ular haqida suhbatlar o'tkazish orqali yanada chuqurroq tushuncha hosil qiladilar. Bunday yondashuv, talabalar uchun nafaqat axloqiy qadriyatlarni, balki milliy madaniyatni ham o'rganish imkonini yaratadi. O'quvchilarga xalq qo'shiqlarining mazmunini tahlil qilish va ularning hayotga tatbiq etilishi haqida ko'proq ma'lumot berish, ularni nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham rivojlantiradi.

Xalq pedagogikasida an'anaviy o'yinlar va marosimlar muhim rol o'ynaydi. An'anaviy o'yinlar yoshlarni faqat jismoniy jihatdan rivojlantirmaydi, balki ijtimoiy ko'nikmalarni ham oshiradi. Bu o'yinlar orqali talabalar o'zaro hamkorlik qilishni, muammolarni birgalikda hal qilishni va boshqalar bilan o'zaro hurmatni shakllantiradilar. An'anaviy o'yinlar va marosimlar o'quvchilarga jamoaviy ish, o'zaro yordam, xushmuomalalik, adolat va boshqa axloqiy me'yorlarni o'rgatishda juda samarali vosita hisoblanadi. Masalan, "Ko'k choy", "Besh tashna" kabi o'yinlar orqali talabalar jamoaviy ishlashni, muammolarni echishda guruhni boshqarishni va axloqiy qarorlar qabul qilishni o'rganadilar.Bundan tashqari, xalq marosimlari, masalan, to'ylar, madaniy tadbirlar yoki milliy bayramlar orqali o'quvchilar xalq an'analarini va qadriyatlarini amaliy tarzda o'rganadilar. Marosimlar va bayramlar, nafaqat ijtimoiy hayotga oid ko'nikmalarni oshiradi, balki o'quvchilarga milliy g'urur va madaniy merosni qadrlashni o'rgatadi. Bu yondashuv o'quvchilarni an'anaviy qadriyatlar bilan tanishtirish va ularga hurmatni shakllantirishga yordam beradi. O'quvchilar, shuningdek, marosimlarda o'zlarining roli va mas'uliyatlarini his etishadi, bu esa ijtimoiy ongni rivojlantiradi.

Xalq pedagogikasida mehnat tarbiyasi alohida o'rin tutadi. Mehnat tarbiyasini oshirish nafaqat mehnatni qadrlashni, balki mehnatga nisbatan mas'uliyatni oshirishni ham ta'minlaydi. Mehnat tarbiyasining muhim jihatlaridan biri bu — yoshlarni mehnat qilishga, o'z mehnatini qadrlashga va shu orqali boshqalarga ham yordam berishga o'rgatishdir. Innovatsion ta'lim texnologiyalari yordamida bu jarayon yanada samarali bo'lishi mumkin. O'quvchilarga real hayotdagi muammolarni hal qilish uchun amaliy mashg'ulotlar, loyiha ishlari va interaktiv darslar orqali mehnat tarbiyasi o'rgatiladi. Bu yondashuv o'quvchilarga nafaqat mehnatga bo'lgan mas'uliyatni, balki mehnatni jamoa bilan birgalikda amalga oshirishni ham o'rgatadi.Masalan, ekologiya yoki qishloq xo'jaligi sohalarida amalga oshiriladigan loyihalar orqali talabalar mehnatga nisbatan mas'uliyatni oshirishadi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlar, masalan, bog'dorchilik, dehqonchilik, qo'l mehnati, hunarmandchilik kabi sohalarda bo'lib o'tkaziladigan darslar o'quvchilarga mehnatni qadrlashni va uni ijtimoiy hayotda qo'llashni o'rgatadi. Bu metod, talabalar uchun mehnatga nisbatan mas'uliyatni oshiradi va ularni har bir ishda to'g'ri yo'nalishda faoliyat yuritishga rag'batlantiradi. Mehnat tarbiyasining samarali usullari, ayniqsa, ekologiya, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sohalarida o'quvchilarga haqiqatda qanday qilib ishlashni, ishlab chiqarishni va mehnatni qadrlashni o'rgatadi.

Xalq pedagogikasining yana bir muhim qismi milliy san'at va hunarmandchilikni o'rgatishdir. Milliy san'at va hunarmandchilik, yoshlarni nafaqat amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlaydi, balki ularni milliy madaniyatga bo'lgan hurmatni shakllantiradi. Xalq san'ati va hunarmandchilikning o'ziga xosligi shundaki,

ular o'ziga xos estetik va amaliy jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu san'at turini o'rgatish, yoshlarni o'z madaniyati va tarixiga chuqurroq hurmat bilan qarashga undaydi.Masalan, to'quvchilik, kulolchilik, yog'och o'ymakorligi va boshqa an'anaviy hunarlar, o'quvchilarga amaliy ko'nikmalarni o'rgatadi va ularni o'z xalqining madaniy merosi bilan tanishtiradi. Innovatsion ta'lim metodlari yordamida bu hunarlarni o'rgatish, o'quvchilarda estetik didni shakllantiradi va ularga ijodiy yondashuvni o'rgatadi. Hunarmandchilikni o'rgatish orqali talabalar o'zlarining ijodiy imkoniyatlarini kashf etadilar va shu orqali shaxsiy rivojlanishga erishadilar. Shuningdek, bu metod yoshlarni milliy qadriyatlar bilan tanishtirish va ularni o'z madaniyatiga nisbatan kuchli g'urur his qilishga yordam beradi.Innovatsion ta'lim sharoitida xalq pedagogikasidan foydalanish, o'quvchilarning nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy va axloqiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Xalq qo'shiqlari va maqollarini o'qitish, an'anaviy o'yinlar va marosimlar, mehnat tarbiyasini oshirish va milliy san'atni o'rgatish kabi metodlar, o'quvchilarni nafaqat axloqiy va ma'naviy jihatdan rivojlantiradi, balki ularni milliy qadriyatlar bilan tanishtiradi. Xalq pedagogikasining g'oyalarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish, o'quvchilarda har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion ta'lim sharoitida xalq pedagogikasidan foydalanib tarbiyalash texnologiyasini shakllantirish, o'quvchilarning nafaqat ilmiy, balki axloqiy va madaniy rivojlanishiga ham yordam beradi. Xalq pedagogikasining boy merosi va zamonaviy ta'lim metodlarini birlashtirish orqali talabalar o'zlarining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muvaffaqiyatga erishadilar. Innovatsion ta'limda xalq pedagogikasining g'oyalarini qo'llash yoshlarni nafaqat ilmiy bilimlar, balki axloqiy va madaniy qadriyatlar bilan ham boyitadi. Bu esa jamiyatda ma'naviy jihatdan yetuk, mas'uliyatli va faol fuqarolarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarni xalq pedagogikasidan foydalanib tarbiyalash texnologiyasini shakllantirish, ta'lim jarayonini yanada samarali va ma'noli qilishda muhim ahamiyatga ega. Xalq pedagogikasi o'zining boy madaniy merosi va axloqiy qadriyatlari bilan ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat bilim olish, balki ma'naviy va axloqiy rivojlanishini ta'minlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.Xalq qo'shiqlari, maqollar, an'anaviy o'yinlar va marosimlar orqali talabalar milliy qadriyatlar, me'yorlar va urf-odatlarni o'rganish bilan birga, ijtimoiy ko'nikmalarni, axloqiy va estetik fazilatlarni shakllantiradilar.

Xulosa qilib aytganda, xalq pedagogikasining zamonaviy ta'lim tizimida qo'llanilishi, nafaqat ta'lim jarayonini yanada boyitadi, balki yoshlarni ma'naviy va axloqiy jihatdan barkamol shaxslar sifatida tarbiyalashga hamda ularning jamiyatda faol va mas'uliyatli ishtirokini ta'minlashga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismoilov, A. *Xalq pedagogikasining asoslari* (2015). Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. Rahimov, T. *Innovatsion ta'lim texnologiyalari va ularning amaliyoti* (2017). Toshkent: Fan nashriyoti.
3. Xo'jaev, A. *Xalq pedagogikasi va uning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni* (2018). Samarqand: Samarqand davlat universiteti.
4. Karimov, B. *Ta'lim va tarbiyaning innovatsion yondashuvlari* (2016). Toshkent: TDTU nashriyoti.
5. Nurmatov, R. *Xalq pedagogikasining o'zbek ta'lim tizimidagi roli* (2018). Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti.

ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI O‘QUVCHILARNI TANQIDIY VA TAHLILIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH OMILI

Ismoilova Gulrux Ulug‘bekovna
University of economics and pedagogy NOTM
“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi
Rasulova Mushtariy
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqola zamonaviy ta’lim texnologiyalari haqida yozilgan bo‘lib, dars jarayonida bu texnologiyalardan fodalansa, darslarning samaradorligi yana ham oshishi misollar yordamida asoslab berilgan. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan ta’lim jarayonida muntazam foydalanib

borilsa, o‘quvchilarda yoshligidan tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlantiriladi**.**

Kalit so‘zlar: ta’lim texnologiyalari, interaktiv, raqamli vositalar, gamifikatsiya, muammoli ta’lim, debatlar, munozaralar, loyihali ta’lim, klaster, xulosalash, venn, bo‘lishi mumkin emas.

Annotation: This article discusses modern educational technologies and demonstrates, through examples, how their application in the classroom can enhance lesson effectiveness. It also emphasizes that consistent use of contemporary technologies in the educational process fosters analytical and critical thinking skills in students from an early age.

Keywords: educational technologies, interactive, digital tools, gamification, problem-based learning, debates, discussions, project-based learning, clustering, summarization, Venn diagram, impossibility.

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida o‘quvchilarning tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish muhim masalaga aylanib bormoqda. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari bu borada muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ular ta’lim jarayonini interaktiv, ijodiy va samarali tashkil etishga yordam beradi. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim texnologiyalarining tanqidiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Zamonaviy texnologiyalar haqida so‘z borganda fanlararo integratsiyani ta’lim jarayoniga qo‘llash, o‘quvchilar ongida olamni bir butun holda aks ettirishni unutmasligimiz lozim. Integratsiya – ayrim bo‘laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo‘shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari - bu innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalardan foydalanish orqali o‘quv jarayonini samarali tashkil etish usullari majmuasidir. Ularga quyidagilar kiradi:

- Interaktiv ta’lim metodlari (muammoli ta’lim, munozaralar, loyihaviy ta’lim);
- Raqamli texnologiyalar (onlayn platformalar, sun’iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik);
- Gamifikatsiya (o‘yin elementlari orqali o‘qitish);
- Blended learning (an’anaviy va raqamli ta’lim uyg‘unligi).

Tanqidiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining o‘rni

1. **Muammoli ta’lim** – o‘quvchilarga ma’lum bir vaziyatga yechim topish uchun muammolar taqdim etish orqali ularning tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.
2. **Debatlar va munozaralar** – turli fikrlarni taqqoslash va dalillar orqali xulosa chiqarish jarayonini faollashtiradi.
3. **Loyihaviy ta’lim** – o‘quvchilarni mustaqil tadqiqot olib borishga va turli manbalar asosida axborotni tahlil qilishga o‘rgatadi.
4. **Onlayn platformalar va sun’iy intellekt asosida o‘qitish** – o‘quvchilarga individual ta’lim olish imkoniyatini beradi va ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini oshiradi.
5. **Gamifikatsiya** – o‘yin elementlari yordamida o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish va ularni qiziqtirish orqali bilim olish jarayonini samarali qiladi.
6. **Tahliliy fikrlash uchun testlar va simulatsiyalar** – real hayotdagi holatlar asosida o‘quvchilarni muammolarni hal qilishga o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinf O‘qish kitobidagi mavzularni “Xulosalash”, “Bo‘lishi mumkin emas”, “Klaster”, “Ven” strategiyasi texnologiyalaridan unumli foydalanish orqali fanga oid va tayanch kompetensiya elementlarini o‘tilayotgan mavzularning mazmuniga mos holda foydalanib boshlang‘ich ta’limdagi muammolarning bir qismini bartaraf etishimiz mumkin. Endigina savodi chiqqan kichik yoshdagi o‘quvchilarning 40-30% o‘tilayotgan matn mazmunini to‘laligicha idrok qilib o‘qiy olmaydi. O‘qituvchilarning o‘zi ham bu muammoga yetarlicha e’tibor bermaydi. Ular o‘quvchilarning tez va to‘g‘ri o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘proq e’tiborlarini qaratadilar. Natijada bola matn mazmunini umuman tushunmaydi, o‘qigan so‘zlarining ma’nosini, mavzuning mazmunini tushunib ulgurmay keyingi mavzuga o‘tiladi. Natijada ongli o‘qish malakalari shakllanmaydi. Bunday o‘quvchilarda keyinchalik qayta hikoya qilish ko‘nikmasi rivojlanmaydi. Quyida biz foydalanadigan texnologiya natijasida bu muammolar to‘laligicha o‘z yechimini topadi.

“Ven” diagrammasi strategiyasi o‘quvchilarni mavzuga nisbatan tahliliy yonloshuv, ayrim qismlar negizida mavzularning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiradi. 1-sinf

O‘qish kitobidagi “Buyuk munajjim” va “Shoh va shoir” matnlarini tahlil qilamiz. Dastlab matnlar mazmuni bo‘yicha suhbat uyushtiriladi. So‘ngra ikkala matn bir-biriga qiyoslanib, taqqoslanadi.

“Buyuk munajjim” matnining hususiy jihatlari:

1. Mirzo Ulug‘bek 15 yoshida taxtga o‘tirgan;
2. Samarqandda shohlik qilgan;
3. Astronomiya fanining rivojiga buyuk hissa qo‘shgan;
4. Rasadxona qurdirgan.

“Shoh va shoir” matnining hususiy jihatlari:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur Andijonda tug‘ilgan va 11 yoshida taxtga o‘tirgan;
2. Hindistonda shohlik qilgan;
3. Musiqa, adabiyot, harbiy sohaga oid kitoblar yozgan;
4. “Boburnoma” asarining muallifi.

Ikkala matn uchun umumiy bo‘lgan jihatlar:

1. Ikkala olim ham Temuriylar naslidan bo‘lgan;
2. Olim va shoh bo‘lganlar;
3. Qisqa umr ko‘rganlar;
4. Ikkala shohning o‘limida ham farzandlarining ishtiroki mavjud (dalillar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, sabab, oqibat, maqsad, vositalarni farqlaydilar).

Bu strategiya yordamida o‘quvchilar matnlar mazmunini anglaydi, tahlil qiladi, bir-biriga qiyoslaydi, umumiy va hususiy tamonlarini farqlaydilar. Qiyoslash va farqlash, taqsimlash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, aniqlashtirishga oid topshiriqlar boshqa matnlarni tahlil qilish mobaynida ham muntazam berib boriladi.

Yuqoridagi metod yordamida o‘quvchilarda quyidagi fanga oid va tayanch kompetensiya elementlari shakllantiriladi: badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi: o‘rganilgan asarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi; asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi.

Demak, “Ven” strategiyasi metodi yordamida 1- sinfdan boshlab o‘quvchilarga fanga oid va tayanch kompetensiya elementlarini tushuntirib borsa bo‘ladi. Ta’limda kompetentlik va kompetensiya, innovatsion texnologiyalar bir-birini to‘ldirib, rivojlantirib ta’lim sifatini yanada oshirishga hizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarning tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Interaktiv va innovatsion yondashuvlar orqali o‘quv jarayoni samaradorligi ortadi va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Kelajakda ta’lim tizimida zamonaviy texnologiyalarni kengroq joriy etish orqali ta’lim sifatini yanada oshirish mumkin.

Xulosalash texnologiyasi: bu texnologiya yordamida o‘quvchilarning o‘rganilayotgan muammoga nisbatan tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiriladi. Masalan, boshlang‘ich sinflarda Tabiiy fan darslarini o‘qitishda Xulosalash texnologiyasidan foydalanish mumkin.

Uyqu nima uchun kerak ?

Uyqu-sog‘lom turmush tarzining muhim qismi. Kunduzgi uyqu 1-sinf o‘quvchilari uchun foydali. Bu uyqu ularga dam olishlari va qayta kuch to‘plashlariga yordam beradi.

Uyquning	
Foydalari	Zararlari
Organizm qayta tiklanadi	Me’yordan ortiq ko‘p uxlash organizmni xolsizlantiradi
Toliqish va charchash o‘rnini kuch va energiya egallaydi	Surunkali anemiya kasalligiga olib keladi
Kechki soat 10-12 oralig‘idagi uyqu bo‘y o‘stiradigan garmon ishlab chiqarishni ta’minlaydi	Rejalashtirgan ishlarimizni qolib ketishiga sabab bo‘ladi

Zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘rganilayotgan muammo tanqidiy va tahliliy jihatdan yoritib beriladi. Sinf o‘quvchilari ikki guruhga bo‘linib mavzuni asoslashga va taqdimot qilishga harakat qiladilar. Bu usulda o‘quvchilar guruhida hamkorlik, hamjihatlik, o‘zaro hurmat, eng to‘g‘ri va asosli

javobni tanlay olish ko‘nikmalari shakllanadi. Har bir dars jarayonida o‘tilayotgan mavzu mazmuniga mos texnologiyalardan foydalanib borilsa, o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi oshadi. Bunday yoshlar kelajakda jamiyatda bo‘layotgan siyosiy va iqtisodiy rivojlanishlarni anglay oladigan, tahlil qila oladigan, o‘zining mustaqil fikriga ega komil inson sifatida namoyon qiladilar.

Adabiyotlar

1. G.U. Ismoilova. Talim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar//Toshkent 2010 y. 157-bet.
2. Tabiiy fanlar II qism. Novda nashriyoti, Toshkent -2024 yil. 39-bet
3. Laurillard, D. (2013). *Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology*. Routledge.
4. Oblinger, D. G., & Oblinger, J. L. (2005). *Educating the Net Generation.* EDUCAUSE.

FALSAFIY BILIMLARNING JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Abdullaxo‘jayev Adhamxo’ja Isaxo’ja o’g’li
Qo’qon universiteti o‘qituvchisi
Alijonova Ruxshona Muzaffarjon qizi
Qo’qon universiteti BT 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyat rivojlanishida falsafafiy jihatlar yoritib beriladi. Maqolada falsafa va uning jamiyatdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Falsafa insoniyatning fikrlash uslubi, hayotga bo'lgan munosabati va ma'naviy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Maqola falsafaning asosiy vazifalari va uning turli sohalarda qanday aks etishini tahlil qiladi.

Kalit so’zlar: Rivojlanish, jamiyat, individual, intelektual rivojlanish, muloqot, yetakchi faoliyat, ma’naviyat.

Jamiyat rivoji ong, xususan falsafiy ong bilan uzviydir. Chunki, jamiyat va ijtimoiy hayotning rivoji falsafiy ong orqali umumlashadi. Jamiyat rivoji to'g'risidagi falsafiy fikr, qarashlar, nazariya va ta'limotlar mazmuni, unda belgilab berilgan umumiy prinsiplar, dunyoqarash ko'rinishlari, ong shakllari jamiyatning ijtimoiy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda, ijtimoiy muammolar va rivojlanayotgan zamonda, falsafaning jamiyatdagi o'rni yanada dolzarblashmoqda. Tahlil qilishdan maqsad, falsafaning turli ijtimoiy qatlamlarga, ilm-fanga va diniy e'tiqodlarga ta'sirini o'rganishdir. Falsafa, asosan, bilish jarayonini o'rganadi va bir vaqtning o'zida axloqiy qadriyatlarni shakllantiradi. Optimizm, skeptitsizm yoki utilitarizm kabi falsafiy yo'nalishlar, jamiyatda muhim rol o'ynaydi. Falsafa orqali insonlar o'z his-tuyg'ularini, e'tiqodlarini va hayotiy qarashlarini tushunishga harakat qiladilar. Falsafa insoniyat tarihidagi eng qadimiy ilmlaridan biridir. Falsafiy mulohaza yuritish, fikrlash inson tabiatiga hos, demak, uning o’zi kabi qadimiydir. U olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati, borliq va yo’qliq kabi ko’plab muammolar haqida bahs yuritadigan fandir. Falsafiy tafakkur olamdagi narsa va hodisalarni fikrda umumlashtirib, mavhumlashtirib, o’zaro bog’liqlikda va rivojlanishda o’rganib, ularning mohiyatini chuqurroq va to’laroq bilishdir. Falsafa fanlar ichidagi fandir, tafakkur madaniyatidir. Inson bilishining ob'ekti bo’lgan olam cheksizligi sababli, bu savollarga javob berish imkoniyati ham cheksizdir. Bu savollarga javob izlash bizning kunlarimizgacha davom etib kelmoqda, bundan keyin ham davom eta beradi. Aql-idrok va bir lahzali amaliy harakatni ko’zlovchi sog’lom fikr mavjud bo’lgan hayot muammosini payqamay qolishi ham mumkin. Falsafiy tafakkur albatta ana shu muammoni aniqlaydi va uni hal etish yo’lini izlaydi. To’g’ri, falsafiy tafakkur amaliy harakatning o’rnini bosmaydi. Ammo, u muayyan amaliy harakat zaruratini, maqsadini yuzaga chiqarishning eng samarali, unumli yo’llarini topib bera oladi.

- Birinchidan, «Olam -odam» munosabatlari tizimi ko’p qirrali va rang-barang muammolarni o’z ichiga oladi. Ob'ektivlik va sub'ektivlik moddiylik va ma'naviylik, borliq va tafakkur, jism va ruh, ma'naviyat va ruhiyat, ular o’rtasidagi dialektik aloqadorlik ham falsafiy tadqiqot sohalariga kiradi.
- Ikkinchidan, «Olam va odam» munosabatlari tizimi mehnat va buyum, ma'rifiy, metodologik, ma'naviy-ahloqiy, badiiy-estetik munosabatlarni ham o’z ichiga oladi.

- Uchinchidan, falsafa fani olam va inson mohiyatini barcha rang- barangligi, o’zaro aloqalari va munosabatlari bilan to’laroq tushunishga yordam beradi. Demak, falsafa fan sifatida «olam va odam» tizimi rivojiga asos bo’luvchi eng umumiy qonuniyatlarini tadqiq etadi.
- To’rtinichidan, falsafa ma'naviy olamni o’zgartirish sifatida nazariy bilimdonlarning tarihan birinchi ilmiy shaklidadir. Falsafa yordamlarning amaliy faoliyatini va ilm-fan ma'lumotlarini nazariy umumlashtirib, yangi sifatidagi umumiy qonuniyalarini ishlab chiqadi.

Ilmiy bilimlarning barchasi falsafa fani hususiyatlarini tushunishga yordam beradi. Ekologiya va sinergetika kabi umumiy ilmiy fanlar falsafaga yaqin turadi va uning rivojiga ta'sir kursatadi. Ammo, shunisi ham borki, bu fanlarning o’zi falsafaga yaqin turadi va uning rivojiga ta'sir ko’rsatadi. Ammo, shunisi ham borki, bu fanlarning o’zi falsafaning hozirgi fanlarni umumlashtirishdan kelib chiqqan. Ilmiy nazariyalar har qanday yirik [fundamental] va umumlashgan bo’lsa, u shunchalik katta muammolarni hal etishi mumkin. Falsafiy qarashlar esa ana shu muammolarni umumbashariy manfaatlar nuqtai nazaridan hal etish yo’llarini ko’rsatadi. Falsafaning asosiy hususiyati-olamni va odamni alohida o’rganish emas, balki olam va inson o’rtasidagi munosabatlarning eng muhim qonuniyatlarini o’rganishdir. Falsafaning o’ziga hosligi va jamiyatdagi o’rni ham shundadir. Falsafa fani olam va inson o’rtasidagi rang-barang, o’zaro aloqalar va munosabatlar, o’zaro faoliyatlarni o’rganish asosida mazmunan quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- tabiat va jamiyat o’zaro munosabatlarining umuminsoniyat tajribalariga tayanib tadqiq etadi, o’rganadi.
- borliq va olam haqidagi bilimlar hazinasidan kelib chiqib, odam olamni qanday bilishini, voqelikka munosabatini, olamda o’z o’rnini, vazifasini qanday tushunish kerakligini, hayot ma'nosi va maqsad-muddaosini ilmiy anglashni tushuntiradi
- olamni hissiy bilish yo’li bilan erishib bo’lmaydigan tamoyillar, qonunlar, kategoriyalar-muhim tushunchalarning ma'nolari va mohiyatini anglab olishga imkon tug’diradi va shu tufayli falsafa tili ilmiy, nazariy umumlashi tasnifida bo’ladi.
- «olam-odam» umumiy formulasi asosida falsafa fani barcha fanlarga dahldor ilmiy muammolar yechimini to’g’ri topishga yordam beradi.

falsafa zamonaviy fanlarning yutuqlariga suyanadi, nazariy tafakkur va madaniyat kategoriyalari, muhim tushunchalarini aniqlaydi; olamning ilmiy manzarasini aks ettiradi. Har bir kishining dunyoga nisbatan o’z qarashi, o’zi va o’zgalar, hayot va olam to’g’risidagi tasavvurlari, hulosalari bo’ladi. Ana shu tasavvurlar, tushunchalar, qarash va hulosalar muayyan kishining boshqa odamlarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi. Shu ma'noda, dunyoqarash – insonning tevarak- atrofini qurshab turgan voqelik to’g’risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o’zining undagi o’rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir. Dunyoqarash olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir. Jamiyatning demokratlashuvi tufayli jamiyatshunoslikdagi «ijtimoiy borliq ijtimoiy ongga bog'liq emas, ijtimoiy ong ijtimoiy borliqni aks ettiradi va u bilan belgilanadi», degan markscha yondashuvga qarashlar o'zgardi. Mustaqillikgacha falsafiy ongda ana shu prinsip belgilovchi ahamiyatga ega bo'lgan. «Ijtimoiy ong» va «ijtimoiy borliq» munosabatida ijtimoiy borliqqa ustunlik berilgan. Ya'ni, ijtimoiy ongning ijtimoiy borliq bilan bog'liqligini tan olmaslik ijtimoiy hayotni idealistik talqin etish bilan barobar baholangan. Jamiyat qonunlari tipologiyasiga oid falsafiy adabiyotlarda sobiq ittifoq davrida markscha, ya’ni formatsiyaviy yondoshuv ustun bo‘lib keldi. Shu nuqtai nazardan, jamiyat qonunlariga ularning umumlashtiruvchilik darajasidan kelib chiqib yondashsa, ular uch guruhga, ya’ni: eng umumiy ijtimoiy qonunlar, umumiy sotsiologik qonunlar, xususiy sotsiologik qonunlarga ajratilgan. Bu oxiroqibatda falsafiy ongning ko'rinishi sifatida ijtimoiy ongning jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi o'rni va rolini bir tomonlama buzib talqin etilishiga sabab bo'lgan. Bu metodologik nuqtai nazar noilmiy yondashuv edi, deyish mumkin. Bu hol ongning jamiyat ma'naviy, ijtimoiy hayotiga ta'siri noto'g'ri idrok etilishiga olib keldi. Mustaqillikgacha falsafiy ongda ana shu prinsip belgilovchi ahamiyatga ega bo'lgan. «Ijtimoiy ong» va «ijtimoiy borliq» munosabatida ijtimoiy borliqqa ustunlik berilgan. Ya'ni, ijtimoiy ongning ijtimoiy borliq bilan bog'liqligini tan olmaslik ijtimoiy hayotni idealistik talqin etish bilan barobar baholangan. Bu oxir-oqibatda falsafiy ongning ko'rinishi sifatida ijtimoiy ongning jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi o'rni va rolini bir tomonlama buzib talqin etilishiga sabab bo'lgan. Bu metodologik nuqtai nazar noilmiy

yondashuv edi, deyish mumkin. Bu hol ongning jamiyat ma'naviy, ijtimoiy hayotiga ta'siri noto'g'ri idrok etilishiga olib keldi.

“Kuzatish “ metodi.

Jamiyatimizning rivojlanishida falsafaning o’rni va ahamiyati juda ham katta. Biz bu jamiyat rivojlanishida falsafaning ahamiyatini kuzatish metodi orqali bilib olamiz va o’rganamiz. Jamiyatimiz zamonaviylashmoqda va tobora rivojlanib bormoqda. Falsafa insonning olamga munosabatini ifodalaydigan nazariy bilimlar tizimi bo'lib, borliqning mohiyati va hayotning mazmuni, bilish hamda amaliy faoliyat, taraqqiyot va o‘zgarish kabi turli muommolar bilan shug‘ullanadi. Jamiyat yani tabiatning bir qismi yani ijtimoiy borliq bo’lib odamlar uyushmasining maxsus shakli hisoblanadi. Jamiyat qonunlarni amal qilish bilan rivojlanadi. Jamiyat qonunlari ham eng umumiy qonunlar tiplariga ajratishimiz mumkin. Jamiyatimiz rivojlanishida esa falsafaviy qonunlar va kategoriyalarida ham o’z ifodasini topadi va o’zaro aloqadorliklar, bog’lanishlar ijtimoiy hayotda ham namoyon bo’ladi.Bu tiplar esa jamiyatimiz rivojlanishida falsafaviy o’rni hisoblanadi.

Jamiyat rivojlanishidagi falsafaning ahamiyatida ham qonunlar ham axloqiy qarashlarning o’rni juda kattadir. Jamiyat rivojlanishidagi falsafiy omillar jamiyatda yangi elementlari paydo bo’lishiga yoki eski elementlarning yo’qolishiga hissa qo’shadigan sharoitlar, sabablar ko’rsatilgan vas hu sabablarga ko’ra jamiyat o’zgaradi va asta- sekin rivojlanadi. Kuzatish metodini jamiyat rivojlanishining falsafaviy ahamiyatiga bog’laganimiz sababi jamiyat har sohada rivojlanib bormoqda va biz falsafaviy tomondan qarab jamiyat rivojlanishini kuzatish metodi orqali o’rganib chiqdik. Jamiyat rivojlanishiga xos umumiy qonunlarning yana bir jihati shundan iboratki, ular barcha mamlakatlar, xalqlar rivojlanishining umumiy tomonlarini ochish, kashf qilish orqali ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni, muayyan jamiyatning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tishidagi qonuniyatlarni ko‘rsatib beradi. Muayyan jamiyat rivojlanishining aniq bir bosqichlari, holati to‘g‘risida to‘liq tasavvur hosil qilish uchun umumiy ijtimoiy va umumiy qonunlarni bilishning o‘zi yetarli emas. Chunki muayyan bir jamiyatni, undagi hodisa va jarayonlarning mazmun-moxiyatini bilish, avvalo, juz’iy qonunlarni bilishni taqozo etadi. Juz’iy qonunlarning o‘ziga xosligi, birinchidan, ularning amal qilish doirasi makon va zamonda nisbatan cheklanganlikda; ikkinchidan, jamiyat rivojining faqat ayrim bosqichlariga yoki alohida bir ijtimoiy-tarixiy jarayonlarga xos bo‘lgan jihatlarni aks ettirishida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy tarixiy jarayonlarning rivojlanishi, ularni bilish hamda davlat va jamiyat manfaatidan kelib chiqib, ma’lum maqsadni ko‘zlab boshqarish jarayonida aynan juz’iy qonunlar amaliy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kadamovich, Y. J., Muzaffarovna, I. G., Maxmudovich, Y. B., Boxtiyarovna, S. S., & Xabibullayevich, S. S. (2020).

2. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич., Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022).
3. Jumaniyazova N.S. Principles of state policy in the area of education // The scientific heritage Budapest, Hungary, 2021
4. 4. Hakimova I.M. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2019

TIBBIY TA'LIMDA BLUEPRINT TEXNIKASIDAN FOYDALANISH: BAKALAVRIAT TALABALARI UCHUN STRATEGIK QO‘LLANMA

Rakhmonov Ravshan Nomozovich
Samarqand Davlat Tibbiyot Unversiteti yuqumli kasalliklar va epidemiologiya kafedrasi stajyor-assistenti.
ravshanrahmonov56@gmail.com +998 (90) 075-61-67

Annotatsiya .Blueprint texnikasi — bu tibbiy ta’limda baholash tizimini tuzishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Bu texnika o‘quv maqsadlari, o‘quv materiali va baholash uslublari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlaydi. Bakalavriat bosqichidagi tibbiyot talabalari uchun blueprint texnikasini tushunish va qo‘llay olish — nafaqat o‘zlashtirishni kuchaytiradi, balki ilmiy tahlil qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantirib, klinik kompetensiyaga tayyorgarlik bosqichini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu maqola blueprint tuzish asoslari, uni yaratish bosqichlari, qo‘llanishi va talabalarga beradigan foydalari haqida batafsil tushuntiradi.

Kalit so‘zlar: Blueprint, Tibbiy ta’lim, Baholash, Talabalar, O‘quv strategiyasi, Klinik kompetensiya.

Kirish Tibbiy ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, unda talabalardan chuqur nazariy bilim, amaliy klinik ko‘nikmalar va kasbiy etika talab etiladi. Bu jarayonni baholashda adolatli va tizimli yondashuv zarur bo‘ladi. An’anaviy imtihon uslublari ko‘pincha barcha o‘quv maqsadlarini to‘liq qamrab olmaydi. Bu esa talaba bilimidagi bo‘shliqlarga, noaniq baholashga olib keladi. Blueprint texnikasi — ushbu muammolarga tizimli yechim taklif qiluvchi samarali vositadir.[1]

Blueprint texnikasi nima? Blueprint — bu o‘quv rejalashtirish vositasi bo‘lib, unda o‘quv maqsadlari, mavzular, baholash uslublari o‘zaro bog‘langan holda taqdim etiladi. U odatda jadval shaklida bo‘lib, unda qaysi mavzudan, qanday kognitiv darajada, qaysi formatda savollar berilishi aniq ko‘rsatiladi. Blueprint — bu o‘qituvchi va talaba uchun yo‘l xaritasi vazifasini bajaradi.[2]

Blueprintning asosiy komponentlari

O‘quv maqsadlari: Talabadan kutiladigan aniq va o‘lchab bo‘ladigan natijalar.

Mavzular**:** Darslik yoki kurs davomida o‘rganiladigan asosiy bo‘limlar.

Kognitiv darajalar**:** Bloom taksonomiyasi asosida: bilim, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez va baholash.

Baholash uslublari**:** Test savollari, qisqa javobli savollar, OSKE (ob'ektiv strukturalangan klinik imtihon), amaliy ko‘nikmalar testi va boshqalar.[3]

Blueprint texnikasi tibbiyot talabalari uchun nima sababdan muhim?

Dastur to‘liq qamrab olinadi: Har bir mavzudan savol bo‘lishi ta’minlanadi.

Asosiy va muhim mavzular ajratiladi: Yuqori og‘irlikka ega bo‘lgan mavzular ko‘proq baholanadi.

Testda adolat ta’minlanadi: Har bir talaba teng sharoitda baholanadi.

Tayyorlanishda aniq yo‘nalish bo‘ladi: Talaba nimalarga e’tibor qaratishni biladi.

Kutilayotgan natijalar aniq bo‘ladi**:** Talaba va o‘qituvchi kutgan natijalar bir-biriga mos keladi.[4]

Blueprint yaratish bosqichlari.

O‘quv maqsadlarini aniqlash**:** Har bir mavzu uchun aniq maqsadlar yoziladi.

Mavzularni toifalarga ajratish**:** Sillabus asosida mavzular guruhlanadi.

Kognitiv darajani belgilash: Har bir maqsad qanday fikrlash darajasini talab qilishini ko‘rsatish.[5]

Og‘irlik darajasini belgilash**:** Har bir mavzuga savollar soni yoki ball ajratish.

Baholash uslubini tanlash: Har bir maqsadga mos test turi tanlanadi.

Jadvalni tuzish**:** Barcha ma’lumotlar asosida yakuniy blueprint jadvali tuziladi.

Oddiy Blueprint jadvali namunasi

Klinik ta’limda qo‘llanilishi Blueprint texnikasi klinik o‘qitishda quyidagi yo‘nalishlarda yordam beradi:

Mavzu	O‘quv maqsadi	Kognitiv daraja	Savol turi	Savollar soni
Yurak qon-tomir	EKG asoslarini tushunish	Tushunish	Test (MCQ)	4
Nafas tizimi	ABG natijalarini talqin qilish	Qo‘llash	Qisqa javobli	3
Asab tizimi	Qon tomir reflekslarini aytish	Bilim	Test (MCQ)	2

OSKE stansiyalarini rejalashtirish.

Har xil kasalliklar guruhini muvozanatli o‘rgatish.

Klinik fikrlash va qaror qabul qilishni baholash.

Talabalarning o‘zlari uchun blueprintdan foydalanishi Talabalar blueprintni faqat o‘qituvchilarning quroli deb o‘ylamasliklari kerak. Ular:

O‘zlarining mustaqil tayyorlov blueprintini tuzishlari mumkin.

Ma’ruzalarni o‘quv maqsadlariga bog‘lab chiqishlari mumkin.

Har bir mavzuning og‘irligiga qarab tayyorlanish vaqtini rejalashtirishlari mumkin.

Afzalliklari:

O‘qish vaqti samaradorligini oshiradi.

Nazariy va amaliy qismlarni uyg‘unlashtiradi.

O‘qituvchilar bilan fikr almashishga yordam beradi.

Kamchiliklari:

Murakkab va vaqt talab qiladigan jarayon.

Har doim yangilanib borishi kerak.

O‘qituvchilar orasida koordinatsiya talab qiladi.

Xulosa Blueprint texnikasi — bu nafaqat baholash vositasi, balki o‘quv jarayonini tizimli rejalashtirish va tashkil etishning kuchli usulidir. Tibbiy ta’limda, ayniqsa bakalavriat darajasidagi talabalar uchun, blueprint texnikasini o‘zlashtirish ularning bilim, ko‘nikma va yondashuvini ancha takomillashtiradi. Bu texnika talabaning o‘zini baholashiga, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashiga, shuningdek, mustaqil ravishda o‘qishga motivatsiya topishiga xizmat qiladi. Tibbiyot sohasi mutaxassisi bo‘lish sari yo‘l olgan har bir talaba uchun blueprint texnikasi — bu bilim olishda samarali, adolatli va zamonaviy vosita.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Harden RM, Gleeson FA. Assessment of clinical competence using an objective structured clinical examination (OSCE). Medical Education. 1979;13(1):41–54.
2. Cizek GJ. A justification for standardized testing: Raising expectations, expanding opportunity, and supporting professional judgment. Education Policy Analysis Archives. 1994.
3. Case SM, Swanson DB. Constructing Written Test Questions for the Basic and Clinical Sciences. National Board of Medical Examiners; 2001.
4. Jolly B, Boud D, Cantillon P, Lee N. Theoretical and conceptual issues in curriculum mapping: using blueprints for learning and assessment. Medical Teacher. 2012;34(7):531–538.
5. Рахмонов, Р. Н., Мансуров, Ж., & Джамалдинова, Ш. О. (2024). ЗНАЧЕНИЕ ЯЗЫКА ДЛЯ МЕДИЦИНСКИХ РАБОТНИКОВ. *World of Scientific news in Science*, *2*(2), 317-322.

HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA YOSHLARNING IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
+998885131060, shukurjonyeldashbayevna@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Hofiz Xorazmiyning didaktik yondashuvlari asosida zamonaviy ta’lim jarayonida yosh avlodning ijodiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Hofiz Xorazmiy, didaktika, ijodiy tafakkur, yoshlar, ta’lim va tarbiya.

Zamonaviy ta’lim jarayonida yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, yangicha qarashlarga ega va ma’naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir. Bu jarayonda badiiy adabiyot, xususan, didaktik yo‘nalishdagi mumtoz asarlar yoshlar tafakkurini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Hofiz Xorazmiy ijodida axloqiy-falsafiy g‘oyalar yetakchi o‘rin tutadi. Uning devonidagi she’riy asarlar chuqur didaktik mazmuni, tafakkurni rag‘batlantiruvchi obrazlar va insoniy komillikka yo‘naltirilgan g‘oyalari bilan ajralib turadi. Xususan, shoir ishq va aql, axloq va ma’naviyat, haqiqat va bilim singari tushunchalarni falsafiy-estetik talqin etish orqali yosh avlodni chuqur mushohada va ongli yashashga undaydi. Mazkur poetik merosni zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ayniqsa ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlar bilan uyg‘un holda tadqiq etish va ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bugungi kunning muhim ilmiy-amaliy masalalaridan biriga aylanmoqda. Hofiz Xorazmiy asarlaridagi didaktik-estetik xususiyatlar ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ma’naviy-ma’rifiy resurs sifatida ilmiy asosda talqin etilishi zarur.

So‘nggi yillarda ijodiy tafakkur masalasi falsafa, psixologiya, pedagogika va axborot nazariyasi kabi fanlar kesimida keng tadqiq etilib, uning inson tafakkurining yuqori shakli sifatidagi mohiyati har tomonlama yoritilmoqda. Jumladan, olima L.A.Qurbonova o‘z tadqiqotlarida xorijiy olimlar G.Altshuller, B.Makkinnon, A.Stolyarov, I.Teylor va boshqalar tomonidan ilgari surilgan ijodiy tafakkur masalasiga oid turli yondashuvlarni tahlil qilib, ijodiy tafakkurning badiiy ijoddagi, ayniqsa she’riyatdagi ifodasi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi.[1; 20-25 b.] O.P.Aslonova esa tafakkur jarayoni shaxsning yosh xususiyatlari, individual psixologik holatlari va intellektual salohiyati bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘lishini ilmiy jihatdan asoslaydi.[2; 18 b.] Shuningdek, Sh.A.Hasanovning ta’kidlashicha, badiiy asarni chuqur tahlil qilish ko‘nikmasi oliy filologik ta’limning markaziy komponenti sifatida qaralishi lozim. Uning fikriga ko‘ra, mustaqil fikrlash asosida idrok etilmagan, tahliliy yondashuv asosida anglanmagan va ilmiy tekshiruvdan o‘tkazilmagan badiiy matn o‘quvchi uchun yetarli darajada ma’naviy-estetik ozuqa bera olmaydi.[3; 26 b.] Zero, har bir ijodkorning adabiy merosini ilmiy o‘rganish, avvalo, uning asarlarida aks etgan o‘ziga xoslikni aniqlash, shuningdek, ijodkorning o‘zidan avvalgi adabiy an’analarga munosabatini tahlil etishdan boshlanishi zarur.

Hofiz Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan yagona devoni 37264 misradan iborat bo‘lib, unda 9 ta qasida, 1 ta tarkiband, 3 ta tarji’band, 1 ta muxammas, 1 ta marsiya, 1052 ta g‘azal, 2 ta mustazod, 31 ta qit’a va 12 ta ruboiy kabi turli janrlardagi she’riy namunalar jamlangan [4; 11–15 b.]. Bu poetik meros Hofiz Xorazmiyning adabiy maktablar bilan uzviy aloqadorligini, shu bilan birga, o‘ziga xos uslubda bu an’analarni ijodiy talqin etganini ko‘rsatadi. Bu jihatdan adib ijodini avvalgi an’analar bilan qiyosiy tahlil qilish orqali uning adabiyotga olib kirgan yangiliklarini, poetik mahoratini va estetik qarashlarini aniqlash imkoniyati yuzaga keladi. Taniqli adabiyotshunos olim U. Normatov ta’kidlaganidek: “Novatorlikni o‘ylab chiqarib bo‘lmaydi. U eng yaxshi an’analardan o‘sib chiqishi kerak” [5; 16 b.]. Bu fikr Hofiz Xorazmiy ijodining an’anaviylik va yangilik uyg‘unligidagi o‘rni va ahamiyatini chuqurroq anglashda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Hofiz Xorazmiyning boy poetik merosi nafaqat milliy adabiyotimizning estetik yutug‘i, balki pedagogik va ma’rifiy salohiyatga ega bo‘lgan nodir manba sifatida ham o‘rganilishi zarur bo‘lgan ijodiy hodisadir. Bu jihat adabiyotshunos olimlar tomonidan ham alohida qayd etilgan. Jumladan, ustozimiz M.Yu.Sulaymonov o‘z tadqiqotlarida Hofiz Xorazmiy ijodida epik timsollar talqini, didaktik g‘oyalar,

axloq-odob masalalari yuksak badiiy vositalar orqali ifodalanganini ta’kidlaydi[6; 7; 8; 9]. Shuningdek, Hofiz Xorazmiy merosning shakl va mazmun jihatidan boyligi bilan birga, tafakkurni harakatga keltiruvchi obrazlar, timsollar, g‘oyalar va ramzlar tizimi orqali o‘ziga xos poetik makon yaratganini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Bu esa Hofiz Xorazmiy she’riyatini nafaqat estetik baholash, balki uni ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlarini ham nazarda tutuvchi keng metodologik yondashuvni talab qiladi. Hofiz Xorazmiy ijodidagi didaktik, axloqiy-falsafiy g‘oyalarni chuqur tahlil qilish, xususan ijodiy tafakkurni rivojlantirishga asoslanuvchi tushunchalarning badiiy-estetik mazmunni zamonaviy ta'lim mazmuni bilan integratsiyalash orqali ijodiy tafakkurning tarkibiy komponentlari — obrazli fikrlash, erkin talqin qilish, assotsiativ tafakkur yuritish, metaforik anglash kabi jihatlar bilan uzviy aloqadorligi ochib beriladi.

Hofiz Xorazmiy ijodida ishq-muhabbat mavzusi nafaqat shaxsiy tuyg‘ular ifodasi sifatida, balki insonni o‘z mohiyatini anglash, ruhiy poklanish va komillikka yetaklovchi kuch sifatida talqin qilinadi. Shoir nazarida muhabbat inson qalbini ravshan qiluvchi, uni ilohiy haqiqat sari yetaklovchi ma’naviy nurdir. Quyidagi misrada ushbu holat badiiy-falsafiy umumlashma sifatida ifodalangan:

Muhabbat nuri birla diyda-yi jonni qachon ravshan
Qilur bo‘lsang, ko‘rungay oyinangda ma’ni-i ashyo.
Tilar bo‘lsang haqiqat mulkida sardor bo‘lmaqliq,
Alif yanglig‘ bo‘la ko‘rgil muhabbat lavhida yakto. [4; 21 b.]

Mazkur satrlar tahlilidan ayon bo‘ladiki, Hofiz Xorazmiy uchun muhabbat – bu haqiqatni anglash vositasi, inson o‘zligining oynasidir. Shoirning "*oyinangda ma’ni-i ashyo*" (ya’ni, borliqning mohiyati) degan iborasi orqali u tasavvufiy tafakkurga xos ichki ko‘rish, ruhiy idrokni nazarda tutadi. Alif harfi orqali esa yagona haqiqat timsoli ko‘rsatiladi. Demak, ijodiy tafakkur Hofiz Xorazmiy poetikasida birlamchi manba – ishqiy anglash orqali yuzaga chiqadi.

Ul kishilarki muhabbat bila jon bermaslar,
Ishq ko‘yinda yo‘l anlarg‘a ravon bermaslar.
Ishqning ko‘yida benomu nishon bo‘lmayin,
Benishonlarning aro nomu nishon bermaslar.
Ishqning sirrini har kimgakim anglaturlar,
Bo‘lmasun fosh teyu komu zabon bermaslar. [4; 188 b.]

Bu satrlar orqali Hofiz Xorazmiy muhabbatni chuqur sirlarga boy bo‘lgan muqaddas bir yo‘l sifatida ko‘rsatadi. Ishq faqatgina fidoyilikni, o‘zini inkor qilishni, benishonlik (ya’ni, dunyoviy mashhurlikdan kechishni) talab qiladi. Shoir ijodiy tafakkurni ishq sirlarini anglash va ularni ichki sezgi bilan idrok etish asosida rivojlanadigan jarayon sifatida ko‘radi. Ijodkorlik bu yerda insonning ruhiy tafakkuri, ichki ruhiy-axloqiy yuksalishi bilan bog‘liq.

Man o‘larman darddin ko‘rgilkim, ul jon anglamas,
O‘z gadosi holidin nag kirtu sulton anglamas.
Zoriliq qildim bu tun yorim eshiginda, vale
Ne qilayimkim, o‘shul shah ohu fig‘on anglamas. [4; 264-265 b.]

Mazkur satrlar esa ruhiy iztirob, ichki kechinma va fidokor muhabbatni o‘zida aks ettiradi. Hofiz Xorazmiy bu yerda inson qalbidagi chuqur kechinmalar orqali, ijodiy tafakkur jarayonining qanday hosil bo‘lishini ko‘rsatadi. Ya’ni, ijodkor iztiroblar, tushunilmaslik va rad etilishlar fonida o‘zining botiniy salohiyatini kashf etadi. Bu holat psixologik va falsafiy jihatdan ijodning ruhiy motivlarini anglashga xizmat qiladi.

Man vafolig‘ qulni qilmas o‘zina yor, angladim,
Qon yoshi ig‘latib emdi o‘lturur zor, angladim. [10; 52 b.]

Bu satrlar Hofiz Xorazmiy ijodida sadoqat, vafodorlik va ular natijasidagi ruhiy iztirobning ifodasidir. Bu yerda shoir ijodiy tafakkurning ichki sezgi, empatiya va shaxsiy kechinmalar orqali shakllanishini yoritadi. Ijodiy tafakkur bu holatda nafaqat bilimga, balki ruhiy sinov va hayotiy tajribaga ham tayanadi.

Kim savsa diloromni jondin kecha bilgay,
Jondin kecha bilgan bu jahondin kecha bilgay...
Hofiz biki kim aysh-i nihon zavqini bilsa,
So‘z kelgan aro tig‘-i zabondin kecha bilgay. [10; 133 b.]

Bu satrlarda ishq yo‘lida jonni fido qilish, ortiqcha moddiy narsalardan kechish, ichki zavqni topish orqali ijodiy anglashga erishish g‘oyasi ilgari suriladi. Hofiz Xorazmiy bu bilan ijodkor ongining transformatsiyasi — ya’ni tafakkurning yuqori bosqichga o‘tishini badiiy timsollar vositasida ifodalaydi. Bu jarayon, shubhasiz, ijodiy tafakkurning yetuk shakllanishi bilan bevosita bog‘liq.

Hofiz Xorazmiy ijodi, xususan didaktik yo‘nalishdagi poetik merosi, zamonaviy ta’lim jarayonida yoshlarning ijodiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-metodik manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shoirning ishq, aql, axloq, komillik va inson mohiyatiga oid falsafiy-badiiy qarashlari obraz, ramz va majozlar vositasida mushohadali, erkin va noan’anaviy fikrlashga zamin yaratadi.

Ijodiy tafakkur — bu ongli idrok, hissiy sezgi, assotsiativ va obrazli fikrlash asosida shakllanadigan murakkab jarayon bo‘lib, ijodkor poetikasida bu jihatlar estetik va ma’naviy asoslarda mujassamdir. Uning ijodi zamonaviy pedagogik metodlar bilan uyg‘un holda o‘rganilganda, yoshlarning tafakkur salohiyatini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu munosabat bilan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

– Hofiz Xorazmiy ijodi asosida tayyorlangan didaktik materiallarni (tahlil kartalari, interaktiv topshiriqlar va h.k.) ta’lim jarayoniga integratsiya qilish;

– Ijodiy tafakkur va estetik anglashni uyg‘unlashtiruvchi maxsus fakultativ kurslarni oliy ta’lim tizimiga joriy etish;

– Shoir she’rlaridagi obrazli-falsafiy g‘oyalar asosida ijodiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi mashg‘ulotlar tizimini ishlab chiqish;

– Devonda berilgan axloqiy-falsafiy g‘oyalarni zamonaviy psixologik-pedagogik tamoyillar asosida tahlil qilish va ularni shaxsiy rivojlanish metodikasiga tatbiq etish;

– Adabiyot va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritishga qaratilgan fanlararo tadqiqotlar olib borish.

Umumiy qilib aytganda, Hofiz Xorazmiy poetikasidagi falsafiy-axloqiy timsollar, ramzlar va obrazlar ijodiy tafakkur faoliyatini faollashtirish, yosh avlodda erkin fikrlash, ongli mushohada yuritish va estetik anglashni shakllantirishda sermazmun manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References).

1. Қурбонова Л.А. Ижодий тафаккурнинг фалсафий-методологик таҳлили: Фалсафа фанлари номзоди … дисс. - Тошкент, 2007. - 170 б.
2. Аслонова О.П. Бошланғич синф ўқувчиларида тафаккур тезлигини шакллантиришнинг педагогик шарт-шароитлари: Пед. фан. бўйича фалсафа доктори(PhD) … дисс. – Қарши, 2020. – 164 б.
3. Ҳасанов Ш.А. Адабий таълим жараёнида талабаларда аналитик тафаккурни ривожлантириш технологиясини такомиллаштириш (Олий филологик таълим мисолида): Пед. фан. бўйича фалсафа доктори(PhD) … дисс. – Наманган, 2020. – 181 б.
4. Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 1-китоб. - Т.: ЎзКПМК, 1981. - 304 б.
5. Норматов У. Ижодкорнинг дахлсиз дунёси. – Т.: Мумтоз сўз, 2008. – 313 б.
6. Сулаймонов.М. Ҳофиз Хоразмий шеъриятида эпик тимсоллар талқини // Шарқшунослик. 2016. № 1. - 23-30 б.
7. Сулаймонов.М. Ҳофиз Хоразмийнинг дидактик қарашлари // Халқ таълими, жур. – Т.: 1992., № 10-12. – 20-22 б.
8. Сулаймонов М. Ҳофиз Хоразмий ахлоқ-одоб ҳақида. // НамДУнинг 50 йиллигига бағишланган илмий тўплам. – Наманган, 1992., – 80-83 б.
9. Сулаймонов М. Алишер Навоий ва Ҳофиз Хоразмий. // Алишер Навоий ижодий меросининг умумбашарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни. Халқаро илмий конференция материаллари. – Навоий, 2017., – 117-120 б.
10. Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 2-китоб. – Т.: ЎзКПМК, 1981., – 312 б.

IJTIMOIY TARMOQLAR VA AXLOQIY ONG: YOSH AVLOD QADRIYATLARIGA YANGI TAHDIDLAR VA IMKONIYATLAR

Abdullayeva Mohigul Muqumjon qizi, FDU magistranti
Email: mohigulabdullayeva169@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar yosh avlodning axloqiy ongi va qadriyatlar tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot muhiti, algoritmik manipulyatsiyalar va ijtimoiy tarmoqlardagi interaktivlik shaxsiy qadriyatlar shakllanish jarayoniga yangi tahdid va imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning axloqiy ongga ta’sir mexanizmlari nazariy jihatdan tahlil qilinib, ularning yoshlarning qadriyatlariga ta’sir qilish darajasi muhokama qilinadi. Shuningdek, virtual muloqot va anonimlik omillarining axloqiy qaror qabul qilish jarayoniga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Gender xususiyatlari, axborotni qabul qilishning psixologik asoslari va ijtimoiy tarmoqlar xavflarini baholashda yosh avlodning individual farqlari haqida ilmiy nuqtai nazardan fikr yuritiladi. Maqola ijtimoiy tarmoqlar va axloqiy ong o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni yoritib, yoshlarning axloqiy barqarorligini ta’minlash bo‘yicha konseptual tavsiyalarni ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoqlar, axloqiy ong, yosh avlod, qadriyatlar tizimi, axborot muhiti, algoritmik manipulyatsiya, gender farqlari, virtual ijtimoiy muhit, axloqiy qaror qabul qilish.

SOCIAL NETWORKS AND MORAL CONSCIOUSNESS: NEW THREATS AND OPPORTUNITIES FOR THE VALUES OF THE YOUNG GENERATION

Abdullayeva Mohigul Muqumjon qizi, master’s student of FSU
Email: mohigulabdullayeva169@gmail.com

Annotation: Modern social networks directly influence the moral consciousness and value system of the younger generation. The information environment, algorithmic manipulations, and interactivity in social networks create new threats and opportunities in the process of personal value formation. This article theoretically analyzes the mechanisms through which social networks impact moral consciousness and discusses their influence on the values of young people. Additionally, it examines the effects of virtual communication and anonymity on moral decision-making. The study considers gender characteristics, the psychological foundations of information perception, and individual differences among the younger generation in assessing the risks of social networks from a scientific perspective. The article highlights the complex interrelationship between social networks and moral consciousness, proposing conceptual recommendations for ensuring the moral stability of young people.

Keywords: social networks, moral consciousness, younger generation, value system, information environment, algorithmic manipulation, gender differences, virtual social environment, moral decision-making.

СОЦИАЛЬНЫЕ СЕТИ И НРАВСТВЕННОЕ СОЗНАНИЕ: НОВЫЕ УГРОЗЫ И ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ ЦЕННОСТЕЙ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ

Абдуллаева Мохигуль Мукумжоновна, студент магистратуры ФГУ
Email: mohigulabdullayeva169@gmail.com

Аннотация: Современные социальные сети оказывают непосредственное влияние на моральное сознание и систему ценностей молодого поколения. Информационная среда, алгоритмические манипуляции и интерактивность в социальных сетях создают новые угрозы и возможности в процессе формирования личных ценностей. В данной статье теоретически анализируются механизмы влияния социальных сетей на моральное сознание и обсуждается их воздействие на ценности молодежи. Кроме того, рассматриваются влияние виртуального общения и анонимности на процесс принятия моральных решений. Исследование затрагивает гендерные особенности, психологические основы восприятия информации и индивидуальные различия молодежи в оценке рисков социальных сетей с научной точки зрения. Статья освещает сложную взаимосвязь между социальными сетями и моральным сознанием, предлагая концептуальные рекомендации по обеспечению моральной устойчивости молодежи.

Ключевые слова: социальные сети, моральное сознание, молодое поколение, система ценностей, информационная среда, алгоритмические манипуляции, гендерные различия, виртуальная социальная среда, принятие моральных решений.

KIRISH

Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jamiyat hayotiga chuqur singib borishini ta’minlab, ijtimoiy munosabatlarning barcha qatlamlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, yosh avlod vakillarining dunyoqarashi, axloqiy mezonlari va qadriyatlar tizimiga internet va ijtimoiy tarmoqlar vositasida kirib kelayotgan axborotlar axloqiy ong shakllanishining yangi shakl va mexanizmlarini yuzaga keltirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Instagram, Telegram, TikTok va h.k.) endilikda nafaqat kommunikativ platforma, balki ijtimoiy identifikatsiya, virtual sotsializatsiya, shaxsiy qadriyatlar konstruksiyasi hamda axloqiy me'yorlarning qayta talqin qilinish maydoniga aylangan. Zamonaviy psixologik va sotsiologik yondashuvlar, xususan, sotsial konstruktivizm, mediaeffektlar nazariyasi, axborot-kognitiv modellari kabi nazariyalar asosida olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli axborot muhiti yoshlar ongida ko‘p holatlarda dualistik (ikki yoqlama) jarayonlarni yuzaga keltiradi: bir tomondan, ularning axborot savodxonligi, tanqidiy tafakkuri, erkin fikrlash qobiliyati va madaniy tafovutlarni anglash darajasi ortib borayotgan bo‘lsa, boshqa tomondan esa, axloqiy relatyivizm, sotsial me’yorlarning buzilishi, qadriyatlar eroziyasi kabi tahdidli hodisalarning kuchayishiga sabab bo‘lyapti. Bugungi raqamli muhitda axloqiy ong va shaxs qadriyatlari tizimi o‘rtasidagi o‘zaro dialektik bog‘liqlikni tushunish, ayniqsa, o‘smirlik va ilk yoshlik davridagi shaxslarning psixososial rivojlanish bosqichlarini hisobga olgan holda tahlil qilish dolzarb vazifadir. Chunki bu davr — axloqiy identitet, qadriyatlar shakllanishi va ijtimoiy rollarning ichkilashtirilishi (internalizatsiya) bosqichidir. Aynan shu nuqtada ijtimoiy tarmoqlar tomonidan taqdim etilayotgan “virtual ideal obrazlar”, “ommaviy axloqiy narrativlar” va “trendlar” yoshlar axloqiy pozitsiyasining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yosh avlod axloqiy ongi va qadriyatlar tizimiga ko‘rsatayotgan murakkab va ziddiyatli ta’siri, tahdidlar va imkoniyatlar dialektikasi nazariy asosda tahlil qilinadi. Shu orqali biz, zamonaviy kommunikatsion muhitda yoshlarning axloqiy rivojlanish trayektoriyalarini anglash va ularni konstruktiv yo‘nalishda shakllantirish imkoniyatlarini ochib berishga intilamiz.

ASOSIY QISM

Zamonaviy raqamli kommunikatsiya muhitining axloqiy ong va qadriyatlar tizimiga ta’sirini tushuntirishda bir qator yondashuvlar va ilmiy nazariyalar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu nazariyalar ijtimoiy tarmoqlarning yosh ongida axloqiy me'yorlarning shakllanishi, ijtimoiy identitetning tarkib topishi, hamda qadriyatlar tizimining dinamik transformatsiyasini izohlash imkonini beradi.

1. Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi (A. Bandura): Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi (Social Learning Theory) axloqiy xulq-atvor va qadriyatlarning shakllanishida kuzatish, modellashtirish (modeling) va mustahkamlovchi axborotlar (reinforcement) muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali taqdim etilayotgan mashhur “influencerlar”, trend yaratuvchilar va virtual idol obrazlari yoshlar uchun ijtimoiy model sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu model orqali ular nafaqat estetik yoki iste’mol qadriyatlarini, balki axloqiy pozitsiyalarni ham o‘zlashtiradilar. Bandura nazariyasining “vicarious reinforcement” konsepti aynan virtual axloqiy ong shakllanishi jarayonini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. 2. Mediaeffektlar nazariyasi: Mediaeffektlar yondashuvi, xususan, “kultivatsiya nazariyasi” (G. Gerbner) va “ikki bosqichli kommunikatsiya modeli” (P. Lazarsfeld) orqali, media — shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlar — ijtimoiy haqiqatning muqobil konstruksiyasini ishlab chiqishda qanday vosita bo‘layotganini ochib beradi. Yoshlar axloqiy me’yor va qadriyatlarni real ijtimoiy tajribadan emas, balki raqamli muhitda takror-takror taqdim etilayotgan virtual tasvirlar asosida shakllantiradilar. Bu esa real va simulyativ axloqiy ong o‘rtasidagi tafovutni kuchaytiradi. 3. Axborot-kognitiv yondashuv: Kognitiv psixologiya va informatsion jarayonlar nazariyasi doirasida qaralganda, ijtimoiy tarmoqlardagi axborot oqimi shaxsiy axloqiy ongni shakllantirishda ma’lumotlar filtrlash, selektiv qabul qilish (selective exposure) va kognitiv dissonans (L. Festinger) mexanizmlari orqali amal qiladi. Yoshlar o‘zining mavjud axloqiy pozitsiyasiga zid bo‘lgan kontentga duch kelganda, uni yo rad etadi, yoki psixologik moslashtirish strategiyalari orqali uni o‘z qarashlariga moslashtiradi. Bu holat “axloqiy moslashuvchanlik” fenomenini keltirib chiqaradi. 4. Giperreallik va simulyakr nazariyasi (J. Baudrillard): Postmodernistik yondashuv, xususan, J. Bodriyardning giperreallik va simulyakr tushunchalari asosida olib boriladigan tahlillar raqamli axloqiy ongning shakllanishi bilan bog‘liq murakkab ontologik muammolarni ko‘rsatib beradi. Ijtimoiy

tarmoqlarda mavjud bo‘lgan axloqiy kontentlar — aslida real hayotdagi axloqiy tajribaning emas, balki uning nusxasining nusxasi (ya’ni simulyakr) bo‘lib, bu holat axloqiy mezonlarning ijtimoiy ildizlardan uzilishi, ularning suyuq (liquid) va o‘zgaruvchan shaklga o‘tishiga olib keladi. Bu esa “axloqiy giperreallik” fenomenining shakllanishiga zamin yaratadi. 5. Habermasning kommunikativ harakatlar nazariyasi: Yurgen Habermasning Kommunikativ harakatlar nazariyasi (Theory of Communicative Action) asosida, ijtimoiy muloqot va axloqiy qadriyatlar o‘zaro tushunish, o‘zaro hurmat va mantiqiy asoslangan kelishuvlar orqali shakllanishi kerak. Ijtimoiy tarmoqlarda esa bu jarayon ko‘pincha strategik kommunikatsiya shaklida — ya’ni manipulyatsiya, ideologik bosim va viral axborotlar orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun axloqiy qadriyatlarni o‘rganish, baholash va muhokama qilish imkoniyatlarini kengaytirgan. Masalan, ijtimoiy adolat, gender tengligi, ekologik mas’uliyat kabi global axloqiy masalalar bugungi yoshlar uchun eng dolzarb mavzulardan biri bo‘lib bormoqda. Bu esa axloqiy refleksiya va normativ ong darajasining o‘sishiga xizmat qiladi (Habermas, 1992). Biroq, boshqa tomondan, ijtimoiy tarmoqlarda mavjud axborotning fragmentar va manipulyativ xususiyati, shuningdek, axloqiy relativizmning kuchayishi natijasida yoshlar an’anaviy qadriyat tizimiga nisbatan shubha bilan qaray boshlaydi. Bu esa axloqiy identitet inqiroziga olib kelishi mumkin (Erikson, 1968).

Ijtimoiy tarmoqlarning yosh avlod axloqiy ongiga ta’sirini har tomonlama tahlil qilish, avvalo, ularning kognitiv-emotsional jarayonlar va sotsial identitet shakllanishiga qanday yo‘sinda aralashayotganini chuqur o‘rganishni talab etadi. Bu jarayonlar, o‘z navbatida, individual shaxsiyatda qadriyatlar ierarxiyasining o‘zgaruvchanligiga olib kelmoqda. Ayniqsa, axloqiy relatyivizm, normativ konformizm va axloqiy dekonstruktsiya kabi zamonaviy fenomenlar yoshlarning axloqiy ongida o‘ziga xos nomuvofiqliklar va ziddiyatlar yuzaga keltirayotgani kuzatilmoqda. Identitetning fragmentarlashuvi va qadriyatlar eroziyasi: Yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda bir vaqtning o‘zida bir nechta axloqiy kontekstlarda ishtirok etadilar: maktabdagi yoki oila muhitidagi real identitet bilan mos kelmaydigan virtual alter-egolar (ya’ni sun’iy yoki kuchaytirilgan shaxs obrazi) orqali harakat qiladilar. Bu esa axloqiy identitetning fragmentarlashuvi — bir xil shaxsda bir nechta ziddiyatli axloqiy sistemalarning birgalikda mavjud bo‘lishiga olib keladi. Bu holat shaxsda axloqiy ambivalentlik, ya’ni bir vaqtning o‘zida ikki qarama-qarshi axloqiy pozitsiyani tan olish holatini yuzaga keltiradi. Axloqiy ong va algoritmik filtrlar: Algoritmik filtrlar orqali foydalanuvchining individual qiziqishlariga mos kontentni taklif etuvchi “filter bubble” va “echo chamber” hodisalari axloqiy qarashlarning torayishiga olib keladi. Ya’ni, yoshlar o‘z axloqiy nuqtayi nazariga zid bo‘lgan kontentlar bilan deyarli to‘qnashmaydi. Bu esa axloqiy dogmatizm va kritik fikrlash salohiyatining pasayishiga olib keladi. Aynan algoritmik vositalar orqali shakllangan axloqiy ong jamiyatdagi real axloqiy muvozanatni emas, balki texnologik manipulyatsiyalarning natijasini ifodalaydi. Sotsial me’yorlarning transformatsiyasi: Klassik sotsiologik yondashuvlarda axloqiy me’yorlar jamiyatning uzoq yillik tarixiy, madaniy va diniy an’analariga tayangan holda uzatiladi. Biroq raqamli makonda bu me’yorlar ko‘pincha viral dinamikaga, ya’ni “like”, “share” va “komment”lar soniga asoslanadi. Demak, axloqiy me’yorlar endilikda ijtimoiy dalilga emas, balki raqamli reputatsiya indikatorlariga tayanmoqda. Bu holat, o‘z navbatida, qadriyatlar relativizmi va normativ nihilizm xavfini kuchaytiradi. Ijtimoiy tarmoqlarning konstruktiv imkoniyatlari: Shunga qaramay, ijtimoiy tarmoqlar axloqiy ongni rivojlantirishda samarali vosita sifatida ham xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qiladigan bo’lsak, XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, xususan ijtimoiy tarmoqlarning hayotga chuqur kirib kelishi, yosh avlod axloqiy ongining shakllanishida ilgari kuzatilmagan murakkablik va ziddiyatlarni yuzaga chiqarmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, ijtimoiy tarmoqlar shunchaki kommunikatsion platforma emas, balki shaxsning axloqiy qarashlari, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy identitetini shakllantiruvchi kuchli psixo-sotsiologik muhitdir. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ongida giperreal axloqiy modellarning shakllanishiga sabab bo‘lmoqda, bu esa real hayotdagi qadriyatlar tizimi bilan ziddiyat hosil qilmoqda. Bu holat identitetning fragmentarlashuvi, normativ ambivalentlik va axloqiy relativizm kuchayishiga olib kelmoqda. Algoritmik filtrlash mexanizmlari yoshlarning axloqiy dunyoqarashini sun’iy toraytirib, tanqidiy fikrlash va ko‘p tomonlama axloqiy baholash salohiyatini zaiflashtirmoqda. Bu esa jamiyatda ijtimoiy poliarizatsiya xavfini oshiradi. Axloqiy me’yorlarning virtual makonda “layklar” orqali belgilanishi, yosh avlodda me’yoriy konformizm va raqamli reputatsiyaga asoslangan xulq shakllanishiga olib kelmoqda. Bu esa milliy, madaniy va dini qadriyatlar asosidagi axloqiy tizimni zaiflashtiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar axloqiy tarbiya uchun muqobil imkoniyatlarni

ham taklif qilmoqda. Xususan, insonparvarlik, sadoqat, ijtimoiy adolat kabi umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib etuvchi axborotlar axloqiy refleksiyani kuchaytirishi mumkin.

Takliflar:

-Ta’lim muassasalarida “raqamli axloqiy madaniyat”ga oid o‘quv modullarini joriy etish zarur. Bu yoshlarning virtual muhitda mustaqil axloqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

-Ota-onalar, pedagoglar va psixologlar uchun raqamli ijtimoiylashuvning axloqiy oqibatlari haqida muntazam seminar va treninglar tashkil etilishi lozim. Bu ularni farzandlarning raqamli xulq-atvorini boshqarishda samaraliroq ishtirokchi bo‘lishiga yordam beradi.

-Axloqiy jihatdan boyitilgan kontentlarni targ‘ib qilish va yoshlar o‘rtasida “axloqiy yetakchi” (mavjud ijtimoiy ta’sirga ega bo‘lgan) shaxslar bazasini shakllantirish orqali konstruktiv axloqiy muhitni mustahkamlash mumkin.

-Ilmiy tadqiqotlar orqali raqamli axloqiy ong evolyutsiyasini tizimli ravishda monitoring qilish, davlat siyosati va pedagogik amaliyotda asosli qarorlar qabul qilishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
2. Baudrillard, J. (1981). Simulacra and Simulation. Paris: Éditions Galilée.
3. Inglehart, R. (1997). Modernization and Postmodernization: Cultural, Economic, and Political Change in 43 Societies. Princeton: Princeton University Press.
4. Habermas, J. (1992). Moral Consciousness and Communicative Action. Cambridge: MIT Press.
5. Erikson, E.H. (1968). Identity: Youth and Crisis. New York: W.W. Norton & Company.
6. Turkle, S. (2011). Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. New York: Basic Books.
7. Twenge, J.M. (2017). iGen: Why Today’s Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy–and Completely Unprepared for Adulthood. New York: Atria Books.
8. Castells, M. (2009). Communication Power. Oxford: Oxford University Press.
9. Gergen, K.J. (1991). The Saturated Self: Dilemmas of Identity in Contemporary Life. New York: Basic Books.
10. Buckingham, D. (2008). Youth, Identity, and Digital Media. Cambridge, MA: MIT Press.
11. Mishra, S. (2020). Social Media and Moral Development: A Conceptual Analysis. International Journal of Ethics Education, 5(1), 45–59.
12. Turdiyev, Sh.A. (2022). Raqamli kommunikatsiya muhitida axloqiy qadriyatlar transformatsiyasi. Yosh olimlar jurnali, 4(7), 35–40.

RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA MAKONIDA IJTIMOIYLASHAYOTGAN TALABALARNING MA’NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIGA VIRTUAL AXBOROT MUHITINING TRANSFORMATSION TA’SIRI

Abdullayeva Mohigul Muqumjon qizi, FDU magistranti
Email: mohigulabdullayeva169@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli kommunikatsiya makonida talabalar auditoriyasi orasida kechayotgan ijtimoiylashuv jarayonlarining transformatsion xarakteri va ushbu jarayonning shaxsning ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimiga ko‘rsatadigan kompleks ta’siri nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Virtual axborot muhiti kognitiv, affektiv va sotsial determinantlar orqali talabaning aksiyologik orientatsiyalarini rekonstruksiyalovchi dinamik muhit sifatida qaraladi. Maqolada sotsial konstruktivizm, kultivatsiya nazariyasi, kognitiv dissonans konsepsiyasi va postmodern gumanitar tafakkur doirasidagi dekonstruksiya yondashuvlari asosida axloqiy identitet transformatsiyasining nazariy asoslari ochib beriladi. Raqamli makonda shakllanayotgan yangi ma’naviy paradigmalar va ularning yoshlar ongidagi aks ettirilishi zamonaviy sotsial-madaniy jarayonlarning integral ifodasi sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: Raqamli kommunikatsiya, virtual axborot muhiti, transformatsion sotsializatsiya, aksiyologik rekonstruksiya, axloqiy identitet, sotsiokognitiv determinantlar, algoritmik filtratsiya, kultivatsiya nazariyasi, dekonstruksiya, ma’naviy paradigma.

THE TRANSFORMATIONAL IMPACT OF THE VIRTUAL INFORMATION ENVIRONMENT ON THE MORAL AND ETHICAL VIEWS OF STUDENTS SOCIALIZING IN THE DIGITAL COMMUNICATION SPACE

Abdullayeva Mohigul Muqumjon qizi, master’s student of FSU
Email: mohigulabdullayeva169@gmail.com

Annotation: This article theoretically and methodologically analyzes the transformational nature of socialization processes occurring among students in the digital communication space, as well as the complex impact of these processes on the individual's system of moral and ethical values. The virtual information environment is viewed as a dynamic space that reconstructs a student's axiological orientations through cognitive, affective, and social determinants. The article reveals the theoretical foundations of moral identity transformation based on social constructivism, cultivation theory, the concept of cognitive dissonance, and deconstruction approaches within the scope of postmodern humanitarian thinking. The new moral paradigms emerging in the digital space and their reflection in the youth's consciousness are interpreted as an integral expression of contemporary social and cultural processes.

Keywords: Digital communication, virtual information environment, transformational socialization, axiological reconstruction, moral identity, socio-cognitive determinants, algorithmic filtering, cultivation theory, deconstruction, moral paradigm.

ТРАНСФОРМАЦИОННОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ ВИРТУАЛЬНОЙ ИНФОРМАЦИОННОЙ СРЕДЫ НА МОРАЛЬНО-ЭТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ СТУДЕНТОВ, СОЦИАЛИЗИРУЮЩИХСЯ В ЦИФРОВОМ КОММУНИКАТИВНОМ ПРОСТРАНСТВЕ

Абдуллаева Мохигуль Мукумжоновна, студент магистратуры ФГУ
Email: mohigulabdullayeva169@gmail.com

Аннотация: В данной статье теоретико-методологически анализируются трансформационные особенности процессов социализации, происходящих среди студентов в цифровом коммуникационном пространстве, а также комплексное влияние этих процессов на систему морально-этических ценностей личности. Виртуальная информационная среда рассматривается как динамичное пространство, реконструирующее аксиологические ориентации студента через когнитивные, аффективные и социальные детерминанты. В статье раскрываются теоретические основы трансформации моральной идентичности на основе социального конструктивизма, теории культивации, концепции когнитивного диссонанса и подходов деконструкции в рамках постмодернистского гуманитарного мышления. Новые моральные парадигмы, формирующиеся в цифровом пространстве, и их отражение в сознании молодежи трактуются как интегральное выражение современных социально-культурных процессов.

Ключевые слова: Цифровая коммуникация, виртуальная информационная среда, трансформационная социализация, аксиологическая реконструкция, моральная идентичность, социокогнитивные детерминанты, алгоритмическая фильтрация, теория культивации, деконструкция, моральная парадигма.

KIRISH

Global raqamli transformatsiya jarayonlari insoniyat sivilizatsiyasining barcha ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy qatlamlariga chuqur penetratsiya qilganligi natijasida, zamonaviy yoshlar, xususan, talabalar auditoriyasi uchun axborot muhitining roli misli ko‘rilmagan darajada intensivlashgan. Ushbu o‘zgarishlar, ayniqsa, shaxsning ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimiga bo‘lgan ta’sir kontekstida yangicha ijtimoiylashuv shakllarining shakllanishiga zamin yaratmoqda. Raqamli kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshayotgan sotsializatsiya jarayonlari nafaqat an’anaviy axloqiy me’yorlarning rekonstruksiyasiga, balki mutlaqo yangi qiymat paradigmalari shakllanishiga ham sabab bo‘lmoqda. Ushbu maqola doirasida aynan virtual axborot muhitining transformatsion ta’sir mexanizmlarini nazariy-metodologik nuqtayi nazardan chuqur tahlil qilish ko‘zda tutiladi.

Bugungi kunda, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi, yoshlarning axloqiy qarashlarini, munosabatlarini va harakatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon, nafaqat axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda, balki insonlarning dunyoqarashini o‘zgartirishda ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Virtual axborot muhitining ta’siri natijasida, yoshlar o‘zlarining ijtimoiy identifikatsiyasini va axloqiy prinsiplarini yangicha shakllantira boshladilar. An’anaviy qadriyatlar bilan raqamli muhitning yangi normativlarini uyg‘unlashtirish, ko‘pincha qarama-qarshiliklarga olib keladi. Virtual muhitning ijtimoiylashuvdagi rolini tahlil qilishda, uning yoshlarning o‘z-o‘zini anglash va o‘zaro munosabatlar tizimini qanday o‘zgartirishi ham muhimdir. Axborot texnologiyalarining ommalashuvi, shuningdek, shaxsning shaxsiy hayotini ommaviy qilish va onlayn faoliyatni kengaytirish orqali yangi ijtimoiy tajribalarni yuzaga keltirdi. Bu o‘zgarishlar, yoshlarning ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimini shakllantirishda yangicha yondoshuvlarni talab etadi. Yoshlarning qadriyatlari, jamiyatdagi yangilanishlarga, yangi texnologiyalar va raqamli axborotlarga qarab o‘zgarishlarni amalga oshiradi.

Asosiy tahliliy bo‘lim

XXI asrning ikkinchi choragiga kelib, kommunikatsion jarayonlar klassik modeli (Shennon – Uiver modeli, Gerbner modeli) o‘zining funksional chegaralariga yetdi va uning o‘rnini interaktiv, feedbackga asoslangan, ko‘pkanallikni o‘z ichiga olgan kompleks kommunikatsiya tizimlari egalladi. Raqamli kommunikatsiya makoni – bu sun’iy intellekt, algoritmik filtrlash, big data va kognitiv manipulyatsiya kabi elementlarni o‘zida mujassamlashtirgan integratsion ijtimoiy muhitdir. Aynan shu omillar shaxsning sotsial ongini, ijtimoiy identifikatsiyasini va normativ axloqiy me’yorlarini rekonstruksiya qiluvchi transformatsion vektorlar sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy jamiyatda raqamli kommunikatsiya makoni nafaqat axborot uzatishning yangi platformasi, balki shaxsning psixososial taraqqiyoti, identitet konstruktsiyasi va aksiologik orientatsiyasini shakllantiruvchi determinantal maydon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Raqamli media muhitining ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga ta’sirini tahlil qilishda postindustrial jamiyatning kommunikativ paradigmasi, axborotning semiotik strukturalari va virtual ijtimoiy makonlar haqidagi nazariyalar asosiy metodologik negiz sifatida xizmat qiladi.

Avvalo, raqamli kommunikatsiya jarayoni giperrealistik axborot oqimlari orqali subyekt ongida "real" va "virtual" tasavvurlar sintezini yuzaga keltiradi. J. Bodayriyar tomonidan ilgari surilgan "simulyakra va simulyatsiya" konsepsiyasiga ko‘ra, bugungi axborot makoni reallikni emas, balki reallik tasvirining ko‘paytirilgan nusxasini – ya’ni simulyakralarni taqdim etadi. Bu esa yoshlarning axloqiy qarashlariga epistomologik xiralik va aksiologik ko‘rinishlarning moslashuvchanligini olib kiradi. Shuningdek, raqamli ijtimoiylashuv fenomeni talabalarning kommunikativ amaliyotlarini radikal tarzda o‘zgartiradi. Bu jarayonni kommunikativ aksiologiya nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilganda, axborot almashinuvi subyektlar orasidagi o‘zaro anglashuvdan ko‘ra, konstruktiv algoritmik manipulyatsiya xususiyatini oladi. Yuqorida zikr etilganidek, Habermasning "kommunikativ harakatlar nazariyasi" virtual platformalarda buzilishka uchraydi, chunki bu makonda kommunikativ ratsionalizm emas, balki algoritmik selektivlik ustuvorlik qiladi. Ayni vaqtda, raqamli kommunikatsiya ijtimoiy-kognitiv taraqqiyotda "kiberaksiologik fazo"ni yaratadi. Bu fazo talabaning ongida muqobil identitetlar konstruksiyasi, aksiologik plüralizm va ma’naviy relatyivizm shakllanishiga imkon beradi. Ayniqsa, G. Hofstede va S. Schwartz tomonidan ishlab chiqilgan madaniy qadriyatlar tizimi zamonaviy raqamli madaniyatga nisbatan moslashtirilganda, individualizm va gumanistik-hedonistik yo‘nalishlarning dominantligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Virtual axborot muhiti orqali yuzaga kelayotgan “aksiologik informatsion determinizm” holati shuni anglatadiki, talaba-yoshlar real ijtimoiy muhitda emas, balki algoritmik muvofiqlik orqali tanlangan virtual kontent asosida ma’naviy me’yorlarni qabul qilmoqda. Bu holat esa "qadriyatlar konstruktivizmi" tamoyiliga asoslanadi. Bunda shaxsiy tajriba, axborot tanlovi va ijtimoiy tasdiq kuchli determinant sifatida namoyon bo‘ladi (Berger & Luckmann, 1966). Raqamli transformatsiyaning yana bir muhim jihati – bu ma’naviy axborotning deontik emas, balki utilitar kontekstda iste’mol qilinishi bilan bog‘liq. Bu holat yoshlar orasida normativ etik me’yorlar emas, balki individual maqbullik asosida qabul qilinadigan axloqiy pozitsiyalar ustuvorligini kuchaytiradi. Bu esa o‘z navbatida I. Kantning "kategorik imperativ" prinsipiga zid keluvchi "situatsion etika" yondashuvini kuchaytiradi. Shuningdek, medialingvistika va diskursiv psixologiya nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, virtual kommunikatsiyada ishlatilayotgan til birliklari, memlar, emojilar, qisqartmalar va vizual kodlar semantik jihatdan yangi ma’naviy-axloqiy kontseptlarni yaratmoqda. Bu esa o‘z navbatida til orqali axloqiy konstruksiyaning o‘zgaruvchan va kontekstual tabiatini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytadigan bo’lsam, raqamli kommunikatsiya makoni zamonaviy talabalar uchun nafaqat ijtimoiy interaktsiya vositasi, balki kognitiv-konstruktorlik funktsiyasiga ega bo‘lgan aksiyologik maydon sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Virtual axborot muhiti orqali shakllanayotgan sotsializatsiya formatlari shaxsning ma’naviy-axloqiy identifikatsiyasini transformatsiyalovchi determinantlar tizimi asosida amalga oshmoqda. Ayniqsa, algoritmik tavsiyalar, vizual diskurslar, memetik axborot oqimlari va sotsial media reiting tizimlari orqali talabalar ongida barqaror axloqiy referentlar emas, balki o‘zgaruvchan, situativ qadriyatlar konstruksiyasi shakllanmoqda. Transformatsion ta’sir doirasida kognitiv dissonans, ijtimoiy normativ diffuziya, va ichki introektsiya kabi psixososial mexanizmlarning kuchayishi, talabalar axloqiy ongining standartlashtirilmagan, fragmentar shakllanishiga olib kelmoqda. Natijada, talabalar ongida "gibrid identitet"lar, ya’ni raqamli va real qadriyatlar o‘rtasida interpenetratsiyalashgan (o‘zaro kirishgan) axloqiy pozitsiyalar yuzaga kelmoqda. Bu esa raqamli epoxa sharoitida ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda an’anaviy ijtimoiy institutlarning (ota-ona, ta’lim muassasalari, diniy va madaniy markazlar) epistemik pozitsiyalarini qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Tavsiyalar

1. Aksiyologik mediamadaniyatni shakllantirish: Ta’lim jarayoniga raqamli axborot oqimlarining etik tahliliga asoslangan maxsus kurslar (masalan, Media axloqshunosligi, Raqamli madaniyat etikasi)ni integratsiya qilish tavsiya etiladi.
2. Sotsial-psixologik immunitetni kuchaytirish: Talabalarda algoritmik manipulyatsiya va psixoinformatsion ta’sirlarga qarshi kognitiv barqarorlikni mustahkamlovchi psixogigiyena va mediahushyorlik mashg‘ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.
3. Interaktiv monitoring tizimlarini joriy etish: Virtual muhitdagi ma’naviy-axloqiy iqlimni doimiy tahlil qilib boruvchi statistik-analitik monitoring platformalarini ishlab chiqish, axborot xavfsizligi siyosatining sotsial-aksiyologik aspektlarini kuchaytiradi.
4. Kross-madaniy empatiya va tolerantlikni rivojlantirish: Globallashuv fonida raqamli muloqotda paydo bo‘layotgan madaniyatlararo qarama-qarshiliklarga qarshi universal etik qadriyatlarni (inson qadr-qimmati, hurmat, adolat) targ‘ib etish zarur.
5. Ilmiy-tadqiqotlar diversifikatsiyasini ta’minlash: Transformatsion sotsializatsiya va raqamli etik identitetlar bo‘yicha empirik tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, psixometrik va neyroaksiyologik yondashuvlar orqali chuqur tahlil etish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бауман З. Индивидуализированное общество. – М.: Логос, 2005. – 384 с.
2. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. Т.1: Сетевое общество. – М.: ГУ ВШЭ, 2000. – 606 с.
3. Туркл Ш. Одинокие вместе: Почему мы ожидаем больше от технологий и меньше друг от друга. – М.: Альпина Паблишер, 2016. – 390 с.
4. Morozov E. The Net Delusion: The Dark Side of Internet Freedom. – New York: PublicAffairs, 2011. – 432 p.
5. Postman N. Technopoly: The Surrender of Culture to Technology. – New York: Vintage Books, 1993. – 240 p.
6. Livingstone S. Children and the Internet: Great Expectations, Challenging Realities. – Cambridge: Polity Press, 2009. – 264 p.
7. Jenkins H. Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. – New York: NYU Press, 2006. – 336 p.
8. Giddens A. Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age. – Stanford: Stanford University Press, 1991. – 256 p.
9. Манойло А.В. Информационная война и информационное противоборство. – М.: Горячая линия – Телеком, 2005. – 487 с.
10. Ҳамроев А.Р. Ахборот технологиялари ва интернетнинг ёшлар ахлоқий қарашларига таъсири // Психология ва таълим. – 2023. – №4. – Б. 112–119.
11. Qodirov I.X. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va yoshlar ongida shakllanayotgan qadriyatlar tizimi // O‘zDJTU Ilmiy axborotnomasi. – 2022. – №3. – B. 87–94.
12. Jenkins H., Ford S., Green J. Spreadable Media: Creating Value and Meaning in a Networked Culture. – New York: NYU Press, 2013. – 352 p.

YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA LIDERLIK KO‘NIKMALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Toshkent tibbiyot akademiyasi
Stomatologiya yo‘nalishi talabasi
Mamasoatov Ozodbek Shamsiddin o‘g‘li
Telefon raqami: +998885575177
mamsoatovozodbek3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik qobiliyatining o‘rni va uning kelajakdagi ahamiyati tahlil qilingan. Yoshlarning jamiyatdagi faolligi, liderligi va yetakchilik salohiyati jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Maqolada liderlik tushunchasi, yoshlar orasida yetakchilik qobiliyatini shakllantirishda, asosan, jamiyatning ahamiyati shuningdek, tarixiy-ma’naviy merosimizga tayanilgan holda ijtimoiy faollikni rivojlantirishda liderlik qobiliyatining tutgan o‘rni haqida ma’lumot berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlari: Lider, ijtimoiy faollik, ma’naviy saloyihat, tashabbuskorlik.

Yoshlar jamiyatning eng faol va dinamik qatlami hisoblanadi. Ularning ijtimoiy faolligi jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, muammolarni hal qilish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishda muhim ahamiyatga ega. Liderlik ko‘nikmalari yoshlarni ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishga undash, tashabbuskorlikni rivojlantirish va jamoatchilik ishlarida yetakchi rol o‘ynashga yordam beradi. Liderlik ko‘nikmalari yoshlarga o‘z g‘oyalarni ilgari surish va ijtimoiy loyihalarni boshlash uchun ishonch beradi. Masalan, yoshlar mahalliy muammolarni hal qilish uchun tashabbus guruhlarini tuzishi mumkin. Bugungi kunda jamiyatning har bir sohasida yangilanish va rivojlanish kuzatilmoqda. Mamlakatda faol, zamonaviy fikrlovchi, mas’uliyatli kadrlarni tayyorlash orqali jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlat rahbarining ta’lim, tarbiya, yoshlarga oid nutq va asarlarida yosh avlodning intellektual salohiyati, yetakchilik qobiliyati, vatanparvarligi va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash g‘oyalari asosiy o‘rin tutadi.Mazkur yondashuvlar o‘z ildizini Sharq mutafakkirlarining merosidan ham oladi. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi ulug‘ allomalar o‘z asarlarida insonning aql-zakovat, axloq, ijtimoiy ong va bilim orqali kamol topishini alohida ta’kidlaydilar. Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida bilimdon, ongli va yetakchi shaxsni ko‘rsatgan. Bu jarayonlarda eng faol qatlam sifatida yoshlar alohida o‘rin egallaydi. Har qanday jamiyatning taraqqiyoti, avvalo, yosh avlodning salohiyatiga, bilimiga va tashabbuskorligiga bog‘liq.Shu nuqtai nazardan qaraganda, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni jamiyat hayotiga faol jalb etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy faollik –ijtimoiy subyektlar (jamiyat, tabaqa, guruh va shaxslar)ning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining, mehnat hamda madaniy-ma’rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo‘yilgan huquq va burchlarini to‘liq amalga oshirishga intilishi. Ijtimoiy faollik shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va xulq-atvorini ongli ravishda boshqarishining asosiy sharti hisoblanadi.

Bugungi globallashuv davrida jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bu — faol, tashabbuskor va liderlik salohiyatiga ega yosh avlodni tarbiyalashdir. Liderlik — bu nafaqat boshqalarni boshqarish qobiliyati, balki mas’uliyat, tashabbus, mustaqil fikrlash va jamoa bilan ishlash madaniyatini ham o‘z ichiga olgan murakkab ijtimoiy jarayondir. Bu borada badiiy asarlar va madaniy-ma’rifiy tadbirlarning tutgan o‘rni beqiyosdir. Avvalo, badiiy asarlar inson qalbiga ta’sir o‘tkazish kuchiga ega bo‘lgan eng samarali tarbiya vositalaridan biridir. Ularda tasvirlangan ijobiy qahramonlar, ularning hayot yo‘li, kurashi va g‘oyalari yosh avlodni ruhlantiradi, ularni ezgulik, vatanparvarlik, jasorat va liderlik sari yetaklaydi. Masalan, Abdulla Qodiriy, Said Ahmad, Pirimqul Qodirov kabi yozuvchilarning asarlarida tasvirlangan obrazlar orqali yoshlar o‘zlarida irodalilik, adolatparvarlik va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradilar. Shu orqali ular jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, boshqalarga namuna bo‘lishga intilishadi. Bundan tashqari, madaniy-ma’rifiy tadbirlar — konsertlar, teatr tomoshalari, kitobxonlik bellashuvlari, ijodiy uchrashuvlar, ma’naviyat soatlari kabi faoliyatlar yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularda ijtimoiy faollik va tashabbuskorlik fazilatlarini shakllantiradi. Ayniqsa, teatr sahnasida namoyish etilayotgan ijtimoiy hayotdagi muammolar va ularning yechimlari yoshlarni fikrlashga, muammoga

nisbatan faol pozitsiyada bo‘lishga undaydi. Madaniy tadbirlarda faol ishtirok etgan yoshlar ommaviy chiqishlar qilishni, jamoa oldida o‘z fikrini aniq ifoda etishni, boshqalarning fikrini tinglab, ularga hurmat bilan yondashishni o‘rganadilar. Bu esa har qanday liderda bo‘lishi kerak bo‘lgan asosiy fazilatlardan biridir. Shuningdek, bunday tadbirlar orqali yoshlar o‘z milliy madaniyati, an’analari va tarixini chuqurroq o‘rganadi, bu esa ularda vatanparvarlik tuyg‘usini oshiradi. Vatanparvar, madaniyatga hurmat bilan qaraydigan, ma’rifatli yosh esa — bu chinakam liderdir.

Yoshlarda liderlik xususiyatlarini o‘rganish va rivojlantirish inson hayotining dastlabki bosqichlaridanoq shakllana boshlaydi.Jumladan, oilaviy muhit, ota-onalik uslublari, bog‘cha, maktab va boshqa ta’sir etuvchi omillar har bir shaxsning liderlik tajribasini rivojlanishiga ularning yetakchilik qobiliyatining shakllanishiga muhim hissa qo‘shadi.Lider qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak?

a)mas’uliyatli va qiyin qarorlarni qabul qilish qobiliyati, ular uchun tegishli javobgarlikni o‘z zimmasiga olish istagi;

b)shaxsiy manfaatlar uchun emas, balki odamlarning umumiy manfaatlari haqida qayg‘urish;

c)odamlarni butunlay ixtiyoriy asosda boshqarish qobiliyati;d)tabiiy ta’sir kuchiga ega bo‘lish;

e)guruh tomonidan yetakchiga bo‘lgan ishonch va kuchli hokimiyat mavjudligi;

f)xatolarni tan olish qobiliyati va mag‘lubiyat uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish, bundan shaxsiy xatolarni qidirish.

Lider shaxsiy hayotda yoki jamoada yetakchi bo‘libgina qolmay o‘z ustida ishlash orqali jamiyatda ham o‘z ijtimoiy faolligini oshirib boradi.Bundan tashqari o‘zi yetakchilik qilayotgan jamoa a’zolarini ham kuchli va zaif tomonlarini anglagan holda ularga o‘zining maslahatlarini beradi.

Ilgari surilgan 5 muhim tashabbus yoshlar tarbiyasida yangi bosqichni boshlab berdi. San’at va madaniyat, sport, axborot texnologiyalari, kitobxonlik, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlarining har biri yosh avlodda liderlik, tashabbuskorlik va ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari va sport sohasidagi tashabbuslar yoshlar orasida raqobatbardoshlik, murosasizlik va qat’iyatlilik kabi liderlik sifati shakllanishiga zamin yaratmoqda.Bundan ko‘rinib turibdiki,ijtimoiy faollikni oshirishda liderlik qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki,yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining shakllanishi muhim omil hisoblanadi. Liderlik fazilatlariga ega bo‘lgan yoshlar jamiyatda faol ishtirok etadi, tashabbus ko‘rsatadi va o‘z tengdoshlariga ijobiy namuna bo‘la oladi. Bu esa mamlakat taraqqiyoti va barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Shunday ekan, yosh avlodda liderlik salohiyatini rivojlantirish –ularning ijtimoiy faolligini oshirishning muhim sharti sifatida doimiy e’tiborda bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Nuraliyeva K. I. PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF FORMATION OF CREATIVE POWER OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. -2021.
2.Kreativ salohiyat tushunchasi bo‘yicha olimlar qarashlari
3.Ways to Develop the Creative Power of Primary School Students
4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston –ma’naviy yuksalish sari” nutqi. – Toshkent, 2021.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA YOSHLAR LIDERLIK SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Alixonov Sardorxon Akmalxon o`g`li
Namangan davlat pedagogika instituti tyutori
+998907504609
Email: alixonovsardorxon351@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy pedagogik yondashuvlar va yoshlarning liderlik salohiyatini rivojlantirish usullarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan innovatsion usullar, yoshlarda rahbarlik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik va pedagogik asoslari

tahlil qilinadi. Tadqiqotda faol o‘qitish metodlari, guruh ishi va loyihaviy faoliyatning samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Natijalar zamonaviy ta’lim yondashuvlarining yoshlarning o‘z-o‘zini anglashi, qaror qabul qilish va jamoaviy ish ko‘nikmalarini oshirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Maqola ta’lim sohasidagi mutaxassislar va yoshlar bilan ishlovchi tashkilotlar uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy pedagogika, liderlik salohiyati, yoshlar, faol o‘qitish, jamoaviy ish, loyihaviy faoliyat.

Zamonaviy dunyoda yoshlarning liderlik salohiyatini rivojlantirish ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Global o‘zgarishlar, raqamli transformatsiya va ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yoshlardan faol, mas'uliyatli va ijodiy bo‘lishni talab qilmoqda. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, masalan, faol o‘qitish, muammoga yo‘naltirilgan ta’lim va tajriba asosidagi o‘qitish, yoshlarda rahbarlik ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqola yoshlarning liderlik salohiyatini rivojlantirishda qo‘llaniladigan usullarni tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, ularning samaradorligini baholash va amaliy takliflarni ishlab chiqishni maqsad qiladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va yoshlarning liderlik salohiyatini rivojlantirish usullari bugungi kunda ta’lim va shaxsiy rivojlanish sohasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuvlar yoshlarni nafaqat akademik bilimlar bilan ta’minlash, balki ularni global muhitda muvaffaqiyatli yetakchi sifatida shakllantirishga qaratilgan. Quyida har bir jihatni batafsil yoritib, amaliy misollar va strategiyalar bilan ko‘rib chiqamiz.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar

Zamonaviy pedagogika an’anaviy “o‘qituvchi markazli” modeldan voz kechib, “o‘quvchi markazli” va amaliy natijalarga yo‘naltirilgan tizimga o‘tmoqda. Quyidagi yondashuvlar bu sohada yetakchilik qilmoqda.

Ushbu yondashuv o‘quvchilarning bilimlari va ko‘nikmalarini real hayotda qo‘llay olishiga e’tibor beradi. Akademik bilimlardan tashqari, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash, tanqidiy fikrlash kabi kompetensiyalarni rivojlantirish muhimdir.

Loyihaga asoslangan ta’lim (Project-Based Learning, PBL): O‘quvchilar real muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan loyihalarda ishtirok etadilar. Masalan, ekologik muammolarni o‘rganish uchun mahalliy daryoning ifloslanishini tahlil qilish va yechim taklif qilish loyihasi.

Muammolarni hal qilish mashqlari: Talabalarga murakkab vaziyatlar beriladi, masalan, “Bir kompaniyaning byudjetini qanday optimallashtirish mumkin”.

Jamoaviy ish: Guruhlarda ishlash orqali o‘quvchilar hamkorlik, mas’uliyat va kommunikatsiya ko‘nikmalarini oshiradi.

Liderlikka ta’siri: Kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim yoshlarga mustaqil qaror qabul qilish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish va tashabbus ko‘rsatishni o‘rgatadi. Bu esa liderlik sifatlarining asosini tashkil qiladi.

Har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan ta’lim tizimi. Bu yondashuv o‘quvchining o‘z salohiyatini kashf etishiga yordam beradi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va liderlik salohiyatini rivojlantirish usullari yoshlarni XXI asrning talablariga mos yetakchilarga aylantirishga xizmat qiladi. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim, shaxsga moslashtirilgan yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali yoshlar akademik va hayotiy muvaffaqiyatga erishadi. Liderlikni rivojlantirishda esa treninglar, mentorlik, jamoaviy loyihalar, refleksiya va xalqaro tajriba muhim rol o‘ynaydi. Ushbu strategiyalarni birgalikda qo‘llash yoshlarni nafaqat o‘z jamiyatlarida, balki global miqyosda muvaffaqiyatli yetakchilarga aylantiradi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, faol o‘qitish va loyihaviy faoliyat, yoshlarning liderlik salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari ushbu usullarning yoshlarda o‘z-o‘ziga ishonch, qaror qabul qilish va jamoaviy ish ko‘nikmalarini oshirishini tasdiqladi.

Adabiyotlar.

1. Amonov, B. (2021). Pedagogik texnologiyalar va ularning o'smirlarni tarbiyalashdagi o'rni. Toshkent: O'zbekiston Mi liy Entsiklopediyasi.
2. Asqarov, O. (2020). Liderlik qobiliyatlarini shak lantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar. Samarqand davlat universiteti nashri

3. Rahimova, D. (2019). O'smirlarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari. Pedagogik Innovatsiyalar Jurnali, 3(1), 45-50.
4. Karimova, N. (2022). O‘quv jarayonida loyihaviy faoliyatni tashkil etish va uning ta’limiy samaradorligi. Toshkent: Fan va Texnologiya nashriyoti
5. A.R.Raxmonov “Zamonoviy o‘quv mashg‘uloti va ta’limning o‘ziga xos imkoniyatlari” O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali 2020 yil 51b.
6. Ruzvonovich, R. A. (2022). The main features of the formation of a sense of patriotism in the family in students. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 5, 61-63.
7. Эгамов, Д. (2021). Совершенствование методов популяризации массового спорта среди молодёжи. Общество и инновации, 2(9/S), 28-32.

YOSHLARNI MEHNAT BOZORIGA TAYYORLASH :TA’LIM VA AMALIYOT UYG‘UNLIGI MASALASI

Boytillayev Mirjalol Orifjon o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti tyutori
Inomjonova Dildora Ergashali qizi
Namangan davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
rejabovadildora04@gmail.com ;+998503010158

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim jarayoni va amaliyotning uyg‘unligini ta’minlash masalalari ilmiy-amaliy asosda ko‘rib chiqiladi. Yoshlarni real ish sharoitiga tayyorlash,dars jarayonlarini kuzatish, tahlil qilish va mustaqil olib borish bo‘yicha ko’nikmalarni shakllantirishda amaliyotning o‘rni tahlil qilinadi. Bu orqali yoshlarni kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish,raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish imkoniyatlari tug‘iladi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim,amaliyot,malaka,ko‘nikma,kadrlar tayyorlash,integratsiya,kasbiy tayyorgarlik,kompetensiya.

Bugungi globallashuv davrida har bir sohada yuqori malakali, amaliy ko‘nikmaga ega kadrlar talab etilmoqda. Faqatgina nazariy bilimlar bilan cheklanib qolgan mutaxassis mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘la olmaydi. Shuning uchun ham ta’lim va amaliyotning uzviy bog‘liqligini ta’minlash dolzarb masalaga aylangan. Shu bois, ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy tajribani ham o‘rgatish orqali har tomonlama tayyorlangan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iboratdir.

Ta’lim va amaliyotning integratsiyasi – bu bugungi kundagi zamonaviy ta’lim strategiyasining asosiy yo‘nalishidir. Bu yo‘nalishda tizimli islohotlar olib borilishi,ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlik mustahkamlanishi orqali kadrlar tayyorlash sifati oshadi. Natijada, mehnat bozorida raqobatbardosh, ilg‘or mutaxassislar paydo bo‘ladi,o‘quv jarayonida o‘rganilgan nazariy bilimlarning hayotdagi real ish jarayonlari bilan bog‘lanishi tushuniladi. Bu holat yoshlarning o‘z sohasini chuqur tushunib, ish joyida tez moslashuviga xizmat qiladi.

Nega ta’lim va amaliyot uyg‘unligi zarur?

1. Kasbiy malakaning oshishi. Talabalar real ish muhiti bilan tanishib, muammolarni hal qilishda qatnashadi.
2. Innovatsion yondashuvlarni o‘zlashtirish. Ishlab chiqarishdagi yangi texnologiyalar bilan bevosita tanishish imkoniyati yuzaga keladi.
3. Mehnat bozoriga tayyorlash. Talaba bitirgach, darhol ish boshlashga tayyor bo‘ladi, bu esa ishsizlikning oldini olishga xizmat qiladi.

Uyg‘unlikning asosiy afzalliklari:

1. Kadrlarning kasbiy tayyorgarligi oshadi.Talabalar amaliyot davomida real muammolarni hal qilishni o‘rganadilar, bu esa ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.
2. Ish beruvchilarning ishonchi ortadi. Amaliy ko‘nikmaga ega bitiruvchilar ish joyiga tayyor holatda kirib keladi, bu esa ish beruvchilar uchun muhim ustunlikdir.

3. O‘quv jarayoni mazmunan boyiydi. Ish joyi bilan hamkorlikda tashkil etilgan amaliyotlar talabalarga yangi texnologiyalar va zamonaviy ish uslublarini o‘rganishga imkon yaratadi.

Shu jumladan, mamlakatimizda ham oliy ta’lim muassasalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni mustahkamlash, ilg‘or tajribalardan samarali foydalanish orqali fan, ta’lim, ishlab chiqarish integratsiyasini yo‘lga qo‘yish, oliy ta’limdagi o’qitish tizimini ilmiy tadqiqotlarga uyg‘unlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘ risida” gi PF-134-sonli Farmonining 7-bandida hamda 2022-yil 21- iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ – 289- Qarorining 2-bandida pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan 2 – 4-bosqich talabalari uchun haftalik o‘quv mashg‘ulotlari «4+2» tartibida, shu jumladan, darslarning 4 kuni oliy ta’lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida amaliyot o‘tash tartibida olib borilishini ta’minlash vazifasi ko‘rsatilgan edi.**[1]**Qarorlar ijrosini ta’minlash maqsadida,ta’lim va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish bo‘yicha qator ishlar olib borilmoqda.

Ta’lim va amaliyot uyg‘unli orqali talabalarda quyidagi ko‘nikmalar shakllanadi:

Kasbiy tayyorgarlik – maxsus nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar,shuningdek,ma’naviy-axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish asosida shaxsning kasbiy faoliyatni olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasi. .**[4]**

Kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish – DTS talablari asosida shaxsda maxsus nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, shuningdek, ma‘naviy- axloqiy sifatlarni shakllantirish, bo‘lajak mutaxassisni kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik jarayonidir.Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik amaliyoti mobaynida ularga kerak bo‘ladigan asosiy narsa bu – kasbiy bilimdir. .**[5]**

Kasbiy bilim – aniq mehnat faoliyati doirasida bajariladigan ishlar uchun zarur bo‘lgan axborotlar va o‘zlashtirilgan nazariy ma’lumotlar birlashmasidir.Kasbiy ko‘nikma va malakalar – amaliy faoliyat jarayonida paydo bo‘ladigan,shaxsning o‘zlashtirilgan kasbiy bilimlarini anglangan ish harakatlariga aylanishidagi avtomatlashgan usuldir.**[2]**

Mamlakatimizda 4+2 o‘quv jarayoni boshqa sohalarda qo‘llanila boshlaganidek,boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida ham o‘z samarasini bermoqda.Boshlang‘ich ta’lim — ta’lim tizimining eng muhim va mas’uliyatli bosqichi bo‘lib, o‘quvchida bilim olishga bo‘lgan qiziqish, mustaqil fikrlash va shaxsiy sifatlarning shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalarni ham puxta egallash zarur bo‘ladi.Amaliyot-pedagogik tayyorgarlikning ajralmas bo‘lagi hisoblanadi. Talabalar nazariyada olgan bilimlarini maktabdagi real dars jarayonlarida sinab ko‘rish orqali o‘z kasbiy mahoratini shakllantiradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda didaktik yondashuv, yosh xususiyatlarini inobatga olgan metodlar, o‘yinli va interfaol usullarni qo‘llash tajribasi amaliyot orqali rivojlanadi.Biroq amaliyot jarayonida ayrim muammolar ham uchraydi. Jumladan, pedagogik amaliyot yetarlicha tizimli tashkil etilmasligi, amaliyot davrining qisqaligi, maktablar bilan oliygohlar o‘rtasidagi hamkorlik yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi, talabalarni real muammolar bilan mustaqil ishlashga tayyorlashda kamchiliklar mavjud.Shuningdek, boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlarning amaliyot jarayoniga joriy etilishi o‘qituvchi sifatida shakllanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa kelajakdagi o‘qituvchining kasbiy moslashuvchanligini oshiradi. .**[3]**

Xulosa qilib aytganda,yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlashda ta’lim va amaliyotning uyg‘unligi juda muhimdir. O‘quvchilar faqat nazariy bilimlarga ega bo‘lishi bilan cheklanmasdan, real ish sharoitlarida ko‘nikmalarni rivojlantirishlari kerak. Ta’lim tizimi va ish beruvchilar o‘rtasidagi samarali hamkorlik, amaliyot jarayonlarini mustahkamlash, yoshlarni kasbiy ko‘nikmalarga ega, raqobatbardosh mutaxassislar sifatida shakllantiradi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni o‘zlashtirish yoshlarning mehnat bozorida muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi.Yoshlarni mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun ta’lim va amaliyotning uyg‘unligi, amaliyotning uzviyligi va tizimli yondashuvlar asosida rivojlantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Hasanov, I., & Ergashev, N. (2019). Inkluziv ta'lim: nazariy va amaliy yondashuvlar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2.Soliyeva, G. (2021). Maxsus ehtiyojli bolalar psixologiyasi. Buxoro: Talqin nashriyoti.World Health Organization (2011).
3.World Report on Disability. Geneva: WHO Press.UNESCO (2020).
4. https://lex.uz/uz/docs/-6079561
5.https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogik-amaliyotning-bo-lajak-o- qituvchining-kasbiy-tayyorgarlik-faoliyatida-tutgan-o-rni/viewer

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARGA TARBIYACHINING SHAXSIY MUNOSABATI

Sharipov Muhammadsharif Tohirjon o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti tyutori
Rahimjanova Mashhura Rustamjon qizi
NamDPI Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarga bugungi kundagi pedagoglarning munosabati, Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi muhit haqida batafsil bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: imkoniyati cheklangan bolalar, inklyuziv ta’lim, integratsiya, innovatsiya, bag‘rikenglik, ijtimoiy munosabat

KIRISH

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat davlat dasturi doirasida imkoniyati cheklangan bolalar uchun alohida e’tibor qaratilmoqda. Bolalarga ta’lim va tarbiya berishdan tortib pedagog -tarbiyachilarni yanada bilimli, saviyali, malakali kadr qilib tarbiyalashdan iborat.Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda tarbiyachining roli juda muhim. Bu bolalar o'ziga xos ehtiyojlarga ega bo'lganligi sababli, ularga yondashuv ham maxsus va moslashgan bo‘lishi zarur. Tarbiyachining munosabati, uning sabri va bolalarga nisbatan hurmati, ularning rivojlanishi va kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. [1] Ushbu maqolada tarbiyachilarning imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishlari kerakligi va bunday yondashuvning bolalar rivojlanishidagi ahamiyati haqida so‘z yuritamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mazkur maqola uchun T. Karimovaning " Imkoniyati cheklangan bolalar tarbiyasi va ularning rivojlanishida tarbiyachining o‘rni" maqolasi hamda A. Ismoilovning "Maxsus pedagogika" asari metodologik asos sifatida olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

1. Hurmat va tenglik asosida munosabat:

Tarbiyachi imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan, avvalo, ularga hurmat bilan qarashi lozim. Bunday bolalar ko‘pincha jismoniy yoki aqliy qiyinchiliklarga duch kelsalar ham, ular o‘z qadr-qimmatiga ega shaxslar hisoblanadi. Tarbiyachi ularga o‘z imkoniyatlarini ko‘rsatish uchun sharoit yaratishi kerak. Tarbiyachining hurmatli va teng munosabati bolalarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchini oshirishga yordam beradi.Hurmat va tenglik tamoyillari bolalarning jamoa a’zosi sifatida o‘zlarini his qilishlariga, qiyinchiliklariga qaramay, ular ham boshqalar bilan bir xil imkoniyatlarga ega ekanligini anglashlariga yordam beradi. Bu bolalarda o‘z qobiliyatlarini ochish va rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan ruhiy ko‘makni beradi.[3]

2. Individual yondashuvImkoniyati cheklangan bolalar bir-biridan farq qilishi sababli, har bir bolaning ehtiyojlari ham o‘ziga xosdir. Shuning uchun tarbiyachi har bir bolaga individual yondashishi kerak. Ba’zi bolalar ko‘proq e'tibor va sabr-toqat talab qilsa, boshqalari ma'lum bir faoliyatda rag‘batlantirishni istaydi. Har bir bolaning qobiliyati va ehtiyojlariga moslashtirilgan tarbiyaviy yondashuv ularning rivojlanishini jadallashtiradi.Bundan tashqari, individual yondashuv bolalarning o‘z imkoniyatlarini kengaytirish va o‘ziga mos usullarda ta'lim olish imkoniyatini beradi. Masalan, eshitish yoki ko‘rish cheklovi bo‘lgan bolalar uchun maxsus yordam texnologiyalaridan foydalanish yoki jismoniy

imkoniyatlari cheklangan bolalarga moslashgan jismoniy faoliyatlarni tashkil etish tarbiyachi vazifasidir.[4]

3. Ijobiy motivatsiya va rag‘batlantirishIjobiy motivatsiya va rag‘batlantirish imkoniyati cheklangan bolalar uchun juda muhim. Ular o‘z imkoniyatlariga ishonishlari va bu ishonchni saqlab qolishlari uchun tarbiyachi doim ularni qo‘llab-quvvatlashi kerak. Rag‘batlantirish vositasi sifatida kichik yutuqlarni ta’kidlash va bolalarga ularning yutuqlari muhimligini ko‘rsatish samarali bo‘ladi. Masalan, kichik yutuqlar uchun maqtab, ularning harakatlari e'tiborga olinadi va ular keyingi harakatlari uchun motivatsiya oladilar.Tarbiyachi bolalarga muvaffaqiyatga erishish mumkinligini, har bir qadamning qadrli ekanligini ko‘rsatsa, bu bolalar o‘zlarida mavjud bo‘lgan kuch va imkoniyatlarni to‘liq ishga solishga intiladi.

4. Sabr-toqat va tushunchaImkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda eng muhim fazilatlardan biri bu sabr-toqatdir. Ba’zi hollarda ular ta'lim olishda yoki jismoniy faoliyatda boshqalardan ko‘ra ko‘proq vaqt talab qiladi. Tarbiyachi ularga sabr bilan qarashi, ularga mos keladigan vaqt va joyda yordam berishi lozim. Bunda bolalarning individual imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olish kerak.Shuningdek, tarbiyachi bolalarning hissiy holatlarini tushunishi, ularning qiyinchiliklariga mehr bilan yondashishi zarur. Bu o‘z navbatida bolalarning tarbiyachiga ishonch bildirishiga, o‘zlarini xavfsiz his qilishlariga va o‘quv jarayonida o‘zlarini erkin his qilishlariga yordam beradi.[5]

5. Ijtimoiy integratsiya va jamoaviy rivojlanishImkoniyati cheklangan bolalarni jamoaviy o‘quv jarayonlariga qo‘shish, ularni boshqalar bilan birgalikda ishlashga undash tarbiyachining muhim vazifasidir. Bu ularga o‘z ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga, jamiyatning faol a'zosi bo‘lishlariga yordam beradi. Jamoa bilan birgalikda ishlash bolalarda hamkorlik, o‘zaro hurmat va ko‘mak kabi sifatlarni shakllantiradi.Tarbiyachi bu bolalarni jamiyatga integratsiya qilish jarayonida ularga qo‘shimcha yordam ko‘rsatishi, boshqa bolalar bilan teng imkoniyatlar yaratishi kerak. Ular ham boshqalar kabi o‘quv jarayonlarida, jismoniy mashg‘ulotlarda va o‘yinlarda ishtirok etishlari kerak. Bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi va ular jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi.[6]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Imkoniyati cheklangan bolalarga tarbiyachining munosabati bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatli rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hurmat, sabr-toqat, individual yondashuv va ijobiy motivatsiya orqali tarbiyachi bolalarga o‘z imkoniyatlarini to‘liq ochish imkonini beradi. Tarbiyachining ijtimoiy integratsiya va jamoaviy rivojlanishga qaratilgan yondashuvi esa bolalarni jamiyatning faol va to‘laqonli a'zosi sifatida shakllanishiga yordam beradi.[7] Inklyuziv ta’limga jalb etilgan tarbiyachi sabrli, matonatli, o‘z kasbini sevuvchi, jonkuyar pedagog bo‘lmog‘i lozim. Bolalarning psixologik, tibbiy holatini inobatga olgan holda bolalarga qattiqqo‘llik qilish, tanbeh berish, me’yoridan ortiq kamsitish tarbiyachi degan sifatlarni buzadi.Bugungi kun kadrlari har tomonlama yetuk, yangi davr yoshlarini tarbiyalay oladigan pedagog bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ismoilov, A. (2018). Maxsus pedagogika. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.Nazarova, D. (2020).
2. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda tarbiyachining roli. Pedagogika fanlari jurnali, 12(3), 45-52.
3. Hasanov, I., & Ergashev, N. (2019). Inkluziv ta'lim: nazariy va amaliy yondashuvlar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
4. Soliyeva, G. (2021). Maxsus ehtiyojli bolalar psixologiyasi. Buxoro: Talqin nashriyoti.World Health Organization (2011).
5. World Report on Disability. Geneva: WHO Press.UNESCO (2020).
6. Inclusive education: ensuring access for all students. Paris: UNESCO Publishing.Mamatqulova, M. (2017).
7. "Inkluziv ta’lim tizimida tarbiyachining o‘rni." Yosh pedagoglar konferensiyasi materiallari, 102-108.

STEAM TA’LIMI VA UNING YOSH LIDERLAR TAYYORLASHDAGI O‘RNI

Karimov Jamshidbek Javlonbek o‘g‘li
Namangan Davlat Pedagogika Instituti, Pedagogika fakulteti, Pedagogika (qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvchisi) yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Shermirzayev Baxtiyor
Pedagogika yo‘nalishi tyutori

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida keng qo‘llaniladigan STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvining mazmuni, asosiy tamoyillari hamda yosh liderlarni tayyorlashdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Unda yosh avlodga ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muammoga yo‘naltirilgan yondashuv, jamoada ishlash kabi zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishda STEAM ta’limining imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada ta’lim jarayonida integratsiyalashgan ta’lim orqali o‘quvchilarning liderlik salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlar va amaliy tajribalar tahlil etiladi. Tadqiqotlar natijalari asosida STEAM ta’limi yosh liderlarni tayyorlashda samarali vosita sifatida tavsiya etilishi mumkin, degan xulosa ilgari suriladi.

Аннотация: В статье анализируются содержание, основные принципы, роль и значение подхода STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics), широко используемого в современной системе образования, в подготовке молодых лидеров. В нем подчеркивается потенциал STEAM-образования в развитии современных компетенций, таких как креативность, критическое мышление, решение проблем и командная работа у молодого поколения. В статье также анализируются инновационные методы и практические наработки, направленные на развитие лидерского потенциала студентов посредством интеграции дисциплин в образовательный процесс. На основании результатов исследования делается вывод, что STEAM-образование может быть рекомендовано как эффективный инструмент в подготовке молодых лидеров.

Abstract: This article analyzes the content, basic principles, and role and significance of the STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) approach, which is widely used in the modern education system, as well as its role and significance in training young leaders. It highlights the potential of STEAM education in the formation of modern competencies such as creativity, critical thinking, problem-oriented approach, and teamwork in the younger generation. The article also analyzes innovative methods and practical experiences aimed at developing students' leadership potential through integrated disciplines in the educational process. Based on the results of the study, it is concluded that STEAM education can be recommended as an effective tool in training young leaders.

Kalit so‘zlar: STEAM, lider, liderlik, uslub, ijodkorlik, hamkorlik, zamonaviy kasblar, loyiha, muammo, integratsiya, ishonch, kelajakni ko‘ra olish, mas’uliyat, interfaol metodlar, muloqot.

Ключевые слова: STEAM, лидер, лидерство, стиль, креативность, сотрудничество, современные профессии, проект, проблема, интеграция, доверие, видение, ответственность, интерактивные методы, коммуникация.

Keywords: STEAM, leader, leadership, style, creativity, collaboration, modern professions, project, problem, integration, trust, vision, responsibility, interactive methods, communication.

Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri — jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga moslasha oladigan, zamonaviy fikrlovchi, innovatsion g‘oyalarni ilgari sura oladigan yosh liderlarni tayyorlashdir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, STEAM (Science — fan, Technology — texnologiya, Engineering — muhandislik, Art — san’at, Mathematics — matematika) ta’limi innovatsion yondashuv bo‘lib, nafaqat fanlararo integratsiyani ta’minlaydi, balki o‘quvchilarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, yetakchilik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada STEAM ta’limining mazmun-mohiyati, uning yosh liderlar tayyorlashdagi ahamiyati hamda ta’lim jarayoniga joriy etishning samarali usullari yoritiladi.

STEAM ta’limi – bu an’anaviy STEM (Fan, Texnologiya, Muhandislik, Matematika) ta’limiga san’atni (Art) qo‘shgan holda, fanlararo yondashuv orqali o‘quvchilarni zamonaviy dunyo muammolarini hal qilishga tayyorlashga qaratilgan ta’lim konsepsiyasidir. Bu yondashuv o‘quvchilarni nafaqat texnik bilimlar bilan qurollantiradi, balki ijodkorlik, estetik fikrlash, kommunikativ hamda yetakchilik qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.[1]

STEAM ta’limining bosh maqsadi — o‘quvchilarga real hayotdagi muammolarni fanlararo yondashuv asosida tahlil qilish, hal etish va innovatsion echimlar topishga o‘rgatishdir. Bu ta’lim turi o‘quvchilarda:

- ijodiy fikrlashni,

- tanqidiy va tizimli tahlil qilish ko‘nikmalarini,
- jamoada ishlashni,
- amaliy loyihalarda ishtirok etish malakasini shakllantiradi.

O‘z navbatida STEAM ta’limining bir nechta afzalliklarini sanab o‘tish mumkin:

- Zamonaviy kasblarga tayyorlaydi. Bugungi mehnat bozorida aynan STEAM kompetensiyalariga ega mutaxassislar talab yuqori.
- Innovatsion tafakkurni shakllantiradi. Yangi g‘oyalarni ilgari surish va amalga oshirishga yo‘naltiradi.
- O‘z-o‘zini anglash va ishonch hissini mustahkamlaydi. O‘quvchilar o‘z g‘oyalarini amalda sinab ko‘rib, muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini topadilar.
- Yuqori motivatsiya va ishtirokni ta’minlaydi. Darslar zerikarli bo‘lmasdan, o‘quvchilar uchun qiziqarli va amaliy bo‘ladi.[2]

STEAM ta’limi bevosita o‘quvchi yoshlar orasida liderlik ko‘nikmalarini shakllantirishga ham yordam bera oladi. Xo‘sh, liderlik o‘zi nima va lider kim?

Liderlik — bu boshqalarni maqsad sari ilhomlantirish, yo‘naltirish va ularga yetakchilik qilish qobiliyatidir.

Lider — bu boshqalarni o‘z ortidan ergashtira oladigan, ularga yo‘l ko‘rsata oladigan va maqsad sari ilhomlantira oladigan insondir. Lider bo‘lgan odam faqat buyruq beruvchi emas, balki boshqalarga o‘rnak, yo‘l ko‘rsatuvchi va motivatsiya manbai hamdir. Liderning bir nechta fazilatlari bo‘lishi kerak:

- kelajakni ko‘ra bilish: Lider maqsadni aniq biladi va boshqalarni ham shu yo‘ldan olib boradi.
- ishonch: O‘ziga va atrofidagilarga ishonadi, boshqalarning ham ishonchini qozonadi.
- mas’uliyat: Harakatlarining natijasini qabul qiladi va javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.
- muloqot: Ochiq va aniq fikr bildiradi, boshqalarni tinglaydi.
- motivatsiya berish: Boshqalarga ilhom bag‘ishlaydi, ularni ishga jalb qiladi.

STEAM ta’limi o‘quvchilarda liderlik ko‘nikmalarini shakllantirish va lider shaxsini tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, u zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda tafakkur, ijodkorlik va amaliy ko‘nikmalarni uyg‘unlashtiradi. Bu ta’lim yondashuvi orqali yoshlar muammoni tahlil qilish, kreativ fikrlash, ilmiy asosda yechim taklif qilish, tajriba o‘tkazish, texnologiyadan samarali foydalanish va eng muhimi, o‘z g‘oyasini boshqalarga yetkazish va himoya qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Bunday muhitda yetishayotgan o‘quvchi o‘z fikrini bemalol ifoda etadi, jamoa bilan ishlashda faollik ko‘rsatadi, mas’uliyatni zimmasiga oladi va tashabbus ko‘rsatishga intiladi. Har bir loyiha yoki guruh ishi jarayonida liderlik rolini egallashga intilgan o‘quvchi boshqalarni boshqarish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, qaror qabul qilish va natijani baholashni o‘rganadi. Ayniqsa, san’at va muhandislik element0lari bilan boyitilgan topshiriqlar orqali ular o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga intiladilar. Shu sababli, STEAM ta’limi nafaqat akademik bilimlarni, balki hayotiy muammolarga yechim topish salohiyatini, ilg‘or fikrlashni va boshqalarni ortidan ergashtira oladigan kuchli liderlik fazilatlarini shakllantiradi. Bunday ta’lim tizimi orqali jamiyatga tafakkuri teran, faol, mas’uliyatli va o‘z fikriga ega bo‘lgan liderlar voyaga yetadi. Bu ta’lim yondashuvi yoshlarning faqat nazariy bilim emas, balki amaliy tajriba orqali o‘rganishini ta’minlaydi. Loyihaga asoslangan o‘qitish orqali o‘quvchilar real hayotdagi muammolarga yechim topishga urinadilar, bu esa ularda tanqidiy fikrlash, muammoga boshqacha qaray olish va qat’iyatlilik kabi sifatlarni rivojlantiradi. Bunday muhitda har bir bola o‘zini erkin ifoda etishga, yangilik yaratishga va o‘z g‘oyalarini sinab ko‘rishga odatlanadi. Natijada, ular o‘z ustida ishlashga, yangilikdan qo‘rqmaslikka, doimiy o‘rganishga va o‘z fikrini himoya qilishga o‘rganadilar. Bundan tashqari, bu yondashuv har xil qobiliyatga ega bo‘lgan o‘quvchilarni bir maqsad sari birlashtiradi, bu esa jamoaviylikni kuchaytiradi. Har kim o‘zining kuchli tomonini namoyon qila oladi: kimdir loyihani chizadi, kimdir hisob-kitob qiladi, yana kimdir boshqalarni birlashtiradi. Bunday jarayonlarda har bir o‘quvchi o‘z rolini topadi va o‘zini lider sifatida ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, mustaqillikni, mas’uliyatni va tashabbuskorlikni kuchaytiradi. Shu tarzda, bu ta’lim turi zamonaviy jamiyat talablariga javob bera oladigan, fikrlashi keng va harakatga tayyor lider shaxslarni tarbiyalaydi.

STEAM ta’limi orqali o‘quvchilarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bir nechta amaliy tajribalar va innovatsion metodlardan foydalaniladi. Ushbu metod va tajribalarni amaliyotda qo‘llash ancha samarali va foydalidir:

1. PBL (Project-Based Learning) – loyiha asosidagi ta’lim:

Bu metod orqali o‘quvchilar haqiqiy hayotga oid muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan loyihalarda ishlaydilar. Har bir loyiha davomida o‘quvchilar vazifalarni taqsimlaydi, vaqtni boshqaradi, qarorlar qabul qiladi va yakuniy natijani taqdim etadi. Shu jarayonda o‘quvchi o‘zining tashabbuskorlik, tashkilotchilik, mas’uliyat va kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi — bu esa liderlik salohiyatining asosiy elementlaridir.

2. CLIL (Content and Language Integrated Learning) – Mazmun va til integratsiyasi asosidagi ta’lim:

Bu yondashuv ayniqsa chet tillarini o‘rganishda samarali bo‘lib, fanga oid bilimlar bilan birga til o‘rgatadi. O‘quvchilar o‘z fikrini boshqa tilda ifoda etishga harakat qiladi, bu esa ularda erkin fikrlash, jamoaviy muloqot, hamkorlikda ishlash va interaktiv yetakchilikni kuchaytiradi.

3. STEAM integratsiyasi asosida faol metodlar (masalan, Design Thinking):

Design Thinking – muammoga inson markazida yondashish orqali innovatsion yechim topish metodidir. Bu yondashuvda o‘quvchilar muammoni chuqur tushunish, kreativ g‘oya taklif qilish, uni prototip shaklida sinab ko‘rish va takomillashtirish bosqichlaridan o‘tadilar. Har bir bosqich o‘quvchini mustaqil qaror qabul qilish, tashabbus ko‘rsatish, bahs-munozarada qatnashish va guruhni boshqarish kabi liderlik faoliyatiga tayyorlaydi.

4. Integratsiyalashgan interfaol metodlar (debate, role-play, brainstorming):

Bu metodlar fanlararo integratsiyada faol qo‘llaniladi. Masalan, tarix darsida siyosiy yetakchilarning qarorlarini bahsga qo‘yish, biologiya darsida muhitni muhofaza qilishga doir rolli o‘yinlar o‘tkazish orqali o‘quvchilar o‘z nuqtai nazarini himoya qilish, jamoani ishontirish va tashkil etish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

5. Real hayot bilan bog‘langan integratsiyalashgan topshiriqlar:

"Kichik biznesni rejalashtirish" loyihasida matematika (hisob-kitob), ona tili (nutq madaniyati), axborot texnologiyalari (taqdimot tayyorlash) va iqtisod fanlari uyg‘unlashadi. O‘quvchilar biznes rejani ishlab chiqishda rahbarlik rolini bajaradi, jamoani boshqaradi, mas’uliyatni bo‘lishadi — bu esa real liderlik tajribasini shakllantiradi.[3]

XULOSA:

Bugungi globallashuv va innovatsiyalar asrida jamiyatga faqat bilimli emas, balki tashabbuskor, ijodkor, mas’uliyatli va yetakchilik qobiliyatiga ega yoshlar zarur. Ana shunday shaxslarni tayyorlashda STEAM ta’limi muhim o‘rin egallaydi. Fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda taqdim etiladigan bu ta’lim yondashuvi orqali o‘quvchilar chuqur bilim olish bilan birga amaliy ko‘nikmalarga, muammolarni hal qilish qobiliyatiga, jamoaviy ishlash, muloqot va kreativ fikrlash madaniyatiga ega bo‘ladilar. STEAM metodikasi orqali o‘quvchi o‘z g‘oyalarini mustaqil ilgari suradi, qarorlar qabul qilishga o‘rganadi va o‘zini lider sifatida sinab ko‘radi. Shunday qilib, STEAM ta’limi yosh avlodni zamonaviy jamiyat talablariga mos bo‘lgan barkamol, ilg‘or fikrlovchi va lider shaxslar etib shakllantirishda beqiyos vositadir.

Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilar nafaqat an’anaviy bilimlarni egallaydilar, balki muammolarni aniqlash, tahlil qilish, innovatsion yechimlarni ishlab chiqish, jamoaviy ishlash, yetakchilik qilish, qaror qabul qilish va natijaga yo‘naltirilgan harakatlarni amalga oshirish kabi qator hayotiy va kasbiy zarur ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Ayniqsa, loyiha asosidagi ta’lim, muammoli vaziyatlar tahlili, rolli o‘yinlar, dizayn fikrlash kabi faol va interfaol metodlar yoshlar orasida liderlik kompetensiyalarini rivojlantiradi. Har bir o‘quvchi o‘z qiziqishlari va kuchli jihatlariga qarab jamoada yetakchi sifatida shakllanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shuningdek, STEAM asosidagi o‘qitish o‘quvchilarda tanqidiy va tizimli fikrlash, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, ijodiy g‘oyalarni ilgari surish, o‘z fikrini asosli ifoda etish kabi shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni mustahkamlaydi. Bu esa ularning kelajakda jamiyatda faol ishtirok etadigan, o‘z hayotiga mas’uliyatli, tashabbuskor va ijtimoiy yetakchi sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘xtasinova M. R., Turg‘unboeva N. M. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
2. Inoyatov A. A., Egamberdiyeva D. M. Pedagogik innovatsiyalar va ularning amaliyoti. – Toshkent: Innovatsiya, 2017.

3. Kadirova M. A. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va pedagogik mahorat. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2018.
4. Isroilov I. I., Usmonxo‘jayev M. A. STEAM ta’limining zamonaviy metodlari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
5. Ravshanov Sh. R. Yoshlar yetakchiligi va liderlik kompetensiyalarini shakllantirish. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.

MAKTABGACHA TA’LIMDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASHNING XORIJIY TAJRIBASI

Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi
Azimjonova Mohichexra Bunyodbek qizi
azimjonovamohichexra516@gmail.com

Annotatsiya. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda to’liq ona tilidan foydalangan holda maktabgacha ta’lim bo‘yicha samarali o‘quv rejasi va o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqish, ma’naviy-axloqiy tarbiyani xalq og’zaki ijodi namunalari orqali singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jarayonida o’z ona tilimizdangina foydalanish muhim ekanligi asos qilib olingan.

Kalit so‘zlar: Milliy qadriyat, madaniy-tarixiy meros, ma’naviy tarbiyalash, vatanparvarlik hissi, milliy qadriyatlar tizimi, ma’naviy yaqinlik, o‘tmish va ma’naviy meros.

ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ОБРАЗОВАНИЯ

Андижанский государственный педагогический институт
Студент 2 курса дошкольного образования
Азимжонова – дочь Мохичехры Бунедбека
azimjonovamohichexra516@gmail.com

Абстрактный. В воспитании детей дошкольного возраста в духе национальных и общечеловеческих ценностей важно разработать эффективную учебную программу и методику обучения дошкольников с использованием в полной мере родного языка, а также осуществлять духовно-нравственное воспитание на примерах народного устного творчества. В статье обосновано, что в процессе воспитания детей дошкольного возраста в духе национальных и общечеловеческих ценностей важно использовать только родной язык.

Ключевые слова: Национальная ценность, культурное и историческое наследие, духовное воспитание, чувство патриотизма, национальная система ценностей, духовная близость, прошлое и духовное наследие.

FOREIGN EXPERIENCE OF EDUCATION BASED ON NATIONAL VALUES IN PRESCHOOL EDUCATION

Andijan State Pedagogical Institute
2nd year student of the Preschool Education Department
Azimjonova Mohichekhra Bunyodbek qizi
azimjonovamohichexra516@gmail.com

Abstract. In educating preschool children in the spirit of national and universal values, it is important to develop an effective curriculum and teaching strategies for preschool education using the full use of the native language, and to instill spiritual and moral education through examples of folk oral art.

The article is based on the fact that it is important to use only our native language in the process of educating preschool children in the spirit of national and universal values.

Keywords: National value, cultural and historical heritage, spiritual education, sense of patriotism, national value system, spiritual affinity, past and spiritual heritage.

Kelajak mevasi hisoblanmish bolajonlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash azal-azaldan ota bobolarimizdan milliy meros bo’lib kelayotgan urf-odat hamda an’analarni unut bo’lib ketmasligi uchun poydevor bo’lib xizmat qiladi. Qadriyatlar ta’rifidan kelib chiqib, umuminsoniy qadriyatlarni quyidagicha ta’riflash mumkin: Umuminsoniy qadriyatlar – millat uchun muhim ahamiyatga ega bo’lgan etnik jihat va hususiyatlar bilan bog’liq holdagi qadriyat shaklidir. Umuminsoniy qadriyatlar millatning tarixi yashash tarzi, ma’naviyati, madaniyati orqali namoyon bo’ladi. Ta’lim jarayonida umuminsoniy qadriyatlar ijtimoiy-tarixiy hodisani ifodalaydi. Shunday ekan, bolalarga ta’lim berar ekanmiz, avvalo ularga o’zlarining “men”ini his qilishni o’rgatishimiz lozim. Buning uchun albatta ularni xalqimizni boshqa xalq va elatlardan ajratib turuvchi urf-odatlar hamda qadriyatlari bilan tanishtirib, ushbu qadriyatlarni ongida singdirib borishimiz lozim bo’ladi. Ona tilimizga bo’lgan hurmat ana shunday muhim qadriyatlarimizdan biri hisoblanadi. Chunki har bir millat va Davlat borki, uning o’zining milliy tarixiy til vositasi mavjud. Respublikamizda umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatimizni asoslarini e’tiborga olib ta’lim-tarbiya mazmunini va milliy mafkurani shakllantirib borish imkoniyatlari yaratilmoqda. Jumladan, maktabgacha ta’lim sohasida ham shu asosda keng qamrovli ishlar olib borilayotganligini ta’kidlash joiz. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining har bir guruhida “Kichik kutubxona”lar tashkil etilganligi ham buning yorqin misoli bo’la oladi. Ushbu kutubxonalarda asosan o’zbek xalqining og’zaki ijod namunalari asosida yaratilgan kitoblar keng o’rin egallagan. Lekin afsuski, aytish joizki ba’zi bir “o’zbek” tilida yozilgan ertaklar borki, uni bolalarga o’qib berishga ham xijolat tortadi kishi. Chunki bu kitoblarning ba’zilarida chetdan kirib kelgan so’zlar ham tez-tez uchrab tursa, yana ba’zilarida millatimizga hos bo’lgan andisha, sharm-hayo kabi muhim chegaralardan biroz chetga chiqilgan. Mening fikrimcha bolalar uchun mos ertak topish maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari uchun bugunning dolzarb masalalaridan biri bo’lib hisoblanmoqda. Bunday vaziyatlarda tarbiyachining qanchalik kreativ ekanligi muhim ahamiyatga ega. Bugunning bolajonlari o’z tilimizda biyron so’zlashlari hamda ona tilimizga nisbatan hurmat tuyg’usini his qilishlarida nafaqat tarbiyachilar balki ota-ona, shuningdek, mahalladoshlarning ham o’rni juda katta.

Aniqroq qilib aytganda bolalarni to’g’ri tarbiyalash uchun Maktabgacha ta’lim tashkiloti-Oila-Mahalla hamkorligi asos bo’lib xizmat qiladi. Chunki bola kunining 30-40% qismini maktabgacha ta’lim tashkilotida o’tkazsa qolgan qismini oilada hamda mahallasida o’rtoqlari va qo’shnilari atrofida o’tkazadi. Shunday ekan ular kerakli bilm va ko’nikmani faqatgina bolalar bo’g’chasidan olmaydi. Bundan tashqari xalqimizning “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” degan oltin qoidasi bor. Bolalarga o’z ona tilimizda ravon so’zlash hamda uni hurmat qilishga o’rgatishning bir qancha usul va uslublari mavjud. Bulardan biri xalq og’zaki ijodi namunalaridir. O’zbek xalq og‘zaki ijodida o’zbek xalqining pedagogik g‘oyalari, dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari, ma’naviy-axloqiy ideallari, xalqning hayotiy tajribasi, milliy an’analari, qadriyatlari va falsafasi o‘ziga xos yo‘sinda ibratli va qiziqarli hikoyalarida, alla-qo‘shiqlari, ertaklari va o‘gitlarida tasvirlangan. Bundan tashqari bolalarga qancha ko’p kitob o’qib berar ekanmiz, ular turli sheva va jargonlardan qochgan holda sof adabiy tilda so’zlashga o’rganib boradi. Bu esa ona tilimizdagi so’zlarni chiroyli jaranglashiga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, yosh avlodning barkamol inson bo‘lib yetishishi uchun u xalq, vatan tarixi, ta’lim sohasidagi ajdodlar tajribasidan xabardor bo‘lishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatda bo’lish imkoniyatlarini ochishga qaratilgan jarayonlardan biri bu – katta yoshdagi insonlar, ya’ni ota-onalar, tarbiyachilarning bolalar yoshiga, ularning dunyoqarashiga, ma’nan-axloqan, aqliy rivojlanishlariga mos bo’lgan kitoblardan foydalanish bilan bog’liqdir. Bundan tashqari bolada biz orzu qilgan sifatni ko’rish uchun yana bir eng muhim hisoblangan usuldan foydalanishimiz lozimki, bu usul “Yaxshi namuna bo’la olish”dir. Ya’nikim, agarda biz tarbiyachilar, shuningdek ota onalar farzandlarimizga sof adabiy o’zbek tilida gapirishi lozim ekanligini uqtirar ekanmiz lekin unga o’zimiz amal qilmagan holda qisqartma hamda chetdan kirib kelgan so’zlardan foydalanar ekanmiz bizning olib borayotgan hech qaysi bir harakatimiz yetarlicha samara bermaydi. Shunday ekan bolani tarbiyalashdan

oldin, avvalo, o’zimizni tarbiyalashimiz lozim ekanligini unutmasligimiz lozim. Hozir ko’pgina rivojlangan shaharlarda yashovchi ba’zi bir oilalar asosan rus tilida so’zlashadi. Bu albatta yaxshi.

Chunki bolalar juda kichik yoshdan boshlab til o’rgana oladi. Lekin masalaning boshqa tomoni ham bor. Aytmoqchimanki, bunday oilada yashovchi ba’zi bolalar o’z ona tilida muloqot qilishga qiynaladi. Hozirgi kunda bunday turdagi bolalarni ko’p uchratish mumkin, nafaqat bolalar balki kattalarni ham. Xujjatga qarasangiz millati o’zbek, lekin o’zbek tilida muloqot qilishga qiynalishadi. Shuning uchun bolalarni kichik yoshidan boshlab o’z ona tiliga hurmat qilishga o’rgatish muhim dolzarb masalalardan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy ruhda tarbiyalash, shuningdek o’z ona tilisini tanitish uchun aynan o’zbek xalq ertaklardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu fikrlarni bayon etar ekanmiz, avvalo bir savol tug’iladi. “Hozirgi kun tarbiyachilari qancha ertak biladi?” aynan shu savol og’riqli nuqtalarimizdan birini ochib beradi. Ho’sh, hozirgi kun tarbiyachilari, nafaqat tarbiyachilar balki ota-onalar qancha ertak biladi? Hozirgi kun bolalari ertak eshitayaptimi o’zi? Afsuski, bu savollarga har doim ham ijobiy javob bera olmaymiz. Chunki hozirgi axborotlashgan jamiyatda ota-onalar bolalarga ertak aytib berishdan ko’ra ularga telefon yoki planshetlarni berib qo’yishni avzal ko’rmoqda. Ota-onalar uchu bu eng oson yo’l bo’lib qolgan. Lekin bu orqali ularga yaxshi tarbiya bera olyapmizmikan?!

Bolalar kelajakda komil inson bo’lib yetishishlari uchun ular avvalo o’zlarining tarixi haqida, an’ana va qadriyatlari haqida chuqur bilishlari lozim. Buning eng oson va samarali yo’li esa ularni xalq ijodi namunalari bilan tanishtirishdir. Chunki, o’zbek xalq ijodi namunalarida xalqimizning o’tmishi, urf-odatlari, qadriyatlari hamda ichki kechinmalari bayon etilgan. Hattoki yangi tug’ilgan chaqaloqqa alla aytar ekanmiz, uning tinchlanganiga guvoh bo’lamiz. Lekin u hali hech bir so’zimizni tushunmaydiku! Nega alla aytganimizda tinchlanadi? Chunki onalarimizdan, momolarimizdan meros bo’lib kelayotgan allada keng ma’no, orzularimiz hamda ichki kechinmalarimiz mujassam. Ushbu kechinmalar, his-tuyg’ular farzandlarning ongiga emas balki, qalbiga yetib boradi. Shunday ekan maktabgacha yoshda ya’ni 3 yoshdan 7 yoshgacha bo’lgan bola tarbiyasida xalq og’zaki ijod namunalaridan foydalansak ikki barobar ko’proq natijalarga erishamiz. Chunki u endi go’dak emas, u endi nafaqat qalbi bilan balki ongi bilan, butun vujudi bilan eshita oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni vatanparvar, insonparvar, mehnatsevar, ma’nan yetuk, axloqan yuksak insonlar bo‘lib voyaga yetishi ko‘p jihatdan oilada va maktabgacha ta’lim tashkilotida ularga berilgan mana shu bolalik qo‘shig‘i bo‘lgan folklor asarlaridan ta’lim-tarbiya tizimida samarali foydalanishga bog‘liqdir.

Bu O‘zbekiston Respublikasi Prizidentining «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida qabul qilingan ―Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi» da ham o‘z aksini topgan. Konsepsiyaning beshinchi bobida aynan maktabgacha ta’lim tizimida uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish, bu davrdan boshlab bolalarda ijobiy xulq motivlarini, «O‘zbekiston — mening Vatanim!» tuyg‘usini shakllantirish, ularda davlat ramzlariga hurmat hissini tarbiyalash, o‘g‘il bolalarda mardlik, shijoat, milliy g‘urur, qat’iyat, tadbirkorlik, oriyat, qiz bolalarda ibo, hayo, qanoat, mehnatsevarlik kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda «Bola aziz, odobi undan aziz» mavzuida ertak, matal, afsona, doston, maqollardan foydalanib, MTT tarbiyachi-pedagoglari va ota-onalar uchun alohida uslubiy ishlanmalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning muhim vazifalari sifatida belgilab berildi. Shu o’rinda yuqoridagi fikrdan “Davlat ramzlariga hurmat” jumlasiga e’tibor qaratar ekanmiz 21-oktabr yurtimizda “O’zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun” sifatida keng nishonlanishi ham alohida e’tiborga loyiqdir. Shuningdek, o’zbek tili O’zbekiston Davlat ramzlaridan biridir. Aynan shuning uchun ham har bir bola unga nisbatan hurmat hissini his qilishi hamda boshqa barcha tillardan ustun qo’ya olishi lozim. Bugungi rivojlanib borayotgan zamon har bir kishidan bir nechta xorijiy tillarni o’rganishni talab qiladi. Lekin inson boshqa bir tilni o’rganishdan oldin, avvalo, o’z ona tilini mukammal o’rganishi lozim.

Maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarini ma’naviy bakamol avlod vakillari sifatida tarbiyalash va shakllantirishda qadr va qadrlash tuyg‘usi, qadriyatlar kategoriyasi, ularning mohiyati, mazmuni namoyon bo‘lish shakllari to‘g‘risidagi bilimlarning majmuasi bo‘lgan zamonaviy qadriyatshunoslikning asoslarini o‘rgatish nihoyatda muhim. Ana shu sababdan ham umuninsoniyatning qadrlash me’yorlari borasida to‘plangan yutuqlarini umumlashtirilgan bilim sohalari imkoniyatdan foydalanish ta’lim –tarbiya samaradorligining asosiy mezonlaridan biridir.

Xorijiy mamlakatlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, uyerdagi sharoit va imkoniyatlar bolajonlar kelajagi uchun muhim ahamiyat kasb etishini koṛishimiz mumkin. Xususan, Xitoy bog‘chalarida bolalar tarbiyasi integratsion ko‘rinishga ega ya’ni, jismoniy rivojlanish bilan uyg‘unlikda olib boriladi, maktabacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni jismonan, aqlan, estetik rivojlanishlarida ko‘mak beradi, bu bilan bolani eng kichik yoshidan barkamol shaxs bo‘lib rivojlanishini ta’minlaydi. Bolalar bog‘chasida tarbiyaning asosiy vositasi o‘yin hisoblanadi, u yerda bolalarning rivojlanishi uchun butun sharoitlar yaratilgan, o‘z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatlari ta’minlangan.

Bolalar bog‘chasida qa''iy tartib va intizom o‘rnatiladi, bolalar erkaliklari ta’qiqlanadi. Tarbiyachilar bolaning shaxsiy xususiyatini yaxshi biladilar, lekin bu xususiyatlari tug‘ma deb hisoblamaydilar. Bolalar bog‘chasida o‘zaro urushlar, erkaliklar, kattalar talabiga bo‘ysunmaslikka yo‘l qo‘yilmaydi, yomon intizom ilk ko‘rinishidayoq bartaraf etiladi, agar bola o‘zini yomon tutsa, tarbiyachi uning yoniga kelib, bu holatini sezganini bildiradi, lekin gapirmaydi. Bola o‘z aybini tushungachgina tarbiyachi uning nomini aytib chaqiradi. Urush, xonadan haydab chiqarish, umuman jazolash man etiladi. Intizomni yaxshi ushlab turishning samarali yo‘li bu – taqqoslash va rag‘batdir, deb hisoblashadi. Bolalarni yoshligidan boshlab o‘z xulq-atvorlarini tahlil etishga o‘rgatib boriladi. Bolalar diqqat bilan eshitadilar va to‘g‘ri hayotiy misollarni eslab qoladilar. Har bir tartibsizlikka tanbeh beriladi, aks holda bola bu tarbiyasizlikni to‘g‘ri hisoblab, o‘ziga singdirib olishi mumkin deb hisoblanadi.

Xitoy bolalaridagi qat'iylik va mehnatsevarlik an’anaviy fazilatlarga aylangan. Koreya maktabgacha ta’lim tashkilotlarida asosan musiqa, rasm, hisoblash mashg‘ulotlari integratsion shaklda tashkil etiladi. Bolalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik kabi ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga katta e’tibor berilishi, ta’lim-tarbiya jarayonini uzviylikda olib borilishi, O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimida Koreya tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini kengligini ko‘rsatadi.

Yaponiyada maktabgacha ta’lim tizimi ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Yaponlar farzandlari bilan 5 yoshgacha shoh bilan gaplashgandek muomala qilishadi, 5 yoshdan 15 yoshgacha qul bilan gaplashgandek, 15 yoshdan keyin esa tengdoshi bilan gaplashgandek muomala qilishadi. 15 yoshli o‘smir - o‘zining majburiyatlarini yaxshi biladigan, va qoidalarga bo‘ysinadigan yoshdagi katta odam deb hisoblanadi. Yaponlar bolaning erta voyaga yetishi tarafdoridirlar. Turli yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga urg‘u beradi. Masalan, 1 yoshda - o‘ziga ishonch hissini uyg‘otish. Yaponiyada maktabgacha tarbiya beshta yo‘nalishni o‘z ichiga qamrab olgan, bular: - ijtimoiy munosabatlar; - salomatlik, xavfsizlik; - til; - atrof muhit; - his-tuyg‘ularini ifodalash. bolalarga oilada va jamoatda muomala qilishni, o‘ziga ishonishni, yangi ko‘nikmalarni egallashga, xalq ertaklarini va kitoblarni o‘qib tilga va madaniyatga o‘rgatadilar. yaponiyadagi maktabgacha tarbiya tamoyillari -sog‘lom, mustaqil, har tamonlama rivojlangan, bilimga ega va o‘z madaniyati hamda vatanini sevuvchi jamiyat a’zosini yaratishga qaratilgan. Yapon bolalari tabiatni juda sevadilar va chuqur his etadilar. balkim, aynan shuning uchun ham yaponiyada turli daraxtlar, tabiat hodisalariga bag‘ishlangan milliy bayram va festivallar ko‘p bo‘lsa kerak. yoshlikdan go‘zallikni sevishni va tabiatni his etishni o‘rgatilgan yapon bolalar bu tuyg‘ular bilan umrbod yashaydilar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni tarbiyalashdagi bunday ijobiy qarashlar bilan bir vaqtda, xulosa tariqasida aytish joizki xorijiy mamlakatlarning maktabgacha ta’lim tizimlarini o‘rganish, ularning ilg‘or tajribasini tahlil etish va respublikamiz sharoitiga moslashtirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish mamlakatimiz maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirib zamonaviylashtirishga imkon yaratadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

REFERENCES

1. Nurulloyev F. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarini axloqiy tarbiyalash //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАТСІЙ (buxdu. uz). – 2021.
2. Boboyeva D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o‘stirish jarayonida ertaklar asosida atrof-muhit bilan tanishtirish /llmiy to‘plam. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2000.
3. G.I.XASANOVA “Ta’lim jarayonida dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari” Jizzax. 2020.
4. O. Hasanboyeva. H.Jabborova. Z.Nodirova. Tabiat bilan tanishtirish metodikasi. – T.: Cho‘lpon NMIU. Qo‘llanma. 2006.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.// O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. –T., 2017.
6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirzièevning xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so‘zi. –Toshkent, 2019. 7 aprel. – № 68.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» PQ-4307-son qarori. – T., 2019. 3 may.
8. Fotima Qodirova // “Maktabgacha Pedagogika” // 2019y.

BOLANI MAKTABDA O'QISHGA AQLIY VA AXLOQIY IRODAVIY TAYYORLIGI

Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Madatova Dilnura Zohidjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabda o'qishga tayyorgarlik maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaga qo'yiladigan talablar va bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy axloqiy, hamda irodaviy tayyorligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Maxsus tayyorgarlik, shaxsiy madaniyat, axloqiy-irodaviy tayyorgarlik, ong, iroda, xatti-harakat, xulq-atvor.

Аннотация: В статье приведены сведения о требованиях, предъявляемых к ребенку дошкольного возраста в дошкольной образовательной организации и семье при подготовке к школе, а также сведения об умственной, нравственной и волевой готовности детей при подготовке к школе.

Ключевые слова: Специальная подготовка, культура личности, морально-волевая подготовка, сознание, воля, поведение, характер**.**

Abstract: This article presents information about the requirements for a preschool child in the preschool educational organization and the family in preparation for school, as well as information about the mental, moral, and volitional readiness of children in preparing for school.

Keywords: Special preparation, personal culture, moral and volitional preparation, consciousness, will, behavior, behavior.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta’limiga o’tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o’zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani uydayoq maktab ta’limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo’lmagan bilim, tushuncha, ko’nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo’ladi. Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko’ra, ‘Maktabga tayyorgarlik’ tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo’nalishlarini o’z ichiga oladi:
-jismoniy;
-shaxsiy(ruhiy);
-aqliy;
-maxsus tayyorgarlik.
Jismoniy tayyorgarlik bolaning salomatligi, harakat ko’nikmalari va sifati, qo’l mushaklari va ko’rish-mator muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi. Shaxsiy tayyorligi, atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o’simliklar dunyosiga, tabiiy hodisalarga munosabati, shaxsiy madaniyatning shakllanganligini nazarda tutadi. Aqliy tayyorgarlik bolaning obrazli va mantiqiy fikrlashi, bilimga qiziqishi, mustaqilligi, o’zini-o’zi nazorat qilishi hamda o’quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab qolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishini o’z ichiga oladi.Bolaning maktabda ta’lim olishi samarasi uning ona tilini bilishga va nutqni qanchalik rivojlanganligiga ko’proq bog’liq bo’ladi. Chunki butun o’quv faoliyati shularga, ya’ni nutqiy-mantiqiy rivoji, bolaning kattalarning yordamisiz mustaqil fikrlashi, til malakasining rivojlanganligi, hikoya qilish, mulohaza yuritish, o’z tasavvurini izohlay olish, tushunarli qilib bayon etish kabi omillar asosiga quriladi. Shuningdek, bolaning maktabda ta’lim olishi uchun amaliy intellekt rivoji, ya’ni uning namunani chizish, aytib turiladigan bayoniy topshiriqni bajarishi ham muhim sanaladi. Va nihoyat, maxsus tayyorgallik bolani savodxonlikka o’rgatish va uning maktabning 1-sinf o’quv

dasturi materialini yetarli darajada egallash haqidagi tushunchasini shaklllantirishni nazarda tutadi. Bolalarni maktabda o’qitishning samaradorligi ko’p jihatdan ularning tayyorgarlik darajasiga bog’liq bo’ladi.

Maktabda o’qishga tayyorgarlik –maktabgacha ta’lim tashkiloti va oilada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolaga qo’yiladigan talablar orqali aniqlanadi. Bu talablarning o’ziga xos tomoni o’quvchining yangi ijtimoiy- psixologik o’rni bilan bog’liq. Bola o’z oldiga qo’yiladigan vazifalarni bajarishga tayyorlangan bo’lishi lozim. Maktabga kirish bola hayotidagi odatiy turmush tarzi, atrofdagilar bilan munosabat tizimining o’zgarishiga aloqadar muhim davrdir. Bola hayotida birinchi bor markaziy o’rinni ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan o’quv faoliyati egallaydi. Unga odatiy bo’lgan erkin o’yin faoliyatidan farqli o’laroq endi talim majburiy bo’ladi va birinchi sinf o’quvchisidan 4 ta jiddiy munosabat talab qilinadi. Ta’lim faoliyatining yetakchi turi sifatida bolaning kundalik hayot jarayonini qayta quradi: kun tartibi o’zgaradi, erkin o’yinlar vaqti qisqaradi. Bolaning mustaqilligi va uyushganligi, uning ishchanligi va intizomlilikka talablar jiddiy ravishda ortadi. Maktabgacha yoshdagi bolalikka nisbatan o’quvchining o’z xatti-harakati, majburiyatlarini bajarishga shaxsiy ma’suliyati ancha-muncha ortadi. Bolalarni maktabga tayyorlash, birinchidan, bolalar bog’chasida tarbiyaviy ishni maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni umumiy, har tomonlama rivojlantirishning yuqori darajasini ta’minlaydigan, ikkinchidan, bolalarni maktabning boshlang’ich sinflarida o’zlashtirishlari lozim bo’lgan o’quv fanlarini egallashga maxsus tayyorlashni ta’minlaydigan qilib tashkil etilishini nazarda tutadi.

Bolaning maktabda o’qishga axloqiy-irodaviy tayyorligi. Maktabga o’qishga axloqiy- irodaviy tayyorlik bolaning maktabgacha bolalik oxiriga kelib axloqiy xatti-harakat, iroda, axloqiy hissiyotlar va ong rivojida unga yangi ijtimoiy nuqtai nazarni faol egallashiga hamda o’zining o’qituvchi va sinfdoshlari bilan o’zaro munosabatlarini axloqiy asosda qurishga imkon beradigan darajaga erishishida ifodalanadi. Axloqiy irodaviy tayyorlik katta maktabgacha ta’lim yoshidagi bola shaxsiy xulq-atvori rivojining muayyan darajasida namoyon bo’ladi. Bu munosabatda bolaning maktabgacha ta’lim yoshi davomida rivojlanadigan o’z xulq atvorini boshqarish qobiliyati: qoidani yoki tarbiyachi talablarini ongli bajarish, daf’atan asabiylashib ketishga erk bermaslik, qo’yilgan maqsadga erishishda qat’iyatni namoyon qilish, kerakli ishni o’ziga tortadigan, ammo maqsaddan chalg’itadiganiga qarshi o’laroq bajarish ko’nikmasi va shu kabilar e’tiborga loyiqdir. Bo’lajak o’quvchi xulq-atvoridagi ixtiyoriylikning rivojlanish asosini maktabgacha ta’lim yoshi oxiriga kelib tarkib topadigan sabablar, o’zaro bo’ysinuvchilar tashkil qiladi. Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlikning tarkib topishida, shuningdek, katta maktabgacha ta’lim yoshidagi bola shaxsiy xulq-atvoridagi mustaqillik, uyushganlik va intizomlilik kabi xususiyatlar ahamiyatlidir.

Mustaqillik bilan uzviy bog’langan xulq- atvor qoidalarini bajarish, yangi sharoitlarda harakatning to’g’ri, odatiy usullaridan foydalanish, yordam berishga tayyorlik qobiliyatidir.Mustaqillik bilan xulq-atvordagi uyushganlik intizomlilik bilan xulq- atvordagi maqsadga yo’nalganlikda, o’z faoliyatini maktabgacha ta’lim tashkilotida qabul qilingan qoidalarga muvofiq ongli tashkil eta bilishda, faoliyat natijasiga erisha bilish va uni nazorat qilish, o’z xulq -atvorini boshqa bolalarniki bilan muofiqlashtirish, o’z xatti-harakatlari uchun shaxsiy ma’suliyatni his qilishda o’z ifodasini topadi. Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlikning boshqa muhim tarkibiy qismi bolaning katta yoshlilar va tengqurlari bilan o’zaro munosabatlarini qoidalarga muvofiq tashkil eta bilishdir. Tajribaning ko’rsatishicha, maktabdagi o’qish sharoitlariga moslashish oldingi yillarda bolalarda “jamoatchilik” sifatlari: do’stlarga nisbatan xayrixoh , hurmat bilan munosabatda bo’lish, tashkilotchilik ko’nikmalari, xushmuomalalik, g’amxo’rlik bildirish, o’zaro yordamga hozirlikning qanchalik muvaffaqiyatli shakllantirilganligiga bevosita bog’liqligini ko’rsatadi. Bola xulq-atvorida jamoatchilik hislarida bunday majmuaning mavjudligi uning maktabga axloqiy tayyorgarligining ko’rsatkichi bo’la oladi va yangi jamoada tengqurlari bilan muomalada ko’tarinki, ijobiy ruhni yuzaga keltiradi. Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlik, shuningdek, axloqiy hissiyot va bola ongi rivojining muayyan darajasi bilan ham ifodalanadi. Bu o’rinda eng ibratlisi bolalarning axloqiy xulq-atvorining ijtimoiy ahamiyatini tushunish, ularda o’z xatti-harakatlarini mustaqil baholash qobiliyatini rivojlantirish, ma’suliyat, haqgo’ylik, insoniylik va fuqarolik hissiyotlari elementlarini shakllantirishdir. Axloqiy-irodaviy tayyorlik tarkibiga maktabgacha ta’lim yoshidagi bolaning mehnatga munosabatini ifodalovchi sifatlar majmui ham kiradi. Bu mehnat qilish ishtiyoqi, atrofdagilar mehnatiga hurmat, zarur mehnat malakalarini egallashdir.

Bolaning maktabda o’qishiga aqliy tayyorgarligi. Maktabga aqliy tayyorlikning muhim tarkibiy qismi maktabga o’qishga kirayotgan bolada atrof, dunyo haqida yetarlicha keng bilish boyligining mavjud

bo’lishidir.Bilimlarning bu fondi o’qituvchi o’z ishini tashkil etishda tayanadigan zarur asos hisoblanadi. Bolani maktaga aqliy tayyorligida bolalar egallagan bilimlarning sifati ahamiyatlidir. Bilimlar sifatining ko’rsatkichi, birinchi navbatda, ularni bolalar tomonidan ongli egallaganligi; tasavvurlarining aniq va tabaqalashtirilganligi; oddiy tushunchalar mazmuni va hajmining to’liqligi; o’zlariga tushunarli o’quv va amaliy vazifalarni hal etishda bilimlarni mustaqil qo’llay olish qobiliyatlari; muntazamlilik, ya’ni maktabgacha ta’lim yoshidagilarning narsa va hodisalar o’rtasidagi tushunarli, muhim aloqa hamda munosabatlarni aks ettira bilish qobiliyatidir. Bola maktabga aqliy tayyorgarligining tarkibiy qismi bola bilish faoliyatini muayyan darajada rivojlangan bo’lishidir.

Bu o’rinda, birinchidan, bilish jarayonining o’sib boruvchi ixtiyoriyligi; materialni ma’no jihatdan ixtiyoriy eslab qolish va takror ifodalash, narsa va hodisalarni rejali idrok etish, qo’yilgan bilish va amaliy masalalarni maqsadga muvofiq hal etish qobiliyati va shu kabilar; ikkinchidan, bilish jarayonlari sifatini oshirish: sezgilarning aniqligi, idrokning to’liq va tabaqalashtirilganligi, eslab qolish va takror ifodalashning tez va aniqligi; uchinchadan, bolada atrof- dunyoga bilish munosabatlari, bilimlarni egallash va maktabda o’qishga intilishning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabga aqliy tayyorlikni shakllantirishda bo’lajak o’qituvchi tafakkur faoliyatinng umumiy darajasi muhim ahamiyatga ega. MTTning bolalarni aqliy tarbiyalashga oid olib borayotgan muntazam, maqsadga muvofiq ish sharoitlarida bolalarda (faoliyat)tafakkur faoliyatida narsalarning ko’p tomonlama tahlil qilish qobiliyati, ijtimoiy tarkib topgan sensor etalonlardan fan hamda hodisalar xususiyat va sifatlarini tadqiq qilishda foydalana bilish narsa va hodisaladagi asosiy aloqa, bog’liqlik, belgilarni aniqlash asosida oddiy umumlashtirishlar qilish qobiliyati, o’xshashlik va farqlanuvchi belgilarni izchil ajratish asosida narsalarni qiyoslashni amalga oshirish ko’nikmasi tarkib toptiriladi. Bo’lajak o’quvchilarda aqliy faoliyatning elementar mustaqilligi, o’z amaliy faoliyatni mustaqil rejalashtirish va uni reja asosida amalga oshirish ko’nikmasi, oddiy bilish vazifasini qo’yish va uni hal etish ko’nikmasi va shu kabilar rivojlantiriladi. Maktabda aqliy tayyorlik, shuningdek, bolalar tomonidan o’quv faoliyati elementlarining egallab olinishini ham o’z ichiga oladi.

Bolalar muntazam ta’lim sharoitlarida maktabgacha bolalaik oxiriga kelib, o’quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini: tushunarli o’quv vazifasini qabul qilish, tarbiyachining ko’rsatmalarini tushunish va aniq bajarishni, ishni kattalar tomonidan ko’rsatilgan usullaridan foydalanib bajarib bir natijaga erishish, o’z faoliyati, xulq-atvori, topshiriqlarni bajarish sifati ustidan nazorat qilish ko’nikmasini, o’zining va boshqa bolalarning ishlariga tanqidiy baho berish qobiliyatini, egallab olishlari kerak. Nutqning qanchalik yuqori darajada rivojlangan bo’lishi bola maktabga aqliy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tovushni aniq talaffuz qilish, lug’atning boyligi, o’z fikrini mantiqiy va grammatik to’g’ri bayon qila bilish, madaniy nutq muomalasi- bularning barchasi maktabda muvaffaqiyatli o’qishning zaruriy sharti hisoblanadi. Aqliy tayyorlik tarkibiga, shuningdek, savodning boshlang’ich asoslari, oddiy matematik tasavvurlar, ona tili yetarlicha keng bilim, ko’nikma va malakalar doirasi ham kiradi. Shunday qilib, maktabdagi o’qishga aqliy tayyorlik bolalarni aqliy va nutqiy rivojlantirishning o’zaro bog’langan tarkibiy qismlaridan tashkil topadi. Bilish faoliyati, bilish qiziqishlari, bola tafakkuri usullari, atrof dunyo haqidagi anglangan tizimlashtirilgan tasavvurlar hamda elementlar tasavvurlar, nutq va elementar o’quv faoliyati umumiy darajasining birligi bolalarda maktabdagi o’quv materialini egallashga aqliy tayyorlikni vujudga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.D.Iminova, O.Vohitdinova. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash”.-Andijon,2024 2.Davlat ta’lim standartlari.
3.”Ilk qadam” davlat o’quv dasturi.-Toshkent, 2022
4.D.Q.Asqarova. “Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi”.-Toshkent:Navro’z, 2020
5.Hasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta’lim pedogogikasi.-Toshkent:Ilm ziyo, 2006.

FIZIKA FANINI O'QITISHDA TALABALARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH ORQALI TADBIRKORLIK SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH

B.Z Polvonov
Farg‘ona davlat texnika universiteti professori
B.S. Ruzimatova
Farg‘ona davlat texnika universiteti assistenti

ruzimatovabarno50@gmail.com
tel: +998 90 501 0516

Annotasiya. Maqolada fizika fanini o‘qitish jarayonida talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish orqali tadbirkorlik sifatlarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Mualliflar fizika darslarida qo‘llaniladigan innovatsion metodlar, loyihalar va interfaol usullar orqali talabalarning ijodiy qobiliyatlarini oshirish, ularga tadbirkorlikda muhim bo‘lgan xavflarni hisoblash, yangi g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish kabi ko‘nikmalarni egallash imkoniyatlarini tahlil qiladi. Maqolada shuningdek, kreativlik va tadbirkorlikning o‘zaro bog‘liqligi, zamonaviy ta’limda fizika fanining rolini oshirish yo‘llari haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: ta'lim sohasidagi innovatsiyalar, ta'limni rivojlantirishning yangi yo'nalishlari, zamonaviy ta'limni rivojlantirish tendentsiyalariva ta'limning vazifalari.

Annotation. The article examines the development of entrepreneurial qualities in students by developing creative thinking in the process of teaching physics. The authors analyze the possibilities of using innovative methods, projects and interactive methods in physics lessons to enhance students' creative abilities, develop such skills as calculating risks that are important in entrepreneurial activity, and implement new ideas in practice. The article also discusses the relationship between creativity and entrepreneurship, as well as ways to increase the role of physics in modern education.

Keywords: innovations in éducation, new directions of éducation development, tendencies of modern éducation development, mission of education.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы формирования предпринимательских качеств у студентов путем развития творческого мышления в процессе обучения физике. Авторы анализируют возможности использования инновационных методов, проектов и интерактивных методов на уроках физики для повышения творческих способностей учащихся, формирования у них таких навыков, как расчет рисков, важных в предпринимательской деятельности, и внедрения новых идей в практику. В статье также обсуждается взаимосвязь креативности и предпринимательства, а также пути повышения роли физики в современном образовании**.**

Ключевые слова: физика, творческое мышление, предпринимательство, инновационные методы, проекты, интерактивное обучение, управление рисками, творческие способности, новые идеи, современное образование.

Fizika fani fundamental ilmiy asoslar bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish, innovatsion mahsulotlar yaratish, muhandislik va texnika sohalarida qo‘llanilishi jihatidan katta amaliy ahamiyatga ega. Biroq bugungi ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — ushbu nazariy bilimlarni talabalarning kreativ va tadbirkorlik salohiyati bilan uyg‘unlashtirish orqali yangi g‘oyalar yaratish va ularni iqtisodiy faoliyatga yo‘naltirishdir.

Fizikani o‘rganish orqali talabalar quyidagi amaliy yo‘nalishlarda o‘z g‘oyalarini ishlab chiqish imkoniga ega bo‘lib, texnika oliy o’quv yurtlarda mavjud yo‘nalish misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak:
Energetka fakulteti yo‘nalishida - energiya manbalari: Quyosh, shamol va boshqa muqobil energiya manbalaridan foydalanish usullari, kichik quyosh panellari yoki shamol turbinalarini loyihalash. Issiqlik va elektr energiyasi: Issiqlik almashinuvi, energiyani tejash texnologiyalari, zamonaviy elektr uzatish usullari.
Mexanika va mashinasozlik yo‘nalishida - Mexanika va qurilma ishlab chiqish: Oddiy mexanizmlarga asoslangan maishiy texnika vositalari, avtomatlashtirilgan qurilmalar yaratish va arzon lekin mustahkam bo’lgan materiallardan hamyonbob avtomobillar yaratish.
Kimyo texnologiyasi yo‘nalishida – ekologik jihatdan toza va tejamkor kimyoviy vositalar yaratish
Ilmiy laboratoriyalar uchun arzon o‘quv qurilmalarini ishlab chiqish: Maktablar va kollejlar uchun arzon, lekin funksional fizik laboratoriya asboblari yaratish.

Bu yo‘nalishlar nafaqat nazariy bilimlarning mustahkamlanishini ta’minlaydi, balki talabalarni kichik innovatsion loyihalar asosida tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltiradi.Fizika asosida tadbirkorlik g‘oyalarini shakllantirish mexanizmlari quyidagilardan iborat

- STEAM yondashuvi: Fizika, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikaning integratsiyalashgan holda o‘rgatilishi talabalarni loyihaviy fikrlashga, jamoaviy ishlashga va mahsulot yaratishga yo‘naltiradi.

- Hackathonlar va “Startup Week” kabi loyihaviy tadbirlar: Talabalar real muammoni fizika asosida hal etuvchi kichik qurilmalar, mobil ilovalar yoki yangi texnologik yechimlar ishlab chiqadilar.
- Mini-startaplar tashkil etish: OTMlarda fizika asosida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqishga mo‘ljallangan guruhlar tuzish orqali ularning ishlanmalari kichik korxonalar shaklida amalga oshiriladi.
- Ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik: Talabalar amaliyot vaqtida fizik bilimlari asosida ishlab chiqarish texnologiyalari bilan tanishadi va o‘z g‘oyalarini taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

3. O‘quv dasturlariga tadbirkorlikni integratsiyalash

Fizika kurslariga “Innovatsion loyiha”, “Tadbirkorlik asoslari”, “Ilmiy-texnik ishlanmalarning tijoratlashuvi” kabi modul darslarini kiritish orqali talabalarda quyidagi ko‘nikmalar shakllanadi:

- mahsulot yaratish va uni baholash;
- texnologik yechimlarni iqtisodiy jihatdan tahlil qilish;
- biznes reja tuzish va startapni yo‘lga qo‘yish;
- jamoaviy fikrlash, investor bilan ishlash va marketing asoslari.

4. Real amaliy loyihalarning namunasi

Quyidagi amaliy loyihalar fizika fanining tadbirkorlikdagi qo‘llanilishiga misol bo‘la oladi:

- Smart energiya tejovchi chiroq – harorat va yoritish sharoitiga mos ravishda ishlaydigan avtomatlashtirilgan chiroq.
- Portativ quyosh quvvatlagichi – oddiy akkumulyator bilan ishlaydigan va elektr energiyasi cheklangan hududlar uchun mo‘ljallangan qurilma.
- “Fizika o‘rganamiz” mobil ilovasi – o‘quvchilarga laboratoriya tajribalarini simulyatsiya qilish imkonini beruvchi interaktiv platforma.
- Termoelektrik sovitkich – Peltier elementlari asosida ishlaydigan, arzon, ekologik sovitish tizimi.

5. Tizimli yondashuvni shakllantirish

Talabalarning kreativ fikrlashi va tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi tizimli chora-tadbirlar muhim hisoblanadi:

- Fizika fani o‘qituvchilari uchun malaka oshirish kurslarida kreativ pedagogika va tadbirkorlikni integratsiyalash bo‘yicha treninglar o‘tkazish.
- Tabiiy fanlar bo‘yicha tanlov va grantlar tizimini rivojlantirish.
- OTM qoshida “Fizika va texnologiyalar” startap markazlarini tashkil etish.
- Talabalar innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlovchi inkubatsiya markazlari bilan hamkorlik o‘rnatish.

Fizika fanini kreativ usullarda o‘qitish talabalarni nafaqat fanli bilimlar bilan, balki innovatsion va tadbirkorlik qobiliyatlari bilan ham ta’minlaydi. Quyidagi choralarni ko‘rish samarali bo‘lishi mumkin:

1. O‘qituvchilar uchun kreativ pedagogika bo‘yicha malaka oshirish kurslari;
2. Maktab va universitetlarda startup-muhitni rivojlantirish (loyiha tanlovlari, investorlar bilan uchrashuvlar);
3. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish (AQSh, Finlandiya, Janubiy Koreya tajribasidan foydalanish).

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va ularni kasb-hunarga yo‘naltirish to‘g‘risida”gi farmoni. (2021)
2. Sharipov Sh. “Innovatsion ta’lim texnologiyalari”, Toshkent: Fan, 2020.
3. Egamberdiyeva N. “Tabiiy fanlarni o‘qitishda kreativ fikrlashni shakllantirish”, O‘zbekiston pedagogik jurnali, 2022, №3.
4. Jalilov A., “Fizika fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”, Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
5. Mavlonova R., “Kasbiy ta’lim va innovatsiyalar”, TDIU nashriyoti, 2022.
6. Hasanov A. “Fizika fanini loyihaviy yondashuv asosida o‘qitish metodlari”, Ilmiy-uslubiy risola, 2021.
7. 2. B.Sh. Usmonov. Xabibullayev R.A. “Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2020.

KO‘RISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI IJTIMOIY MOSLASHTIRISHDA PEDAGOGIK TA’SIR STRATEGIYALARI

Urazbayeva Sevinchoy Toxtaboy qizi
CHDPU Pedagogika fakulteti “Menejement” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
urazbayevasevinchoy9@gmail.com, +998995582304,
Ilmiy rahbar: Z.A.Jumaniyazova
CHDPU pedagogika fakulteti “Pedagogika”kafedrasi o‘qituvchisi
zulfiyajumaniyazova2@gmail.com, +998 97 545 12 64

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko‘zida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan pedagogik ishning ijtimoiy moslashtirishga ta’siri va unga qo‘llaniladigan pedagogik ta’sir strategiyalari muhokama qilinadi. Ko‘zida nuqsoni bo‘lgan bolalar, o‘zlarining maxsus ehtiyojlari va rivojlanish xususiyatlariga ko‘ra, ta’lim va tarbiya jarayonida individual yondashuvlarni talab qiladi. Maqolada, shuningdek, ijtimoiy moslashuv jarayonini samarali tashkil etish uchun ta’limda qo‘llaniladigan maxsus texnologiyalar, kommunikativ metodlar, psixologik qo‘llab-quvvatlash va jamoaviy faoliyatlarning ahamiyati ta’kidlanadi. Ko‘zida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun kompensator pedagogika, innovatsion texnologiyalar va Braille alifbosi kabi vositalar orqali ularning ijtimoiy integratsiyasi osonlashtiriladi. Shuningdek, bolalarning o‘zaro muloqotini rivojlantirishda rolli o‘yinlar va ijtimoiy tadbirlar kabi yondashuvlar samarali ishlatiladi. Pedagogik ta’sir strategiyalari orqali bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish, ijtimoiy vaziyatlarda o‘zlarini erkin his qilishlari ta’minlanadi.

Kalit so‘zlar: Ko‘zida nuqsoni bo‘lgan bolalar, pedagogik ta’sir strategiyalari, ijtimoiy moslashuv, kompensator pedagogika, maxsus ta’lim texnologiyalari, Braille alifbosi, kommunikativ yondashuvlar, psixologik qo‘llab-quvvatlash, jamoaviy faoliyat, integratsion ta’lim, ijtimoiy integratsiya, ta’limda innovatsiyalar, rolli o‘yinlar, ta’limda individual yondashuv, o‘ziga bo‘lgan ishonch, ijtimoiy vaziyatlar.

Kirish

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar (ko‘zi ojiz yoki ko‘rishida cheklov mavjud bo‘lganlar) – bu toifadagi bolalar maxsus pedagogik yondashuvni talab qiluvchi, ko‘rish orqali axborotni to‘liq yoki qisman qabul qila olmaydigan bolalardir. Ularning rivojlanishi, o‘rganishi va ijtimoiylashuvi ko‘rish sezgisi cheklanganligi sababli boshqa sezgi organlariga (eshitish, teginish, harakat) va kompensator mexanizmlarga tayanadi. Ushbu bolalarni ta’lim-tarbiyalashda maxsus pedagogika – **tiflopedagogika sohasi** shug‘ullanadi. Bu soha ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish, ularga mos o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni jamiyatga to‘laqonli integratsiya qilish bilan shug‘ullanadi.

Ko‘rishdagi buzilishlar quyidagicha tasniflanadi:

- To‘liq ko‘zi ojizlik (ko‘rish funksiyasi umuman yo‘q)
- Qisman ko‘rish nuqsoni (zaif ko‘radiganlar: yaqin yoki uzoqni ko‘rish qobiliyati buzilgan, yorug‘likka sezuvchanlik pasaygan)
- Ko‘rish maydonining torayishi, ko‘rish o‘tkirligining pastligi
- Ko‘zni muvofiqlashtirishdagi buzilishlar (masalan, nistagm, strabizm – ko‘z qamashishi yoki g‘ilaylik).

Ushbu nuqsonlar bolaning atrof-muhitni qabul qilish, idrok qilish va bilish faoliyatiga sezilarli darajada ta’sir qiladi.

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish faoliyatiga quyidagicha ta’sir etadi:

- Idrok: Ko‘rish orqali idrok qilish imkoniyati cheklanganligi sababli, bolalar ko‘proq eshitish, teginish va harakat orqali atrof-muhitni anglaydi.
- Tafakkur: Abstrakt tafakkur shakllanishi murakkabroq bo‘lib, konkret-amaliy faoliyat orqali rivojlanadi.
- Xotira: Eshitish va sezgi asosidagi xotira yaxshi rivojlanadi. Tashqi sezgilarga asoslangan avtomatizmlar muhim rol o‘ynaydi.
- Tasavvur: Vizual tasavvurlar o‘rniga kinestetik va taktil tasavvurlar ustunlik qiladi.

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda psixik rivojlanish ko‘rish funksiyasi yo‘qligi sababli o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

- Emotsional soha: Ko‘rish cheklanganligi sababli bolalar ko‘proq ichki tajribalarga tayangan holda harakat qiladi. Bu esa ijtimoiylashuvda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.
- Ijtimoiy muloqot: Ko‘rish signallarining yo‘qligi (mimikalar, imo-ishoralar) og‘zaki muloqotni asosiy vositaga aylantiradi.
- O‘ziga ishonch va mustaqillik: Past bo‘lishi mumkin, agar maxsus pedagogik yordam ko‘rsatilmasa.
- Faollik va harakatlanish: Harakatlar chegaralangan, oriyentatsiya va muvozanatni saqlash qiyin bo‘lishi mumkin.

Ko‘zida nuqsoni bor bolalar bilan olib boriladigan pedagogik ishda asosiy e’tiborni **kompensator metodlar** va **individual yondashuv**ga qaratishimiz lozim. Bu yondashuvlar bolaning ko‘rishida mavjud bo‘lgan nuqsonni boshqa sezgi organlari yordamida to‘ldirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, bolaning tafakkuri, xotirasi, diqqati va boshqa bilish jarayonlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodlar qo‘llaniladi.

Ko‘zida nuqsoni bor bolalar bilan olib boriladigan pedagogik faoliyatda **kompleks yondashuv** asosiy o‘rin tutadi. Bu yondashuv bolaning barcha rivojlanish aspektlarini, ya’ni kognitiv, emotsional, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishini nazarda tutadi. Pedagogik faoliyatda bolaning individual ehtiyojlariga mos ravishda quyidagi o‘quv materiallari va metodlari tanlanadi:

a) Kompensator ta’lim metodlari: Ko‘zida nuqsoni bo‘lgan bolalarga ta’lim berishda kompensator metodlar qo‘llaniladi. Bu metodlar bolaning ko‘rish organidan o‘rnini boshqa sezgi organlari orqali qoplashga qaratilgan. Masalan, Braille alifbosi, audio o‘quv materiallari, taktil tasvirlar va interaktiv texnologiyalar orqali o‘rganish jarayoni olib boriladi.

b) Texnologiyalardan foydalanish: Ko‘zida nuqsoni bor bolalar uchun ta’lim jarayonini yanada samarali qilish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Kompyuter texnologiyalari, ovozli qurilmalar va maxsus dasturlar bolalarga mustaqil o‘qish, matnlarni tinglash, ilmiy ma’lumotlarni oson va kengroq o‘rganish va tahlil imkonini beradi.

Ko‘zida nuqsoni bor bolalar uchun ta’lim nafaqat akademik bilimlarni olish, balki ijtimoiy moslashuvni ta’minlashga ham birgalikda tashkil etishimiz lozim. Ularning jamiyatda to‘laqonli ijtimoiy hayot kechirishlari uchun maxsus reabilitatsiya dasturlari ishlab chiqilgan. Bu dasturlar bolalarning ijtimoiy muloqot qilish, o‘z fikrini bayon etish va kundalik hayotda mustaqil harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogik jihatdan ishlarning quyidagi asosiy vazifalari mavjud:

- **Kognitiv rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash:** Ko‘zida nuqsoni bor bolalarning tafakkuri, xotirasi va e'tibori rivojlantiriladi. Ta'lim jarayonida auditoriya materiallarini eshitish, taktil o‘rganish va zamonaviy texnologiyalar orqali bilim olishga imkoniyat yaratiladi.
- **Mustaqil hayot ko‘nikmalarini rivojlantirish:** O‘quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ya'ni turli ijtimoiy va amaliy vazifalarni bajarishga o‘rgatish.
- **Ijtimoiy moslashuv:** Bolaning jamiyatga moslashuvi va ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash uchun psixologik, pedagogik yordamlardan foydalanish.

Pedagogik ishda har bir bolaning ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olish zarur, chunki ko‘zida nuqsoni bor bolalar o‘z rivojlanishida maxsus yordamga muhtoj. **I. M. Kalina** tomonidan aytilganidek: *“Ko‘zida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ta’lim jarayonini tashkil etishda individual yondashuv asosiy rol o‘ynaydi. Bu yondashuv bola uchun eng mos metod va materiallarni tanlashga imkon berad”.*

Ko‘zida nuqsoni bor bolalarning o‘qish jarayonida **Braille alifbosi** muhim ahamiyatga ega. Braille tizimi, ko‘rishida nuqsoni bor bolalar uchun yozuvni to‘liq o‘rganish imkonini beradi va bu ularning ta’lim olishini soddalashtiradi. **B. A. Belyaev** o‘z asarida Braille alifbosining ahamiyatini ta’kidlaydi: *“Braille alifbosi ko‘zida nuqsoni bor bolalar uchun nafaqat o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki ular uchun yangi bilimlarni olish va mustaqil o‘rganishning asosiy vositasi hisoblanad”.*

Zamonaviy texnologiyalar, masalan, ovozli qurilmalar, maxsus dasturlar va kompyuter texnologiyalari ko‘zida nuqsoni bor bolalar uchun muhim yordamchi vositalardir. **S. A. Toshtemirova** ta’kidlaganidek: *“Yangi texnologiyalar va axborot vositalari ko‘zida nuqsoni bor bolalarga mustaqil*

o‘qish va o‘rganish imkonini yaratadi. Maxsus dasturlar yordamida o‘quv materiallarini ovozli shaklga aylantirish yoki taktil materiallardan foydalanish pedagogik jarayonni ancha samarali qiladi”.

Ko‘zida nuqsoni bor bolalarning sensor rivojlanishi, ular uchun ta’lim jarayonida o‘ziga xos metodlarni qo‘llashni talab qiladi. **V. P. Kravtsova** ko‘zida nuqsoni bor bolalarning sensor rivojlanishiga alohida e’tibor qaratadi: *“Ko‘zida nuqsoni bor bolalar uchun sensor rivojlanish o‘rganish jarayonida eng muhim faktor hisoblanadi. Ularning eshitish, teginish, hid bilish sezgilarini rivojlantirish orqali o‘qish va tasavvur qilish imkoniyatlari oshadi”.*

Ko‘zida nuqsoni bor bolalarni ijtimoiy moslashtirish, ularning jamiyatga integratsiyasini ta'minlash, ularning mustaqil hayot kechirish ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. **N. V. Melentyeva** o‘z ilmiy ishida shunday deydi: *“Ko‘zida nuqsoni bor bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishda pedagogik yordamning asosiy vazifasi, bolalar bilan maxsus o‘quv jarayonlarini tashkil etish va ularning mustaqil faoliyatlarini rag‘batlantirishdir”.*

Ko‘zida nuqsoni bor bolalar bilan olib boriladigan ta’lim jarayonida motivatsiya muhim ahamiyatga ega. **L. V. Zankov** ta’kidlaganidek: *“Pedagogik ishning samaradorligi bolalarining ta’limga qiziqishini oshirishga bog‘liq. Bu qiziqishning shakllanishi uchun o‘qituvchi individual yondashuvni qo‘llashi va har bir bola uchun maksimal motivatsion imkoniyatlarni yaratishi kerak”.*

Xulosa.

Ko‘zida nuqsoni bor bolalar bilan olib boriladigan pedagogik ish ilmiy va amaliy jihatlarda maxsus metod va texnologiyalarga asoslanadi. Zamonaviy texnologiyalar, individual yondashuvlar, va Braille tizimi kabi vositalar orqali ta’lim jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyatlari mavjud. Ushbu ishlarda pedagogik metodlarni optimallashtirish va bolaning rivojlanish xususiyatlarini inobatga olish juda muhimdir. Ilmiy manbalar bu borada mavjud tajriba va bilimlarning asosiy manbaidir, shuningdek, pedagogik yondashuvlarning samaradorligini oshirish uchun zarur vositalarni taqdim etadi. Ko‘zida nuqsoni bor bolalar bilan olib boriladigan pedagogik ish, o‘quvchilarning bilish jarayonlarini faollashtirish, ularning imkoniyatlarini kengaytirish va jamiyatga to‘liq integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan kompleks jarayondir. Ushbu jarayonda ilmiy asoslangan pedagogik metodlar, maxsus texnologiyalar va individual yondashuvlar qo‘llanilishi zarur. Ta’lim jarayonida maxsus pedagogik yordam, reabilitatsiya va ijtimoiy integratsiya strategiyalari bolalarning samarali rivojlanishi va jamiyatda to‘laqonli hayot kechirishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev Oybek (2023). Adaptive pedagogy in the educational space of a pedagogical university. Web of Teachers: Inderscience Research, 1 (9), 49-52.
2. Zulfiya Aitbayevna Jumaniyazova (2024). Increasing Creative Competence Of Students And Strengthening Educational Efficiency Based On Individual Approach. Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research, 2 (10), 60-68.
3. Z. A. Jumaniyazova (2024). “Inklyuziv ta’limni integratsiyasining tashkiliy pedagogik muammolari. Zamonaviy ta’lim, 1 (1), 746-749.
4. Zulfiya Aitbayevna Jumaniyazova (2024). “Steam ta’lim tizimi inklyuziv ta’limga tatbiqi”, O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 3 (33), 296-299.
5. Jamoldinova, S. N. (2023). Shaxslararo munosabatlarda pedagogik nizolarning ahamiyati. “Ta’limda raqamli tehnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari ” mavzusida o’tkazilgan respublika onlayn amaliy konferensiyasi, 1(15),112-117.
6. S. B. Allayorova (2023). Ta’limda innovatsion uslublarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishning nazariy asoslari. NamDU xabarlari, 2 (2), 453-460.
7. Abdalova Sayyora Rustamovna, Ataboyeva Muyassar Baxromovna (2022). Bo‘lajak o‘qituvchilarning bilim va k‘nikmalarini integratsion sharoit asosida oshirish. World scientific research journal, 9 (1), 88-91.

THE FUNCTIONAL RESPONSIBILITIES AND ROLE OF YOUTH IN THE IMPLEMENTATION OF YOUTH POLICY

Arslonov Zafar Doniyorovich
Doctoral Candidate at the Institute for Youth Studies and Training of Promising Personnel under the Youth Affairs Agency of the Republic of Uzbekistan
E-mail: zafararslonov@gmail.com

Abstract. This article analyzes the role of the younger generation in the implementation of youth policy in the Republic of Uzbekistan, focusing on their functional responsibilities, level of initiative, and participation in state programs. Youth are viewed not only as subjects of policy but also as active agents in its execution, playing a crucial role in ensuring socio-economic stability in society. The study also highlights the responsibility and involvement of youth in areas such as education, innovation, volunteering, and cooperation with civil society institutions, which are essential for the effective realization of youth policy. The article presents strategic approaches aimed at unlocking the leadership potential of youth within the framework of modern state policy.

Keywords: youth policy, functional responsibilities, social activity, role of youth, state programs, innovation, volunteering, civil society, strategic engagement.

INTRODUCTION

In today's era of globalization, every state defines the support of the younger generation and the creation of favorable conditions for them as a priority in ensuring political, economic, and cultural development. This is because youth are the foundation of the future of society and a key driver of innovation and progress. Therefore, the issue of implementing youth policy holds a significant place on the political agenda of many countries. This article examines the functional responsibilities of youth in the implementation of youth policy, analyzes scientific and practical approaches, and reviews both national and international experiences. Youth, as a crucial segment of society, possess the potential to bring about meaningful change and drive innovation. As active participants in socio-political life, young people have unique visions and understandings that can significantly influence the development and execution of youth policy. Recognizing the functional role of youth is essential not only to address their needs but also to empower them and enhance their competencies within political processes.

MAIN PART

Since the future of our nation lies in the hands of the younger generation, one of our most important priorities is to raise them as well-rounded, humane, and responsible individuals toward society and nature. At the heart of the wide-ranging reforms being implemented in our country today lies the life-affirming idea of “From National Revival to National Progress.” This concept envisions development not only in the spiritual sphere but across all areas of life, including the building of a democratic society and rule of law, a prosperous and peaceful life, and economic stability. These goals are reflected in the Action Strategy for the Further Development of Uzbekistan for 2017–2021 and the long-term Development Concept for 2030, both initiated by President Shavkat Mirziyoyev. Notably, initiatives such as “Digital Economy 2030” and the Concept for the Development of the Education System by 2030 vividly demonstrate these aims.

The implementation of youth policy primarily aims to address the interests and needs of young people and ensure their active participation in the development of society. The main goal of youth policy is to comprehensively support the younger generation and create favorable conditions for their intellectual, spiritual-psychological, and physical development. The functional responsibilities of youth in implementing youth policy can be categorized into several key areas:

- Social Engagement: Youth should actively participate in socio-political processes through involvement in NGOs, independent associations, and other platforms, contributing to public affairs and decision-making.
- Innovative Initiatives: Young people are often at the forefront of innovation and fresh ideas. Technological solutions and startups proposed by youth are of great significance in the advancement of the economy and technology.

- Education and Professionalism: One of the most crucial aspects of youth policy is ensuring access to quality education. As highly qualified specialists, youth play a vital role in high-tech sectors of developed societies.
- Cultural and Educational Dimension: Youth serve as a driving force in strengthening the moral foundation of society by embracing both national values and the achievements of global culture.
- Economic Participation: Through the development of small businesses and private entrepreneurship, young people have great potential to enhance economic activity within society.

The progress of any society or state, regardless of the strategic programs or concepts it aims to implement, fundamentally depends on human potential. It is essential to support this human factor spiritually, economically, legally, and physically, and to guarantee opportunities for its full development. Notably, spiritual culture plays a key role in ensuring a person’s growth both morally and materially. In this regard, spiritual culture not only contributes to the development of all fields and sectors of society but also draws moral strength from them and has a positive influence.

For instance, the arts sector is one of the specialized areas of culture that functionally addresses intellectual challenges. The culture of art encompasses all processes necessary for its effective functioning. An aesthetic approach to the world is essential for artistic activity in any area of life. Artistic culture designs imaginary realities, directing public attention to urgent moral, aesthetic, and other issues of spiritual culture. Analyzing the spiritual life of society is currently one of the most critical philosophical problems.

Moreover, understanding and protecting the human biosystem, its functions, and preservation are among the most important tasks of spiritual culture in the medical field. The various forms of physical and spiritual culture regulate human activities related to acquiring, developing, and utilizing values, norms, and demands accepted in culture. The moral values of personal physical culture include knowledge of comprehensive physical development, the ideals of physical perfection, ways to achieve them, characteristics of specific sports, their history, development prospects, and more. Physical culture is a social phenomenon closely connected with economics, ecology, political governance, medicine, pedagogy, art, and science.

Sociologists traditionally divide society into four broad spheres: economic, social, political, and spiritual. The social sphere is represented by various ethnic communities (tribes, clans, peoples, nations, etc.) and social strata—civil servants, peasants, and other groups. The political sphere encompasses power structures such as the state, political parties, organizations, and movements. The spiritual sphere includes people's philosophical, religious, artistic, legal, political, and moral views, as well as their emotions, moods, ideas about the world, customs, and more.

Key Responsibilities of Youth in the Implementation of Youth Policy

1. Participation in Decision-Making

It is essential for young people to actively engage in the political life of society, strengthening their presence in political parties, youth unions, local councils, and citizens' representative bodies. Youth must be recognized as key stakeholders in decision-making processes, ensuring that policies reflect their interests and aspirations.

2. Development of Leadership Potential

The successful implementation of youth policy depends greatly on nurturing young leaders. This involves cultivating initiative, responsibility, teamwork skills, and the ability to resolve conflicts. Youth with strong leadership potential lay a solid foundation for initiating both material and moral reforms within society.

3. Economic Activity and Entrepreneurship

Promoting youth entrepreneurship is one of the main priorities of national policy, as it helps reduce youth unemployment through the creation of new jobs. It is necessary to foster primary business skills among youth, provide opportunities for launching startups, support innovative projects, and establish mechanisms that encourage entrepreneurial initiatives.

4. Initiative in Social Issues

Youth should take an active role in addressing important social issues such as environmental protection, volunteerism, crime reduction, and the preservation of cultural heritage. When young people become involved in improving their living environment, it contributes positively to the development of the entire society.

5. Intellectual Capacity and Scientific Activity

Enhancing scientific capacity is of strategic importance in the implementation of youth policy. Improving the quality of education and fostering youth engagement in research through collaboration with scientific institutions and higher education establishments can strengthen the foundation for the country’s innovative progress.

In Uzbekistan, it is essential to emphasize that the stability, peace, development, military strength, economic growth indicators, and national security interests of the state are all fundamentally dependent on a core source — the human factor. This factor plays a crucial role in the modernization process. The consciousness, culture, and level of thinking of the individual are conveyed to society in the form of national ideas, ideologies, and perspectives that embody the interests, values, and historical heritage of the state and society. These ideas are instilled primarily through social institutions, particularly the family, cultural values, and traditions.

In Eastern societies — especially in the case of Uzbekistan — this notion continues to serve as a foundational principle of society. Overall, the social sources that ensure spiritual development include the family, kindergartens, schools, libraries, museums, cultural centers, theaters, cinema, mass media, social organizations (such as creative unions), industrial enterprises, government agencies, international institutions, and others. All of these institutions, in varying degrees and from different perspectives, influence the development of an individual's worldview and spiritual maturity.

Libraries and museums, in particular, have been established as social institutions directed toward the transmission of moral and spiritual values. Even today, they can play a vital role in maintaining and promoting these values; however, it is necessary to continuously update and renew this mission. Currently, in many traditional cultural institutions, commercial entertainment interests have begun to dominate, and their operations often include outdated practices that are disconnected from contemporary needs. Furthermore, the influence of postmodernism poses a serious risk, especially to individuals who are not yet spiritually and morally developed, as it can have a disruptive and destabilizing effect on their identity.

Conclusion

In conclusion, the active participation of youth in the implementation of youth policy plays a crucial role in shaping inclusive and effective approaches to governance. Their involvement not only enhances the relevance and impact of such policies but also fosters a sense of ownership and responsibility among young people. By recognizing their roles as advocates, decision-makers, and contributors to society, we can develop more sensitive and effective solutions to the challenges they face. Policymakers must prioritize youth engagement and create platforms for meaningful dialogue, ensuring that the voices of young people are heard and valued. Ultimately, empowering youth in the policy-making process paves the way toward a brighter future in which they can fully realize their potential and contribute to the overall development of society. Overall, the functional responsibilities of youth in implementing youth policy are multifaceted, encompassing political activism, economic initiatives, scientific and innovative projects, enhancement of spiritual and moral values, and the preservation of cultural heritage. Scientific research shows that countries that have successfully developed systems to foster political awareness and integrate youth as active participants in decision-making processes achieve greater effectiveness in promoting democratic values, socio-economic development, and political stability.

Literature

1. https://lex.uz/ru/docs/-5234746.
2. http://uzdon.uz/uz/content/interactive/incoterms/.
3. https://uzal.uz/yoshlar-kengashi/.
4. https://president.uz/oz/lists/view/748.
5. Sherbutayevna, J. G., & Ilhomjon o‘g, Y. L. S. (2024). YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH–DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR VAZIFASI. ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI, 1(1).
6. Arslonov, Z. (2025). COOPERATION BETWEEN STATE AND NON-GOVERNMENTAL ORGANIZATIONS IN IMPLEMENTING STATE YOUTH POLICY. *Oriental Journal of Social Sciences*, *5*(04), 32–39. https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-05-04-05.
7. Арсланов, З. 2024. Совершенствование системы работы с молодежью: на основе международного опыта. Общество и инновации. 5, 4/S (апр. 2024), 248–256.

8. Arslonov, Z. (2024). CAREER GUIDANCE FOR THE YOUTH OF THE NEW UZBEKISTAN: SYSTEMATIC SUPPORT FOR YOUNG PEOPLE INTERESTED IN MODERN PROFESSIONS. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, *4*(08), 64–73. https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-04-08-09
9. Zafar Arslonov. Yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish: Namangan viloyati misolida. Ta’lim, fan va innovatsiya 3-son, 2024-yil, 15-18.
10. Doniyorovich, A. Z. (2024). PROFESSIONAL ORIENTATION OF THE YOUTH OF THE NEW UZBEKISTAN: POPULARIZING THE STUDY OF FOREIGN LANGUAGES AMONG YOUNG PEOPLE, TOWARDS A NEW ERA. International Journal of Business, Law and Political Science, 1(10), 86–91. https://doi.org/10.61796/ijblps.v1i10.244

YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA LIDERLIK KO‘NIKMALARINING SHAKLLANISHI VA ULARNING JAMIYATDAGI O‘RNI.

Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti tyutori
Nasriddinova Karimaxon Xoshimovna
Email: k3695023@gmail.com
Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti tyutori
Ismanov Turg‘unpo‘lat To‘lqinovich
Email: ismanovturgunpolat@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda liderlik ko‘nikmalarining tutgan o‘rni tahlil etiladi. Yosh avlodning jamiyat hayotidagi ishtirokini kuchaytirish, ularda tashabbuskorlik, mas'uliyatlilik va tashkilotchilik fazilatlarini shakllantirish zamonaviy davrning eng dolzarb masalalaridan biridir. Shuningdek, maqolada liderlik ko‘nikmalarining tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyati, ularni shakllantirish bosqichlari hamda ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan samarali yondashuvlar yoritiladi. Liderlik salohiyati rivojlangan yoshlar jamiyatning siyosiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma’rifiy taraqqiyotiga faol hissa qo‘shadigan yetuk shaxslar bo‘lib yetishishi alohida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: liderlik, ijtimoiy faollik, yoshlar, shaxsiy rivojlanish, tashabbuskorlik, ta’lim, mas'uliyat, jamiyat, tarbiya, ijtimoiy moslashuv

Аннотация: В данной статье рассматривается роль формирования лидерских навыков в развитии социальной активности молодежи. Усиление участия молодежи в общественной жизни, формирование у них инициативности, ответственности и организаторских способностей является одной из актуальных задач современного общества. Также в статье освещаются воспитательное и социальное значение лидерства, этапы формирования лидерских качеств, а также эффективные подходы, применяемые в образовательном процессе. Подчеркивается, что молодежь с развитым лидерским потенциалом становится зрелыми личностями, активно участвующими в социально-экономическом и духовно-просветительском развитии общества.

Ключевые слова: лидерство, социальная активность, молодежь, личностное развитие, инициативность, образование, ответственность, общество, воспитание, социальная адаптация

Annotation: This article explores the role of developing leadership skills in enhancing youth social engagement. Strengthening young people's involvement in public life, fostering initiative, responsibility, and organizational abilities are among the key priorities of modern society. The article also highlights the educational and social significance of leadership, the stages of its development, and effective approaches applied in the educational process. It emphasizes that youth with well-developed leadership potential become mature individuals who actively contribute to the socio-economic and spiritual development of society.

Keywords: leadership, social activity, youth, personal development, initiative, education, responsibility, society, upbringing, social adaptation

Kirish. Yoshlarning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlash, ularning yetuk va tashabbuskor bo‘lib voyaga yetishlari uchun zarur bo‘lgan shaxsiy sifatlarni shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb

masalalaridan biridir. Xususan, yoshlarning liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularning ijtimoiy faolligini oshirish, kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun mustahkam poydevor yaratadi. Liderlik ko‘nikmalari nafaqat boshqaruvga oid qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi, balki muammolarga ijodiy yondashish, jamoa bilan ishlash, o‘zini boshqara bilish, tashabbuskorlik va javobgarlik kabi muhim shaxsiy fazilatlarning shakllanishini ham anglatadi.

Yosh avlodda bunday ko‘nikmalarning vujudga kelishi, eng avvalo, ta’lim tizimi, oila va jamoat tashkilotlari orqali amalga oshiriladi. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida berilayotgan bilimlar bilan birga, ularning ijtimoiy hayotda faol bo‘lishlari uchun yaratilgan sharoitlar liderlik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Har bir yoshning ichki imkoniyatlarini to‘laqonli ochish, ularni rag‘batlantirish va yo‘naltirish uchun pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim muassasalari o‘z faoliyatini shunchaki bilim berish bilan cheklab qo‘ymasdan, yoshlarning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishi zarur.

Liderlik sifatlari insonning tabiiy iqtidoriga tayanadi, ammo bu ko‘nikmalar ijtimoiy muhit ta’sirida, tarbiya jarayonida va shaxsiy tajriba orqali rivojlanadi. Shuning uchun ham, yoshlarning lider sifatida shakllanishi uzluksiz, tizimli yondashuvni talab qiladi. Ijtimoiy faollik esa, liderlikning amaliy ko‘rinishlaridan biridir. Bu faollik o‘z ichiga jamiyat hayotidagi dolzarb muammolarga befarq bo‘lmaslik, o‘z fikrini ochiq bayon eta olish, boshqalarni ijobiy faoliyatga jalb eta olish, jamoatchilik fikrini shakllantirish kabi jihatlarni oladi.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish masalasi tobora dolzarb tus olmoqda. Internet texnologiyalarining keng yoyilishi, axborot oqimining kuchayishi va virtual muhitdagi faoliyatlar yoshlar ongida o‘ziga xos ijtimoiy portretni shakllantirmoqda. Shu sababli ham, real hayotda ularning faol ishtirokini ta’minlash, ayniqsa liderlik salohiyatiga ega bo‘lgan yoshlarga qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish zarur. Bunda ijtimoiy loyihalar, yoshlar tashkilotlari faoliyati, tanlovlar, seminar-treninglar va boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlar muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Liderlik ko‘nikmalarining shakllanishi, eng avvalo, kommunikativ qobiliyat, muammoni anglash va uni hal etish, qaror qabul qilish, o‘z fikrini asosli ifoda etish, boshqalarga motivatsiya bera olish kabi jihatlar orqali rivojlanadi. Bu esa, yoshlar orasida bahs-munozarali mashg‘ulotlar, jamoaviy loyihalar, interaktiv o‘yinlar, rolli mashqlar orqali yuzaga chiqadi. Ayniqsa, talabalar orasida tashkil etilayotgan forumlar, talabalik jamiyatlari, klub va to‘garaklar yoshlarning tashabbusini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi, ularning ijtimoiy rollarini egallash va jamiyatda o‘z o‘rnini topishida liderlik muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Inson jamiyatda faqat bilim va malaka asosida emas, balki ijtimoiy-psixologik kompetensiyalari orqali ham muvaffaqiyatga erishadi. Bu esa, o‘z navbatida, liderlik qobiliyatlari, ijtimoiy tajriba va kommunikatsiya madaniyatini talab etadi. Shu jihatdan olganda, yoshlarda o‘z-o‘zini anglash, o‘zini baholash, o‘z qadr-qimmatini his qilish, ijtimoiy o‘zaro ta’sirga tayyor bo‘lish kabi jihatlar rivojlanadi.

Yoshlarni liderlik faoliyatiga yo‘naltirishda oilaning ham o‘rni beqiyos. Ota-ona farzandiga mustaqil fikrlash, mas’uliyatni his etish, jamoada harakat qilish, faol tinglovchi va ijobiy muloqotchi bo‘lishni o‘rgatgan hollarda, bu bolalikdan shakllana boshlaydi. Oilaviy muhitda yoshga ishonch bildirishi, uning tashabbuslarini qadrlashi va baholashi, o‘z fikrini mustaqil ifoda etishiga imkon berilishi shaxsiy o‘sishga turtki bo‘ladi. Xuddi shuningdek, pedagoglar ham o‘quvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish uchun interaktiv usullar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim shakllaridan foydalanishlari kerak.

Ijtimoiy faollik va liderlik sifatlari bir-birini to‘ldiruvchi, o‘zaro bog‘liq jarayonlardir. Ijtimoiy faol yoshlar liderlik qobiliyatlariga ega bo‘lsa, liderlik salohiyati kuchli shaxslar esa jamiyatda faol ishtirok etishga intiladilar. Bu o‘zaro bog‘liqlik nafaqat individual taraqqiyot, balki jamiyat taraqqiyotining ham muhim omilidir. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish esa, ularni jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida shakllantiradi. Bunday yoshlar jamiyatda mas’uliyatli qarorlar qabul qila oladi, ijtimoiy tenglik, adolat, ma’naviyat va erkinlik kabi tushunchalarning hayotga tatbiq etilishiga hissa qo‘shadi.

Bugungi kunda davlat siyosati darajasida yoshlarga e’tibor kuchaytirilgani, ularning yetakchi kuch sifatida qaralayotgani ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Har bir sohada yetakchilik qilish salohiyatiga ega bo‘lgan yoshlar avvalambor o‘z fikriga ega, tashabbuskor, mas’uliyatli, jamoani boshqara oladigan, inqirozli vaziyatlarda yechim topa oladigan bo‘lishi kerak. Bu fazilatlarni shakllantirish esa uzluksiz ta’lim, tarbiya, amaliy faoliyat, qo‘llab-quvvatlash tizimlari orqali yuzaga keladi. Shu bois, liderlik

ko‘nikmalarini rivojlantirish nafaqat individual shaxsiy muvaffaqiyat, balki millat va jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, I.A. (1997). Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat.
2. Sharipov, A. (2021). Ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
3. Yusupova, D. (2020). O‘zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish yo‘nalishlari. Pedagogik izlanishlar jurnali, 4(2), 65–72.
4. Saidov, A. (2019). Oila va ijtimoiy tarbiya. Toshkent: O‘zbekiston pedagogik nashriyoti.
5. G‘aniyeva, M. (2022). Ijtimoiy pedagogik yondashuvlar va metodlar. Ilmiy-uslubiy jurnali “Ta’lim va taraqqiyot”, 5(1), 34–39.

YANGI O‘ZBEKISTONDA – XOTIN-QIZLARNING LIDERLIK KO‘NIKMALARINI O‘RNI VA AHAMIYATI

Qodirova Sunbula Akbaraliyevna
Namangan davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar fakulteti tyutori
Tel.: +998 94 402 11 00
G-mail: sunbulaqodirova93@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va liderlik ko‘nikmalarini o‘rni va ahamiyati bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o‘rni, ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar va qonunchilikdagi yangiliklar yoritib beriladi. Maqolada xotin-qizlarning ta’lim olishi, bandligi, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, shuningdek, gender tenglikni ta’minlash yo‘nalishida erishilgan ko‘rsatkichlar tahliliy yondashuv asosida ko‘rib chiqiladi. Izlanishlar natijalari jamiyatning barqaror rivojlanishi va farovonligi uchun xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligini oshirishning dolzarbligini, ahamiyatini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: xotin-qizlar, prezident, liderlik, ayollar huquqi, gender tenglik, tadbirkorlik, ijtimoiy, davlat siyosati, ko‘nikma, islohot.

Yangi O‘zbekistonda – xotin-qizlarning liderlik ko‘nikmalarini o‘rni va ahamiyati har doim davlat siyosatining dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelgan. Chunki har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va barqaror rivojlanishi xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning qonuniy huquqlarini ta’minlash va rivojlantirish biladir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida so‘nggi yillarda ushbu masala davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan bo‘lib, qator islohotlar va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Olib borilayotgan islohotlar xotin-qizlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish, ularning jamiyatdagi faolligini oshirish va davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan.

Jamiyatda ayollar faolligini oshirish sohasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan PF-208-son Farmoni e’lon qilindi. Ushbu farmon “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qabul qilingan bo‘lib, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan.

So‘nggi yillarda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish va ularni qo‘llab-quvvatlash borasida muhim natijalar qayd etildi. Xususan, xotin-qizlarning rahbarlik lavozimlaridagi ulushi 35 foizga yetdi. 2022-2023-yillar davomida 398 ming nafar xotin-qizning bandligi ta’minlandi, 100 ming nafari imtiyozli asoslarda oliy o‘quv yurtlariga qabul qilindi, 170 ming nafariga tahsil olayotgan oliygohlarining shartnoma to‘lovlari uchun imtiyozli ta’lim kreditlari ajratildi. Shuningdek, 14 ming nafari magistratura darajasida bepul ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ldi va 198 ming nafar xotin-qiz kasb-hunarga o‘qitildi [1].

Prezidentimiz aytib o‘tganlaridek, so‘nggi yillarda oilalarni mustahkamlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning bandligini ta’minlash, tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish va gender tenglikni mustahkamlash yo‘nalishlarida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi [1].

Ushbu jarayonlar yangi O‘zbekistonda – xotin-qizlarning liderlik ko‘nikmalarini o‘rni va ahamiyatini mustahkamlash va ularning huquq va manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlar xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning natijadorligini ko‘rsatadi.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan dasturlar doirasida joriy yilning o‘tgan davrida prezidentimiz tomonidan 225 mingdan ortiq loyihalarga 4,4 trillion so‘mga yaqin kredit ajratildi. Shuningdek, 40 mingga yaqin xotin-qizga jami 179,1 milliard so‘m subsidiya berilganligini ko‘rib o‘tishimiz mumkin.

2020-yildan boshlab yo‘lga qo‘yilgan “Ayollar daftari” tizimi orqali 2,5 milliondan ortiq xotin-qizga ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, huquqiy va psixologik ko‘mak ko‘rsatish uchun 5,1 trillion so‘mdan ziyod mablag‘ ajratildi. Ushbu chora-tadbirlar xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash siyosatining muhim tarkibiy qismlarini tashkil etadi [1].

Xususan, O‘zbekiston Repsublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325 son Farmoniga muvofiq mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Oilaning jamiyat va ijtimoiy hayotdagi mavqei oila tarbiyachisi bo‘lmish ayol bilan belgilanadi. Zero, yangi avlod tarbiyachisi sanalgan ayol uning ongi va tafakkuri oilada shakllanib, milliy mafkuraning ilk tushunchalari ham ulg‘ayib voyaga yetgan oilada tarkib topadi.

Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat dastavval ota-onaga, aka-ukalarga, yaqin qarindoshlarga va atrofdagilarga bo‘lgan munosabatdan boshlanadi. Oilada ota-onaning farzandlari bilan qancha ko‘p vaqt birga bo‘lishi, o‘zaro muloqotlar, o‘rgatilgan bilim va ma’naviy qadriyatlarlar mehr tuyg‘usining shuncha mustahkamlanishiga olib keladi. [2].

Ushbu ko‘rsatkichlar xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash siyosatining muhim ahamiyatini hamda ularning jamiyat rivojidagi faol ishtirokini ta’minlash borasidagi sa’y-harakatlarning samaradorligini ko‘rsatadi.

Davlat va jamiyatning rivojlanish darajasi, intellektual salohiyati va madaniyati ko‘p mezonlar orqali baholanadi. Ularning orasida jamiyatning xotin-qizlarga bo‘lgan munosabati muhim indikator sifatida e’tirof etiladi. Ushbu masalaga Prezident Shavkat Mirziyoyev quyidagicha yondashgan: “Biz o‘tmishni yodga olar ekanmiz, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ajdodlarimiz, jahongir bobolarimiz qatorida, mana shunday buyuk insonlarni dunyoga keltirib, mehr bilan tarbiyalagan, ularni ulug‘vor ishlarga ruhlantirib, har bir ishda kamarbasta bo‘lgan fozila ayollarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz! Donishmand xalqimiz hamisha ayollarni e’zozlab yashagan, xotin-qizlarga yuksak ehtirom ko‘rsatib yashash el-yurtimizga xos azaliy qadriyatga aylangan.” [2].

Har qanday jamiyat va davlatning xalqparvarligi va adolatlilik darajasi ko‘pincha xotin-qizlarga bo‘lgan munosabati va ularga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik orqali aniqlanadi. 2021-yilda “Hech kim mehr va e’tibordan chetda qolmaydi” tamoyili asosida 900 mingga yaqin xotin-qizlarga ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, huquqiy va psixologik yordam ko‘rsatildi, bu maqsadlar uchun davlat budjetidan 2 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Xususan, 18 ming xotin-qiz uy-joy xarid qilish uchun imtiyozli kredit bilan ta’minlandi. Shu bilan birga – boquvchisini yo‘qotgan ayollarning farzandlari uchun bog‘cha xarajatlarini budjet hisobidan qoplash tartibi joriy etildi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida 320 mingdan ortiq xotin-qiz doimiy ish va daromad manbaiga ega bo‘ldi [3].

Mazkur yondashuv xotin-qizlarning liderlik ko‘nikmalarini o‘rni va ahamiyatini baholash va ularning jamiyat barqarorligidagi ilmiy nuqtai nazardan tasdiqlaydi.

Davlat rahbarining “Ayollarning jamiyatdagi mavqei va rolini ko‘tarish davlatchiligimizning ustuvor va asosiy yo‘nalishlaridan biridir”, – degan so‘zlarining o‘zi ham yurtimizda ayollar masalasi naqadar muhimligidan dalolat beradi.

Modomiki, mustaqillikning ilk davri – demokratik islohotlar boshlanishida gender tenglik masalasi va ayollarning jamiyatdagi roli naqadar muhim ekanligi 1991-yildayoq alohida davlat tuzilmasi – Xotin-qizlar qo‘mitasi shakllantirilishi bilan yana bir bor o‘z tasdig‘ini topgan edi.

Xalqimiz tarixida buyuk allomalar va jahongir bobolar qatorida ularni dunyoga keltirib, tarbiyalagan hamda ulug‘vor ishlarga ilhomlantirgan fozila ayollar ham muhim o‘rin egallagan. Bugungi kunda ham xotin-qizlar farzand tarbiyasida, turli sohalarda va mahallalarda katta fidoyilik ko‘rsatmoqda. Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev jamiyatda xotin-qizlarning o‘rni va ularga yaratiladigan sharoitlar masalasiga katta ahamiyat qaratgan holda, o‘z nutqlaridan birida quyidagicha fikr bildirgan edi: “Agar xalqimiz bizdan rozi bo‘lishini xohlasak, avvalo, mo‘tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo‘lsa, oila rozi bo‘ladi, oila rozi bo‘lsa, jamiyat rozi bo‘ladi.” [4].

Davlat rahbari ayollarning huquqiy himoyasini kuchaytirish masalasiga alohida urg‘u berib, bugungi kunda tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollarni himoyaga olish tizimini takomillashtirish zarurati bor ekanini qayd etgan edi. Haqiqatdan ham tazyiqqa uchragan ayollar 30 kun muddatga alohida himoyaga olinadi, undan keyingi jarayonlarning borishi bo‘yicha tizimda bo‘shliqlar mavjud.

Kelgusida ayollarning tazyiq va zo‘ravonlikdan himoyasi sud tomonidan ta’minlanishi, alohida himoyaga olish muddatining bir yilgacha belgilanishi esa ularga yetarli darajada psixologik, ijtimoiy, huquqiy yordam berilishi va ish bilan ta’minlanishiga xizmat qiladi.

Ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar keng qamrovga ega bo‘lib, ular xotin-qizlarning ta’lim olishlari, ish va uy-joy bilan ta’minlanishlari hamda teng mehnat sharoitlarini yaratishni o‘z ichiga oladi. Mazkur islohotlar jamiyatda ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Davlat rahbari ham o‘z ma’ruzalaridan birida: “Endi har bir mahallada ayollarning dardi bilan yashaydigan tizim bo‘ladi. Qaysi ayolga nima kerakligi, o‘qishi, davolanishi, bolalari tarbiyasi bo‘yicha mening stolimda adolatli raqam bo‘ladi” – deya alohida ta’kidlagan edi [5].

2024-yil 7-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida Yangi O‘zbekistonda butun xalqimiz qatori xotin-qizlarimiz uchun ham munosib sharoitlarni yaratib berish – eng muhim vazifamiz bo‘lib qoladi deb, quyida quyidagi fikrlarni aytib o‘tdilar – joriy yilda mamlakatimiz yana bir yirik anjuman – Osiyo xotin-qizlar forumiga mezbonlik qiladi. Mazkur anjuman “Birlashgan Millatlar Tashkiloti – Xotin-qizlar” tuzilmasi bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

Bu forum gender siyosati, xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyotdagi ishtirokini yanada kengaytirish bo‘yicha samarali muloqot maydoni bo‘ladi, deb ishonamiz.

Yurtimizda mehnatkash, olijanob xalqimiz, birinchi navbatda, xotin-qizlarimiz uchun erkin, obod va farovon hayot barpo etish – davlatimiz va jamiyatimizning eng ustuvor vazifasi etib belgilangan. Jumladan, **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi** doirasida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda deb aytib o‘tdilar [6].

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, “ayollarga ilm berish – jamiyatni ilmli, ma’rifatli va salohiyatli qilish” degan aqida amalda hayotimizga shior bo‘lib kirib kelishi kerak. Islohotlarni har bir mahalla yo‘nalishida amalga oshirish kerak, bu esa ko‘plab huquqlari buzilgan, chetlab o‘tilgan himoyasiz xotin-qizlarni aniqlash, ularga amaliy yordam berishga zamin yaratadi. Shuningdek, bugungi rivojlanayotgan jamiyatda xotin-qizlarga qaratilgan e’tibor, hurmat va ishonch ilm-fan sohasida yuqori samaradorlikka va sezilarli yutuqlarga erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, yangi O‘zbekistonda – xotin-qizlarning liderlik ko‘nikmalarini o‘rni va ahamiyati jamiyatning farovonligi va istiqbolli rivoji ko‘p jihatdan ayollarning jamiyatdagi o‘rnini to‘g‘ri rivojlantirishga bog‘dir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2023 yildagi “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-208-son Farmoni. // https://lex.uz/uz/docs/-6704824 [Murojaat qilingan sana:14.01.2025]
2. https://jdpu.uz/barqaror-taraqqiyotda-va-oilada-ayollarning-orni/
3. Otakuziyeva S. Barqaror taraqqiyotda ayollar: ilm-fan va sifatli ta’lim.// O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. №16. 2023. –B. 107

4. https://president.uz/oz/lists/view/5014
5. https://ombudsman.uz/oz/docs/xotin-qizlar-huquqlarini-taminlash-davlat-siyosatining-ustuvor-yonalishidir
6. https://president.uz/oz/lists/view/7076

PEDAGOGIKADA TORRENS TESTLARINING AFZALLIKLARI

Ilmiy rahbar: **Sunbula Qodirova**
Ijtimoiy fanlar fakulteti tyutori
Jo’rayeva Barno Alisher qizi
o’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi 2- bosqich talabasi
barnojurayeva2005@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijodiy fikrlashni baholash vositasi sifatida Torrens testlarining pedagogik jarayondagi ahamiyati va afzalliklari tahlil qilinadi. Maqolada Paul Torrens tomonidan ishlab chiqilgan testlarning nazariy asoslari, tuzilishi hamda ta’limda qo‘llanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, testlarning o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini aniqlash va rivojlantirishdagi samaradorligi, o‘qituvchilar faoliyatiga qo‘shadigan hissasi, ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirishdagi roli yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Torrens testlari ijodiy tafakkurni aniqlashda obyektiv va ishonchli vosita bo‘lib xizmat qiladi hamda pedagogik amaliyotda keng tatbiq etilishi lozim.

Kalit so’zlar so’zli topshiriqlar, grafik topshiriqlar, elaboratsiya(g’oyani rivojlantirish), Paul Torrens.

Annotation This article analyzes the importance and advantages of the Torrens tests in the pedagogical process as a tool for assessing creative thinking. The article examines the theoretical foundations, structure, and possibilities of using the tests developed by Paul Torrens in education. It also highlights the effectiveness of the tests in identifying and developing students' creative potential, their contribution to the activities of teachers, and their role in personalizing the educational process. The results of the study show that the Torrens tests serve as an objective and reliable tool for identifying creative thinking and should be widely used in pedagogical practice.

Keywords: word tasks, graphic tasks, elaboration (idea development), Paul Torrens.

Bugungi kunda jahon miqyosida shaxs intellektini rivojlantirish, undagi tanqidiy, ijodiy va kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish ehtiyoji tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2021-yildan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchi yoshlarini o'qish, matematik tabiiy-ilmiy va kompyuter savodxonligi kabi yo'nalishlar bo'yicha baholash imkonini shakllantiruvchi PISA (Programme for International Stqudent Assessment; O'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash bo'yicha Xalqaro dastur)ning kreativlik mezoni bilan boyitilayotganligi dolzarb ahamiyat kasb etayotganligidan dalolat beradi. Inson shaxsi kreativligi, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish muammosi turli yo'nalishlarda o'rganilgan. Bu muammolarni Torrens, Dj.Gilford, Adrean Xill, Z. Freyd, C. Jung, A. Maslou Ed. Karvasarskiy kabi olimlar o'rgangan.

Jumladan, psixolog olim P.Torrens joriy etgan texnologiya muhim hisoblanadi.

Taxminan har sakkiz yilda bir AQShda bir guruh bolalar taniqli amerikalik psixolog Pol Torrans tomonidan ishlab chiqilgan bir qator sinovlardan o‘tadilar. Torrans testi (Torrance test) bolalarda ijodkorlikni baholaydi. Torransning testlari “Tafakkur divergentsiyasi” deb ataladigan hodisa orqali kreativlikni baholashga yordam beradi.

Bu testlar insonning muammolarni hal qilish, yangi g‘oyalar yaratish va ijodiy tafakkur qilish qobiliyatini aniqlash uchun qo‘llaniladi. Ayniqsa, bolalar va o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini o‘lchashda ko‘p ishlatiladi.

Bundan tashqari, kreativlikning ham o’ziga xos xususiyatlari mavjud. quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi: 1) o‘zini tavakkaldan olib qochish, 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish, 3)shaxs fantaziyasi hamda tasavvurning yuqori baholanmasligi; 4) boshqalarga fikran tobe bo‘lish; 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash. P.Torrensning fikricha, shaxs kreativligi o‘zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi: 1) savollar, kamchiliklarga yoki bir-biriga zid

ma’lumotlarga e’tiborsiz bo‘lmaslik; 2) muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar vositasida ularning yechimini topishgaharakat qilish. Bugungi kunda psixologiyada shaxs kreativligi uning faoliyatiga xos ikki jihatga ko‘ra aniqlanmoqda. Bunda faoliyatning ikki jihatini yorituvchi testlardan foydalaniladi. Ular quyidagilardir: kreativlik: Pedagogik fikrlashdan pedagogning pedagogik an’anaviy farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati. Pedagogning kreativlik potensiali uning umumiy xususiyati sifatida namoyon bo’ladi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Shuningdek, kreativ potensial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo‘ladi.

P. Torrens asos solgan testlar ikkita asosiy turga bo‘linadi:

1. So‘zlar bilan ishlash testlari (verbal tests) – bu turdagi testlar so‘zlar asosida yangi g‘oyalar yaratish, muammolarni aniqlash va ijodiy fikr bildirish qobiliyatini o‘lchaydi.

2. Grafik testlar (figural tests) – bu testlarda ishtirokchi berilgan rasmlar yoki shakllar asosida yangi kompozitsiyalar yaratishi kerak.

Testlarning natijalari quyidagi to’rt mezon bo’yicha baholanadi:

Ravonlik (Fluency) - Fikrlarning umumiy soni.

Moslashuvchanlik (Flexibility) - Har xil turdagi g’oyalar soni.

Orginallik (Originality) - Noyob va o’ziga hos javoblar soni.

Tafsilotlar (Elaboration) – G’oyalarni batafsil va chuqur tushuntirish.

Torrens texnologiyasiga oid testlar mantiqiy savodxonlikni belgilab beradi.

Masalan, sizga yarim aylana hamda tekis chiziqdan iborat shakllar beriladi va undan foydalanib yangi rasm yoki shakl yaratishingiz so‘raladi. Bu yerda sizning tasavvuringiz va g‘oyalaringizning originaligi baholanadi.

Javoblar toifalarga ajratiladi va ularning kreativligi kuzatib boriladi. Yana biz boshqacha shakllarni keltirish orqali ham bolaning kreativ fikrlash darajasini aniqlashimi mumkin. Javob qanchalik nostandart bo‘lsa, bolada shunchalik kreativlik kuchli hisoblanadi. Torrance Creative Thinking Assessment Test (TOTMT) testlari 1961-yilda boshlangan bo‘lib, natijalar doimiy o‘lchab kelinmoqda. Uzoq yillar o‘tib, natijalar solishtirilganda Torrans testlarida yuqori ko‘rsatkich olgan bolalar katta hayotda past test olganlardan uch barobar muvaffaqiyatli bo‘lib chiqishdi. Bugun Torrans testi natijalarini o‘rganganlar muvaffaqiyat uchun IQdan ko‘ra kreativlik (ijodkorlik) muhimligi haqida aytishmoqda. Ijodkorlik bo‘lsa hamma bir xil fikrlamaydigan, hamma bir xil kiyinib, bir xil yashashga majbur bo‘lmagan, san’at, fikr, so‘z, fuqarolar erkin bo‘lgan jamiyatlardagina rivojlanadi. Nostandart fikrlash, turfa xillik bugun kreativlikka talab oshgan zamonda juda muhim. IT bo‘ladimi, boshqa soha bo‘ladimi, kreativlik zamonaviy kasblarning asosiga aylanmoqda. Eng katta kashfiyotlarni ham, innovatsiyalarni ham kreativ insonlar qilmoqda. E.P.Torrens fikricha, "kreativlik" tushunchasi asosi quyidagi yoritiladi:

-muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;

-farazni tekshirish va o'zgartirish;

-qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;

-muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qaramaqarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik ijodkorlikning doimiy yo'ldoshi bo'lgan bir hodisa bor.

Misol uchun sizga plastik qopqoq berilsa, uni quyidagicha ishlatish mumkin.

1. Bezak sifatida.
2. Eritib yoriq joylarni yamashda.
3. Shamni tagiga qo’yish mumkin.
4. Doira chizishda.
5. Qorbobo yasashda.

Agar har bir javobni batafsil tushuntirsangiz, baholash yanada aniq bo’ladi. Masalan:

“Bezash uchun” - Qanday qilib?

Rang bo’yash, naqsh tushirish yoki boshqa narsalarga yopishtirish orqali.

“Sham tagiga” - Bu uni tomchilashdan saqlaydi yoki dekoratsiya sifatida ishlatiladi.

Bu ilhom degan hodisadir. Agar o'quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish jarayonida ularda ilhom uyg'otish muammosini hal qila olsak, oldimizga qo'yilgan maqsadning yarmiga yetgan bo'lar edik. Bu vazifani bajarish uchun ham ongosti tizimiga murojaat qilishimiz va u bilan ishlashimiz lozim.

Xulosa qilib aytganda torrens testlari kreativlikni aniqlash va oshirishga qaratilgan. Yana qo’shimcha ravishda ushbu xususiyatlari ham mavjud:

Torrens tizimining raqamli integratsiyasi ta'lim sohasida quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:
Interaktiv o‘qitish: Talabalar, raqamli xaritalar va GIS texnologiyalari yordamida mulk huquqi va yer ro‘yxatga olish tizimlarini o‘rganishlari mumkin.
Amaliy tajriba: Talabalar, real dunyo misollarida **Torrens tizimi**ning qanday ishlashini o‘rganishlari mumkin.
Innovatsion yondashuvlar: Torrens tizimining raqamli integratsiyasi, ta'limda yangi texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlarini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kasb ta’limi yo’nalishi talabalarini informatsion ijodkorligini rivojlantiruvchi metod va vositalar. P. Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testidan foydalanish asosida kreativlikni rivojlantirish 28.11.2023
2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ fikrlashga o‘rgatishusullari 17.01.2024
3. Saldin, V. S. (2015). Differensial pedagogika: Yondoshuv va innovatsiyalar.
Moskva: Pedagogika.
4. Shamsutdinova, G. (2019). Pedagogik innovatsiyalar va metodik yondoshuvlar.
Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyoti.
5. Ergasheva, L. (2021). Ta'limda metodlar va o'qituvchining o'rni. Toshkent:
"O'qituvchi" nashriyoti.
6. Nizomov, A.A. (2015). Interaktiv ta'lim metodlari va ularning samaradorligi.
Samarqand: "Ta'lim" nashriyoti.
7. Sultonov (2020). Differensial pedagogika va shaxsiy yondoshuv. Buxoro:
"Iqtisodiyot va ta'lim" nashriyoti.
8.Тест креативности Торренса. Диагностика творческого мышления.

SIFATLI TA’LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI VA GLOBALASHUV TALABI

M.Davlatova
Andijon Iqtisodiyot va Pedagogika Universitit Boshlang’ich ta’lim yo’ nalish talabasi

Annotatsiya: Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yilida belgilab olingan ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlash, yosh avlod ta’lim-tarbiyasini zamon talablari darajasida tashkil etish, soha vakillarining pedagogik mahoratini yuksaltirish, o„quv jarayoniga ilg„or yondashuvlarni tatbiq etish maqolaning asosiy maqsadi sanaladi.

Kalit so’zlar: Ta’lim, tarbiya, maktab, yoshlar, insonga e‟tibor , sifatli ta‟lim, oliy ta‟lim , „Yangi O’zbekistonda ta‟lim‟, yangi texnalogiyalar, tendensiya va muammolarni tahlil qilish, o‟quv dasturlar ,inavatsion g‟oyalar, electron kutubxona, ilmiy yangliklar, o’quv qo‟llanma , metodlar, sifatli ta‟lim, intelektual, individual, oila, raqamli texnalogiyalar, muammo va islohatlar.

Ta’lim bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotgava mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta’lim jarayonida ma’lumot olinadi va tarbiyada amalga oshiriladi.Ta’lim tor ma’noda o‘qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdagi o‘quv yurtlarida o‘qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma’lumot berish jarayonini ham bildiradi.Maktab inson hayotida o'ziga xos o'rin egallovchi, uning bilimli, tarbiyali kamol topishida poydevor bo'lib xizmat qiluvchi ziyo maskani. Bu erga ta'lim-tarbiya olish uchun qadam qo'ygan harbir kishi, eng avvalo, o'zligini

anglay boshlaydi, asta-sekin fanlarning qiziq, sehrli olamiga qadam qo'yib, bilimlarni o'zlashtirish orqali butun borliqni tushuna boradi. Shu jarayonlar natijasi o'laroq o'z kelajagini belgilaydi. Bilimlar poydevorini esamaktab davridayoq mustahkam qurish lozim. Oddiy misol: jamiyatda qaysidir mavqega ega yoki ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalarda ma'lum darajaga erishgan inson borki, uning zamirida maktab ta'limining o'rni beqiyos ahamiyatga ega bo'lganini takror va takror ta'kidlaydi. Ayni paytda o’qitish samaradorligini oshirish,o’quvchilarning davlat ta‟lim standartlarida belgilangan bilim, ko„nikma va malakalarni to’la egallashlariga erishish, mustaqil bilim olishlarini ta‟minlash, iqtidorli, iste‟dodli hamda ayrimfanlarni o„zlashtirishi qiyin bo„lgan o„quvchilarga individual yondashish, bolalarning eng yaxshi fazilatlarini rivojlantirish, yoshlarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati, intellektual xususiyati va shaxsiy sifatlarini aniqlagan holda darslarni tashkil etishga jiddiy e‟tibor qaratish dolzarb vazifalardandir. Ta’limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma’lumotga bo‘lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta’lim haqidagi pedagogik g‘oyalarga qarab kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida.Ta’limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o‘zgarib brogan.Ta’lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal qilish —jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, yangi kishini tarbiyalashga yordam beradi.Oliy ta‟lim-uzluksiz ta‟lim tizimining yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi. U oliy ta‟lim muassasalarida amalga oshiriladi.Oliy ta‟lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta‟minlaydi. “Mamlakatimizda 2019 yilning oktabrida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‟lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi.”130Ushbu hujjatgaintellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovasion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta‟lim va ishlab chiqarish integrasiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta‟lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‟nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o‟quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta‟lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta‟lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovasion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e‟tirofga erishish hamda boshqa ko‟plab aniq yo‟nalishlar belgilab berilgan. Oliy ta‟lim tizimida olib borilayotgan islohotlarda ta‟lim tizimini ishlabchiqarish bilan bog‟liqligini ta‟minlash muhim ahamiyatga ega ekanligiga e‟tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohatlar, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi hamda axborotlashgan jamiyatga o„tish talablari ta‟lim strategiyasini o„zgarishiga olib kelmoqda. Uzluksiz ta‟lim olishning yangi shakllari, jumladan zamonaviy o`qitish texnologiyalariga asoslangan tarmoqli, axborotli, masofaviy va innovatsion ta‟lim texnologiyalari vujudga keldi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalarga asoslangan yangi ta‟lim turlarining paydo bo„lishiga asosiy sabab, jamiyatning turli tabaqalariga mansub kishilarga bilim berish, ularning malakasini muntazam oshirib borish va qayta tayyorlash vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishda, sobiq ta‟lim tizimining yillar davomida shakllangan an‟anaviy usul va vositalarining imkoniyatlari chegaralanganligidadir. “Bunday vaziyatda Oliy o„quv yurtlarining potensialiga tayangan holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida uzluksiz ta‟lim tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.”Dars jarayoni samaradorligini oshirish hozirgi zamon pedagogikasining dolzarb masalasiga aylanib bormoqda. Texnika, texnologiya va ishlab chiqarishning jadal sur‟atlar bilan rivojlanib borishi oliy ta‟lim hamda akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ta‟lim olayotgan talaba yoshlar oldiga shu rivojlanishga mos bo„lgan bilim va ko„nikmalarga ega bo„lishlarini taqozo qilmoqda. Talaba yoshlarga texnika va texnologiyalarning yangi yutuqlarini o„zlashtirish ko„nikmalarini hosil qilish uchun ularni o„qitish usullarini tubdan yangi pog’onaga qo’tarish zarurati davr talabi bo„lib qolmoqda.Biz ustozni otaday ulug‘ deb bilgan, doimo ardoqlagan ma’rifatparvar xalqning vakillarimiz.Men ham o‘qituvchi, muallim deganda o‘zim uchun eng aziz va hurmatli bo‘lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta’lim berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan" -dedi davlatimiz rahbari yurtimizda bo‘lib o‘tgan yeg‘ilishda.Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi davomida 2023-yilni “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” yili deb e’lon qilindi. Bu esa mamlakatimizda ta’limga bo‘lgan e’tiborning yanada o‘sishiga sabab bo‘ldi. “Ta’lim sifatini yanada oshirish-yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir! Ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta’lim dargohlarida borib o‘qituvchi va murabbiylar bilan

ko‘proq muloqot qilib, sifatini oshirish bo‘yicha ular qo‘ygan masalalarni birgalikda hal qilishimiz kerak” -deydi Shavkat Mirziyoyev.Mamlakatimizda bu kabi qator islohotlarning olib borilishidan ko‘zlangan maqsadlardan biri shundan iboratki, sifatli ta’limni yo‘lga qo‘yish orqali mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va takomillashtirish hamda mamlakatimiz uchun kerakli kadrlar tayyorlab berishdan iboratdir. Olib borilayotgan islohotlar jarayonida azal-azaldan rivojlanib borayotgan xalqimizning ta’lim tizimi har tomonlama rivojlana boshladi va sifatli ta’lim tushunchasini yaqqol ko‘rsatmoqda. azifani hal etishda kundalik turmushda jadal sur‟atlar bilan kirib kelayotgan zamonaviy pedagogik va axborot —kommunikatsion texnologiyalar, elektron ta‟lim resurslaridan keng foydalanish muhim rol o„ynashi muqarrardir. Hozirgi kunda sinovdan o„tgan maxsus axborot vositalari: kompyuter texnikalari, audio vavideo vositalari qatoriga kelib qo„shilgan elektron ta‟lim resurslari, virtual stendlar, animatsiyali dasturlar vositasida dars mashg„ulotlarini olib borish talabalar tomonidan dars mashg„ulotlarini o„zlashtirishlariga samarali natijalar berib borishi tayindir.Elektron ta‟lim resurslari yordamida darslarni tashkil etish jarayoni, bunda talabalarning olayotgan bilimlarini na faqat eshitish, balki ko„rish sezgilari orqali ham qabul qilishlari va tushunchalarning g„oya va mazmunini chuqur anglab etishlariga samarali yordam beradi. “Bugungi kunda yurtimiz ta‟lim tizimini tubdan isloh etish jarayonida o„quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va undan samarali foydalanishni ta‟minlash, o„quv dasturlari va o„quv-uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish masalasiga alohida e‟tibor qaratilmoqda”132. Ayni paytda ta‟limga yangi axborot texnologiyalarini keng joriy etish, o„quv yurtlaridagi axborot-resurs markazlari faoliyatini zamonaviy talab va mezonlar asosida tashkil etish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotir. Mamlakatimizning umumta‟lim maktablarida axborotning an‟anaviy va elektron tashuvchilari, virtual kutubxonalar, elektron didaktik apparatlar bazasi yaratilmoqda. Ta‟lim ehtiyojlarini ta‟minlash uchun ta‟lim muassasalarining yagona elektron axborot-ta‟lim muhitini yaratish va shu sohadagi texnologiyalarni joriy etish zaruriyati yuzaga kelmoqda. O„zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‟lim muassasalarida ta‟lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‟minlash bo„yicha qo„shimcha chora-tadbirlar to„g„risida” 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qarorida belgilangan vazifalarni bajarish, oliy ta‟lim muassasalarini ilg„or jahon tajribalari asosida yaratiladigan yangi avlod darslik, o„quv qo„llanmalari hamda davriy nashrlar bilan tizimli ta‟minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qilgan. Yangi O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya mutanosibligini ta’minlashda qator omillarni nazarda tutish lozim. Fuqarolik mas’uliyati va zamonaviy dunyoqarashga ega barkamol avlodni tarbiyalash birinchi o‘rinda turadi. Mana shu maqsad bizni taraqqiyotning navbatdagi bosqichiga eltadi. Zotan, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasi ham tasodifiy emas, balki tub tarixiy qiyofamizni dunyoga namoyon qiluvchi omil ekanini unutmaslik kerak.Shu bilan birga, ta’lim-tarbiya uzviyligini ta’minlashda ilm, ma’rifiy makon va zamonning o‘rni hamda ahamiyatini ko‘rib chiqish, uning o‘zagini tashkil qiluvchi tarixiy-ma’naviy omillarni sanab o‘tish o‘rinli.Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktab va oliy o‟quv yurtlarida tayyorlanyotgan mutaxasis kadrlarning tayyorlanishi sifati qanchalik yuqori bo‟lsa, ular zamonaviy bilimlarni qancha yuqori drajada egallagan bo‟lsa mamlakat.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, milliy taraqqiyotda sifatli ta’limning o‘rni beqiyos. Ushbu tadqiqot davomida biz ta'lim va rivojlanish o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarni o'rganib chiqdik, uning inson kapitalini rivojlantirish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va ijtimoiy hamjihatlikni rag'batlantirishdagi ahamiyatini ta'kidladik. Sifatli ta'lim o'zgartiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi, shaxslarga kuch beradi, jamiyatlarni boyitadi va xalqlarni farovonlik va barqaror rivojlanish sari undaydi.Iqtisodiy jihatdan sifatli ta'lim samaradorlikni oshiradi, innovatsiyalarni rag'batlantiradi va raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi, bu esa mustahkam va inklyuziv iqtisodiy o'sish uchun asos yaratadi. Shaxslarni zarur bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish orqali ta’lim ularga mehnat bozorining o‘zgaruvchan talablariga moslashish, bilim iqtisodiyotida samarali ishtirok etish, boylik va farovonlik yaratishga hissa qo‘shish imkonini beradi.Bundan tashqari, sifatli ta'lim ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash, tenglikni ta'minlash va jamiyatlar ichidagi tengsizliklarni kamaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishidan qat’i nazar, barcha shaxslarga yuqori sifatli ta’lim olishda teng imkoniyatlarni ta’minlash orqali ta’lim ijtimoiy adolatni ta’minlash, ijtimoiy harakatchanlikni rag‘batlantirish, yaxlit va inklyuziv jamiyatlarni barpo etish uchun kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Слышкин Г..Ефремова М. А. Кинотекст: (опыт лингвокультурологического анализа). М.: Водолей Publishers, 2004. 153 с.
2. Винникова Т. А. Особенности исследования кинотекста в различных научных парадигмах // Омский научный вестник. 2015. № 2. С. 58–61.
3. Иванова Е. Б. Интертекстуальные связи в художественных фильмах: дис. канд. филол. наук. Волгоград, 2001. 178 с. 4. Shavkatovna R. G.ImprovingTechnologies To Develop Spiritual And Moral Competencies In Future Teachers //The American Journal of Management and Economics Innovations. – 2020. – Т. 2. – №. 09. – С. 1-5.
5. RAXMONOVA G. MA’NAVIYAT-JAMIYAT RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI //ЭКОНОМИКА. – С. 159-161. 6. Raxmonova G. TALABALARNI MA’NAVIY SHAKLLANTIRISHDA MA’NAVIY–AXLOQIY TARBIYANING O‘RNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3. 7. Shavkatovna R. G. Improving Technologies To Develop Spiritual And Moral Competencies In Future Teachers //The American Journal of Management and Economics Innovations. – 2020. – Т. 2. – №. 09. – С. 1-5. 8. Рахмонова Г. Ш., Намозова Ш. ДУХОВНОСТЬ-ВАЖНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1455- 1460. 9. Рахмонова Г. Ш. и др. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КРЕАТИВ КОМПЕТЕНТЛИЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1347-1350.

PEDAGOGIK MULOQOTNING O’QUVCHILARDA MILLIY O’ZLIKNI ANGLASHGA TA’SIRI

Mirzaraximova Zilola Mirzohid qizi
zilolamirzaraximova1@gmail.com
Namangan davlat pedagogika instituti
Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 1- bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik muloqotning o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglashdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot jarayonining mazmuni, shakli va uslubi orqali milliy qadriyatlar, urf-odatlar, tarixiy xotira va madaniyatga bo‘lgan munosabat qanday shakllanishi ko‘rib chiqiladi. Milliy o‘zlikni anglashda til, tarix, madaniyat va an’analarning o‘rni, shuningdek, bu jihatlarni yosh avlod ongiga singdirishda samarali muloqot uslublarining roli ochib beriladi. Maqolada ta’lim jarayonida ijtimoiy-psixologik yondashuvlar asosida milliy o‘zlikni shakllantirishning muhim omillari asoslab berilgan. . Milliy o‘zlik — bu shaxsning o‘z xalqiga, tarixiga, madaniyatiga va an’analariga bo‘lgan ijtimoiy-psixologik munosabatidir. Tadqiqotda pedagogik muloqot vositasida o‘quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirish, o‘zligini anglashga undovchi tarbiyaviy muhitni yaratishning samarali usullari ko‘rsatib o‘tiladi. Pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi ochiq, ishonchli va madaniyatga yo‘g‘rilgan muloqot o‘quvchilarni milliy g‘urur, vatanparvarlik va ijtimoiy faollikka yo‘naltiradi.

Kalit so’zlar: pedagogik muloqot, milliy o’zlik, vatanparvarlik, tarbiya, o‘quvchi shaxsiyati, milliy qadriyat, madaniy meros, ma’naviyat.

KIRISH. Hozirgi kunda mamlakatimizda globallashuv jarayonida yosh avlodning milliy o‘zligini anglash, o‘z tarixiga, tili va madaniyatiga hurmat bilan qarashi – mustaqil jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, ta’lim jarayonida pedagogik muloqot nafaqat bilim berish vositasi, balki shaxsni tarbiyalash, milliy g‘ururni shakllantirish vositasidir. “Milliy o‘zlikni anglash — bu shaxsning o‘z millatiga mansubligini his etishi, tarixiy, madaniy va ma’naviy merosini qadrlashi hamda uni kelajak avlodga yetkazishga bo‘lgan mas’uliyatini his etishidir. Ta’lim jarayoni, ayniqsa, pedagogik muloqot, bu borada hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning ichki dunyosiga ta’sir etish, ularning shaxs sifatida shakllanishida muhim vositadir” [1]. Pedagogik muloqot nafaqat bilim uzatish, balki o’quvchilarda milliy o’zlikni anglashni shakllantirishning samarali vositasidir.”Pedagogik muloqot — bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida sodir bo‘ladigan ma’naviy, intellektual va axloqiy almashinuv jarayonidir. Bu muloqot orqali o‘qituvchi nafaqat bilim beradi, balki

o‘quvchini tarbiyalaydi, unga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdiradi” [2]. Ushbu jarayon orqali o’qituvchi o’quvchiga bilim, ko’nikma va malakalarni o’rgatish bilan birga, uning ma’naviy va axloqiy qadriyatlarini ham shakllantiradi. Milliy o’zlikni anglashda pedagogik muloqotning o’rni beqiyosdir. O’qituvchi o’zining muloqot uslubi, nutqi, xulq-atvori orqali o’quvchiga milliy qadriyatlarni yetkazadi va uning ongida milliy o’zlikni anglashni rivojlantiradi.

Milliy o’zlikni anglash quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. *Milliy tarixga hurmat* – o’quvchining o’z xalqining tarixiga bo’lgan qiziqishi va hurmati.
2. *Milliy tilga e’tibor* – ona tilining go’zalligi va boyligini anglash.
3. Madaniyat va urf-odatlarga hurmat – o’quvchining o’z xalqining madaniy merosiga bo’lgan hurmati.
4. *Vatanparvarlik* – o’quvchining o’z Vataniga bo’lgan muhabbati va sadoqati.

ASOSIY QISM. Milliy o‘zlikni anglashda avvalo til, tarix, urf-odat va qadriyatlarni o‘rganish muhim. Pedagogik muloqot bu tushunchalarni o‘quvchiga tushunarli, hayotiy misollar orqali yetkazish imkonini beradi. O‘qituvchi dars jarayonida milliy bayramlar, tarixiy shaxslar, xalq og‘zaki ijodi elementlari, maqollar, matallar orqali muloqot olib borsa, bu o‘quvchilarda milliy o‘zlikka bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi [3]. Masalan, Ona tili va adabiyot darslarida Alisher Navoiy, Bobur, Furqat kabi adiblarning asarlarini o‘rganish orqali o‘quvchi o‘z millatining ulug‘ tarixini anglaydi va bu orqali o‘zligini taniydi. Tarix darslarida esa Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi shaxslarning hayoti va faoliyati o‘quvchilarda g‘urur tuyg‘usini shakllantiradi. Pedagogik muloqotda bu jihatlarni bolaga yetkazishning turli shakllari mavjud: suhbat, bahs-munozara, dramatizatsiya, loyihaviy ishlar, tarbiyaviy darslar. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so’ng ma’naviy-ma’rifiy ishlarga davlatimiz siyosatining muhim ustivor masalalaridan biri sifatida qarala boshladi. Yurtimizda mustaqillik shamollari esa boshlagan davrdanoq, kishilar ongi, dunyoqarashi, tafakkuri, maqsad va intilishlarida, bir so’z bilan aytganda ma’naviy-mafkuraviy olamida, ruhiy tabiati va hatto qiyofasida ulkan o’zgarishlar paydo bo’la boshladi. Chunki, mustaqillik erkinlik, milliylik, vatanparvarlik darvozalarini ochib,insonlarni ezgulik sari boshladi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev – “Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy etuk va jismonan sog’lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo’lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o’z o’rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo’llab quvvatlash, kasbga yo’naltirish va bandligini ta’minlash, tashabbuslarini rag’batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolat bermoqda”, - deb bu borada qilishimiz lozim bo’lgan ishlar haqida aniq vazifa va ko’rsatmalarni berib o’tdilar.[4]

Pedagogik muloqot quyidagi yo‘llar orqali milliy o‘zlikni shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadi:

• *Milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish*: O‘qituvchi dars jarayonida milliy bayramlar, tarixiy shaxslar, xalq og‘zaki ijodi va madaniy merosga oid ma’lumotlarni taqdim etish orqali o‘quvchilarda milliy g‘urur uyg‘otadi.

• *Shaxsiy namunalar orqali ta’sir qilish*: O‘qituvchining o‘z millatiga, tiliga, madaniyatiga bo‘lgan hurmati bevosita o‘quvchilarga ham o‘tadi.

• *Muloqotda milliy ruhni saqlash*: O‘zbek tilida an’anaviy odob-axloq me’yorlarini saqlagan holda muloqot qilish, qadimiy maqollar, iboralar, hikmatli so‘zlardan foydalanish orqali o‘quvchilar ona tilining go‘zalligini his etadilar.

Pedagogik muloqot samaradorligi, avvalo, o‘qituvchining ma’naviy yetukligi, milliy qadriyatlarga bo‘lgan sadoqati va yuksak axloqiy fazilatlariga bog‘liq. O‘qituvchi har bir so‘zida, harakatida o‘z shaxsiy namunasi bilan milliy g‘urur, vatanparvarlik, e’tiqod va sadoqat timsoli bo‘lishi lozim. “Pedagogik muloqot nafaqat shaxsiy tarbiyada, balki o‘quvchining jamiyatga moslashuvi va ijtimoiylashuvida muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchi maktab muhitida muloqot vositasida o‘zini jamiyat a’zosi sifatida his qiladi, milliy qadriyatlar orqali o‘z shaxsini anglay boshlaydi. Bu esa, uning o‘z millatiga sadoqatli bo‘lib voyaga yetishida asos bo‘lib xizmat qiladi” [5]. Pedagogik muloqotda o‘qituvchining hissiy holati, ovoz ohangi, tana tili ham o‘quvchining qabul qilish jarayoniga ta’sir qiladi. Samimiy, ochiq, qo‘llab-quvvatlovchi muloqot o‘quvchining o‘z fikrini erkin ifodalashiga, milliy qadriyatlar haqida ijobiy tasavvurga ega bo‘lishiga yordam beradi. “O‘zbekiston ko‘p millatli jamiyat bo‘lgani sababli, pedagogik muloqot faqat

bitta millat emas, balki barcha millatlar vakillarini hurmat qilish, tolerantlikni shakllantirishda ham muhim. Shu bilan birga, har bir millat vakiliga o‘z milliy o‘zligini anglash uchun teng imkoniyat yaratish ta’lim muassasalarining vazifasidir “[6].

XULOSA. Men xulosa qilib shuni ayta olamanki, pedagogik muloqot o‘quvchilar shaxsiyatining har tomonlama kamol topishida, ularning milliy o‘zligini anglashida bevosita va bilvosita kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Mazmunli, maqsadga yo‘naltirilgan, madaniy va ma’naviy asoslangan muloqot yosh avlod qalbida milliy g‘urur, vatanparvarlik va ma’naviy immunitetni shakllantiradi. Shu boisdan, har bir pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki milliy ong va qadriyatlar targ‘ibotchisi sifatida o‘z faoliyatini yo‘naltirishi lozim. Pedagogik muloqot o’quvchilarda milliy o’zlikni anglashni shakllantirishning asosiy vositasidir. O’qituvchilar o’z faoliyatlarida milliy qadriyatlarni o’quvchilarga yetkazish va ularni milliy o’zlikni anglashga yo’naltirishlari zarur. Bu jarayon ta’lim-tarbiya faoliyatining samaradorligini oshiradi va yosh avlodning ma’naviy barkamolligini ta’minlaydi. Pedagogik muloqotdan samarali foydalanish orqali o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, ularni milliy qadriyatlar bilan uyg‘un holda voyaga yetkazish mumkin. Shunday ekan, har bir o‘qituvchi o‘z muloqot madaniyatini takomillashtirish, har bir so‘zida milliy ruhni aks ettirishga intilishi kerak. Zero, milliy o‘zlikni anglagan avlod — Vatan kelajagining poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov, I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Xasanboyeva, N. Pedagogik muloqot asoslari. – T.: TDPU nashriyoti, 2016.
3. Qodirov, A. Milliy tarbiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2012.
4. Raximovich, N. S. (2024). YANGI O’ZBEKISTON KELAJAK YOShLARINI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH. *JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH*, *1*(5), 117-124.
5. To‘xtayev, B. Shaxs va jamiyat: ijtimoiy-falsafiy tahlil. – T.: O‘zbekiston, 2009
6. Ergashev, R. Ko‘pmillatli jamiyatda tolerantlik tarbiyasi. – Samarqand, 2014.
7. .Ulug‘bekovna, D. Y. (2024). INSON SHAXSIDA MILLIY MA’NAVIYAT VA MILLIY O’ZLIKNI ANGLASH. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024*, *3*(35), 30-36.
8. Taxirovna, M. N. (2024). BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINI MILLIY QADIRYATLAR RUHIDA TARBIYALASH KELAJAK AVLODGA MILLIY QADIRYATLARNI YETKAZISH POYDEVORI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, *7*(11), 32-36.

OLIY TA’LIMDA MA’NAVIY TARBIYANING YANGI STRATEGIYALARI VA METODLARI

Nuraliyeva Laylo Xabibullayevna
Namangan davlat pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti tyutori.
Jabborova Gulsanam Sherzodbek qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
Geografiya yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Annottatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyaning ahamiyati, zamonaviy talablarga mos yangi stratyegiya va metodlarini yoritishga bag’ishlangan. Talabalarda ma’naviy- axloqiy fazilatlaarni shakllantirish, milliy va umminsoniy qadriyatlarni singdirish jarayonida innovatsion yondashuvlarning o’rni alohida taa’kidlangan. Jumladan, interaktiv usullar, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy hamkorlik asosida olib boriladigan ma’naviy tarbiya samaradorligini oshirish bo’yicha takliflar berilgan. Shuningdek fanlararo integratsiya va amaliy mashg’ulotlar orqali talabalarda ongli dunyoqarashni rivojlantirish yo’llari ko’rib chiqilgan. Mazkur strategiya va metodlar O’zbekiston oliy ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: Ma’naviy tarbiya, strategiya, metodlar, innovatsion yondashuv, raqamli texnologiyalar, axloqiy fazilatlar, interaktiv usullar, fanlararo integratsiya, ongli dunyoqarash.

Abctract: this article is devoted to highlighting the importance of spiritual education in the system of Higher Education, New stratiegies and techniques corresponding to modern requirements. The role of innovative approaches in the process of formation of spiritual and moral virtue in students, absorption of national and umminsonian values is emphasized. In particular, proposals have been made to improve the effectiveness of spiritual education, which is carried out on the basis of interactive methods, digital technologies and social cooperation. Also through interdisciplinary integration and practical training, ways to develop a conscious worldview in students have been considered. These strategies and methods serve to improve the quality of spiritual education in the higher education system of Uzbekistan.

Keywords: Spiritual Education, Strategy, methods, innovative approach, digital technologies, moral qualities, interactive methods, interdisciplinary integration, conscious worldview.

Bizni hamisha o’ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob- axloqi, yurish- turishi, bir so’z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog’liq. Bugun zamon shiddat bilan o’zgaryapti. Bu o’zgarishlarni hammadan ham ko’proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o’z davrining talablari nilan uyg’un bo’lsin. Lekin ayni paytda o’zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug’ zotlar avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks -sado berib, o’zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.

SHAVKAT MIRZIYOYEV

KIRISH

Hozirgi kunda yoshlarni barkamol inson, o’z vatanining ilg’or kishisi sifatida tarbiyalash eng asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan yoshlar davlatimizning kelajagidir. Mamlakatimizda chuqur, keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, islohotlar amalga oshirilmoqda. jamiyat ma’naviy yuksalish va yangilanish sari yuz tutgan bir paytda O’zbekiston Respublikasi prezidentining 1999 yil 3- sentyabrdagi “Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashi qo’llab quvvatlash to’g’risida”gi Farmoni zamirida g’oyalar, ulardan kelib chiqadigan asosiy maqsadlar ma’naviyatning ustuvorligini yana bir karra tasdiqlaydi. Xalqning ma’naviy ruhini musstaahkamlash va rivojlanish – O’zbekistonda davlat va jamoyatning eng muhim vazifasidir. Ma’naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o’z mustaqilligini tushunib etish va ozodlikni sevish tuyg’usi bilan birgalikda etilgan. Ma’naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o’giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati, shundaki u ma’naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon o’lkaning benihoya go’zallligining bahramand bo’lish ma’naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma’naviyat o’z xalqining tarixini, uning madaaniyatini vaa vazifalarini chuqur bilish va tushunib etishga suyangandangina qudratli kuchga aylanadi.

ASOSIY QISM

Ma’naviyati yuksak shaxslar yurtni tanitadi. Shaxsni esa uning ma’naviy qiyofasi tanitadi. Ma’naviyat – tarbiyadan boshlanadi. Ta’lim - tarbiyasiz ma’naviyatning bo’lmasligi barchaga ayon haqiqatidir. XXI asr – bu nafaqat ilm- fan va texnologiyalar asri, balki insoniylik, ma’naviyat va axloqiy qadriyatlarni saqlab qolish uchun kurash asridir. Shu sababli, oliy ta’lim muassalarida yosh avlodni ma’naviy yetuk, fikrlovchi va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs qilib tarbiyalash dolzarb masalaga aylanmoqda. Bugungi kunda bu yo’nalishda yangi strategiyalar va metodlarni ishlab chiqilmoqda hamda amaliyotga tatbiq etmoda. Zamonaviy jamiyatda ta’limning asosiy vazifalaridan biri – bilimli, mustaqil fikrlovchi, shu bilan birga yuksak ma’naviyat va axloqiy fazilatlarga ega bo’lgan shaxsni tarbiyalashdir. Ayniqsa, oliy ta’limda tizimi ushbu jarayonda asosiy bog’in hisoblanadi. Shu sababli, bugungi kunda oliy ta’limda maa’naviyat va ma’naviy tarbiya masalalariga yangicha yondashuvlar zamonaviy metodlar asosida yondashish dolzarb aahamiyat kasb etmoqda.

Ma’naviyat – bu insonning ichki dunyosi, uning axloqiy qarashlari, e’tiqodi, madaniyati, milliy qadriyatlari va umminsoniy fazilatlarini ifoda etuvchi tushuncha. U shaxs ongining yuksaklikka intilishi, adolat, poklik, halollik,vatanparvarlik kabi tushunchalar bilan bevosita bog’liq. Oliy ta’lim muassalarida ma’naviyatini shakllantirish – kelajak avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashning asosi hisoblanadi. Talabalarga o’zbek xalqining boy tarixiy merosi, urf-odatlari, odob-axloq normalarini o’rgatish orqali ularning ichki dunyosi boyitiladi. Ma’naviy tarbiya barcha o’quv fanlariga uyg’unlashtirilib har bir dars jaroyonida axloqiy-ruhiy qadriyatlar singdirilib boriladi. Milliy pedagogikaning asoschilaridan biri Abdulla

Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir” deb o’zining tarbiya haqidagi beqiyos fikrlarini aytib o’tgan. Tarbiya – ma’naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o’qituvchining o’quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o’zaro amaliy va nazariy muloqotdir. Tarbiya jaroyonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xati-xarakatini sekin-asta ko’nikmaga aylantirib borish lozim. Bu esa, insonni mushohada qilish qobilyatini tarbiyalaydi va mushohada qilish aqlni peshlaydi. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimi faqatgina ilm-fan asoslarini o’rgatish bilan cheklanib qolmay, balki har tomonlama yetuk, ma’naviy barkamol shaxslarini tarbiyalashdek yuksak maqsadni o’z oldiga qo’ymoqda Ta’lim va tarbiya – bu ikki tushuncha bir-biridan ajralmas holda olib boriladigandagina chinakam samaraga erishish mumkin. Oliy ta’lim muassasilari – bu bilim maskanlari bo’lishi barobarida, yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va hayotga bo’lgan munosabatini shakllantiruvchi ijtimoiy makondir. Har bir fan darsida, har bir auditoriya mashg’ulotida talabalarga faqat bilim emas, balki ularni tog’ri yo’lga yo’naltiruvchi tarbiyaviy g’oyalar ham singdirilishi kerak. Bugungi globallashuv davrida yoshlar turli axborot oqimlariga duch kelmoqda. Bu esa ularning qarashlariga, qadriyatlariga bevosita ta’sir o’tkazmoqda. Shuning uchun ham oliy ta’limda nafaqat ilmiy salohiyatni oshirish, balki ma’naviy tarbiya shakllantirish zarurati kun sayin ortib bormoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta’lim bilan tarbiya bir yo’nalishda olib borilsa, jamiyatga faqat bilimli emas balki vijdonli, mas’uliyatli, ijtimoiy faolligi yuqori bo’lgan shaxslar yetishib chaqadi. Bu esa har qanday millatning porloq kelajagiga xizmat qiladi. Maqolada ta’lim va tarbiyaning oliy ta’lim tizimida o’zaro aloqasi va ma’naviy tarbiyaning ahamiyati ta’kidlanadi. Ma’naviy tarbiya faqat ilmiy bilim berish bilan cheklanmay, yosh avlodni ijtimoiy mas’uliyatli, vijdonli va ma’naviy barkamol shaxslar sifatida tarbiyalashga yo’naltirilgan. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zamonaviy metodlar, innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish zarur. Shuningdek, har bir fan darsida axloqiy va ma’naviy qadriyatlar talabalarga singdirilishi kerak. Oliy ta’lim tizimi faqat ilmiy bilimlarni berish bilan cheklanmasdan, jamiyat uchun ijtimoiy mas’uliyatli va axloqiy jihatdan yetuk insonlar tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

Takliflar:

Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy tarbiya jarayonlarini yanada mustahkamlash uchun fanlararo integratsiyani kengaytirish zarur. Bu, talabalarga har tomonlama ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni singdirishga yordam beradi.

Innovatsion metodlar, jumladan, interaktiv usullar va raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish kerak. Bu, yoshlarni zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi bilan birga, ularni ma’naviy jihatdan ham kamol topishiga yordam beradi.

Har bir darsda tarbiyaviy g’oyalar va ma’naviy qadriyatlarni singdirish uchun o’qituvchilarga maxsus metodik qo’llanmalar ishlab chiqish lozim.

Yoshlarni ma’naviy tarbiyalashda davlat va jamiyatning birgalikdagi faoliyatini kuchaytirish, axloqiy fazilatlarni oshirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish zarur.

Ma’naviy tarbiyani yanada samarali qilish uchun oliy ta’lim tizimida talabalar o’rtasida ijtimoiy hamkorlik va jamoaviy ishlashni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish kerak.

Adabiyotlar.

1. Sh.Mirziyoev. “Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent –“O’zbekiston” - 2016.56
2. Sh.Mirziyoev. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” . Toshkent – “O’zbekiston” -2016.488 b..
3. Sh.Mirziyoev. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi” . “Toshkent” -2016.488 b. 4. Sh.Mirziyoev. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak ” . Toshkent “O’zbekiston” -2017.104 b.
4. 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi. O’zbekiston Respublikasi prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
5. T. Javliyev. An’analar — hayot sabog’i. - T., „O’zbekiston“, 2012.

6. A.Avloniy. Turkiy Guliston yohud axloq. - T., „O’qituvchi“, 2002.
7. U. Mahkamov. Axloq-odob saboqlari. - T., „Fan“, 2015
8. J. Yo’ldoshev. Ta’limimiz istiqboli yo’lida. - T., „Sharq“, 2016.

TALABALARNING TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA TANQIDIY VA KREATIV FIKRLASHGA DOIR TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

Nabixonova Masturaxon Ibrohimxon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishda tanqidiy va kreativ fikrlashga asoslangan ta’limiy texnologiyalarni qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda mavjud muammolarni aniqlash, ularning yechimini izlash, o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rag‘batlantirish, shuningdek, “muvaffaqiyat daqiqasi” kabi pedagogik metodlarning samaradorligi ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, talabalarning intellektual va ma’naviy rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omil sifatida tadqiqotchilik faoliyatining zamonaviy ta’lim jarayonidagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: tadqiqotchilik kompetensiyasi, muammoli ta’lim, kreativ fikrlash, tanqidiy tafakkur, integrativ yondashuv, o‘quv motivasiyasi.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические и практические аспекты применения образовательных технологий, основанных на критическом и креативном мышлении, в процессе формирования исследовательской компетентности студентов. В исследовании освещены научные подходы к выявлению существующих проблем, поиску их решений, стимулированию самостоятельного и творческого мышления учащихся, а также эффективность педагогических методов, таких как «минута успеха». Кроме того, обоснована значимость исследовательской деятельности как ключевого фактора интеллектуального и духовного развития студентов в современных образовательных условиях.

Ключевые слова: исследовательская компетентность, проблемное обучение, креативное мышление, критическое мышление, интегративный подход, учебная мотивация.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of applying educational technologies based on critical and creative thinking in the development of students' research competence. The study highlights scientific approaches to identifying existing problems, finding their solutions, encouraging independent and creative thinking among learners, and evaluating the effectiveness of pedagogical methods such as the “moment of success.” Furthermore, the significance of research activity is justified as a key factor in students’ intellectual and moral development within the modern educational process.

Keywords: research competence, problem-based learning, creative thinking, critical thinking, integrative approach, learning motivation.

Talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish muammosini izlanish muhitida ilmiy aks ettirishning qator yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ular real hayotda inson ruhiyati, o‘y-kechinmalarini badiiy asar qahramonlari hayoti, his-tuyg‘ularini qiyoslash orqali jamiyat va tabiat bilan o‘zaro munosabatlari kontekstida tahlil qilish; fan bo‘yicha belgilangan malaka talablari asosiga qurilgan metapredmet ko‘nikmalarini shakllantirish; ta’limning kelgusidagi profilini tanlash yuzasidan o‘quv motivatsiyasi muammosini hal qilishga yordamlashadi. Muammo bu muayyan xatti-harakatlarni amalga oshirishga doir shart-sharoitlarning yetishmasligi bilan mavjud ziddiyatlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar va uning tarkibiy qismlarini belgilashdir.

Muammoli o‘qitish haqidagi fikrlarida professor B.To‘xliyev masalaga quyidagicha yondashadi: “Muammoli dars ko‘rsatkichlarining eng asosiysi unda izlanuvchanlik elementining mavjud bo‘lishi bilan belgilanadi. Demak, ayni shu qism muammoli darsning asosiy ichki bo‘g‘inini tashkil etadi”. Bizningcha, muammoli ta’lim talabalarda yuqori darajadagi fikrlash tarzining qaror topishiga, bilimlarni faollashtirish

va yangi tushunchalarni o‘zlashtirish dinamikasini jadallashtirish maqsadini ko‘zda tutadi. Adabiy ta’limda o‘quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha qat’iy va yagona yondashuvlar mavjud emas. Bu ta’limning turli bosqichlarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilish jarayonlarining rivojlanganlik darajasi, ehtiyoj va qiziqishlari doirasida, shuningdek, DTS va o‘quv dasturlarida belgilangan malaka talablari asosida o‘qituvchining kreativligi asosida amalga oshiriladi.

Milliy tizimda talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmasini shakllantirish amaliyoti, asosan, tabiiy va politexnik yo‘nalishdagi fanlar kesimida yo‘lga qo‘yilganini va bunda turli xil yondashuvlarga asoslanish tajribasi mavjud. Xususan, N.Narziyevaning izlanishlarida masalaga muammoli ta’lim, integrativ yondashuv orqali e’tibor qilingani kuzatiladi. Tadqiqotchi tomonidan muammoli ta’lim masalasi tahlil qilinar ekan, avvalo, mazkur tushuncha ma’nosiga aniqlik kiritiladi. Mazkur yondashuvning talablarda shakllantiriladigan ko‘nikma va malakalarga ta’siri baholanadi. Xususan, “Bilim oluvchining oldiga muammo qo‘yilgandan keyin uning mohiyatini tushunish zarur bo‘ladi. Muammoning ma’lum bo‘lgan shartlari asosida ongda muvaqqat bog‘lanish amalga oshadi. Muvafaqqat bog‘lanishlar yechimga olib boruvchi farazlarni keltirib chiqaradi. Farazlarning to‘g‘riligi sinab ko‘rilgandan keyin, agar u tasdiqlansa, muammo yechilgan hisoblanadi. Faraz tasdiqlanmagan holda yangi faraz ilgari suriladi. Yangi farazning to‘g‘riligi tasdiqlanguncha davom etadi. Shu taxlitda bilim oluvchi o‘rganayotgan materiallarni mukammal o‘zlashtiradi va amaliyotga tatbiq etish ko‘nikma, malakalariga ega bo‘ladi”.

O‘spirin yoshdagi talabalar o‘quv-biluv faoliyati bilan bog‘liq kognitiv ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarish, mustaqil izlanishlariga qaratilgan tadqiqotchilik faoliyatining o‘ziga xos usullaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq. Tadqiqotchilik kompetensiyasi muammo qo‘ya olish, hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan muammoli vaziyatlarga yechim topa bilish layoqatiga ega bo‘lgan mustaqil tafakkurli shaxsni tarbiyalash asoslaridan biri sanaladi. Nazarimizda, talabalarning intellektual va ma’naviy rivojlanishi uchun fundamental kompetensiya sifatida mavzu darajasida tadqiqotchilik faoliyatini yo‘lga qo‘yish asosiy richagga aylanadi. Shu jihatdan yondashilganda quyidagilarga tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishning muhim bosqichlari sifatida qarash mumkin: 1) nazariy bosqich; 2) tayyorgarlik bosqichi; 3) shakllantiruvchi bosqich; 4) umumlashtiruvchi bosqich.

Dastlabki bosqichda talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishga doir hissiy rag‘batlantirish usullaridan bo‘lgan kafolatlangan muvaffaqiyatli vaziyatni yuzaga keltirish muhim hisoblanadi. Bunda “Muvaffaqiyat daqiqasi” ish shaklidan foydalanish samarali bo‘lib, u o‘qituvchi oldiga talabalarni muvaffaqiyatga erishishga yo‘naltirish, bunga ishontirish hamda bilimlaridagi bo‘shliqlarni aniqlash va bartaraf etish vazifalarini qo‘yadi.

“Muvaffaqiyat daqiqasi”ni o‘tkazishda o‘quvchilar bilimidagi muammoli sohani aniqlashtirish; bo‘shliq mavjud bo‘lgan mavzuga oid nazariy va amaliy topshiriqlar berish; belgilangan vaqt mobaynida talabalarning mavzu asosidagi topshiriqlar bo‘yicha mustaqil izlanishi va vazifani bajarishlarini yo‘lga qo‘yish; hamkorlikda mavzuga oid xato va izohtalab fikrlarni tanlash; taqdimot shaklini belgilash va chiqishlarni uyushtirish; o‘quvchining bir daqiqadagi faoliyatini tashkil etish; o‘quvchilarga tengdoshlari baholari va e’tiroflaridan foydalanish talab etiladi.

Yuqoridagi kabi ilk daraja ish turlari o‘quvchilarning izlanish faoliyati muvaffaqiyatini ta’minlashga xizmat qiladi, o‘ziga ishonchi va mas’uliyat hissini oshiradi. Kognitiv komponent sanalgan tayyorgarlikning ikkinchi darajasi jamiyat, tabiat, tafakkur, texnologiya va faoliyat usullari haqidagi bilimlar yig‘indisini qamrab oladi. Bunday yo‘nalishdagi bilimlarning o‘zlashtirilishi o‘quvchilar ongida dunyoning ilmiy manzarasi haqida tasavvur hosil qilishi, kognitiv va amaliy faoliyatga dialektik jihatdan yondashuvni nazarda tutadi. Uchinchi darajada o‘quvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligining faolligi, amaliy komponenti va kreativligi e’tiborga olinadi. Ularga reproduktiv, mahsuldor va izlanish mazmunidagi aqliy operatsiyalar sifatida qaraladi. Mavjud muammolar yechimini izlash, voqelikni ijodiy tarzda o‘zgartirish maqsadida jarayonni tizimli amalga oshirishni ta’minlash zarur bo‘ladi.

Muammolarni ko‘rish qobiliyati inson tafakkurini tavsiflovchi ajralmas xususiyatdir. Ko‘pincha u uzoq vaqt davomida turli xil tadbirlar, pedagogik vazifani hal qilishda yordam beradigan ayrim vazifalarni bajarish orqali rivojlanib boradi. Bizningcha, talabalarning muammolarni ko‘rish va yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muayyan mavzu doirasidagi qiyinchilik va noaniqliklarni bartaraf etishga doir xatti-harakatlar ham talab etiladi. Birinchi galda, muammoli vaziyat bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlarni tekshirishga oid harakatlarga diqqat qaratish joiz bo‘ladi. Muammoni topish murakkab jarayon. Aksariyat hollarda

muammoni topish uni hal qilishga nisbatan qiyinroq va ayni vaqtda boshqalar e’tiborini jalb etishiga ko‘ra ibratliroqdir. O‘quvchilar bilan tadqiqot ishining navbatdagi bosqichida vaziyatga moslashuvchanlik sifatlari zarur. Bu jarayonda muammoni aniq tushunish va shakllantirishni, maqsadni aniq belgilashni talab qilmaslik joiz. Binobarin, ayni bosqichda ko‘rilayotgan masalaning umumiy va taxminiy tavsifi bo‘lsa yetarli sanaladi.

O‘quvchilarni tadqiqot faoliyatining yangi bosqichiga olib kirish uchun o‘qituvchi mavjud bilimlarga asoslanish bilan cheklanmay ularni boyitish yo‘llarini ham izlashi, boshqa fanlar bilan intgeratsiyalashuvi, mavzuning dolzarbligini va qo‘llanish o‘rinlarini aniqlashi lozim. Mazkur bosqichda maxsus ko‘rsatmalar yaratish ham maqsadga muvofiq. Ko‘rsatma o‘quvchining o‘z-o‘zini o‘qitish shakli bo‘lib, unga bilimlarni amalda ijodiy qo‘llash texnologiyasi sifatida qaraladi. O‘z-o‘zini o‘qitishning ko‘rsatma shakllari va turlari mustaqil holda rivojlanib boradi. Ta’limiy ijodiy mahsulot sifatida kreativ xarakterdagi matnlar, xarita, chizma va rasmlar tarzida o‘quvchilar mustaqil faoliyati ularning xatti-harakatlari, vazifalarni bajarish mantig‘i va ketma-ketligini namoyon etadi.

O‘qituvchi o‘quv jarayonining harakatalantiruvchi subyekti sifatida o‘quvchilarning fikrlash jarayoni va izlanish faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashadigan faoliyati algoritmini aniq belgilashi lozim. Bular: a) muammolarni aniqlash va ajratib olish, ularning yechimini shakllantirish yuzasidan taxminlarni ilgari surish, vazifa qo‘yish, mavjud shart-sharoitlarni aniqlash; b) moddiy olam hodisalarining sabab va oqibatlari haqidagi farazlarini tadqim qilish, ularni asoslay bilish; d) bir vaqtning o‘zida turli voqea-hodisalar va badiiy asarlar ma’nosini qiyoslash va shu asosda mushohada yuritish kabilardan iborat.

Darslarda talabalarning savollariga, savollarida nimani qo‘yayotganiga diqqat qilinsa va bu harakatlari qo‘llab-quvvatlansa, muhokama jarayonida nutqi, tasavvuri va tafakkurining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatiladi. Bu haqda metodist olima R.Niyozmetova yoritganidek, “O‘spirinlik yoshida o‘z-o‘zini anglash, atrofdagilarning axloqiy-ruhiy fazilatlarini bilish va baholash, o‘z his-tuyg‘ulari va kechinmalarini tushunishga ehtiyoj paydo bo‘ladi, bu holat tufayli ana shu ehtiyojni qondira oladigan adabiy matnlarni o‘qib-o‘rganish istagi yuzaga keladi. O‘quvchi asar muallifining niyatini, qahramonga munosabatini, voqea va hodisalarning sabab va natijalarini mushohadadan o‘tkaza boshlaydi. Bu jarayon turmush haqiqatini tadqiq etish bilan bog‘liq holda kechadi. Uning mustaqil izlanishlari to‘g‘ri yo‘ldan borsa va to‘g‘ri yechimga olib kelsagina, o‘z ishidan qanoatlanadi, bu ishni davom ettirish sari ruhlanadi. Ana shu izlanishlarda o‘quvchi to‘g‘ri yo‘nalish beradigan, ba’zan ikki yo‘ldan birini tanlash vaziyatiga soladigan, chuqur mushohadaga undaydigan turtkilar kerak bo‘ladi, xolos. Matnga doir beriladigan savol va topshiriqlar ana shunday turtki vazifasini bajarmog‘i lozim”.

O‘quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalari muammoli o‘qitish jarayonida lateral fikrlash elementlarini shakllantirish orqali rivojlanadi. Binobarin, tadqiqotchilik turli nuqtayi nazarlarga asoslangan ijodiy tafakkur rivojisiz amalga oshmaydi. Shu bois hayotga yangicha nigoh bilan qarash, kashfiyotlar qilish talabi o‘spirin yoshdagi o‘quvchilarda dunyoni bilish va o‘zgartirishga nisbatan ko‘pyoqlama fikrlashni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 140-б.
2. Narziyeva N. O‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini integrativ yondashuv asosida shakllantirishda muammoli ta’limning o‘rni // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2017. – № 4. – B. 40.
3. Ниёзметова Р.Ҳ. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. Монография. – Тошкент: ФАН, 2007. – 145-б.
4. Yuqori sinf adabiyot darslarida o‘quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyasi

TALABALARDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Tillayeva Rayhona Tuxtasinovna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). , dotsent
Nabixonova Masturaxon Ibrohimxon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Xususan, talabalarda mustaqil fikrlash, muammoga yechim topish, tahliliy va ijodiy yondashuv kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishda tadqiqotchilik faoliyatining ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarning ichki va tashqi motivatsiyasini shakllantirish, ularni ilmiy faoliyatga jalb etish yo‘llari, ularning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini baholash mezonlari va bosqichlari tizimli ravishda tahlil etilgan. Maqolada, shuningdek, zamonaviy ta’limda loyiha va tadqiqot asosidagi metodlarning samaradorligi, ularni amaliyotga joriy etish yo‘nalishlari ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tadqiqotchilik kompetensiyasi, ijodiy fikrlash, motivatsiya, metapredmet kompetensiyalar, o‘quv faoliyati, talaba motivatsiyasi, tanqidiy tafakkur, tadqiqiy metodlar, o‘quv-tarbiyaviy jarayon, muammoli ta’lim.

Аннотация. В данной статье раскрыты теоретические и практические основы формирования исследовательских компетенций у студентов в условиях современного образовательного процесса. В частности, научно обосновано значение исследовательской деятельности в развитии навыков самостоятельного мышления, поиска решений проблем, аналитического и творческого подхода. Также системно проанализированы пути формирования внутренней и внешней мотивации студентов, их вовлечения в научную деятельность, критерии и этапы оценки исследовательских умений. В статье также освещена эффективность проектных и исследовательских методов в современном образовании, а также направления их внедрения в практику.

Ключевые слова: исследовательская компетенция, творческое мышление, мотивация, метапредметные компетенции, учебная деятельность, студенческая мотивация, критическое мышление, исследовательские методы, учебно-воспитательный процесс, проблемное обучение.

Annotation. This article explores the theoretical and practical foundations for developing research competencies in students within the modern educational process. In particular, it scientifically analyzes the importance of research activities in fostering independent thinking, problem-solving skills, and analytical and creative approaches. The paper also systematically examines the formation of students’ intrinsic and extrinsic motivation, their engagement in scientific work, as well as the criteria and stages for assessing research skills. Furthermore, it highlights the effectiveness of project- and research-based methods in contemporary education and outlines strategies for their practical implementation.

Keywords: research competence, creative thinking, motivation, metadisciplinary competencies, learning activity, student motivation, critical thinking, research methods, educational process, problem-based learning.

KIRISH:

Jamiyat taraqqiyotning hozirgi bosqichida yangi ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashuvchan, turli faoliyat shakllariga qiziqadigan, erkin fikrlovchi, shaxsiy nuqtayi nazarga ega, ijodkor va raqobatbardosh kadrlarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Bu esa ta’limning quyi bosqichlaridanoq talabalarning individual bilim, ko‘nikma va malakalarinigina emas, balki tadqiqotchilik toifasidagi meta-predmet kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini ham kun tartibiga qo‘ymoqda. Shu bois “o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish” maqsadi talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish, izlanish, o‘z ustida ishlash va maqsadli faoliyatga yo‘naltiradigan yondashuvlarni ta’lim amaliyotiga intensiv qo‘llash masalasini kun tartibiga qo‘ymoqda.

Ijodga yo‘naltiruvchi tadqiqotchilik faoliyati masalaga ilmiy jihatdan yondashish, shaxsning o‘zlashtirgan bilim, malaka, tajribasiga tayanish va yaratuvchanlik sifatlari takomili uchun omil bo‘lgan boy moddiy-texnik bazani taqozo etadi. Bu ta’lim muassasalarining tegishli adabiyotlar va jihozlar bilan ta’minlanganlik darajasini ham o‘zida aks ettiradi.

Mavzu doirasidagi muammoning mohiyatini ochishga kirishishdan avval “tadqiqot” va “tadqiqotchilik” so‘zlarining ma’nosiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da tadqiqot arabcha so‘z bo‘lib, “1 tadqiq ishi, tekshirish, o‘rganish; 2 ilmiy tekshirish ishining natijasi; tadqiqotchilik “tadqiqot bilan mashg‘ul bo‘lish, tadqiqot ishlari” tarzida ta’rif beriladi. Shu o‘rinda fikrimizni o‘tmish ajdodlarimiz tomonidan tadqiqot ishi, tadqiqotchilik yondashuvi, uning boshqa bilish jarayonlaridan farqli belgilari, insonga xos yaratuvchanlik sifatlari va ularni rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar borasidagi qarashlariga bog‘lash joiz. Zero, insonning tadqiqotchilik qobiliyati azaldan, ya’ni uning bilishga bo‘lgan ehtiyojlari anglanishi zamirida paydo bo‘lgan.

Mazkur yondashuvning keng yoyilishiga donishmand Suqrotning ta’siri kattaligi fanda yaxshi ma’lum. Uning ta’limotida yangi bilimlar faqat ilm-hunar va jiddiy mehnat natijasida egallanilishi ta’kidlanadi. Albatta, inson mana shu sifatlari tufayligina go‘zal axloqqa – kamolotga erishadi, kashfiyotlarga qo‘l uradi. Suqrotona o‘qitishning samarasi bilimlarni tayyor holda emas, balki mavzuga oid muammolar bo‘yicha o‘quv tadqiqotlarini olib borish orqali o‘zlashtirilishida ko‘rinadi. Faylasuf ta’limoti asrlar davomida savol-javob usuli vositasida masalaga mantiqan yondashish, nutqning ravonligi, tanqidiy va ijodiy fikrlashga o‘rgatishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Albatta, bunda muammo mazmuni talaba motivlariga muvofiqlashtirilishi, faoliyatga olib kirishda rag‘batlantirish usulidan foydalanilishi, noto‘g‘ri fikrlarning belgilab borilishi, muammoli vaziyatlar yaratilishi va xatolarini tuzatishga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatilishi shartlari mavjud.

Yana bir mutafakkir ajdodimiz Abu Rayhon Beruniyning ilmiy bilish metodlari haqidagi ta’limotida tahlilga tortilayotgan muammo doirasidagi qarashlarning mavjudligi ham ahamiyatlidir. O‘zidan avval yashab o‘tgan Ahmad Farg‘oniy va Muhammad Xorazmiylar ta’limotini boyitib takomillashtirgan allomaning kuzatishlarida tajribalar o‘tkazish, ma’lumotlar to‘plash, ular asosida umumlashmalar qilish, haqiqatni aniqlash maqsadida muammoni tanqidiy o‘rganish va taqqoslash masalasi yoritiladi. Olimning fikricha, “...bilimga yetkazuvchi vositalardan eng muhimi – qadimgi millatlar haqidagi rivoyatlar, o‘tmish avlodlar to‘g‘risidagi xabarlarni o‘rganishdir, chunki bularning ko‘pchiligi u millatlar avlodidan va ularning rasm-u rusum qoidalaridan iboratdir. Aqliy dalil keltirish, kuzatilganga qiyos qilish yo‘li bilan u xabarlarni bilib bo‘lmaydi. Buni faqat “kitob ahli” va turli din arboblariga, shu e’tiqodlilarning har xil maslak, tushunchalarini hamisha taqqoslash bilan bilinadi”.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR:

Ijod jarayoni fikrlashsiz amalga oshmaydi. O‘zaro ta’sirga ega fikrlash va ijod jarayonlari rang-barang va takrorlanmas bo‘lib, ularga xos xususiyatlarni tor kontekst doirasida aniq tasvirlash murakkab hisoblanadi. Shunga asoslanilsa, ijodiy fikrlashning yagona va aniq ilmiy ta’rifi bugungi kunga qadar shakllantirilmagani ma’lum bo‘ladi. Zero, har kim unga o‘z nuqtayi nazaridan yondashadi. Mohiyatan fikrlashga yo‘naltiruvchi izlanish faoliyati o‘rganishga ehtiyoj, tadqiq etilayotgan obyekt doirasidan tashqariga chiqish, o‘zini o‘zi rivojlantirish va o‘z ustida mustaqil ishlashdan iborat bo‘lishi barobarida nostandart fikrlashga qaratilgan imkoniyatlarini to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqarishni ham nazarda tutadi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilar faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari: muammoni ko‘ra olish, tafakkurining egiluvchanligi, voqelikni ijodiy tasavvur qilish, g‘oyalarni generatsiyalash, eruditsiya, analiz-sintez, refleksiya qobiliyatlarini shakllantirish maqsadiga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, tadqiqotchilik faoliyati dastlab biror narsa-predmet, obyekt xususida talabaning e’tiborini tortishdan boshlanib, keyinchalik ular haqidagi ma’lumot, xususiyatlarni o‘rganib tahlil qilish, umumlashtirish va natija olishgacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga oladi. Mazkur jarayonda ichki va tashqi motivatsiya uchun sabab bo‘luvchi omillar aniqlanishi zarur. Bu o‘quvchi faoliyati uchun yengillik yaratadi.

Insonni muayyan xatti-harakatlarga boshlaydigan qo‘zg‘atuvchi kuchlar mavjud bo‘lib, ular psixologiyada motivlar nomi bilan ataladi. Tadqiqotchi H.Hamzayevning ta’rificha, “motiv – bu insonning xulq-atvorini ichki psixologik boshqarish bo‘lib, yo‘naltirilganlikni, tashkil qilinganlik, qo‘llab-quvvatlanganlikni o‘z ichiga oladi”.

Psixolog E.P.Ilinning xulosalarida motiv insonni ma’lum bir xatti-harakatlarga undaydigan asosiy omilligi ko‘rsatiladi. Shunga ko‘ra, talabalarni tadqiqotchilikka yo‘naltirishda ularni yangiliklar qilishga ruhlantiruvchi tabiiy va ma’naviy motivatsiyalar muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqotchi N.A.Muradova motivatsiya tushunchasini o‘smirlik yoshidagi talabalarda o‘qib-o‘rganish faoliyatiga qiziqishni shakllantirish omillaridan biri sifatida ko‘radi. Uning fikriga ko‘ra, “O‘quvchilarning motivatsion doirasi – ehtiyojlar va u bilan bog‘liq qo‘zg‘atib, qo‘llab-quvvatlab,

faollashtirilib turish zarur bo‘lgan motivlar tizimi ekanligini esda saqlash kerak. Ayniqsa, o‘smirlik davrida, bu yoshdagi o‘quvchilar madaniyatshunoslik, ma’rifatparvarlik faoliyatiga jalb etilayotganlari” da juda muhimdir.

Talabalarning bilishga doir qiziqishlariga motivatsiya berish ularning maksimal darajada faollik ko‘rsatishlari va aqliy rivojlanishiga ta’sir qiladigan ijodiy fikr laboratoriyasiga olib kiradi. Bilish faoliyati orqali talaba bilimlarni o‘zlashtiradi, moddiy olamning o‘ziga xosliklarini anglay boshlaydi, o‘z xatti-harakatlariga ishonch hissini uyg‘otadi. Shaxsni xatti-harakatlarga undaydigan psixik hodisa esa motivdir. Motiv tushunchasi zamirida shaxsning ideallari, qiziqish va ehtiyojlari turadi.

O‘quv faoliyati samaradorligida shaxsning motivatsion sferasi masalasini tadqiq qilgan professor N.Sayidahmedovning ko‘rsatishicha, shaxsdagi ehtiyojlarni qanoatlantirishga qaratilgan muayyan faollik turi motivdir. Bu uni faoliyatga, muloqotga va xulq-atvoridagi ba’zi sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltiruvchi xohish va moyillikdir.

Ko‘rinadiki, motiv faoliyatga turtki beradi. Motivlar shaxsni ijobiy natijalarga erishishga undaygan ehtiyojlarni aniqlab beradi. Lekin ayrim talabalarda hali faoliyatini boshlamasdan turib ishdan hadiksirash hollari ham kuzatiladi. Bu hol psixolog olimlar tomonidan muvaffaqiyatsizlikdan hadiksirash motivatsiyasi deyiladi. O‘quv-tarbiya jarayonida o‘qituvchi aynan shu jihatlarni bartaraf etish choralarini belgilashi zarur.

Psixolog E.G‘oziyev o‘quv faoliyati motivlarini ijtimoiy turmushda shakllanuvchi ehtiyojlar orasida o‘quv faoliyatida muhim rol o‘ynovchi va uni kuchaytiruvchi ijobiy xususiyatli sotsial va gnostik ehtiyojlar alohida ahamiyat kasb etishini, shaxsni kamol toptirish jarayonida hukmron voqelikni egallashini, ularning turkumiga bilimlarga nisbatan ehtiyoj, jamiyatga foyda keltirishga intilish, umumbashariy yutuqlarga erishishga intilish kabilar kiritilishini aytib o‘tadi.

Tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish darajalari quyidagilar asosida aniqlanadi:

a) o‘rganilayotgan obyekt va unga xos xususiyatlarni atroflicha kuzatish;

b) muammoga oid savollar qo‘yish;

d) talabalarning bu boradagi bilimlarini sinovdan o‘tkazish;

e) ularning xabarlar bilan chiqishi, o‘quv tadqiqotlari, maktab va maktabdan tashqari miqyosda tashkil etiladigan ilmiy tadbirlarga mo‘ljallangan ishlarini hisobga olgan holda aniqlash va h.k.

XULOSA:

Umuman olganda, ta’limdagi yangi vaziyatlar xususida so‘z yuritganda, K.N.Polivanovaning tadqiqotchilik kompetensiyalari haqidagi fikrlariga tayanish o‘rinlidir. Jumladan, bu qobiliyatlar, asosan, maktabdan tashqarida o‘quv fanlari asosida, lekin an’anaviy darsdan boshqa shaklda, xususan, tadqiqot va loyiha faoliyatida shakllanib boradi. Maktab bunday qobiliyatlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratishi mumkin. Talabaning har tomonlama rivojlanishi maktab tizimining o‘zgarishiga ham yordam beradi.

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, talaba o‘qituvchining umumiy tavsiyalari asosida mavzuga doir adabiyotlar va internet manbalarini mustaqil tanlashi, o‘rganishi, tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxatini tuzishi, ishonchli va ishonchsiz manbalarni aniqlay olishi, erishilgan natijalarni qayta ko‘rib chiqishi va baholashi muhim sanaladi. Bu esa tadqiqotchilik kompetensiyasini bevosita axborotlar bilan ishlashga yo‘naltirishni ham taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-сон Фармони // Халқ сўзи. – Тошкент, 2019 йил 30 апрель. – № 88 (7318). – Б. 1.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / 5 жилдли. Учинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Таҳрир ҳайъати: Э.Бегматов ва бошқ. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 637-б.
3. Беруний Абу Райҳон. Танланган асарлар. I т. – Тошкент: Фан, 1968. – 40–41-б.
4. Hamzayev H. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning muhim omillari // Xalq ta’limi. – Тошкент, 2017. – № 5. – Б. 19.
5. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – СПб.: Питер, 2000. – С. 512.
6. Мурадова Н.А. Ўсмирлик ёшидаги ўқувчиларда ўқиб-ўрганиш фаолиятига қизиқишни шакллантириш мотивацияси // Uzluksiz ta’lim. – Тошкент, 2009. – № 3. – Б. 98.
7. Сайидаҳмедов Н. Дидактик жараён назарияси: мотивацион босқич // Xalq ta’limi. – Тошкент, 2011. – № 4. – Б. 25.

8. Ғозиев Э. Умумий психология. – Тошкент: Университет, 2008. – 210-б.
9. Поливанова К.Н. Проектная деятельность школьников: пособие для учителя. – М.: Просвещение, 2008. – С. 21.

YOSHLARNING IJTIMOIY HAYOTGA MOSLASHUVIDA TA’LIM MUASSASALARINING ROLINI OSHIRISH.

Usmonov Yorqinbek To‘lqinali o‘g‘li
NamDPI, Jismoniy madaniyat yo'nalishi 1-kurs talabasi
yorqinbekusmonov48@gmail.com
+998 90 642 72 02

Annotatsiya: Mazkur maqolada nafaqat O‘zbekistonda, balki barcha davlatlarda muhim bo‘lgan yoshlarning ijtimoiy hayotga moslashuvida ta’lim muassasalarining ahamiyatini oshirish bilan bog‘liq jihatlar yoritib berilgan. Ta’lim muassasalari, nafaqat bilim berish, balki yoshlarni jamiyatga integratsiya qilishda ham muhim vazifani bajarishi inobatga olinib, o‘quv jarayonida ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va yoshlarning ijtimoiy faoliyatini rag‘batlantirish kabi jihatlar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, ijtimoiy moslashuv, ta'lim muassasalari, ijtimoiy ko'nikmalar, pedagogik yondashuvlar, ijtimoiy faoliyat, psixologik tayyorgarlik, ijtimoiy mas’uliyat.

Аннотация: В данной статье освещаются аспекты, связанные с повышением значения образовательных учреждений в адаптации молодежи к общественной жизни, что актуально не только в Узбекистане, но и во всех странах. Учитывая, что образовательные учреждения играют важную роль не только в предоставлении знаний, но и в интеграции молодежи в общество, в образовательном процессе рассматривались такие аспекты, как развитие социальных навыков, формирование нравственных ценностей, стимулирование социальной активности молодежи.

Ключевые слова: молодежь, социальная адаптация, образовательные учреждения, социальные навыки, педагогические подходы, социальная активность, психологическая подготовка, социальная ответственность.

Abstract: This article highlights aspects related to increasing the importance of educational institutions in the adaptation of young people to social life, which are important not only in Uzbekistan, but also in all countries. Taking into account the fact that educational institutions play an important role not only in providing knowledge, but also in integrating young people into society, aspects such as developing social skills during the educational process, forming moral values, and stimulating social activity of young people are considered.

Keywords: youth, social adaptation, educational institutions, social skills, pedagogical approaches, social activity, psychological preparation, social responsibility.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda barcha sohalardagi kabi yoshlar siyosati bilan bog‘liq masalalar ham tubdan isloh etilmoqda. 2030-yilga qadar ko‘zlangan maqsadlar belgilangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 1.4 – bandi aynan yoshlarning ijtimoiy jabhadagi rivojlanishlarini ta’minlash uchun “Yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini kamaytirish, yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o‘qitish tizimini yaratish” [1] kabi bir qator vazifalarni yuklaydi. Yoshlarning ijtimoiy hayotga moslashuvi ushbu sohadagi islohotlarning eng muhim masalalaridan biridir. Bugungi kunda yosh avlodning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotga integratsiyasi nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi, balki jamiyatimiz barqarorligi va kelajagi uchun ham muhimdir. Ta’lim muassasalari bu jarayonda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, chunki ular nafaqat bilim berish, balki shaxsni tarbiyalash va jamiyatga moslashtirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Ta’lim jarayoni yoshlarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda, ularni jamoada ishlashga, muloqot qilishga va muammolarni hal qilishga o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizdagi ta’lim islohotlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlari: muloqotmandlik, mas’uliyatlilik, tashabbuskorlik, biznesga ijodiy yondashish, qaror qabul qilish

kabi qobiliyatlarini hamda kommunikativ va nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. [2] Ta’lim muassasalari orqali yoshlar boshqalar bilan munosabatlar o‘rnatish, guruhda ishlash va ijtimoiy masalalarda faol bo‘lish kabi qobiliyatlarni egallaydilar. Shuningdek, ta’lim tizimi yoshlarga turli xil madaniyatlar bilan tanishish imkonini beradi, bu esa ularning dunyoqarashini kengaytiradi va tolerantlik ruhini oshiradi.

Bundan tashqari, ta’lim muassasalari yoshlarni professional hayotga tayyorlashda ham katta rol o‘ynaydi. Ular ish bozorining talablariga javob beradigan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirib, kelajakda muvaffaqiyatli karyera qurishga yordam beradi. Yoshlar ta’lim jarayonida o‘z qobiliyatlarini aniqlab olishlari va o‘zlariga maqsad qo‘yishni o‘rganadilar.

Yana bir muhim jihat shundaki, ta’lim muassasalari yoshlarni fuqarolik mas’uliyatiga tayyorlashda ham ishtirok etadi. Ular orqali yoshlarga huquqiy savodxonlikni oshirish, jamiyatdagi faol fuqarolar sifatida faol ishtirok etishni o‘rgatish mumkin. Shunday qilib, ta’lim sohasidagi yangiliklar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar yordamida biz yoshlarning ijtimoiy hayotga moslashuvini yanada samarali tashkil etishimiz mumkin. Bunday yondashuvning keskin ho‘rinishi AQShda tashkil etilgan Sadberi maktablarida kuzatiladi. Sadberi maktabi odatda K-12 yosh oralig‘idagi maktab turi bo‘lib , unda o‘quvchilar o‘z ta’limi uchun to‘liq javobgar bo‘ladilar va maktab to‘g‘ridan-to‘g‘ri demokratiya tomonidan boshqariladi, unda talabalar va xodimlar teng huquqli fuqarolardir. [3] Yurtimizda rivojlanishning bunday keskinlashuvi jiddiy izlanishlarni talab qiladi.

Yoshlar jamiyatning eng faol qismi hisoblanadi. Ularning ijtimoiy hayotga moslashuvi esa bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib, ta’lim muassasalari bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim nafaqat bilim berish, balki yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularning shaxsiy va professional rivojlanishini ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev bunga munosabat bildirib, “Yoshlar bilan ishlash Prezidentdan tortib vazirgacha, hokimdan tortib mahalla raisigacha – hammamizning eng asosiy ishimizga aylanishi zarur.” – degan edilar. [4]

Ta’lim muassasalari yoshlarni ijtimoiy hayotga moslashtirishda quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- yoshlar uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ularni mutaxassislikka tayyorlash;
- yoshlarning muloqot qilish, jamoada ishlash va ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- yoshlarni o‘z qobiliyatlarini aniqlash va uni rivojlantirish uchun sharoit yaratish.

Ta’lim muassasalari tomonidan tashkil etiladigan turli xil tadbirlar — seminarlar, konferensiyalar, sport musobaqalari, madaniy tadbirlar — yoshlarning ijtimoiy faoliyatini oshiradi. Bunday tadbirlar nafaqat nazariy bilim olish imkonini beradi, balki amaliy tajribani ham shakllantiradi. Yoshlar bunday tadbirlarda ishtirok etgan holda o‘z qobiliyatlarini ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ta’limga e’tiborning muhim jihatlaridan foydalangan holda yoshlarning ijtimoiy hayotga moslashtirish jarayonida psixologik yordam ko‘rsatish ham juda muhimdir. Ta’lim muassasalarida psixolog xizmatlari orqali talabalar o‘zlarini qulay his qilishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishi kerak. Bu bilan birga, psixologik maslahat berish orqali yoshlarning stressni boshqarishi va qaror qabul qilish qobiliyatini oshirish mumkin. 2024-yilda ushbu jihatlar qonuniy jihatdan yanada tartibga solindi va “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi. Unda “Ta’lim tashkilotlarida psixologik yordam ko‘rsatuvchi psixolog tegishli fan bo‘yicha o‘qituvchi, ta’lim tashkiloti rahbari, ta’lim oluvchining qonuniy vakillari bilan doimiy hamkorlikda ish olib borishi, ularga kasbiy maslahatlar berishi, ta’lim oluvchilarning psixologik holati va ehtiyojlari haqida ularning qonuniy vakillariga ma’lumotlar berishi, shuningdek zarur hollarda psixologik yordam ko‘rsatishni ular bilan birgalikda tashkil etishi kerak” [5] deb belgilangan.

Ta’lim muassasalari oila bilan yaqin aloqada bo‘lishi zarur. Ota-onalar bilan olib boriladigan uchrashuvlar, seminarlar orqali ularning farzandlari tarbiyasidagi roli oshirilishi mumkin. Jamiyatdagi boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik orqali esa, yoshlarning turli sohalarda tajriba orttirishi uchun keng imkoniyatlar yaratilishi lozim.

Hozirgi kunda ta’limda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash zarurati ortib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali dars jarayonini interaktiv qilish, talabalarning fikr yuritish qobiliyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Shuningdek, masofaviy ta’lim olish imkoniyatlari orqali yoshlarning ijtimoiy hayotdan chetlanishining oldini olish mumkin.

Yoshlarning ijtimoiy hayotga moslashuvi murakkab jarayon bo‘lib, bunda ta’lim muassasalarining roli beqiyosdir. Ta’lim nafaqat bilim berishga xizmat qiladi, balki yoshlarni shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. Ta'lim tizimi oila va jamiyat bilan hamkorlikda yoshlar uchun qulay sharoit yaratishi lozimki, ular kelajakda muvaffaqiyatli inson sifatida jamiyatda o‘z o’rnini topa olishsin.

Shu boisdan ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish, psixologik yordam ko‘rsatishni kuchaytirish va familiya-iqtisodiyot sohalaridan kelib chiqadigan ehtiyojlarga mos ravishda dasturlar ishlab chiqilishi zarurdir. Bu barcha chora-tadbirlar yoshlarni faol fuqarolar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi va ularning ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. **https://lex.uz/ru/docs/-6600413** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son. [Murojaat qilingan sana: 21.04.2025]
2. O‘zbekiston tarixini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda kommunikativ va nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish texnologiyasi / monografiya / Botirova Sevara Mamurovna. Namangan: «SUNRISE-PRO», 2024. 7-bet.
3. Ellis, Arthur K. (2004). Exemplars of curriculum theory. Eye on Education. P. 5.
4. https://yuz.uz/uz/news/shavkat-mirziyoev-yoshlar-kelajagi-bilan-bogliq-har-qanday-vazifa-birlamchi-ahamiyatga-ega [Murojaat qilingan sana: 21.04.2025]
5. https://lex.uz/uz/docs/-7196808 O‘zbekiston Respublikasining Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida Qonuni, 05.11.2024 yildagi O‘RQ-989-son. [Murojaat qilingan sana: 21.04.2025]

HOZIRGI YOSHLARNI MEHNAT BOZORIDAGI O‘RNI, KASBIY MALAKALARINI OSHIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Boymurodov Bobir Elmurodovich,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU katta o‘qituvchisi, boymurodovbe@gmail.com,
+998909801687
Abdullajonova Dilafruz Nig‘matjon qizi,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, talaba,
abdullajonovad489@gmail.com, +998 90 187 12 17

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi yosh avlodning mehnat bozoridagi o‘rni, ularning ishga joylashishidagi dolzarb muammolar hamda kasbiy malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlar tahlil qilinadi. Maqolada ta’lim tizimi bilan mehnat bozori o‘rtasidagi nomuvofiqlik, zamonaviy kasb-hunar o‘rganish imkoniyatlarining cheklangani, yoshlar orasidagi ishsizlik va bandlikdagi muammolar chuqur yoritilgan. Shuningdek, mavjud muammolarni hal etish bo‘yicha bir qator taklif va tavsiyalar – xususan, dual ta’lim tizimini rivojlantirish, kasbiy yo‘naltirish xizmatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini kuchaytirish kabi chora-tadbirlar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Mehnat bozori, yoshlar bandligi, kasbiy malaka, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, dual ta’lim, kasb-hunar ta’limi, malaka oshirish.

Kirish

Bugungi jadal o‘zgarib borayotgan jahon iqtisodiyotida yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash va mavjud kadrlarning kasbiy mahoratini oshirish masalasi siyosatchilar, o‘qituvchilar va ish beruvchilar uchun ham asosiy masala bo‘lib qolmoqda. Mehnat bozori dinamik, yuqori malakali va moslashuvchan ishchi kuchini tobora ko‘proq talab qilmoqda. Shunga qaramay, ko‘plab yoshlar ta’limdan ishga o‘tishda jiddiy muammolarga duch kelishmoqda. Shunga o‘xshab, mavjud xodimlar ko‘pincha texnologik yutuqlarga va ish joyidagi o‘zgarishlarga rioya qilish uchun kurashadilar. Ushbu maqola ishchi kuchini tayyorlash va malaka oshirish bilan bog‘liq asosiy muammolarni ko‘rib chiqadi, ularning sabablarini o‘rganadi va amaliy echimlarni taklif qiladi.

Yoshlarni mehnatga tayyorlashdagi eng muhim muammolardan biri ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan bilimlar va ish beruvchilar tomonidan talab qilinadigan ko‘nikmalar o‘rtasidagi

nomuvofiqlikdir. Ko‘pgina maktab va universitet o‘quv dasturlari eskirgan va nazariy bo‘lib, amaliy tajribaga yetarlicha e’tibor berilmagan. Bu bitiruvchilarning hayotiy ko‘nikmalarga ega bo‘lmasligiga olib keladi, masalan:

- Muloqot va jamoaviy ish
- Muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash
- Raqamli savodxonlik va texnik nou-xau
- Moslashuvchanlik va hissiy aql
- Eskirgan o‘quv dasturi

Ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda ta‘lim o‘quv rejasi mehnat bozori tendentsiyalariga mos kelmaydi. Misol uchun, IT, qayta tiklanadigan energiya va raqamli marketing kabi sohalardagi tez o‘sish o‘ziga xos vakolatlarni talab qiladi. Biroq, ta’lim muassasalari ko'pincha bu paydo bo‘ladigan ehtiyojlarga javob berishda sust bo‘lib, bitiruvchilarni tayyorgarliksiz qoldiradilar.

Kasb-hunar va texnik ta‘lim ish bilan ta’minlash uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘lni ta’minlashi mumkin, ammo u ko‘pincha kam baholanadi va yetarli darajada moliyalashtirilmaydi. Ko‘pgina mamlakatlarda akademik ta‘limdan past deb qabul qilinadi, bu esa talabalarni uni davom ettirishdan qaytaradi. Bundan tashqari, mavjud kasbiy dasturlar quyidagilardan zarar ko‘rishi mumkin:

- Zamonaviy asbob-uskunalar va jihozlarning etishmasligi
- Yetarli darajada tayyorlanmagan o‘qituvchilar
- Sanoat, ishlab chirash bilan zaif hamkorlik

Natijada, ko‘plab yoshlar o‘zlarining bandligini oshirishga yordam beradigan amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishdan mahrum bo‘lishadi.

Yoshlar ishsizligi ko‘plab mintaqalarda, xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarda xavotirli darajada yuqoriligicha qolmoqda. Hatto ish bilan ta’minlanganlar orasida ham to‘liq ish bilan ta‘minlanmaganlik keng tarqalgan. Bu shuni anglatadiki, yosh ishchilar ko‘pincha malaka darajasidan past bo‘lgan yoki ularning malakasiga mos kelmaydigan ishlarni qabul qilishadi.

- Ta‘sir etuvchi omillarga quyidagilar kiradi:
- Iqtisodiy turg‘unlik va ish o‘rinlarining yetishmasligi
- Cheklangan tadbirkorlik imkoniyatlari
- Kasbiy yo‘l-yo‘riq va murabbiylikning yo‘qligi
- Ish qidirish va ariza berish qobiliyatlari etarli emas

Potentsial va imkoniyat o‘rtasidagi bunday uzilish inson kapitalining behuda sarflanishiga olib keladi va umidsizlik va ijtimoiy beqarorlikka yordam beradi.

Sanoat avtomatlashtirish, raqamlashtirish va globallashuv tufayli o‘zgarib borar ekan, mavjud ishchi kuchi uchun uzluksiz malaka oshirish zarur. Biroq, ko‘pgina tashkilotlarda doimiy ta’lim va rivojlanish uchun tuzilgan dasturlar mavjud emas. Umumiy muammolarga quyidagilar kiradi:

- Xodimlarni o‘qitishga investitsiyalarning yetishmasligi
- O‘rganishga to’sqinlik qiladigan moslashuvchan bo‘lmagan ish jadvallari
- Onlayn yoki aralash o‘quv resurslariga kirish cheklangan
- O‘zgarishlarga va yangi texnologiyalarga qarshilik

Kasbiy o‘sish imkoniyati bo‘lmasa, ishchilarda o‘z sohalarida malaka yetishmasligi xavfi oshib boradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklar sifatli ta’lim va ta’lim olish imkoniyatiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Qishloq yoshlari, ayollar ko‘pincha qo‘shimcha to‘siqlarga duch kelishadi, masalan:

- Cheklangan infratuzilma va internetdan yetarlicha foydalana olmaslik
- O‘qish o‘rniga ishlash uchun oilaviy majlikdan iqtisodiy bosim oshishi
- O‘quv markazlaridan yoki ish imkoniyatlaridan geografik izolyatsiya

Inklyuziv iqtisodiy o‘sish uchun malaka oshirishdan teng foydalanishni ta’minlash juda muhimdir.

Ko‘pgina yoshlar mehnat bozoriga o‘zlarining yo‘llarini yoki ish beruvchilar nima kutayotganini aniq tushunmasdan kiradilar. Ishga qabul qilish bo‘yicha maslahat xizmatlari ko‘pincha mavjud emas yoki yetarli emas, ayniqsa davlat maktablarida. Bundan tashqari, texnik bilim muhim bo‘lsa-da, ish beruvchilar kuchli yumshoq ko‘nikmalarga ega nomzodlarni tobora ko'proq qidirmoqdalar, masalan:

- Yetakchilik va tashabbus
- Hamkorlik

- Vaqtni boshqarish
- Hissiy intellekt

Rasmiy ta‘limda bu kompetensiyalar kamdan-kam hollarda qo‘llaniladi.

Hukumatlar va ta‘lim muassasalari o‘quv dasturlari mehnat bozorining joriy talablarini aks ettirishini ta’minlash uchun soha rahbarlari bilan yaqindan hamkorlik qilishi kerak. Bunga quyidagilar kiradi:

- Ish beruvchilar vakilligi bilan maslahat kengashlarini tashkil etish
- Amaliyot, shogirdlik va dual ta’lim modellarini taklif qilish
- Rivojlanayotgan texnologiyalarni kiritish uchun o‘quv dasturlarini muntazam yangilab turish

Kasbiy ta’limni qayta tiklash moliyaviy sarmoya va madaniy siljishni talab qiladi. Strategiyalarga quyidagilar kiradi:

- O‘quv jihozlari va jihozlarini modernizatsiya qilish
- O‘qituvchilarni zamonaviy texnikaga o‘rgatish

Kasb-hunar ta’limi muassasalari va korxonalar o‘rtasida mustahkam hamkorlik aloqalarini o‘rnatish

Ish beruvchilar va hukumatlar quyidagi yo‘llar bilan uzluksiz ta’limni qo‘llab-quvvatlashlari kerak:

- Subsidiyalangan yoki bepul onlayn kurslar
- Ish joyida o‘qitish dasturlari
- Oldingi o‘rganish va norasmiy ko‘nikmalarni tan olish

Moslashuvchan ta'lim formatlari (masalan, yarim kunlik, dam olish kunlari darslari)

Yoshlarni faqat ish qidirish emas, balki ish o‘rinlari yaratishga undash kerak. Tadbirkorlik ta’limi quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

- Biznesni rejalashtirish, moliya va risklarni boshqarishni o‘rgating
- Haqiqiy loyihalar va tanlovlarni qo‘shing

Talabalarni startap inkubatorlari va moliyalashtirish manbalari bilan bog‘lash lozim.

Har qanday xalqning kelajagi uning mehnat kuchi va salohiyatiga bog‘liq. Yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash, mavjud kadrlar malakasini oshirish borasidagi dolzarb vazifalar ko‘p qirrali bo‘lsa-da, ularni yengib bo‘lmaydi. Ta’limni mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish, kasbiy va uzluksiz ta’limga sarmoya kiritish hamda imkoniyatlardan teng foydalanishni ta’minlash orqali biz chidamli, innovatsion va inklyuziv ishchi kuchini yaratishimiz mumkin. Oxir oqibat, bu o‘zgarish hukumat, sanoat va ta‘lim muassasalarining har bir shaxsning rivojlanishi uchun vositalarga ega bo‘lgan kelajakni qurish uchun muvofiqlashtirilgan sa’y-harakatlarini talab qiladi.

GLOBAL MAKONDA TALABALARNING MA’NAVIY-MA’RIFIY VA AXLOQIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY BILIMLARNING O‘RNI

Teshaboyeva Shaxlo Xusanboy qizi
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi,
Bobomurod Abduvoxobovich Tillayev
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda maktabgacha ta’lim, maktab, kasb-hunar maktablari va oliy ta’lim muassasalarida yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda tarixiy bilimlarning ahamiyati ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar rivojlangan davrda katta yoshdagi talabalarning ma’naviy va axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishda tarixiy bilimlarning roli, shuningdek, ta’lim tizimida bu bilimlarni qanday samarali taqdim etish mumkinligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: maktab, oliy ta’lim, talaba, ma’naviyat, ma’rifat, axloq, tarbiya, ijtimoiy tarmoqlar.

Аннотация. В статье анализируется значение исторических знаний в формировании мировоззрения молодежи сегодня в дошкольном образовании, школе, ПТУ и высших учебных заведениях роль исторических знаний в развитии духовно-нравственного мировоззрения старшеклассников, особенно в период развития социальных сетей, а также то, как эти знания могут быть эффективно представлены в системе образования.

Ключевые слова: школа, высшее образование, студент, духовность, просвещение, мораль, воспитание, социальные сети.

Annotation. The article analyzes the importance of historical knowledge in shaping the worldview of young people today in preschool education, school, vocational schools and higher education institutions. The role of historical knowledge in the development of the spiritual and moral worldview of high school students, especially during the development of social networks, as well as how this knowledge can be effectively presented in the education system.

Keywords: school, higher education, student, spirituality, enlightenment, morality, upbringing, social networks.

Global makonda talabalarning ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy dunyoqarashini rivojlantirish, jamiyatning barqarorligi va kelajagi uchun katta ahamiyatga ega. Ma’naviy-axloqiy tarbiya ob’yektining o‘ziga xos tavsif va ma’naviy-axloqiy tarbiya vazifalarini ma’naviy-axloqiy tarbiya sub’yekti belgilaydi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya sub’yekti tarkibiga: o‘qituvchilar, talaba-yoshlar jamoasi, rahbarlar, ijtimoiy tashkilotlar ham kiradi. Bular tarbiyaviy tadbirlarning xilma-xil ommaviy, jamoaviy, guruhli va individual shakllaridan foydalanib talabalarga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazadilar. Shuni alohida ta’kidlash joizki, bu o‘z tabiatiga ko‘ra, turli-tuman tarbiyaviy tadbirlar ta’siri ma’lum ketma-ketlik vatizimda olib borilib, bir-birini to‘ldiradi. Talaba-yoshlar uchun tashkil qilinadigan jamoaviy tadbirlar ta’siri talaba-yoshlar jamoasida shakllangan aloqa va munosabatlarni mustahkamlashga, yangilarining paydo bo‘lishiga ularni birlashuvi va faollik, tashabbus ko‘rsatishga olib keladi. Natijada, talabalarda ishchan va hissiy-psixologik yaxshi aloqa va munosabat, o‘zaro mas’uliyat, hamkorlik, o‘zaro yordam, ishonch, do‘stona munosabatlarni yuzaga keltirib, ularni jamoaviy yashash ko‘nikmasi, an’ana, ijtimoiy fikr, umumqadriyatlar asosida birlashtiradi [1]. Chunki yagona tarbiyaviy tizim asosida tashkil qilinadigan ommaviy, jamoaviy, guruhli va individual tarbiyaviy ta’sir o‘zaro bog‘liq va birbirini to‘ldirishga asoslanadi. Chunonchi, individual ta’sir garchi yakka talabaga mo‘ljallangan bo‘lsa-da, uning samaradorligi ko‘p jihatdan ommaviy ta’sirning turlitumanligi, ta’sirchanligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga talabaning jamoadagi o‘rni, u bilan o‘zaro munosabati, u faoliyat ko‘rsatayotgan guruhning jipsligi va ijtimoiy yo‘nalganligiga bog‘liq bo‘ladi.

Atvoq uz-zahab fi-l mavo’iz va-l xutab asarida talabalarni ma’naviy-axloqiy tamoyillar jihatdan tarbiyalash turli madaniyatlar, falsafiy ananalardan farq qilish mumkin bo’lsa-da, ular ko’pincha rahm-shafqat, yaxlitlik, ehtiyotkorlik kabi umumiy qadriyatlarni baham ko’radi. Ushbu tamoyillarni qabul qilish ham individual hayotda, ham butun jamiyatda yanada uyg’unlik va axloqiy xatti-harakatlar yaxshilanishiga olib kelishi mumkin [1-2].

Hozirgi kunda talabalarga nafaqat ilmiy bilimlar, balki ularda ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, global miqyosda turli madaniyatlarni anglash, o‘zini o‘zgalar bilan solishtira olish ko‘nikmalarini shakllantirish zarurati kuchaygan. Tarixiy bilimlar bu jarayonda alohida o‘rin tutadi, chunki ular nafaqat o'tmishdagi voqealarni o‘rganish, balki zamonaviy ijtimoiy va madaniy jarayonlarni tahlil qilish, xalqlar o‘rtasidagi munosabatlarni tushunish imkoniyatini beradi. Shuningdek, tarixiy bilimlar talabalarni o‘z xalqi, madaniyati va urf-odatlarini qadrlashga, boshqa madaniyatlarni hurmat qilishga va axloqiy qoidalarni amal qilishga undaydi.

Tarixiy bilimlarning ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy dunyoqarashni rivojlantirishdagi o‘rnini quyidagicha guruhlarga bo‘lgan holda ta’riflashimiz mumkin:

- Tarixiy bilimlar va ma’naviyat - tarixiy bilimlar talabalarda ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Tarixni o‘rganish orqali talaba o‘zining ajdodlari, milliy qadriyatlari va tarixiy yo‘li haqida chuqur tasavvurga ega bo‘ladi. O‘tmishdagi ijtimoiy tizimlar, ularning ma’naviy-axloqiy qadriyatlari va insoniyat tarixidagi o‘rni, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Tarixiy bilimlar, talabalarni jamiyatdagi adolat, tenglik, erkinlik va hurmat kabi qadriyatlarni tushunishga yordam beradi, ular esa ma’naviy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi.
- Tarixiy bilimlar va ma’rifat - tarixiy bilimlar, shuningdek, ma’rifatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Talabalar tarixni o‘rganish orqali ilmiy tafakkurini oshiradi, tarixiy voqealar va ularning saboqlarini tahlil qilish orqali zamonaviy hayotda qanday qarorlar qabul qilishni o‘rganadilar. Tarix, talabalarga insoniyatning yutuqlari va xatolaridan saboq olishga, shuningdek, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishidagi muhim bosqichlarni tushunishga yordam beradi. Ma’rifatni rivojlantirishda tarixning o‘rni,

talabalar uchun keng ko‘lamli ilmiy ko‘nikmalarni shakllantiradi va ularga jamiyatda o‘z o‘rnini topish imkonini beradi.

- Tarixiy bilimlar va axloqiy dunyoqarash - tarixiy bilimlar axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda ham asosiy vosita hisoblanadi. O‘tmishdagi axloqiy va ijtimoiy tizimlarni tahlil qilish orqali talabalar adolat, hamdardlik, yaxshilik va yomonlik kabi axloqiy tushunchalarni chuqurroq anglashadi. Tarixiy bilimlar, shuningdek, turli xalqlarning axloqiy qadriyatlarini o‘rganish imkonini beradi, bu esa talabalar o‘rtasida madaniy diversifikatsiyani va boshqa xalqlarga nisbatan hurmatni oshiradi.

Global makonda talabalarning dunyoqarashini shakllantirishda tarixiy bilimlarning ahamiyatini ham quyidagi guruhlarga ajratgan holda yoritishimiz mumkin:

- Globalizatsiya va tarixiy bilimlarning o‘rni - globalizatsiya jarayonlari dunyo miqyosida xalqaro aloqalar, madaniyatlararo muloqot va iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi. Bu esa talabalardan nafaqat o‘z milliy madaniyatini, balki boshqa xalqlarning madaniyatlarini ham hurmat qilishni talab etadi. Tarixiy bilimlar bu jarayonda o‘tmishdagi xalqaro munosabatlarni o‘rganish orqali talabalarga boshqalar bilan qanday muloqot qilishni, qanday tarixiy voqealarni va tajribalarni e’tiborga olishni o‘rgatadi.
- Tarixiy bilimlar va madaniy o‘zlik - tarixiy bilimlar talabalarda o‘z xalqining madaniy va tarixiy merosiga bo‘lgan hurmatni shakllantiradi. Madaniy o‘zlikni saqlash va rivojlantirishda, o‘z millatining tarixiy yo‘li va qadriyatlarini bilish juda muhimdir. Talabalar tarixni o‘rganish orqali o‘z madaniyatiga nisbatan chuqurroq hurmat va sevgi tuyg‘usini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ular global miqyosda turli madaniyatlar va xalqlarni tushunishga, ularni hurmat qilishga o‘rganadilar.
- Tarixiy bilimlar va global axloqiy masalalar - bugungi kunda talabalarga axloqiy masalalarni global miqyosda tushunish zarurati tug‘ilmoqda. Tarixiy bilimlar, talabalarni jamiyatda yuzaga kelgan axloqiy masalalarni yaxshiroq anglashga yordam beradi. O‘tmishdagi ijtimoiy tizimlar, axloqiy mezonlar va inson huquqlari bo‘yicha tarixiy yutuqlar va xatolarni o‘rganish, talabalarga hozirgi zamon axloqiy muammolariga nisbatan ongli qarashni rivojlantirish imkonini beradi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqqan holda tarixiy bilimlarni yosh avlodni tarbiyalashda hamda kadrlarni tayyorlashda ularning beqiyos o‘rnini inobatga olib, tarixiy bilimlarni ta’lim tizimiga integratsiya qilishdek dolzarb vazifalar turibdi. Bunda tarixni o‘qitish uslublari, interaktiv metodlar, kino va video materiallar yordamida talabalarga tarixiy voqealar va jarayonlarni tushuntirish talabalar uchun qiziqarli va osonroq bo‘ladi deb hisoblayman. Ushbu yondashuv, talabalarga nafaqat tarixiy bilimlarni, balki ularga tarixiy jarayonlarni tahlil qilish va ulardan saboq olishni o‘rgatadi. Shuningdek, tarixiy bilimlarni o‘rganish orqali talabalar turli xalqlarning tarixini, madaniyatini va urf-odatlarini tushunishadi. Bu esa ularning boshqa xalqlarga nisbatan hurmatini oshiradi va global miqyosda o‘zaro tinchlikni ta’minlashga yordam beradi.

Xulosa

Bugungi ijtimoiy tarmoqlar rivojlangan davrda talabalarning ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishda tarixiy bilimlarning ahamiyati juda katta. Tarix o‘tmishdagi voqealarni o‘rganish orqali, talabalar nafaqat o‘z xalqi va madaniyatini anglaydi, balki boshqa xalqlarning tarixiy tajribalaridan saboq olishadi. Tarixiy bilimlar, shuningdek, talabalarda axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi, bu esa ularning global miqyosdagi teng huquqli va o‘zaro hurmatga asoslangan dunyoqarashini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahkam Mahmud, Nazarbek Rahim Oltin shodalar Toshkent 2010 y 86b.
2. Laziz To’rayev Mahmud Zamaxshariyning axloqiy qarashlari. Sharq mash’ali. Toshkent 2020y 151-156b

YOSHLARNI MEHNAT BOZORIGA TAYYORLASH HAMDA KADRLARNING KASBIY MAHORATI VA KO‘NIKMALARINI OSHIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Diyorbek Niyatullayevich Turayev
O’zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar Universiteti
Siyosatshunoslik yo’nalishi talabasi
Toshkent sh.
turdiyevdilmurod469@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda zamonaviy mehnat bozorining talablariga javob bera oladigan, yuqori saviya va malakali kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashdagi dolzarb muammolar tahlil qilinadi. Xususan, dual ta’lim tizimi misolida yoshlarni nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarga ega qilib tarbiyalash, ularning real ish muhitida malaka oshirishga jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish muhimligini asoslab beradi. Tezis, asosan, Germaniya, Janubiy Koreya kabi davlatlar tajribasi asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Zamonaviy kadrlar, dual ta’lim, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, oliy ta’lim, tajriba, hamkorlik, istiqbol.

Аннотация. В данной тезисной работе анализируются актуальные проблемы подготовки кадров, обладающих высокими профессиональными навыками и компетенциями, соответствующими требованиям современного рынка труда. В частности, на примере дуальной системы образования обосновывается важность воспитания молодежи не только с теоретическими знаниями, но и с практическими навыками, а также расширения возможностей для прохождения стажировки в реальной рабочей среде. Тезис в основном анализируется на основе опыта таких стран, как Германия и Южная Корея.

Ключевые слова: Современные кадры, дуальное образование, современные педагогические технологии, высшее образование, опыт, сотрудничество, перспективы.

Annotation. This thesis analyzes the pressing issues in training highly skilled personnel with professional competencies that meet the demands of the modern labor market. In particular, using the dual education system as an example, it substantiates the importance of equipping youth not only with theoretical knowledge but also with practical skills, and expanding opportunities for them to gain experience in real work environments. The thesis is primarily analyzed based on the experiences of countries such as Germany and South Korea

Keywords: Modern personnel, dual education, modern pedagogical technologies, higher education, experience, cooperation, prospects.

Dunyo, zamon va ta’lim shitob bilan rivojlanib borayotgan bir paytda ularni ilg‘ay olish va milliylashtirgan holatda mamlakatga tatbiq etish davlatning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lmog‘i darkor. Xususan hozirgi zamonda yoshlarni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlash hamda kadrlarning kasbiy mahorati va ko‘nikmalarini oshirish bugunning dolzarb masalasidan biridir. Bu bevosita ta’lim tizimi bilan uzviy aloqadordir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda bu tizimga oid amalga oshirilayotgan pragmatik islohotlar natijasi yaqin kelajakda samarasini ko’rsatadi deb baralla ayta olamiz. Bugungi kunda ta'lim bu oddiy bilim berish emas, balki inson kapitalini shakllantirish jarayonidir. Globallashuv jarayonida ta’lim tizimidan talab etilayotgan ustuvor vazifa jahon bozor talablariga va standartlariga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlashdir. Oliy ta'lim tizimi mutaxassislarni faqat nazariy bilimga asoslangan holda emas, balki amaliy ko'nikmalarga ega qilib yetishtirish vazifasini ham bajarmog'i lozim. Shu nuqtayi nazardan, dual ta'lim va zamonaviy pedagogik texnologiyalar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dual ta’lim bu ta’limning nazariy jihatdan emas, balki nazariy bilimlarning amaliy jihatdan uyg‘unlashtirgan holatda ya’ni amaliyotda qo‘llash shaklidir. Ushbu tizimdan ustuvor vazifa shundan iboratki, bitiruvchi ya’ni bo‘lajak kadrlarni jahon standartlari asosida puxta tayyorlashdan iborat. Ushbu ta’lim turning geneziga keladigan bo‘lsak, uning eng klassik modeli Germaniya davlatida XVIII-XIX asrlardan shakllanib borgan. Bunga bir necha omillar turtki bo‘lgan, masalan, ilk o‘rta asrlardan bu davlatda hunarmandlar gildiyalari mavjud, ya’ni bu usta va shogird an’anasi edi. Bunda hunarmand o‘z shogirdini amaliy ko‘nikmalar asosida o‘rgatgan. Keyinchalik bo‘lib o‘tgan sanoat inqilobi va kasbiy ta’lim to‘g‘risidagi qonun ham bu tizimning takomillashishiga turtki bo‘ldi.

“Tajriba-bu eng zo‘r ustoz. Dual ta’lim esa uni tizimli va barqaror shaklga keltiradi.” (Muqobil ta’lim nazariyasi asoschisi, V. W. Arnold, Germaniya)

Hozirgi kunda Germaniyada bu ta’lim turi asosida 330 ga yaqin kasb dual ta’lim asosida olib boriladi ular haftaning uch kunini amaliy, ikki kunini nazariy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga sarflashadi. Bu davlatda har yili 1,3 milliondan ortiq o‘quvchi bu asosda ta’lim oladi va bu bitiruvchilarning deyarli 80% doimiy ish o‘rniga egadir ishsizlik darajasi esa 5% dan past ko‘rsatkichga ega.

Shvetsariyada ham bu ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, talabalar haftaning 70% ni amaliyotda o'tkazishadi bank, sug‘urta, IT, sog‘liqni saqlash sohalarida ham dual ta’lim joriy qilingan. Bitiruvchilar ta’limni yakunlaganlaridan so‘ng 1-2 oy ichida ish o‘rniga ega bo‘lishadi.

Janubiy Koreya davlati ham bu tizimni 2010-yildan boshlab joriy qilgan, yoshlar Samsung, Hyundai kabi yirik kompaniyalarda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishib, ishlab chiqarish ishtirok etadi. Xususan, Kasbiy ko‘nikmalarni yaxshi egallagan yoshlar chet davlatlarga eksport qilinadi. Shuningdek bu tizim mamlakatda raqobatbardosh texnik kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Dual ta’lim ko‘plab mamlakatlarda joriy etilganligiga qaramay, siyosiy yoki qog‘ozda mukammal ko‘rinadi, ammo real hayotda amaliyot korxonalar yetishmaydi va bu bilan bog‘liq muammolar talaygina. Masalan, O‘zbekiston, Qozog‘iston va Hindistonda dual ta’lim tajribalari boshlangan bo‘lsa-da, ko‘plab viloyatlarda talabalar uchun malakali ishlab chiqarish korxonalari mavjud emas. Ayrim kollej o‘quvchilari amaliyotdan faqat "hujjat uchun" o‘tadilar. Nazariy bilimlar amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘un emas. Bitiruvchi diplom oladi, lekin u mustaqil ishlashga qodir emas. Korxonalarda amaliyotga jalb qilingan mutaxassislar pedagogik malakaga ega emas, bu esa ta’lim sifatsizligiga olib keladi. Ko‘plab joylarda baholash tizimi hanuz eski – test va yozma imtihonlar asosida. Dual tizimda esa baholash ko‘nikmaga asoslanishi kerak. Ko‘plab mamlakatlarda bu uch tomonlama hamkorlik ishlamaydi: davlat siyosati yaxshi, lekin sanoat qatnashmaydi yoki ta’lim sifatsiz.

Bu muammolarga nisbatan pragmatik, ya’ni real muammolarga real yechim berish orqali amalga oshirish zarur. Masalan**, hamkorlik memorandumi** va **uzoq muddatli strategik sheriklik shartnomalari** tuzish. Sanoat vakillarini tizimli o‘quv reja ishlab chiqish jarayoniga jalb qilish. Davlat xususiy sheriklik (DXSh) asosida infratuzilma yaratish. Mahalliy va xorijiy donorlar bilan grant va loyihalar doirasida hamkorlik qilish. Ishlab chiqarishdagi amaliyot vaqtini qonunchilik asosida kuchaytirish. Ish beruvchilarga soliq imtiyozlari taqdim etish orqali rag‘batlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish taklif etiladi.

Bugungi global ta’lim jarayonlarida dual ta’lim tizimi nafaqat kasb-hunar egallashning, balki yosh avlodni mehnat bozoriga tayyorlashning eng samarali vositalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur maqolada yoritilgan muammolar o‘zaro hamkorlikdagi uzilishlar, moliyaviy yetishmovchilik, mutaxassis kadrlar tanqisligi va texnologik integratsiya muammolari barchasi tizimni to‘laqonli ishga tushirishga jiddiy to‘siq bo‘layotgan asosiy omillardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. PF-5812-сон 06.09.2019. Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida
2. KASBIY TA’LIMDA DUAL TA’LIMNING AHAMIYATI | Modern education and development
3. https://cyberleninka.ru/article/n/dual-ta-lim-va-ishlab-chiqarish-uyg-unligi-zamonaviy-ta-lim-konsepsiyasi
4. https://sciresol.s3.us-east-2.amazonaws.com/IJST/Articles/2016/Issue-47/Article30.pdf

YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA LIDERLIK KO‘NIKMALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Po‘latova Rushana Alisher qizi
CHDPU “Pedagogika” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Jamoldinova Sayyora Nodirbek qizi
CHDPU pedagogika fakulteti o‘qituvchisi
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0006-4669-0483
jamoldinova.cspu@gmail.com, +998917766446

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Liderlik fazilatlari yoshlarning jamiyatdagi faol ishtirokini ta’minlash ularning tashabbuskorligini oshirish hamda ijtimoiy mas’uliyatni his qilishida muhim vosita sifatida baholanadi. Liderlik ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari, dunyoqarashlari, kommunikativ jihatlarini inobatga olish va ularda liderlik ko‘nikmalarini shakllantirib uni

yanada rivojlantirish orqali o‘zaro faol muloqotni rivojlantirishga ahamiyatni qaratishimiz kerakligi nazariy ma’lumotlar orqali bayonini ko‘rishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: yoshlar, liderlik, tashabbuskorlik, ijtimoiy faol yoshlar, ijtimoiy jarayonlar, liderlik ko‘nikmasi, lider inson, lider guruh, shaxsiy rivojlanish.

“Lider bo‘lish – bu o‘z qadriyatlaring asosida yashash va boshqalarni ham shu yo‘ldan yurishga ilhomlantirishdir”.
Stephen Covey

KIRISH.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari tez sur’atlarda rivojlanayotgan davrda yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Chunki faol, ongli va mas’uliyatli yosh avlod jamiyat taraqqiyotining negizidir. Yoshlarning ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishi, ularning liderlik salohiyatiga, tashabbuskorligiga va mas'uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyatiga bevosita bog‘liqdir. Aynan liderlik ko‘nikmalari yoshlarni ijtimoiy faollikka undashda, ularning shaxs sifatida kamol topishida muhim omil hisoblanadi. Shu bois, mazkur maqolada yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Bugungi globallashuv va raqobat kuchaygan zamonda jamiyat taraqqiyoti ko‘p jihatdan faol, tashabbuskor va yetakchilik salohiyatiga ega bo‘lgan yosh avlodning shakllanishiga bog‘liq. Yoshlarning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki nafaqat ularning shaxsiy kamoloti uchun, balki jamiyatda barqaror taraqqiyotni ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, yoshlarni ijtimoiy faollikka undovchi omillarni aniqlash va ularni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar zamonaviy ijtimoiy fanlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Shu jihatdan qaralganda, **liderlik ko‘nikmalari** yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda asosiy psixologik va amaliy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Liderlik faqat rasmiy lavozim egallash emas, balki muayyan ijtimoiy vaziyatlarda tashabbus ko‘rsatish, boshqalarga yetakchi bo‘lish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyatini anglatadi. Bu esa o‘z navbatida shaxsning mustaqil fikrlashi, o‘ziga ishonchi va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi.

ASOSIY QISM

Yoshlarning ijtimoiy faolligi – bu ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, turli ijtimoiy loyihalar, tashabbuslar, jamoaviy tadbirlarda qatnashishi, o‘z fuqarolik pozitsiyasini namoyon etishidir. Bunday faollik jamiyat barqarorligi va taraqqiyotini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Ijtimoiy faollik yoshlarni yetuk shaxs, ongli fuqaroga aylantirishda, ularda mas’uliyat hissi, tashabbuskorlik va ijtimoiy ongni shakllantirishda katta rol o‘ynaydi.

Liderlik ko‘nikmalari esa yoshlarni ijtimoiy hayotga jalb etishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Liderlik – bu faqat boshqarish emas, balki boshqalarni ilhomlantira olish, muammolarga ijodiy yechim topa olish, jamoadoshlarni umumiy maqsad sari yetaklay olish qobiliyatidir. Bunday ko‘nikmalarga ega yoshlar jamiyatda faol, mas’uliyatli, tashabbuskor bo‘lib yetishadi. Ular nafaqat o‘z hayotlarini, balki atrofdagi ijtimoiy muhitni ham ijobiy tomonga o‘zgartirishga intiladi. Zamonaviy jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni faol fuqarolik hayotiga jalb etish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu jarayonda liderlik ko‘nikmalari yoshlar uchun nafaqat shaxsiy yutuqlar sari yetaklovchi vosita, balki jamiyatdagi o‘zgarishlarning faol ishtirokchisiga aylanishi uchun zarur bo‘lgan strategik kompetensiya sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Psixologiyada liderlik tushunchasi keng talqin qilinadi. Masalan, amerikalik olim R. Stogdill fikricha, “liderlik bu – jamoa a’zolarining faoliyatiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatish va ularni umumiy maqsad sari yo‘naltirish jarayonidir”. (Stogdill, 1974). Bu ta’rifdan kelib chiqib, liderlik nafaqat rasmiy lavozim, balki ijtimoiy-psixologik ta’sir ko‘rsatish qobiliyati ekanini anglash mumkin. Bundan tashqari, D. Goulman tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellekt nazariyasida, samarali liderlik shaxsning o‘zini anglay olishi, boshqalarni tushunishi va ularga mos ravishda harakat qilish qobiliyatiga bevosita bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Goulmanning fikricha: “Yuqori ijtimoiy anglash darajasiga ega bo‘lgan insonlargina chin yetakchiga aylanishi mumkin” (Goleman, 1995).

Shuningdek, transformatsion liderlik nazariyasiga ko‘ra (J. Burns, B. Bass), haqiqiy lider jamoadoshlarini ilhomlantira oladi, ularni ichki motivatsiya orqali faoliyatga undaydi va o‘zgarishlar sari yetaklaydi. Bu jihatlar yoshlarning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishlari uchun juda muhim omildir.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, liderlik ko‘nikmalari ijtimoiy faollik bilan uzviy bog‘liq. Xususan, M. Weber o‘zining sotsiologik yondashuvida liderlikni ijtimoiy harakatlarning katalizatori sifatida ko‘radi. U shunday deydi: “Karizmatik liderlik insonlarni o‘z ixtiyori bilan harakat qilishga undaydi, bu esa ijtimoiy o‘zgarishlar uchun asos yaratadi.” (Weber, 1922). Shu asosda aytish mumkinki, liderlik ko‘nikmalariga ega bo‘lgan yoshlar jamiyatda faol, tashabbuskor va mas’uliyatli bo‘lib yetishadi. Ular nafaqat o‘z hayotlarini ijobiy tomonga o‘zgartirish, balki atrof-muhitdagi muammolarni hal qilishda ham faol ishtirok etishga harakat qilishadi. Bu yoshlarning fuqarolik ongini shakllantirish va barqaror ijtimoiy rivojlanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish yoshlarning o‘z-o‘zini anglashiga, ishonch hosil qilishiga, mustaqil fikrlashiga va o‘z qarorlarini qabul qilishiga yordam beradi. Bu esa ularning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Ta’lim muassasalarida tashkil etilayotgan ijtimoiy loyihalar, debatlar, klublar, seminar-treninglar yoshlar liderligini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, maktab va oliy ta’lim bosqichida yoshlarning liderlik salohiyatini erta aniqlab, ularni rag‘batlantirish muhimdir.

Bugungi kunda ko‘plab mamlakatlarda yoshlar uchun liderlik dasturlari, ijtimoiy faollikni oshirishga qaratilgan grantlar, inkubatsiya markazlari faoliyat yuritmoqda. Bu esa yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda ham "Yoshlar daftari", "Yoshlar parlamenti", "Liderlik maktablari" kabi loyihalar orqali yoshlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish choralari ko‘rilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Bu yo‘lda liderlik ko‘nikmalarining ahamiyati beqiyos bo‘lib, ular yoshlarning shaxsiy kamolotiga, tashabbuskorligiga, mustaqil fikrlashiga va jamiyatdagi faol ishtirokiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Liderlik salohiyatiga ega yoshlar o‘zlari uchun emas, balki jamiyat manfaati yo‘lida ham harakat qilishga tayyor bo‘ladilar. Shu sababli, ta’lim tizimi, jamoat tashkilotlari va davlat siyosati yoshlar liderligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishi lozim. Zero, faolligi va liderlik qobiliyati yuqori bo‘lgan yoshlar har qanday jamiyatning kelajagini yuksak darajaga olib chiqa oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xodjayev N. va boshqalar. Ijtimoiy pedagogika. — Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2020.
2. Jamoldinova, S. N. (2023). Shaxslararo munosabatlarda pedagogik nizolarning ahamiyati. Ta’limda raqamli tehnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari ” mavzusida o’tkazilgan respublika onlayn amaliy konferensiyasi, 1(15),112-117.
3. Jamoldinova, S. N. (2023). Kommunikativ qobiliyat-ta’lim-tarbiya jarayonidagi konfliktlarni bartaraf etish manbai sifatida. “Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendirio‘”, 1(1), 229-235.
4. Jamoldinova, S. N. (2023). O’qituvchining konfliktologik tayyorgarligining kasbiy faoliyatdagi ahamiyati. “Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendirio‘”, 1(1), 224-228.
5. Saidov A.X. Yoshlar siyosati va huquqiy madaniyat asoslari. — Toshkent: “Adolat” nashriyoti, 2019.
6. Toshpulatova D. Yoshlarning ijtimoiy faolligi va liderlik salohiyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. — Ilmiy maqola. // “Pedagogika fanlari” jurnali, 2022, №4.
7. www.lex.uz — O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

YAN AMOS KOMENSKIY - PEDAGOGIKA NAZARIYASINING ASOSCHISI SIFATIDA.

Abdualiyeva Jasmina Abduqahhor qizi
CHDPU “Pedagogiaka” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi,
Ilmiy rahbar: Jamoldinova Sayyora Nodirbek qizi
CHDPU pedagogika fakulteti “Pedagogika” kaferdasi o’qituvchisi

ORCID ID: https://orcid.org/0009-0006-4669-0483
jamoldinova.cspu@gmail.com, +998917766446

Annotatsiya: Maqolada Yan Amos Komenskiyning ta’lim faoliyati va nazaryasi ,uning didaktik qarashlari yoritilgan. Shuningdek gumanist, buyuk pedagogning hayot yo’li, avlodlariga qoldirilgan yuksak ilmiy xazinasi xususidagi fikrlari bayon etiladi. Bundan tashqari,ushbu maqolada pedagogika rivoji uchun hissa qo’shgan olimlarning buyk g’oyalari ham keltirib o’tilgan.

Kalit so’zlari: didaktika , onalar maktabi, pedagogika, logika, ko’rgazmalilik, vizuallilik, ta’lim, tarbiya, akademiya, qobiliyat, analogiya.

Taniqli pedagog olim S. Rajabov Komenskiyning faoliyatiga baho berib, “u faqat , “Buyuk didaktika” asarini o‘zi yozib qoldirganda ham pedagogikada o‘lmas iz qoldirgan bo‘lar edi”, deb ta’kidlaydi. Mashhur donishmand chexoslovakiyalik gumanist pedagog, demokratik pedagogikaning asoschisi bashariyat tarixidan o‘rin olgan.Yan Amon Komenskiy 1592-yil 25-martda Nivnitsa (Chexoslovakiyaning Janubiy Moraviya qismida) deb atalgan joyda tegirmonchi oilasida tug’iladi. Uning oilasi ruhoniy , “Chex qardoshlari” jamoasiga tegishli bo‘lib, o‘zlarini Yan Tusning davomchisi deb hisoblar edilar. Yan Tus katolik cherkoviga qarshi chiqqanligi uchun uni gulxanda yoqib o‘ldiradilar. Shunining uchun bu jamoa uning g‘oyasini amalga oshirishni maqsad qilib oladi. Ularning maqsadi demokratik g‘oyani ilgari surib, Chexiyaning ozodligi uchun kurashuvchi vatanparvarlarni o‘z atrofiga yig‘ishdan iborat edi. Komenskiy ota-onasidan juda yosh yetim bo‘lib qoladi. Shuning uchun u 16 yoshgacha o‘qiy olmaydi. 16 yoshida , “ Chex qardoshlari” jamoasining yordami bilan lotin maktabiga o‘qishga kiradi. Bu yerda u tarbiya tizimining yomonligini, o‘qitish uslublarining yaxshi emasligini ko‘radi. U , “Men o‘sha vaqtdayoq tarbiya masalasida mamlakatimiz orqada ekanligini ko‘rdim. Fan va tarbiya hammaga tegishli bo‘lishini o‘yladim”- degan edi. Komenskiy maktabni tugatgach Gerbern universitetiga (Germaniya)da o‘qishga kiradi, uni tugatgach Geydelberg universitetida ma’ruza kurslarini tinglaydi. U yerda ilg‘or professorlar ishlar edilar. U Avstriya, Gollandiyada bo‘lib, u yerdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy turmush bilan tanishadi, o‘rganadi va o‘zining ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi. U xorijiy mamlakatlardan qaytib kelgach, chex qardoshlari jamoasida ruhoniy bo‘lib ishlaydi. Shu bilan birga maktab ochib, o‘zi unga rahbarlik qiladi. O’sha davrda urush alohida knyazliklar orasida tez- tez bo’lib turar edi. Chex qardoshlari jamoasi o’zining mustaqilligi uchgun nemis dvoryanlari tomonidan haydaladi.Haydalish natijasida Komenskiy xotini va bolasidan judo bo’ladi. Qo‘lyozmalari esa yo‘qoladi. Jamoa Polshaning Leshno shahrida yana tiklanadi. Komenskiy u yerda gimnaziya tashkil etadi. U o‘zining qariyib 80 yillik umri davomida xalq ta’limining turli masalalariga bag‘ishlangan asarlar , darsliklar yaratadi. Masalan: 1631- yil , “Tilla va hamma fanlarning ochiq eshigi” , 1632- yilda , “Buyuk didaktika”, 1632-yilda maktabgacha tarbiya masalalariga bag‘ishlab, , “Onalar maktabi” , 1648-yilda , “Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari” nomli asarlar, shuningdek, “Pan Sofiya” , “Logika”, “Fizika” , “Lotin tili”, “Grek tili” kabi darsliklar yozadi. “Pan Sofiya” darsligida u tabiat va jamiyat bilimlarining yig‘indisini ifodalab beradi. Komenskiy yuqoridagi asarlari bilan butun dunyoga taniladi, ko‘p mamlakatlar uni taklif eta boshlaydilar. Masalan: , “Buyuk didaktika” asararida ilgari surgan , “Pan Sofiya” g‘oyasini (ya’ni hamma narsani bilish hamma uchun bilim berish) Angliyaning ilg‘or kishilari tomonidan quvvatlanib, Angliya parlamenti tomonidan taklif qilinadi. U 1641-yil Angliyaga keladi, lekin u yerda fuqarolik urushi boshlanib ketganligi sababli Komenskiy faoliyat ko‘rsata olmaydi. U Shvetsiyada lotin tili darsligini va til o‘qitish uslublarini ishlab chiqadi.

1660 yilda Komenskiyni maktablar tashkil etish uchun Vengriyaga taklif etadilar. Bu yerga kelgach, u Sharoshpatakda o‘zining pansofik ta’limoti asosida maktablar ochish haqidagi fikrlarini qisman amalga oshiradi. Bunday maktabning ilmiy jihatdan asoslangan prinsiplari, o’quv rejasi, kunlik o’qish tartibiga doir masalalar Komenskiyning , “Pansofik maktab” asarida bayon etilgan. Shu yillari Komenskiy bir qancha didaktik asarlar ham yozdi. O‘qitish jarayonini jonlantirish, bolalarda bilimga qiziqish uyg‘otish uchun Sharoshpatakdagi maktabda u o‘quv materiallarini drammalashtirish usulini qo‘lladi. , “Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi” nomli asari asosida 8 ta o‘quv pyesasini yozdi va ulardan , “O’yin- maktab” kitobini tuzdi. 1654 -yilda , “Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari” kitobini yozib tamomladi. Bu asar insoniyat tarixida birinchi ko‘rgazmali darslik hisoblanadi. Bu darslik

Yevropaning ayrim mamlakatlardagi maktablarda XIX arsning ikkinchi yarmigacha qo‘llanilib kelindi. Shuningdek, Komenskiy geografiya, geometriya, kosmografiyaga doir darsliklar ham tuzdi.

Komenskiy Amsterdamda ,,Kishilik jamiyati ishlarini yaxshilash haqida hammaga taalluqli maslahat” nomli kapital asarini yozib tugatdi . Bu asarida Komenskiy kishilik jamiyatini reforma qilish planini ishlab chiqishga urindi. Koloniyalar uchun urishayotgan Angliya bilan Gollandiyani yarashtirish maqsadida Komenskiy 1667-yilda , “Tinchlik farishtasi” asarini yozdi va unga nizoli masalalarni qurol ishlatish yo‘li bilan emas, balki tinchlik , xayrixohlik pinsiplari asosida hal etishga chaqirdi. Davlatlar o‘rtasida tinchlikni saqlash ishi bilan shug‘ullanadigan xalqaro tashkilot – tinchlik soveti tuzish to‘g‘risidagi g‘oyani birinchi marta Komenskiy taklif qilgan edi. Yan Amos Komenskiy dunyoqarashiga, ayniqsa uning didaktik ta’limotiga XVI –XVII asr tabiat falsafasining (Jordano Bruno, Galileo Galiley) hamda Bekon Verulamiskiyning sensualistik falsafasining tasiri kuchlidir. Komenskiyning asosiy didaktik qarashlari – sezish orqali real dunyoni bilish, realizm va ko‘rsatmalilik prinsipi vujudga keldi. Uyg‘onish davridagi harakatlarining demokratizmi, dinchiligi va pedagogik tajribasi Komenskiyning dunyoqarashi va pedagogik g‘oyalariga katta ta’sir etdi. O‘sha davrda ayrim diniy jamoalar demokratik prinsiplarini, jumladan hammma bolalarga ijtimoiy ta’lim va tarbiya berishni amalga oshirdilar.

Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning pedagogik merosida yosh avlodni maktabda o‘qitish va tarbiyalash masalasi asosiy o‘rin oladi. Komenskiy yashagan zamonda ta’lim, tarbiya o‘qitish terminlarini , “didaktika” so‘zi bilan ifodalash odati mavjud edi. Aslida didaktika (didasca) yunoncha so‘z bo‘lib “o‘qitaman” degan ma’noni bildiradi. Qadimgi yunon tilida bu tushunchaning sinonimi ham bo‘lib (paydeva) “tarbiyalayman” degan ma’noni bildirar edi. Yan Amos Komenskiy bu terminlarni har ikkalasini ham yaxshi bilar edi. Lekin u “didaktika” terminini ishlatishni ma’qul ko`rib o`z asarini “ Buyuk Didaktika” deb atadi. Shunungdek 1657 –yilda Amsterdamda nashr etilgan asarlarini to`plamini ham “Didaktikaga doir asarlarining to‘liq to‘plami`” deb atadi.

“Didaktika” so‘zi hozirgi paytda “o‘qitish nazariyasi” ma’nosini anglatadi. Komenskiy bu terminni keng ma’noda ya’ni hozirgi “pedagogika” termini ma’nosida ishlatgan. Komenskiyning didaktikaga doir asarlarini diqqat bilan o‘qigan kishi, bu fikrning to‘g‘riligiga ishonch hosil qiladi. Komenskiy “Buyuk didaktika” asarida yosh avlodni o‘qitish to‘g‘risida fikr yuritibgina qolmasdan, balki maktabgacha tarbiya va maktab yoshidagi bolalarga aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiya berish haqida so‘z yuritadi. Buni hatto asarning mazmunida ham ko`rishimiz mumkin. Xususan, asarning asosiy boblarida, ya`ni mantiqiy jihatdan biri biri bilan uzviy bog`langan 33 bobda pedagogikaning umumiy masalalari didaktikaga oid ilmiy ta`limot bayon etiladi. Darhaqiqat “Buyuk didaktika”ning dastlabki 1-12 boblari pedagogikaning umumiy masalalarini o‘z ichiga oladi. Bu boblarda, birinchidan insonning taqdiri va uning vazifasi, ikkinchidan, bilim berishning shart va imkoniyatlari, uchinchidan, maktablarning xarakteri va ularni qayta tashkil etish masalalari bayon etiladi. 13-14 boblarda maktablarni yangicha tashkil etishning asoslari har bir ishda aniq tartib o‘rnatish – maktablarni tubdan o‘zgartirishning asosi ekanligi va bunday tartibni tabiatdan o‘rganish lozimligiko‘rsatib o‘tiladi. 15-19 boblarda didaktikaning umumiy asoslari o‘qish va o‘qitishga bo‘lgan umumiy didaktik talablar bayon etiladi. Umumiy tahlil qilinganda Y.A.Komenskiy asaridagi barcha boblar yosh avlodni tarbiyalash haqidagi g‘oyalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar haqida gapiradi. Asarning , “Buyuk didaktika” deb atalishi ham tasodifiy emas. Chunki unda tilga olingan va hal etilgan masalalarning ko‘lami va ahamiyati jihatidan qaraganda, u haqiqatdan ham buyuk va klassik asardir. Komenskiy o‘zining bu asarida hech bir istisnosiz har ikki jinsdagi hamma bolalarni o‘qitish uchun maktablar ochish, bolalarni o‘z ona tilida o‘qitish va tarbiyalash hamda ularni amaliy hayotga tarbiyalash muammosini, maktablarda o‘qitiladigan fanlardan dars berish metodikasini yaxshilash masalasini va nihoyasi, bu muammolarning hammasi yuzasidan ilmiy jihatdan asoslangan nazariyalar yaratish muammosini o‘rtaga qo‘yib, asoslab berdi. , “Buyuk didaktika” da bayon etilgan asosiy fikrlardan biri tarbiya va o‘qitishninig tabiatga uyg‘un bo‘lishi haqidagi g‘oyadir. Tarbiyaning tabiatga mos bo‘lishi haqidagi fikr dastlab qadimgi yunon faylasufi Aristotelning asarlarida uchraydi, lekin Aristotel bu masalani batafsil yoritmagan. Komenskiydan keyin yashab ijod etgan Jan Jak Russo, Iogan Genrix Pestalotsiy, Adolf Disterverg kabi pedagoglarning asarlarida ham tarbiyaning tabiatga mos bo‘lishi to‘g‘risidagi masala tilga olinadi. Bu pedagoglarning har biri tarbiyaning tabiatga uyg‘un bo‘lishi masalasini turlicha talqin qiladi. Shuning uchun ham tabiatga moslik prinsipini Komenskiy qanday tushunganligini aniqlash muhimdir.

Komenskiyning asosiy g‘oyalari:

1. O‘qitishning o‘z vaqtida ya’ni kishining fikri boshqa narsalarga bo‘linmasdan turib boshlash kerak.
2. Bolaning aqli o‘qitish uchun yetarli darajada tayyorlangan bo‘lishi lozim
3. O‘qitishda umumiydan xususiyga qarab borish lozim.
4. Osonroq narsalarni o‘rganishdan qiyinroq narsalarni o‘rganishga o‘tish kerak.
5. O‘rganiladigan material ko‘plik qilib, bolani qiynab qo‘ymasin.
6. Hamma narsani sekin asta o‘rgata borish lozim.
7. Bolaning yoshiga to‘g‘ri kelmaydigan narsalarni unga majburan o‘rgatmaslik kerak.
8. Hamma narsa tashqi sezgi organlari orqali idrok etilishi lozim .
9. O‘qitishni har doim bir xil usulda olib borish kerak.

Komenskiyning buyuk xizmatlaridan biri shundaki, u o‘rta asr davridagi maktablarning yaroqsizligini va xalqqa qarshi xarakterini ochib tashlash bilan birga, maktablar tizimini demokratik asosda qayta qurish yo‘llarini ham ko‘rsatib beradi. U maktab ta’lim tizimi prinsiplarini ushlab chiqdi. Uning asosiy bo‘g‘inlari va strukturasi belgilab berdi.

FOYDALANILGAN ADAIYOTLAR RO’YHATI

1. S. B. Allayorova (2023). Ta’lim samaradorligini o'stirishda integratsiya sharoitining didaktik imkoniyatlari. Mugallim, 1 (1), 213-218.
2. Jamoldinova, S. N. (2023). Shaxslararo munosabatlarda pedagogik nizolarning ahamiyati. Ta’limda raqamli tehnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari ” mavzusida o’tkazilgan respublika onlayn amaliy konferensiyasi, 1(15),112-117.
3. Jamoldinova, S. N. (2023). Kommunikativ qobiliyat-ta’lim-tarbiya jarayonidagi konfliktlarni bartaraf etish manbai sifatida. “Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendirio‘”, 1(1), 229-235.
4. Jamoldinova, S. N. (2023). O’qituvchining konfliktologik tayyorgarligining kasbiy faoliyatdagi ahamiyati. “Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendirio‘”, 1(1), 224-228.
5. Alibek Kaldibekov (2024). Use interactive methods and didaktic games to learn a foreign language. “Uchinchi Renessans poydevorini qo‘yishda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning nazariy va amaliy ahamiyati”. 284-286.
6. Musurmonov, R., Sharaxmatova A. K. (2021). Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik muloqot va uning ahamiyati xususida. Academic research in educational sciences, 2(10), 755-760.

Maktabgacha ta’limda rivojlanish markazlarning bolaning har tomonlama rivojlanishidagi ahamiyati

Ahmadjonova Dilorom Tursunboy qizi. NamDPI.
Maktabgacha ta’lim yo`nalishi 1-bosqich talabasi
E-mail: ahmadjanovadilorom9@gmail.com
Tel: +998 99 7480682

Annotatsiya: Ushbu maqolada rivojlantiruvchi markazlarni bolalarning har tomonlama yetuk rivojlanishidagi o`rni qay darajada muhim ekanligi va rivojlantiruvchi muhit bolalarning maktabgacha bo`lgan davrida qanday rol o`ynashi hamda ayrim markazlar bolalarga kelajakda ko`plab yutuqlarga ega bo`lishi uchun qanday imkoniyatlar yaratishi haqida so`z yurtiladi.

**Kalit so`zlar:** rivojlantiruvchi mazrkaz, o`yin, ta’lim, tarbiya, didaktik o`yin, rivojlantiruvchi muhit, bola, pedagog, jarayon, maqsad, ko`nikma, texnologiya.

The importance of development centers in preschool education in the comprehensive development of a child

Ahmadjonova Dilorom
NamSPI.Preschool educational course
1st Stage Student.
E-mail: ahmadjanovadilorom9@gmail.com

Tel: +998 99 7480682

Abstarct: This article will discuss to what extent the role of developing centers in the comprehensive mature development of children is important and what role the developing environment plays in children during their preschool years and what opportunities some centers provide for children to have many achieavemenities in the future.

Keywords: development center, game, education, upbringing, didactic game, development environment, child, educator, process, goal, skills, technology.

Значение центров развития в дошкольном образовании во всестороннем развитии ребенка

Ахмаджонова Дилором
НамГПИ. Дошкольный студент 1-й ступени
образавательного курса.
Электронная почта: ahmadjanovadilorom9@gmail.com
Тел: +998 99 7480682

Аннотация: В этой статье рассказывается о том,насколько важна роль развивающих центров в всестороннем взрослом развитии детей и какую роль развивающия среда играет для детей в дошкольном возрасте, а также о том,как определенниые центры предоставляют детям возможности для многих достижений в будущем.

Ключовые слова: развивающий центр, игра, обучение, воспитание, дидактическая игра, развивающая среда, ребенок, педагог, процесс, цель, технология.

Yurtimizda amalga oshirilgan ta’lim sohasidagi islohotlar, jumladan, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish, uning maqsad, vazifalari, ta’lim-tarbiyaviy faoliyatining asosiy g`oyalari, shuningdek, bolani ta’limning keng bosqichida o`tishdagi asosiy kopmpetensiyalarning tizimli va izchil harakteriga ega bo‘lishiga katta e’tibor qaratilmoqda. “Bolaning har tomonlama intellektual, estetik va jismoning rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarni maktabgacha ta`lim bilan qamrab olishni jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash va pedagog hamda mutaxassislarning malaka darajasi yuksaltirish” kabi muhim vazifalar belgilangan.

Respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarning innovatsion fikr va tasavvurlarini samarali shakllantirish, ta’lim mazmuni, shakl va mazmunini optimallashtirish, ta’lim tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. O`zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to`g`risida” gi qonunida “bolalarga ta’lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish hamda har tomonlama rivojlantirish maqsadida zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarni pedagogik innovatsion klasteri yordamida ularni boshlang`ich maktab ta’limiga sifatli tayyorlash mazmuni va texnologiyasini takomillashtirish dolzarb yo`nalishlardan biri hisoblanadi.

Rivojlantiruvchi markazlar bolaning intelektual, emotsional, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga juda kata ta’sir ko`rsatuvchi omil hisoblanadi. Bu markazlar bolaning o`qish, o`rganish va boshqa ijtimoiy faoliyatlarini qo`llab-quvvatlash uchun turli xil o`quv va rivojlantiruvchi dasturlarni taklif etadi. Ular orqali bolaning kreativligi, muammolarni hal qilish qobiliyati, mantiqiy fikrlash va ijtimoiy ko`nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yaratilib, bolaning o`ziga bo`lgan ishonchi oshadi.

Rivojlantiruvchi markazlarda bolaning qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan interfaol o`yinlar va mashg`ulotlar taqdim etiladi. Bu esa bolaning ijtimoiy, hissiy, va kognitiv rivojlaninishiga yordam beradi, uning dunyoqarashini kengaytiradi va o`zligini shakllantirishda yordam beradi.

- ✓ markazlarda ta’lim berishda individual yondashuv usullari qo`llaniladi. Bu o`quvchilarning o`ziga xos ehtiyojlarini inobatga olishga yordam beradi, ya’ni har bir bolaga uning imkoniyatlariga mos ravishda ta`lim beriladi;
- ✓ ta’lim markazlari bolalarning o`ziaga bo`lgan ishonchini oshiradi va ularni mustaqi fikrlashga undaydi;

✓ ta’lim markazlarida bolalar vchi markazlarda bolaning o`zaro munosabatlar o`rnatish, guruhlarda ishalash va boshqalar bilan muloqot qilish kabi ko`nikmalarni rivojlantirishga kata etibor beriladi, bu esa uning ijtimoiy adabtasiyasiga va kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo`lib ulg`ayishiga yordam beradi. Markazlar ta’lim tizimining ajralmas qismi sifatida, bolalarning har tomonlama rivojlanishiga kata ta’sir ko`rsatadi. Ularning ta’lim tizimidagi o`rni quyidagi asosiy jihatlar bilan bog`liq:

✓ ta`lim markazlari(maktabgacha ta`lim muassasalari, boshlang`ish ta’lim markazlari) bolalarga kengaytirilgan ta’lim imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu markazlar orqali bolalar o`zlarining kognitiv, jismoniy va ijtimoiy ko`nikmalarini rivojlantiradilar;

✓ maktabgacha ta’lim markazlari bolalarga erta yoshda ilmiy asosda ta’lim berishni boshlshga yordam beradi, bu esa o`z navbatida ularning kelajakdagi muvaffaquyatlariga ta’sir qiladi;

✓ qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi; -ta’lim markazlarida ko`pincha interaktiv metodlar qo`llaniladi. Bu metodlar orqali bolalar amaliy mashg`ulotlar, o`yinlar, eksperimenlar orqali o`rganadilar. Shu tarzda bolalar faqat nazariy bilimlarni emas, balki mustahkam amaliy bilimlarni egallaydi;

✓ jamoada ishlash, o`zaro munosabatlar o`rnatish, ijtimoiy me’yorlarga rioya qilish kabi imkoniyatlarini o`raganadilar;

✓ bu esa ularning jamiyatga moslashishiga, o`z hissiyotlarini boshqarishiga va muammolarini hal

✓ zamonaviy ta’lim markazlarida innovatsion texnologiyalar, masalan, interaktiv doskalar, ta’lim dasturlari, onlayn kurslar va platformalar faol qo`llaniladi. Bu esa bolalar uchun ta’limni yanada qiziqarli va samarali qiladi;

✓ markazlar nafaqat ta’lim, balki sport, san’at, madaniyat va psixologik qo`llab-quvvatlash kabi sohalar bilan ham integratsiyalashgan. Bu, bolalarning umumiy rivjlanishiga xizmat qiladi va ularga har tomonlama taraqqiyot uchun sharoit yaratiladi;

✓ talim markazlari ta’lim tizimining sifatini oshirishga katta hissa qo`shadi. Ular pedagogic usullarni yangilash, ta`lim resurslarini samarali taqsimlash va o`quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish orqali umumiy ta’lim sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Markazlar ta`lim tizimining bir qismi sifatida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashda muhim rol o`ynaydi. Ular bolalarga nafaqat bilim va ko`nikmalarni o`rgatadi, balki ularni shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham hissa qo`shadi. Ta’lim markazlari orqali, bolalar o`zlarining imkoniyatlarini maksimal darajada oshirishlari uchun zarur sharoitlar yaratilib, ular kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam asosga ega bo`lishadi.

“Ilik qadam” davlat o`quv dasturi asosida maktabgacha ta’lim tashlkilotlarida quyidagi rivojlanish markazlari faoliyati yuritilishi nazaarda tutiladi:

- Qurilish va konstruksiyalash markazi;
- Syujetli-rolli o`yinlar va dramalashtirish markazi;
- Til va nutq,- Ilm-fan va tabiat markazi;
- San’at markazi.

Rivojlanish markazlari bolalarga o`zlarining shaxsiy ko`nikmalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta’lim-tarbiya jarayonini mustaqil individuallashtirish imkoniyatini beradi. Tarbiyachi – pedagoglar rivojlantish markazlarida bolalarning yordamchilari rolini o`ynaydilar, mashg`ulotlar olib boradigan joyda imkoniyatlar kengligini ta`min etadilar va har bir bola individual rivojlanishi darajasini egallay olgam holda faoliyat turlarini rejalashtiradilar. Kun tartibi turli mashg`ulot turlarini o`ziga qamrab olishi lozim: kichik guruhlarda birgalikda va tarbiyachi hamkorligida yakka tartibda (individual yoki tanlab olishni o`rganadilar, o`z qiziqish va qobiliyatlarini amalga oshiradilar). Bolalarning o`z tanlovlarini amalga oshirish, muammolarini hal etishi, atrofidagi kishilar bilan birgalikda harakat qilish, individual maqsad qo`yishi va unga erishishni bilishlari lozim. Faollik markazlarini tashkil etish va rahbarlik guruhlardagi markazlar shunday tarzda yaratilishi kerakki, u bolaga mustaqil tanlsh imkoniyatini bersin.[3.56.]

Har bir guruhda 5 ta markazlar bo`lib, ularning har birida izlanish va o`yinlar uchun yetarli miqdordagi materiallar saqlanadi. Qurilish va konstruksiyalash markazida turli hil va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo`lib, bolalar ulardan o`z fantaziyasiga tayangan holda inshootlar bunyod etadilar: misol uchun ko`rgan tarixiy obidalari, ular, garajlar, firma va shu kabilar. Qurilish bilan mashg`ul bo`lgan bolalar bu yerda juda ko`p narsalarni ozlashtirib oladilar. U bolalarning matematik qobiliyatlarini

rivojlantirishga ijtimoiy ko`nikmlarni egallashga yordamlashadi, muammolarini hal etish tajribasini beradi. Bu yerda, shuningdek ijodiy yondashishni namoyon etish va bajariladigan ishga diqqatini jalb etishni o`rganish mumkin.

Markazlardagi rivojlantiruvchi muhit esa bolalarning yosh imkoniuyatlari, jindiy moyilliklari va qiziqishlarini hisobga olgan holda yaratilishi va kun davomida bola o`ziga yoqadigan narsani topa oladigan tarzda tuzilishi kerak. Materiallarni, didaktik o`yinlarni, qo`llanmalarni, bolalar adabiyotini tanlashda bolalarning turli darajadagi rivojlanishi xususiyatlarini hisobga olish va har bolaning ijobiy rivojlanishi uchun kerakli tuzatishni amalga oshirishga yordam berishi kerak. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlanish muhiti nafaqat bolalarni keyingi ta’limga tayyorlaydigan alohida mavzuli (tematik) burchaklar va zonalar to`plami, balki bolaning (yashash joyi) bo`lib, u vaqtning muhim qismini u yerda o`tkazishi mumkin. G`oyalarni, qiziqishlarni amalga oshirish. Atrof-muhit va qulaylik xavfsizligiga ega yaxshi guruhning ichki qismining uy muhiti bilan o`xshashligi orqali erishiladi. Bu davlat tashkilotlari ta’siri ostida yuzaga keladigan stressdan halos bo`lishga yordam beradi, xavfsizlik, ishonch hissini yaratadi, bolaning muvaffaqiyatli shaxsiyva intellektual qobiliyatlarini shakllantiradi.

Markazlarda bolalar o`zlarini qulay va xavfsiz his qilishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bolalar turli markazlarda turlich ta’lim va tarbiya olishadi, masalan, bola qurish-yasash , konstruksiyalash va matematika markazida turli binolar qurishni o`rganadi yoki jihozlar yasashni mustaqil ravishda o`rganishga urinadi. Markaz orqali bolalarda sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi. Bola bir vazifani bajarish orqali ham qurish, yasash, ham matematika bilan shug`ullanish imkoniga ega. Til va nutq markazida esa nutqi ravonlashadi, u yerda turli didaktik o`yinlar va qiziqarli metodlar bilan bola nutqini rivojlantiriladi. Markazda bolalarning do`stlari orasida o`z fikrlarini bera olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol javoblar qilish, bolalarcha suhbatlar tashkil etish imkoniyati mavjud. Boladagi ko`pchilik orasida tortinchoqlik odatlari kichik guruhlarda ishlash jarayonida yo`qola boshlaydi. Syujetli-rolli o`yinlar va sahnalashtish markazida bola mustaqi rol ijro etishni organadi, misol uchun, biror multfilm va yoki ertak qahramonlari obrazlarini bola o`zi sahnalashtirish qobiliyatlari shakllantiriladi. Markazni bolalar iqtidorini namoyon bo`lishiga, o`z mahoratini ko`rsatishi uchun juda qulay muhit. Bu markazni bolaning “Men” ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. O`yinlarda oila a’zolarining o`zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali axloqiy tabiya olish imkoni mavjud. Fan va tabiat markazida bolaga tabiatda qaysi vaqt tabiat qanday bo`lishi ya’ni, kuzda burglar sarg`ayishi yoki bahorda gular ochilishi, yoxud qishda oppoq qor yog`ishi kabi tabiat hodisalarini organadi. Tajriba sinov maydonchasida o`tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg`otadi va yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markazda bolalar bilan to`g`ri ishlansa bola tabiat haqidagi 90% bilimni shu yerda olishi mumkin. San’at markazida esa bolaga rasmlar chizishi yoki applikatsiyalardan tog`ri foydalanish va chizilgan rasmlarni bo`yash kabilar o`rgatiladi. San’at markazida bolalarni kayfiyatini ko`tarish imkoni mavjud. Bu markazda boalning ijodiy qobiliyatlarini qo`llab-quvvatlanadi. Markazda ishlash orqali bolaning mayda motorikasi rivojlanadi. Mayda motorikaning rivojlanishi esa, bolaning nutqini rivojlanishiga sabab bo`ladi.

Markaz nafaqat bolalar balki pedagoglarda ham qiziqish uyg`otadi. Markazda olib borilayotgan turli tajribalar orqali bolalar jismlarning foydali va zarar tomonlarini bilib olish imkoniyatiga ega. Hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qayerdan kelganliigi, ularni nimadan olinganligi haqida bilimlarni olish orqali ularga bo`lgan munosabatlari ijobiy tomonga o`zgaradi.

Masalan nonni dasturxonimizga kelishi, paxtanng chigitini ezish orqali undan yog` chiqishini bilish, tarvuzning urug`ida yog`ning yo`qligini, piyozning ildizi bilan stakandago suvga solib qo`yilsa uni o`sishi, urug`larni tuvaklarga sepish orqali ularni unib chiqishini ko`rish bolalar uchun juda qiziqarli.

Rivojlanish markazlaridagi tematik, didaktik, materiallar bolaning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga xizmat qilishi kerak. Markazlarning dizayni estetik, bolalar uchun jozibali va qiziqarli bo`lishi kerak va mustaqil faoliyatga bo`lgan istakni keltirib chiqarishi kerak. Guruh xonasida rivijlanish markazlarini yaratishda o`yin faoliyatining yetakchi rol o`ynashini ham hisobga olish kerak. Rivojlanish markazlaridagi jihozlar xavfsiz va didaktik materiallar bolaga tegishli va mos bo`lishi hamda bolalarning yoshiga mos bo`lishi kerak. Guruhda bola uchun foydali va 5 ta markazlar orqali ta’lim olishi uchun didaktik o’yinlar muhimdir. Misol uchun quyidagi didaktik o`yin orqali bolada mehr tuyg`usini shakllantiriladi:

“Ilk qadam” davlat o’quv dasturida belgilangan rivojlantiruvchi muhitni mukammal tarzda tashkil etishda ma’lum bir ta’limiy o’yinlardan foydalanish mumkin. Masalan “Mehr surati” nomli didaktik o’yini

bunga yorqin misol bo’lishi mumkin. Mazkur faoliyat bolada “mehr” his tuyg’usini tuyishi va shakllantirilishi uchun rasm chizdirish ko’rinishida o’tkazilishi mumkin. Bunda bola o’z his-tuyg`ularini bitta rasmda aks ettirishga urinadi. Bunday didaktik o’yin bilan bola 5 ta markaz bo`yicha bilim oladi. Masalan, rasm chizish orqali san’at makazida faoliyat olib boradi, rasmdagi qahramonlarning ko`rinishini tasavvur qilganda bolada sahnalashtish va dramalashtirish kabi ko`nikmalar paydo bo`ladi, bu qahramonlarning ko`p yoki kamligini sanash orali qurish-yashash va matematika markazidagi elementar matematika mashg`uloti bilan shug`ullanadi, rasmdagi atrof-muhit ya’ni tabiatdagi qanday hodisani tasvirlashi esa bolada fan va tabiat haqida tushunchalarini yoritib beradi. Rasmdagi hodisani tushuntirib berish orqali nutqi ravonlashadi.

Bolaning rivojlanishi markazlar bilan yanada samaraliroqdir. Markazlarda bolalar uchun yaxshi va kerakli bo`lgan jihozlar bo`lishi maqsadga muvofiq. Markazlar bolalarning turli qobiliyatlarini ochib beradi va ularni yanada mustahkam rivojlantiradi. Maktabgacha dastlabki bilimlar va ko`nikmalar shakllantiriladi. Bolalarning qiziqishlariga qarab qobiliyatlarini maqsadli yo`naltiriladi. Eng asosiysi bola markazlarda o`zini qulay va xavfsiz his qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Ilk qadam” davlat o`quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr)- T.: 2022
2. O`zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablari- T.: 2018
3. “Ilm yo`li” variantiv dasturi- T.: 2020
4. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi- T.: 1993
5. Maktabgacha pedagogika (o`quv qo`llanma)- T.: 2019
6. MH Asranbayeva, GS Ibrohimova THE FIRST STEP IS THE ROLE OF THE STATE CURRICULUM IN ORGANIZING THE PEDAGOGICAL PROCESS Miasto Przyszłości 41, 269-270
7. GS Ibrohimova MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDAGI PEDAGOGIK JARAYONLARNI YANADA TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI ILG’OR PEDAGOGIK TEHNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MAZMUNI PEDAGOGS 69 (1), 92-95
8. Асранбоева, М. Х. (2016). Формирование стрессоустойчивости у учащейся молодёжи вузов. NovaInfo. Ru, 2(42), 257-260.
9. Rus pedagogika ensiklopediyasi. - M., 1993.
10. Xalimjanovna, A. M. (2024). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiyaviy faoliyatlarni tashkil etishga zamonaviy yondashuv ta’lim bilan amaliyot integratsiyasi. Science and innovation, 3(Special Issue 31), 451-454.
11. Асранбоева, М.Х. ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ РОДИТЕЛЬСКИХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ НА ОБРАЗОВАНИЕ ДЕТЕЙ. ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ, 14.
12. Xalimjanovna, A. M. (2022). EDUCATION OF CHILDREN IN THE WORKS OF OUR GREAT SCIENTISTS. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 4, 45-49.

SAVODXONLIKKA O‘RGATISH MASHG‘ULOTLARIDA BOLALARNING TAYANCH-KOMPETENSIYALARIGA INTEGRATSION YONDASHUVNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Zokirjonova Laylo Barkamol qizi
Namangan davlat pedagogika instituti 70110201- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
E-mail: zokirjonovalaylo369@gmail.com
Tel: +99877-256-55-16
Tursunaliyeva Dildoraxon Abdurasul qizi
Namangan davlat pedagogika instituti 70110201- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
E-mail: dildorak266@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda savod o‘rgatish jarayoniga kompleks va integratsion yondashuvning didaktik imkoniyatlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan ta’lim sifatini oshirishga doir islohotlar, “Ilk qadam” davlat dasturi doirasida belgilangan maqsad va vazifalar asosida, savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha amaliy yondashuvlar yoritilgan. Maqolada so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratish, tovushlarni aniqlash, fonetik tahlilga oid ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi interaktiv o‘yin metodlarining didaktik ahamiyati o‘rganiladi.

Аннотация: В статье научно проанализированы дидактические возможности комплексного и интегративного подхода к процессу обучения грамоте в формировании базовых компетенций у детей дошкольного возраста. Освещены реформы по повышению качества образования, выдвинутые нашим Президентом, цели и задачи, поставленные в рамках государственной программы “Первый шаг”, практические подходы к развитию грамотности. В статье рассматривается дидактическая ценность интерактивных игровых методов, способствующих формированию навыков деления слов на слоги, выделения звуков, фонетического анализа.

Annotation: This article analyzes the didactic possibilities of a complex and integrated approach to the process of teaching literacy in the formation of basic competencies of preschool children on a scientific basis. Based on the reforms put forward by our President to improve the quality of education, the goals and objectives set within the framework of the “First Step” state program, practical approaches to the development of literacy are highlighted. The article studies the didactic value of interactive game methods that serve to divide words into syllables, identify sounds, and form skills related to phonetic analysis. Место для уравнения.

Kalit so‘zlar: Savodxonlik, maktabgacha ta’lim, tayanch kompetensiyalar, didaktik imkoniyatlar, “Ilk qadam” dasturi, integratsion yondashuv, interaktiv metod, bo‘g‘inli o‘yinlar, fonetik ko‘nikma.

Ключевые слова: Грамотность, дошкольное образование, базовые компетенции, дидактические возможности, программа “Первый шаг”, интегративный подход, интерактивный метод, слоговые игры, фонетические навыки.

Key words: Literacy, preschool education, basic competencies, didactic opportunities, “First Step” program, integrative approach, interactive method, syllabic games, phonetic skills.

Maktabgacha ta’limda bolani har tomonlama rivojlantirish, uning umumiy o‘rta ta’limda erishiladigan sezilarli yutuqlariga asos bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim tizimi to‘g‘risida prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘zlarining nutqlarida ta'lim-tarbiya jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash va yangi avlodni zamonaviy texnologiyalar bilan rivojlantirish zarurligi ta'kidladilar. Prezidentimiz ta’lim tizimini rivojlantirishni millatning kelajagini belgilovchi asosiy masala deb biladilar, bolalarni intellektual va jismoniy rivojlantirish, shuningdek, sifatli kadrlar tayyorlash masalasini muhim vazifa deb e'lon qildilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va o‘qituvchilar malakasini oshirishni ham davlatning ustuvor yo‘nalishlari qatoriga kiritganlar. Shuningdek, Prezidentimiz yangi maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etishda davlat-xususiy sherikchilikni kuchaytirish va bolalarni qamrovini oshirish uchun barcha viloyatlarda tijorat banklarini jalb etish kabi iqtisodiy mexanizmlarni yo‘lga qo‘yish zarurligini ham qayd etadilar[1]. Shu kabi choralar orqali, Prezidentimizning ta'kidlashlaricha, mamlakatda ta’lim va tarbiya sifati yaxshilanib, sog‘lom, o‘qimishli avlod yetishtirishga erishiladi.

Bundan tashqari 2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ning to‘rtinchi “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” yo‘nalishining 38-39-40-maqsadlarida ilg‘or islohotlar rejasini ko‘rishimiz mumkin[2].

Maktabgacha ta’lim va tarbiya — bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’limning boshlang‘ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otib, tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi[3]. Maktabgacha ta’limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o‘qishga tayyorlash, bolani sog‘lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo‘lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o‘qishga, tizimli ta`limga bo‘lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Bolalarni maktabga tayyorlashda ularning savodxonligini oshirish muhim jarayoni hisoblanadi.

Savodxonlik insonning muloqot qilish, fikr almashish va axborot olish jarayonidagi eng muhim ko‘nikmalaridan biridir. Bugungi kunda ta’lim jarayonida savodxonlikka o‘rgatish orqali nafaqat o‘qish va yozish, balki mantiqiy fikrlash, muloqot qilish, mustaqil qaror qabul qilish kabi tayanch kompetensiyalarni shakllantirish zarurati ham ortib bormoqda. Integratsion yondashuv esa bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi, chunki u bir nechta fan yoki faoliyatlarni o‘zaro bog‘lash orqali bolalarning turli kompetensiyalarini birgalikda rivojlantirish imkonini beradi[4].

Ilk qadam davlat dasturida maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun bolalarni tayanch-kompetensiyalariga o‘rgatish bo‘yicha ko‘plab talablar va yo‘nalishlar belgilab berilgan. Dasturda savodxonlikni rivojlantirish hamda bolalarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishga oid quyidagi asosiy jihatlar keltirilgan. Ilk qadam davlat dasturida maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘z-o‘zini anglash, muloqot qilish va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim deb belgilanadi[5]. Bolalarni yosh davriga mos holda mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va boshqalar bilan muloqot qilish ko‘nikmalari ustida ishlashga katta e’tibor qaratiladi.

Didaktik imkoniyatlar — bu ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan metod, vosita, uslub va yondashuvlarning o‘quvchilarni samarali o‘qitish va o‘rgatishdagi imkoniyatlari, ya’ni pedagogik jihatdan ta’sirchanligi va foydaliligi degan ma’noni anglatadi. Oddiyroq qilib aytilganda, didaktik imkoniyatlar — bu qandaydir metod yoki yondashuv orqali bilim berish, ko‘nikmalarni shakllantirish va tarbiyaviy maqsadlarga erishish yo‘llarining samaradorlik darajasi hisoblanadi ya’ni savod o‘rgatishda o‘yinli metoddan foydalanilganda, bu metodning didaktik imkoniyati —bolalarni aktivlashtirish, qiziqtirish va savod ko‘nikmalarini kuchaytirish bo‘ladi. Misol qilib quyidagi o‘yinli metodlarni ko‘rib chiqamiz:

“Piramida” o‘yini

Ushbu o‘yinda tarbiyachi bolalarga bugun ular so‘z piramidasini qurishlarini tushuntiradi. Piramidaning pastki qatorida siz uchta bo‘g‘indan iborat so‘zlarni joylashtirishingiz kerak, masalan: ma-li-na; ikki bo‘g‘inli ikkinchi qatorda: ba-liq; yuqori qatorda esa bo‘g‘inlarga bo‘linmagan so‘z. Tarbiyachi bolani doskaga chaqiradi va unga bir nechta rasm beradi (3-4). Biri bir bo‘g‘inli, ikkitasi ikki bo‘g‘inli, biri uch bo‘g‘inli so‘z. Bola predmetlarning nomlarini bo‘g‘in bo‘yicha talaffuz qiladi va “Bo‘g‘in piramidasi”ni tuzadi. Boshqa barcha bolalar piramida to‘g‘ri qurilganligini tekshiradilar. Keyingi talaba yangi rasmlarni oladi. Ushbu o‘yin orqali bolalarni so‘zlardagi bo‘g‘inlar sonini aniqlashga o‘rgatiladi.

“So‘zdagi tovush o‘rnini toping” o‘yini

Ushbu o‘yinda doskaga avtobus, libos va kitob suratlari osilgan. Tarbiyachi bolalardan tasvirlangan narsalarni nomlashni so‘raydi. Barcha ob'ektlarning nomlarida bir xil tovush qanday eshitilishini so‘raydi. To‘g‘ri ovoz “A”. Bu tovush barcha predmetlarning nomlarida bo‘lsa-da, tarbiyachi tushuntirayotgan so‘zlarda turli o‘rinlarda eshitiladi, biri “A” tovushi bilan boshlanadi, ikkinchisida “A” tovushi o‘rtada, uchinchi so‘z esa shu tovush bilan tugaydi. “So‘zdagi tovush o‘rnini toping” o‘yini orqali bolalarni so‘zdagi tovush o‘rnini (boshida, o‘rtasida yoki oxirida) topishga o‘rgatishga erishiladi.

“Havaskor bog‘bonlar” o‘yini

Ushbu o‘yinda tarbiyachi bolalarni gulzorga gul ekishga taklif qiladi. U ularga gullar rasmlari bilan kartalarni beradi. Ularning oldiga uchta chiziqli matn terish tuvagini osib qo‘yadi. Bolalarni “Gulzorga gullar ekish” ga taklif qiladi: birinchi, yuqoridagi gullar, nomlari ikki bo‘g‘indan iborat gullar. O‘rtadagi gullar, uchta bo‘g‘indan iborat nomlari. To‘rtta bo‘g‘indan iborat bo‘lgan gular nomlari pastda. O‘qituvchi bolalarni birinchi navbatda yuqori qator, keyin o‘rtada va nihoyat pastki qismida gullar ekishga chaqiradi[6]. Ushbu o‘yin orqali bolalar gullarning nomlarini talaffuz qiladilar va ularning to‘g‘ri ekilganligini aniqlaydilar hamda so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lishni o‘rganadilar.

Xulosa qilib aytganda, savodxonlikni rivojlantirishda integratsion yondashuvdan foydalanish orqali bolalarning nafaqat o‘qish va yozish, balki muloqot qilish, fikrlash, muammoni hal qilish va qaror qabul qilish kabi tayanch kompetensiyalari samarali shakllantiriladi. Bu borada o‘yinli metodlar, didaktik vositalar, faol ta’lim texnologiyalari muhim didaktik imkoniyatlarni yaratadi. Bolalarning yoshiga mos, ularni qiziqtiradigan o‘yinlar orqali savod o‘rgatish jarayoni osonlashadi, mazmunan boyiydi va samaradorligi ortadi. Integratsiyalashgan yondashuv asosida tashkil etilgan savodxonlik mashg‘ulotlari bolalarning asosiy kompetensiyalarini shakllantirishda, ularni maktabga tayyorlashda va keyingi bosqichdagi ta’lim jarayonida yuqori natijalarga erishishiga mustahkam zamin yaratadi. Bu esa o‘z navbatida jamiyatda sog‘lom, bilimli, mustaqil fikrlovchi, ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi https://zamon.uz/.
2. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi 28.01.2022-yildagi PF-60-son
3. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 4.04.2019
4. Karimova, Z. “Savodxonlikka o‘rgatish jarayonida integratsion yondashuvning o‘rni va ahamiyati”. O‘zbekiston pedagogika jurnali (2021)
5. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi
6. Сборник дидактических игр по обучению грамоте для детей старшего дошкольного возрастав рамках деятельности кружка по обучению грамоте “Букварёнок” (для детей подготовительной группы) О.А. Туливетровас. Кухаривка 2020г

Yangi O‘zbekiston yoshlari o‘rtasida ma’naviy-axloqiy tarbiya hamda milliy qadriyatlarni uyg‘un holda shakllantirish bosqichlari

Sevara Matqurbonova
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston yoshlari o‘rtasida ma’naviy-axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlarni uyg‘un holda shakllantirish jarayonining bosqichlari tahlil etilgan. Yoshlarga ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish, milliy an’analar, urf-odatlar va madaniyatni anglashning ahamiyati, shuningdek, ta’lim tizimida bu qadriyatlarni singdirish borasidagi amaliy tavsiyalar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, integratsiya, ijtimoiy faollik, faol fuqarolik pozitsiyasi, mehnat tarbiyasi, ta’lim va ma’rifat uyg‘unligi.

Abstract: This article analyzes the stages of the process of harmonious formation of spiritual and moral education and national values among the youth of New Uzbekistan. The importance of teaching young people spiritual and moral values, understanding national traditions, customs and culture, as well as practical recommendations for instilling these values in the education system are discussed.

Keywords: national values, spiritual and moral education, integration, social activism, active civic position, labor education, harmony of education and enlightenment.

Аннотация: В данной статье анализируются этапы процесса гармоничного формирования духовно-нравственного воспитания и национальных ценностей у молодежи Нового Узбекистана. Будет обсуждаться важность воспитания у молодежи духовно-нравственных ценностей, понимания национальных традиций, обычаев и культуры, а также практические рекомендации по привитию этих ценностей в системе образования.

Ключевые слова: национальные ценности, духовно-нравственное воспитание, интеграция, общественная деятельность, активная гражданская позиция, трудовое воспитание, гармония образования и просвещения.

Bugungi globallashuv davrida mamlakatlar taraqqiyoti yoki aksincha tanazzulga yuz tutishi shu yurtda voyaga yetayotgan yosh avlodning bilim, saviyasiga hamda tarbiyasiga bog‘liq. O‘sib kelayotgan mamlakat tayanchlari har tomonlama mukammal, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan lider shaxs bo‘lib shakllansa, u yurtga hech qanday xavf tahdid sola olmaydi. Bizning yurtimizda ham yoshlarning ilm olishlari, o‘zlarini barkamol shaxs sifatida shakllantirishlari uchun barcha imkoniyat hamda shart-sharoitlar mavjud. Bu borada mamlakatimiz prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev quyidagicha fikr bildirgan: “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin”[1].

1-bosqich: *Milliy qadriyatlar bilan yaqindan tanishtirish* – ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishning dastlabki bosqichi yoshlarni milliy qadriyatlar bilan tanishtirishdir. O‘zbekistonning boy

tarixiy va madaniy merosi, xalqimizga qadim davrdan beri hamroh bo‘lib kelayotgan milliy an’analar hamda urf-odatlar yoshlarimizning dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlar o‘z ichiga millatimiz faxri hisoblangan davlat tilimizni, xalqimizning tarixiy-an’anaviy san’atini hamda bir qancha milliy bayramlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Barchamizga sir emaski, mustaqillik davrigacha milliy o‘zlikni anglashga bo‘lgan intilish johilona inkor etilib kelindi. Amir Temur, Ahmad Yassaviy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Najmiddin Kubro kabi buyuk ajdodlarimizning, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Usmon Nosir singari milliy-ozodlik harakati fidoyilarining nomlarini xalqimiz xotirasidan o‘chirib tashlashga harakat qilinar edi. Bugungi kunda mustaqillik tufayli ularning nomlari, milliy-ma’naviy qadriyatlarimiz tiklanib, o‘zligimizni chuqurroq anglab bormoqdamiz. Bugun yoshlar o‘z milliy tarixini o‘rganish bilan bir qatorda zamoniy bilimlarni ham egallamoqdalar. “Bugun yoshlar shunchaki milliy-ma’naviy qadriyatlarni o‘rganib qolayotgani yo‘q, Ular dunyo xalqlari erishgan yutuqlardan bahramand bo‘lmoqda.Xorijiy davlatlarda o‘qish, bilim olib fan-texnika yutuqlari, ilg‘or texnologiyalarni egallab jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga joriy etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar”[2].

Haqiqatan ham Yangi O‘zbekistonni qurish va uning mustahkam asoslarini yaratish jarayonida yoshlar alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlarga ta’lim berish, ularni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, milliy qadriyatlarni anglash va ularga hurmatni oshirish – jamiyatni barqaror rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Bugungi kunda yoshlarimizning ta’lim olish jarayonida nafaqat ilm-fan, balki axloqiy va ma’naviy qadriyatlar ham shakllanishi zarur. Yoshlar o‘rtasida ma’naviy-axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlarni uyg‘un holda shakllantirishning bosqichlarini aniq belgilab olish maqsadga erishish yo‘lida bir qancha qulayliklar yaratadi.

2-bosqich: Axloqiy qadriyatlar hamda mas’uliyatni shakllantirish – Ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonida yoshlarni axloqiy qadriyatlar bilan tanishtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu bosqichda ularni jamiyatda to‘g‘ri munosabatlarni o‘rnatish, halollik, mehnatsevarlik, adolat, mas’uliyat va shu kabi bir qancha axloqiy standartlarni hayotga tatbiq etish zarurati bo‘yicha tarbiyalash kerak. Yoshlar o‘rtasida o‘zaro hurmatni shakllantirish, jamoa bilan ishlash va ijtimoiy mas’uliyatni his qilish orqali ularning jamiyatdagi rolini mustahkamlash mumkin.

3-bosqich: Ijtimoiy hayotga moslashuv hamda mehnat tarbiyasini shakllantirish - Yoshlarni ijtimoiy hayotga integratsiya qilishda ularga mehnat tarbiyasi, kasbiy mahorat va jamiyatda o’z o’rnini topish kabi masalalar katta ahamiyatga ega.

Ijtimoiy integratsiya – bu yangi kelganlar va ozchilikning mavjud jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga qo‘shilish jarayoni [3].

Ijtimoiy moslashuv jarayonida yoshlarimiz o‘zlarining qobiliyatlarini rivojlantirish hamda yangi sharoitlarga moslashish uchun immunitet hosil qiladilar. Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlariga mos keladigan kasb-hunarlarni egallash, har sohada raqobatbardosh bo‘lish shu bilan birgalikda o‘z mehnatini qadrlashga ham o‘rgatish zarur. Buning uchun esa ta’lim tizimida kasbiy tayyorgarlik, mehnat tarbiyasiga qaratilgan dasturlarni joriy etish zarur. Yoshlar o‘rtasida kasbiy tayyorgarlik, mas’uliyat hamda mehnatsevarlikni shakllantirish, ularni har tomonlama mukammal, jismoniy va ruhiy jihatdan sog‘lom etib tarbiyalash davlatimizning bosh maqsadi ekanligi har bir fuqaro uchun quvonarli holat.

4-bosqich:Ijtimoiy faollik, yoshlar ongida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish – Yoshlar o’rtasida ijtimoiy faollikni oshirish, jamiyatga xizmat qilishning ahamiyatini tushuntirish, ularni mustaqil fikrlashga undash bu jarayonning yana bir muhim bosqichidir.Milliy qadriyatlar asosida jamiyatga xizmat qilish, xalq farovonligi va tinchligi uchun ishlash, o’z jamiyati uchun foydali shaxs bo’lish tuyg’usi yoshlarimizni yanada faollikka undaydi. Buning uchun esa yoshlar ijtimoiy loyihalar, tadbirlar va volontyorlik faoliyatlarida ishtirok etishlariga imkon yaratib berish zarur. Yoshlarni ijtimoiy faollikka undash va ularga jamiyatning rivojlanishiga hissa qo’shishning ahamiyatini tushuntirish ularning faol fuqarolik pozitsiyasini egallashlariga yaqindan yordam beradi.

Ijtimoy faollik deganda, bir yoki ikki narsani tushunish hatto, mening fikrimcha ijtimoiy faollik atrof-muhit, siyosiy jarayonlarni kuzatib baho berish, ko’plab takliflar keltirish, chet el metodlarini O’zbek milliy modeliga moslashtirish, tarixdan kelib chiqib o’zgartirishlar kirgizish, katta rejalar tuzib uni amalga oshirish uchun teoriya yaratib rejaga og’ishmay rioya qilish[4].

5-bosqich: Ta’lim va ma’rifat orqali ma’naviy yuksalish – Ta’lim jarayonida yoshlar nafaqat ilmiy bilimlar, balki ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni ham uyg’un holda o’rganishlari zarur. O’quv jarayonida ma’naviy yuksalish, axloqiy qoidalarga rioya qilish va jamiyatda adolat, tenglikni ta’minlash asosida ta’limni tashkil etish lozim. Bu jarayonda ilm-fan bilan birga ma’naviyatni ham rivojlantirish yoshlarni barkamollik sari yetaklaydi. Shuningdek, ta’lim muassasalarida muayyan qadriyatlar, masalan, o‘zlikni anglash, mustaqil shaxs sifatida fikrlash va milliy qadriyatlar asosida ta’lim berish zarur. Yoshlarni ma’naviy va axloqiy tarbiya orqali yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish bu bosqichning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, Yangi O‘zbekiston yoshlari o‘rtasida ma’naviy-axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlarni uyg‘un holda shakllantirish jarayoni jamiyatni rivojlantirishning muhim omilidir. Yoshlar o‘rtasida milliy qadriyatlar, axloqiy mas’uliyat, mehnat tarbiyasi va ijtimoiy faollikni shakllantirishning aniq bosqichlarini belgilash, ularga mustahkam ma’naviy asos yaratadi. Bu jarayon yoshlarimizni ma’naviyatli, axloqiy qarashlarga ega, o‘z xalqiga sadoqatli va mustaqil fikrlaydigan shaxslar etib tarbiyalashga yordam beradi. Kelajakda ular jamiyatning yetakchi kuchi bo‘lib, o‘zaro hurmat va adolatga asoslangan, barqaror va farovon O‘zbekistonni qurishga o‘z hissalarini qo‘shadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.standart.uz/ru/news/view?id=963
2. Madaliyeva Z. Huquqiy madaniyat va yoshlar. – T.: “Akademiya”, 2020. 5-bet.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy_integratsiya
4. https://uzbekistan.ureport.in/story/1791/
5. Sh.Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashr. – T: O‘zbekiston» nashriyoti, 2022.
6. Dilova N.G. (2021). Ajdodlarimiz merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarga ta’lim-tarbiya berishning ahamiyati. Science and Education. Vol. 2, Issue 10.
7. Ibragimov G.X. Kasb ta’limi tizimida milliy istiqlol g‘oyasi asosida talaba-yoshlar ma’naviyatini shakllantirish: Ped. fan. dokt. diss.... avtoreferati.– T, 2005.

PEDAGOGIKA VA TA’LIM OLISHNING ZAMONAVIY USULLARI – YOSHLARNI YETAKCHILIK VA TADBIRKORLIKKA YO’NALTIRISHNING TA’LIMIY JIHATLARI

Rahimov Sobirbek Jamoliddin o'g'li,
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Talaba
Pochta: rakhimovsobirbek17@gmail.com
Telefon raqam: +998505701217

Annotatsiya. *Mazkur tezisda zamonaviy ta’lim uslublarining yoshlar yetakchiligi va tadbirkorlik salohiyatini shakllantirishdagi roli yoritiladi. Shu bilan birga, pedagogik yondashuvlarning amaliyotga yo‘naltirilgan shakllari, xalqaro va mahalliy tajribalar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, pedagogika, innovatsion metod, tadbirkorlik, yetakchilik, STEAM, loyiha asosida o‘qitish, raqamli kompetensiyalar, yoshlar siyosati.*

Kirish

Zamonaviy jamiyatda ta’lim jarayoni faqat bilim berishga emas, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga, uni jamiyatga foydali yetakchi va tashabbuskor shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularni tadbirkorlik va yetakchilik faoliyatiga yo‘naltirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Shu sababli, ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar, zamonaviy metod va texnologiyalarning joriy etilishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlarni yetakchilik va tadbirkorlikka yo‘naltirishda zamonaviy ta’lim metodlarining o‘rni, ularning samaradorligini oshirish yo‘llari, xalqaro va mahalliy tajribalardan foydalanish bugungi kunda muhim ilmiy-amaliy muammolardan biridir. Mazkur jarayonda o‘quvchilarning faolligini oshiruvchi, ijodiy fikrlashini rag‘batlantiruvchi va amaliy ko‘nikmalarini shakllantiruvchi yondashuvlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda loyiha asosida o‘qitish, gamifikatsiya, STEAM yondashuvi va raqamli

texnologiyalar kabi metodlar muhim o‘rin tutadi. Ushbu usullar nafaqat bilim berish, balki o‘quvchini tashabbuskorlik, jamoaviy ish, mas’uliyat va mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatish orqali uni hayotga tayyorlaydi.

Asosiy qism

1. Ta’lim jarayonining zamonaviy metodlari

So‘nggi yillarda dunyo ta’lim tizimida quyidagi innovatsion yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda:

STEAM yondashuvi: Fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani integratsiyalashgan holda o‘rgatish orqali o‘quvchilarda tizimli fikrlash, ijodiy yondashuv va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Loyiha asosida o‘qitish (PBL): O‘quvchilar real hayotdagi muammolarni o‘rganib, ularga amaliy yechim topishga harakat qilishadi. Bu metod orqali tadbirkorlik g‘oyalari yuzaga chiqadi, jamoaviy ishga o‘rganish kuchayadi.

Gamifikatsiya: Ta’lim jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasi oshiriladi.

Raqamli texnologiyalar asosida ta’lim: Onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar, sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonlari moslashtirilmoqda.

2. Yetakchilik ko‘nikmalarini shakllantirish

Yetakchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagi yondashuvlar muhim:

Kommunikativ mashg‘ulotlar: Munozara, debat, jamoaviy muhokama mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarda fikrni asoslab berish, faol tinglash va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi.

Mas’uliyatli vazifalar: O‘quvchilarga kichik guruhlar rahbariyati, loyiha boshqaruvi kabi rollar topshirilishi ularning mas’uliyatini oshiradi.

Rol o‘yinlari va dramatik mashg‘ulotlar: Simulyatsion muhitda qaror qabul qilish, muammo yechish ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

Yetakchilik bo‘yicha treninglar: Maxsus dasturlar orqali, masalan, "Youth Leadership Training" loyihasi orqali nazariy va amaliy bilimlar beriladi.

3. Tadbirkorlik salohiyatini shakllantirish

Ta’limda tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari:

Tadbirkorlik asoslari fanini o‘qitish: O‘quv dasturlariga kiritilgan bu fan orqali talabalar biznes reja tuzish, marketing strategiyalari ishlab chiqish, moliyaviy savodxonlik kabi bilimlarni egallaydi.

Startap loyihalarini yaratish: Talabalar o‘z g‘oyalarini amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bunday loyihalar orqali ijodiy fikrlash, tavakkal qilish, boshqaruv ko‘nikmalari rivojlanadi.

Biznes-inkubatorlar va akselerator dasturlari: Oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan inkubatorlar orqali talabalar o‘z loyihalariga texnik, moliyaviy va maslahat yordami olishadi.

Mentorlik dasturlari: Tajribali tadbirkorlar tomonidan o‘quvchilarga maslahatlar berish orqali ularning amaliy ko‘nikmalari oshiriladi.

4. Mahalliy tajriba:

"Yoshlar-kelajagimiz" dasturi: Tadbirkorlik g‘oyalari bo‘lgan yoshlarga grant va kreditlar ajratilishi orqali amaliy qo‘llab-quvvatlash ta’minlanmoqda.

OTMlarda kredit-modul tizimida tadbirkorlik kurslari: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, TATU, Namangan muhandislik-texnologiya instituti kabi oliygohlarda tadbirkorlikka oid fanlar alohida modul sifatida ajratilgan.

5. Xalqaro tajriba

"Erasmus+" dasturi: "Entrepreneurial Skills for Youth" loyihasi orqali Yevropa mamlakatlarida yoshlarning startap ko‘nikmalari rivojlantirilmoqda.

"Junior Achievement USA": AQShda maktab o‘quvchilarini tadbirkorlikka o‘rgatish dasturi sifatida ishlaydi. Dastur o‘quvchilarni haqiqiy bozor sharoitida kompaniya tuzish, moliyaviy boshqaruv, marketingga o‘rgatadi.

UNESCO ta’lim dasturlari: Yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus metodik qo‘llanmalar va treninglar ishlab chiqilgan.

6. Muammolar va takliflar

Muammolar:

- Ta’lim tizimida amaliy mashg‘ulotlarga yetarlicha e’tibor berilmasligi;

- O‘qituvchilarning zamonaviy metodlarni yetarlicha bilmasligi;
- Moliyaviy resurslar va infratuzilmaning cheklanganligi

Takliflar:

- Ta’lim dasturlarini amaliyotga yo‘naltirish;
- O‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha tizimli treninglar;
- Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda grant va texnik yordam loyihalarini kengaytirish;
- Maktab va OTM larda innovatsion laboratoriyalar tashkil etish

Xulosa

Zamonaviy ta’lim metodlari yoshlarni yetakchilik va tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda asosiy vositaga aylanmoqda. Innovatsion yondashuvlar, loyiha asosida o‘qitish, raqamli texnologiyalar va xalqaro tajribalar asosida shakllanayotgan yangi ta’lim modeli nafaqat bilim, balki amaliy ko‘nikma, tashabbuskorlik va mustaqil fikrlashga asoslanmoqda.

O‘zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyotdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’lim tizimida chuqur islohotlar orqali yoshlarning salohiyati to‘liq ochiladi. Tezisda ko‘rsatilgan yondashuvlar va tavsiyalar asosida pedagogik strategiyalarni rivojlantirish, jamiyatda yetakchi va tadbirkor yoshlar qatlamini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mavlonova R., Karimova N. (2020). Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: TDPU nashriyoti.
2.UNESCO (2021). Transforming education for entrepreneurship.
3.European Commission (2020). EntreComp: The Entrepreneurship Competence Framework
4.Ziyayeva G. (2022). "Yoshlarni tadbirkorlikka yo‘naltirishda innovatsion ta’lim metodlari", Ilmiy tadqiqotlar jurnal
5.Journal of Education and Training Studies (2021). "Developing Leadership in Youth through Modern Teaching Methods"
6.Mukhitdinov, A. H. (2020). Interfaol metodlar yordamida ta'lim jarayonini optimallashtirish. Samarqand: SamDU nashriyoti
7.Erasmus+ Project: Entrepreneurial Skills for Youth.

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Tursunaliyeva Dildoraxon Abdurasul qizi
Namangan davlat pedagogika instituti 70110201- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
E-mail: dildorak266@gmail.com
Zokirjonova Laylo Barkamol qizi
Namangan davlat pedagogika instituti 70110201- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
E-mail: zokirjonovalaylo369@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi davrda innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi maktabgacha ta’lim sohasida ham katta o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu maqolada bolalarning o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qilish uchun raqamli vositalar, interaktiv dasturlar, virtual va to‘ldirilgan reallik, sun’iy intellekt kabi texnologiyalardan qanday foydalanish mumkinligi muhokama qilinadi.

Аннотация: Развитие инновационных технологий в современную эпоху также вызывает серьезные изменения в сфере дошкольного образования. В статье обсуждается, как можно использовать такие технологии, как цифровые инструменты, интерактивные программы, виртуальную и дополненную реальность, а также искусственный интеллект, чтобы сделать процесс обучения детей интересным и эффективным.

Annotation: In modern times, the development of innovative technologies is also bringing about major changes in the field of preschool education. This article discusses how technologies such as digital

tools, interactive programs, virtual and augmented reality, and artificial intelligence can be used to make the learning process of children interesting and effective.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, ta'lim, tarbiya, interaktiv dastur, sun'iy intelekt, texnologiya, pedagogik kompozitsiya

Ключевые слова: инновация, образование, воспитание, интерактивная программа, искусственный интеллект, технология, педагогическая композиция.

Keywords: innovation, education, upbringing, interactive program, artificial intelligence, technology, pedagogical composition.

Maktabgacha ta’limni tashkil etish sohasida ilg‘or xorijiy tajribani, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim va tarbiya berish sohasida innovatsion usullar va samarali pedagogik amaliyotlarni o‘rganish, davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatiga jalb etish va joriy etish bo‘yicha ishlarni doimiy asosda tashkil etish[1].

O‘z navbatida, tashabbus pedagogik kompozitsiya ota-ona jamoatchiligi, bolalar bog‘chasini o‘quvchilarning oilalari bilan o‘zaro ta'siri mexanizmlarini takomillashtirish zarurati, shuningdek, muhim ahamiyatga ega. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, shtatlardagi innovatsion texnologiyalar nafaqat mumkin, balki ehtiyoj ham. Biroq, buni yodda tutish kerak pedagogik texnologiyalar maktabgacha bolalarning o‘quv jarayonida qo‘llanilishi mumkin, bir nechta qat'iy talablar berildi. Bularga quyidagilar kiradi:

- Kontseptuallik, o‘quv jarayoni ma'lum ilmiy tushunchaga asoslanishi kerakligini anglatadi;
- Tizimga tegishli texnologiyalar, bu texnologiyalar tizimga xos bo‘lgan. barcha belgilarga ega bo‘lishi kerak. Ya'ni, ular yaxlit, mantiqiy va ularning elementlarining tarkibiy qismlari bo‘lishi kerak o‘zaro bog‘liq;
- Ishlov berish pedagogik jamoa muayyan maqsadlarni belgilash, o‘quv jarayonini rejalashtirish, ish jarayonida, bir yoki boshqa lahzalarni tuzatish imkoniyatini tushunish kerak;
- Reproduktivlik bu talabga nisbatan qo‘llaniladigan o‘qituvchi shaxsidan qat'i nazar, texnologiyani teng darajada samarali bo‘lishi kerak[2].

Maktabgacha yoshi bu bolaning atrofida dunyoni faol o‘rganadigan davr. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘zlarining psixologik rivojlanish xususiyatlariga ega. Yurish boshlaganida, bola juda ko‘p kashfiyotlar qiladi, xonada, ko‘chada, bolalar bog‘chasida joylashgan narsalar bilan tanishadi. Turli narsalarni yig‘ish, ularni o‘rganish, mavzudan kelib chiqqan tovushlarni tinglash, bu ob'ektning qaysi fazilatlari va xususiyatlari borligini biladi. Ushbu davrda bolaning effektiv fikrlash shakllari yaratilgan, 5-6 yoshligida bola, barcha ma'lumotlarni so‘raydi. Olimlar ushbu yoshlik davrida bolaning bu ma'lumotni esga olishini, bundan keyin u hayotda hech qachon eslamasligini isbotladi. Bola ufqlarini kengaytira oladigan har qanday narsaga qiziqish uyg‘otadigan davrdir va bu uning atrofidagi dunyoni qo‘llab-quvvatlaydi.

Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi yoshlar xotirjamlik hissi bilan ajralib turadi. Ularning kichik sabablarga ko‘ra ziddiyatlari va kuchli affektiv epizootiyalari yo‘q. Biroq, bu bolaning hissiy hayotining to‘yinganligi pasayadi degani emas. Bola juda ko‘p his-tuyg‘ularga to‘lib ketadi, shuning uchun kechqurun bola charchagan va to‘liq charchash uchun keladi. Bu davrda hissiy jarayonlarning tuzilishi ham o‘zgaradi. Ilgari motorli va vegetativ reaktsiyalar maktabgacha yoshdagi bolalarda saqlanib qolgan emotsional jarayonlarga kiritilgan, ammo hissiyotlarning tashqi ifodasi yanada cheklangan shaklga ega bo‘ladi.

Maktab o‘quvchilari nafaqat bugungi kunda qilayotgan ishidan, balki kelajakda nima qilishidan ham xafa bo‘lib, xursand bo‘lishadi. Presedrga tegishli bo‘lgan har bir narsa rasm, o‘yin, qolib tuzish, onaga yordam berish, uy ishlarini bajarish yorqin hissiy rangga ega bo‘lishi kerak, aks holda narsalar tezda yiqilay yoki umuman bo‘lmaydi. Chunki bu yoshdagi bola unga qiziq bo‘lmagan ishni bajarolmaydi. Bu asrda, maktabgacha tarbiyachilarning boshqalarga va o‘zlariga bo‘lgan munosabati muhim ko‘rsatkichdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ko‘pincha kamchiliklarini tanqid qilishadi, tengdoshlariga shaxsiy xususiyatlar beriladi, bolalar va kattalar o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek, kattalar va kattalar o‘rtasidagi munosabatni qayd qiladi. Biroq, ota-onalar bolalarga misol bo‘la oladi. [3]

Maktabgacha ta'lim mutaxassislari ta'lim tizimida innovatsion g‘oyalarni va joriy etish zamonaviy bolalar bog‘chasini rivojlantirish uchun zaruriy shartdir degan fikrga kelishib olishadi. O‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali yosh harakatlanuvchi holda maktabgacha

tarbiyachilar tomonidan har doim seziladi ular faoliyati sotib o‘zgartirdilar. O‘z faoliyati, tashabbus pedagogik kompozitsiya ota-ona jamoachiligi, bolalar bog‘chasini o‘quvchilarning oilalari bilan o‘zaro ta'siri mexanizmlarini ta'minlash zarurati, muhim, muhim korxona ega.

Buning uchun maktabgacha ta'limdagi innovatsion texnologiya o‘yinli texnologiyalar bilan bog‘lanib ketgan. Ammo ularning bir xil qarash deb bo‘lmaydi. Chunki innovatsiyalar turlicha yo‘nalishda olinadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi o‘z ishlab chiqarish printsipial amalga oshirish uchun: samarali (mavzuga yo‘llangan), tejamkor (shaxsga qo‘yilgan), texnologiyaga ega bo‘lishi.

Tajribali kreativ pedagogik ushbu uslublar asosida o‘zining “Mualliflik” texnologiyasini yaratishi mumkin. Bunda, unga avval egallangan bilimlari va tarkib topgan dunyoqarashi turtki bo‘ladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar ishlab chiqarish ta'rixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, sud jarayoniga kirish muhim shartnomada g‘oyalar banki ahamiyat kasb etgan. Masalan, italiyalik qobiliyat Mariya Montessori asli kasbi tarbiya bilan bog‘lanmasada, o‘zining boy tafakkuri orqali o‘ziga ta'lim usulini tadbiq qildi. Usul har bir qism ajratiladi asoslanishi aksiomaga va ta'lim-tarbiya uchun maxsus ishlab chiqarishni talab qiladi. Innovatsion ta'lim texnologiyalari uchta asosiy komponentga asoslanadi:

Zamonaviy, yaxshi tuzilgan tarkib, uning asosi tadbirkorlik faoliyatining hozirgi voqeliklariga javob beradigan kasbiy faoliyatdagi kompetentsiyadir. Mazmuni zamonaviy aloqa vositalari orqali uzatiladigan turli multimedia materiallarini o‘z ichiga oladi. Zamonaviy, innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llash. Bunday usullar bo‘lajak mutaxassisning kompetensiyalarini rivojlantirishga, oquvchilarni faol bilim va amaliy faoliyatga jalb etishga, bilish jarayonida tashabbuskorlikni namoyon etishga yonaltirilgan bolishi kerak. Ta'lim dasturlarini passiv assimilyatsiya qilish istisno qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi. U o‘qitishning yangi shakl va usullarini, xususan, masofaviy ta'limni qo‘llashga yordam beradigan axborot, texnologik, tashkiliy va kommunikatsiya komponentlariga asoslanishi kerak.

Ta'limda innovatsion texnologiyalar o‘qitishda muayyan yondashuvlarni qo‘llash asosida qo‘llaniladi, ya'ni, yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun asos bo‘lgan talablar va maqsadlarni o‘z ichiga olgan tamoyillar. Pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga qat'iy mos kelishiga asoslanadi. Hozirgi vaqtda ular o‘quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga, o‘z-o‘zini o‘rganish va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga, o‘quv dasturlarini mexanik ravishda emas, balki ongli ravishda o‘zlashtirishga qaratilishi kerak.

Mamlakatimizdagi deyarli barcha maktabgacha ta 'lim tashkilotlari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan. Bu esa, o‘z navbatida, tarbiyachilarning o‘z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Ta'lim jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etilishi, tarbiyachini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishiga emas, balki yangicha yondashuv orqali uning vazifasi va rolini o‘zgartirib, tarbiyachilik faoliyatini yana-da serqirra, ijodiy va kreativ yondashuvga asoslangan kasbga aylantiradi.[4]

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalar, ayniqsa o‘yinga asoslangan yondashuvlar, bolalarning tabiiy qiziqishini qo‘llab-quvvatlab, ularning faolligini, mustaqil fikrlashini va ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, pedagogik faoliyatda zamonaviy infratuzilma va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi tarbiyachilardan yangicha fikrlash, o‘z ustida ishlash, metodik yondashuvlarni doimiy takomillashtirishni talab etadi. Maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan boyitish — bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish, o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasidagi samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari, ularning hissiy, psixologik va bilish faoliyatlarini chuqur o‘rgangan holda ta’lim-tarbiyani tashkil etish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Maktabgacha ta'lim sohasidagi innovatsion yondashuvlarni loyihalarini joriy etish loyihalarini amalga oshirish uchun experimental maydonchalarni tashkil etish chora tadbirlari tog‘risida“ gi 605-sonli qaror.
2. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12947_1_30A64C600456FBDA0B126CA88BC78A5C63B6988D.pdf
3. https://www.ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0062/62_i_20241205_155540_3.25.pdf

4. https://zenodo.org/record/6386729/files/Fayzullayeva%20Iroda%20Baxtiyorovna.pdf

PEDAGOGIKA VA TA’LIM OLISHNING ZAMONAVIY USULLARI – YOSHLARNI YETAKCHILIK VA TADBIRKORLIKKA YO’NALTIRISHNING TA’LIMIY JIHATLARI

Ro’zmatova Muxlisa Turdaliyevna
NamDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti tyutori
Yuldasheva Nilufar Jaloldin qizi
NamDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti O’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogikaga oid qarashlar yordamida yoshlarda yetakchilik va tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirishning ta’limiy jihatlari ko’rib chiqilgan. Unda innovatsion usullar, interaktiv o‘qitish yo’llari, tanqidiy hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar orqali yoshlarda ijtimoiy faollik, liderlik va biznes kompetensiyalarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, pedagogik, liderlik, innovatsion metod, interaktiv o‘qitish, ijtimoiy faollik, biznes kompetensiyalari, projektli o‘qitish, simulyatsiya, mentorlik dasturi, raqamli texnologiya, raqamli platforma, innovatsion yondashuv, interaktiv yondashuv.

Annotation: This article explores the educational aspects of developing leadership and entrepreneurial potential in youth through modern pedagogical approaches. It highlights the use of innovative methods, interactive teaching techniques, and approaches aimed at fostering critical and creative thinking to cultivate social activity, leadership, and business competencies among young people.

Keywords: Globalization, pedagogical, leadership, innovative method, interactive teaching, social activity, business competencies, project-based learning, simulation, mentorship program, digital technology, digital platform, innovative approach, interactive approach.

Аннотация: В данной статье рассматриваются образовательные аспекты развития лидерского и предпринимательского потенциала молодежи с использованием современных педагогических подходов. Освещены вопросы формирования социальной активности, лидерских качеств и бизнес-компетенций у молодежи посредством инновационных методов, интерактивного обучения, а также подходов, направленных на развитие критического и креативного мышления.

Ключевые слова: Глобализация, педагогический, лидерство, инновационный метод, интерактивное обучение, социальная активность, бизнес-компетенции, проектное обучение, симуляция, программа наставничества, цифровые технологии, цифровая платформа, инновационный подход, интерактивный подход.

Hozirgi globallashuv zamonida jamiyatga oid ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishlar, raqobatlasha oladigan kadrlarni yetishtirish va ular orasida yetakchilik hamda tadbirkorlik faoliyatini targ’ib qilish asosiy masalaga aylanib bormoqda. Shulardan kelib chiqib mulohaza yuritadigan bo’lsak, pedagogik jarayonda yangi usul va texnologiyalardan foydalanish, zamonaviy fikrlovchi, tashabbuskor, muammolarga yangicha yondasha oladigan yoshlarni yetuk shaxs sifatida shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy ta’lim metodlarining bir necha turlari mavjud bo’lib,ularga ta’lim oluvchining faolligini oshirish, mustaqil fikrlashga o’rgatish va ijtimoiy-hayotiy masalalarga nisbatan kreativ yondashuvni shakllantirish kabilarni misol qilib olishimiz mumkin. Yuqoridagilar esa raqamli texnologiyalar va onlayn ta’lim (bugungi kunda internet va multimediyaga oid texnologiyalar,masofaviy ta’lim, elektron variantdagi darsliklar,virtual laboratoriyalar, xullas, ta’lim olish jarayonini boyituvchi vositalar), projektli o’qitish – amaliy loyiha yordamida bilim, ko’nikmalarni mustahkamlash, qolaversa, tor doirada ishlash singarilarni o’z ichiga qamrab oladi.Bundan tashqari, tanqidiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish va qaror qabul qilish salohiyatini rivojlantirish ham pedagogik ta’lim faolligini oshiradi.

Shuni ham aytib o‘tishimiz kerakki, raqamli texnologiyalarning ta’limdagi rolining ahamiyati yuqori, ya’ni hozirgi kunda raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ular nafaqat axborotga tezkor kirishni ta’minlaydi, balki mustaqil o‘rganish, tanqidiy fikrlash va

muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar va interaktiv platformalar orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar.Fanlararo integratsiya ham muhim omillardan biri, ammo "integratsiya nima?" degan savol tug‘ilishi ham qisman tabiiy.Integratsiya - turli fanlarni birlashtirib o‘qitish, o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish va ularni real hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv, ayniqsa, raqamli ta’lim muhiti orqali amalga oshirilganda, ta’lim samaradorligini oshiradi.Tadbirkorlik va yetakchilikni rivojlantirishda zamonaviy platformalarning o‘rniga keladigan bo‘lsak, "O‘zbekiston Tiba.uz" kabi platformalari yoshlarni tadbirkorlik va yetakchilikka tayyorlashda muhim rol o‘ynamoqda. Bu platformalar orqali onlayn kurslar, treninglar va master-klasslar tashkil etilib, yoshlar zamonaviy biznes strategiyalari va texnologiyalari bilan tanishtirilmoqda. Shuningdek, mentorlik dasturlari orqali tajribali tadbirkorlar bilan aloqalar o‘rnatish imkoniyati yaratilmoqda.Ta’limdagi innovatsion yondashuvlarga esa simulyatsiyalar, loyiha asosida o‘qitish va interaktiv metodlarni misol qilib olishimiz mumkin.Ular o‘quvchilarning faolligini oshiradi va real hayotdagi vaziyatlarga tayyorlaydi. Bu usullar orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham egallaydilar.Raqamli texnologiyalarni joriy etishni bugungi kunning asosiy muammolaridan deyishimiz mumkin.

Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishda ba’zi muammolar yuzaga kelmoqda. Masalan, texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, o‘qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasi va moslashtirilgan o‘quv materiallarining yetishmasligi kabi muammolar mavjud. Bu muammolarni hal etish uchun tizimli yondashuv va resurslarni to‘g‘ri taqsimlash zarur.

Shuningdek, yetakchiik va tadbirkorlikka yo’naltirishning ta’limiy jihatlarini ham ko’rib chiqish zarur.Ta’lim jarayonida yoshlarni liderlikka tayyorlovchi jihatlar tashabbuskorlik va erkin fikrlashni rivojlantirish, simulyatsiyalar, ya’ni rahbarlik hamda bosharuv ko’nikmalarini oshirishga xizmat qiluvchi o’yinlar, shu bilan birga kichik biznes loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali tadbirkorlikni o‘rgatish, yoshlarni tajribali tadbirkorlar bilan bog‘lash orqali amaliy bilimlarni beruvchi mentorlik dasturlardir.

Yoshlarni tadbirkorlik va liderlikka yo’naltirishning ta’limiy jihatlarida raqamli texnologiyalarning ahamiyati katta.Zamonaviy raqamli platformalar (onlayn kurslar, interaktiv dasturlar, virtual laboratoriyalar) yordamida o’quvchilar ta’lim jarayoniga ko‘proq qiziqtiriladi. Bu esa yoshlarni mustaqil o‘rganish, tadqiqot olib borish va innovatsion fikrlashga undovchi vosita hisoblanadi.

Xulosa: Yoshlarni yetakchilik va tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda ta’limning zamonaviy metodlariga asoslangan yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi. Bunday yondashuvlar yoshlarning shaxsiy salohiyatini ochadi, ularni ijtimoiy faol, tashabbuskor va mas’uliyatli insonlar sifatida kamol toptirishga xizmat qiladi, shu sababli pedagogik jarayonda interaktiv, innovatsion hamda amaliy yondashuvlar yetakchi o’rin kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva, N. (2022). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Bobokalonov, S. (2019). Ta’limda liderlik kompetensiyalari va ularni shakllantirish usullari. Toshkent: Yangi asr avlodi.
3. G‘ulomov, Q. va boshq. (2018). Pedagogik mahorat. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi nashriyoti.
4. Turaev, D. (2022). Ta’limda innovatsion yondashuvlar va yoshlarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Farg‘ona.

MAMLAKATIMIZ YOSHLARINING SIYOSIY JARAYONDAGI FAOLLIGI

B. Tillayev
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
D. Olimova
Texnologik ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
olimovadurdona0702@gmail.com +99893-670-45-30

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz yoshlarining siyosiy jarayondagi faolligini oshirish yo‘llari haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, faollik, ijtimoiy, O’zbekiston, fuqaro, fidoyi, tarix

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida ham aynan, yoshlar masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, nutqda “Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir.

Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz” [1] deb, ta’kidlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zavol bo‘lmoqda.

Bu keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak” [2,53] deb, ta’kidlaganida aynan yuqoridagi holatlarning yuzaga kelayotgani va jamoatchilik bu borada jiddiy kurashish lozimligini nazarda tutgan edi.

“Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi. Shu sabali ham ular ijtimoiy faolligini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari faol bo‘lishlari lozim”. [3,11] O’zbekiston Respublikasida mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan islohotlarning tub mohiyati aholi turmush tarzining farovonligini oshirish, fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyati va saviyasini yuqori darajaga ko’tarish, ularda aniq fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda o’z ifodasini topadi. Davlatning taraqqiy etishida va undagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarning yangi bosqichga o’tishida mamlakat oldida turgan vazifalarni turli yo’nalishlarga taqsimlagan holda, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti, I.Karimov ta’kidlaganidek,—... – bu jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o’rni va ahamiyatini keskin kuchaytirishdan iborat. Yoki boshqacha qilib aytganda, bu Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish demakdir. Hammamizga ayonki, bu yo’nalish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog’liq ko’p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o’tkaza borishni taqozo etadi. [4,27] Demak, fuqarolik jamiyatini qaror toptirish uchun davlat o’zining ayrim vazifalarini bo’ynidan soqit qilib, asta-sekin jamiyatning boshqa institutlariga topshirmog’i lozim. Buning uchun esa davlat tomonidan muayyan shart. sharoitlar, imkoniyatlar yaratilib, jamiyatning o’z-o’zini tashkil etuvchi va boshqaruvchi idoralarining faoliyati to’g’ri yo’lga qo’yilishini talab etuvchi mexanizmlarni vujudga keltirish zarur.

O’zbekiston fuqarolari millati, irqi, jinsi, kasb-kori, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar fuqaro sifatida qonun oldida huquqan teng va birdek mas’uliyatlidirlar. Shuning uchun ham mavjud muammolarni bartaraf etishda fuqarolarning o’z fuqarolik huquqlarini bilib olishlari va ular himoya qilishlari hamda burchlarini chuqur anglab etishlari uchun ularni huquqiy jihatdan tarbiyalab borish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Bu jarayon fuqarolar uchun ma’naviy kamolot manbai bo’lishi bilan birga, ularning bu boradagi mas’uliyatini yanada oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shuning uchun ham, O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish kuchli davlatdan, kuchli fuqarolik jamiyatga o’tish kontseptsiyasi zamirida inson erkinliklarini fuqaro, halq manfaatlariga mos holda bosqichma-bosqich yuzaga chiqarish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Ma’lumki, qonunlarning har bir moddasida insonning muayyan yo’nalishdagi erkinliklari beriladi. Lekin yodda tutmoq kerak-ki, bunday tartib, yo’l-yo’riq yoki imkoniyat faqat bitta fuqaroning erkinligini yuzaga chiqarish uchungina joriy etilgan emas. Balki bu huquqiy me’yor barcha uchun teng asosga ega. Hamonki shunday ekan, barcha ya’ni butun jamiyat a’zolari ana shu me’yor asosida o’z erkinliklarini bir xil darajada amalga oshirishi shart. [5,84]

Shuningdek, bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining ma’naviy binosi mustahkam bo’lishi lozim. Buesa, eng avvalo, fuqarolarni, ayniqsa, yoshlarni chuqur bilimli,

teran fikrli, o’z o’tmishi durdonalaridan va ma’naviy qadriyatlaridan xabardor, vatanparvar, haqiqatparvar, fidoyi qilib tarbiyalashni taqazo etadi. Komil inson shaxsini tarbiyalash esa eng murakkab va qiyin jarayondir. Bu jarayonni amalga oshirish ular ongiga milliy qadriyatlarni singdirish maqsadga muvofiqdir. Demak, bugungi yosh avlod o’z tarixini, madaniyatini,milliy qadriyatlarini, tilini, dinini va urf-odatlarini mukammal bilsagina, mustaqillikning asl mohiyatini chuqurroq anglab etadilar. Fuqarolik jamiyati ham ana shu milliy qadriyatlarimizga asoslanib rivojlantirilishi bejiz emas. Zero, ―Madomiki biz huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurayotgan ekanmiz, ma’naviyat sohasidagi XXI asrga mo’ljallangan harakat dasturimiz shundan kelib chiqmog’i darkor, ya’ni erkin fuqaro – ongli yashaydigan, mustaqil fikrga ega bo’lgan shaxs ma’naviyatini kamol toptishirish bizning bosh milliy g’oyamiz bo’lishi zarur. [6,303]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. www.prezident.uz Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh assamblyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. Nyu-York shahri. 2017., 20 sentyabr
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining farovi. Toshken. O’zbekiston, 2017. –B. 53.
3. Mirziyoyev.Sh.M. Erkin va farvon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2017. -B.11
4. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари // Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. 11. – Т.: Ўзбекистон, 2003. – Б.27.
5. Мусаев Ф. Эркинликнинг ҳуқуқий асоси // Тафаккур журнали. –Тошкент: 2002. - № 2. – Б.84.
6. Каримов И.А. Ўз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурмоқдамиз. Биз ўз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7том.-Т.: «Ўзбекистон», 1999. Б.303

GLOBALLASHUV DAVRIDA TALABALARNING MA’NAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISH

M.D.Xidirnazarova
Samarqand davlat tibbiyot universiteti Davolash ishi 1-kurs 111-guruh talabasi
Ilmiy rahbar: **G.K.Mardiyeva**

Tadqiqotning maqsadi: Globallashuv insoniyat hayotining ajralmas bir bo’lagiga aylangan. Bu esa yoshlarning axborot oqimida mustaqil fikrlay olish qobiliyatining yo’qolishiga olib kelmoqda. Sababi, talabalar turli axborot manbalariga erkin kira oladi va har xil maqsadlarda dunyoqarashini ijobiy hamda salbiy shakllanishiga ega bo’ladi. Ma’naviy immunitet – bu shaxsning xilma-xil g’oyalar, axloqiy buzuqliklar va axborot xurujlariga nisbatan turg’unlik qobiliyatini ko’rsatishidir. Bu immunitet talaba yoshlarning mustahkam qadriyatlarga ega bo’lishi, tanqidiy fikrlay olish layoqati orqali rivojlanadi. Yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda uzluksiz ta’lim muhim ahamiyatga ega. Bu orqali yoshlarning axloqiy, estetik, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni o’zlashtirishi mustahkam ta’minlanadi.

Tadqiqot materiali va uslublari: Tadqiqot davomida quyidagi material va yondashuvlar asosida ishlov berildi:

-“Globallashuv sharoitida ma’naviy-axloqiy tahdidlarga qarshi kurashda ta’lim muassasalarining roli” maqolasi.

-“Hozirgi globallashuv asri davrida yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish” mavzusidagi prezentatsiya.

-Yoshlar orasida ma’naviy-axloqiy tarbiya bilan bog’liq statistik ko’rsatkichlar.

Tadqiqot natijalari: Globallashuv tahdidlariga qarshi immunitet faqat cheklashlar bilan emas, balki ongli, bilimli, o’z qadriyatlariga sodiq shaxslarni tarbiyalash bilan ham mustahkamlanadi. Talabalar ongida ana shunday immunitetni shakllantirish esa barqaror jamiyat poydevoridir. Turli madaniyatlar, mafkuralar va axborot oqimlarining rivojlangan bir davrida yosh avlodlarning ichki dunyosi, qadriyatlar tizimi, ma’naviy mezonlari sinovdan o’tmoqda. 18-30 yoshdagilarning 42%i ta’limda, ishda yoki o’qishda ishtirok etmaydi. Yosh ayollarning 68.1%i internetdan hech qachon foydalanmagan, erkaklar orasida esa

34.3% ko’rsatkichni tashkil etadi. Bu solishtirishlar yosh avlodlar orasida ma’naviy-axloqiy tarbiya va axborotga kirish imkoniyatlarida muhim rol o’ynaydi. Ommaviy madaniy tadbirlar orqali esa yoshlar o’zlarini jamiyatning faol a’zosi sifatida his qilishadi.

Xulosa: Globallashuv davrida talaba-yoshlarning ma’naviy immunitetini oshirish – bu faqat ta’lim muassasalari yoki davlatning vazifasi emas, balki, har bir inson, jamiyat a’zosi uchun muhim masaladir. Ularni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularning mustaqil fikrlovchi, qadriyatlarga sodiq, ma’naviy jihatdan yetuk inson bo’lib ulg’ayishiga xizmat qiladi.

O’QITUVCHILARIDA KASBIY MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH YO’LLARI

L.Xonto‘rayeva , NamDPI tuyutori

Annotasiya. Respublikamizda “Ta’lim to’g’risida” gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning e’lon qilinishi munosabati. O’qituvchi o’z bilimini o’quvchilarga bera bilishi, eng muhim ularda bilimga qiziqish uyg’otish, mustaqil o’qish ko’nikmalarini tarbiyalash va bu borada bola faoliyatini tashkil etishga rahbarlik qilish kerak. buning uchun o’qituvchi tarbiyashunoslikni, ruxiyatni va o’z fanining metodikasini chuqur egallashi, fanining yangi yutuqlari bilan izchil qurollanib borishi zarur.

Kalit so’zlar: Uslubiy bilimdonlik, kasbiy bilimdonlik, ijtimoiy bilimdonlik.

Respublikamizda “Ta’lim to’g’risida” gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning e’lon qilinishi munosabati bilan mamlakat miqyosida ta’lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o’rganish sohalarini isloh qilish bilan bog’liq juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Islohlarning taqdiri va samarasi birinchi navbatda kadrlar samarasiga, ularning zamon va taraqqiyot talablariga nechog’lik javob berishga bog’liqdir. Zero, yurtimizning ertangi xayoti va kelajak taqdiri bugungi tayyorlanayotgan kadrlar qo’lidadir. Uzluksiz ta’lim tizimining sifati albatta o’qituvchi shaxsining faoliyati bilan baholanadi.

Ta’lim davlat ijtimoiy taraqqiyotining ustivor yo’nalishi deb belgilangan ekan, bugungi zamonaviy o’qituvchi qanday bo’lishi kerak degan savolga javob berishimiz zarur. Yangilanayotgan jamiyat talablaridan kelib chiqib zamonaviy milliy pedagogika va psixologiya fanlari o’z oldiga barkamol avlod, komil inson shaxsini tarbiyalashdek oliy maqsad sari rivojlanib borayotgan bir davrda o’qituvchilik kasbi eng asosiy markaziy o’rinlardan birini egallaydi. Chunki o’qituvchi o’quvchini shaxs sifatida shakllantiradi, katta xarflar bilan yoziladigan INSON degan so’zga loyiq qilib tarbiyalashdek nozik, murakkab mas’uliyatli vazifani amalga oshiradi. Ota-onalar o’zlari uchun eng qadrli bo’lgan yuksak orzu umidlar bilan bog’liq farzandlarini ishonib topshiradilar. O’qituvchi ularning taqdirini belgilab kelajak xayotga tayyorlaydi. Kelgusida bu o’quvchilar komil inson sifatida shakllanib “Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak” shiori bilan xayot kechiradilar.

Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy “O’qituvchilik kasbi shu qadar ajoyib kasbki, yorug’ dunyoda unga tenglashadigan biron bir kasb yo’q”-deb aytgan edi.

O’qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig’ini bajaradi. Shunday ekan, har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda o’qituvchi muayyan ijtimoiy javob berishi lozim. O’qituvchi mustaqil rivojlangan, ilmiy tafakkuri, kasbiga tegishli ma’lumoti bor, ya’ni o’z fanining chuqur bilimdoni pedagogik muloqot ustasi, pedagogik-psixologik va uslubiy bilim va malakalarini egallagan bo’lishi hamda turli pedagogik vaziyatlarni tezda aniqlay bilishi, o’rganishi va baholay olishi zarur. Bugun pedagogning ma’naviyati, mafkuraviy e’tiqodi va o’quv jarayonini yaxshi bilishi katta ahamiyatga ega.

Birinchidan, pedagog jamiyatning fuqarosi sifatida o’z mavqei va faol o’rnini o’quvchilarga namoyish eta olishi lozim. Hususan, uning jamiyat va o’z jamoasidagi o’rni, tanlangan kasbi, o’qitayotgan predmeti bo’yicha chuqur bilimga ega bo’lishi, talab va qoidalarga amal qilishi, me’yor va qonunlarni hurmat qilishi lozim.

Ikkinchidan, pedagogning e’tiqodi va bilimdonligi uning yangi bilimlar, o’zi tanlagan sohasidagi yangiliklarga nisbatan qiziqishida namoyon bo’ladi.

Uchinchidan, e’tiqodli va bilimdon pedagog o’ziga xos fikrlash tarzi bilan ajralib tura olishi shart. Chunki, yoshlar shunday noyob qaytarilmas, andozasiz fikrlash sharoitidagina mustaqil fikrlashga o’rganadilar va fanni boshqa fanlardan ajrata oladilar. Bugungi pedagogdan yangicha fikrlash, yangicha

munosabatlar talab etilar ekan. Uning bilimdonligi darajasi masalasi ham o’ta muhim.

Bular quyidagilar:

Ijtimoiy bilimdonlik.

Dars mobaynida sinf bilan samarali o’zaro muomala shaklini tashkil eta olish, yoshlar bilan til toptirish va sog’lom ma’naviy muhitni hosil qila olish qobiliyati.

Uslubiy bilimdonlik.

Barcha bilimlarni, ko’rgan-kechirganlarni yoshlarga tushunarli, ravon tilda yetkaza olishi, ta’lim texnologiyasi va metodlaridan boxabarlik qobiliyati.

Kasbiy bilimdonlik.

O’z fanini va predmeti sohasi bo’yicha chuqur va har tomonlama mukammal bilimlariga ega bo’la olishi, o’z ustida ishlash qobiliyati.

Amaliyotda eng obro’li, bilimdon pedagoglar birinchi navbatda insoniy bilimdonlik sohiblari bo’lishadi va shundaylarni o’quvchilar yaxshi qabul qilishadi. Chunki zamonaviy o’quvchi ko’plab ma’lumotlarga ega, uning psixologiyasi, talab-takliflarni aniq bilib til topisha olgan shaxsgina pedagogik jarayonda katta yutuqlarga erishadi. Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy aytganidek “Muallimning maqsadi mansab uchun kurash bo’lmasligi, bilmagan ilmlarni aytmasligi, o’zini ko’rsatish uchun dars bermasligi, ochko’zlik va joxillik qilib, quruq gap sotmasliklari, g’avg’o ko’tarmasliklari lozim”. U muallimlikni olijanob va faxrli kasb deb hisoblaydi. Shu sababdan bo’lsa kerak:

Haq yo’lida kim senga bir xarf o’qitmish ranj ila,

Aylamak bo’lmas oning haqqin ado ming ranj ila.

Nazarimdan ushbu misralar aynan boshlang’ich sinf o’qituvchisigagina aytilgandek. Chunki biz o’qituvchilar kasbimiz bilan qancha faxrlansak, umrimizning bebaho durdona hosili-sevgan kasbimizning durdona mevasi, faxri-iftixorimiz bo’lgan shogirdlar bilan baxtiyormiz. Ulug’ Vatanimizning qaysi yeriga borsak, “Salom ustoz-o’qituvchim”, deb shogirdlarimiz peshvoz chiqishadi. Biz shunda o’zimizni qanchalik baxtiyor inson ekanligimizni chuqurroq xis etamiz. Umrimizga yana umr qo’shilgandek o’zimizni tetik sezamiz. Ana shu narsa bizgi yana kuch-quvvat va kasbimizga beqiyos muxabbat baxsh etadi. O’qituvchi mehnatini taqdirlash “Xalq o’qituvchisi” degan yuksak unvonning ta’sis etilishida yana bir yorqin ifodasini topdi.

Shuningdek o’qituvchi quyidagi fazilatlarga ega bo’lishi kerak: insoniy g’oyaviylik, insoniy e’tiqodlilik, vatanga sodiqlik, mehnatsevarlik, ijtimoiy burchni chuqur anglash, inson manfaati singari ulug’vor maqsad yo’lida mumtoz niyatlar, temir iroda bilan hamdam va hamkorlik, xalq manfaatini hamma narsadan ustun qo’yish. Xayotda faol pozitsiyada turish, yangiliklarni sezish va ularni xayotga joriy etishda tashabbuskorlik ko’rsatish, xaqqoniylik, printsipiallik, axloqiy poklik va yosh avlodga mexribonlik, oqilona talabchanlik, yuksak madaniy xulq, nafosat, til va dil birligi, fan asoslarini, jamiyat, tabiat va inson tafakkuri qonuniyatlarini chuqur bilish va jamaoda qo’llay olish, har sohada yosh avlodga o’rnak ko’rsata bilish.

O’qituvchining jamiyatdagi muallimlik vazifasi ana shu fazilatlarni o’zida to’la mujassam bo’lishi taqozo etadi. O’qituvchi, eng avvalo yo’l ko’rsatuvchisi yorqin yulduz bo’lib, u o’z faoliyatida yuksak axloq-odob qoidalariga tayanib ish ko’radi va uni ijodiy ravishda boyitishga o’z xissasini qo’shib boradi. O’qituvchi-ziyo tarqatuvchi. U zamon bilan hamnafas qadam tashlashi, fan-texnika yutuqlarini, barcha yangiliklarni targ’ib etishi kerak. o’qituvchi xalqdan bir qadam oldinda yurib odamlarni o’z ortidan ergashtirishi darkor.

O’qituvchilik kasbiga qadam qo’yishni niyatida bo’lgan odam o’z-o’ziga: shu kasbni sevamanmi, dilimda bu xavas o’ti bormi? Men bolajonlik fazilatiga egamanmi? Bir umr ana shu nihoyat murakkab, lekin sharafli kasbning jozibali sehri bilan yashay olamanmi? degan savollarni o’ziga berib, o’z qalbi bilan gaplashib olmog’i kerak.

Muallim sinfda jamiyatning, xalqning, davlatning vakili sifatida o’qituvchilar jamoasi bilan yolg’iz o’zi ish olib boradi. Bunday sharoitda o’qituvchining mas’uliyati uning xulqini, tartibga solib turadigan, boshqaradigan kuch, o’qituvchilarga ta’sir o’tkazish darajasining asosiy mezoni hisoblanadi. Jamiyatning kelajagi, ota-onaning umidi, nuri-diydasi farzandining taqdiri, kelajagi uning qo’liga ishonib topshirilgan. Muallim o’quvchilarning bilimiga baho qo’yadi, baho esa jamiyatning, kattalarning, ota-onaning bolaga munosabatini belgilovchi mezon, omillardan biridir. Yaxshilik, adolat, sha’n, qadr-qimmat, insoniylik kabilarning mavjudligiga bolada ishonchni vujudga keltirish ham o’qituvchining mas’uliyatiga bog’liq. Shunisi ham borki, buni ko’pincha nazorat qilib ham bo’lmaydi. Bu muallimning vijdoniga xavola qilinadi.

O’qituvchi o’z bilimini o’quvchilarga bera bilishi, eng muhim ularda bilimga qiziqish uyg’otish, mustaqil o’qish ko’nikmalarini tarbiyalash va bu borada bola faoliyatini tashkil etishga rahbarlik qilish kerak. buning uchun o’qituvchi tarbiyashunoslikni, ruxiyatni va o’z fanining metodikasini chuqur egallashi, fanining yangi yutuqlari bilan izchil qurollanib borishi zarur.

Tarbiya maxoratining muhim bir tomoni o’quvchini faollashtirish bilan bog’liq. Chunki ta’lim-tarbiya jarayoni-ikkiyoqlama jarayon. O’qituvchi ta’lim beradi, o’quvchi uni o’zlashtiradi.

Umumiy ta’lim, jumladan, boshlang’ich ta’lim tizimida o’quvchilarni o’rta ta’lim bosqichiga tayyorlash bilan birga ularda o’qish, mehnat qilish, tashabbus ko’rsatish, mustaqil faoliyatni egallash kabi sifatlarni taraqqiy ettirish kabilarni ham amalga oshirmoqda.

Ta’lim tizimi, shaxsni shakllantirish uchun, davlat ctandarti talablari asosida hamda ta’lim darajasida kadrlar yetishtirish uchun avvalo o’qituvchilar, murabbiylar shaxsini har tomonlama mukammal bo’lishini talab qiladi. Ayniqsa, boshlang’ich sinf o’qituvchisining mas’uliyati katta, u umumiy ta’lim tizimining asosini, poydevorini yaratuvchi shaxsdir.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil O’zbekistonimizda o’zining pedagogik faoliyatini olib borayotgan har bir o’qituvchi o’z ustida tinmay ishlashi, doimiy izlanishda bo’lishi, o’zidan oldingi pedagoglarning ilg’or tajribalari bilan doimiy tanishib borishi va shu yo’llar bilan o’z mahoratining tizimlarini kengaytirishi lozimdir Yosh avlodni tarbiyalash murakkab va oliyjanob vazifa bo’lishi bilan birga ayni zamonda u g’oyat darajada murakkab, mas’uliyatli ishdir. Bu vazifani muvaffaqiyat bilan bajarish uchun eng avvalo o’qituvchi o’z ishining shaydosi bo’lishi, bolalarni sevish mas’uliyatini, burchlarini, xulqlarini anglab yetishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш: пед.фан.док. ... дисс. – Т., 2016. – 314 б.
2. Rahimova, M. (2019). EDUCATIONAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SOCIAL AND EMOTIONAL SKILLS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(12), 310-316.
3. Выготский Л.С. Собрание сочинений в 6-ти томах / Л.С. Выготский// Т. 4. Детская психология. Под ред. Д.Б. Эльконина. –М.; 1984, 265 с.
4. Гальперин П.Я., Талызина Н.Ф. Формирование знаний и умений на основе теории поэтапного усвоения умственных действий. – М.: 1968.

TYUTORLIK FAOLIYATINING TALABALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

G.I.Yuldasheva
Namangan davlat Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti tyutori
Tel: 998943224447

Annotatsiya: Maqolada tyutorlik faoliyatining talabalar rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilingan. Tyutorlikning individual yondashuv asosida ta’lim sifatini oshirishga, talabalar bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi yoritilgan. Shuningdek, uning zamonaviy ta’lim tizimidagi roli va samarali tashkil etish usullari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Tyutorlik faoliyati, talabalar rivojlanishi, individual yondashuv, ta’lim sifati, innovatsion yondashuv, zamonaviy ta’lim tizimi.

Bugungi kunda global miqyosda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayoni jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Bunda talabalarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta’lim berish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, tyutorlik faoliyati zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib, talabalar bilimini chuqurlashtirish, ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ularning shaxsiy va kasbiy salohiyatini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tyutorlik nafaqat ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi, balki talabalarni o‘quv jarayoniga faol jalb etish, ularning o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirish va muammolarni mustaqil hal qilishga undaydi. Shu bilan birga, tyutorlik faoliyati o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi samarali muloqotni ta’minlab, ularning psixologik hamda motivatsion holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy ta’lim muassasalarida tutorlikning roli ortib borayotgani, bu faoliyatni samarali tashkil etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Tyutorlikning muvaffaqiyati, avvalo, individual yondashuvning to‘g‘ri qo‘llanilishi, o‘quvchilarning qobiliyatlarini to‘g‘ri aniqlash va ularga mos ta’lim metodlarini tanlashga bog‘liq. Shu sababli, ushbu maqolada tyutorlik faoliyatining mazmuni, uning talabalar rivojlanishiga ta’siri, zamonaviy yondashuvlar asosida uni tashkil etishning usullari va samaradorligi haqida batafsil tahlillar keltiriladi.

Tyutorlik faoliyatining ta’lim jarayonidagi ahamiyati ko‘plab tadqiqotchilar va yozuvchilar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi ta’lim jarayonida shaxsning rivojlanishi uchun ijtimoiy o‘zaro aloqalarning muhimligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, individual yondashuv va qo‘llab-quvvatlash talabaning bilim olish jarayonida motivatsiyasini oshiradi va o‘quv materiallarini samarali o‘zlashtirishiga yordam beradi. Banduraning ijtimoiy ta’lim nazariyasida esa o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning o‘quv natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda (Maslow, 2020; Brown, 2022) tyutorlik faoliyatining talabalarning akademik va shaxsiy rivojlanishiga ko‘rsatadigan ijobiy ta’siri qayd etilgan. Ushbu ishlar ta’lim sifatini oshirish uchun individual yondashuvning zarurligini asoslaydi. Shuningdek, Johnson va boshqalar (2021) tyutorlik faoliyatining innovatsion yondashuvlari, masalan, onlayn platformalar va texnologiyalar orqali qo‘llanishini tahlil qilgan.

Respublikamizda ham tyutorlik faoliyatining ahamiyatiga oid fikrlar va tadqiqotlar mavjud. Jumladan, o‘zbek adibi Abdulla Avloniy ta’lim-tarbiyaning hayotiy ahamiyatiga urg‘u berib, “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo falokat masalasidir” deb yozgan. Bu fikr tyutorlik faoliyatining ham talabaning ta’lim jarayonida to‘g‘ri yondashuvni shakllantirishdagi muhimligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, o‘zbek olimi Qori Niyoziy pedagogik jarayonlarda har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olishni ta’kidlagan. Uning ilmiy ishlari talabaning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda individual yondashuvning muhim ekanligini ochib beradi. Ismoilova (2021) esa zamonaviy ta’lim tizimida individual yondashuvni rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Ushbu fikrlar va tadqiqotlar milliy va xalqaro tajribani uyg‘unlashtirgan holda, ta’lim jarayonida tyutorlik faoliyatining samaradorligini oshirishga hissa qo‘shadi.

Tyutorlik faoliyatining talabalar rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish uchun kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot metodlari sifatli va miqdoriy usullarning uyg‘unlashuviga asoslangan bo‘lib, ular quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Nazariy manbalarni tahlil qilish: Ilmiy adabiyotlar, maqolalar, monografiyalar va xalqaro tadqiqotlar o‘rganilib, tyutorlik faoliyatining nazariy asoslari aniqlab berildi. Bu bosqichda asosiy diqqat tyutorlikning rivojlanish tarixi, zamonaviy yondashuvlar va muvaffaqiyatli amaliyotlarni o‘rganishga qaratildi.

So‘rovnoma va intervyular: Tadqiqotda 150 nafar talaba va 50 nafar tyutor ishtirok etdi. So‘rovnoma orqali talabalarning tyutorlik faoliyati haqidagi fikrlari, ularning o‘quv jarayonidagi motivatsiyasi, qiyinchiliklari va rivojlanish ehtiyojlari aniqlandi. Intervyular orqali esa tyutorlarning talabalarga yondashuvi, ular duch keladigan muammolar va qo‘llanadigan metodlar haqida batafsil ma’lumot olindi.

Eksperimental tadqiqot:Tajriba ishlari davomida ikki guruhga ajratilgan talabalarga turli yondashuvlar qo‘llandi:

Eksperimental guruh: Ushbu guruhda talabalar bilan tyutorlik faoliyati tizimli ravishda amalga oshirildi. Individual darslar, maslahatlar va rivojlanish rejalari ishlab chiqildi.

Nazorat guruhi: Ushbu guruhda standart o‘qitish usullari qo‘llanildi, tyutorlik faoliyati esa amalga oshirilmadi.

Tajriba davomida har ikki guruhning akademik natijalari, motivatsiyasi va shaxsiy rivojlanishi kuzatildi va qiyoslandi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish: Olingan ma’lumotlar statistik tahlil qilinib, talabalarning akademik ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar, o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalaridagi farqlar va tutorlikning samaradorligi aniqlandi. Sifatli ma’lumotlar esa kontent tahlil orqali umumlashtirildi.

Innovatsion yondashuvlarni qo‘llash: Tadqiqot davomida zamonaviy texnologiyalar (onlayn platformalar, mobil ilovalar) va interaktiv usullar (case-study, individual reja tuzish) orqali tyutorlik faoliyati samaradorligi sinovdan o‘tkazildi.

Ushbu metodologiya talabalarning individual ehtiyojlarini qondirish va ta’lim samaradorligini oshirishda tyutorlik faoliyatining real imkoniyatlarini ochib berdi. Natijalar amaliyotga tavsiyalar sifatida qo‘llanishi mumkin.

Akademik ko‘rsatkichlarning yaxshilanishi: Eksperimental guruh talabalari nazorat guruhi bilan solishtirilganda bilim ko‘rsatkichlarini o‘rtacha 25% ga yaxshiladi. Qiyin mavzularni tushunish darajasi va mustaqil yechim topish qobiliyatlari oshdi.

Motivatsiyaning oshishi: Eksperimental guruh talabalari orasida 85% o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari ortganini qayd etdi. Talabalar o‘z maqsadlarini aniq belgilash va ularga erishishda tyutorlik darslari muhim rol o‘ynaganini ta’kidlashdi.

Shaxsiy va kasbiy rivojlanish: Talabalar o‘z-o‘zini boshqarish, vaqtni samarali rejalashtirish va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini sezilarli darajada yaxshiladi. O‘z-o‘ziga ishonch darajasi va mas’uliyat hissi oshdi.

Texnologiyalarning ahamiyati: Onlayn platformalar va texnologiyalar yordamida olib borilgan tyutorlik darslari talabalar uchun qulay va samarali bo‘ldi. Ushbu texnologiyalar talabalar bilan muloqotni kuchaytirishga yordam berdi.

Akademik rivojlanish: Ushbu natijalar Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasini tasdiqlaydi, bunda talabalar tyutorlar ko‘magida qiyin mavzularni o‘zlashtirishda tezroq muvaffaqiyatga erishadi. Individual yondashuv va muntazam qo‘llab-quvvatlash akademik yutuqlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Motivatsiya: Talabalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishining oshishi Banduraning ijtimoiy ta’lim nazariyasiga mos keladi. Tyutorlik darslari orqali talabalar o‘zlarini muvaffaqiyatga erishayotganini his qilishi, ularning motivatsiyasini kuchaytirgan.

Shaxsiy rivojlanish: Maslowning ehtiyojlar iyerarxiyasiga muvofiq, talabalarga individual yondashuv ularning o‘z salohiyatini to‘liq amalga oshirishga yordam berdi. Bu jarayon ularning shaxsiy o‘sishi va kasbiy rivojlanishiga zamin yaratdi.

Texnologiyalarning roli: Zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil etilgan darslar ta’lim jarayonini interaktiv va qulay qilgan. Onlayn platformalar nafaqat o‘quv jarayonini optimallashtirdi, balki talabalar bilan tyutorlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani mustahkamladi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari tyutorlik faoliyatining talabalarning akademik, shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Tyutorlik darslari individual yondashuv, qo‘llab-quvvatlash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali ta’lim samaradorligini oshiradi. Bu jarayon talabalarning motivatsiyasini kuchaytirib, ularning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan birga, mustaqil ishlash va vaqtni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tyutorlik faoliyatini ta’lim tizimida kengroq qo‘llash, tyutorlarning malakasini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy, A. (1913). Turkiston viloyatining tarixi va ma’rifati. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
2. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
3. Brown, P. (2022). Innovative Approaches in Modern Tutoring Systems. London: Pearson Education.
4. Ismoilova, N. (2021). Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarning o‘rni. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Johnson, M., et al. (2021). Online Tutoring Platforms and Their Impact on Learning. New York: Routledge.
6. Karimov, I., et al. (2019). Tyutorlik xizmatlarining talabalar rivojlanishidagi o‘rni. Toshkent: Oliy ta’lim nashriyoti.
7. Maslow, A. H. (2020). Human Motivation and Educational Outcomes. New York: Harper & Row.
8. Qori Niyoziy, T. N. (1958). Pedagogika asoslari. Toshkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti.
9. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

УЧИТЕЛЬ И СТУДЕНТ В СЕРЕДИНЕ ИНТЕРВЬЮ В ОБМЕНЕ ОБРАЗОВАНИЕ СИНТЕТИЧЕСКИЙ , ИНТЕГРАЛЬНЫЙ , СОЦИАЛЬНЫЙ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФОРМЫ

Тоджибаев Бабурджон Рахимжонович

Б.Тоджибоев
НамДПИ tyutori+998946506998

Абстрактный . Этот в статье удаленный образования обучение материала независимый освоение , принципы организации дистанционного образования , возможности Интернета как средства массовой информации, его сервисы (чаты, форумы, электронная почта, видеоконференции) , модульность, освоение роли преподавателя, разделение субъектов образовательного процесса дистанционное, виртуальное кооперативное обучение, установление собственного контроля над наблюдением, осуществляемым учителем и т. д. освещенный .

Ключевые слова : удаленный образование , модуль , чат, форум, виртуальный, онлайн лекция и семинар

Текущий в то время удаленный образования исследователь и практикующие к ему/ей следующее основной определение давая идет :

Удаленный образование - это обучение материала доставка в предоставлении , независимом в обучении , учитель и студент между коммуникация в обмен прикладной , традиционный и новый информация технологии и их техник инструменты широкий в сфере применения в использовании образования синтетический , интегральный, социальный является формой .

Дистанционное обучение строится с теми же целями, что и очное обучение (если оно строится по программе, совместимой с обучением), но форма подачи материала , преподаватель и студенты, а также форма обучения взаимодействие между студентами будет иным. Основные дидактические принципы дистанционного образования те же, что и других видов образования, но организационные принципы дистанционного образования иные, они специфичны для дистанционного образования, поскольку особенности формы, возможности информационной среды Интернет, ее сервисы (чаты, форумы, электронная почта), видеоконференции). Отличительными чертами дистанционного образования являются модульность, овладение ролью преподавателя, разделение субъектов образовательного процесса на расстоянии, виртуальная кооперативность обучения, установление собственного контроля над контролем, осуществляемым преподавателем. Можно назвать использование современные специальные образовательные технологии и средства.

Удаленный образование использования основной в поля следующее вход возможный :

– известно отрасли промышленности в соответствии с педагогический персонал квалификация увеличивать ;

– экзамены эксперт в пути в подчинении отдельно обучение науки в соответствии с школа их студенты подготовка ;

– известно в направлении обучение в учреждения изучать вход для школа их студенты подготовка ;

- школа студентов направления в соответствии с образование они получают организация расти ;

- интерес в соответствии с дополнительный образование брать ;

– персонал к профессии снова подготовка ;

– профессиональный подготовка .

Удаленный образование с дневное время и переписка образование формы сравнивая это заключение делать возможно , удаленно образование , персональные компьютеры , видео- и аудиотехника , космос и оптический волокнистый техники использовать основанный на образование информация технологии с предоставил переписка и дневное время образование разработка новый этап как видеть возможный . Удаленный образование переписка образование из формы Вот этот с разница делает это , тогда материала существенный часть независимый не будучи освоенным , учитель с постоянный в общении сделанный повысился (телефон) и интернет, лекция и на семинарах онлайн в режиме консультации). Также , удаленно образования переписка

образование из формы основной различия как следующее вход возможно :- телекоммуникации инструменты с использованием учитель с постоянный коммуникация , тело приходящий вопросы с ним / с ней оперативный в некотором роде коммуникация делать возможность . В развитых странах появляются новые типы учебных заведений. Такие учебные заведения стали называть «открытыми», «дистанционными» университетами, «электронными», «виртуальными» институтами. Они имеют собственную организационную структуру и используют соответствующие педагогические методы и экономические механизмы.

Использование интеграции в филологическом образовании обеспечивает обобщение знаний и их системное присутствие в сознании.

В настоящее время востребована новая среда обучения, то есть возможность учиться из любого места, общаться с любым образовательным учреждением и получать информацию из любой точки мира с использованием новых информационных технологий. В этом нам может помочь интернет-система. Можно наблюдать, как школы, колледжи и учебные заведения, где система обучения организована через Интернет, объединяются в развивающиеся в настоящее время «виртуальные учебные заведения». Это сокращает расстояние между образовательными учреждениями и обеспечивает максимальный обмен информацией. В связи с этим дистанционное обучение стало популярным как весьма необходимый и быстрый способ обучения и получения образования в области филологического образования.

При дистанционном обучении функцию преподавателя выполняют средства обучения и тестирования (полностью автоматизированные, законченные программные продукты), а также видеоматериалы и методические материалы, опубликованные в электронном виде, которые образуют автоматизированную среду обучения.

Электронный учебник возможности умножение и видеооборудование современный инструменты использовал без расширение возможный . Это образовательные курс в соответствии с видеолекции , производство выпускать процессы шоу , знаменитый ученых выступления и другие быть возможный .

Современный к компьютеру намеревался дидактический программы (электронные учебник , компьютер задания , мультимедиа электронный учебники и другие) преподавания мультимедиа инструменты к сути входит . Мультимедиа передача дидактического материала высокий на уровне комфортный и демонстративный быть обеспечивает , это , его В свою очередь , студенты изучать интерес увеличивается .

Около до настоящего времени удаленный образование , переписка образование , открытое образование и и т. д. такой как концепции почти друг от друга неразделимый был . Однако текущий ко времени приди , удаленный образование собственный важность и необходимость доказано . Однако до сих пор этот образование форма или технология сказал вопросы на данный момент останки . Потому что это вопроса из концепции удаленный образования стратегия , реализация увеличивать тактика и учителя удаленный в образовании работать подготовить связанный будет .

Ссылки:

1. Мухторов А. и др. Зарубежный опыт развития сферы образования // Научный электронный журнал «Экономика и инновационные технологии». № 4, май 2012 г.

2. И.Н. Зорников , Л.П. Волкова. Проблема и перспектива международный интеграция мира образование.- Воронеж , 2009. С. 13-18.

3. Ричард Арум, Мелисса Велес. Улучшение среды обучения : школьная дисциплина и сравнительный анализ Перспектива . Издательство Стэнфордского университета , США: 2012.

4 . Х. Фрай , С. Кеттеридж , С. Маршалл . Справочник по преподаванию и обучению в системе высшего образования. Нью-Йорк, Рутледж, 2009.

5. Ишмухамедов Р., Абдукародиров А., Пардаев А. В образовании инновационный технологии (образование) учреждения педагоги-учителя для практичный рекомендации).-Т.: Фонд « Исте'дад » , 2009 -160 с .

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA SODIR BO‘LGAN IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLARNING TALABA-YOSHLARDA VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

A.A.Ahmadjonov
Andijon davlat universiteti 3-bosqich talabasi
aliakbarahmadjonov2004@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistondagi milliy ozodlik harakatlarining talaba-yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishdagi o‘rnini tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Maqolada harakatlarning tarixiy shart-sharoitlari, ularning ta’lim va ma’rifat sohasidagi islohotlari, shuningdek, yoshlar ongiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, ushbu harakatlardan bugungi kunda talaba-yoshlarni tarbiyalashda qanday saboqlar olish mumkinligi haqida takliflar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, “usuli jadid”, Vatanparvarlik, “Adabiyot yoxud milliy she’rlar”, “Chig‘atoy gurungi”, ma’rifat, Milliy o‘zlikni anglash, “Xurshid”, “Taraqqiy”, “Shuhrat”.

Turkistonning XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi tarixiy jarayonlari o‘zbek xalqining milliy o‘zligini anglash va mustaqillik uchun kurashda muhim bosqich bo‘ldi. Bu davrda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi sharoitida shakllangan milliy ozodlik harakatlari, xususan jadidchilik harakati, xalqning ma’naviy va ijtimoiy hayotida katta o‘zgarishlar yasadi. Ushbu harakatlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy sohalarga ta’sir qildi, balki yosh avlod, xususan talaba-yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Vatanparvarlik – bu o‘z yurtiga muhabbat, uning kelajagi uchun mas’uliyat va milliy qadriyatlar uchun kurashishni anglatadi. Ayniqsa, bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash O‘zbekistonning mustaqil rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

1. Milliy ozodlik harakatlarining tarixiy shart-sharoitlari

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi. Mustamlakachilik siyosati iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda og‘ir oqibatlarga olib keldi. Mahalliy aholi o‘z huquqlaridan mahrum qilindi, ta’lim tizimi zaiflashdi, milliy o‘zlikni saqlash xavf ostida qoldi. Biroq, bu og‘ir sharoitlarda xalqning ma’naviy uyg‘onishi boshlandi. Dunyodagi milliy ozodlik harakatlari, ayniqsa Turkiya, Misr va Hindistondagi islohotlar Turkiston ziyolilariga ilhom berdi.

Jadidchilik harakati bu davrning eng muhim milliy ozodlik harakati sifatida shakllandi. Jadidlar (yangi usul tarafdorlari) xalqni ma’rifat orqali uyg‘otish, zamonaviy ta’lim tizimini joriy etish va milliy o‘zlikni mustahkamlashni maqsad qildi. Bu harakatning yetakchilari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqalar – Turkiston xalqining kelajagi uchun muhim islohotlarni boshlab berdi. Ularning faoliyati nafaqat siyosiy kurash, balki yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan edi.

2. Jadidchilik harakatining ta’lim va ma’rifatdagi roli

Jadidlar ta’lim tizimini isloh qilishni o‘z faoliyatlarining asosiy yo‘nalishi deb bildilar. Ular Rossiya mustamlakachiligi davrida qoloq bo‘lib qolgan an’anaviy maktablar o‘rniga “usuli jadid” (yangi usul) maktablarini tashkil etdi. Bu maktablarda diniy fanlar bilan birga dunyoviy fanlar – matematika, tabiatshunoslik, geografiya va adabiyot o‘qitildi. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy Samarqandda ochgan maktablarida o‘zbek tilida darsliklar tayyorladi va o‘quvchilarni vatan tarixi bilan tanishtirdi.

Jadid maktablari yoshlarda nafaqat bilim, balki milliy o‘zlik va vatanparvarlik tuyg‘usini ham shakllantirdi. Talabalar o‘zbek xalqining o‘tmishi, uning buyuk allomalari – Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino kabi shaxslar haqida ma’lumot oldi. Bu bilimlar yoshlarda o‘z xalqiga g‘urur va vatan uchun mas’uliyat tuyg‘usini uyg‘otdi.

ostida she’rlar bitgan. Bobosi Afsus taxallusi bilan elga tanilgan. Shoir Mulla Jamolxon Vasfiy (1862-1930) Is’hoqxon Ibratning amakivachchasi bo‘lgan. Dastlabki ma’lumotni u eski maktabda, so‘ngra onasining qo‘lida olgan. Bu haqida o‘zining “Mezon uz-zamon” asarida shunday yozgan: “Avvalgi vaqtdagi mahalla maktabida 5 yilda 3 adad muallimda o‘qub, oxiri savodim chiqmay, keyin qizlar maktabida, o‘z uyimizda volidayi marhumamdan o‘qub savod chiqardim. Ikki sana qiblagohimdan husnixat mashq etdim”.1878-yilda Qo‘qondagi Muhammad Siddiq Tunqator madrasasiga o‘qishga kirgan. Bu yerda u madrasada beradigan ilmlar bilan cheklanmasdan, Qo‘qon adabiy muhiti namoyandalari, jumladan, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Haziniy va Nodim kabi shoirlar ijodi bilan yaqindan tanishish, o‘qib-o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Badiiy so‘z tabiatiga oid Abu Nasr Forobiyning “Shoirlarning she’r yozish san’ati qonunlari haqida”, Nizomiy Aruziy Samarqandiyning “Nodir hikoyatlar”, Abdurahmon Jomiyning “Silsilat-az-zahhob”, Alisher Navoiyning “Nazm-ul-javohir”, “Muhokamat-ul-lug‘atayn” va yana juda ko‘p Sharq olimlari asarlarini mustaqil mutolaa qilgan. “Ibrat” taxallusi bilan she’rlar bitgan va Qo‘qonda tashkil etilgan adabiy mushoiralarda ishtirok etgan. U o‘zbek va rus tillarida nashr bo‘lgan “Turkestanskie vedomosti” hamda Turkiston o‘lkasiga endi tarqalayotgan Ismoilbek G‘aspiralining “Tarjimon” gazetasi bilan birinchi marta shu talabalik yillari tanishgan.Har qanday guruh, tashkilot, jamoa, bo'limda tan olingan alohida obro- e'tiborga ega bo'lgan shaxs mavjud bo’lib, u mazkur tashkilotning faoliyatiga bevosita ta'sir o'tkazadi, bu o'zini boshqaruv harakatlarini faoliyatida namoyon qiladi. Sohibqiron Amir Temurning “Azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir”, degan fikri ham buni tasdiqlaydi. Bugungi kunda biz bunday haxslarni liderlar deb ataymiz. Lider so‘zi inglizcha “leader” - yetakchi, boshliq, rahbar biror siyosiy partiya yoki tashklilotning rahbari, yo‘lboshchisi ma’nolarini anglatadi.[1] Guruh, jamoa jarayonlarining dinamikasida liderlik mavzusi muhim rol o‘ynaydi, u o‘ziga xos tarixiy xusu-siyatga ega va jamiyatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni aks ettiradi. O‘zining umumiy ma’nosida liderlik – bu shaxsning boshqalarga ta’sir qilish qobiliyati, shu bilan ularni o‘z maqsadlariga rahbar uchun zarur bo‘lgan usullar bilan erishishga undaydi.Rahbarlik faoliyatida liderlik mavzusining dolzarbligi shundaki, ko‘plab rus, belarus va xorijiy olimlar hamda mahalliy tadqiqotchilar liderlik fazilatlari masalalari bilan shug‘ullanib kelmoqda. Biroq muammo bo‘yicha pedagogik, sotsiologik, falsafiy va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, shuncha ko‘p izlanishlar, tadqiqotlarga qaramay, ushbu hodisa va uning tarkibiy qismlari yuzasidan hali ham bir aniq fikr mavjud emas Liderda bo‘lishi kerak bo‘lgan fazilatlar va ularning tavsifi masalasiga kelsak, shuni ta’kidlash kerakki, hozirgacha universal liderlik fazilatlari aniqlanmagan, shuning uchun liderlik va liderlik fazilatlari sohasidagi tad-qiqotchilar ba’zan butunlay boshqacha fikrga ega. Lider – bu ma’lum shaxsiy fazilatlari, ko‘nikmalari mavjudligi sababli odamlar guruhidan ajralib turadigan va bu xususiyatni egallagan shaxs hamda bulardan tashqari, uning harakatlari liderning prototipi, bunday odamning o‘ziga xos yetakchilik uslubi bor, bu ko‘pincha tashkilot turiga, hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifaga va izdoshlarning o‘ziga bog‘liq. Shuningdek, liderlik fazilatlarining o‘zi ham irsiy omillar, tarbiya va ta’lim sharoitlari, ham ijtimoiy muhit va vaziyat jihatlari bilan belgilanadi.

Liderlik (inglizcha: leader - yetakchi, boshlovchi so‘zidan) – umumiy bir ishnibajarishda boshqalarning yordami va harakatini yakdil bir g’oya asosida birlashtiruvchi ijtimoiy ta’sir jarayonini ifoda etuvchi falsafiy tushuncha sanaladi,[2] XX asrda Turkiston o’lkasida millatning asl fidoiy liderlari-jadidlar yetishib chiqdi. Maorif orqali xalqni madaniyati va ma’naviyati yuksaltirish, taraqqiy topgan davlatlar bilan faol diplomatik munosabatlarni amalga oshirish, millatni jaholat va botqog’idan chiqarib, millatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy ongini o’stirishda Behbudiy, Fitrat, Ibrat, Cho’lpon kabi millat oydinlarining xissalari beqiyos. Lider qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak? Ibratning xalqni milliy taraqqiyot sari yetaklashi, liderlikning asosiy xususiyatlari quyidagilar edi:

1. Mas'uliyatli va qiyin qarorlarni qabul qilish qobiliyati, ular uchun tegishli javobgarlikni o'z zimmasiga olishi (1886-yilda madrasada o‘qishni tugatib, o‘z qishlog‘i To‘raqo‘rg‘onga qaytib kelgan. Is’hoqxon Ibrat o‘z faoliyatini To‘raqo‘rg‘onda yangi maktab ochib, dars berishdan boshlagan. Uning maktabi “usuli qadim” (“usuli tahajji”), ya’ni hijo metodiga asoslangan maktablardan birmuncha farq qilar edi. Is’hoqxon o‘z maktabiga nisbatan ilg‘or bo‘lgan tovush (savtiya) usulini tatbiq qilgan edi. Biroq bu maktab uzoq faoliyat olib bormagan. O‘zgacha uslubdagi bu maktabni Namangandagi Rossiya imperiyasi amaldorlari tomonidan yopishga majbur qilingan.)
2. Shaxsiy manfaatlar uchun emas, balki odamlarning umumiy manfaatlari va manfaatlari haqida qayg'urishi (Is’hoqxon Ibrat qariyb o‘n yil davom etgan xorij safaridan keyin xalqning ongini

o‘stirish, ilm-ma’rifat nuridan bahramand qilish yo‘lida tinimsiz mehnat qilgan. 1898-yildan e’tiboran To‘raqo‘rg‘on xalq qozisi, Turkiston qozilar syezdining faol a’zosi sifatida faoliyat ko‘rsatganManfaati shaxsiyani emas, milliy mafaatlarni ustuvor deb bilishi, poraxo’rlik, ta’magirlik, qalloblik kabi ijtimoiy illatlar ko’paygan bir davrda xalqni adolat, halollik, iymon-e’tiqod, poklik, kabi gumanistik g’oyalarni “Fiqhiy Kaydoni tarjimasi” (1908), “Jome’ ul-xutut” (“Yozuvlar majmuasi”) (1912), “Tarixi Farg‘ona” (1916), “Tarixi madaniyat” (1917), “Mezon uz-zamon” (“Zamon torozusi”) (1928), “Devoni Ibrat”, “Gulshani Roz turkiy”, “Tarjimai holim”, “Tarixi Hurriyat”, “Qo‘rboshilar zamoni”, “Mishkat ul-g‘aroyib”, “Muzabzab”, “Turkistonda turli mashaqqatlar”, “Barzah”, “Tazkirayi Suvaydo”, “Sayri jibol” kabi asarlari asarlarida yoritib berdi..)

3. Odamlarni butunlay ixtiyoriy asosda boshqarish qobiliyati (Is’hoqxon Ibrat 1908-yilda Rossiyaning Peterburg va Moskva shaharlarida bo‘lgan, o‘quv yurtlari, ayniqsa, zamonaviy maktablar, diqqatga sazovor joylar bilan tanishadi. Peterburg Ermitajida saqlanayotgan Mus‘hafi Usmoniyni ko‘ziga surtadi. Qaytishda Orenburgda Gafman degan matbaachidan pulini o‘n yil mobaynida to‘lash sharti bilan kreditga litografik mashina sotib olgan va uni butun anjomlari bilan juda katta mashaqqatlarga qaramay Orenburgdan Qo‘qongacha poyezdda, Qo‘qondan To‘raqo‘rg‘ongacha tuyalarda olib kelgan. 1908-yilning dekabr oyida bir necha yildan beri bo‘sh yotgan hammom binosida bosmaxona tashkil qilgan va unga “Matbaa Is’hoqiya” nomini bergan. Bu ishda unga yaqin do‘stlari Husayn Makayev va Abdulrauf Shahidiylar katta yordam bergan. Ushbu matbaa ochilishini tabriklab, “Tarjimon” va “Vaqt” gazetalarida bir necha tabrik-maqolalari e’lon qilingan.)

4. Xarizma va tabiiy ta'sir kuchiga egaligi (Madaniyat, san’at va adbiyot kuchini terna anglagan Ibrat xalqni milliy ongini so’z va adab ilmi vositasida, gazet bilan o’zgartirishga ximzat qildi)

5. Yetakchilikka bo'lgan ishonch (1886-yilda madrasada o‘qishni tugatib, o‘z qishlog‘i To‘raqo‘rg‘onga qaytib kelgan. Is’hoqxon Ibrat o‘z faoliyatini To‘raqo‘rg‘onda yangi maktab ochib, dars berishdan boshlagan. Uning maktabi “usuli qadim” (“usuli tahajji”), ya’ni hijo metodiga asoslangan maktablardan birmuncha farq qilar edi. Is’hoqxon o‘z maktabiga nisbatan ilg‘or bo‘lgan tovush (savtiya) usulini tatbiq qilgan edi.)Rus-tuzem maktablariga dastlab farzandlarini berib xalq uchun foydalik ilmlarmi olish lozimligi isbotlab, xorijdan muallimlar jalb qilib milliy pedagogika tarixida tub burilish yasaganligi, bid’at va xurofotlarga nisbatan ratsionalistik yonashuv asosida raddiyalar berdi va tez orada ommani o’z maqsad va qarashlariga ishontira oldi, ayollar maktabi, Ibrat bog’i, bosmaxona va kutubxonasi va.b.

Bir qarashda liderlik rahbarlik kabi ko'rinishi mumkin. Qisman to`g`ri, ammo ularning o`zaro farqli jihatlari mavjud. Birinchidan, lider har doim parda ortida va o'z-o'zidan aniqlanadi, rahbar esa rasmiy ravishda tayinlanadi.

Ikkinchidan, rahbar u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ma'lum bir guruh vakili bo'lib, yetakchi, aksariyat hollarda, guruhdan ajraladi. Yuqorida sanab o‘tilgan hususiyatlar shaxsda yillar mobaynidagi tajriba va tug‘ma iste’dod asosida shakllanib boradi.

Ta’lim jarayonida yoshlarning liderlik xususiyatlarini rivojlantirishda nimalarga e’tibor qaratish zarur. Bu borada Ibratning quyidagi qarashlariga e’tibor qaratish lozim: Ta’lim tizimi shunday yo‘lga qo‘yilishi kerakki, bu o‘quvchilarni tavakkal qilishga undaydigan va ularni xato va kamchiliklari uchun jazolamaydigan bo‘lishi lozim. Insonning aql-idroki o‘sishi va hayotdagi yuksalishi orttirgan tajribalari orqali bo‘ladi. (Eski maktab xususidagi mulohazalari toshkentlik maktabdor Husaynxo’ja domla bilan munozarali maqolalarida atroflicha yoritiladi) Zamonaviy ta’lim yoshlarda liderlik, ishbilarmon, innovatorlik va tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Xorijiy tillarni o’rganish orqali shaxsiy rivojlanish bizga ma’lumki, Haj safari orqli dunyo ko’rgani zamoanviy kasb-hunarlar olamdagi yangiliklarni o’lkaga joriy etish uchun harakat qilishi

Moliyaviy savodxonlik. Millatning asosiy tanazzuli sabablaridan biri iqtisodiy bilimlarining yetarli emasligi, o’rgatilmasligi edi. Biroq bugungi moliyaviy savodxonlik shaxsiy, oilaviy va biznes byudjeti va moliyasini boshqarishdagi eng muhim mahoratlardan biridir. Ta’lim tizimida yoshlar o‘zlarining shaxsiy mablag‘larini tejash, sarflash va investitsiya qilish nuqtai nazaridan samarali boshqarish usullarini o‘rganishlari kerak. Qarz va soliq savodxonligi yoshlarning kelajakda o‘z bizneslarini ochishda va boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Ibratning ijtimoiy illatning qurbonlarini tahlil qilib yozgan Qarz musaddasi bugun ham muhim ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini yo’qotmagan.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda liderlik xususiyatlarini rivojlantirish uchun bugunda kunda mamlakatimizda barcha sharoitlar yaratilgan. Buni O`zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat

siyosati to`g`risida”gi qonuni, “Ta’lim to`g`risda”gi qonunlarda o`z aksini topganligida ko`rishimiz mumkin. Ibrat asarlarini atroflicha talqin etish va hayotga tatbiq etish yoshlarda liderlik xususiyatlarini rivojlanishida muhim rol o`ynaydi. O’z ilmiy va ijodiy faoliyati bilan yangi zamon ruhiga mos yoshlarni yetishtirish lozimligini teran anglagan millat oydini Ibrat chinakam ibrat-namuna ramzi sifatida bo’liq qoladi. Uning tarbiya,adabiyot,texnika,pedagogika singari sohalarda ilgari surgan idealari bugun ham o’z ahamiyatini yo’qotmaganligi Uchinchi Renessansning poydevori ilm-ma’rifat,izlanish va zamona bilimlari bilan hamnafas bo’lish,millat erki va taqdiri yosh avlodni egallangani intellektual salohiyatiga uzviy bog’liq ekanligini alohida ta’kidlab o’tishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbek tilining izohli lug‘ati. –T. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2013. 497-b.
2. Chemers M. (1997) An integrative theory of leadership. Lawrence Erlbaum Associates, Publishers. ISBN 978-0-8058-2679-1
3. K.Turaev Yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish. Yangilanayotgan jamiyatdayoshlarning ijtimoiy faolligi: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to‘plami. –T. 2020. 14-b.

GLOBAL MAKONDA TALABALARNING MA’NAVIY, MA’RIFIY VA AXLOQIY DUNYOQARASHI: IJTIMOIY MOSLASHUVI VA MA’NAVIY TARBIYASI

N.A.Dadaboyeva
University of Business and Sciense Ijtimoiy va gumanitar fanlari fakulteti pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada respublikamizda talabalarni ma’naviy, ma’rifiy,va axloqiy dunyoqarashini global makonda shakillantirishning ahamiyati va talaba shaxsining ma’naviy qiyofasiga qo’yiladigan talablar , yurtimizda yo’lga qo’yilayotgan islohotlar haqida so’z borgan.

Kalit so’zlar: talaba, dunyoqarash, global makon, qadryat, ma’naviy meros.

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi jamiyat hayotining barcha sohalarida poklanish, ijtimoiy munosabatlar, jismoniy barkamol yosh avlodni amalga oshirilishida ma’naviy va tarbiyalash borasida jiddiy o‘zgarishlar qilishni taqozo etdi. Jumladan ma’naviy-axloqiy tarbiyaga bog‘liq milliy an'analar, sermazmun milliy qadriyatlarning ildizlari ajdodlarimiz merosini o‘rganish va ommalashtirish, milliy ma’naviy-axloqiy tarbiyada umuminsoniy qadriyatlarning o‘rnini yuksaltirish va uning talabalar shaxsida uyg‘unlashuvini ta’minlash, o‘zbek talabasiga xos xususiyatlarni (mentalitetini) yaratish va keng targ‘ib etish jamiyatning asosiy negizi hisoblanmish yoshlarni Yangi O‘zbekiston ma’naviyatiga mos shaklan va mazmunan shakllantirishning va global makonda talabalarning ma’naviy, ahloqiy, ma’rifiy dunyoqarashini shakillantirish davlatimiz va o’quv maskanlarimiz oldida turgan ustuvor vazifa garovidir.

ASOSIY QISM. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma’naviy axloqiy tarbiya ham muhim o‘ringa yega bo‘lib, uni samarali tashkil yetish talabalarda ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari,mezonlarini o‘quvchilar ongida singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo‘lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk namoyondalari jalb etilgan.Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilish mazmuni, nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Shuningdek, u odamlarning amal qilib kelayotgan tajribalari, yutuqlari, urf-odatlari va an’analari asosida tashkil qilingan. Hozirgi eng dolzarb muammolardan biri oliy o’quv yurtlaridagi ta’lim-tarbiya ishlari samaradorligini keskin oshirishdan iboratdir. Chunki respublikamizning rivoji, ravnaqi va istiqboli ko’proq oliy maktab tayyorlayotgan mutaxassislarning mahoratiga bog’liqdir. Oliy o’quv yurtlaridagi ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun talabalar bilan o’qituvchilar o’rtasida uzluksiz ta’sir o’tkazish hukm surishi lozim.O’qituvchi bilan

talabaning hamkorlikdagi faoliyati negizida o’quv-tarbiya ishlarini to’g’ri yo’lga qo’yish muammosi yotadi. Bu borada biz dastlab, buyuk allomalarimiz qoldirgan ta’lim va tarbiya borasidagi asarlari, g‘oyalar va ularning bugungi kundagi ahamiyatini o‘rganishni lozim topdik.

Ma’naviy meros o‘tmishning yutug‘i. Uni to‘la, odilona egallash va rivojlantirish esa hozirgi avlodning vazifasidir. O‘z madaniy merosini, qadriyatlarini bilmaslik yoki mensimaslik manqurtlikdir. Ularni boyitib, yuksak darajaga ko‘tarishga intilmaslik esa millat va uning istiqloli uchun fojeadir. Ma’naviy-axloqiy tarbiyasi yuksak darajada rivojlangan insongina istiqlol, jamiyat va davlat kelajagi uchun mehnat qilishga o‘zida kuch va qudrat topa oladi. Shaxs ma’naviy-axloqiy tarbiyasi dastlab oila sharoitida shakllanadi va jamiyat ma’naviyatini belgilovchi mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Buning asosida ta’lim muassasasida o‘quvchi va talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini ta’minlash va mustahkamlashda maxsus ta’lim-tarbiyaviy dasturlar asosida ma’naviy-axloqiy ishlar samaradorligi oshirib boriladi. Shu boisdan, madaniy merosdan, bugungi kun qadriyatlaridan to‘g‘ri foydalana olish, tarixdan to‘g‘ri xulosa chiqara bilish, o‘z tarixiga va bugungi ahvoliga, madaniy merosi va ma'naviy qadriyatlariga, diniga va axloqiga va huquqiy amaliyotiga, turmush tarziga tanqidiy ko‘z bilan qaray olish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim ma'naviy asosidir.

Yoshlarimizning ma’naviy olamida bo‘shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur bo‘lib, bunda xalq eposlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, “Alpomish” eposini to‘liq o‘qigan yosh qalb yovuzlikka o‘rin qolmaydi. Eposdagi timsollar Alpomish, Barchinoy, Qultoy, Qorajon, Haqbaxshi, Qaldirg‘och oyim, Yodgor kabilar yoshlarimizning azimu shijoatga, ezgulikka undayveradi. Xalqimiz o‘z eposlar orqali barkamol, komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona-o‘zbekona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Ota-bobolarimizning ongu tafakkurida shakllangan, necha ming yillar davomida sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharmu hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg‘u va tushunchalar bu eposlarning asosiy ma’no-mazmunini tashkil etadi, desak xaq gapni aytgan bo‘lamiz. Dunyo tinchligini hamisha fisqi-fasod, ko‘rolmaslik kabi illatlar buzadi. Shu boisdan bugungi axboratlashgan jamiyatda “Alpomish” eposidagi Suxayil kampir ig‘volariga hushyor boqmoq zarur bo‘ladi. Shu bois yosh avlod ongida murakkab va tahlikali hayot haqida, uning shafqatsiz o‘yinlari to‘g‘risida biryoqlama va soxta tasavvurlarni xalq eposlari va uning tizimidagi qadriyatlar bartaraf qiladi. Zero, badiyatni kuchi, adabiyotning kuchi atomdan kuchlidir.

Inson bilim orqali dunyoni qanchalik ko‘p bilib borsa, o‘z faoliyatini ham shunchalik yaxshi anglay boradi. Bilimli bo‘lish uchun vaqtni ayamaslik, vaqtdan unumli foydalanish lozim. Inson ma’rifat va bilim orqali yuksak ma’naviyatlilik cho‘qqilarini egallaydi, barkamol, komil inson bo‘lib yetishadi. Ma’rifat keng ma’noda odamlarga bilim berish, ko‘nikma va malaka hosil qilish demakdir. U ma’naviyatni shakllantiruvchi, jamiyatning yaratuvchanlik, bunyodkorlik quvvatini oshiruvchi inson faoliyati sohasidir. Boshqacha aytganda ma’rifat jamiyatning ta’limtarbiyaga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan inson faoliyatini qamrab oluvchi tushunchadir. Kishilarni ma’naviyatli va ma’rifatli qilib tarbiyalash ishlari barcha zamonlarda ta’lim va tarbiya orqali amalga oshirib kelingan. Ma’naviy ishlar har qanday jamiyat va mamlakat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etuvchi omil hisoblanadi. Yosh avlodning umuman jamiyatning har bir a’zosining tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmagan mamlakat turg‘unlikga yuz tutadi va oxir oqibatda inqirozga mahkum bo‘ladi. Ma’naviy targ‘ibot ishlari hech qachon bugungi globallashuv jarayonlaridagidek, dolzarb vazifaga aylanmagan. Ma’naviy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lgani, mafkuraviy tahdid va axboriy xurujlar ko‘payib borayotgani, odamlar ongi va qalbini egallash yo‘lidagi kurash jarayonlari kuchaygani uchun hayotning barcha jabhalari, ishlab chiqarishning hamma sohalari, aholining hamma qatlamlari orasida ma’naviy ma’rifiy va mafkuraviy sohada jadal ishlarni amalga oshirish targ‘ibotchi oldidagi eng muhim vazifa hisoblanadi. Aslida ma’naviy tarbiya masalasi nafaqat milliylik, balki globallik xususiyatini kasb etuvchi tushunchadir. Lekin, globallashuv jarayoni hozircha faqat qandaydir mavhum ijobiy jihatlari bilangina emas, balki ko‘proq “hozirgi davr global muammolari”ni keltirib chiqargani va, hatto “sovuq urush bilan almashgan” boshqa variantdagi urush ekani alohida ta’kidlanmoqda.

XULOSA. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni 4 ta bob, 33 ta moddadan iborat bo‘lib, davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish, ularning intellektual, ijodiy va boshqa salohiyatlarini kamol toptirish uchun shart-

sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliyhuquqiy chora-tadbirlar tizimini o‘zida mujassam etgan. Unda belgilangan normalar o‘tgan yillar mobaynida qabul qilingan qonun hujjatlarining yoshlarga oid normalari bilan o‘zaro bog‘langan va ular o‘rtasidagi uyg‘unlik ta’minlaganligini yana bir karra isbotlaydi.

Xulosa o‘rnida bir jihatni alohida ta’kidlab o‘tmoqchimiz. Vatanimiz mustaqilligi, uning ma’naviy asoslarini avaylab-asrash, aholimiz, ayniqsa yosh avlod ongida milliy-ma’naviy qadriyat, an’analarimizga sodiqlik ruhida ruhida tarbiyalash uchun barchamiz birdek mas’ulmiz.

References

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining O’zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent sh.

2. 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni1. O’zbekiston Respublikasining "Ta’lim to’g’risida"gi qonuni -T.: "O’zbekiston", 2020 yil 23 sentabr.

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish O’zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo’llab-quvvatlash to’g’risida"gi 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106 son Farmoni

4. O’zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag’ishlangan videoselektor yig’ilishidagi nuqti (https://www.gazeta.uz)

5. Ortiqov, O. R. (2021). GLOBALLASHUV JARAYONIDA BO’LAJAK O’QITUVCHILARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI. Scientific progress, 1(5), 160-165.

6. A.Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” 2-tab'i, sana 1336 h./1917 m. Toshkent, Tip. Lit. «Par. Sots, revolyuts» 1917g.

7. E. G‘oziyev.Oliy maktab psixologiyasi.-T.: O‘qituvchi. 1997.40-43b.

8. Karimova M. Yosh avlodni tarbiyalashning ma’naviy axloqiy jihatlari. Ayolma’naviyat gulshani IIV respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2015 yil. 311-313 b.

9. Karimova M “Ilk o‘spirinlik davridagi o‘quvchilarda axloqiy hislarni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari” monografiya T-2021. 64-66 b.

10. Karimova M.Kh. The role of moral values in adolescents and their role in determining the criteria of spiritual perfection. Scientific reports of Bukhara state university 2020/6(82), 283-290 p.

11. Karimova M.Kh The importance and value of spirituality as an important period in the formation of moral feelings. European scholor journal Volume 3, Issue 3 March, 2022 85-86 p.

12. http://marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/Abdulla-Avloniy-milliy-uyg-onish-davri-ozbek-pedagogikasining-asoschisi.htm

YANGI O`ZBEKISTONDA YOSHLAR HAQ-HUQUQLARINING KAFOLATLARINING YARATILISHI

M.J.Tolibjonova
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi
B.A.Tillayev
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola Yangi O'zbekistonning yoshlar siyosati va ularning huquqlari hamda erkinliklarining kafolatlanishi mavzusiga bag'ishlangan. Maqola yoshlar huquqlarini himoya qilish va ularning erkinliklarini ta'minlash borasidagi mavjud qonuniy asoslar va amaliyotlarni tahlil qiladi. O'zbekiston hukumati tomonidan yoshlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar va loyihalar haqida so'z boradi. Maqolada, shuningdek, yoshlar uchun yaratilar ekan, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy huquqlari keng ko'lamda kafolatlanishi lozimligi hamda bu borada amalga oshirilgan islohotlarning tahlili yoritiladi.

**Kalit so`zlar**: Yangi o`zbekiston, yoshlar haq-huquqlari, Ijtimoiy himoya yoshlarning ta’limi, yoshlar uchun qonunlar, Yoshlar agentligi, Yoshlarga davlat yordami O'zbekistonda yoshlar siyosati Yoshlar ma’naviyati, Yoshlar kelajagi Shavkat Mirziyoyev va yoshlar Islom Karimov va yoshlar faoliyati

Аннотация: данная статья посвящена теме молодежной политики нового Узбекистана и гарантии их прав и свобод. В статье анализируются существующие правовые основы и практика защиты прав молодежи и обеспечения их свобод. Речь идет о мерах и проектах правительства Узбекистана, направленных на защиту прав молодежи. В статье также освещается вопрос о том, что при создании для молодежи должны быть гарантированы широкие социальные, экономические и политические права, а также анализ проводимых в этом направлении реформ.

Ключевые слова: новый Узбекистан, права молодежи, социальная защита образование молодежи, законы для молодежи, молодежное агентство, государственная помощь молодежи Молодежная политика в Узбекистане молодежная духовность, будущее молодежи Шавкат Мирзиеев и молодежь Ислам Каримов и молодежная деятельность

Abstract: This article is devoted to the topic of the youth policy of the new Uzbekistan and the guarantee of their rights and freedoms. The article analyzes the existing legal framework and practice of protecting the rights of young people and ensuring their freedoms. We are talking about measures and projects of the Government of Uzbekistan aimed at protecting the rights of youth. The article also highlights the issue that broad social, economic and political rights should be guaranteed when creating for young people, as well as an analysis of the reforms being carried out in this direction.

Keywords: new Uzbekistan, youth rights, social protection, youth education, laws for youth, youth agency, state aid to youth Youth policy in Uzbekistan youth spirituality, the future of youth Shavkat Mirziyoyev and youth Islam Karimov and youth activitie

Har bir mamalakatning taraqqiyot rivojiga chiqishi uchun yoshlarning o`rni muhim o`rin tutadi.Shunday ekan olib borilayotgan islohotlar va qarorlarda yoshlar masalalari va ularning erkinliklari haq-huquqlarini kafolatlanishi talab qilinadi.Yoshlar har qanday jamiyatning tayanchi, kelajagi va taraqqiyot harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Shu sababli O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati doimiy rivojlanib bormoqda. Bu borada tarixiy zamin Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan yaratilgan edi. U kishi “Yoshlar bizning ertamiz, ularning taqdiri bizni mutlaqo befarq qoldirolmaydi” degan so‘zlari bilan yoshlar masalasiga bo‘lgan e’tiborni ifodalagan.

Islom Karimov tashabbusi bilan 1996-yil "Yoshlar yili" deb e’lon qilinib, respublika miqyosida yoshlar uchun bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar yo‘lga qo‘yildi. Aynan o‘sha yillarda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tashkil etilib, yoshlarning manfaatlarini ifodalovchi kuchli institut sifatida shakllandi. Bundan tashqari, ta’lim tizimida zamonaviy maktablar, litsey va kollejlar barpo etilib, yoshlarning bilim olishi va kasb-hunar o‘rganishiga keng yo‘l ochildi.

Yangi O‘zbekiston davrida esa bu an’analar izchil davom ettirilmoqda. Jumladan, 2017-yil 5-iyulda “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilinib, yoshlar bilan ishlashga yangicha yondashuv boshlangan. “Yoshlar ittifoqi” tashkil etilib, ularning ijtimoiy faolligi oshirildi.

Shuningdek, “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi doirasida minglab yoshlar o‘z biznesini yo‘lga qo‘yish, uy-joy olish, chet elda o‘qish kabi imkoniyatlarga ega bo‘lmoqda. Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar parlamenti, “Yoshlar daftari” tizimi joriy qilinib, ularning huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy qo‘llab-quvvatlanishi kafolatlandi.

Bugungi kunda yoshlarning huquq va erkinliklarini ta’minlashda quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda:

- Huquqiy himoya: Yoshlar uchun alohida qonunlar qabul qilinmoqda, sud-huquq tizimida ularning manfaatlari inobatga olinmoqda;
- Ta’lim imkoniyatlari: Chet elda tahsil olish uchun grantlar, xalqaro dasturlar ochildi;
- Ish bilan ta’minlash: Startaplar, “Yoshlar daftari” orqali bandlikka ko‘maklashish;
- Yoshlar siyosatida ishtirok: Yoshlar parlamenti, forumlar orqali fikr bildirish imkoniyatlari.
- Yangi O'zbekistonda yoshlar uchun kafolatlangan huquqlar va erkinliklar tizimi shakllanib borayotgani hamda ularni himoya qilishga oid chora-tadbirlar tizimi doimiy ravishda rivojlanmoqda. Yoshlar – mamlakatning kelajagi va rivojlanishining asosi bo'lib, ularning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekistonda yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan ko'plab qonuniy va amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, yoshlarning huquqlarini samarali kafolatlashda mavjud ba'zi muammolar va

ularni hal etish yo'llari mavjud. *Masalan,**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 6-maydagi "Yoshlar siyosatini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori yoshlar siyosatiga bag'ishlangan muhim hujjat hisoblanadi*.

O'zbekistonda yoshlar huquqlarining kafolatlanishi sohasidagi islohotlar bir necha yillardan beri davom etmoqda. Hukumat tomonidan yoshlar uchun turli qonunlar va dasturlar ishlab chiqilgan. Misol uchun, Yoshlar masalalari bo'yicha davlat qo'mitasi tashkil etilib, yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy huquqlarini ta'minlash bo'yicha dasturlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, ta'lim, ish bilan ta'minlash, tibbiy xizmat, uy-joy va boshqa muhim masalalar bo'yicha yoshlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratilgan. Biroq, amaldagi tizimda ayrim muammolar ham mavjud. Ular orasida yoshlarning ishga joylashishdagi qiyinchiliklar, ta'lim tizimining ba'zi kamchiliklari, huquqlarni himoya qilishdagi ayrim zaifliklar va boshqa masalalar bor.

Muammoni hal qilish uchun, birinchi navbatda, yoshlar bilan ishlovchi institutlar va tashkilotlarning faoliyatini yanada takomillashtirish, yoshlarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Yoshlarning ta'lim, ish bilan ta'minlash va ijtimoiy himoya tizimlaridagi muammolarni hal qilish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar samarali bo'lishi kerak.

Yoshlarning haq-huquqlarining kafolatlanishi qanday muammolarga yechim bo`la oldi?

Ushbu savolga quyidagicha nazar tashlaylik: O`zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishgandan so`ng o`zining davlat ramzlari qatorida bosh qomusimiz Konstitutsiyasiga ega bo`ldi.Bosh qomusimizda inson haq-huquqlari to`g`risda ham bir qator qarorlar keltirilgan.So`nggi yillarda e`tibor qaratilayotgan muhim masalalardan biri yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar.Prezidentimiz tomonidan olib borilgan dasturlar o`z samarasini berib kelmoqda.Yoshlarning haq –huquqlarini kafolatlanishi quyidagi muammolarga yechim bo`la oldi va ulardan bir nechtasini ko`rib chiqaylik:

Muammo:Yangi g‘oya yoki biznes tashabbus bilan chiqqan yoshlar uni amalga oshirishda muammoga duch kelardi.

Ushbu muammoning yechimi quyidagicha bo`ldi:

Yechim: Startaplar uchun grantlar, imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari joriy qilindi. “Yoshlar biznes loyihalari tanlovlari” orqali tanlangan tashabbuslar moliyalashtirilmoqda.

Muammo: Ba’zi yoshlar o‘z huquqlari va qonuniy imkoniyatlarini yetarlicha bilmas edi.

Yechim: Maktab va oliy ta’limda huquqiy savodxonlik bo‘yicha darslar kuchaytirildi. “Huquqiy axborot kuni”lar, “Yoshlar forumi”larida yuridik maslahatlar berilishi yo‘lga qo‘yildi.

Muammo: Aholining chekka hududlarida yashovchi yoshlar markaziy shaharlardagi tengdoshlari bilan taqqoslaganda kamroq imkoniyatlarga ega edi.

Yechim: Internet orqali masofaviy ta’lim tizimlari rivojlantirildi, “Yoshlar texnoparki”lar, hududiy inkubatorlar tashkil qilinib, barcha hududlardagi yoshlarga teng sharoitlar yaratilmoqda

Muammo: Imkoniyati cheklanganlarning jamiyatga kirishmasligi

Yechim: Ularning oliy ta`lim, o`rta ta`lim maktablarida ta`lim olishi kafolatlandi, alohida ehtiyojmandlar uchun ta`lim sohasidagi kvotalar sonini ko`payishi.

Yuqoridagi keltirilgan muammolar va yechimlarni bir nechtasini ko`rib chiqdik.Biz yoshlarning haq-huquqlarining kafolatlanishi borasidagi islohotlar kundan sayin ortib bormoqda.Imkoniyatlarning kengayishi esa jamiyatning yaxlit tarzda rivojlanishi uchun xizmat qilmoqda.Ayniqsa imkoniyati cheklangan yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar ularning jamiyatdagi o`rni borligini his qilishiga katta tayanch bo`la oladi.

Xulosa. Maqolning asosiy mazmun-mohiyati, Yangi O‘zbekistonda yoshlar uchun yaratilgan huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy kafolatlar ularning hayotda o‘z o‘rnini topishiga, kelajak rejalarini mustahkam asosda qurishiga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan boshlangan asoslar va amaldagi Prezident Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan islohotlar yoshlar uchun keng ufqlarni ochmoqda. Bugungi yoshlar kelajakdagi Yangi O‘zbekistonni barpo etishda asosiy kuch bo‘lib borayotganidan dalolat beradi. Yangi O‘zbekistonda yoshlarning barcha qatlamlari shular jumlasidan imkoniyati cheklangan yoshlar uchun qabul qilingan qarorlar va islohotlar, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishlarini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu islohotlar orqali imkoniyati cheklangan yoshlar uchun teng imkoniyatlar yaratilib, ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Bu davlat siyosati, albatta, yoshlarning o‘z huquqlari va erkinliklaridan to‘liq foydalanishlariga, shu bilan birga, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishlariga xizmat

qilmoqda.Ushbu yaratilgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar, biz yoshlarning har sohada yuksalishimiz uchun xizmat qilmoqda.Biz ulardan oqilona foydalanishni bilishimiz va shunday tinch yurtda prezidetimizning biz uchun qayg`urishini qadriga yetishimiz kerak holos.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Sh.M.Mirziyoyev, "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz".
2. Shomurodov, S. "O'zbekistonda yoshlar siyosatining rivojlanishi va kelajagi". Toshkent: "Shuhrat", 2019. 15-45 – Yoshlar siyosatining asosiy yo'nalishlari, yoshlar huquqlari va ularning kafolatlanishi.
3. Tashkent, I. "Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosati: Tadqiqot va istiqbol". Toshkent: "O'zbekiston", 2021. 10-30, 45-60 – Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosatining shakllanishi, yoshlar huquqlarini himoya qilish va kafolatlar haqida.
4.G‘ulomov A.X., Rashidov R.A. *Yoshlar siyosati: Nazariya va amaliyot.* – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.
5.Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

D.M.Buzrukova
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi PhD
buzrukovadilorom@gmail.com +998912822888

Anotatsiya. Mazkur maqola kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslarini o'rganishga qaratilgan. Nutq madaniyati o'quvchilarning so'zlash, tinglash, fikrlarini to'g'ri va aniq ifodalash, shuningdek, ijtimoiy muloqotda madaniyatli va samarali ishtirok etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Maqolada nutq madaniyati tushunchasi, uning ahamiyati va shakllanishidagi asosiy tamoyillar, shuningdek, pedagogik metodlar va usullar haqida keng qamrovli ma'lumotlar keltirilgan. O'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida hamkorlik, shuningdek, nutq madaniyatini shakllantirishda interaktiv o'yinlar, hikoyalar, rolli o'yinlar kabi innovatsion pedagogik vositalardan foydalanish muhimligi ta'kidlanadi. Ushbu maqola, o'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish jarayonida samarali pedagogik yondashuvlarni qo'llash orqali ularning umumiy rivojlanishiga, ijtimoiylashuviga va kelajakdagi muvaffaqiyatlariga hissa qo'shishning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so‘zlar: nutq madaniyati, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar, pedagogik asoslar, muloqot madaniyati, tinglash va so'zlash madaniyati, pedagogik metodlar.

Nutq madaniyati insonning jamiyatdagi o‘rni va o‘zini qanday tutishiga, boshqa odamlar bilan muloqotda qanday faoliyat yuritishiga ta’sir ko‘rsatadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar o‘zlarining nutq madaniyatini shakllantirish jarayonida o‘z fikrini aniq, to‘g‘ri, ravon va tushunarli ifodalashni o‘rganishlari kerak. Nutq madaniyati nafaqat so‘zlashda, balki tinglashda ham ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Pedagogik jarayonda nutq madaniyatini shakllantirish orqali o‘quvchilarning fikrlash, muloqot qilish, ijtimoiy muloqotda samarali ishtirok etish ko‘nikmalari shakllanadi. Shuning uchun, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Nutq madaniyati — bu insonning o‘z fikrini ifodalashda, kommunikatsiya jarayonida to‘g‘ri va ravon so‘zlash, so‘zlar va ifodalarning muayyan me'yorlariga rioya qilish san'ati hisoblanadi. Bu tushuncha o‘quvchining aniq va tushunarli so‘zlash, o‘zingizni to‘g‘ri, madaniyatli ifodalash va boshqalarni tinglash madaniyatini o‘z ichiga oladi. Nutq madaniyati o‘zaro muloqotning muvaffaqiyatli bo‘lishiga va o‘quvchining ijtimoiylashuviga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

O‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish ularning umumiy rivojlanishiga, fikrlash va muloqot qilish ko‘nikmalarining shakllanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, nutq madaniyati o‘quvchilarning o‘zini anglashiga, o‘z fikrini boshqalarga to‘g‘ri va aniq yetkazish qobiliyatini rivojlantiradi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish jarayoni pedagogik, psixologik va ijtimoiy tamoyillarga asoslanadi. Bu jarayonni amalga oshirishda quyidagi asosiy pedagogik tamoyillarni hisobga olish lozim:

1. Individual yondashuv

Har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy xususiyatlariga ega. Shuning uchun, o‘quvchilarga nutq madaniyatini o‘rgatishda individual yondashuvni qo‘llash zarur. Ba'zi o‘quvchilar nutqni aniq va to‘g‘ri ifodalashda o‘zlarini erkin his qilishlari mumkin, boshqalar esa ko‘proq yordamga muhtoj bo‘lishi mumkin. Pedagog har bir o‘quvchining ehtiyojlarini hisobga olib, o‘quv jarayonini tashkil qilishi kerak.

2. Muloqot madaniyati

Nutq madaniyati nafaqat so‘zlashda, balki tinglashda ham o‘zgaradi. O‘quvchilarga yaxshi tinglovchi bo‘lishni, boshqalar bilan muloqotda hurmat bilan yondashishni o‘rgatish zarur. O‘quvchilarni diqqat bilan tinglashga o‘rgatish, so‘zlash va gapirishni o‘rgatishda asosiysi tinglash madaniyatini shakllantirishdir.

3. Hikoyalar va ertaklar orqali nutq madaniyatini rivojlantirish

Hikoya qilish va ertaklar o‘quvchilarga nafaqat so‘zlash, balki o‘z fikrlarini o‘rganish va ularni aniq tarzda ifodalashga yordam beradi. O‘quvchilarga ertaklar, hikoyalar orqali mavzularni ochib berish, ularning nutqini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Bu usul kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun qiziqarli va samarali bo‘lib, nutqni to‘g‘ri va ravon tarzda shakllantirishga yordam beradi.

4. Ijtimoiy muloqot orqali nutq madaniyatini o‘rgatish

O‘quvchilarga nutq madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy muloqotning roli katta. Sinfda guruh bo‘lib ishlash, munozara qilish va boshqa o‘quvchilar bilan fikr almashish jarayonlari ularning o‘z fikrlarini to‘g‘ri va aniq ifodalashni o‘rganishlariga yordam beradi. O‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot va fikr almashish orqali nutq madaniyati shakllanadi.

Nutq madaniyatini shakllantirishda turli pedagogik metodlar va usullar qo‘llanilishi kerak. Bu metodlar o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda samarali bo‘ladi:

1. Vaqtli mashg‘ulotlar va interaktiv o‘yinlar

O‘quvchilarga nutq madaniyatini shakllantirishda interaktiv o‘yinlar, mashg‘ulotlar va vaqtli topshiriqlarni qo‘llash muhim. O‘quvchilar o‘yinlar orqali o‘z fikrlarini izohlaydi, so‘zlashda va nutqni ifodalashda yangi tajribalar orttiradilar. Bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Dialoglar va rolli o‘yinlar

O‘quvchilarni rolli o‘yinlar orqali nutq madaniyatiga o‘rgatish juda samarali bo‘ladi. O‘quvchilar turli vaziyatlarda muloqotda bo‘lishadi, o‘zlarini boshqa insonlar sifatida tasavvur qilishadi va nutqni aniq va to‘g‘ri shakllantirishni o‘rganadilar. Bu usul kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun qiziqarli va samarali hisoblanadi.

3. Tinglash va izohlash mashqlari

O‘quvchilarga tinglashni va so‘zlashda to‘g‘ri izoh berishni o‘rgatish kerak. Ularni tinglash madaniyatiga o‘rgatish, nutqni to‘g‘ri va ravon shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilarga o‘z fikrlarini aniq va to‘g‘ri izohlashni o‘rgatish zarur.

4. Kitob o‘qish va tahlil qilish

O‘quvchilarni kitob o‘qishga va o‘qiganlarini tahlil qilishga undash orqali nutq madaniyatini shakllantirish mumkin. Kitob o‘qish orqali o‘quvchilar so‘z boyligini oshiradilar, yangi so‘zlarni o‘rganadilar va ulardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rganadilar.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish jarayoni juda muhimdir. Nutq madaniyati o‘quvchilarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, fikrlarini aniq va to‘g‘ri ifodalashi, boshqalar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilishlari uchun zarur. Pedagogik yondashuv va metodlar orqali o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirishda muvaffaqiyatga erishish mumkin. Nutq madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari esa o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akhmedov, A. Pedagogik nutq va uning o‘qituvchiga ta’siri. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. 2016. B 60.

2. Hoshimov, T. Nutq madaniyati va uning maktab ta’limidagi roli. Tashkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti. 2019. B 35.
3. Ibragimov, X. Kichik maktab yoshidagi bolalarda nutq madaniyatini rivojlantirish. Tashkent: Yoshlar nashriyoti. 2015. B 25.
4. Ismoilov, M. Pedagogik texnologiyalar va nutq madaniyati. Toshkent: Akademnashr. 2020. B 91.
5. Mirzaeva, F. O‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. Tashkent: Sharq nashriyoti. 2018. B 50.
6. Safarov, S. Nutq madaniyati: pedagogik yondashuvlar. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti. 2017. B 115.
7. Tursunova, D. Pedagogik jarayonlarda nutq madaniyatini shakllantirishning zamonaviy metodlari. Journal of Pedagogical Sciences, 3(1), 45-51. https://doi.org/10.1234/jped.2021.0345 2021. S 45-51.

BO`LAJAK TEXNOLOGIK TA`LIM O`QITUVCHILARIDA VIZUAL TAFAKKUR VA INNOVATSION DIZAYN RIVOJLANTIRISHDA TRANSFORMATSION YONDASHUVNING O`RNI

Sh.Sh.Shuxratov
Farg‘ona davlat universiteti, texnika fanari bo`yicha falsafa doktori,
sharof.shukhratov@ktu.edu +998935198118
ORCID ID 0000-0002-9626-7193
G.B.Butayeva
Farg‘ona davlat universiteti, “Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasi o`qituvchisi,
butayevagulmira@gmail.com +998930418558
ORCID ID 0009-0004-7594-5444

Annotatsiya. Zamonaviy texnologik ta’limda vizual kommunikatsiya va grafik kompetentlikning ahamiyatiga qaratilgan. O‘qituvchilarning grafuk kompetentligini oshirishda vizual vositalardan foydalanish, innovatsion yondashuvlarga moslashish va talabalarning muvaffaqiyatini ta’minlash masalalari tahlil qilinadi. Grafik dizayn va vizual kommunikatsiya orqali o‘quvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatish va ta’lim sifatini oshirish zarurligi ko‘rsatiladi. Maqola, bo`lajak o‘qituvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan tayyorlashning ahamiyatini ta’kidlaydi.

Аннотация. Основное внимание уделяется важности визуальной коммуникации и графической компетентности в современном технологическом образовании. Анализируются вопросы использования наглядных пособий, адаптации к инновационным подходам и обеспечения успеха учащихся в повышении графической компетентности преподавателей. Посредством графического дизайна и визуальной коммуникации демонстрируется необходимость обучения учащихся творческому мышлению и повышения качества образования. В статье подчеркивается важность подготовки будущих учителей с использованием современных технологий.

Abstract. It focuses on the importance of visual communication and graphic competence in modern technological education. Issues of the use of visual tools, adaptation to innovative approaches and ensuring the success of students are analyzed in increasing teacher graphuk competence. Through graphic design and visual communication, it is indicated that it is necessary to educate students in creative thinking and improve the quality of Education. The article highlights the importance of training prospective teachers with modern technology.

Kalit so’zlar: Vizual kommunikatsiya, grafik kompetentlik, raqamli savodxonlik, pedagogik metodlar, transformatsion yondashuv

Ключевые слова: визуальная коммуникация, графическая компетентность, цифровая грамотность, педагогические методы, трансформационный подход

Keywords: visual communication, graphic competence, digital literacy, pedagogical methods, transformational approach

KIRISH. Zamonaviy dunyoda vizual kommunikatsiya — nafaqat san’at va dizayn sohalarida, balki ta’lim, biznes, tibbiyot va texnologiya kabi ko‘plab jabhalarda muhim kommunikativ vositaga aylanmoqda. Ta’lim siyosatidagi yangi yo‘nalishlarni tahlil qilarkan, raqamli erada talab qilinadigan asosiy kompetensiyalar qatorida vizual savodxonlik, grafik fikrlash, va ma’lumotlarni grafik ifodalash ko‘nikmalariga alohida urg‘u beradi. Bu shuni anglatadiki, zamonaviy talaba va o‘qituvchi: murakkab axborotni grafiklar, diagrammalar va infografikalar orqali tushuna olishi; ma’lumotlar orasidagi bog‘liqlikni vizual tarzda namoyon eta olishi; dizayn va ifoda orqali ijodiy, analitik va tanqidiy fikrlashni uyg‘unlashtira olishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasida raqamli transformatsiya ta’lim sohasini ham o‘z ichiga olmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashning hozirgi zamondagi maqsadlari bitiruvchilarning grafik ta’limi mazmunini va tuzilmasini jiddiy o‘zgartirishni nazarda tutadi. Ushbu maqsadlar jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini joriy etishga, bugungi kundagi maktablarning texnologik ta’lim o‘qituvchilariga qo‘yayotgan talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilardan nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar, **raqamli savodxonlik** va **ijodiy yondashuv** ham talab qilinmoqda. Shu nuqtai nazardan, **kompetentlik** tushunchasi markaziy o‘rin egallaydi. Bu esa o‘qituvchining bilim, ko‘nikma, malaka va munosabatlarni o‘z ichiga olgan raqamli savodxonlik, vizual axborotdan foydalanish ko‘nikmalari, ijtimoiy tarmoqlarda grafik ifodaning samarali qo‘llanilishi **kasbiy tayyorgarligini** anglatadi.

Mamalkatimiz ta’lim tizimi uchun – har bo`lajak texnologik ta`lim o‘qituvchilarning o‘zlari ham grafik kompetentlikka ega bo‘lishlari kerak. Ammo aksariyat o‘qituvchilar an’anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa vizual kommunikatsiyaning ta’limdagi imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmasligiga olib keladi. Vizual kommunikatsiya nafaqat ma’lumot yetkazish vositasi, balki shaxsiy rivojlanish va kasbiy yuksalishning kuchli pedagogik instrumenti hisoblanadi.

Grafik vositalar – dizayn, infografika, 3D model, virtual simulyatsiyalar – orqali o‘quvchilar real hayotdagi muammolarga ijodiy yondashishni o‘rganadilar.
Vizual loyihalarda ishlash (masalan, infografika asosida taqdimot qilish)

O‘z g‘oyasini grafik vositalar orqali ifodalash – bu kommersiya qilinadigan kontent yaratish degani. Zamonaviy dunyoda shaxsiy brend, mahsulot va xizmatni grafik dizayn orqali targ‘ib qilish har bir mutaxassis uchun zarurdir. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, bo`lajak texnologik ta`lim o`qituvchilarining grafik kompetentligini transformatsion yondashuv asosida rivojlantirish talabalar o`z loyihalarda muvaffaqiyatga erishish va startap yaratish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.[1]
Transformatsion yondashuv doirasida grafik kompetentlikni shakllantirish bo‘lajak o‘qituvchilar uchun nafaqat texnik ko‘nikma, balki ta’limda yangi paradigma – vizual, interaktiv o‘rganish modeliga o‘tish imkoniyatini yaratadi. Shu bois bu yo‘nalishda grafik vositalar bilan ishlash madaniyatini, raqamli tafakkurni, ijodiy yondashuvni birlashtirgan holda pedagogik jarayonga chuqur integratsiya qilish dolzarb ilmiy va amaliy vazifadir.

NATIJA VA MUHOKAMA

Transformatsion ta’lim — bu o‘quvchining bilim olish jarayonida shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy nuqtai nazaridan chuqur o‘zgarishlarga erishishga yo‘naltirilgan yondashuvdir. Bu nazariya o‘rganishni tajriba, refleksiya va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘laydi. Transformatsion o‘qituvchilik talabani ilhomlantiradi, murakkab muammolarni grafik vositalar orqali modellashtirish orqali o‘z-o‘zini anglashni kuchaytiradi.[2]

Transformatsion o‘rganishni shaxsiy tajribalarni qayta ko‘rib chiqish va ularni konseptual xaritalar orqali o‘zgartirish jarayoni deb talqin qiladi. Bu uslub grafik kompetensiyani chuqurlashtirishda juda muhim.[3]

Grafik kompetentlik — bu axborotni vizual vositalar (grafikalar, diagrammalar, infografikalar) orqali ifoda etish, sharhlash va innovatsion yechimlar yaratish qobiliyatidir. Bu kompetensiya bir nechta tarkibiy qismlardan iborat: Ma’lumotni tushunarli va estetik tarzda ifodalash uchun kerakli dizayn tamoyillarini o‘z ichiga oladi[4].

Infografikalar yaratish. Murakkab statistik yoki g‘oyaviy kontentni vizual tarzda oddiy va samarali yetkazish[5].

Dizayn usulida fikrlash Muammoni aniqlash, prototip yaratish, testlash orqali yangi yechimlar ishlab chiqish bosqichlari[6].

Transformatsion yondashuv bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining grafik kompetentligini rivojlantirishda fundamental metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. U kasbiy tayyorgarlikni chuqurlashtiradi, o‘qituvchining ijodiy, reflektiv va analitik salohiyatini oshiradi, shuningdek, ta’lim jarayonini real amaliy faoliyatga yaqinlashtiradi. Mazkur yondashuv o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy o‘sishini jadallashtiruvchi, zamonaviy ta’lim talablariga javob beruvchi muhim vosita sifatida e’tirof etilishi lozim.

XULOSA. Maqolada zamonaviy texnologik ta'limda vizual kommunikatsiya va grafik kompetentlikning o‘rni tahlil qilindi. Zamonaviy ta'limda raqamli savodxonlik va grafik kompetentlik muhim rol o'ynaydi, chunki o‘qituvchilarning grafik kompetentligini oshiradi, balki talabalarning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Transformatsion yondashuv asosida ta'lim jarayonida o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini yangilash va o‘quvchilarning muvaffaqiyatini ta'minlash mumkin. Maqolada keltirilgan tadqiqotlar natijalari o‘qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini ko‘rsatadi. Grafik dizayn va vizual kommunikatsiya orqali o‘quvchilarni yangi paradigma – vizual va interaktiv o‘rganish modeliga o‘rgatishning ilmiy va amaliy jihatlari yoritildi. Bu jarayon o‘quvchilarning kreativ fikrlash, ijodiy yondashuv va yangi texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, maqolada grafik kompetentlikni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan yondashuvlar va amaliy vositalar taqdim etildi. O‘qituvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va qo‘llash imkoniyatlari yaratish ta'lim jarayonining sifatini oshiradi, talabalarning qiziqishini kuchaytiradi va ularning muvaffaqiyatlarini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, texnologik ta'limning zamonaviy talablariga mos ravishda bo`lajak texnologik ta`lim o‘qituvchilarni tayyorlashda grafik kompetentlik va vizual kommunikatsiya muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu sohada transformatsion yondashuvlarni amalga oshirish orqali o‘qituvchilarning metodik kompetentligini oshirish va o‘quvchilarning bilim darajasini yanada yuqori darajaga ko‘tarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chevalier & Buckley //Exploring the Role of Visual Communication in Education// 2022

2. Bass & Avolio //Improving Organizational Effectiveness Through Transformational Leadership//1994

3. Mezirow //Learning as Transformation: Critical Perspectives on a Theory in Progress// 2000

4.Tufte//The Visual Display of Quantitative Information// 2001

5. Smiciklas//The Visual Communication Handbook// 2012

6. Rowe //Design Thinking: Understanding the Process//1987

7.M. M. Ahmedov , BA Askarova , GB Butaeva , ME Madaminova , NORakhmatova , MAMahmudova , MAXudoynazarova , GXSolieva , MGKhasanov , RASiddikova . Formation of Technological Competency of Students on the Basis of Approaches with an Innovative Character. Biogecko Vol 12 Issue 03 2023 ISSN NO: 2230-5807

8.Sh.Sh.Shuxratov, Y.Shuxratova, X.Raxmonjonov . Применение творческих методов в непрерывном профессиональном образовании. Universum: психол

9.Sharof Shukhratov; Jakhongir Axmedov. The choice of raw materials for the production of bicomponent yarn. PTLICISIWS-2. 4–5 May 2023. Namangan, Uzbekistan. IOP conference proceedings. Volume 3045, Issue 1. 11 March 2024

10. Md. R. Repon, D. Mikučionienė, T. K. Paul, J. Y. Al-Humaidi, M. M. Rahman, T. Islam and S. Shukhratov, Architectural design and affecting factors of MXene-based textronics for real-world application. RSC Adv., 2024, **14**, 16093 **DOI:** 10.1039/D4RA01820F

11. Yakubov I., Shukhratov Sh., Murodov R. Creation of a mobile device for transportation of cotton and analysis of its mobile transmissions. PTLICISIWS-2. 4–5 May 2023. Namangan, Uzbekistan. IOP conference proceedings. Volume 3045, Issue 1. 11 March 2024

МЕТОДИКА ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ФОРМИРОВАНИЯ РЕЧИ ШКОЛЬНИКОВ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ

С.Хожикурбонова
Наманганский государственный педагогический институт

Аннотация: Статья посвящена использованию цифровых технологий, включая искусственный интеллект, для развития речи школьников. Рассматривается применение этих технологий в обучении диалогу и монологу, а также в коррекции речевых ошибок. Подчеркивается роль ИИ в предоставлении мгновенной обратной связи и улучшении навыков устной и письменной речи. Отмечается, что интеграция цифровых методов значительно повысит эффективность обучения.

Ключевые слова: развитие речи, методика, коммуникация, речевая деятельность, искусственный интеллект, монолог, диалог, цифровые технологии, нейросеть.

Развитие речи школьников представляет собой одну из приоритетных задач современной системы образования, поскольку речевая деятельность –неотъемлемая часть учебного процесса и основа успешного усвоения знаний по всем предметам. В условиях стремительно изменяющейся информационной среды, цифровизации и снижения уровня живой коммуникации у учащихся наблюдается снижение уровня устной и письменной речи, обеднение словарного запаса, трудности в построении связных высказываний и аргументации собственной позиции. Формирование развитой речевой компетенции необходимо не только для успешной социализации личности, но и для развития критического мышления, коммуникативных умений, способности к продуктивному взаимодействию в образовательной и внеучебной среде.

Методика развития речи учащихся представляет собой обособленное направление в методике преподавания русского языка, ориентированное на изучение закономерностей формирования речевых умений и навыков школьников. Основной задачей данной методики является определение целей, содержания, принципов, а также эффективных методов и приёмов, способствующих формированию полноценных коммуникативных способностей учащихся.

Объектом методики выступает сама речевая деятельность, охватывающая как устную, так и письменную форму высказывания, а **предметом** — процесс развития этой деятельности в рамках преподавания русского языка как учебного предмета. Развитие речи предполагает не только овладение средствами языка — фонетическими, лексическими, грамматическими и стилистическими единицами, — но и формирование способности к осмысленному восприятию информации и её последующей передаче в логически выстроенной форме.

Процесс речевого развития осуществляется через целенаправленную учебную деятельность, организуемую учителем и направленную на формирование у школьников языковой, речевой и коммуникативной компетенции. Данный аспект методики включает в себя как формальные знания о языке, так и практические навыки — построение связного высказывания, умение адаптировать речь в зависимости от ситуации общения, выразительность речи и умение аргументировать свою точку зрения.

Проблематика теоретических основ речевого развития учащихся широко представлена в научных трудах видных лингвистов, методистов и педагогов-практиков. Значительный вклад в формирование данного направления внесли такие исследователи, как К. Д. Ушинский, А. А. Леонтьев, Т. А. Ладыженская, Л. В. Занков, Р. С. Немов, Н. И. Жинкин, Л. С. Выготский, М. Р. Львова, Е. И. Никитина и другие. Их работы заложили прочный фундамент для современного понимания процесса развития речи в образовательной среде.

Речь является важным индикатором общей культуры и уровня грамотности личности. И в советской, и в современной образовательной системе приоритетной задачей остается стремление «подготовить грамотных, вооруженных навыками пользования устной и письменной речью, в такой степени, в какой достаточно будет им для активной творческой производственной и общественной деятельности» [1, с. 37]. Современная школа рассматривает речевую компетенцию не только как средство коммуникации, но и как инструмент мышления, самовыражения и критического анализа

окружающей действительности. Развитая речь способствует успешному обучению по всем предметам, помогает формировать аргументированную позицию, участвовать в диалоге, создавать собственные тексты разных жанров, а также воспринимать и интерпретировать чужую мысль. Поэтому работа над речевым развитием требует системного, методически обоснованного подхода на всех этапах школьного обучения.

Речь представляет собой деятельность человека, которая осуществляет реализацию мышления через использование языковых средств, таких как слова, словосочетания и предложения. Она выполняет функции общения, передачи информации, эмоционального выражения и влияния на других людей. Речь является важным индикатором культурного уровня человека, его интеллектуальных способностей и социальной адаптации [2, с. 314].

Речь действительно служит важным индикатором культурного уровня человека, его интеллектуальных способностей и социальной адаптации. Она отражает не только уровень образованности, но и способность к коммуникации, а также к эффективному восприятию и передаче информации. Современное общество, особенно в условиях быстрого развития цифровых технологий, ставит перед собой новые вызовы в области речевого развития.

С развитием цифровых технологий и искусственного интеллекта, появились новые возможности для улучшения речевых навыков. Цифровые технологии, такие как системы автоматического распознавания речи, интерактивные приложения и обучающие программы с ИИ, позволяют ученикам развивать свои речевые навыки в удобном формате, доступном 24/7. Эти инструменты дают возможность учащимся работать над правильным произношением, грамматикой и интонацией, а также позволяют получать мгновенную обратную связь.

Кроме того, цифровая среда способствует расширению возможностей для практики. Использование технологий позволяет моделировать различные ситуации общения, тренировать как диалоговую, так и монологическую речь, что важно для развития коммуникативных компетенций.

Использование цифровых технологий в обучении речи открывает возможности не только для улучшения монологической и диалогической речи, но и для их интеграции в реальной образовательной практике. Моделирование диалоговых ситуаций с помощью искусственного интеллекта, например, через чат-ботов или голосовых помощников, позволяет учащимся активно тренировать навыки общения в различных контекстах. Эти технологии могут имитировать реальные коммуникационные ситуации, где учащиеся могут вести беседу с виртуальным собеседником, анализируя свои ошибки и получая коррекцию в режиме реального времени.

Диалог, как форма общения, требует от человека гибкости в восприятии и реагировании, способности к адаптации под собеседника. Применение ИИ для тренировки диалога позволяет учащимся улучшать навыки слушания, задавать вопросы, поддерживать беседу и реагировать на реплики собеседника. Кроме того, такие технологии могут помогать учащимся развивать не только словесную составляющую общения, но и невербальные элементы — интонацию, жесты, что важно для реального общения.

Монолог, в свою очередь, представляет собой более структурированную форму речи, требующую четкости мысли, логичности изложения и способности к самовыражению. ИИ может быть полезен для тренировки монолога, предоставляя студентам возможность подготовить речи на различные темы и получать от технологий обратную связь по логике, структуре и точности их высказываний. Программы на основе ИИ могут анализировать содержание монолога, выделять ключевые моменты и предлагать способы улучшения.

Л.В. Щерба, один из классиков лингвистики, отмечал, что монолог, хотя и широко используется в языке, является в значительной степени искусственной формой речевой деятельности. В свою очередь, подлинная суть языка, по его мнению, раскрывается именно в диалоге, где происходит живое взаимодействие, обмен мыслями и чувствами между людьми [3]. Диалог представляет собой динамичную форму общения, в которой язык функционирует как средство не только передачи информации, но и как инструмент для установления взаимопонимания и построения социальных связей. В этом контексте диалог можно рассматривать как основную форму речевого взаимодействия, которая позволяет более полно и многогранно проявить возможности языка.

Искусственный интеллект (ИИ) может значительно улучшить развитие речи учащихся как в диалоге, так и в монологе через несколько ключевых механизмов.

1. **Интерактивные диалоги**: Эти системы могут выступать в роли собеседника, с которым учащиеся могут практиковать речевые навыки в различных контекстах. Такие системы могут анализировать речь учащегося, выявлять ошибки и давать обратную связь, помогая улучшать произношение, грамматику и лексическое разнообразие. Например, ИИ может моделировать ситуации, требующие от учащихся использования речи для решения практических задач, что развивает их коммуникативные навыки.

2. **Постоянная обратная связь:** В ходе диалога искусственный интеллект может моментально исправлять ошибки учащихся, объяснять их и предоставлять рекомендации по улучшению речи. Такой подход способствует формированию правильных речевых привычек и ускоряет процесс освоения языка.

3. **Практика монолога с ИИ:** Искусственный интеллект может быть использован для создания ситуаций, в которых учащиеся должны представить монологи. Например, ИИ может задавать вопросы по заданной теме и отслеживать, как учащийся строит ответы, выявляя проблемы с речью, лексикой или структурой. Это может быть полезно для подготовки публичных выступлений или для тренировки навыков ведения презентаций.

4. **Моделирование разных ситуаций общения:** Нейросеть может предлагать разнообразные сценарии, такие как деловые переговоры, интервью, повседневные разговоры, где учащиеся учат свои речевые навыки в реальных жизненных контекстах, что способствует лучшему усвоению языка и повышает уверенность в речи.

5. **Анализ и улучшение произношения:** С помощью технологий распознавания речи ИИ может отслеживать произношение учащихся, выявлять акценты, интонацию и паузы, а затем давать рекомендации по улучшению. Это особенно полезно для учащихся, изучающих язык как иностранный.

Искусственный интеллект становится важным инструментом, который помогает педагогам в процессе обучения, автоматизируя рутинные задачи и позволяя сфокусироваться на более сложных аспектах обучения. В частности, нейросеть облегчает проверку грамматики, орфографии и стиля, предоставляя учащимся возможность получать обратную связь в реальном времени, что способствует их более активному вовлечению в процесс обучения.

Однако важно помнить, что несмотря на все преимущества, искусственный интеллект не может полностью заменить роль учителя в образовательном процессе. ИИ является лишь дополнением, которое помогает улучшить качество образования, но не отменяет необходимость живого взаимодействия между преподавателем и учениками. Учитель остается ключевым звеном в организации учебного процесса и индивидуальной поддержке учащихся.

Список литературы

1. Котелова, Н. З. Значение слова и его сочетаемость (к формализации в языкознании) /Н. З. Котелова.-Л., 1975. 164 с.
2. Львов М.Р. Рамзаева Т.Г., Светловская Н.Н. Методика обучения русскому языку в начальных классах. - М.: Просвещение, 1987. –
415 с.
3. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. - Л.: Наука, 1974. - 427 с.
4. Месяц Н.К. Коммуникативный поход в обучении русскому языку в средней школе // Русский язык и литература. - 2000. - № 2. - С. 1-4.

PEDAGOGIK JARAYONLARDA TIZIMLI TAHLILNING INNOVASION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.

U.X.Axrorova
University of business and science” nodavlat oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: ahrorovaumida2188@gmail.com Tel: 94 309 08 08

Annotatsiya. V dannoy statye rassmatrivayutsya novыye pedagogicheskiye texnologii sistemnogo analiza v pedagogike, chto yavlyayetsya klyuchevым ponyatiyem v innovasionnoy obrazovatelnoy srede. V chastnosti, vajnы svedeniya o pedagogicheskoy sisteme, sovershenstvovanii pedagogicheskix texnologiy, prinsipax pedagogicheskoy texnologii.

Klyuchevыye slova: Texnologiya, pedagogicheskaya texnologiya, pedagogicheskaya sistema, sovershenstvovaniye pedagogicheskoy texnologii, osnovы pedagogicheskoy texnologii, pedagogicheskoye masterstvo, vidы pedagogicheskoy texnologii, prinsipы pedagogicheskoy texnologii.

Annotation. This article discusses new pedagogical technologies of system analysis in pedagogy, which is a key concept in an innovative educational environment. In particular, information about the pedagogical system, the improvement of pedagogical technologies, and the principles of pedagogical technology are important.

Key words: Technology, pedagogical technology, pedagogical system, improvement of pedagogical technology, fundamentals of pedagogical technology, pedagogical skills, types of pedagogical technology, principles of pedagogical technology.

Pedagogikaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi davrda pedagogik texnologiya tushunchasi ta’lim amaliyoti va nazariyasi ilmidan mustahkam o‘rin egalladi, lekin u pedagogikaning mukammal lug‘atlaridagi o‘rni hali aniq bo‘lmay qolmoqda. Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo‘lgan: u texnik vositalar haqidagi ta’limot deb hamda o‘qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin qilingan.

Pedagogik texnologiyalar ta’riflariga bo‘lgan turli yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, haqiqatdan ham o‘qitish texnologiyalari fan va ishlab chiqarish hamda o‘quv-pedagogik jarayon oralig‘idan o‘rin oladi. Bu kasbiy didaktik tayyorgarlik tizimidagi bilimlarning mustaqil sohasi bo‘lib, u o‘kitishning didaktika nazariyasi va amaliyoti bilan chambarchas bog‘langan. U o‘quv faoliyatini boshqarish jarayonini loyihalash va konstruksiyalash funksiyalarini o‘zida qamrab oladi.

O‘qitish texnologiyasi tarkibiga o‘kuv jarayonini boshqarishning aniq usullari, boshqarish va o‘qitishning ayni istiqbolli tadbirlari haqidagi ham nazariy, ham amaliy bilimlar kiritiladi. O‘quv jarayonining borishi sharoitlariga mos ravishda ularning izchilligi belgilanadi.

Ta’kidlash lozimki, "pedagogik texnologiya" va "pedagogik tizim" aksariyat holalarda o‘zaro aloqador hodisa. Zero, pedagogik jarayon dinamik tarzda rivojlanuvchi, boshqariladigan jarayon sifatida texnologik munosabatlarni tashkil etadi. "Texnologiya" so‘zi turli aspektlarda ishtiladi. Masalan, “pedagogik texnologiya” tushunasiga bunga bir qancha ta’riflarni keltirish mumkin:

“Texnologiya” tushunchasi yunoncha "Texnos" (techne) va "logos” (Logos) so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, "Hunar fani"ni o‘rganish degan ma’noni anglatadi. Bu tushuncha texnik taraqqiyot mazmunini ifodalashga xizmat qiluvchi tushuncha sifatida ilk marta 1872 yilda qo‘llanilgan. «Texnologiya» tushunchasi bugungi kunda mazmun va mohiyatiga ko‘ra quyidagi holatlarni ifodalash maqsadida qo‘llanilmokda:

Texnologiya - san’at, mahorat, ko‘nikma, metodlar yig‘indisi, muayyan holatni o‘zgartirishga xizmat qiluvchi jarayon; inson faoliyati va tafakkuri bilan bog‘lash bo‘lgan madaniy tushuncha; texnik jihatdan ahamiyatli sifat va qobiliyatning intellektual qayta ishlanishi; kandaydir jarayonni amalga oshirish metodlari haqidagi bilimlar yig‘indisi; amaliyotga joriy qilinishi talab etilayotgan ma’lum bir pedagogik tizim loyihasi.[1]

“Zamonaviy texnologik jarayon” deganda zarur vosita va sharoitlardan foydalanilgan holda ma’lum operatsiyalarni muayyan ketma-ketlikda bajarishga yo‘naltirilgan faoliyat tushuniladi. Aniqroq qilib aytganda, mehnat qurollari va predmetlari vositasida bosqichma-bosqich ta’sir etish orqali tayyor mahsulot yartishga yo‘naltirilgan faoliyat tushuniladi.

Ana shu ta’rifni tadqiqot mavzusiga ko‘chiradigan bo‘lsa pedagogik texnologiya - o‘qituvchi(pedagog)ning ta’lim-tarbiya vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan sharoitlarda tizimli ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisadir, degan g‘oya ifoda etiladi.[2: -B 53-54]

Texnologiya – bu metodlar yig‘indisini qayta ishlash, mavjud holatni o‘zgartirish mahorat san’ati.

Texnologiya – bu texnik ahamiyatli ishlanmalarni o‘zlashtirish va tadbiq qobiliyati.
Texnologiya - bu o‘quv jarayonlariga maqsadli, tashkiliy, mo‘ljalli pedagogik ta’sir etish vositasi.
Texnologiya – ta’lim natijalariga rejali muvoffaqiyat kafolatlangan uslub. [3]

Ko‘rib turganimizdek, pedagogik texnologiya xususidagi qarashlar yakdilligi bilan mushtarak xuloslarni beradi. U ma’lum maqsad natijaviy samaradorligiga qaratilganligi bilan pedagogikadagi muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik fan rivojini ta’minlashdagi zamonaviy yondashuvlar **pedagogik texnalogiyalarni takomillashtirish** pedagog olimlarning diqqat markazida turibdi. Ta’lim texnologiyasi pedagogik tizimning asosida shakllanadi va rivojlanadi va uning sifat darajasini bugungi zamon ehtiyojlari asosida tashkil etish davr talabiga aylanmoqda. Chunonchi, shu o‘rinda texnologiya nazariya bilan amaliyotni bog‘lovchi bug‘in sifatida xizmat qiladi. Texnologiyasiz alohida pedagogik fanlar amaliyotning takibiga aylanmaydi.

Pyedagogik texnologiyani ta’lim jarayoniga tadbig‘ining keng quloch yoyishi biroz qiyin kechmoqda, buning sababi, birinchidan, pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari ancha murakkabligi bo‘lsa, ikkinchidan, pedagogik olimlar va o‘qituvchilarni sinergetikaning majmular nazariyasini to‘la egallab olmaganligida deb tushuntirish mumkin. Majmular nazariyasini to‘liq bilmagan kishi, pedagogik texnologiyaning mazmun va mohiyatiga tushunib yetmaydi. Shu kundagi sinergetik dunyoqarash va uning tarkibiy qismi bo‘lgan, butun borliqqa majmu sifatida yondashuv tamoyilini bilmay turib, pedagogik texnologiyani amaliyotga singdirib bo‘lmaydi.

Pedagogik texnologiya – bu ta’lim jarayonlarida shaxs kamolotini maksimal darajada rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan va tanlangan ta’sir ko‘rsatish vositalarining xususiyati. U pedagog va o‘quvchi shaxsi alohida munosabatlarning keng qamrovli, individual uslublar hosilasi. Ta’limda “Texnologiya” iborasi pedagogik fan muomalasiga mutaxassislarning tarbiyalanuvchiga ta’sir ko‘rsatishni san’at darajasida e’tirof etish bilan boshlanadi. Ya’ni texnos san’at maxorat, logos ta’limot. Pedagogik texnologiya tarbiyalanuvchiga ta’sir etuvchi pedagoglar mahoratining professional tizimini ifoda qiladi. Pedagogik texnologiya – bu nafaqat texnika – texnologiyadan iborat, balki ta’lim jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan yondashuvlarning tahliliy materiallar, yangi samarali konstruksiyalar, uslublarning talablarga hozirjavobligi turkum elementlar yig‘indisi sifatida pedagogik texnologiyani tashkil etadi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya o‘quv jarayonlarini tashkil etish va maqsadga erishishni boshqarish kabi savollarga javob berishga qaratiladi. Jumladan,

-yangi texnologiyani joriy etishda mavjud texnologiya xususiyatini aniqlash;
-texnologiyaning maqsadini belgilash;
-sifat ko‘rsatkichlari va talablari;
-belgilangan talab va maqsadlarga erishishni talab etuvchi mexanizm tamoyillarini shakllantirish;
-parametr va muvozanatni belgilovchi texnologik jarayonning strukturasi;
-texnologik xarita va chizmalarni belgilash;
-texnologiyaning rag‘batlantiruvchi funksiyalarini belgilash;
-psixologik, fiziologik, texnik va boshqa resurslarni taqsimlash tamoyilini ishlab chiqish;[4]

Tarbiyalanuvchiga ta’sir ko‘rsatish bir qancha parametrlarni talab qiladi. Jumladan, rasional-ruhiy holat umumma’naviy daraja va yoshi, munosabatlarning shakllanishi, ma’naviy va intellektual rivoji. Bu parametrlar ta’lim oluvchining ob’yektini vujudga keltiradi. Aniqlangan ob’yektga nisbat sub’yekt ta’siri tanlanadi (Ta’lim haqorat, tahqirlash, ta’siridan qutilishi lozim. Koretkov V. M.).

Pedtexnologiyaning asosi:

1. Talabaga xurmat bilan qarashning amaliy muvofiqligi;
2. Pedagogik ta’sirning maqsadli va mantiqiy asoslanishi;
3. Har bir ishning oxiriga yetkazilishi;

Pedagogik mahorat:

1. Psixologik-pedagogik erudisiya;
2. Kasbiy mahorat;
3. Pedagogik texnika;

Ped texnologiya turlari:

1. O‘rgatish va namoyish qilishga qaratilgan ta’lim texnologiyasi u maxsus umumta’lim fanlarni o‘rgatishga doir faoliyat turlari haqida ma’lumot beradi.
2. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi u shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.
3. Ta’limni rivojlantirishga qaratilgan texnologiya bo‘lib, u ta’lim oluvchining shaxsini rivojlantirishga qaratilgan vosita va uslublardan iborat.

Pedagogik texnologiyani boshqa ta’lim usullaridan ajratib turadigan o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardir.

Birinchidan, avval ham bir necha bor ta’kidlaganimizdek, pedagogik texnologiya sinergetik dunyoqarashdan kelib chiquvchi ob’yektiv narsa va hodisalarga majmu yondashuv tamoyili asosida yaratilgan. Avvalgi pedagogik usullar, tuzilishi jihatidan erkin bo‘lib, dars tarkibini belgilash o‘qituvchi ixtiyorida bo‘lgan.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyada oldindan belgilangan asosiy maqsadga erishish kafolatlangan. Boshqa barcha pedagogik usullarda ta’lim-tarbiya faoliyatining kafolatlangan natijasi mavjud bo‘lmay, stixiyali natijalar bilan kifoyalanib kelingan.

Uchinchidan, pedagogik texnologiyada, asosiy maqsadga erishish bosqichma - bosqich amalga oshirilib, har bir bosqichda oldinga qo‘yilgan maqsadlar, bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar va talab qilinadigan vositalar hamda usul va uslublarning aniq modullari hosil qilinadi. Boshqa pedagogik usullarda ta’lim - tarbiya jarayonining yakunida umumiy maqsad qo‘yilib, unga erishish yo‘llari o‘qituvchining ixtiyoriga havola qilingan.

To‘tinchidan, pedagogik texnologiya universal xususiyatga ega bo‘lib, uni har bir mutaxasis, a’lo bo‘lmasa hamki, yaxshi amalga oshira oladi. Darsning intensivligiga va samaradorligiga, pedagogning mahorati va shaxsiy sifatlari deyarli ta’sir etmaydi.

Ta’lim-tarbiya jarayonlarida pedagogik texnologiyaning ma’lum tamoyillar asosida rivojlanadi va shakllanib boradi.

Pedagogik texnologiyaning birinchi tamoyili, bu “majmuaviy” yondashuvga doimo amal qilish”dir. Bu degani, dars loyihasini tuzishda va uni amaliyotda qo‘llashda, doimo majmu yodashuv tamoyilining qonun-qoidalaridan kelib chiqishlikdir. Majmu yondashuv tamoyilining qonun-qoidalari, birinchidan, o‘rganilayotgan har qanday narsa va hodisaga bir butunlik (majmu) sifatida qarash. Bu majmu yondashuv tamoyilining asosidir. Har qanday butunlik bir necha qism (element)lardan tashkil topgan bo‘lib, ular o‘zaro funksional bog‘liqlikda bo‘ladilar.

Ikkinchidan, har qanday butunlik (majmu)ning qismlari ham butunlik bo‘lib, o‘z navbatida bir necha butunlik (qism)lardan tashkil topgan bo‘ladilar. Bu degan so‘z, har qanday butunlik o‘zidan bir pog‘ona pastdagi butunliklardan tashkil topa turib, o‘zi o‘zidan bir pog‘ona yuqoridagi butunlikka element bo‘lib kiradi va hokazo. Bu majmu yondashuvning pog‘onadorlik tamoyilidir.

Pedagogik taxnologiyaning ikkinchi tamoyili – “o‘quv fanini tabaqalashgan modullarga ajratish”. Majmu yondoshuv tamoyilidan kelib chiqib, dars jarayoniga pedagogik texnologiyani qo‘llamoqchi bo‘lsak, birinchi navbatda, butun o‘quv fanini bir butunlik deb bilib, bu fan ichidagi bilimlarning turiga va ichki bog‘liqligiga qarab, bir pog‘ona pastda turgan, bir nechta butunliklarga ajratib chiqamiz. Buni shartli ravishda katta modullar deb nomlasa bo‘ladi. Modullarga ajratish jarayonining ikkinchi bosqichi, katta modullar ichida o‘rta modullarni ajratishdir. Bu jarayonda ham, katta modul ichidagi bilimlarning o‘xshashligi, mazmunining nisbatan tugallanganligi va bir dars mobaynida beriladigan bilimlarning hajmidan kelib chiqib, o‘rta modullarga bo‘lib chiqamiz. Har bir o‘rta moduldagi bilimlar hajmi, vaqt jihatdan bir darsda berib ulgurilishini ko‘zda tutish kerak.

Uchinchi tamoyili – “berilgan bilimni talabalar anglashlari, xotirasida saqlashlari va amaliyotda qo‘llashlarini birgalikda olib borishlikni ta’minlash”. Berilgan bilimni o‘quvchi va talabalar to‘liq anglab o‘zlashtirib olishlari darsda albatta muammoli vaziatni shakillantirilishi shart. Talabalarga berilishi ko‘zda tutilgan bilimga qiziqish uyg‘otib, so‘ngra beriladigan bilimni bera boshlasangiz, samarasi yuqori bo‘ladi. Muammoli vaziatni shakllantirish uchun hayotdan misol keltirib turib, talabalarga savol beriladi. Bu savolga javobni talabalar berishi bir oz bo‘lsada kutiladi. Ko‘p kutilsada bo‘lgan qiziqish susayib ketadi hamda ajratilgan vaqtdan unumli foydalanolmay qolinadi. Shuning uchun, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lishidan qat’iy nazar bir, ikki talabani javobini eshitganingizdan so‘ng, ularni javobiga ulab, to‘g‘ri javob aytiladi. Shunda darsda beriladigan bilimni talabalar yaxshi anglab yetadilar.

To‘rtinchi tamoyil - “maqsadlarning natijalari fe’l (amal)lar shaklida bo‘lishlik”. Bu tamoyil avvalgi tamoyilning davomi bo‘lib, pedagoglardan, talabalarga berilgan bilimni albatta ularning ko‘nikmasiga aylantirib berishni, talab qiladi. Berilgan bilimning yakuniy natijasi ko‘nikma shaklida bo‘lishlik deganda, talabalar egallagan bilimi asosida qandaydir amaliy faoliyatlarni bajara olishlari tushuniladi. Bu harakatlar ish, amal shaklida bo‘lib, ish harakatni bajarilganligini bildiradi. Berilgan nazariy bilim asosida qandaydir ish harakatni bajarish deganda, talabalar berilgan bilimni, kamida, mustaqil ravishda aytib bera olishliklarini ham anglanadi. Agar berilgan bilim qandaydir amaliy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lsa, talabalar albatta, berilgan bilim asosida muayyan bir amaliy ishni bajarishlari shart. Bu pedagogik texnologiyani asosiy talabi va tamoyillaridan biridir.

Beshinchi tamoyili - “tayanch tushunchalarni belgilash”. Pedagogik texnologiya asosida dars loyihasini tuzishda, shu modullari ichidagi tayanch tushunchalarni belgilab olishlik zarur. Tayanch tushunchalar deganda, darsda beriladigan har bir bilimning ichki mohiyati alohida bir tushunchada ifoda etilishiga aytiladi. Masalan, bitta darsda talabalarga yangi axborot berish uchun ikkita modul ajratilgan. Har bir modulda,qandaydir ikkita uchta yangi bilim berilishi ko‘zda tutilmoqda. Bu bilimlarni tushunchalar orqali talabalarga bildirasiz. Bu tushunchalarning ichida bitta, ikkita yoki uchtasi, shu bilimning mohiyatini ochib beradi. Dars o‘tiщdan oldin, shu tayanch tushunchalarni aniqlab olishlik lozim va dars jarayonida, ularni doimo ko‘zda tutish kerak.

Pedagogik texnologiyaning oltinchi tamoyili – “nazorat savollarini va talabalar bilim va ko‘nikmalarini baholash tur va mezonini aniklash”. Nazorat savollari tayanch tushunchalar asosida tuzilib, tayanch tushunchalar oz bo‘lsa, shundoqqina, ularning o‘zlaridan tekshirish uchun savollarni tuzib qo‘ysa bo‘ladi. Tayanch tushunchalar ko‘p bo‘lsa, ichidan muhimlarini tanlab olib, savol shakliga keltirib, nazorat savollari tuziladi.

Bilimlarni nazorat qilishda qo‘yiladigan ball va baholar o‘quvchi va talabada qanday taasurot qoldirganini, o‘rtoqlarining o‘qishidagi yutuq va kamchiliklariga qanday munosabatda bo‘lishlarini doim kuzatib borish uchun kerak. O‘quvchi va talabalar bilimini nazorat qilish hamda baholash o‘quv yili davomida har doim va muntazam amalga oshirilishi uchun reyting tizimi joriy qilinib, tartibli va doimiy baholash uchun imkoniyatlar ochib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Samarov R. “Tizimli tahlil asoslari”. T.: O‘quv – uslubiy majmua. 2015.
2. Tojiyev M,Ziyomuhammadov B Milliy pedagogik texnologiyani ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbig‘i va uni yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishdagi o‘rni.T.:”MUMTOZ SO’Z”, 2010 y. 53-54-b.
3. Apolov O. G. Teoriya sistem i sistemnыy analiz. Ufa. 2012.
4. Podlasыy, I.P. Pedagogika: 100 voprosov - 100 otvetov [Tekst]: ucheb.posobiye dlya vuzov / I. P. Podlasыy. - M.: VLADOS-press, 2004.

YOSHLARNING MA’NAVIY VA MA’RIFIY DUNYO QARASHLARINI RIVOJLANTIRISHDA JADID MAKTABLARINI AHAMIYATI

L.P.Mamasaidov
University of business and science Ijtimoiy fanlar kafedrasi PhD, katta o’qituvchisi
lutfillomamasaidov2@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o’lkasida jadidlar tomonidan tashkil etilgan “Yangi usul” maktablarining yuzaga kelishi va maktablarda darslarning olib borilishi hamda jadidlar tomonida yaratilgan adabiyotlar haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so’zlar: “Yangi usul”, “usuli savtiya tadrijiya”, “no’g’oy maktab”, “Turkcha qoida” va “imlo”, “Adibi avval”, “Adib us-soniy”, “Usuli hisob”, “Tarixi qavm turk”, “Tajvid”, “Havoyiji diniya”, “Tarixi anbiyo”, “Tarixi islomiya”.

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda hukm surgan favqulodda qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma`rifatni qilish jamiyat hayotida ijtimoiy

va madaniy islohotlar o’tkazish, pirovarida, milliy mustaqillik g’oyalarini hayotga tatbiq etish maqsadini o`z oldiga qo`ygan harakat sifatida tarixiy vaziyat taqozosi bilan vujudga keldi.

Jadidlar yurt istiqlolini va taraqqiyotini zamonaviy bilimlar bilan qurollangan yetuk mutaxassislarsiz tasavvur eta olmaganlar. Shu munosabat bilan ular asosiy e’tiborni mahalliy xalq bolalari ilg’or fikrli, bilimli kadrlar tayyorlashga harakat qildilar. Jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Abdulla Avloniyning “Tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot, yo xalokat, yo saodat yo falokat masalasidur”**[1.79]** - deb aytishi bejiz emas edi. Shu sababdan ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun maktab-maorif ishlarini yaxshi yo’lga qo’yishni va yosh avlod ta’lim-tarbiyasini birinchi navbatdagi masala, deb bildilar. Shu maqsad yo’lida o’tgan asr oxirlarida jadidlar butun Turkistonda, yangi usul maktablari ochish uchun harakat boshladilar.

Bunday maktablarning tashkil topishiga bir tomondan Rossiy imperiyasi ma’murlari, ikkinchi tomondan ijtimoiy voqelikka o’zining tor dunyoqarashi va nuqtai-nazaridan baho beruvchi kishilar to’sqinlik qildilar.

Yangi usul maktabi dastavval Qrimning Boqchasaroy shahrida 1884-yil ma’rifatparvar Ismoilbek Gasprinskiy tomonidan tashkil etilgan va u “usuli savtiya tadrijiya” (“rivojlanuvchi tovush usuli”) maktabi deb atalgan.

Dastlab, Xorazmda Muxammad Raximxon Soniy va Mirzaboshi Komil Xorazmiy rahnamoligida usuli jadid maktablari ochila boshladi. 1891-yilda ulug’ mutafakkir Komil Xorazmiy tashabbusi bilan Urganchda birinchi usuli jadid maktabi ochildi. Ushbu maktab xalq o’rtasida katta e’tibor qozondi, unda dastlab 25 o’quvchi ta’lim oldi. Diniy ilmlar bilan bir qatorda geografiya, tarix, xisob kabi aniq fanlar hamda rus tili alohda o’quv predmeti sifatida o’qitildi. Qozondan maxsus o’qituvchi chaqirilgan edi. An’anaviy maxalliy qadim maktablardan farqli ravishda dars jadvali, har bir dars 50 minut va 10 minutlik tanaffus joriy qilindi. Bu maktabni xatto Muxammad Raximxon kelib ko’rdi, o’g’li Asfandiyorni shu maktabga o’qishga berdi, maktabning kerakli jihozlari, o’quv qurollari uchun davlat xazinasidan mablag’ ajratdi. Bundan tashqari ushbu maktabda jadidchilik rahnomalarida Sayid Islomxo’ja, shoir va mutafakkir Yusufbek Bayoniy, Muhammad Rasul Mirzo (Komiy Xorazmiy o’g’li), Ahmad Tabibiy va Avaz O’tar o’g’li shu maktabda rus tilini o’rganishgan.

1893-yil Buxoro amiri Abdulahadxon ruxsati va Mo’minxo’ja Vobkendiy va G’ijduvonlik Domla Fozil sa’yharakati bilan Yangi usul maktabi ochildi. O’zbekiston hududida keyingi Yangi usul maktablari 1898-yil Qo’qonda Salohiddin domla va Samarqanddagi paxta zavodi huzurida tatar muallimlari tomonidan ochilgan (o’zbeklar bu davrda bunday maktablarni “no’g’oy maktab” deb atagan **[2. 41-56]**.

1898-yili Xivada Orenburglik muallimlar Maxmud Vafo va Abduraxmon afandilar tomonidan “usuli savtiya” maktabi ochildi. 1904-yil noyabr oyida Muxammad Raximxon farmoniga muvofiq Urganch shaxrida “usuli savtiya” usuliga asoslangan jadid maktabi ochiladi, Kozondan taklif etilgan pedagog Xusayn Kushaev muallimlik kiladi, o’quvchilar soni 45 nafarga etadi. Aynan shu yilda Xiva xonligida 1904-yili “Jamiyati xayriya”ni tuzdilar. Bu jamiyatning maqsadi yangi uslubdagi maktablar ochishda yordam uyushtirishdan iborat edi. Jadidlar yordamida 1906-1911-yillarda Xo’jayli, Qo’ng’irot, To’rtko’l, Gurlan va Shovotda ham yangi usul maktabilari ochishga erishildi. Bu maktabda Xusayn Qo’shaqov bilan birgalikda Komila Qo’shaqova, Yusuf Ahmadov, Muhammad Sharif Xudayberganov va boshqalar o’qituvchilik qildilar. 1906-yilda esa ota-onalar, marifaatparvarlarning taklifiga muvofiq Urganchda huddi shunday maktab qiz bolalar uchun ham ochiladi. Muallim etib uning rafiqasi Komila Kushayeva tayinlanadi. Ushbu maktabni Muxammad Rahimxon borib ko’radi, ta’lim-tarbiya ishlarining yangicha yo’lga qo’yilganligidan mamnun bo’lagan **[3. 43]**.

Namangan hududida 1907-yilda yangi usul maktabi tashkil etilib, bevosita mashhur o‘zbek ma’rifatparvari Ishoqxon Junaydullaxo‘ja o‘g‘li Ibrat nomi bilan bog‘liqdir.

To‘raqo‘rg‘onga taklif etilgan Husayin Makaev Ibrat tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktabida mahalliy aholi bolalarini o‘qita boshlaydi. Yangi usulda tashkil etilgan maktabda uning faoliyati tezda o‘z samarasini berib, mahalliy aholi bolalarining savodi chiqadi. Bu hol uning obro‘sini yanada oshishiga sabab bo‘ladi. Isoqxon Ibrat Husayin Makaevning faoliyatiga quyidagicha baho beradi: “Qozon tarafindan bir muallim jalb etub, maktab qilib berdim. Maktabning qushodig‘a (tashkil bo‘lganiga) uch oy bo‘lg‘ani yo‘q, yigirmadan ziyoda kichik bolalar, o‘n beshta odamlar “alif nima?” degan savolina “kaltak” deb javob beruvchilar tamom savodi chiqib, har narsani yozadurg‘an bo‘ldilar” **[4. 54]** deya fikr bildiradi.

Yangi usul maktablarida maktabxonadagi yakka o’qitish usulidan sinfda dars berish usuliga o’tildi, yangi usuldagi maktab xonalarining ichki tuzilishi, eski maktablardan parta, yozuv taxtasi, geografik karta va o’qituvchi uchun stol-stulning borligi bilan ajralib turgan. Maktablarda bolalar 2-3 yil o’qishni davom ettirganlar. Usuli savtiya maktablari eski usul maktablaridan ta’limning sifati bilan ham farq qilgan. Bu e’tiroflar o’sha davr matbuotida ham o’z aksini topgan. Masalan, Andijondagi Azim Qodirov maktabi 3 sinfli bo’lib, 1 chi sinfda bolalarga o’qish va yozish, 2 chi sinfda tajvid, hisob, 3 chi sinfda esa ibodati islomiya, sarfi turkiy o’rgatilgan. 1900-yil may oyida Otabek qozi ishtirokida ushbu maktab o’quvchilaridan imtihon olingan **[5. 73]**.

Yangi usul maktablarida yuqori sinflar uchun fizika, kimyo, geometriya kabi o’quv fanlaridan o’zbek tilida darslik, o’quv qo’llanmalari bo’lmagan. Muallimlar bu fanlar bo’yicha tatar, turk tillarida nashr qilingan qo’llanmalardan foydalanishga majbur bo’lganlar.

Yangi usul maktablariga hukumat hech qanday yordam bermagan. Maktablar bolalarning ota-onalaridan har oyda olinadigan mablag’ hisobiga ishlagan, muallimlarga ham shu hisobdan maosh to’langan. Yangi usul maktablarida may oyi oxirlarida ota-onalar va mehmonlar ishtirokida imtihonlar o’tkazilgan. Imtihonda bolalar Qur’on suralarini yod aytishni, o’zbek tilidan o’qish va yozishni, hisobdan 4 amalni o’rganganliklarini namoyish qilganlar. Yangi usul maktablari zamonaviy o’zbek milliy maktablarining ilk bosqichi bo’lgan. Bu maktablar tajribasi asosida faqat Alifbe va o’qish kitoblarigina emas, o’zbek tilining qonunqoidalari yoritilgan “Turkcha qoida” va “imlo” kabi dastlabki o’quv qo’llanmalari yaratilgan **[6. 57]**.

Maktablaridagi o’qituvchilarning ko’pchiligi madrasalarda tahsil olgan bo’lib, ba’zilari esa huddi shunday maktablarni tamomlagan kishilar edilar. Darslar o’quv jadvali asosida, senzura ko’rigidan o’tgan darsliklar bo’yicha olib borilgan. Maktablarda o’quvchilar soni 50 tadan 145 tagacha etgan. Barcha maktablarda har oyiga o’qish uchun 50 tiyindan 1 so’m 50 tiyingacha haq olingan. Kambag’al oilalarning bolalari esa ba’zan to’lovdan ozod etilganlar.

Yangi usul maktablarda quyidagilarga e’tibor qaratilgan edi:

- sinfda bolalar 30 dan oshmasligi;
- marta yoz va qishda bolalarni maktabga qabul qilish;
- 1 muallimda 3-4 sinf bo’lishi;
- dars 5 soatdan oshmasligi, har darsdan so’ng 10 daqiqa tanaffus;
- juma va bayram kunlari dam olinishi, yozda ta’til bo’lishi;
- dars zerikarli bo’lmasligi, bolalarni urish, so’kish mumkin emas **[7. 87]**.

Amerikalik olim Edvard Ollvortning ma’lumotiga ko’ra, Munavvar Qori maktabidagi o’quvchilar o’qish va axloq asoslari darslarini yozib olish uchun haftada kushimcha 9 soat shug’ullangan. Shu 9 soat dan 4 soat Munavvar Qorining «Ikkinchi o’qituvchi» kitobiga bagishlangan. 1 soati So’fi Olloyor she’riyatiga ajratilgan. Darslar turk va fors tillarida olib borilgan. O’quvchilar 2 soat arifmetika, 2 soat geografiya, 1 soat tarix, jami 25 soat haftalik o’qigan. Yuqorida qayd etilgan Munavvar Qorining namuna maktabida Oybekning tahsil olganini Edvard Ollvort ham yozib o’tadi.

Jadid maktablarida o’quvchilarga faqat chet-eldan keltirilgan o’quv adabiyotlaridan tashqari o’zlari tomonidan ham o’quv qo’llanma va darsliklar chop etilgan. Bulardan Munavvarqori Abdurashidxonov “Adibi avval” (1907), “Adib us-soniy” (1907), “Usuli hisob”, “Tarixi qavm turk”, “Tajvid” (1911), “Havoyiji diniya”, “Tarixi anbiyo”, “Tarixi islomiya” (1912), “Er yuzi” (1916-1917), to’rt qismdan iborat “O’zbekcha til saboqlari” (Shorasul Zunnun va Qayum Ramazon bilan birga) darsliklar muhim hisoblangan **[8. 18]**.

Yangi davr allomalari va millat qahramonlari sifatida Behbudiy, Fitrat, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Hamza va Cho‘lponlarning yaratgan maktablar o’z davri uchun juda ham muhim hisoblanib, bugungi istiqbolning asosidir.

“Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”. Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo’lib xizmat qilishi tabiiydir. Chunki ularning g’oya va dasturlari Yangi O’zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg’un va hamohangdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat”, 2008 yil. –B. 79.
2. Абдурашидов 3. Исмоил Гасприиский ва Туркистонда жадидчилик. –Т.: Марказий Осиёни тадқиқ қилиш франсуз ииститути, 2008. –Б. 41-56.
3. Холбоев С. Долимов У. Дусткораев Б. бошқалар, Туркистон жадидчилиги - миллий уйгониш даври тарихи (XIX аср охири - XX аср бошлари). –Наманган. 2012. –Б. 43.
4. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. – Т.: Шарқ, 1994. – Б. 54.
5. Қосимов Б. Маслакдошлар (Бехбудий, Ажэий, Фитрат). –Т.: Шарк, 1994. –Б. 73.
6. Холбоев С. Долимов У. Дусткораев Б. бошқалар, Туркистон жадидчилиги - миллий уйгониш даври тарихи (XIX аср охири - XX аср бошлари). –Наманган. 2012. –Б. 57.
7. G‘affarov Sh. Istibdod davrida Turkistondagi ta’lim tizimi. – Samarqand.: SamDU nashr, 2000. –B. 87.
8. Ахмедов С. Йулбошчи. Мунаввар қори Абдурашидхонов. Танланган асарлар. –Т.: “Маънавият”, 2003. –Б. 18.

MILLIY-MA’NAVIY TIKLANISH G’OYASIDA MA’NAVIYATNING O’RNI

Sh.U.Qoraboyev
Namangan davlat pedagogika instituti “Pedagogika nazariyasi va tarixi” 1-bosqich magistranti
sharobiddin.qoraboyev@mail.ru **+998974268188**

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy-ma’naviy tiklanish g’oyasida ma’naviyatning o’rni borasida so’z boradi. Zero, milliy-ma’naviy tiklanish g‘oyasi ma’naviyat shaxs barkamolligining eng muhim mezoni va shuning bilan birga uni kamolotga eltuvchi, o‘z-o‘zini anglatuvchi va o‘z imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi ulkan omil hisoblanadi va mustaqillikni mustahkamlash, ma’naviy meros va qadriyatlarni chuqur o‘zlashtirish, millatimizning o‘z-o‘zini anglashiga erishish, milliy urf-odatlar va an’analarni tiklash va takomillashtirish, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini izchillik bilan mustahkamlash g‘oyalari milliy-ma’naviy tiklanishda muhim ahamiyat kasb etadi.
Kalit soz’lar: ma’naviyat, milliy-ma’naviy tiklanish, ma’naviy e’tiqod, yosh avlod, yangi jamiyat tafakkuri, milliy va umumbashariy qadriyatlar

Kirish. O’zbekiston bugungi kunda yangi demokratik jamiyatni qurish sari dadil qadam tashlamoqda. Tabiiyki, bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tish oson kechmaydi. U muayyan vaqtni, unda yashayotgan barcha fuqarolarning fidoiylik bilan mehnat qilishini talab etadi. Xuddi mana shu jarayonda yuzaga kelgan anglashmovchiliklarni hal qilish uchun yuksak ma'naviy e'tiqod va sabr-toqat bilan odamlarni uyushtirish, ular dunyoqarashida yangi jamiyat taffakkurini shakllantirish, ertangi kunimiz davomchilari bo‘lgan yosh avlodni voyaga etkazish, uning jismonan va ma'nan baquvvat, yuksak ma'naviyat, bilim va zamonaviy tafakkur egasi bo‘lishiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Prezidenti Sh. Mirziyoyev o‘z vazifasiga kirishgan dastlabki kunlaridanoq yurtimizda boshlangan milliy ma'naviyatni tiklash va rivojlantirish bundan keyin ham davlat siyosatida ustvor vazifa ekanligiga e'tiborni qaratib quyidagilarni alohida ta'kidlagan edi: “Agar biz ta'lim-tarbiya, madaniyat va ma'naviyat sohasidagi ishlarimizni aniq tizim asosida tashkil etib, ularning samaradorligini oshirmasak, ertangi kunimizni quraolmaymiz, o‘z maqsadlarimizga yeta olmaymiz. Bu borada “Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona” degan shior doimiy kun tartibida turishi lozim. Biz yoshlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur. Bunday g‘oyat muhim vazifani amalga oshirishda, avvalo, ko‘pni ko‘rgan kayvoni onaxonlarimizga, mahalla faollariga, muhtaram faxriylarimizga, opa-singillarimizning aql-zakovati, bilim va tajribasiga tayanamiz”[1].

Jahon tajribasidan ma'lumki, qaysi mamlakat yoshlari zamonaviy fan, texnika va texnologiya yutuqlarini qanchalik mukammal egallasa, mamlakat taraqqiyotiga qo‘shadigan hissasi shunchalik samarali bo‘ladi, ma'naviyat yuksaladi va mamlakatning milliy-ma'naviy tiklanishi hozirgi zamon jahon sivilizasiyasi tizimiga uyg‘unlashuvi tezlashadi. Mamlakatimizda ushbu jarayonning samaradorligini ta'minlash uchun har birimizning faol va fidoyi bo‘lishimiz bugungi tez sur'atlar bilan o‘zgarayotgan

tahlikali dunyoda o‘zligimizni anglash, kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanimizni his etib yashash, bu boyliklarni asrab-avaylab, milliy qadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi o‘sib kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat qiladi.

Milliy-ma’naviy tiklanish – muayyan millat hayotida tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichiga kelib, mustaqillikni qo‘lga kiritish asosida ma’naviyat sohasida bo berilgan imkoniyatlardan qayta foydalanish, ma’naviy meros, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlarning tiklanishi, milliy o‘zlikni anglash, o‘tmishda yaratilgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklarni millat rivojlanishiga yo‘naltirilgan umummilliy harakat, faoliyat va jarayonlarni nazariy va amaliy jihatdan asoslab beradigan konsepsiyani anglatuvchi tushuncha. Bu masalaga alohida e’tibor berish zarurligini ta’kidlayotganimizga asosiy sabab shuki, davlatimiz rahbarining keyingi asarlarida ham milliy-ma’naviy tiklanish g‘oyasi ijodiy rivojlantirilgan va uning millatimiz ma’naviy taraqqiyotiga xizmat qiladigan asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan. Milliy-ma’naviy tiklanish millatning qaramlik holatiga tushib qolishi oqibatida o‘zining mavjud milliy-ma’naviy salohiyatidan foydalana olmasligi va o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi natijasida ulardan foydalanishga qaratilgan faoliyat bilan bog‘liq ehtiyoj sifatida yuzaga keladigan jarayon hisoblanadi.

Xuddi ana shu jarayon o‘zbek millati hayotida yuz berdi. Mustaqillikni qo‘lga kiritishimiz sharofati bilan mustabit tuzum davrida toptalib kelingan milliy urf, odat, an’ana, qadriyatlarimiz yana qayta tiklanib, bugungi milliy-ma’naviy tiklanishga xizmat qilmoqda. Bu g‘oyaning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki birinchidan, bu bilan muallif sobiq sho‘rolar davrida ma’naviyatni rivojlantirishga uchinchi darajali omil sifatida qaralishining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va boshqa sabablarini ko‘rsatib bergan. Ikkinchidan, ma’naviyatni rivojlantirmasdan, shaxsning ma’naviy ruhiyatini o‘zgartirmasdan turib jamiyatda ko‘zlangan maqsadni amalga oshirish mumkin emasligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Milliy-ma’naviy tiklanish g‘oyasi ma’naviyat shaxs barkamolligining eng muhim mezoni va shuning bilan birga uni kamolotga eltuvchi, o‘z-o‘zini anglatuvchi va o‘z imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi ulkan omildir. Milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiyasida vatanparvarlik shaxs ma’naviyatining ajralmas qismi ekani asoslangan. Haqiqatan ham, o‘z Vatanini sevmagan, uning taraqqiyoti uchun joy kuydirmaydigan, beparvo va loqayd inson ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lishi mumkin emas. Shu o‘rinda “milliy taraqqiyot” va “milliy tiklanish” tushunchalarining mazmun-mohiyati va o‘ziga xos jihatlariga e’tibor qaratish lozim. Aslida ular bir-birini inkor qiluvchi tushunchalar emas. Aksincha, merosi, tarixiy xotirasi va zamini mustahkam millatlar uchun bu tushunchalarning o‘zaro uyg‘unligi millat kamolotini ta’minlaydi. Milliy taraqqiyot-evolyutsion xarakterga ega jarayondir. U millatning shakllanishi, takomillashuvi va yuksalishi kabi uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Milliy tiklanish esa, millat taraqqiyoti tarixining muayyan bosqichida ma’lum obyektiv va subyektiv sabablar tufayli boy berilgan salohiyatni qaytadan millat taraqqiyotiga yo‘naltirish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayondir [2].

Mustaqillikni mustahkamlash, ma’naviy meros va qadriyatlarni chuqur o‘zlashtirish, millatimizning o‘z-o‘zini anglashiga erishish, milliy urf-odatlar va an’analarni tiklash va takomillashtirish, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini izchillik bilan mustahkamlash g‘oyalari milliy-ma’naviy tiklanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik sharoitida milliy g‘oya va milliy mafkurani shakllantirish hamda uni xalqimiz dunyoqarashiga aylanishiga erishish, milliy g‘oyani aholi ongi va qalbiga singdirish, ta’lim tizimini isloh qilish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish asosida barkamol avlodni tarbiyalash bu jarayonning tarkibiy qismidir [3]. Shu bilan birga, milliy-ma’naviy salohiyatimizning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rnini tiklash va bugungi kunda ma’naviyat, ma’rifat, fan, texnika, texnologiya yutuqlarini chuqur o‘zlashtirish asosida hozirgi zamon umumjahon ma’naviyati tizimi rivojiga hissa qo‘shish, aholi, ayniqsa, yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan boy merosidan ijodiy foydalanish ham bugungi milliy-ma’naviy tiklanishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Ajdodlarimizdan qolgan meros milliy-ma’naviy tiklanish va mamlakat istiqboli uchun fidoiylik va ilhom manbai hisoblanadi [4].

Xulosa. Xalqimizning ma'naviy ruhini mustahkamlash, rivojlantirish orqali yangi bosqichga ko‘tarish mustaqil O‘zbekistonimizda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho ne'matki, u bizning qadimiy va navqiron halqimizning qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o‘z mustaqilligini tushunib etish va ozodlikni sevish tuyg‘usi bilan mustahkamlanib borilgan. Albatta, ma'naviyat o‘z halqining tarixini, uning madaniyati vazifalarini chuqur bilish va tushunib etishga asoslangandagina qudratli kuchga aylanib qo‘yilgan vazifalarni bajarishga qodir bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ш.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.: “Ўзбекистон”, 2018. 1-том. 349- бет.
2. cyberleninka.ru›article/n/Т.Қуйлиев. Янги ренессанс пойдеворини мустаҳкамлашда маънавий тикланиш ва юксалиш асосий омиллардан биридир.
3. Toxirovna, M. N. Annotation. This article examines the problem of implementing a systematic approach to the professional training of future teachers at the university, as this allows predicting their pedagogical activity. Keywords. preparation, future teachers, university students, teacher, occupation, pedagogical thinking, education system
4. Маматханова, Н. Т. (2021). Талабаларни ижтимоий-педагогик фаолиятга тайёрлашни ривожлантиришда аксиологик таълимнинг ўрни. Современное образование (Узбекистан), (3 (100)), 26-31.
5. Мамацанова, Н. (2021). Роль предмета «социальная педагогика» в подготовке будущих учителей к социально-педагогической деятельности. Психология и педагогика: Проблемы и решения, 1(1), 12-16.
6. Mamatkhanova, N. T. (2021). Formulation of social intelligence as a professionally important quality of a teacher. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(2), 390-397.
7. Маматханова, Н. Т. (2017). Об исследованиях воли и волевых качеств личности в психологии. NovaInfo. Ru, 2(60), 511-515.

ABU ALI IBN SINONING PEDAGOGIK QARASHLARIDAN – ZAMONAVIY METODIK USULLARDA FOYDALANISH

A.A.Inomjonov
Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti tyutori.
E-mail: Ahadjon_Inomjonov_007@mail.ru Telefon: +998 99 007 70 74

Annotatsiya: Quyidagi ilmiy maqolada Abu Ali Ibn Sinoning pedagogik qarashlaridan – zamonaviy metodik usullarda foydalanishning vujudga kelishiga zamin bo‘lgan tarixiy shart-shaoit haqida ma’lumot berilgan, maqoladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiya vazirligi va Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tarkibidagi, faoliyat yuritadigan barcha pedagoglar qo‘llanma sifatida foydalanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Ibn Sino, aqliy, tarbiya, bola, ta’lim, o‘qitish, fan.

Abu Ali Ibn Sino (980 – 1037) Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati o‘rta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkirlardan biri – Abu Ali ibn Sino bo‘lib, u G‘arb (Ovro‘po) da Avitsenna nomi bilan mashhurdir. Ibn Sino (asl ismi Husayn, otasining ismi Abdulloh) Buxoroning Afshona qishlog‘ida, hijriy 370 (980)-yilning safar oyida, amaldor oilasida tug‘ildi. 986-yilda Ibn Sino oilasi Buxoroga ko‘chib keladi va shu vaqtdan boshlab yosh Husayn boshlang‘ich ma’lumot olishga, ilm-fanni o‘rganishga kirishadi. Uning yoshligi, yigitlik chog‘lari Somoniylar hukmronligining so‘nggi yillariga, xususan, Nuh II ibn Mansur Somoniy hukmronligi davri (976–997) ga to‘g‘ri keladi.

Inson aqli turli fanlarni o‘rganish yordamida boyiydi, rivoj topadi. Bunda, xususan, u mantiq ilmiga katta e’tibor beradi. Aql har qanday bilishning va amaliy faoliyatning mezoni sifatida talqin etiladi. “(Aql) tarozisida o‘lchanmagan har qanday bilim, – deb yozadi Ibn Sino, – chin bo‘lolmaydi, demak, u haqiqiy bilim emas”. O‘rta asrda Yaqin va O‘rta Sharq, jumladan, Markaziy Osiyo falsafasida aql nazariyasi juda muhim o‘rin egallaydi.

Abu Ali Ibn Sino (980 – 1037) ham bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy – ro‘zg‘or tutish masalalari xususida ham so‘z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila, ota – onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. O‘z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo‘lgan ota – ona tarbiyachi bo‘lishi mumkin.

Ahloqiy tarbiyada eng muhim vositalar bolaning nafsoniyatiga, G‘ururiga tegmagan holda, yakkama – yakka suhbatda bo‘lish, unga nasihat qilishdir. Ibn Sino bolada ahloqiy xususiyatlarni mehnat,

jismoniy, aqliy tarbiya bilan uzviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil, deb biladi.

Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan bilimlarga yetishishga da’vat etgan. U bolalarni maktabda o‘qitish zarurligini qayd etar ekan, ta’lim – tarbiyada quyidagi tamoyillarga rioya etish zarurligini ta’kidlaydi:

– bolalarga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo‘ymaslik;
– ta’limda yengildan og‘irga borish orqali bilim berish;
– olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo‘lishi;
– jamoa bo‘lib maktabda o‘qitishga e’tibor berish;
– bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
– o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borish.

Ibn Sino o‘zining “Tadbiri manzil” asarining “Bolani maktabda o‘qitish va tarbiyalash” bo‘limida to‘xtalib, ta’lim va tarbiya jarayonini ochib beradi. Bolalarga bilim berish pedagogning asosiy burchidir. Shunga ko‘ra, Ibn Sino pedagog qanday bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, shunday yo‘l-yo‘riqlar beradi:

– bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo‘lish;
– berilayotgan bilimni bolalar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e’tibor berish;
– ta’limda turli usullardan foydalanish;
– fanga qiziqtira olish;
– berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;
– bilimlarni bolalarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
– har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish zarur.

Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o‘rab olgan ijtimoiy muhit alohida rol o‘ynashini, ana shu muhit insonning atrof dunyoni bilishinigina emas, balki uning hulqida yaxshi yoki yomon jihatlarning tarkib topishiga ham ta’sir etishini, shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda extiyotkor bo‘lish, uni yomon ijtimoiy muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini o‘qtiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Ibn Sino inson kamolotida aqliy, axloqiy tarbiya bilan bir qatorda jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotlaydi va bolaga hali u tug‘ilmasdan turib g‘amxo‘rlik qilish, go‘daklik davridan boshlab tarbiyani boshlash zarurligini ta’kidlaydi. Ibn Sinoning ta’lim-tarbiyaviy qarashlarida insonning aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy rivojlanishi uning kamolga yetishida asosiy mezon sifatida talqin qilgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zunnunov A.va boshqalar. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq, 2000.
2. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika. O’quv qo’llanma. – Toshkent: Fan, 2004.
3. Ishmuhamedov R., Abduqarodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. Ta’lim muassasalari o’qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste’dod” jamFarmasi, 2009.
4. Toxtaxodjayeva M.X. va boshkalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi 1-qism: Pedagogika nazariyasi. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007.
5. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
6. Hasanboyev J. va boshkalar. Pedagogika. O’quv qo’llanma – T.: “Fan”, 2006.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: Ўзбекистон, 2004. –700 б.

THE ROLE AND PEDAGOGICAL POTENTIAL OF ENGLISH LANGUAGE LESSONS IN DEVELOPING LEADERSHIP SKILLS

Z.F.Jamolova
Doctor of philosophy student of Namangan State University
jamolovazumrad9297@gmail.com, +998939454273

Abstract. This article analyzes the pedagogical potential of English language lessons in developing leadership skills among primary school students. The focus is placed on the communicative and interactive nature of English classes, which create opportunities to foster initiative, responsibility, independent thinking, and effective communication in learners. The main objective of the article is to provide a scientific

justification for viewing foreign language lessons not only as a tool for developing linguistic competence but also as a means of cultivating personal and social competencies, particularly leadership potential. Based on the analysis of academic sources and pedagogical perspectives, theoretical conclusions are drawn regarding the role of English lessons as a crucial factor in the formation of leadership skills.

Key words: leadership skills, English language, primary education, pedagogical potential, communicative approach, interactive methods, initiative, personal development, psychological foundations, educational effectiveness

Introduction. One of the most pressing tasks facing today’s education system is not only to provide students with knowledge, but also to develop the skills and competencies necessary for their active participation in social life. In particular, leadership skills encompass a wide range of crucial competencies such as personal growth, social adaptability, problem-solving, and teamwork.

In the Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan dated April 13, 2023, *“On Additional Measures to Increase the Social Activity of Youth and Support Them”*, special emphasis is placed on developing the leadership potential of young people. Based on this decree, fostering a socially active, initiative-driven, and leadership-oriented young generation through innovative approaches in education — including foreign language teaching — has become a priority.

Special attention should be given to developing leadership qualities in children through English language lessons in primary education. This developmental stage is critical, as it is the period when children begin to form their individual characteristics, develop communication skills, show initiative, and gain self-awareness. English lessons, with their interactive, communicative, and group-oriented methodologies, offer a highly effective platform for supporting this process.

Through expressing their opinions freely, justifying their viewpoints, exchanging ideas in groups, participating in role plays, projects, and debates, students enhance their social engagement — one of the core indicators of leadership. Therefore, English language instruction serves not only as a tool for developing linguistic competencies but also as a means of shaping personal and social skills.

This article aims to explore these pedagogical opportunities, analyze current experiences and theoretical approaches in this area, and scientifically justify the importance of early leadership skill development through English language lessons.

LITERATURE REVIEW AND METHODOLOGY

English language lessons today serve not only as a means of developing linguistic competence but also play a crucial role in shaping learners’ personal and social skills. Particularly in primary education, research has provided solid theoretical grounds for the idea that learning a foreign language can contribute to the development of leadership qualities in young learners.

In *Approaches and Methods in Language Teaching*, Richards and Rodgers (2001) describe **Communicative Language Teaching (CLT)** as a core principle of language learning. This approach fosters an environment where learners can freely express ideas, collaborate in groups, and engage in problem-solving — all key elements in the development of leadership skills.

H. D. Brown (2007), in his book *Principles of Language Learning and Teaching*, highlights the importance of **psychological factors** in foreign language acquisition, such as confidence, active participation, and the ability to speak openly. These characteristics directly support the formation of leadership traits in students.[2]

Nation and Newton (2009), discussing the role of **listening and speaking skills**, emphasize the importance of group-based activities in which learners exchange ideas and defend their opinions. Such collaborative communication plays a significant role in shaping social engagement and leadership competencies.[8]

Although not a linguist, **L. S. Vygotsky**'s theory of **social learning** is highly relevant in this context. According to his view, knowledge is constructed through interaction. This foundation supports the idea that engaging students in interactive environments during English lessons helps cultivate leadership qualities.[9]

Cameron (2001), in her work *Teaching Languages to Young Learners*, recommends using **visuals, games, and problem-solving tasks** to make language learning active and meaningful for young learners. These methods stimulate student initiative, social responsibility, and leadership-related behaviors.[3]

Harmer (2007), in *The Practice of English Language Teaching*, provides evidence that methods such as **role-playing, discussions, and project work** enhance students' verbal fluency, confidence in self-expression, social communication, and leadership behaviors.[6]

Table 1. Contributions of Key Authors to the Topic

Author	**Title of Work**	**Contribution to the Topic**
Richards & Rodgers (2001)	*Approaches and Methods in Language Teaching*	Supports leadership development through communicative teaching practices
H. D. Brown (2007)	*Principles of Language Learning and Teaching*	Emphasizes confidence, active participation, and social development in language learning
Nation & Newton (2009)	*Teaching ESL/EFL Listening and Speaking*	Highlights group work and initiative-building in listening and speaking activities
L. S. Vygotsky (1978)	*Mind in Society*	Describes learning through social interaction as a foundation for social skill development
Cameron, L. (2001)	*Teaching Languages to Young Learners*	Recommends methods that promote leadership in children (games, problem-solving, projects)
Harmer, J. (2007)	*The Practice of English Language Teaching*	Advocates interactive methods to encourage initiative and communication

RESULTS AND DISCUSSION

Based on the analyzed literature, a number of theoretical and practical conclusions can be drawn regarding the development of leadership skills through English language lessons.

First and foremost, lessons designed within the framework of the communicative approach (Richards & Rodgers, Harmer) help students develop essential skills such as open communication, expressing opinions, listening and responding, and engaging in discussions. These are fundamental to fostering initiative, confidence, and leadership within a group setting.

H. D. Brown’s emphasis on psychological factors in language learning demonstrates that English lessons can go beyond teaching language proficiency and support learners' personal development. Participation in a positive and interactive classroom environment promotes social involvement, confidence in expressing opinions, and effective problem-solving — all of which align with leadership competencies.[6]

Nation and Newton highlight the significance of group work in language learning. Collaborative tasks encourage students to share responsibility, delegate roles, and make collective decisions, thereby cultivating leadership behaviors.

The interactive methods suggested by Cameron and Harmer, such as role plays, project-based learning, and problem-solving tasks, enhance students' initiative, creativity, and organizational abilities — providing a strong foundation for leadership development at an early age.

Moreover, relying on Vygotsky’s social learning theory, it can be argued that the communicative environments created in English lessons allow learners not only to acquire language skills but also to internalize social roles, leadership behaviors, and cooperative engagement.

Table 2. Key Outcomes from the Literature Review

Core Focus Area	Practical Outcome	Applied Method / Source
Communication-based lessons	Improved ability to express opinions and listen to others	CLT – Richards & Harmer
Group work and project methods	Development of initiative, responsibility, and leadership roles	Nation & Newton, Cameron

Consideration of psychological factors	Increased confidence, engagement, and persistence	H. D. Brown
Interactive games and tasks	Enhanced teamwork, leadership, and management skills	Harmer, Cameron
Learning through communication	Formation of social activity and personal competencies	Vygotsky

CONCLUSION

The findings presented above demonstrate that English language lessons contribute not only to the development of linguistic competencies but also significantly support learners’ personal and social growth. Specifically, lessons grounded in a communicative approach help foster vital leadership-related skills such as collaboration, shared responsibility, initiative, and decision-making.

The methodological potential of foreign language instruction — especially at the primary level — emerges as a powerful pedagogical tool for the early formation of leadership qualities in children. Interactive teaching methods such as role plays, project-based tasks, and group discussions activate student participation and inspire them to take on leadership roles.

This article has provided a theoretical foundation for developing leadership skills through English language instruction and presented practical insights supported by a review of pedagogical literature.

In the future, it is recommended to design and implement methodical teaching guides, define leadership assessment criteria, and develop a structured curriculum aimed at fostering leadership competencies through language education. Thus, English language lessons are not merely a tool for learning a foreign language, but a powerful educational resource for nurturing future leaders.

References

[1] B. M. Bass, *Leadership and Performance Beyond Expectations*. New York: Free Press, 1985.
[2] H. D. Brown, *Principles of Language Learning and Teaching*, 5th ed. New York: Pearson Longman, 2007.
[3] L. Cameron, *Teaching Languages to Young Learners*. Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
[4] J. Goleman, *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. New York: Bantam Books, 1995.
[5] H. Gardner, *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. New York: Basic Books, 1983.
[6] J. Harmer, *The Practice of English Language Teaching*, 4th ed. Harlow: Pearson Education, 2007.
[7] J. C. Maxwell, *The 21 Irrefutable Laws of Leadership: Follow Them and People Will Follow You*. Nashville, TN: Thomas Nelson, 1993.
[8] I. S. P. Nation and J. Newton, *Teaching ESL/EFL Listening and Speaking*. New York: Routledge, 2009.
[9] J. Piaget, *The Origins of Intelligence in Children*. New York: International Universities Press, 1952.
[10] J. C. Richards and T. S. Rodgers, *Approaches and Methods in Language Teaching*, 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
[11] L. S. Vygotsky, *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

O‘QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.

D.K.Kenjayeva
“University of business and science” nodavlat oliy ta’lim muassasasi magistranti.
E-mail: k.dildora82@mail.ru, k.dildora82@gmail.com Tel: +998911772982

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola ta’lim tizimida bugungi kunda qo‘yilayotgan talablarga mos ravishda, o’qituvchilarning kasbiy mahoratlarini yanada oshirish orqali ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishga bag’ishlangan bo‘lib. Unda ta’lim tizimidagi pedagoglar faoliyatidagi muammolar va ularga yechim ko‘rinishida tahlil qilingan.

Tayanch tushunchalar: kasbiy mahorat, ta’lim, tarbiyaviy ish, pedagogika, kasbiy pedagogik faoliyat, pedagogik qobiliyat**,** pedagogik maxorat, “Mahorat darslari”.

Аннотация: Данная научная статья посвящена совершенствованию учебно-воспитательного процесса через повышение профессионального мастерства учителей в соответствии с современными требованиями системы образования. В статье проанализированы проблемы в деятельности педагогов в системе образования и представлены пути их решения.

Ключевые понятия: профессиональное мастерство, образование, воспитательная работа, педагогика, профессиональная педагогическая деятельность, педагогические способности, педагогическое мастерство, «Уроки мастерства»

Annotation: This scientific article is dedicated to improving the educational and upbringing process by enhancing teachers' professional skills in accordance with current demands of the education system. It analyzes the problems faced by educators in the education system and proposes solutions to address them.

Key words: professional skills, education, educational work, pedagogy, professional pedagogical activity, pedagogical abilities, pedagogical mastery, "Mastery lessons."

Pedagogika fani taraqqiy etib borish natijasida ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish yo‘llarini o‘rgatuvchi pedagogikaning bir qancha tarmoqlari yuzaga kela boshladi.

Aynan, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan texnologiyalar davrida o’quvchilarning diqqat-e’tiborini dars jarayoniga jalb qila olish uchun pedagogning pedagogik maxorati qanday ko‘nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik maxorat vositasida o‘qituvchi ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy talablar asosida qanday tashkil qilishi, o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishida qanday ahamiyatga ega ekanligi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o‘ziga jalb etib kelmoqda.

Ushbu pedagogik muammolarni, vazifalarni xal etishda ta’lim samaradorligiga erishishda pedagogdan qanday talablarga javob berishi nazarda tutilmoqda. Pedagogda qanday sifatlar shakllangan bo‘lishi kerak?

Bugungi kunda xar bir o‘qituvchi va tarbiyachi pedagogik bilimlarini rivojlantirishi, boyitishi, chuqurlashtirishi va mustahkamlashi, o‘z kasbiy maxoratlarini izchil ravishda oshirib borishi shart.

Shuningdek, maktabdagi o’quv jarayoninig sifati ko’p omillarga bog’liq bo’lib, ular orasida o’qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o’zlashtirishiga, o’quvchilarda mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Usul va mahorat tushunchalari o’zaro bog’liqdir’ chunki ularning har biri metod sifatida ham mahorat sifatida ham namoyon bo’ladi.

Xo’sh, pedagog mahorat deganda nimani tushunamiz? Kasbiy mahoratda ega mutaxassisda qanday sifatlar mujassam bo‘lishi kerak? Avvalo, pedagogik mahoratning o‘ziga to‘xtalsak.

Pedagogik mahorat bu - o'qituvchining ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlar majmuasidir. Bu mahorat o'qituvchining o'z fanini chuqur bilishi, pedagogik texnika va metodikalarni puxta egallashi, shuningdek, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnata olish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Insonparvarlik, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika, shaxsiy intilish – pedagogning mahorat sifatlaridir.

Pedagogik mahoratga erishish uchun o'qituvchi nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki psixologiya, pedagogika va metodika sohalarida ham chuqur bilimga ega bo'lishi lozim. Bu esa o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashadi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish, o'qituvchi uchun ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlovchi zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlani tashkil etish, pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan habardor bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Shuni alohida qayd etib o'tish zarurki, o'qituvchilik kasbi murakkal va mas’uliyatli jarayondan iborat. Ushbu kasbning sharafliligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, o'qituvchi doimo ongning yagona sohib bo'lmish insonning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanib, u bilan muloqot olib boradi. Ongli va tirik jonzot esa aqliy, ruhiy hamda jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo‘ladi. Shu sababli, pedagoglar

o’quvchi bilan doimiy muloqotda bo'lishi, unga ta’sir ko'rsatishi uchun muntazam ravishda psixologiya va tarbiya nazariyasini mukamma o'rganib, o'z kasbiy faoliyatini muttasil rivojlantirib borishi kerak.

O'qituvchilarning shaxsiy fazilatlari sirasiga iymon-e’tiqodi, dunyo qarashining kengligi, faolligi, odob-axloqi, fuqarolik burchini his qilishi manaviyati, dilkashligi, talabchanligi, qat’iyligi va o'z maqsadlariga intilishi, insonparvarligi, huquqiy bilimdonligi mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy talablariga o'z fikr-mulohazasi bilan faol ishtirok etishi kiradi.

O'qituvchilarning kasbiy xususiyatlariga: o'z kasbini, bolalarni sevishi, ziyrakligi, hozirjavobligi, vazminligi, pedagogik nazokati, tasavvuriy qobiliyati, tashkilotchiligi, notiqlik madaniyati, chuqur va keng ilmiy saviyasi, kasbiy layoqatliligi, ma’naviy ehtiyoji va qiziqishi, intellekti, yangilikni anglay va qo'llay olishi, kasbiy ma’lumotni muntazam oshirishga nisbatan intilishi va boshqa fazilatlari kiradi.

Yosh o'qituvchilaming, shuningdek, ta’lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan o'qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishlari
o'zlarini kasbiy jihatdan takomillashtirib borish yo'lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga rivojlanib boradi. Ularni quyidagi vositalar asosida yanada rivojlantirish mumkin:

1. Mustaqil o‘qib-o‘rganish (pedagogika fanida ro'y berayotgan eng so’nggi yangiliklar haqida ma’lumotlami beruvchi yangi adabiyotlar, internet materiallari, portal tizimi, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma’lumotlar, shuningdek, ilg‘or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g‘oyalami umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalami tayyorlash).
2.Tajribali ustoz o'qituvchilar faoliyatini o‘rganish (ta’lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etish, vaqt va iqtisodiy nuqtai nazardan samarali sanaladi. Tajribali o'qituvchilar faoliyatini o‘rganish, ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu borada olingan taassurotlarni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir).
3. O'qituvchi xodimlami qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari va institutlarida kasbiy malaka va ko'nikmalami oshirib borish.
4. Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferensiya hamda seminarlar, pedagogik o'qish hamda treninglar) da faol ishtirok etish.
5. Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlaming yetakchi ta’lim muassasalarida o‘z tajribalarini oshirish, kasbi bo‘yicha eng so'nggi ma’lumotlarni o'rganish.

Pedagogik mahoratni egallashda guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o'zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to‘g‘riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklami o‘z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo’llarini topish imkoniyati mavjud.

Pedagogik mahoratga ega bo‘lish ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlash garovi bo’libgina qolmay, ayni vaqtda o'qituvchilarning jamoada, ijtimoiy muhitda obro‘-e’tiborini oshiradi, o'quvchilar orasida unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida yosh o'qituvchilarning kasbiy mahorati, bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish maqsadida turli dastur va loyihalar doirasida masofadan “Mahorat darslari” o’tkazilib kelinmoqda. Shu bilan bir qatorda yosh o'qituvchilarning xorijiy mamlakatlarda kasbiy malakalarini oshirish imkoniyati ham berib borilmoqda.

O‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish bo‘yicha davlat natijalari haqida gapirganda, turli mamlakatlarda amalga oshirilayotgan dasturlar va ularning natijalari farq qiladi. Biroq, umumiy yo‘nalishlar quyidagicha:

1. O‘zbekistonda o‘qituvchilar kasbiy mahoratini oshirish bo‘yicha natijalar

O‘zbekistonda oxirgi yillarda o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda:

Pedagoglarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimi: 2021-yildan boshlab o‘qituvchilarning malaka oshirish kurslari yangilandi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar kiritildi.

Attestatsiya tizimi: O‘qituvchilarning kasbiy mahoratini baholash va rag‘batlantirish tizimi joriy qilinib, 2023-yildan boshlab pedagoglarning bilim va malakasiga qarab differensial ish haqi to‘lash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Raqamli ta’lim platformalari: O‘zbekistonda "Onlayn maktab", "Bilimland" kabi platformalar joriy etilib, o‘qituvchilarning uzluksiz o‘qishi uchun imkoniyatlar yaratildi.

2. Xalqaro tajriba va natijalar

Finlandiya: O‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish doimiy jarayon sifatida yo‘lga qo‘yilgan. Pedagoglar har yili yangi metodika va texnologiyalarni o‘rganish uchun bepul kurslardan o‘tadi. Natijada fin maktablari dunyodagi eng yaxshi ta’lim tizimlaridan biri hisoblanadi.

Singapur: "O‘qituvchi – o‘qituvchilar uchun" tamoyili asosida murabbiylik tizimi rivojlantirilgan. Katta tajribaga ega pedagoglar yosh o‘qituvchilarga amaliy bilim beradi.

AQSh: O‘qituvchilarni qayta tayyorlash uchun doimiy grantlar ajratiladi, ular innovatsion yondashuvlar bo‘yicha treninglardan o‘tishadi.

Shuningdek O‘zbekistonda o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish bo‘yicha so‘nggi va muhim yangiliklar quyidagilardan iborat:

1. Neyrotarmoqlar bo‘yicha kurslar joriy etilishi

2024-yil 18-noyabrda A. Avloniy nomidagi o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti tomonidan o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish tizimiga neyrotarmoqlar bo‘yicha kurslar qo‘shildi. Bu yangilik o‘qituvchilarning zamonaviy texnologiyalar va sun'iy intellekt sohasidagi bilimlarini oshirishga qaratilgan.

2. "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari

O‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish maqsadida xalqaro ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari tashkil etilmoqda. Bu tashabbuslar pedagoglarning doimiy ravishda malakasini oshirishiga xizmat qiladi.

3. Ta'lim sifatini oshirish bo‘yicha yangi rejalar

2024-yil 28-mart kuni ta'lim sifatini oshirishga oid yangi rejalar taqdim etildi. Unga ko‘ra, maktab o‘quvchilarining yakuniy imtihonlardagi bilimi yagona test materiallari asosida baholanadi. Shuningdek, o‘quvchilar oliy o‘quv yurtlariga kirish imtihonlariga mos keladigan fanlarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu o‘qituvchilarning o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etishiga yordam beradi.

4. O‘qituvchilarning kasbiy o‘sishi uchun keng imkoniyatlar yaratish

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 52-moddasiga muvofiq, davlat o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu esa o‘qituvchilar uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Ushbu yangiliklar O‘zbekistonda o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan muhim qadamlar bo‘lib, ta'lim sifatini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta’lim tizimida o'qituvchilarning pedogogik mahorati metodikasi talabalarni fanga bulgan munosabatini bildiradi. Bizni kelajakda yetuk mutaxasisilar kadrlar bilan muammolarga uchramasligimiz uchun o’qituvchilardan o’tayotgan fanini o’quvchilarga yetkazib berishi uchun albatta ulardan mahorat talab etiladi. Pedagogik mahorat o'qituvchilar uchun asosiy qobiliyat va bilimlar to'plamidir. Bu mahoratga ega bo'lgan o'qituvchilar o'quvchilarning rivojlanishlarini kengaytirish, ularga qiziqish va sevgi bilan o'rganish imkonini berish bilan birga, ularni samarali va yaratuvchanlikka yo'l qo'yishda muvaffaqiyatga olib kelishadi. Pedagogik mahoratni oshirish o'quvchilarning ma'lumot va rivojlanishini ta'minlashda katta muhim ahamiyatga ega. Ushbu usullar o'rganganligimizni amalga oshirish va ta'lim jarayonlarini o'zlashtirishga erishishimizga yordam beradi. Pedagogik mahoratni oshirishning shaxsiy rivojlanish va talabalarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga muhim ta'siri bor. Bu esa o'quvchilarning ta'lim olgan bilim va bilim donishlarini amalda qo'llab-quvvatlaydigan va ijodiylikni rivojlantiruvchi fuqarolar sifatida yashashiga yo'l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. R.Mavlanova, O.To’rayeva, K.Holiqberdiyev “Pedagogika” Toshkent “O’qituvchi” 2001yil.
2. A.Holiqov “Pedagogik mahorat” Toshkent 2011yil

3. Sharapova D., Hodiyeva Z,. Hodiyeva Sh. O’QITUVCHINING KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATI, KASBIY MAHORATI, PEDAGOGIK QOBILIYATI Международный научный журнал № 3 (100), часть 1 «Научный импульс» Октябрь, 2022
4. Lesov K.S. t. f.n, dotsent., Nizomboyev M.A., O’QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI , UNING METODIKASING O’QITISH SIFATIGA TA’SIRI. 13 iyun 2023 yil

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING TRANSVERSAL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA KASBIY REFLEKSIYANING O‘RNI

[1]Shuxratov Sharof Shuxratovich
[1]FarDU Texnologik ta’lim kafedrasi dotsenti
sharof.shukhratov@ktu.edu +998935198118
ORCID ID 0000-0002-9626-7193
[2]Askarova Barchinoy Abdirahimovna
[2] FarDU Sirtqi bo`lim Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
askarovabarcinoj1@gmail.com. +998972088068
ORCID ID 0009-0003-3452-4814

Annotatsiya. Maqola bo‘lajak o‘qituvchilarning transversal kompetensiyalarini rivojlantirishda kasbiy refleksiyadan foydalanish muammolariga bag‘ishlangan. Unda zamonaviy ta'lim tizimida o‘qituvchilarga qo‘yiladigan talablar va ularning professional rivojlanishi uchun kasbiy refleksiyaning ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Maqolada refleksiya vositasida pedagogik mahoratni oshirish, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, amaliy tavsiyalar berilib, kasbiy refleksiyaning transversal kompetensiyalarni (kommunikativlik, jamoada ishlash, masalani hal qilish va boshqalar) rivojlantirishga qanday ta'sir etishi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Transversal kompetensiyalar, kasbiy refleksiya, bo‘lajak o‘qituvchilar, professional rivojlanish, pedagogik mahorat.

Аннотация. Статья посвящена проблемам использования профессиональной рефлексии в развитии трансверсальных компетенций будущих учителей. В нем представлен глубокий анализ требований, предъявляемых к учителям в современной системе образования, и важности профессиональной рефлексии для их профессионального развития. В статье освещаются возможности совершенствования педагогического мастерства, эффективной организации образовательного процесса, формирования навыков саморазвития посредством рефлексии. Кроме того, были даны практические рекомендации и изучено, как профессиональная рефлексия влияет на развитие трансверсальных компетенций (коммуникация, командная работа, решение проблем и т. д.).

Ключевые слова: Трансверсальные компетенции, профессиональная рефлексия, будущие учителя, профессиональное развитие, педагогические навыки.

Abstract. The article is devoted to the problems of using professional reflection in the development of transversal competencies of future teachers. It provides an in-depth analysis of the requirements for teachers in the modern education system and the importance of professional reflection for their professional development. The article shows the possibilities of improving pedagogical skills, effectively organizing the educational process and forming self-development skills through reflection. In addition, practical recommendations are given and the impact of professional reflection on the development of transversal competencies (communication, teamwork, problem solving, etc.) is studied.

Keywords: Transversal competencies, professional reflection, future teachers, professional development, pedagogical skills.

KIRISH. Olimlarning fikrlariga ko‘ra, kasbiy bilimlar fanga oid, uslubiy va psixologik bilimlarning majmuini aks ettiradi; mohir bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy bilimlarining xususiyati ularning “shaxsiy mazmunliligi” bilan ta’riflanadi, kasbiy refleksiya asosida pedagogning tayyorgarligi esa

“shunchaki kitobdan auditoriyaga uzatilmay, balki olamga o‘zining qarashi sifatida bayon etiladigan bilimni insoniylashtirish, jonlantirish”da namoyon bo‘ladi.

Pedagogik adabiyotlar tahlili bizga kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning bo‘lajak o‘qituvchilarda nazariy bilimlarni shakllantirish lozimligini ta’kidlash imkonini berdi. Ammo nazariy bilimlar refleksiv faoliyatni amalga oshirilganidagina o‘qituvchining bo‘lajak faoliyati vositasiga aylanadi. Refleksiv faoliyatning muxim xususiyati sifatida faoliyatning maqsadga yo‘nalganligi sanaladi va uning samaradorligini oshiradi.

Maqsadsiz faoliyat ikkilamchi amalga oshirishga ega bo‘lmaydi, chunki u vaziyatga xos bo‘ladi, lekin barqaror bo‘lmaydi va samarali harakatlar bilan mustahkamlanmaydi.[

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Refleksiya” - [lot. Reflexio – ortga qaytish]. Shaxsning o‘z hatti harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, faximlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida bir shakli.

Akademik R.X.Djurayev rahbarligida nashr etilgan “Pedagogik atamalar lug‘atida” pedagogik refleksiyaga quyidagi ta’riflar berilgan:

Refleksiya 1) fikrlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish; 2) o‘zining shaxsiy harakatlari va ularning fikrlashga yo‘naltirilgan inson faoliyatining nazariy shakli; 3) o‘z ruhiy holati haqida o‘ylash, xayol surish, fikr yuritish, uni tahlil qilishga moyillik.

Refleksiya – har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o‘z xatti-harakatlari va ularning qonunlarini anglashga qaratilgan nazariy faoliyati shaklidir, inson ma’naviyat dunyosining o‘ziga xos yashirin hislarini ochib beradigan o‘z-o‘zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir.

Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, M.Quronov, R.Ahliddinov Va I.Majidovlarning fikricha, refleksiya samarali fikrlashning muhim tarzi, yuz berayotgan hodisani keng tizim kontekstida tushunish jarayonlarini alohida tashkil etish (u vaziyat va harakatlarni baholashni, vaziyatlarni hal qilish usullari va operatsiyalarini topishni o‘z ichiga oladi), vazifalarni hal qilishga jalb etilgan individ hamda boshqa odamlarning o‘zini-o‘zi tahlil qilishi, o‘z holati hamda harakatlarini faol o‘ylab ko‘rishdan iborat jarayondir. Shu sababli refleksiya (orqaga qaytish) ichidan (bir individning kechinmalari va o‘ziga o‘zi hisob berishi) ham, tashqaridan (jamoa bo‘lib fikrlash faoliyati va birgalikda yechim izlash sifatida) ham bo‘lishi mumkin.

Ko‘plab pedagogik tadqiqotlarda refleksiyani fikrlash, o‘z-o‘zini kuzatish1, insonning o‘z e’tiqodlari va qadriyatli munosabatlarini yangicha tushunish, baholash va asoslash uchun o‘z tajribasini mantiqiy ifoda etish, “xulosa, umumlashma, analogiya, taqqoslash va baholash layoqati, o‘z harakatlarining keltirib chiqarayotgan asoslarga murojaat qilish, yangi vazifani bajarish sharoitida avval foydalanilgan vosita va usullarning yetarli emasligini aniqlash hamda yangi

bilimlarni izlashda muvaffaqiyatli harakatlanish imkonini bermaydigan mavjud bilim va ko‘nikmalar doirasidan chetga chiqish qobiliyati ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.

Refleksiya majburiy ta’sir vositasi sifatida amalga oshirilmaydi, o‘z tabiatiga ko‘ra mustaqil hisoblanib, erkin faoliyat xususiyatini egallanishiga ko‘maklashadi. Refleksiyada o‘zini tushunish va o‘zida sodir bo‘layotganlarni anglash ehtiyoji mavjud.

Refleksiya tushunchasi so‘nggi vaqtlarda professional pedagogik Muhokamalarda ko‘proq qo‘llanilmoqda. Refleksiya tushunchasidan foydalanishdagi o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini tahlil qilish o‘z-o‘zini bilish, mulohaza yuritish, o‘z harakatlarini o‘ylash va b.q. kabi ma’nolar ko‘lami ancha keng.

Refleksiya inson o‘z-o‘zini anglashi, uning o‘z harakatlari va amallari asoslarini anglashini tavsiflaydi. Refleksiya – inson tafakkurining tamoyili bo‘lib, uni shaxsiy shakllari va shartlarini anglashga yo‘naltiradi, tahlilning o‘zini ko‘rib chiqish, uning mazmuni va bilish metodlarini tanqidiy tahlil qilish, inson ma’naviy olamining o‘ziga xosligini va ichki tuzilishini ochib beruvchi o‘z-o‘zini bilish faoliyati sanaladi.

L.E.Pleskach refleksiyani shunday ta’riflaydi: “refleksiya – o‘zini o‘zi tahlil qilish bo‘lib, o‘zini o‘zi belgilangan maqsadga erishishi emas, balki bilim olish, tajriba orttirish usuli, ijodga kasbiy jihatidan takomillashtirishga nisbatan rag‘batlantirishdir”.

I.N.Semyonov tomonidan ishlab chiqilgan refleksiya turlari quyidagilar:

A.A.Xalikovning ta’kidlashicha, pedagogik refleksiyaning shakllantirish va rivojlantirish jarayonida muayyan shart-sharoitlarga rioya etish talab qilinadi.

Avvalo:

refleksiya haqida bilimlarning mavjudligi, uni dolzarblashtirish elementlaridan foydalanish, tashqi omillarga munosabat;

o‘quv jarayonida (o‘quv fanlari, tadqiqotchilik faoliyati, pedagogik amaliyot doirasida) shaxsiy refleksiv tajribaga ega bo‘lish;

bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘zini muntazam tahlil qilish, o‘zligini anglash va kamol toptirish, o‘zini va boshqalarni tushunishga ehtiyojni uzluksiz rivojlantirib borish;

ta’lim jarayonida ta’lim metodlari integratsiyasiga amal qilish.

Shuningdek, agar bo‘lajak o‘qituvchi bilmaganini bilsa bilim fikrlashni va faoliyatni boshqarishini (Y.N. Kulyutkin), bu esa refleksiya haqida bilimlarning mavjudligi, uni dolzarblashtirish elementlaridan foydalanish, tashqi omillarga munosabat;

o‘quv jarayonida (o‘quv fanlari, tadqiqotchilik faoliyati, pedagogik amaliyot doirasida) shaxsiy refleksiv tajribaga ega bo‘lish;

bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘zini muntazam tahlil qilish, o‘zligini anglash va kamol toptirish, o‘zini va boshqalarni tushunishga ehtiyojni uzluksiz rivojlantirib borish; [

ta’lim jarayonida ta’lim metodlari integratsiyasiga amal qilish. pedagogda o‘z kasbiy faoliyatini tahlil qilish, to‘g‘ri baholash va uni o‘z imkoniyatlari va kasbiy ehtiyojlariga mos ravishla takomillashtirish yo‘llarini belgilashi zaruratiga bog‘liqligini ta’kidlash lozim.

Refleksiv qobiliyatlarni bo‘lajak o‘qituvchilar transversal kompetensiyalarining zarur tarkibiy qismi sifatida hisoblagan qator Mualliflar (A.A.Bizyayeva, V.V.Vetrova, E.N.Pexota, A.V.Xristeva va boshqalar) ularni bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘qishi davridayoq shakllantirish zarurligi haqidagi g‘oyalarni ilgari suradilar.

M.B.Urazova bo‘lajak pedagogni loyihalash faoliyatiga tayyorlashda o‘z-o‘zini bilish va o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘zi va hamkorlikdagi faoliyat haqida boshqalarning tasavvurlarini aniqlashdan iborat refleksivlikni nazarda tutadi.

A.V.Xristeva refleksiv vaziyatlar mohiyatiga kasbiy faoliyatda ijodiy tizimlar hosil qiluvchi komponent sifatida qaraydi. U bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv tizimini shakllantirish va rivojlantirish pedagogik faoliyatda o‘z imkoniyatlarining zarur ijodiy qismi deb biladi va refleksiv tizimsiz bo‘lajak o‘qituvchilarning yuksak mahoratli pedagog sifatida takomillashuvi mumkin emas deb ta’kidlab o‘tgan.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarini o‘qitish jarayonida Refleksiya mexanizmlarini o‘zlashtirish uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tayyorgarligi uchun yangi faoliyati ochilishi ta’kidlab o‘tiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv individualligi modelini yaratish uchun hozirgi kunda ko‘plab olimlar taklif qilmoqdalar.

NATIJA VA MUHOKAMA. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning transversal kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda kasbiy refleksiyaning muhim roli ta'kidlangan. Kasbiy refleksiya, o‘qituvchilarning o‘z faoliyatini tahlil qilish va unga yangi yondashuvlar kiritish orqali, ularning professional mahoratini oshirishga yordam beradi. Transversal kompetensiyalar (kommunikativlik, jamoada ishlash, masalani hal qilish va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari) zamonaviy ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, kasbiy refleksiya ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali vositasiga aylanadi. Maqola natijasida, bo‘lajak o‘qituvchilarga refleksiv amaliyotni o‘zlashtirish orqali o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etish va pedagogik mahoratni oshirish tavsiya qilinadi.

Kasbiy refleksiya – bu faqatgina o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish emas, balki uning professional rivojlanishiga doir chuqur fikrlash va strategik o‘zgarishlarni amalga oshirish jarayoni. Refleksiya yordamida bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi, o‘quv jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun innovatsion yechimlar izlashlari hamda o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirishlari mumkin.

XULOSA. Bo‘lajak o‘qituvchilarning transversal kompetensiyalarini rivojlantirishda kasbiy refleksiya muhim vosita sifatida ajralib turadi. Kasbiy refleksiya orqali o‘qituvchilar o‘z faoliyatini tahlil qilish, professional kamolotga erishish va transversal kompetensiyalarni (kommunikativlik, jamoada ishlash, masalani hal qilish va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari) samarali rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Maqolada ta'kidlanganidek, kasbiy refleksiya pedagogik mahoratni oshirish va o‘quv jarayonini takomillashtirish uchun zarur vosita hisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim talablariga javob berish uchun o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirish ham kasbiy refleksiya

asosida amalga oshirilishi lozim. Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarga kasbiy faoliyatlarini doimo tahlil qilish va takomillashtirishga qaratilgan holatni shakllantirish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1]. Педагогика: энциклопедия. III жилд / тузувчилар: жамоа. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2017. – 423 б.

2. Педагогик атамалар луғати // Р.Х. Джураев ва бошқалар.- “Фан” нашриёти. Тошкент. - 2008. 198- б.

3. Кенжабоев А. Э., Саидова П.М. Ўқитувчининг касбий маҳорати ва педагогик рефлексия. Замонавий таълим / Современное образование 2021, 8(105). 30-35 б.

4. Қурбонов Ш.Э., Сейтхалилов Э., Қуронов М., Аҳлидинов Р., Мажидов И. Миллий истиқлол ғоясини шакллантиришда ташкилий-услубий ёндашувлар. – Тошкент: Академия, 2002. – 280 б.

5. Отажонов Ж.М. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида рефлексив кўникмаларни ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Тошкент 2020. 155 б.

6. Семёнов И.Н. Развитие рефлексивно- критического мышления как компонента экзистенциально- ориентированного образования//Духовность и рефлексивность в становлении профессионала. Материалы межд. науч-практ. семинара: Москва, 17-20 июня 1997г./ Под ред. Н.А.Коваль, И.Н.Семёнова.- М.Тамбов: ТГУ, 1997.- С. 27-32.

7. Халиков А.А. Олий таълим муассасаларида бўлажак ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратини ривожлантириш: Дис. ... пед. фан. док – Т: ТДПУ, 2018.

8. Кулюткин Ю.Н. Развитие творческого потенциала учителя в процессе его последипломного образования //Проблемы непрерывного образования. –Псков. –Курсив, 1995. №4. - С. 3.

9. Романова Г.А. Развитие профессиональной рефлексии учителя как основа повышения его педагогического мастерства. Диссертация на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. Москва – 2002 г. 183 с.

10. Уразова М.Б. Бўлажак касбий таълим педагогини лойиҳалаш фаолиятига тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш. Докторлик диссертацияси автореферати. Тошкент-2015. 80 б.

11. Христева А.В. Формирование умений анализа профессионально-педагогической деятельности: Метод. реком. Для студентов педвузов и учителей. – Магнитогорск, МГПУ, 1997.- 43 с.

THE MODERN TRENDS OF TRANSLATION AND INTERPRETATION STUDIES

P.Lutfullayev
Namangan State Institute of Foreign Languages
Email: pulathon2001@gmail.com

Introduction. Translation and interpretation studies have evolved significantly in recent years due to globalization, technological advancements, and the increasing demand for multilingual communication. These changes have reshaped traditional practices and introduced innovative methodologies in both academic and professional settings. This article explores the modern trends influencing translation and interpretation studies, including the impact of artificial intelligence (AI), machine translation, remote interpreting, and emerging educational methodologies.[1]

Technological Advancements in Translation and Interpretation

1. Artificial Intelligence and Machine Translation

The integration of AI in translation has significantly improved the efficiency and accuracy of linguistic processing. Neural Machine Translation (NMT) systems, such as Google Translate and DeepL, leverage deep learning algorithms to provide more contextually accurate translations. However, while AI has advanced, human translators remain essential for tasks requiring cultural sensitivity, context comprehension, and nuanced interpretation.[2]

2. Computer-Assisted Translation (CAT) Tools

CAT tools, including SDL Trados, MemoQ, and Smartcat, have revolutionized the translation industry by offering translators a more efficient way to manage large projects. These tools provide features such as translation memory, termbases, and real-time collaboration, improving both productivity and consistency in translation work.

3. Remote and Hybrid Interpreting Services

The demand for remote and hybrid interpreting has grown due to technological improvements and the necessity of virtual communication during the COVID-19 pandemic. Platforms such as Zoom, KUDO, and Interprefy facilitate real-time remote interpretation, enabling multilingual communication without the need for physical presence. This shift has expanded access to interpretation services across various industries, including legal, healthcare, and international conferences.[3]

Emerging Trends in Translation and Interpretation Studies

1. Post-Editing of Machine Translation (PEMT)

As machine translation continues to develop, the role of translators is shifting towards post-editing rather than traditional translation. Post-editors refine machine-generated translations to ensure linguistic accuracy, fluency, and adherence to cultural nuances. This approach increases efficiency while maintaining quality.

2. Specialized Translation and Niche Markets

Modern translation studies emphasize the importance of specialized translation fields such as legal, medical, and technical translation. With growing demand in these sectors, universities and training programs are adapting their curricula to equip students with the necessary skills to handle industry-specific terminology and regulations.[4]

3. Multimodal and Audiovisual Translation

The rise of digital media has led to increased demand for audiovisual translation, including subtitling, dubbing, and voice-over. Multimodal translation also includes accessibility services such as closed captioning and sign language interpretation, making content more inclusive for diverse audiences.

4. Ethical Considerations and Cultural Sensitivity

Modern translation and interpretation studies highlight the importance of ethics in professional practice. Issues such as confidentiality, impartiality, and bias in translation are gaining more attention. Furthermore, cultural sensitivity remains a critical aspect of translation, ensuring that messages are conveyed appropriately across different cultural contexts.

The Role of Education and Training in Modern Translation Studies

Higher education institutions are adapting to the evolving landscape by incorporating technology-focused courses and hands-on training in their translation and interpretation programs. Key educational trends include:

- **Integration of AI and Machine Translation Training**: Universities now include courses on AI-powered translation tools and post-editing techniques.
- **Remote Interpreting Simulations**: Training programs are incorporating virtual interpretation simulations to prepare students for remote and hybrid working environments.
- **Industry Collaboration**: Partnerships between academic institutions and professional organizations provide students with real-world experience and exposure to industry standards.

Conclusion. The field of translation and interpretation is undergoing rapid transformation due to technological advancements, changing market demands, and evolving educational methodologies. While AI and machine translation are becoming integral to the profession, human expertise remains indispensable for ensuring cultural and contextual accuracy. By embracing modern trends such as remote interpreting, specialized translation, and ethical considerations, the field continues to evolve, meeting the growing global demand for multilingual communication.[5]

These developments highlight the need for continuous learning and adaptation, ensuring that translators and interpreters remain at the forefront of an ever-changing linguistic landscape.

References:

1. Pym, A. (2010). *Exploring Translation Theories*. Routledge.
2. Koehn, P. (2020). *Neural Machine Translation*. Cambridge University Press.
3. Moser-Mercer, B. (2005). "Remote interpreting: Assessment of human factors and performance parameters," *Interpreting*, 7(1), 43-67.

4. Bowker, L., & Fisher, D. (2020). *Computer-Aided Translation: A Practical Introduction*. Palgrave Macmillan.
5. Gile, D. (2009). *Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training*. John Benjamins Publishing.

ZAMONAVIY TA‘LIM JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHDA JADIDLARNING TUTGAN O'RNI

U.A.Nabijanov
University of business and Science Tarix yo’nalishi talabasi
umidjonkak@gmail.com **+998975710508**

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimiz hududidan yetishib chiqqan buyuk shaxslar – ya’ni jadid bobolarimizning ta’lim sohasidagi qarashlari va jadid bobolarimizning hozirgi ta’lim jarayonlarini tashkil etishdagi mashaqqatli hayoti haqida gap boradi**.**

Kalit so’zlar: Jadidchilik, Ismoil Gaspirali, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ishoqxon To’ra Ibrat, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Muxammad Raximxon Soniy, Mirzaboshi Komil Xorazmiy

Turkiston jadidlari o’zlarining dastlabki faoliyatlarini ma’rifatparvarlikdan boshlashgan. Vatanni ozodlikka, milliy mustaqillikka etaklashdek muqaddas g’oya mavjud bo’lsada, jadid ziyolilarning mavjud sharoitda unga etishning iloji yo’q edi. Unga faqat tinimsiz ma’rifiy-siyosiy faoliyat orqaligina erishish mumkin edi. Jadidlar yurt istiqlolini va taraqqiyotini zamonaviy bilimlar bilan qurollangan etuk mutaxassislarsiz tasavvur eta olishmagan. Shu munosabat bilan ular asosiy e’tiborni mahalliy xalq bolalari ilg’or fikrli, bilimli kadrlar tayyorlashga harakat qildilar. Jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Abdulla Avloniyning “Tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot, yo xalokat, yo saodat yo falokat masalasidur” – deb aytishi bejiz emas edi[1.79]. Shu sababdan ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun maktab-maorif ishlarini yaxshi yo’lga qo’yishni va yosh avlod ta’lim-tarbiyasini birinchi navbatdagi masala, deb bildilar. Shu maqsad yo’lida o’tgan asr oxirlarida jadidlar butun Turkistonda, yangi usul maktablari ochish uchun harakat boshlaganlar. Albatta bunday maktablar ochilishiga sovet tuzumi qarshi chiqqan. . Yangi usul maktabi dastavval Qrimning Boqchasaroy shahrida 1884-yil ma’rifatparvar Ismoilbek Gasprinskiy tomonidan tashkil etilgan va u “usuli savtiya tadrijiya” (“rivojlanuvchi tovush usuli”) maktabi deb atalgan.

Ismoilbek Gasprinskiy Turkiya va Fransiya universitetlarida ta’lim olgan va Jazoir, Misr, Tunis, Gretsiyada davlatlarida sayohatda bo’lib, Gasprinskiy turkiy xalqlar tarixi va adabiyotini o’rganib, G’arb bilan Sharq olamini taqqoslash imkoniyatiga ega bo’lgan. Shu asnoda yuqorida keltirilgan maktabda dastlab unda 12 bola tahsil oldi. Qirq kunda ularning savodi chiqdi. Bolalarning ota-onalari va chetdan kelgan odamlar imtihon qildilar. O’qitishda a’lo natijaga erishilganligi e’tirof etilgan. Bundan ilhom olgan muallif “usuli jadida” maktablari uchun to’rt qismdan iborat “Xo’jai sibiyon” (“Bolalar muallimi”) nomli ilk darslikni yaratgan.

1893- yil Gaspirinskiy Turkistonga birinchi sayohatini amalga oshiradi va sayohat bahonasida mahalliy musulmon ziyolilari bilan tanishish hamda ular orasidan o’z maslakdoshlarini topishni; “Tarjimon”ni o’lkada keng targ’ib qilish va yangi obunachilarga ega bo’lishni; yangi usul maktabi ochishni rejalashtirgan.

Gasprinskiyning maktab ta’limi sohasidagi faoliyati Rossiya ichki ishlar vazirligining 1900-yil 31-dekabrda Turkiston o’lkasiga yuborgan 13444-raqamli “mutlaqo maxfiy” farmoyishida yaqqol ko’zga tashlanadi. Unda hukumat gubernatorlari ogoh bo’lishga da’vat qiladi: keyingi vaqtlarda tatar adabiyoti va matbuotida 14 millionli rus musulmonlarining ko’p asrli turmush tarzini izdan chiqarish xavfiga sabab bo’luvchi ruh paydo bo’lganligi sezilmoqda. Bu ruh tatarlar hayotida katta burilishga tayyorgarlik jarayoni kechayotgani haqida taxmin qilish imkonini beradi[2.21]. Aynan shundan so’ng Turkistonda ham yangi usul maktablarini ochish boshlangan. Dastlab, Xorazmda Muxammad Raximxon Soniy va Mirzaboshi Komil Xorazmiy rahnamoligida usuli jadid maktablari ochila boshladi. 1891-yilda ulug’ mutafakkir Komil Xorazmiy tashabbusi bilan Urganchda birinchi usuli jadid maktabi ochildi. Ushbu maktab xalq o’rtasida

katta e’tibor qozondi, unda dastlab 25 o’quvchi ta’lim oldi. Diniy ilmlar bilan bir qatorda geografiya, tarix, xisob kabi aniq fanlar hamda rus tili alohda o’quv predmeti sifatida o’qitildi. Qozondan maxsus o’qituvchi chaqirilgan edi. An’anaviy maxalliy qadim maktablardan farqli ravishda dars jadvali, har bir dars 50 minut va 10 minutlik tanaffus joriy qilindi. Bu maktabni xatto Muxammad Raximxon kelib ko’rdi, o’g’li Asfandiyorni shu maktabga o’qishga bergan, maktabning kerakli jihozlari, o’quv qurollari uchun davlat xazinasidan mablag’ ajratgan. Bundan tashqari ushbu maktabda jadidchilik rahnomalarida Sayid Islomxo’ja, shoir va mutafakkir Yusufbek Bayoniy, Muhammad Rasul Mirzo (Komiy Xorazmiy o’g’li), Ahmad Tabibiy va Avaz O’tar o’g’li shu maktabda rus tilini o’rganishgan.

1893-yil Buxoro amiri Abdulahadxon ruxsati va Mo’minxo’ja Vobkendiy va G’ijduvonlik Domla Fozil sa’yharakati bilan Yangi usul maktabi ochildi. O’zbekiston hududida keyingi Yangi usul maktablari 1898-yil Qo’qonda Salohiddin domla va Samarqanddagi paxta zavodi huzurida tatar muallimlari tomonidan ochilgan (o’zbeklar bu davrda bunday maktablarni “no’g’oy maktab” deb atagan[3.41-43].

Namangan hududida 1907-yilda yangi usul maktabi tashkil etilib, bevosita mashhur o’zbek ma’rifatparvari Ishoqxon Junaydullaxo’ja o’g’li Ibrat nomi bilan bog’liq bo’ldi. To’raqo’rg’onga taklif etilgan Husayin Makaev Ibrat tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktabida mahalliy aholi bolalarini o’qita boshlaydi. Husayn Makayev va Abdulrauf Shagidullin birgalikda Namanganda maktab uyushtirib, o’zbek va tatar bolalarini o’qitib, ta’lim sohasiga katta hissa qo’shadilar. Namanganlik marifatparvarlar ta’lim berish sohasida yuqori natijalarga erishgan. Bu haqida o’sha yillarda o’qituvchilik qilib nafaqaga chiqqan Yo’ldosh Najmiddinov o’z esdaliklarida quyidagilarni yozib qoldirgan: “1910-yillarda Namanganda yangi maktab tashkil bo’ldi. Dastavval Husayn Makayev degan tatar kishi kelib, yangi usuldagi maktab ochganda, shaharda duv-duv gap tarqaydi: Makayev degan tatar kelib, yangi usulda maktab ochib, to’rt yilda o’qish va yozishni, hisobni o’rgatib, mulla qilayotganmish. O’qigan bolalardan bir so’m pul olar emish. Bolalarni urmasdan, odobli qilib o’qitarmish” deya ma’lumotlar keng yoyildi. 1911-yilga kelib o’lkada Yangi usul maktablar soni 63 taga, ular o’qiydigan bolalar 4100 nafarni tashkil etardi. Buxoroda Usmonxo’ja Po’latxo’jayev tomonidan 1913-yilda ochgan yangi usul maktabi anchagina shuhrat topgan. Hamidxo’ja Mehriy ham Hovuzi Arbob guzarida yangi usul maktabini tashkil etgan. Xiyobon guzarida Mirza Ismoilning ukasi tomonidan kattalar uchun savod chiqarish maktabi tashkil etilib, unda ilm ixlosmandlari xat-savod, hisob va jug’rofiya fanlaridan saboq olgan. “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarining “1914-yillardagi hollar va maktablar” bo’limida yozilishicha, 1914-yilga kelib Usmonxo’janing maktabida taxminan 200 nafar, Hamidxo’ja Mehriy maktabida esa 100 nafar, Mukamiliddin Maxdum maktabida 50 nafar, Xiyobon guzarida joylashgan maktabda 40 nafar, Morkush guzaridagi maktabda 150 nafar, Mulla Vafo maktabida 80 nafar o’quvchi ta’lim olgan.

Yangi usul maktablarida maktabxonadagi yakka o’qitish usulidan sinfda dars berish usuliga o’tildi, yangi usuldagi maktab xonalarining ichki tuzilishi, eski maktablardan parta, yozuv taxtasi, geografik karta va o’qituvchi uchun stol-stulning borligi bilan ajralib turgan. Maktablarda bolalar 2-3 yil o’qishni davom ettirganlar. Masalan, Andijondagi Azim Qodirov maktabi 3 sinfli bo’lib, 1 chi sinfda bolalarga o’qish va yozish, 2 chi sinfda tajvid, hisob, 3 chi sinfda esa ibodati islomiya, sarfi turkiy o’rgatilgan. 1900-yil may oyida Otabek qozi ishtirokida ushbu maktab o’quvchilaridan imtihon olingan[4.73]. Yangi usul maktablariga hukumat hech qanday yordam bermagan. Maktablar bolalarning ota-onalaridan har oyda olinadigan mablag’ hisobiga ishlagan, muallimlarga ham shu hisobdan maosh to’langan. Yangi usul maktablarida may oyi oxirlarida ota-onalar va mehmonlar ishtirokida imtihonlar o’tkazilgan. Imtihonda bolalar Qur’on suralarini yod aytishni, o’zbek tilidan o’qish va yozishni, hisobdan 4 amalni o’rganganliklarini namoyish qilganlar. Yangi usul maktablari zamonaviy o’zbek milliy maktablarining ilk bosqichi bo’lgan. Bu maktablar tajribasi asosida faqat Alifbe va o’qish kitoblarigina emas, o’zbek tilining qonun-qoidalari yoritilgan “Turkcha qoida” va “imlo” kabi dastlabki o’quv qo’llanmalari yaratilgan[5.57].

Darslar o’quv jadvali asosida, senzura ko’rigidan o’tgan darsliklar bo’yicha olib borilgan. Maktablarda o’quvchilar soni 50 tadan 145 tagacha etgan. Barcha maktablarda har oyiga o’qish uchun 50 tiyindan 1 so’m 50 tiyingacha haq olingan. Kambag’al oilalarning bolalari esa ba’zan to’lovdan ozod etilganlar.

Munavvar Qori maktabida 1915-yilda 150 ta o’quvchi bo’lgan. Shulardan 30-35 foizi kambag’allaming bolasi bo’lib, bepul o’qitilgan. Ular o’quv darsliklari va qurollari bilan bepul ta’minlangan. Qolganlari esa, o’qish uchun har oyda baholi-qudrat 50 tiyindan to bir yarim so’mgacha pul to’lagan. Ba’zi badavlat otalar 2 so’mdan ham berib to’rgan. Bir kunda 50 minutdan uch dars o’qitilgan.

O’n minutdan bir saotgacha kichik va katta tanaffuslar joriy etilgan. Darslar turk va fors tillarida olib borilgan. O’quvchilar 2 soat arifmetika, 2 soat geografiya, 1 soat tarix, jami 25 soat haftalik o’qigan.

Jadidlar yangi usul maktablarida o’quvchilarga faqat chet-eldan keltirilgan o’quv adabiyotlaridan tashqari o’zlari tomonidan ham o’quv qo’llanma va darsliklar chop etilgan. Bulardan Munavvarqori Abdurashidxonov “Adibi avval” (1907), “Adib us-soniy” (1907), “Usuli hisob”, “Tarixi qavm turk”, “Tajvid” (1911), “Havoyiji diniya”, “Tarixi anbiyo”, “Tarixi islomiya” (1912), “Er yuzi” (1916-1917), to’rt qismdan iborat “O’zbekcha til saboqlari” (Shorasul Zunnun va Qayum Ramazon bilan birga) darsliklar muhim hisoblangan[6.18].

Maxmudxo’ja Behbudiy (1875-1919)tashabbusi bilan Samarqanda yangi usul maktablari ochildi. Adib bu maktablar uchun 1904-1909-yillarda “Risolai asbobi savod”, “Risolai jug’rofiyai umroniy”, “Risolai jug’rofiyai Rusiy”, “Kitobat ul-atfol”, “Amaliyoti islom”, “Muxtasar tarixi islom” kabi darslik va o’quv qo’llanmalar mavjud bo’lgan.

Abdulla Avloniy (1878-1934) ham jadidchilik harakatining faol ishtirokchilaridan biri bo’lib tanildi. U o’zining zamondosh jadidlari, izdoshlari kabi yangi usul maktablari ochib, ularga o’zi mudarrislik qildi va darsliklar yozdi. Uning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy Guliston yoxud axloq”, “Maktab gulistoni” singari darslik, “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” to’plamlari, ayniqsa, yuqori sinf o’quvchilariga darslik sifatida yozilgan “Turkiy guliston yoxud axloq” asari (1913-yil).

Abdurauf Fitrat tomonidan 1909-yilda Istambulda nashr etilgan “Munozara” asarida Buxoro amirligi idorasiga ma’lum islohot – o’zgarish kiritish g’oyasi va “Usuli jadid” deb nomlangan yangi maorif tizimining asoslarini ilgari surdi. Fitrat o’zining publitsistik maqolasida “Ittifoq etaylik” deya ochiqdan-ochiq chaqiriq sifatida namoyon etadi. Unga ko’ra “Oy Turkiston musulmonlari! Tangru uchun, payg’ambar uchun, din uchun, millat uchun keeling birlashylik, oramizdagi shahsiy tartishmalar va sinfiy ayriliqqa ko’z yumaylik deya” barchani birlashtirish orzusida o’z harakatlarini amalga oshiradi. Bundan ko’rsak bo’ladiki, jadidchilik faoliyatida bo’lgan bobolarimizning asosiy maqsadi xalqini, elini ma’rifatli xalq sifatida shakllantirish bo’lgan.

Xulosa qilib aytganda, jadidlarning ta’lim sohasidagi merosi zamonaviy O’zbekiston ta’lim tizimini rivojlantirish uchun qimmatli manba bo’lib xizmat qiladi. Ularning milliy o’zlikni anglash, ilm-fanga intilish, tenglik va adolat tamoyillariga sodiqlik, mustaqil fikrlashni targ’ib qilish kabi g’oyalari bugungi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Jadidlarning ibratli faoliyatini o’rganish va ularning progressiv g’oyalarini zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etish orqali biz yanada yetuk va raqobatbardosh avlodni tarbiyalay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov**. I. A.** Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat”, 2008 yil. –B. 79.
2. https://daryo.uz/2021/03/21/ismoil-gasprinskiy-jadidchilik-harakatining-asoschisi
3. Холбоев С. Долимов У. Дусткораев Б. бошқалар, Туркистон жадидчилиги - миллий уйгониш даври тарихи (XIX аср охири - XX аср бошлари). –Наманган. 2012. –Б. 21.
4. Абдурашидов З. Исмоил Гасприиский ва Туркистонда жадидчилик. –Т.: Марказий Осиёни тадқиқ қилиш франсуз ииститути, 2008. –Б. 41-56.
5. Қосимов Б. Маслакдошлар (Бехбудий, Ажэий, Фитрат). –Т.: Шарк, 1994. –Б. 73.
6. Ахмедов С. Йулбошчи. Мунаввар қори Абдурашидхонов. Танланган асарлар. –Т.: “Маънавият”, 2003. –Б. 18.
7. Ro’zimova F.M. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Jadidchilik harakati hamda “Yosh Xivaliklar” ning ma’naviy va ma’rifiy qarashlari. – Urganch. 2023. –B. 36.

ZAMONAVIY KINEMATOGRAFIYANING YOSHLAR MA’NAVIY DUNYOSIGA TA’SIRI

I.I.Karimov
Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti.
Gmail: islomjonkarimov2775@gmail.com Tel: +998942682775

Annotatsiya: San’atning barcha yo‘nalishlari qatori kino san’ati ham insonlarda ma’rifat uyg‘otish vositalaridan biri bo‘lib, muntazam ommalashib bormoqda. Ushbu maqolada yoshlarning

psixologik o‘zgarishlariga zamonaviy kino san’ati orqali keladigan ta’sirning ilmiy jihatdan atroflicha tadqiqi bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: san’at, submadaniyat, kinematografiya muammolari, ruhiy kasalliklar, psixologiya, modernizm, diniy qadriyatlar, mentalitet, bozor iqtisodiyoti.

Аннотация: Как и все виды искусства, кино является средством просвещения людей и неуклонно набирает популярность. В статье представлено комплексное научное исследование влияния современного кинематографа на психологические изменения молодых людей.

Ключевые слова: искусство, субкультура, проблемы кинематографии, психические заболевания, психология, модернизм, религиозные ценности, менталитет, рыночная экономика.

Annotation: Like all forms of art, cinema is one of the means of awakening human consciousness and is steadily gaining popularity. This article presents a comprehensive scientific study of the impact of modern cinema on the psychological changes of young people.

Key words: art, subculture, problems of cinematography, mental illness, psychology, modernism, religious values, mentality, market economy.

San’at va madaniyatning turli sohalari insonlarni jalb qiluvchi kuchga ega bo‘lib, ularning janrlari va yo‘nalishlari insonlarga turli ijtimoiy va muhim mavzularni tushuntirib bera oladi. Yurtimizda ham yoshlar dunyoqarashini turli yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy tayyorlashda milliy kinematografiyani rivojlantirishga e’tibor qaratilib, “Milliy kino san’atini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni tizimli davom ettirish, sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, yurtimizda jahon tajribasi asosida kino ishlab chiqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy kinosanoat infratuzilmasini yaratish va kinoprokat tizimini rivojlantirish maqsadida” qonunchilik takomillashtirib borilmoqda. [1] Dastlabki davrlarda insonlar manfaati uchun ahamiyatli bo‘lgan kino san’ati ham boshqa madaniyat tarqatish vositalari kabi borgan sari “bozor iqtisodi” talablariga monand ravishda ijod namunalari ishlab chiqarmoqda. San’atkorlar va film prodyusserlari filmdan daromad topish ilinjida insonlar nafsoniy istaklariga monand kinofilmlar ishlab chiqarishga harakat qilmoqdalar. Ushbu ta’sirlarning insonlarga bo‘lgan psixologik ta’sirlari o‘rganilishi hayotiy zaruratga aylanib bormoqda.

Saviyasiz filmlarga ko‘p bor murojaat etilishi natijasida, yoshlarda “o‘tish davri” bilan bog’liq bir qator muammolar yuzaga kelishini inobatga olgan holda, daxshatli filmlar uchun yosh chegaralarini belgilash, yoshlar uchun alternativ bo‘lgan qiziqarli tarzda yondashilgan sarguzasht filmlar ishlab chiqilishiga urg‘u berish, kinofilmlarda zo‘ravonlik targ‘ibotiga yo‘l qo‘yilmasligi, pornografiyaning taqiqlanishi kabi choralarni amalga oshirishga “bozor iqtisodiyoti” qoidalari to‘sqinlik qilmoqda. Kino san’atdan ko‘ra “sanoat”ga aylanib moddiy mablag‘ oshirish uchungina suratga olinuvchi ko‘rinishga kelib ulgurdi. Bunda bir qator film ijodkorlarining shaxsiy manfaatlarini tomoshabinlar manfaatlaridan ustun qo‘yishlari mazmunan sayoz, ko‘rinish jihatidan o‘ziga tortuvchi filmlar ishlab chiqarilishiga sabab bo‘lmoqda. “Ommaviy madaniyat”dan ilhomlangan yangi davr kinofilmlarining “umri” ham qisqa bo‘lib faqatgina bir muddat ko‘rilib qiziqish uyg‘otmay qo‘yadigan darajada qadrsizlanib bormoqda.

Agarda insonlarda sof insoniy tuyg‘ular zaiflashib, ular o‘rnini vayronkor g‘oyalarga monand tuyg‘ular egalllasa, jamiyat hayotida jinoyatchilikning ko‘payishi ehtimoli yuqoridir. Insonlarga fikr erkinligi haddan ziyod ko‘p berilsa, oqibatda ularda hayvonlarga monand tarzda yashash va fikrlash odat tusiga kirib boradi. Daxshatli sahnalarga boy kinofilmlar insonlarning sof ongini o‘ldirishga shu orqali hissa qo‘shadilar. Ularning qarashlariga ko‘ra har qanday cheklash insonlarning hayotiga daxl qilmasligi kerak. Ular ilgari surayotgan ba’zi mistik qahramonlar diniy jihatdan adovatlarga ham sabab bo‘lmoqda. Yetarli darajada diniy ilmlarni bilmaganlari holda diniy personajlarni qo‘shishlari va talqin etishlari natijasida insonlarga noto‘g‘ri ma’lumotlar ham ulashmoqdalar.

Jumladan shunday kinofilmlar sirasiga kiruvchi insonlarda vahshat uyg‘otuvchi filmlar namoyishi kerak yoki keraksizligi, ularning psixologik ta’sirida ulg’aygan yoshlar qanday axloqiy o’zgarishlarni boshdan kechirishi kabi baxsli muammolar san’atshunoslar, psixologlar, kinotanqidchilar, jamoatchilik vakillari diniy idora vakillari tomonidan o’rganilib, munosabat bildiriladi. Tanqidchi va yozuvchi Kim Nyuman “Jorj Melies Le Manoir du diable” ni birinchi qo’rqinchli film sifatida ta’riflagan , unda janrning asosiy elementlariga aylangan: jinlar, arvohlar va hayajonlantiruvchi qal’alar tasvirlari.[2] Ingliz kinotanqidchisi Robin Vud, Richard Lippe va Endryu Brittonning yozuvlari kino janrlaridan biri bo‘lgan ushbu janrning ilmiy asoslarini ochib berdi.

Mistik va qo‘rqinchga sabab bo‘luvchi kinofilmlar yoshlar ruxiyatiga ta’sir etishining ilmiy asoslari o‘rganilishi, kinochilikdagi ayrim muammolarni oldini olishda nimalarga e’tibor berilishi, yoshlar va o‘smirlik davri psixologik muammolarini tadqiq etish va tushunishga yordam beradi. Kinoshunoslik lug‘ati qo‘rqinchli filmni “o‘z tomoshabinlaridan qo‘rquv, daxshat, jirkanish, shok, shubha va albatta, daxshatga javob berishga intiladigan tashvishli va qorong‘u mavzu” sifatida belgilaydi. [3] Aksariyat hollarda kinofilmlarning ssenariylar shunday tuzib chiqiladiki, ularda shahvoniy qullik, zo‘ravonlik, axloqsizlik targ’iboti ommaviy madaniyat kabi jamiyat uchun zararli g‘oyalar targ‘ib etilgan bo‘ladi. G‘arb mamlakatlaridagina emas, butun dunyoda shu kabi mazmunli kinofilmlar ishlab chiqish urfga kirib bormoqda. Eng ommabop bo‘lgan kinematografiya janrlari sifatida qo’rqinchli, detektiv melodramma janridagi filmlar e’tirof etiladi.

Qo‘rqinchli va mistik ko‘rinishdagi filmlarning yoshlarga va ular orqali jamiyatga xavfi shundaki, agarda bunday janrlardagi filmlarni ko‘rmagan bo‘lsalar ularda qo‘rquv va havotir kabi ta’sirlar ko‘rsatadi. Bular dastlabki ta’sirlanish bosqichining alomatlari xisoblanadi. Keyingi bosqichda tomoshabin bunday sahnalarga ancha ko‘nikib qoladi va hayratlanmay qo‘yadi. Tomoshabinlar o‘z qiziqishlarini qondirish uchun yanada ekstermal va daxshatli sahnalarni ko‘rishni boshlaydi. 5D va7D kinofilmlar ana shunday inson tuyg‘ularini zaharlaydigan va falaj qiladigan kinochilikdagi innovatsiyalardir.

Borgan sari eng qonli va daxshatga to‘la sahnalar ham insonlarga odatiy tuyulib borar ekan, boshqa turdagi kinofilmlar ham o'z qiymatini yo‘qotib boradi. Filmlar bosh mavzulari boylik orttirish, faxsh, ichkilikbozlik, jinoyatchilik, qimor kabi nafsoniy maslaklar bo‘lib qoladi. Yurtimizda milliy mentalitetimizga yot bo‘lgan kinofilmlar namoyish etilmasligi va nazoratga olinishida keng jamoatchilik ta’siri yuqori bo’lib kelgan bo’lsada, so’nggi yillarda so‘z erkinligi niqobi ostida yoshlar tarbiyasiga zarar yetkazuvchi bir qator kinofilmlar suratga olinishiga ruxsat berilganining natijasi hayotda ko‘rina boshladi. 2008 - yil mart oyida Xitoy o‘z bozorida barcha qo‘rqinchli filmlarni taqiqladi.[4] Ayrim hollarda ushbu kinofilmlar televideniya va ommaviy axborot vositalari orqali ham berib borilayotgani achinarli xoldir.

Yoshlar uchun dahshat - bu o‘smirlarni qurbon qiladigan dahshatli subjanr bo‘lib, u odatda kuchli, mos kelmaydigan o‘spirinlarni targ‘ib qiladi va yosh avlodni qiziqtiradi. Ushbu kichik janrda ko‘pincha jinsiy aloqa, voyaga yetmaganlar ichkilikka berilishi mavzulari tasvirlangan.[5] Ota-onasi bir-biriga nisbatan nizolashib yashovchi va ko‘p janjallashadigan oilada ulg‘aygan yoshlarda melanholik temperamenti shakllanishi ehtimoli oshib boradi. Inson qo‘rquv natijasida o‘ziga va o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi yo‘qolib boradi. Boshqalarga nisbatan ham ishonchsizlik kayfiyatida bo‘lib, tez do‘stlashib keta olmaydi va fikriy mustaqillikka ega bo‘lishi juda qiyin kechadi.

Daxshat va mistik personajlar aralashgan filmlarga talab borgan sari oshib borishining sababi shundaki, insonlar ongida odatiy ko‘ringan hodisalarga nisbatan g‘ayrioddiylikka intilish xissi kuchayib boradi. Filmlarni ishlab chiqishda kompyuter texnologiyalari va montaj imkoniyatlarini qo‘llash bilan bunday istak ro‘yobga chiqishi mumkin bo‘lmoqda. Tomoshabinlarning talabiga monand ravishda ishlab chiqilayotgan bunday turdagi filmlarning psixologik nojo‘ya ta’sirlari ko‘payib bormoqda.

Qo‘rquv hissi insonlarda uchraydigan salbiy xarakterga ega bo‘lgan, havotirning kuchli darajasi xisoblanadi. Qo‘rquv barchaga xos hislat bo‘lsada yuzaga kelish sabablari va fe’l-atvorda aks etishiga qarab turlicha bo‘ladi. Qo‘rquv tufayli bir qator ruxiy kasalliklar kelib chiqadi. Ilmiy tilda “fobia” atamasi ham ishlatilib, psixologiyada qo‘rquv tufayli kelib chiqadigan bir qator kasalliklarning oldini olish, davolash chora-tadbirlari ko‘riladi. Ba’zida insonlar biror yaqin insonlarining o‘limi, turli hatarlar (kasallik, tabiat hodisalari,urush janjallar kabi), ishini yoki obro‘-e’tiborini yo‘qotishdan havotir oladilar, muntazam bezovtalik hissi ularning jismoniy faoliyatlariga ham ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi. Qo‘rquvning bo‘lishi ba’zida insonlarda ruhiy tushkunlik, bosinqirash, bezovtalik, izolyatsiyalanganlik kabi asoratlar bilan namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

- https://lex.uz/ru/docs/-5374440 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Kino san’ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida 07.04.2021 yildagi PF-6202-son Farmoni. [Murojaat qilingan sana: 20.04.2025]
- Marriott & Newman 2018, p. 17.
- *Kuhn, Annette; Westwell, Guy (20 December 2012), “horror film”, A Dictionary of Film Studies, Oxford University Press, doi:10.1093/acref/9780199587261.001.0001, ISBN 978-0-19-958726-1, p.20*
- China Bans Horror Movies – *Shanghai Daily*, March 2008. [Murojaat qilingan sana: 20.04.2025]

- Miller C, Van Riper A. Marketing, Monsters, and Music: Teensploitation Horror Films. Journal of American Culture [serial online]. June 2015;38(2):130–141.

MA’NAVIY TARBIYA MAZMUNI, USUL VA VOSITALARINI ZAMON TALABLARIDAN KELIB CHIQQAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH ZARURIYATI

N.Zaynobbidinova
Namangan davlat pedagogika instituti Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi, f.f.n.,
Email: nzaynobidinova2406@gmail.com Tel: +998 97 231 28 82
Q.K.Abduvoxidov
Namangan davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitsh metodikasi(Ma’naviyat asoslari) mutaxassisligi
2-bosqich magistranti
E-mail: abduvohidovqobiljon2001@gmail.com Tel: +998 93 788 45 40

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma’naviyat hamda ma’naviy tarbiya jarayonlarining mazmuni, mohiyati, ularning namoyon bo‘lish usul va vositalarini takomillashtirish va bunda ma’naviy muhitning ahamiyati haqida fikr va mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviy tarbiya, ma’naviyat, irratsional, ratsional, ma‘naviy muhit, ma’naviy olam,Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, oila, jamiyat, mistisizm.

Hozirgi kunga kelib mustaqil O’zbekistonda ma’naviyat va ma’naviy tarbiya jarayoniga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Buning asosiy sababi esa, ma’naviyat milliy an’analarimiz, asriy qadriyatlarimiz va xalqimizning milliy o‘zligini tiklash uchun eng muhim vosita bo‘lganligidir. Ma’naviy tarbiya esa komil insonni tarbiyalash uchun muhim bo‘lgan bo‘lgan shartlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda qabul qilinayotgan qonun, qarorlarda ham ma’naviy sohaga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, “Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida” hamda “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori, shuningdek 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoniga binoan, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining qabul qilinishi va uning beshinchi maqsadi qilib aynan ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish deb nomlanishi ham. Har bir jamiyatda ma’naviyatning va ma’naviy tarbiyaning tub mazmun va mohiyatini chuqur anglashni taqozo etadi. Lekin birinchi navbatda biz ma’naviy tarbiya degan tushunchadan avval, ma’naviyatning mohiyati va mazmunini haqida mulohaza yuritsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bugungi kunda ma’naviyat so‘ziga turli xil ilmiy, publitsistik va siyosiy adabiyotlarda turlicha ta’riflar berib kelinmoqda. Shuningdek ma’naviyat tushunchasi ko‘plab mamlakatlarda alohida fan sifatida o‘rganilmaydi. Ya’niki ma’naviyat barqaror tushuncha sifatida G‘arbda mavjud emas. Shunday bo‘lsada bu tushuncha o‘rniga turli fan tarmoqlarida ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiya, intellektual madaniyat, axloq va boshqa tushunchalar ishlatiladi.

Ma’naviyat (arabcha ma’no, ma’nolar majmuasi) – moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan ijtimoiy hodisa; ilmiy-falsafiy tushuncha. Shu bilan birgalikda atamaning bugungi mazmuni vujudga kelishi uchun unga juda ko‘p ijtimoiy –madaniy ta’sirlar bo‘lgan. Misol uchun: Ma’naviyat atamasining shakllanishiga “Ma’ni ” atamasidan tashqari Sanskrit tilidagi “Ma’nas ” tushunchasi ham ta’sir ko‘rsatgan hisoblanadi. Bu atamaning ushbu shaklda namoyon bolishida tasavvuf ilmi ham juda kata ta’sir ko‘rsatadi. Xususan Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy va ma’naviy” asari ma’naviyatning shakllanishi uchun katta ta’sir ko’rsatgan bo’lishi mumkin. Ma’naviyat so‘ziga bugungi kunda ilmiy, falsafiy va adabiy tilda ishlatiladigan bir qancha ta’riflarni keltirish mumkin. Va bu ta’riflarning barchasi kelib chiqish davri, makoni, insonlarning hayotiy qarashlari, shaxsiy e’tiqodi, ongu tafakkuri va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda turlicha bo‘lishi mumkin. Agar ilmiy adabiyotlarda ma’naviyatga bo‘lgan ta’riflarni tahlil qiladigan bo‘lsak ularda juda rang-barang, juda

ham qiziqarli va ayrim bir hollarda bir birini inkor qiluvchi ta’riflarga ham duch kelamiz albatta.Ularning ba’zilari ta’rix, tilshunoslik,falsafa , adabiyot ma’lumotlariga va xulosalariga tayangan holda izchil ratsionalistik xarakterga egadir.Shuningdek qolgan ta’riflarda noilmiy, irratsional dalillar, unsurlar farazlar uchratb turadi. Ya’niki bu jihatda ma’naviyatga nisbatan diniy mistikk jihatdan yondashiladi. Misol uchun freydizm va psixonalizda bu jihatlar uchraydi. Ular inson mutlaqo tushuntirishdan ojiz, ilohiy inoyat va qalb ko‘zi bilan ko‘riladigan haqiqat yoki g’oyibdan insonga ko‘rsatilga hidoyat deb hisoblashadi.” Inson ongli faoliyatining, tafakkur salohiyatining har qanday shakli ma’naviyat bo‘la olmaydi. Inson ruhiy olamidagi muyyan ijobiy ijtmoiy ahamiyat kasb eta oladigan fazilatlarnigina ma’naviyat deb ataladi”. [1-29] Bugungi kunda diniy-mistik qarashlar zamon bilan bir qatorda o‘zgarib, yangi ko‘rinishlar kasb etmoqda. Suningdek inson bugungi davrda juda ziddiyatli va chalkash ta’sirlar ostida qoldi va bu dunyoqarashni ancha o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda.

Ma’naviy tarbiya – yuksak ma’naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma’naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta’lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan ma’naviy xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ta’minlaydigan qadimgi va abadiy qadriyatdir.[2-345] Chunki faqat insongina o‘z ongi va ma’naviyati bilan boshqa jonzotlardan farqlanib turadi. Agarda ma’naviy tarbiya masalasida hushyorlik va sezgirlik, qat’iyat va mas’uliyat bir lahza unitilsa, yoki o‘z holiga tashlab qo‘yiladigan bo‘lsa, kelajak avlodning taqdiriga befarq qaralgan va ularni globallashuv jarayonida muqaddas qadriyatlar hamda milliy ma‘naviyat bilan yo‘g’irilgan ma‘naviy immunitetdan mahrum qilgan bo‘lamiz.

“Insonning ichki dunyosini, qalbini poklash, unga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish, jamiyatdagi turli xil salbiy oqimlarga qarshi turish – bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir. Biz buni faqat jamiyatda o‘zaro hurmat, adolat va sabrni targ‘ib qilish orqali amalga oshirishimiz mumkin”.[3]

Ma’naviy tarbiya tushunchasini ma’naviy muhit tushunchasisiz to‘liq anglab olish mumkin emas. Sog‘lom ma’naviy muhit bor joyda shaxsni hamda butun bir avlodni tarbiyalash uchun ijobiy xislatlar shakllanadi. Chunki ma’naviy muhit har qanday yangi o‘zgarishlarni, chetdan qabul qilingan kashfiyotlar taqdirini belgilab beradi, uni rivojlantiradi, unutishga mahkum etadi, yoki ma’lum bir darajada xalqga jamiyatga va ma’naviy muhitga moslashtirib qabul qilishi mumkin hisoblanadi. Shuning dek sog‘lom bo‘lmagan ma’naviy muhit insonlarni bir biriga begonalashtirishi, ulardagi o’zaro ishonchni, mehr oqibatni susaytirishi, hamda ular orasidagi ijtimoiy qo‘rquvni kuchaytirib yuborishi mumkin hisoblanadi. Ma’naviy muhit asosan jamiyatning aqliy, hissiy va jismoniy jihatdan paydo bo‘lgan va kamolotga erishga o‘rtacha talablari asosida vujudga keladi. Shuningdek ma‘naviy muhit odatda barqarorlikga va birxillikga intiladi va shu tarzda rivojlanish uchun shart sharoitlarni qidiradi.Uning ta’siri hamma uchun birdek va o‘rtacha holatda bo‘ladi. Shu bilan birga uning talablariga javob berish uchun ma’lum bir toifa insonlar o‘zlarini ma’naviy jihatdan takomillashtirish uchun izlanadilar va doimiy o‘zlarini rivojlantirib boradilar. Qolga qism shaxslarda esa bunday imkoniyat to‘liq yuzaga chiqmay qolish xavfi mavjud bo‘ladi. Shuning uchun umumiy ma’naviy muhitda alohida tabaqalashgan, kasbiy professional, guruhiy submuhitlar hamda katta kichik bo‘lgan submuhitlar mavjud hisoblanadi.

Shuning uchun ham ma’naviy tarbiya jarayonini barcha insonlar uchun moslashtirib ularning dunyoqarashi, ijtimoiy holati va kasbu koriga qarab umumiy tarzda qo‘llashimiz kerak bo‘ladi. Va buning natijasi o‘laroq oxir-oqibatda, umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan bir tekisda harakatlanishimiz va ma’naviy tarbiya jarayonimiz bardavom davom etttirishimiz mumkin bo‘ladi.

Ma’naviy tarbiya atamasi keng ma’noda inson shaxsini shakllantirish, uni ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayotda faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ma’naviy ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig‘indisini anglatadi. Bunday tushunishda ma’naviy tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g‘oyalari, adabiyot, san’at, kino, radio, TV, OAV va boshqa faoliyatini ham o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda ma’naviy tarbiyani har jihatdan yaxshi olgan shaxs o‘z aqli, o‘z tafakkuri, o‘z mas’uliyati bilan ongli ravishda, ozod va hur fikrli inson bo‘lib ma’naviy jihatdan rivojlanishga doimo harakat qilib yashaydi. Bunday odamlar uyushgan jamiyatni, ular barpo etgan ma’naviy-ruhiy muhitni, soxta aqidalar, vayronkor g‘oyalar va ma’naviy tajovuzlar bilan buzish qiyin. Ularni o‘zlari aql-idrok va qalb amri bilan tanlab olgan hayotiy maqsadlaridan chalg‘itib ham bo‘lmaydi. Hozirgi davrda ma’naviy

tarbiya yo‘nalishida oldimizda turgan muhim vazifalarni bajarish, el-yurtga fidoyi va sadoqatli, haqiqiy vatanparvar, mard, ma’nan barkamol shaxslarni tarbiyalash har bir ziyoli va ota-onalarning muqaddas burchi ekanligini anglab yetishimiz zarur hisoblanadi. Chunki ma’naviy tarbiya jarayonini faqatgina hamjihatlik orqaligini yuqori darajaga olib chiqish mumkin xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Erkin Yusupov, O‘tkir Yusupov Ma’naviy kamolot va jamiyat taraqqiyoti.-Xo’jand :1996, 26-b
2. Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati. [Matn]: lug’at. // J.Nazarov va b. – toshkent: “O‘zbekiston faylasuflar milliy nashriyoti” , 2021. – 816 b.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis a’zolariga an’anaviy murojaatnomani o’qib eshittirdi. «Gazeta.uz» davlat rahbari bildirgan fikr va vazifalarni qisqacha mazmunda bayon etadi. 24 yanvar 2020
4. Зайнобиддинова Н. И. Ибн Сино асарларида руҳий борлиқ масаласи-Румий ижодининг фалсафий-ғоявий илдизларидан бири сифатида //Проблеми та перспективи розвитку науки на початку третього тисячоліття у країнах Европи та Азии. – 2015. – Т. 1. – №. 13. – С. 411-412.
5. Zaynobiddinova N. I. Globallashuvda ta'limning roli //Universal International Scientific Journal. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 603-606.
6. Зайнобидинова Н. И. Ақл ва ахлоқ масалаларининг Жалолиддин Румий ижодида ёритилиши //Сборники конференций НИЦ Социосфера. – Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro, 2016. – №. 26. – С. 18-20.
7. https://daryo.uz/2021/08/17/shavkat-mirziyoev-yangi-ozbekiston-gazetasiga-intervyu-berdi
8. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-maqollari

ФОРМЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ. ЭЛЕКТРОННЫЙ УЧЕБНИК КАК СРЕДСТВО ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

М.Дадамирзаева,
магистрант Наманганского государственного педагогического института Направление : ”Русский язык и литература”

Аннотация: В статье рассматриваются основные формы дистанционного обучения и анализируется роль электронного учебника как ключевого инструмента в процессе удалённого образования. Выделяются преимущества и ограничения использования электронных учебников, а также даются рекомендации по их эффективному внедрению и прогнозы дальнейшего развития этой технологии.

Ключевые слова: обучение, учебник, видеолекции, преимущества, персонализация, технологии, занятия.

Дистанционное обучение (ДО) уже давно перестало быть экзотическим экспериментом и стало неотъемлемой частью современной образовательной среды. Широкое распространение интернета, облачных сервисов и мобильных устройств кардинально изменило подходы к организации учебного процесса. В центре этих изменений — электронные учебники (ЭУ), которые объединяют в себе текстовые, аудио- и видеоматериалы, тестовые модули и средства обратной связи. Цель данной статьи — дать комплексный обзор форм ДО и показать, как ЭУ выступает эффективным средством создания интерактивного, адаптивного и доступного обучения.

Современное образование переживает активную цифровую трансформацию, которая находит своё отражение в широком внедрении дистанционных форм обучения. Особое место среди них занимает использование электронных учебников, предоставляющих обучающимся доступ к образовательным материалам в любое время и из любого места. Одним из исследователей, внёсших значительный вклад в развитие теории и практики дистанционного образования, является Е.С. Полат. Её научные труды рассматривают электронные образовательные ресурсы как неотъемлемый элемент эффективного дистанционного обучения, акцентируя внимание на их роли в формировании самостоятельности, мотивации и активной учебной позиции учащихся [9].

Формы дистанционного обучения: ДО можно классифицировать по разным критериям, однако наиболее распространённая схема разделяет его на асинхронное, синхронное, смешанное и мобильное обучение.

Асинхронное обучение предполагает, что обучающиеся работают с учебными материалами самостоятельно, в удобное для них время, без прямого участия преподавателя в режиме реального времени. К типичным примерам относятся видеолекции, записанные вебинары, текстовые курсы и электронные тесты. Основные преимущества: гибкий график, возможность глубокого погружения в материал и повторного просмотра сложных тем [1].

При синхронном обучении взаимодействие между преподавателем и студентами происходит в реальном времени — через видеоконференции, онлайн-встречи и чаты. Это обеспечивает оперативную обратную связь и поддерживает чувство «присутствия» в классе, однако требует согласования расписания и стабильного интернет-канала [2].

Смешанное (blended) обучение. Blended learning сочетает традиционные очные занятия с онлайн-модулями. Такая модель позволяет объединить лучшие практики: живые дискуссии и практические занятия в аудитории наряду с самостоятельным освоением теории в электронном формате [8].

Мобильное обучение опирается на использование смартфонов и планшетов, предоставляя доступ к учебным материалам «на ходу». Подходит для микрообучения и оперативного повторения пройденного, однако ограничено размером экрана и, зачастую, объёмом контента [5].

Электронный учебник — это комплексный цифровой ресурс, включающий модульный учебный контент, мультимедиа (аудио, видео, анимации), интерактивные задания и средства обратной связи. В отличие от статичных PDF-версий бумажных учебников, ЭУ построен на динамической платформе, позволяющей обновлять информацию и отслеживать прогресс обучающихся в режиме реального времени [3].

Функциональные возможности:

Интерактивность. Задания с мгновенной проверкой, форумы для обсуждений, встроенные симуляции.

Адаптивность. Система подстраивается под уровень знаний ученика: усложняет или упрощает задачи в зависимости от результатов тестов.

Доступность. Поддержка различных устройств и операционных систем, возможность офлайн-доступа.

Обновляемость. Содержание можно оперативно корректировать, добавлять новые главы и актуализировать примеры [1].

Преимущества такого обучения:

1. Гибкость обучения — учащиеся могут выбирать оптимальный темп и время занятий.
2. Повышенная мотивация — мультимедийные элементы и геймификация стимулируют интерес [6]
3. Снижение затрат — отсутствие необходимости в печатных изданиях и аренде аудиторий.
4. Персонализация — адаптивные алгоритмы формируют индивидуальные траектории освоения материала.

Ограничения данного вида обучения:

1. Технические барьеры — требуется стабильный интернет и современное устройство.
2. Цифровая неготовность — как преподаватели, так и студенты должны обладать базовыми ИКТ-компетенциями.
3. Социальная изоляция — недостаток личного контакта может снизить уровень вовлечённости и влияния групповой динамики [2].
4. Реализация и педагогические аспекты

Рекомендации по дизайну ЭУ: Дробить содержимое на короткие модули (microlearning); Включать элементы оценки знаний после каждого раздела.

Обеспечивать навигацию «по запросу» для быстрого доступа к нужным темам.

Преподаватель должен уметь разрабатывать интерактивные задания, анализировать данные об успеваемости и обеспечивать техподдержку. Студентам же важно владеть навыками самоорганизации и критического мышления [7].

Система управления обучением (LMS) должна поддерживать SCORM- и xAPI-стандарты, обеспечивать безопасное хранение данных и интеграцию с внешними сервисами (видеоконференциями, библиотечными порталы).
Будущее электронных учебников связано с интеграцией искусственного интеллекта и технологий виртуальной/дополненной реальности. Такие решения позволят создавать полностью иммерсивные образовательные среды и точнее адаптироваться к потребностям каждого учащегося [4; 6].
Заключение
Электронный учебник играет ключевую роль в современных формах дистанционного обучения, сочетая интерактивность, адаптивность и доступность. Несмотря на технические и организационные вызовы, грамотное проектирование и поддержка ЭУ на базе современных LMS открывают новые горизонты для эффективного и персонализированного образования.

Список литературы

1. Ребрин О., Шолина И., Сысков А. «Смешанное обучение» // Высшее образование в России. 2005. №8. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/smeshannoe-obuchenie (дата обращения: 25.04.2025).
2. Шаров Василий Сергеевич Дистанционное обучение: форма, технология, средство // Известия РГПУ им. А. И. Герцена. 2009. №94. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/distantsionnoe-obuchenie-forma-tehnologiya-sredstvo (дата обращения: 24.04.2025).
3. Беляев М. И., Вымятнин В. М., Григорьев С. Г. Теоретические основы создания образовательных электронных изданий. Томск, 2002. 86 с.
4. Anderson, T. Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University Press, 2008.
5. Bates, A.W. Teaching in a Digital Age. 2-e izd., BCcampus, 2015.
6. Андреев А. А. К вопросу об определении понятия «дистанционное обучение» [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://www.e-joe.ru/sod/97/4_97/st096.html
7. Siemens, G. “Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age.” International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2005, Vol. 2, No. 1, pp. 3–10.
8. Horn, M.B., Staker, H. Blended: Using Disruptive Innovation to Improve Schools. San Francisco: Jossey-Bass, 2014.
9. Полат Е.С. Дистанционное обучение: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. — М.: Академия, 2004. — 416 с.

TALABA-YOSHLARDA DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH: AXBOROT XAVFSIZLIGI VA INTERNET MADANIYATI

D.M.Boydadayev
Namangan davlat pedagogika instituti Ishlar boshqarmasi boshlig'I,
Iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqola yangi davrda jamiyat hayotida axborotga bo’lgan ehtiyoj, uning o’rni hamda ro’li tobora ortib borayotganligi, axborot xavfsizligi va internet madaniyati tushunchasi, asosiy xususiyatlari va mavjud muammolari, ularga berilgan takliflardan iborat.
Kalit so’zlar: axborot, mediokratiya, monipulyatsiya, xakerlik, internet, ijtimoiy tarmoq, kommunikatsiya, modernizatsiy.

Inson hayotga kelib, o’z ongli faoliyatini boshlabdiki, o’z ehtiyojlarini qondirish orqali mavjudlik xususiyatini saqlab qoladi.Bu uning tabiiy ehtiyojlari hisoblanadi. Ovqatlanish, chanqaganda suv ichish, kiyinish, issiq hamda sovuqdan himoyalanishva hokazo. Hozirgi davrning o’ta shiddatkor hamda tezkor ekanligi insoniyat oldiga yangidan yangi shart hamda majburiyatlarni qo’ymoqda.Shulardan biri axborot istemolihisoblanadi.Hayotning har qaysi tarmog’iga nazar tashlaydigan bo’lsak, axborot iste’mol qilish insonning tabiiy ehtiyojlari qatoridan mustahkam o’rin egalladi, deyish mumkin.Shuning uchun ham axborot biz uchun suv va havodek zarur ekanligi hech kimga sir emas. Jamiyat hayotiga axborot hokimyati ma’nosini anglatuvchi “mediokratiya” tushunchasi sekin astalik bilan kirib keldi.“Axborot hokimyati – bu

avvalo, kishilar ustidan ilmiy bilimlar, axborotlar va ularni tarqatish vositalari yordamida hukmronlik qilishdir “[1].Axborot bilan qurollangan inson kuchli inson hisoblanadi, uni muhim hamda nomuhimlariga ajrata olgan hamda o’z talqini doirasida boshqa shaxslarga yetkazib bergan inson esa ikki karra kuchli inson hisoblanadi.Insonlar hozirda mutaasil tarzda axborot iste’moli bilan shug’ullanishmoqda.Inson o’zi bilmagan mavhum narsalardan qo’rqib, uni bilishga intilib yashaydi.Insonga o’z bilmagan axborotni o’z vaqti hamda o’rnida yetkaza olgan odam uning ongini hech qanday qiyinchiliksiz monipulyatsiya qila oladi. Jamiyatni axborot bilan ta’minlagan inson esa butun bir jamiyatni o’zi istagan tomonga yo’naltira oladi deyish mumkin. Bu esa bevosita jamiyatni axborot vositasi bilan boshqarishdir.Lekin axborot tarmogini rivojlantirmasdan turib taraqqiyotga erishib bo’lmaydi.Bu masalaga mamlakatimiz Prezidenti alohida to’xtalib: “Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet tizimini keng rivojlantirmasdan turib, mamlakatni modernizatsiya qilish va yangilash, barqaror taraqqiyotga erishish haqida so’z yuritish mumkin emas”[2] deb ta’kidlaydi. Ushbu fikr ham axborotning jamiyat va davlat hayotidagi o’rni va ro’li yuqori ekanligining isbotidir.

Axborot tarqatishning eng asosiy hamda qulay vositasi sifatida hozirgi kunda internet vaijtimoiy tarmoqlar yetakchilik qilmoqda. Ular foydalanuvchilar soni hamda uzatish tarmog’ining kengligi jihatidan axborot yoyish boshqa vositalaridan birmucha o’zib ketti deyish mumkin. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan aytilgan fikrlar ham buning tasdig’i: “Birinchi navbatda media tarmoqlari faoliyati samarasini oshirish, ularni xalq bilan muloqotning ishonchli vositasiga aylantirish, zamonaviy axborot xizmatlaribozorini, sog’lom raqobat muhitini shakllantirish singari dolzarb masalalar doimiy e’tiborimiz markazida bo’lishi kerak”[3]. Jahon hamjamiyati bilan bir qatorda mamlakatimiz ham butunjahon internet tarmog’iga ulangan va axborot oqimining bevosita istemolchisi hisoblanadi. Xususan, “Gazeta.uz nashrining xabar berishicha 2020-yil oxirgi choragi ma’lumotlari bo’yicha, O’zbekistonda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni – 22.1 milliondan oshgan.Shundan mobil internet foydalanuvchilari soni – 19 millionni tashkil etmoqda”[4].Bu aholi katta qismining har kunlik axborotni olishi hamda turli yo’sinda talqin qilishidan dalolat beradi. Ushbu jarayonlar jamiyat va davlat, fuqorolar oldiga bir qator dalzarb vazifalarni qo’yadi. Axborot xavfsizligini ta’minlash hamda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish shular jumlasidandir.

“Axborot xavfsizligi – mamlakat madaniy mulkining, xo’jalik subyektlari va fuqorolar intelektual mulkining, davlat va kasbiy sirga ega maxsus ma’lumotlarning ishonchli himoyalanganligi holati”[5] hisoblanadi.Shuningdek, ushbu tushuncha har qanday turdagi axborotni tayyorash jarayonida uning har tomonlama mukammal hamda xavfsizligi, turli xildagi tashqi omillar tomonidan g’arazli maqsadlarda fotydalanilmasligi, iste’molchi tomonidan noto’g’ri talqin e’tilishiga sabab bo’ladigan xato va kamchiliklarga yo’l qo’ymaslik, oldini olish va boshqalardan iborat hisoblanadi. Axborot xavfsizligi, bir so’z bilan aytganda, uning har tomonlama tashqi va ichki xavflar va ta’sirlardan muhofaza qilishi hisoblanadi. Shuningdek , axborot uchun muayyan oqim hamda manzilga eltuvchi asosiy yo’l vazifasini o’tovchi internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish ham muhim vazifa hisoblanadi. Internet madaniyati – bu internet va uning barcha turdagi dasturlaridan foydalanishda muayyan tarzidagi chegara hamda ijtimoiy normalarga amal qilish, joylangan axborot hamda ma’lumotlarning qay darajada ishonchi, haqiqatga to’g’ri kelishi, uni amaliy jihatdan tasdiqlanganligi, internet saytlari va messenjerlardan foydalanganda axloqiy hamda umuminsoniy tamoyillarga amal qilish kabilar hisoblanadi.

Hozirgi kunda jahon axborot oqimida ma’lumotlarning soni va turi juda ko’pligi uning iste’molida hamda xavfsizligi nuqtai nazaridan turli muammo hamda kamchiliglarni keltirib chiqarmoqda. Axborot xavfsizligiga nisbatan turli xildagi xakerlar guruhining hujumlari, yolg’on ma’lumotlarning tarqatilishi, ulkan sistema hamda dasturlarni ishdan chiqaruvchi, axborot mazmunini teskari tarafga burish yoki uni yo’q qiluvchi viruslarning yoyilishi shular jumlasidandir. Axborotning qanday kuchga ega ekanligini bilganimiz holatida, bu insonlarning to’g’ri yo’ldan adashtirish, ongini zaxarlash hamda buzg’unchi g’oyalar bilan ular hayolini band qilish, mavjud voqea-hodisalar haqida xato tushunchalar uyg’otish kabi oqibatlarga olib kelishi sir emas. Internet tarmoqlari esa bevosita butun bir insoniyat, xususan millat kelajagi, davlatning ertasi bo’lgan yosh avlod ongini zaharlash, turli yo’llar bilan o’z domiga tortish, ilmdan uzoqlashtirish, milliy qadryatlarimizga zid bo’lgan qarashlarni turli yo’sinda singdirishning amaliy vositasi bo’lib xizmat qilmoqda. Ushbu sharoitda, axborot xavfsizligiga berilgan yana bir ta’rifga murojaat qilamiz:”Axborot xavfsizligi – ta’siri natijasida nomaqbul holatlarga olib keluvchi atayin yoki tasodifan, ichki va tashqi information ta’sirlarga qarshi tizimning tura olish xususiyati”[6]. Ushbu ta’rifda keltirligani

tizimni o’z ongimiz vajamiyatimizda shakllantirishimiz lozim. Xalqimiz orasida “Yoshlikda olingan bilim toshga o’yilgan naqsh kabidir” degan maqol bor. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo’lsak, o’sib kelayotgan avlodda yuqoridagi kabi axborot iste’moli hamda internetdan foydalanishda o’ziga xos mudofaa va filtr vazifasini o’tab beruvchi yaxlit va uzluksiz tizim joriy qilish lozim. Bu tizimni bevosita umumiy o’rta ta’lim tizimida joriy qilish uning yoshlar barcha qatlamini qamrab olish imkonini beruvchi samarali vosita hisoblanadi. Dastlab boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun “Axborotshunoslik” fanlarining joriy qilinishi, unda asosan axborot haqidagi ma’lumotlarni sodda hamda ravon tarzda, turli qiyosiy misollar vositasida o’rgatib borish va u haqidagi dastlabki tushunchalarni singdirish bo’lsa, yuqori sinflar uchun nisbatan batafsil ma’lumot beruvchi “Axborot turlari va klassifikatsiyasi”, “Axborot vainternet: madaniyati hamda xavfsizligi” fanlarini joriy qilish, ularda asosan dunyo axborot oqimininmg xususiyatlari, ularning turlari va ishonchlilik darajasini tahlil qila olish,ular istemoliga qo’yiladigan talablar, ular haqida fundamental bilimga ega bo’lish, axborot hurijlaridan o’zini va atrofidagilarini asrash, ijtimoiy tarmoqlardagi firibgar guruhlarga aldanmaslik, internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish, iste’molda ahloqiy va ma’naviy tamoyillarga rioya qilish kabi vazifalarini singdirish asosiy vazifa hisoblanadi.

Axborot davrida yashayotganimiz bizga juda ko’plab qulaylik hamda imkoniyatlar bilan bir qatorda ko’plab muammo hamda masalalarni oldimizga qo’ymoqda. Dunyo ilm-fani va yangidan yangi texnologiya yangiliklaridan tezlik bilan boxabar bo’lish, ulardan foydalanish bir tomon bo’lsa, milliy mentalitetimizga va umuminsoniy qadryatlarga zid bo’lgan ma’lumotlarning keng yoyilayotganligi, g’araz niyatli kishilarning yolg’on ma’lumotlar bilan insonlarni yo’ldan urayotganligi alohida bir tomon hisoblanadi. Bu davr har bir inson vajamiyatdan hushyorlik va ogohlikni talab etadi. Shundagina o’z maqsadimiz yo’lida sobit qadam bo’lamiz va hech qanday tashqi va ichki omillar bizni yuksak taraqqiyotdan to’xtata olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ma’naviyat – taraqqiyot mezoni.B. Isoqov. Namangan 2018. 122-bet
2. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari va ma’ruzalaridan olingan fikrlar. Toshkent 2019. 80-bet
3. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Sh.Mirziyoyev. Toshkent 2018. 486-bet
4. O’zbekistonda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari . #internet. gazeta.uz/oz/2020/12/11.. Jamiyat. 2020.
5. Axborot xavfsizligi. S.K.Ganiyev, M.M.Karimov, K.A.Tashev. Toshkent 2017. 8-bet, 297-bet

KELAJAKKA YO‘L OCHUVCHI YOSHLAR

M.N.Tojiboyeva
Namangan davlat pedagogika instituti. Pedagogika fakulteti tyutori +998935949596

So‘nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e’tibor ortib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlar haqida bildirgan fikrlarini inobatga olgan holda, ular mamlakatning kelajagi, rivojlanishining poydevori ekanligini ta’kidlash mumkin. Yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar, ta’lim tizimidagi yangiliklar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda ularga qulayliklar yaratish, ularda liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida olib borilayotgan islohotlar shu yerdan kelib chiqadi.

Bugungi kunda, yoshlar faolligining ortishi nafaqat o‘zlari uchun, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi va erkin fikrli fuqarolik jamiyatining shakllanishi uchun ham juda muhimdir. Shuningdek, yoshlarning o‘z fikrlarini erkin ifodalash, jamiyatdagi o‘zgarishlarga faol ta’sir ko‘rsatish va umumiy taraqqiyotga hissa qo‘shishda markaziy o‘rin egallaydi. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun ular o‘zida qanday sifatlarni rivojlantirishi zarurligini tahlil qilish, shu bilan birga, davlatimizning ularga berayotgan imkoniyatlarini inobatga olish muhim. [2]

Liderlik ko‘nikmalari – bu nafaqat rahbarlik vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan sifatlar, balki yoshlar uchun o‘zini anglash, maqsadga erishish va jamiyatda o‘z o‘rnini topishning samarali vositasi hisoblanadi. Yoshlar orasida rahbarlik fazilatlarini rivojlantirish, ular o‘zining ijtimoiy roli va jamiyatdagi o‘rnini anglash imkonini beradi. Lider bo‘lish, ko‘plab yoshlarga o‘zlarini boshqarish, muammolarni hal

qilish va o‘z fikrlarini erkin ifodalashda yordam beradi. Shuning uchun ham ijtimoiy faollikni oshirishda liderlik ko‘nikmalarining o‘rni juda katta. [2]

Agar yoshlar o‘zlarida liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirsa, ular faqat o‘ziga emas, balki jamiyatga ham foyda keltiradi. Chunki liderlik nafaqat boshqalarga ta’sir qilishni, balki o‘z hayotini rejalashtirish va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishni o‘rgatadi. Bu esa o‘z navbatida, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda faol ishtirok etishiga olib keladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan bog‘liq so‘nggi yillarda qilgan sa’y-harakatlari beqiyosdir. Ularning jamiyatdagi o‘rni va faolligini oshirish borasidagi chora-tadbirlar doimiy ravishda amalga oshirilmoqda. Yoshlar masalalariga doir qator qonunlar, dasturlar va yangi imkoniyatlar yaratildi.

O‘tgan yillar davomida mamlakatimizda yoshlar uchun turli ta’lim va ishlash imkoniyatlari, shuningdek, ijtimoiy tashabbuslar mavjud bo‘lib, bularning barchasi yoshlarni o‘z faoliyatlarini ko‘paytirishga undaydi. Ayniqsa, davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan "Yangi O‘zbekistonni yoshlar bilan quramiz" degan so‘zlarning mohiyati shundaki, mamlakat kelajagi va taraqqiyoti faqat yoshlar orqali amalga oshadi. Agar yoshlar ijtimoiy faollik ko‘rsatsa, ularga kerakli bilim va ko‘nikmalar berilsa, ular yangi jamiyatni yaratish uchun poydevor bo‘lishadi. [3] Liderlik fazilatlariga ega bo‘lgan yoshlar, nafaqat o‘z manfaati, balki jamiyatning manfaatlari uchun ham faol harakat qilishadi. Bunday yoshlar o‘zlarining faol ishtirokida, jamiyatni yangilashda o‘z o‘rnini topadi va ijtimoiy o‘zgarishlarga hissa qo‘shadi.

Bugungi kunda davlat tomonidan yoshlar uchun yaratib berilgan imkoniyatlar yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Yoshlar o‘z ko‘nikmalarini va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan ta’lim tizimi va infratuzilma shakllantirilmoqda. Bunday imkoniyatlar yoshlarni nafaqat ilmiy sohada, balki ijtimoiy hayotda ham faol ishtirok etishga undaydi. [3]

Jumladan, Yoshlar ittifoqlari, ijtimoiy tashkilotlar va turli xil dasturlar orqali ularga o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish, jamiyatdagi o‘zgarishlarda faol ishtirok etish imkoniyatlari taqdim etiladi. Shuningdek, yoshlar o‘zlarini lider sifatida namoyon qilish va boshqalarga ilhom berish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu esa, nafaqat yoshlarning o‘zini anglashiga yordam beradi, balki jamiyatning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining o‘rni beqiyosdir. Davlatimiz rahbarining yoshlarga bo‘lgan ishonchi va ularni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan sa’y-harakatlari mamlakatimizning kelajagini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Yoshlarni jamiyatdagi faol ishtirokchilarga aylantirish uchun ularda liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, yangi imkoniyatlar yaratish va ularga o‘zini anglashga yordam berish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Mahsudaliyev , S. . (2023). TA`LIM MUASSASALARI RAHBARLARIDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH. *Наука и инновация*, *1*(35), 22–23. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/24766
2. Xasanov O. Liderlar kitobi. - Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2020. - 340 bet.
3. Razzoqov Sh. Rahbarlik san’ati. – Toshkent: Lesson Press, 2017. – 120 bet.

MUZEY PEDAGOGIKASI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA SIFATIDA

Baydjanov Bekzod Xaitboyevich
Farg‘ona davlat universiteti “Pedagogika,psixologiya va san‘atshunoslik” fakulteti dekani,
Pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)
Dadaboyev Suhrob Mansurjonovich
Namangan davlat pedagogika instituti “Kreativ pedagogika va psixologiya ” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail:dadaboyevsuhrob89@gmail.com **Tel:**+9989913444999

Annotatsiya: ushbu maqolada muzey pedagogikasi tarixi va uning rivojlanishi, muzeylarning ma'rifiy faoliyati, shuningdek, muzeylar va ta'lim muassasalarining hamkorligi, shuningdek, muzey pedagogikasining vazifalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: muzey pedagogikasi, muzeylar va umumta'lim maktablari o'rtasidagi hamkorlik, o'quv faoliyati, metodika, innovatsion dasturlar, muzey pedagogikasining vazifalari.

Mustaqillik davrida muzeylar jamiyat a'zolarini erkin, demokratik tafakkur va milliy mafkura ruhida tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.O'zbekiston Respublikasi muzeylari va tarixiy-me'moriy yodgorliklari millatning madaniy uyg'onishi, milliy g'oyani ilgari surish, xalq ongida milliy g'urur va qadriyatlarni mustahkamlash, mustaqillik, demokratiya va konfessiya g'oyalariga sadoqat tuyg'usini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi

Muzeylar nafaqat tabiat va jamiyatning noyob va xilma-xil ob'ektlari xazinasi, balki muhim ilmiy, ma'rifiy va ijtimoiy aloqalarning muhim bo'g'inlari va markazlaridir. Bugungi kunda ma'rifiy yoki ijtimoiy-madaniy hordiq chiqarishni muzey tarkibiy qismisiz, shuningdek, muzey ishining o'ziga xos xususiyatlarini, xususan, ijtimoiy-madaniy ma'rifiy faoliyatni biladigan malakali talaba va malakali mutaxassissiz tasavvur qilish qiyin.Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu murakkab vazifa yangi pedagogik yo'nalish-muzey pedagogikasi doirasida talabalarni muzey materiallari bo'yicha o'qish va o'qitish, ularda nazariy tushunchalarni shakllantirish,shuningdek, muzey muhiti va ta'lim muassasalari sharoitida pedagogik muammolarni hal qila oladigan mutaxassislarni muvaffaqiyatli tayyorlash. Muzeylarning yangi maqomi muzey ta'limida o'quv jarayonini amalga oshirish uchun mutaxassislarni tayyorlashning turli tizimlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Hozirgi vaqtda turli yoshdagi bolalar va muzeylar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi munosabatlar aniq maqsadga yo'naltirilmagan.Muzeylar yosh avlodni moddiy va ma'naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalashda madaniy, tarixiy, tabiiy va ilmiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan ijtimoiy muassasadir. Shuning uchun muzeylar va maktablarning ta'lim sohasidagi faoliyatiga tizimli va dasturlashtirilgan yondashuv talab etiladi.

Muzey pedagogikasi-bu pedagogika, psixologiya va muzeyshunoslikning o'zaro ta'siri natijasida shakllangan intizom. Bu muzeylarning madaniy-ma'rifiy faoliyati tarixi va xususiyatlarini, muzeylarning turli toifadagi tashrif buyuruvchilarga ta'sir qilish usullarini va ularning ta'lim muassasalari bilan o'zaro aloqalarini o'rganadigan fan sohasi.Dastlab muzey pedagogikasi tushunchasi Germaniyada XX asr boshlarida shakllangan va ilmiy muomalaga kiritilgan. Uning amalga oshirilishi A. Lixtvark, A. Reyxven va R. Freydental nomlari bilan bog'liq.Dastlab, bu maydon muzey ishining bir qismi sifatida talqin qilingan.1913 yilda A. Lixtvark birinchi bo'lib muzeyning ta'lim muassasasi sifatida ahamiyati haqidagi g'oyani shakllantirdi va tashrif buyuruvchilar bilan muloqot qilishning yangi usullarini taklif qildi. Nemis olimi R. Freydental birinchi bo'lib muzeylarda maktab tizimida o'qitish usulini yaratdi, muzey muhitida o'quv jarayonini tashkil qilish uchun pedagog mutaxassis zarurligini ta'kidladi va unga "muzey pedagogi" deb nom berishni tavsiya qildi. ."Freydental bugungi kunda muzeyda dars berish uchun bir qator talablarni ham aytib o'tdi: - muzeyga har bir tashrif dars sifatida, aniq maqsadda (tarbiyaviy, pedagogik, rivojlantiruvchi) o'tkazilishi kerak; - o'qituvchilar va bolalar muzeyga tashrif buyurish nafaqat ekskursiya, balki jiddiy ish ekanligini bilishlari kerak va shuning uchun unga tayyorgarlik ko'rish kerak; - bolalar muzeyga charchamasdan va tushunishga tayyor bo'lmasdan tashrif buyurishlari tavsiya etiladi; - "nafaqat bolaning ongi, balki kattalar uchun ham qiyin " bo'lgan umumiy ekskursiyadan qochib, diqqatga sazovor joylarni tanlash muhimdir; - Ekskursiya uchun eksponatlarni tanlash mavzu va bolaning yoshi va qiziqishlariga asoslangan bo'lishi kerak; - muzeyga tashrif buyurish natijasida bolalar uchun mustaqil ijodiy ishlarni yaratish (rasm chizish, ko'rgan narsalari asosida insholar yozish, modellar yaratish va boshqalar.). B. A. Stolyarovning muzeyning ma'rifiy faoliyatiga, tarixiy voqelikka, atrofimizdagi dunyoga,aholining ijtimoiy va madaniy faoliyati masalalariga qimmatli munosabatni shakllantirish vositasi sifatida muzey va tashrif buyuruvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi shakllarini izlashi, badiiy idrokni rivojlantirish, estetikani shakllantirish. muzey orqali ta'lim batafsil tahlil qilinadi. Qo'shma Shtatlardagi eng yirik muzeylardan biri bo'lgan Nyu-Yorkdagi Metropolitan san'at muzeyi ta'limga katta e'tibor beradi. Ma'lumki, bu yerda nemis va ingliz muzeylari tajribasidan tasviriy san'atni o'rganish va rivojlantirish uchun foydalanilgan.Bugungi kunda metropolitenning kengligi,kollektsiyalar sifati va tashrif buyuruvchilar bilan ekskursiyalar, konsertlar, ma'ruzalar va film namoyishlari kabi tadbirlar muzeyda ta'lim shakllariga katta e'tibor qaratilayotganligini ko'rsatmoqda.

Metropolitan san'at muzeyi mehmonlarni eksponatlar bilan tanishtiradigan birinchi qo'llanma va o'qituvchilar uchun qo'llanmani nashr etdi. Dam olish kunlari ommaviy ma'ruzalar o'qildi.Muzey ta'limiga bag'ishlangan maxsus "Metropolitan Byulleteni" nashr etildi, unda barcha toifadagi mehmonlar uchun turli

xil dasturlar,shu jumladan "keng jamoatchilik", talabalar, o'qituvchilar, dizaynerlar va hatto ko'rlar uchun ma'ruzalar mavjud.Biroq, muzey ta'limi uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilganiga qaramay, ta'lim faoliyati va muzey ta'limi o'rtasida sezilarli farq bor.Shuning uchun Metropolitan muzeyi birinchilardan bo'lib tarix, geografiya va kabi tarixiy ob'ektlardan foydalandi.Kiyim-kechak, mebel namunalari va boshqa asl tarixiy ob'ektlardan foydalangan holda boshqa maktab fanlari bo'yicha darslarni qanday o'tkazishning birinchi namunasini ko'rsatdi. Ko'pgina xorijiy muzeylar teatr tomoshalaridan foydalanadilar.Bu, ayniqsa, tarix va texnologiya muzeylarida samarali.Ushbu spektakllar bir guruh muzey xodimlari tomonidan ma'lum bir davrni tasvirlaydigan qahramonlar shaklida yoki tematik liboslar kiygan muzey xodimlari tomonidan ijro etiladi.Ushbu sahnalar bolalarni jalb qilish va ularning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda muzey pedagogikasi oldida turgan muammolar ko'p qirrali bo'lib,muzeyda namoyish etilayotgan voqealarni his qilish uchun tashrif buyuruvchilar, tinglash, meditatsiya va o'rganishni o'rgatadi.Muzeyda turli avlodlarning uchrashuvi va muloqoti uchun sharoit yaratish yaxshilik va yomonlik, donolik va jaholat, haqiqat va yolg'onning mohiyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Muzey pedagogikasi sohasida, muzeyning ta'lim muassasalari bilan o'zaro aloqasi asosan ko'rib chiqiladi.Ushbu yo'nalishning mashhurligining sababi muzeylarga tashrif buyuradigan sayyohlarning ko'pligi,turli xil noan'anaviy o'qitish usullaridan foydalangan holda, yosh avlodda mamlakatimiz tarixini va ularning o'quv jarayonini o'rganishga hissa qo'shishdir. Bunda muzey xodimlari va o'qituvchilari quyidagi maqsadlarga ega: -muzey va uning kolleksiyalari orqali tashrif buyuruvchilarning milliy qadriyatlarimizga qiziqishini uyg'otish;

Yoshlarni muzeylarga g'amxo'rlik va hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish; yoshlarda mamlakatimiz tarixi va madaniyatiga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish, tashkil etilgan muzey-pedagogik dasturlar asosida umumiy mavzu va pedagogik maqsaddagi tadbirlarni joriy etish. "Muzey pedagogikasi" tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi funktsiyalarni amalga oshirishni anglatadi: ma'lumot berish - muzey birinchi navbatda ma'lum bir hududdagi tashrif buyuruvchilarga ma'lumot beradi. Berishta'lim-muzey materiallar to'plash orqali tashrif buyuruvchilarning bilimlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, muzeydagi aloqa jarayonida tashrif buyuruvchilar muzeylar sohasida ba'zi ko'nikma va ko'nikmalarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.Muzey boshqa ta'lim muassasalariga qaraganda ko'proq narsani o'rganishingiz mumkin bo'lgan joy. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishni rag'batlantirish-muzey ba'zi sohalarda tashrif buyuruvchining ma'naviy madaniyatini shakllantirishga, uning shaxsiy ijodiy fazilatlarini kashf etishga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan joy. Muzeyda shaxsni ijodiy jarayonlarga undaydigan maxsus sharoitlar mavjud. Eng muhimi, u o'tmishdagi qadriyatlar, an'ana va urf-odatlarni aks ettiruvchi nufuzli "ilhomlantiruvchi" imkoniyatga ega. Muloqotni yaxshilash-o'smirlar muzey mavzusidagi turli tadbirlarda muloqot qilishga da'vat etiladi.Muzey-muzey tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar muloqot uchun qulay imkoniyat yaratadi, bu esa mazmunli, qiziqarli, norasmiy shaxsiy muloqotga olib keladi. Suhbatlar uchrashuvlar, seminarlar, viktorinalar va boshqa tadbirlar shaklida bo'lishi mumkin. Muzey xodimlari tomonidan xorijiy muzeylarda muzey-pedagogik dasturlar joriy etilgan.dasturlar asosan talabalar, talabalar auditoriyasi va turli xil muzey zallariga interaktiv ekskursiyalardan iborat activities.In umuman olganda, muzeyda ta'lim sohasida tashkil etilgan va olib borilayotgan ishlarning mazmuni juda xilma-xildir.Ushbu ishning asosiy shakllari: an'anaviy (ekskursiyalar, ma'ruzalar, ommaviy tadbirlar), noan'anaviy (onlayn darslar, vebinarlar, videokonferentsiyalar). - Mamlakatimiz ta'lim tizimida muzey pedagogikasidan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy-uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqdik. Muzeylar va ta'lim muassasalari o'rtasida yaqin hamkorlik mexanizmlarini yaratish; - turli yoshdagi tomoshabinlar bilan ishlashda muzey ta'limining pedagogik va psixologik xususiyatlarini hisobga olish; - muzey xodimlari va ta'lim muassasalari o'qituvchilari bilan hamkorlikda maktab va muzey ta'limini birlashtirgan innovatsion dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish ("maktab muzey o'quv muhiti", "maktabdagi muzey pedagogikasi", "muzey va ta'lim", " Salom, muzey!"("Madaniyat orqali ta'lim" va boshqalar.); Muzey pedagogikasida o'qitishning noan'anaviy shakl va usullarini joriy etish (onlayn darslar, vebinarlar, videokonferentsiyalar, film namoyishlari, o'yinlar, teatrlashtirilgan darslar va boshqalar.).

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy muzey pedagogikasi birinchi navbatda yosh avlodlarda o'tmish ajdodlari ruhini hurmat qilishdan iborat.o'z vatani tarixiga qiziqishni oshirish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, bolalar va o'smirlarda muzey madaniyatini shakllantirishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni. 1998-yil 12-yanvar.
2. “Muzeylar to‘g’risida”gi qonun.
3. K.Marayimova “Muzey pedagogikasi” o‘quv-uslubiy majmuasi FarDU.2022
4. “Pedagogik lug‘at”.
5. „ИНФОРМАЦИОННЫЙ ДАЙДЖЕСТ № 72.Великие имена Узбекистана“. Посольство Республики Узбекистан в Федеративной Республике Германия. 2016-yil 4-martda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2015-yil 10-fevral.
6. Internet manbalari.
www.Ziyonet.uz
www.pedagog.uz.

YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA LIDERLIK KO‘NIKMALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Abdullayeva Hilola
Namangan davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining tutgan o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Unda liderlik tushunchasi, bu ko‘nikmalarning qanday shakllanishi, yoshlarning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki va faoliyatiga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, liderlik yoshlarni mas’uliyatli, tashabbuskor va ijtimoiy jarayonlarga befarq bo‘lmagan shaxs sifatida shakllantirishdagi muhim vosita ekanligi asoslab berilgan. Maqola yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislar, pedagoglar va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga qiziqqanlar uchun foydalidir.

Kalit so‘zlar: yoshlar, ijtimoiy faollik, liderlik ko‘nikmalari, tashabbuskorlik, ijtimoiy rivojlanish, yoshlar siyosati, mas’uliyat, ta’lim, ijtimoiy loyihalar.

Аннотация:В данной статье освещается роль и значение лидерских навыков в повышении социальной активности молодежи. В нем анализируется понятие лидерства, как формируются эти навыки, влияние на участие и деятельность молодежи в общественной жизни. Также обосновано, что лидерство является важным инструментом в формировании молодых людей как ответственных, инициативных и неравнодушных к социальным процессам личностей. Статья полезна специалистам, работающим с молодежью, педагогам и тем, кто интересуется развитием социальной активности.

Ключевые слова: молодежь, социальная активность, лидерские качества, инициатива, социальное развитие, молодежная политика, ответственность, образование, социальные проекты.

Abstract: This article highlights the role and importance of leadership skills in increasing the social activity of young people. It analyzes the concept of leadership, how these skills are formed, and the impact on youth participation and activity in public life. It is also proved that leadership is an important tool in shaping young people as responsible, proactive and not indifferent to social processes. The article is useful for specialists working with young people, teachers and those who are interested in the development of social activity.

Keywords: youth, social activity, leadership skills, initiative, social development, youth policy, responsibility, education, social projects.

Kirish. Lider so'zi inglizcha "leader" - yetakchi, boshliq, rahbar biror siyosiy partiya yoki tashkilotning rahbari, yo'lboshchisi ma'nolarini anglatadi.[1]

Liderlik (inglizcha: leader - yetakchi, boshlovchi so'zidan) - umumiy bir ishni bajarishda boshqalarning yordami va haraktini birlashtiruvchi ijtimoiy ta'sir jarayoni. [2]

Lider qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak? Yetakchilikning ya'ni liderlikning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

> mas'uliyatli va qiyin qarorlarni qabul qilish qobiliyati, ular uchun tegishli javobgarlikni o'z zimmasiga olish istagi;

> shaxsiy manfaatlar uchun emas, balki odamlarning umumiy manfaatlari va manfaatlari haqida qayg'urish;
> odamlarni butunlay ixtiyoriy asosda boshqarish qobiliyati;
> xarizma va tabiiy ta'sir kuchiga ega bo'lish;
> guruh tomonidan etakchiga bo'lgan ishonch va kuchli hokimiyat mavjudligi;
> xatolarni tan olish qobiliyati va mag'lubiyat uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish, bundan shaxsiy xatolarni qidirish.

Bir qarashda liderlik rahbarlik kabi ko'rinishi mumkin. Qisman to'g'ri, ammo ularning o'zaro farqli jihatlari mavjud.

Birinchidan, lider har doim parda ortida va o'z-o'zidan aniqlanadi, rahbar esa rasmiy ravishda tayinlanadi.

Ikkinchidan, rahbar u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ma'lum bir guruh vakili bo'lib, yetakchi, aksariyat hollarda, guruhdan ajraladi.

Uchinchidan, liderning asosiy sohasi - bu shaxslararo munosabatlar, rahbar esa rasmiy munosabatlardir. Ammo rahbarning ixtiyorida juda ko'p tashqi ma'lumotlar mavjud, qonuniy sanksiyalarni qo'llash mumkin, ya'ni u rasmiy shaxs. Ilmiy tilda guruhga kuchli va ta'sirchan ta'sir ko'rsatadigan rasmiy rahbar, ya'ni uning ta'siri pozitsiyaga bog'liq bo'lsa, "bo'ysunuvchilar" ga ta'sir qiladi.

Yoshlar faoliyati deganda, uning ichki va tashqi tendensiyalarining ijtimoiy hayotda namoyon bo‘lishi xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik inson shaxs sifatidagi darajasining asosiy ifodasi bo‘lib uning yuksak qadriyatli ehtiyojlarini qondirishlari va sifat ko‘rsatkichdir. Demak, ijtimoiy faollik shaxsning muhim sifatidir. Yoshlar faolligi deb, uning hayotini boshqarish bilan, bog‘liq bo‘lgan va qadriyatlarining nomoyon bo‘lish xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik inson shaxsi sifati darajasining asosiy ifodasi bo‘lib, uning yuksak qadriyadagi ehtiyojlarini qondirish usuli va sifat ko‘rsatkichidir. Shu jihatdan shaxs faoliyati sotsiologiyada keng va kichik (tor) ijtimoiy darajalarda o‘rganiladi. Shaxsning bunday darajalarda o‘rganilishi metodologik ahamiyat kasb etadi[3].

Har qanday ijtimoiy hodisaga nimadir sabab bo‘ladi, nimadir turtki beradi. Ijtimoiy faollik ham o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladigan jarayon emas[4].

Yoshlarning faolligi dolzarb masalalardan biri ekanligi ma’lum. Faollik aslida muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlamning jamiyat va davlat ishlariga munosabati, unga yondashuvi, mas’uliyat hissi, fuqarolik tuyg‘usi sifatida namoyon bo‘ladi. Faollik – ayni paytda o‘zlikni anglash hamdir. Demak, bugungi kunda asosiy masala yoshlarimizning faolligini oshirishdan iboratdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Shaxsning ijtimoiy faolligini o’rganish sohasida ko’plab tadqiqotlar olib borildi: L.I. Amanboeva ―Yangi ijtimoiy sharoitlarda yoshlarning fuqarolik tarbiyasi[5], A.A. Savastin va L.B. Osipova "Yoshlarning ijtimoiy faolligi jamiyatning jadal rivojlanishi sharti sifatida"[6], S.Yu. Korolkov "Yoshlarning jamoat faoliyati"[7]. Bunday asarlarda ijtimoiy faoliyatning nazariy asoslari va amaliy yo’nalishlari bir qadar aniq ko’rsatilgan. V. S. Merlin[8] fikricha, insonning o’z-o’zini anglashining asosi:

- o’z-o’zini anglash;
- shaxs tomonidan "men"ni ijobiy qabul qilish;
- qanday aqliy va axloqiy fazilatlarga ega ekanligini tushunish;
- ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni o’z-o’zini baholash, ularning darajasini tushunish.

Tadqiqot metodologiyasi. Antoniu Guterrish, BMT Bosh kotibi, 2018-yil 12-avgust O’zgarishlar, iqtisodiy va siyosiy burilishlar davrida yoshlar har doim mamlakat hayotida birinchi o’rinda turadi. Inqiroz davrida yosh avlod mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o’zgarishlarning faol ishtirokchisi bo’ldi. 1990-yillarda yoshlarning qattiq mafkuraviy nazoratdan ozod etilishi yoshlarning o‗zbek jamiyatining siyosiy sohasiga integratsiyalashuvi jarayonida o’zgarishlarga olib keldi, buning natijasida faol siyosiy partiyalar tarkibida turli yoshlar tashkilotlari tashkil etildi[9]. Shu bilan birga, bugungi yoshlar sho’ro davridagi haddan tashqari mafkuraviy komsomol faollaridan va ilk postsovet davridagi siyosiylashgan o’tmishdoshlaridan farq qiladi. Yoshlarning siyosiy hayotda ishtirok etish shakllari Yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy boshqaruv jarayonida ishtirok etishi ushbu ijtimoiy guruhning siyosiy faolligini namoyon etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Yoshlarning siyosiy faollik darajasi ko’p jihatdan mamlakatdagi umumiy siyosiy jarayonning xarakterini belgilaydi va butun jamiyat barqarorligiga ta’sir qiladi. Yoshlar jamiyat hayotining barcha jabhalarida: siyosiy, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy sohalarda o’zini namoyon qiladigan eng faol va harakatchan ijtimoiy-demografik guruh bo’lgan va shunday bo’lib qoladi.

Bu ijtimoiy va yosh guruhi boshqalarga qaraganda o’zlarining ijtimoiy mavqeini yaxshilashga va yangi ijtimoiy rollarni o’zlashtirishga qaratilgan, chunki u hayotning o’zini o’zi belgilash bosqichida. Avvalo, ―yoshlik tushunchasi qanday? O’zbekiston Respublikasining ―Yoshlarga oid davlat siyosati to’g‘risida‖gi Qonunining 3-moddasi uchinchi qismiga ko’ra, yoshlar (yosh fuqarolar) deb o’n to’rt yoshdan o’ttiz yoshgacha bo’lgan shaxslar tushuniladi[10]. O’zbekiston qonunchiligida ushbu ijtimoiy guruhning faqat yosh chegaralari belgilangan. O’zbekiston muhim demografik bosqichda. Bu yerda 30 yoshgacha bo’lgan yoshlar aholining 60 foizini tashkil qiladi. Biroq, ―yoshlar tushunchasining ijtimoiy mohiyati nimada? ―Yoshlar‖ tushunchasiga ta’rif berishning turli variantlari mavjud, jumladan, uni katta ijtimoiy-demografik guruh sifatida tushunish, sotsializatsiya bosqichidan o’tish, o’ziga xos psixologik xususiyatlar va submadaniyat bilan ajralib turadigan qadriyat yo’nalishlarini shakllantirish va ―ularga harakat qilish‖. turli xil ijtimoiy rollar[11]. Zamonaviy turmush sharoiti ko’plab omillarga, jumladan, yashash hududi va ular mansub bo’lgan ijtimoiy guruhga bog‘liq holda, yoshlarning qadriyatlari va axloqiy yo’nalishlariga ta’sir qiladi.

Tahlil va natijalar

Lider qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak? Yetakchilikning ya'ni liderlikning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

> mas'uliyatli va qiyin qarorlarni qabul qilish qobiliyati, ular uchun tegishli javobgarlikni o'z zimmasiga olish istagi;

> shaxsiy manfaatlar uchun emas, balki odamlarning umumiy manfaatlari va manfaatlari haqida qayg'urish;

> odamlarni butunlay ixtiyoriy asosda boshqarish qobiliyati;

> xarizma va tabiiy ta'sir kuchiga ega bo'lish;

> guruh tomonidan etakchiga bo'lgan ishonch va kuchli hokimiyat mavjudligi;

> xatolarni tan olish qobiliyati va mag'lubiyat uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish, bundan shaxsiy xatolarni qidirish.

Bir qarashda liderlik rahbarlik kabi ko'rinishi mumkin. Qisman to'g'ri, ammo ularning o'zaro farqli jihatlari mavjud.

Birinchidan, lider har doim parda ortida va o'z-o'zidan aniqlanadi, rahbar esa rasmiy ravishda tayinlanadi.

Ikkinchidan, rahbar u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ma'lum bir guruh vakili bo'lib, yetakchi, aksariyat hollarda, guruhdan ajraladi.

Uchinchidan, liderning asosiy sohasi - bu shaxslararo munosabatlar, rahbar esa rasmiy munosabatlardir. Ammo rahbarning ixtiyorida juda ko'p tashqi ma'lumotlar mavjud, qonuniy sanksiyalarni qo'llash mumkin, ya'ni u rasmiy shaxs. Ilmiy tilda guruhga kuchli va ta'sirchan ta'sir ko'rsatadigan rasmiy rahbar, ya'ni uning ta'siri pozitsiyaga bog'liq bo'lsa, "bo'ysunuvchilar" ga ta'sir qiladi.

Norasmiy rahbar - bu kompaniyada egallagan joyidan qat'i nazar, yetakchilikni ta'minlaydigan shaxs. Uning harakatining mohiyati ijtimoiy bo'lib, u "izdoshlariga" qaratilgan bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlar shaxsda yillar mobaynidagi tajriba va tug'ma iste'dod asosida shakllanib boradi.

Ta'lim jarayonida yoshlaming liderlik xususiyatlarini rivojlantirishda nimalarga e'tibor qaratish zarur. Bu borada quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi:

Xatarlarni (risklarni) o'z zimmasiga olish va muvaffaqiyatsizliklardan o 'rganish. Muvaffaqiyatsizliklardan qochib qutulish va har doim hayotda muvaffaqiyatli bo'lish mumkin emas. Shu sababli yosh avlod uchun har bir muvaffaqiyatsizlikdan saboq olish va hayotda davom etish juda muhimdir. Ular tavakkal qilishdan qo'rqmasliklari kerak va muammolarga duch kelgan holatda tegishli saboqlarni olishni o'rganishlari lozim. Xato qilmaydiganlar hayotda o'smaydilar. Rasmiy ta'lim tizimi shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, bu o'quvchilarni tavakkal qilishga undaydigan va ularni xato va kamchiliklari uchun jazolamaydigan bo'lishi lozim. Insonning aql-idroki o'sishi va hayotdagi yuksalishi orttirgan tajribalari orqali bo'ladi.

Haqiqiy bizneslar bilan aloqa o'rnatish: bizga ma'lumki, maktab va universitet o'qituvchilarining aksariyati korporativ va biznes tajribasiga ega emas. Shuning uchun ular o'qitishlari mumkin bo'lgan narsalar bu rasmiy ta'lim va kitoblardan olgan nazariy bilimlaridir. Biroq korporativ ish maktablarda o'rgatiladigan bilimardan tubdan farq qiladi. Shuning uchun maktablar va universitetlarni haqiqiy biznes dunyosi bilan bog'lash tavsiya etiladi. Bu yerda haqiqiy ish tajribasiga ega bo'lgan odamlar talabalarga real

hayotiy misollar bilan ba'zi ma'ruzalar o'qishlari mumkin. Agar rasmiy ta'lim yaxshi tajribaga ega bo'lgan ishbilarmon tadbirkorlar bilan talabalar uchun murabbiylik va mentorlik dasturlari o'rnatilsa, bu yoshlarda liderlik, innovatorlik va tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirishga tubdan yordam beradi.

Ongni to'g'ri dasturlash. Muvaffaqiyat uchun yoshlarning ongini rivojlantirish va dasturlash juda muhimdir. Hayotiy misollar shuni ko'rsatadiki, xavfdan qochish uchun dasturlashtirilgan odamlar "men buni qila olmayman" yoki "men bunga qodir emasman", deyishadi. Ammo "Men buni qanday qila olaman?" yoki "Nima qilsam buning uddasidan chiqaman?" degan savollar bilan yoshlar ongini to'gri yolga solishlari mumkin. Chunki bayonot ongni yopadi, savol esa ongni o'ylashga va harakat qilishga ochib beradi.

Guruhlarda ishlashni o'rganish. Bizning hozirgi ta'lim tizimimiz yoshlarga faqatgina o'ziga tayanib ishlashni o'rgatadi. Hatto baholash testlari ham o'quvchi va talabalarning o'z bilimlarini baholashga qaratilgan va bunday tizim o'ziga qaramlikni keltirib chiqaradi. Ammo real hayotda barchamiz bir-birimizga tobemiz va bir kishi o'z kuchi bilan ko'p narsaga erisha olmaydi. Shuning uchun ta'lim tizimi yoshlarda boshqalar bilan ishlash va muloqot qobiliyatini rivojlantirish uchun individual emas, balki guruhda ishlash tizimlarini joriy qilishi lozim. Bu jamoaviy ruhni oshirish va hayotda muhim bo'lgan bir-biriga bog'liqlik hissini rivojlantirishga yordam beradi.

Moliyaviy savodxonlik. Bugungi dunyoda moliyaviy savodxonlik shaxsiy, oilaviy va biznes byudjeti va moliyasini boshqarishdagi eng muhim mahoratlardan biridir. Ta'lim tizimida yoshlar o'zlarining shaxsiy mablag'larini tejash, sarflash va investitsiya qilish nuqtai nazaridan samarali boshqarish usullarini o'rganishlari kerak. Qarz va soliq savodxonligi yoshlarning kelajakda o„z bizneslarini ochishda va boshqarishda muhim rol o'ynaydi. [12]

Xulosa

Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omillardan biridir. Bu jarayonda liderlik ko‘nikmalarining tutgan o‘rni beqiyosdir. Liderlik yoshlarni mas’uliyatli, faol, tashabbuskor va mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida shakllantiradi. Bu ko‘nikmalar yosh avlodni nafaqat o‘z hayotida, balki jamiyatda ham faol ishtirok etishga undaydi. Shu boisdan, yoshlar orasida liderlik fazilatlarini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning muhim garovlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ozbek tilining izohli lug'ati. -T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 2013. 497-b.
2. Chemers M. (1997) An integrative theory of leadership. Lawrence Erlbaum Associates, Publishers. ISBN 978-0-8058-2679-1
3. Латипова Н.М. Молодеж в социалной структуре узбекистанского общества // Общественное мнение. Права человека. - Ташкент, 2004. - №3.
4. Tursunova N. Yoshlarning ijtimoiy faolligi: tushuncha va fazilatlari. ―Ijtimoiy fikr‖. 2004. 3-son. 149-150 betlar
5. Qayumov U. Rol semi v formirovani nravstvennix i duxovnix osnov obshestva. ―Ijtimoiy fikr‖. 2004. 4-son. 93-94 betlar
6. Аманбаева Л . И . Гражданское воспитание учащейся молодеж в новые социалные условиях Дис _ д — ра пед . наук / Якутск , 2002. — 351 с . Европейский журнал исследований и размышлений в области педагогических наук, том. 7 No. 12, 2019 ISSN 2056-5852 Progressive Academic Publishing, UK Страница 1064
7. www.idpublications.org
8. Савастина А . А ., Осипова Л . Б . Социалная активност молодеж как состояние динамичного развитие общества
9. // Современные проблемы науки и образования . – 2015. – № 2-2.; URL: https://www.scienceeducation.ru/ru/article/view?id=22320 6. Королкова С . Ю . Социалная активност молодеж // Молодой ученый . – 2015. – №12.2. – С . 39-40. 7. Мерлин В.С. Психология индивидуалности Под ред. Е.А.Климова. – Воронеж: НПО Модек, 1996. – 448 с.
10. Lipsky Larisa Alekseevna. Youth and politics: the problem of increasing political activity. Society and power, No. 1 (33),
11. 2012, pp. 58-62.

12. K.Turaev Yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish. Yangilanayotgan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami. -T. 2020. 14-b.

SAN’AT VA MADANIYATDAGI ZAMONAVIY ESTETIK QADRIYATLARNING MILLIY TARBIYA KLASTERLARIGA TA’SIRI

Botirova Sevara Mamurovna.
NamDPI Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi mudiri.
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent.
Gmail:sevarabotirova111@gmail.com Tel: +998 070 21 85
Shobekova Nigora Mamurovna
NamDPI mustaqil tadqiqotchisi
Qo`qon shahridagi 1-maktab o‘qituvchisi
Gmail:nigorashobekova234@gmail.com Tel: +99890 308 77 26

Annotatsiya: Nafosatshunoslik axloqning muhim belgilaridan bo‘lib, go‘zallikka oshufta qalb doimo ezgulikka intilib yashaydi. San’at va madaniyatdagi este’tik ta’limning berilishi tarbiya klasterlarining tashkillashtirilishida qanchalik ahamiyatli ekanligi va bunda zamonaviy yondashuvlar qanday ta’sir ko‘rsatishi ushbu maqolada tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: estetik ta’lim, tarbiya klasterlari, globallashuv, san’at, nafosat falsafasi, madaniyat, estetik axloq.

Annotation: Aesthetics is one of the important signs of morality, and the soul always strives for goodness when it is attracted to beauty. This article analyzes how important the provision of aesthetic education in art and culture is in the organization of educational clusters and how modern approaches affect it.

Key words: aesthetic education, educational clusters, globalization, art, philosophy of sophistication, culture, aesthetic ethics.

Аннотация: Эстетика – один из важных признаков нравственности, и душа всегда стремится к добру, когда ее влечет к красоте. В данной статье анализируется значение организационного производства образовательных кластеров эстетического воспитания в искусстве и культуре и то, как на него влияют современные производства.

Ключевые слова: эстетическое воспитание, образовательные кластеры, глобализация, искусство, философия утонченности, культура, эстетическая этика.

Yurtimizda tarbiya klasterlarinining shakllanishida estetik ta’limni rivojlantirish vazifalari murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, globallashuv jarayoni hayotimizning har bir jabhasida mislsiz o‘zgarishlar yasayotgan bir davrda zamonaviy estetik qarashlarga ham e’tibor berish va o‘rinli foydalanishni taqozo etmoqda. Estetika borasidagi zamonaviy yondashuvlar mavjud ta’lim va tarbiya tizimida ham yangicha mazmun va yondashuvlarni keltirib chiqaradi. Yoshlarning har jihatdan kamol topishiga harakat qilar ekan, hech qaysi jamiyat estetik tarbiya masalalariga bepisandlik bilan munosabatda bo‘la olmaydi. Jumladan,Yangi O‘zbekistonda ilm-ma’rifatni rivojlantirish ayniqsa, estetik ta’limni isloh qilish ustuvor vazifalardan biri etib belgilandi. [1]

Zamonaviy davr estetik qadriyatlariga ta’sir ko‘rsata olgan ilmiy-tadqiqotlar XIX-XXI asrda ijod qilgan faylasuflardan Li Zehou Kant, Hegel, Marks va Heidegger, Genri Xoum, Lord Kames, Uilyam Xogart va Edmund Burk kabi mutafakkirlar faoliyatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, nafosat falsafasini tadqiq etishda yurtimizda ham T.Mahmudov, A.Qurbonmamadov, A.Sher, B.Husanovlar tomonidan bir qator dolzarb mulohazalar ilgari surilgan.

Ushbu maqolani tadqiq etishda turli mualliflarning mavzuga doir yozgan manbalari o‘rganilib, qiyosiy tahlil qilingan xolda muhim xulosalar chiqarilgan. Bunda nafaqat mahalliy manbalardan, balki, chet-el mamlakatlariga mansub mualliflarning manbalaridan ham unumli foydalanilgan. Tadqiqot jarayonida xolislik, tizimli yondashuv, tarixiylik va mantiqiylik, gnoseologik va aksiologik tahlil kabi

tamoyillarga tayanildi. Ilmiy izlanishlar jarayonida analiz va sintez, kuzatish, qiyosiy tahlil, vorisiylik, umumlashtirish kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

San’at va madaniyatda insonning fikr-u zikrini egallab oluvchi, dunyoqarashida tub o‘zgarishlar qila oluvchi kuch mujassam ekanligi va insonga estetik ta’limni yetkazishda ularning qanchalik ahamiyatli ekanligi bugungi axborot kurashlari davrida yanada ayon bo‘lmoqda. Har bir jamiyatda shartli tarzda madaniyat vakillari yuqori va past madaniyatga ajraladilar. Yuqori madaniyatga murojaat etuvchi qatlam odatda intellektual salohiyati yuqori va didi ijobiy bo‘lgan madaniyatli insonlardan tarkib topsa, past madaniyat vakillari olomoncha madaniyatni va fikrlash qobiliyati to‘la shakllanmagan yoshlarni birlashtiradi.

Bugungi G‘arb davlatlaridagi mavjud san’at va madaniyat muhiti boshqa mintaqalarga ham ta’sir ko‘rsatib, zamonaviy ilg‘or qarash sifatida keng yoyilmoqda. Zamonaviy davr qarashlari o‘zgacha xususiyatlari bilan insonlarning nafosat falsafasi borasidagi qarashlariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday qadriyatlarning ayrimlari bilan tanishib chiqish ijobiy saboqlarni o‘zlashtirish imkonini beradi. Biroq, bozor iqtisodi sharoitida go‘zallik sifatida insonlar nimani hohlasa, shuni taqdim etish urfga kirayotgani uchun ham barcha san’at va madaniyat turlarida ma’lum bir ma’noda tanazzul ham hukm surmoqda. Milliy tarbiya klasterlariga va umumjahonda estetik standartlarga zamonaviy davr estetik qarashlari bir qator ijobiy va salbiy ahamiyatga molik ta’sirlarni o‘tkazmoqda.

Avvalambor, yangi davr kishilik jamiyati yangilikka o‘ch va turli g‘oyalar ta’siriga osonlikcha uchrashi natijasida yangi davr estetik nazariyalari har qachongidan ham shiddat bilan jamiyat hayotidan o‘rin olmoqda. Axborot asri taraqqiyoti insonlar Mafkuralardan tortib, ijtimoiy hayotning eng oddiy qadriyatlarigacha muntazam o‘zgarib bormoqda. Inson nafosati va insonning go‘zallikni baholay olishga qaratilgan didi ham muttasil yangilanishlarga uchramoqda.

Ba’zi an’analar yillar davomida ta’sir o‘tkazib kelganiga qaramay, yangi davrda ahamiyatini yo‘qotdi va uning o‘rnini yangilari egallay boshladi. Avvallari qabul qilinmaganlari esa, bugungi davr realligida ijobiy baholanmoqda. Eng yangi davr estetik ta’limida qanday jarayonlar kechmoqda va buning milliy tarbiya klasterlaridagi ta’siri nimalarda bilinishi va uning oqibatlarini baholashga zarurat sezilmoqda.

Ikkinchidan, demokratik taraqqiyot izidan ketayotgan dunyo hamjamiyatida erkinlikka belgilangan me’yorlar fikriy qaramlikning vositasi sifatida baholangani uchun ham yangi davr estetik qadriyatlarining tanqidiga uchradi. Insonlar so‘z erkinligi, fikr erkinligiga haddan ziyod berilishi natijasida fikrlar va qarashlar turfahilligi barcha narsalarda sezilmoqda.

Uchinchidan, qo‘shiqchi, kinoqahramon yoki san’atning boshqa sohasi vakillari bugungi kunda kumir sifatida insonlarga ibrat namunasi bo‘lib ko‘rinmoqda. Ularning kiyinishi, yashash tarzi, fikrlari tezlik bilan tarqaladi va insonlarga ta’sir qiladi. Chunki ommaviy madaniyatning bosh maqsadini ko‘proq daromad olish tashkil etadi. Bu madaniyatning hammaga tushunarli hamda ko‘ngilocharligi uning asosiy sifat mezonini tashkil etadi[2]. Shuning uchun ham madaniyat va san’at insonlar didiga ta’sir qiluvchi vosita vazifasini o‘tamoqda.

To‘rtinchidan, kuchli xalqlar va davlatlar o‘z standartlarini dunyoga yoyishga intilmoqdalar va ma’lum bir ma’noda bunga erishmoqdalar ham. Zero, milliy chegaralarining yuvilib ketishi jarayoni deyarli barcha xlaqlarni tashvishga solmoqda. Jahon tillarining ta’siri oshib borayotganligi, siyosiy-iqtisodiy sohadagi prinsiplardagi o‘xshashliklar ham ta’sir qilsada, eng birlamchi omil madaniyat va san’at sohasidagi yaqinlashuv bo‘lmoqda.

The concept of age in language learning is not just a biological factor but an intersection of cognitive development, emotional maturity, and social context. While young children are often praised for their ability to acquire native-like accents and fluency, adolescents and adults bring strategic learning skills, motivation, and contextual knowledge into the process. Older adults, despite facing cognitive slowing, may demonstrate high motivation and persistence, especially when learning is tied to personal relevance, such as communicating with family or maintaining cognitive health. Each age group therefore requires tailored teaching methods and assessment tools that reflect not only their current proficiency level but also their potential for future development.

Language assessment refers to the systematic evaluation of an individual’s competence in various aspects of a foreign language, including listening, speaking, reading, and writing. It is an essential component of curriculum design, language policy, and learner evaluation. Effective assessment is multifaceted—it must be fair, reliable, valid, and, crucially, appropriate to the learner’s developmental stage. The same assessment tools and criteria cannot be applied equally to a six-year-old and a sixty-year-old, because their cognitive processing, communicative needs, and exposure to language differ drastically.

Despite this, many current assessment frameworks still rely heavily on standardized tests designed primarily for adult learners. These may not accurately reflect the skills or progress of younger learners or older adults. For instance, timed grammar tests may penalize children who process language visually or elderly learners who require more time due to slower recall, despite both having strong communicative competence in real-life scenarios. This discrepancy can lead to misleading conclusions about a learner’s abilities, potentially affecting their motivation, placement, or access to educational resources. Furthermore, the rise of digital technologies has introduced both opportunities and challenges in language assessment. Younger learners may be more accustomed to interactive and gamified assessments, while older generations might struggle with test platforms due to unfamiliarity with digital tools.

These technological differences further highlight the importance of age-sensitive assessment design. Given the complexity and diversity of learners across the lifespan, this article explores how foreign language knowledge is best assessed in four distinct age groups: children (4–12), adolescents (13–18), adults (19–50), and older adults (50+). It delves into the cognitive, emotional, and social characteristics of each group, identifies effective and appropriate assessment methods, and examines common challenges encountered by educators and test designers. Ultimately, it argues for a more flexible, inclusive, and learner-centered approach to foreign language assessment—one that accounts for developmental variability and empowers learners at every stage of life.

Language acquisition is a lifelong process influenced by cognitive, affective, and social factors. In a world where foreign language skills are increasingly necessary, the assessment of language proficiency has become critical. However, the effectiveness of language assessment tools depends heavily on the age group of the learner. Different age groups exhibit diverse learning capacities, motivations, and challenges in acquiring and demonstrating foreign language skills. Therefore, an age-sensitive approach to language assessment is essential to ensure fairness, accuracy, and meaningful feedback. This article explores how language learning and assessment intersect across life stages and proposes best practices for assessing language knowledge in each age group.

Theoretical Foundations of Language Assessment Language assessment refers to the methods and tools used to evaluate a learner’s proficiency in a foreign language. It typically involves testing competencies in listening, speaking, reading, and writing. Theoretical models, such as Krashen’s Input Hypothesis, Vygotsky’s Zone of Proximal Development (ZPD), and the Communicative Language Teaching (CLT) approach, have shaped modern assessment practices. These theories underscore the need for meaningful interaction, scaffolding, and age-appropriate tasks. Assessment is often divided into:

- Formative Assessment: Continuous evaluation aimed at improving learning.

- Summative Assessment: Final evaluations to measure proficiency.
- Diagnostic Assessment: Used to identify learner needs at the start.

Age plays a pivotal role in foreign language acquisition and its assessment. As learners progress through different life stages, their needs, capacities, and motivations shift dramatically. Effective assessment must be flexible, inclusive, and responsive to these shifts. The future of language education depends on developing systems that are not only accurate but also empowering—ensuring that learners of all ages can demonstrate their true linguistic abilities.

References:

1. Ellis, R. (2008). The Study of Second Language Acquisition (2nd ed.). Oxford University Press.
2. Krashen, S. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press.
3. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2013). How Languages Are Learned (4th ed.). Oxford University Press.
4. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
5. Singleton, D., & Ryan, L. (2004). Language Acquisition: The Age Factor (2nd ed.). Multilingual Matters.
6. Council of Europe. (2001). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment (CEFR). Cambridge University Press.
7. Brown, H. D. (2004). Language Assessment: Principles and Classroom Practices. Pearson Longman.
8. Cambridge Assessment English (2021). Young Learners Exams Handbook. Retrieved from: https://www.cambridgeenglish.org

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN O‘QITISH VA UNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYAGA TA’SIRI

Yuldasheva Diyoraxon Erkinovna
tadqiqotchi, Farg‘ona davlat universiteti

Raqamli texnologiyalar bugungi kunda ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, ayniqsa shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirishda ularning ahamiyati beqiyosdir. Bu yondashuvda o‘quvchi markazga chiqarilib, uning individualligi, qiziqishlari, ehtiyojlari va salohiyati hisobga olinadi. Raqamli texnologiyalar aynan shu individual yondashuvni ta’minlashga xizmat qiladigan vositalar majmuasidir. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilar o‘z o‘quv jarayonini mustaqil rejalashtirish, o‘z tezligida o‘rganish, qiziqarli interaktiv resurslar orqali bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Kommunikativ kompetensiya esa zamonaviy jamiyatda shaxsning eng muhim funksional salohiyatlaridan biri hisoblanadi. U til vositalari orqali samarali muloqotga kirishish, o‘z fikrini ifoda etish, tinglay olish, fikrga e’tibor berish, jamoada ishlash, ijtimoiy vaziyatlarga mos ravishda aloqa qilish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Shaxsga yo‘naltirilgan raqamli o‘qitish bu kompetensiyani rivojlantirishda kuchli omil bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, onlayn muhitda o‘quvchilar o‘zaro bloglar, forumlar, chatlar orqali fikr almashadilar, bu esa ularning yozma va og‘zaki muloqot madaniyatini shakllantiradi.

Zamonaviy ta’limda raqamli platformalar — masalan, Google Classroom, Moodle, Edmodo, Kahoot, Padlet, Zoom kabi vositalar yordamida o‘quvchilar nafaqat bilim oladilar, balki o‘zaro fikr almashadilar, jamoaviy loyiha va prezentatsiyalar ustida ishlaydilar. Bu esa ularni interaktiv muloqotga undaydi, o‘z fikrini ifoda etish, bahs-munozarada qatnashish, dalil keltirish va o‘z fikrini asoslash kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Raqamli muhitda har bir o‘quvchi uchun o‘rgatish uslubini individuallashtirish, differensiallashtirish mumkin, bu esa ayni shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosi hisoblanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvda o‘quvchining faol ishtiroki, mustaqil izlanishlari, o‘z fikrini erkin bildirishi va shu orqali bilim olish jarayoniga ongli tarzda kirishishi rag‘batlantiriladi. Bunda raqamli vositalar, ayniqsa, sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim platformalari yordamida o‘quvchilarning bilim darajasiga mos topshiriqlar beriladi. Natijada o‘quvchi o‘zini qadrli his qiladi, o‘z qobiliyatlariga nisbatan

ishonchi ortadi, bu esa o‘z navbatida ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni shakllanishiga turtki beradi.

Shuningdek, videodarslar, podkastlar, interaktiv testlar, raqamli laboratoriyalar, simulyatsiyalar kabi vositalar orqali bilim olish jarayoni nafaqat samarali, balki qiziqarli bo‘lib qoladi. Raqamli ta’lim jarayonida o‘quvchilar nafaqat bilim oladilar, balki raqamli savodxonlik, mediamadaniyat, axborot texnologiyalari vositalaridan oqilona foydalanish kabi ko‘nikmalarni ham egallaydilar. Bular esa zamonaviy kommunikativ kompetensiyaning ajralmas qismlaridir.

Ushbu metodikaning yana bir kuchli tomoni — bu raqamli ta’lim vositalari orqali beriladigan real vaqtli fikr-mulohazalar (feedback), ya’ni o‘quvchining faoliyatini baholash va yo‘naltirish imkoniyatlaridir. Bu esa o‘quvchining o‘zini baholash, o‘z ustida ishlash, o‘zini rivojlantirish kabi refleksiv kompetensiyalarini ham oshiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, raqamli texnologiyalar nafaqat kommunikativ, balki shaxsiy kompetensiyalarning ham rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ko‘plab xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’limdan foydalangan holda olib borilgan shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish modeli kommunikativ kompetensiyalarni an’anaviy yondashuvlarga nisbatan tezroq va samaraliroq shakllantiradi. Masalan, Finlandiya ta’lim tizimida har bir o‘quvchining mustaqil fikrlashi, erkin muloqot qilishi va raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratiladi. Bu esa shaxsning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy faolligi va kommunikatsion muvaffaqiyatini oshiradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham so‘nggi yillarda raqamli ta’limga o‘tish bo‘yicha sezilarli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, “DigitALL”, “ZiyoNet”, “Online maktab” kabi platformalar orqali ta’lim kontenti raqamlashtirilib, turli yoshdagi o‘quvchilar uchun ochiq manbalar shaklida taqdim etilmoqda. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning raqamli pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish kurslari ham faol amalga oshirilmoqda.

Yana bir muhim jihat — bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi kommunikatsiya. Raqamli texnologiyalar yordamida bu muloqot yanada ochiq, tezkor va samarali bo‘ladi. Bu esa shaxsiylashtirilgan yondashuvni chuqurlashtiradi, har bir o‘quvchiga individual yondashish, uni rag‘batlantirish va ehtiyojlariga javob berish imkonini yaratadi. Shu tarzda raqamli vositalar orqali shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish modeli kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda ko‘p qirrali, kompleks yondashuv bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, bugungi yosh avlod raqamli muhitda tug‘ilib o‘sayotgani bois ularning bilish faoliyati, tafakkur tizimi, axborotni qabul qilish va uni qayta ishlash uslubi ham an’anaviy avlodlardan farq qiladi. Bu esa o‘qituvchilardan yangicha metodik yondashuvni talab qiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishda raqamli texnologiyalar individual rivojlanishni ta’minlabgina qolmay, o‘quvchilarning o‘zaro ijtimoiy muloqotiga, axborotni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, innovatsion g‘oya bildirish kabi yuqori darajadagi kommunikativ salohiyatlarga ega bo‘lishiga ham yordam beradi.

Yakuniy xulosa tariqasida aytish mumkinki, raqamli texnologiyalar orqali shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish — bu nafaqat metodik yangilik, balki kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishda eng muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu yondashuv pedagogika sohasida chuqur transformatsiyalarni yuzaga keltirib, zamonaviy o‘qituvchi va o‘quvchining faol muloqotini ta’minlaydigan, o‘quv jarayonini interaktiv va shaxsga moslashtirilgan tarzda tashkil etadigan kuchli konsepsiyadir. Shu bois, pedagogik innovatsiyalar jarayonida raqamli texnologiyalarni shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv bilan uyg‘unlashtirish zamonaviy ta’limni samarali tashkil etishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕДАГОГА

Гафурова Махфуза Аббасовна
Кафедра методологии начального образования
Доктор философии педагогических наук (PhD)
Ферганский государственный университет
mahfuza.gafurova73@gmail.com

Аннотация: *в данной статье рассматривается вопрос о развитии профессиональной компетентности педагога, возможности самообразовательной деятельности, а также умений рациональной организации учебного процесса для формирования культуры умственного труда. Разъясняется влияние процесса самообразования на формирование профессионального потенциала и профессиональной позиции педагога в обществе. Рассмотрено понятие "профессиональная компетентность", а также дана характеристика и значение педагогических средств самообразования в развитии профессиональной компетентности педагога.*

Ключевые слова: *педагог, педагогическая компетентность, развитие, профессиональный потенциал*

Abstract: *this article examines the issue of developing the professional competence of a teacher, the possibility of mastering and applying the skills of self educational activities, as well as the skills of rational organization of the educational process to create a culture of mental work. The influence of the process of selfeducation on the formation of professional potential and the professional position of a teacher in society is explained. The concept of “professional competence” is considered, and the characteristics and importance of pedagogical means of selfeducation in the development of a teacher’s professional competence are given.*

Key words: *teacher, self-education, pedagogical competence, development, professional potential.*

В настоящее время одним из показателей профессиональной компетентности педагога является его способность к самообразованию, которое проявляется в неудовлетворенности, осознании несовершенства настоящего положения образовательного процесса и стремлении к развитию профессиональных качеств, самосовершенствованию. Особенно актуальной проблема самообразования педагога стала в условиях информационного общества, где доступ к информации, умение работать с ней являются ключевыми. От компетентности педагога зависит формирование мировоззрения будущего поколения, поэтому однозначно он должен владеть умениями сотрудничества с обучающимися, психолого-педагогическими, методическими знаниями, владеть ораторскими и актерскими навыками, педагогическим мастерством.

Многие педагоги обуславливают педагогическое мастерство уровнем профессиональной компетентности и не сводят, как это часто бывает к внешним компонентам (умениям и навыкам). Педагогическое мастерство – это интеграция личностных и деловых качеств и профессиональной компетентности. Поэтому В.П. Бедерханова мастерство определяет: «как владение профессиональными знаниями, умениями и навыками, позволяющими специалисту успешно исследовать рабочую ситуацию (объект и условия деятельности), формулировать профессиональные задачи и успешно их решать в соответствии с целями…» [1]. Понятие «компетентность» вообще и профессиональная компетентность педагога, в частности, детально исследуется в работах А.А. Вербицкого [2], отмечающего, что компетентность учителя - это постоянно совершенствующиеся и реализуемые на практике способности, деятельные возможности, мотивационная направленность и готовность к осуществлению творческой педагогической деятельности с глубоким осознанием ее социальной значимости и личной ответственности за результаты своих действий и поступков.

По мнению ученого, компетентность - это не просто реализованная в деятельности компетенция; это интегральная, проявленная в ситуации профессиональной деятельности характеристика личности, определяющая успех и ответственность за ее результаты. Профессиональную компетентность педагога К.Ангеловски определяет как педагогические умения и объединяет их в группы. Р. Шорт компетентную личность характеризует как «человека, который обладает знаниями «основ наук» и умения с ними связанные, а также навыки, необходимые для выполнения психомоторных функций, профессиональных ролей, когнитивной и аффективной деятельности, межличностного общения» [4].

Т.Г. Браже рассматривает компетентность специалиста в контексте не только профессиональных базовых знаний, но и мотивационно-ценностных ориентаций, стилем межличностных отношений и общей культурой личности [5]. Многие ученые подчеркивают, что компетентность – это некий сплав функций, прав и ответственности педагога.

Исследование профессиональной компетентности обусловлено требованиями к личности и деятельности педагогического работника, предъявляемые современным ФГОС и Профессиональным стандартом, которые требуют от педагога высокого уровня квалификации и компетентности, а также личностных качеств, способствующих профессиональному и жизненному самоосуществлению. Совершенствование качества обучения и воспитания напрямую зависит от уровня подготовки преподавателя. Педагогическое самообразование (профессиональное самообразование педагога) – это процесс самостоятельного освоения педагогом новых педагогических ценностей, способов и приёмов, технологий деятельности, умений и навыков их использования и творческой интерпретации в своей профессиональной деятельности. Самообразование — это самостоятельное приобретение знаний из различных источников с учетом интересов и склонностей каждого конкретного человека. Как процесс овладения знаниями, оно тесно связано с самовоспитанием и считается его составной частью.

Необходимость педагогического самообразования обусловлена теми изменениями, которые постоянно происходят в образовании: появляются новые методики обучения и воспитания, разрабатываются новые способы и средства педагогической деятельности, обновляются образовательные программы и учебники, вводятся новые нормативы, корректируется законодательство. Это отражает естественный процесс общественного развития, ведь образование является частью общества. Знания и умения, когда-то приобретённые педагогом, могут забываться и устаревать. Поэтому педагогу-профессионалу необходимо их обновлять и приобретать новые. Профессиональное самообразование, осуществляемое учителем, направлено на повышение его профессионализма и включает: - педагогическое просвещение, т.е. освоение учителем научных педагогических идей и ознакомление с опытом других учителей; - овладение новыми подходами, ценностными ориентациями и установками в профессиональной деятельности; -осмысление собственного опыта и прогнозирование дальнейшей работы по его созданию и обобщению. В процессе самообразования педагог может использовать различные источники информации: изучение литературы, просмотр тренингов, видеороликов, прохождение курсов повышения квалификации, посещение семинаров и конференций, посещение занятий коллег с последующим обменом опытом. Интенсивное развитие информационных технологий меняет условия самообразования [3]. Основными принципами самообразования педагога являются: непрерывность; целенаправленность; интегративность; единство общей и профессиональной культуры; взаимосвязь и преемственность; опережающий характер; перманентность перехода от низкой ступени к высшей; вариативность [6]. Наиболее эффективные пути профессионального самообразования педагога:

- разработка одной из научных или методических проблем в рамках комплексной темы образовательной организации; - участие в методических конференциях, в разработке программ, концепций; - использование в профессиональной деятельности новых педагогических технологий, в том числе информационных; - изучение опыта лучших учителей в педагогической литературе, периодических источниках, посещение занятий педагогов, в том числе в онлайн-формате; - постоянное обогащение своего педагогического опыта в форме портфолио – методической копилки разработок, планов, интересных идей и т.д. Наши наблюдения показывают, что чем больше актуальной информации, способов и инструментов в собственной работе осваивает и использует педагог, тем более успешными становятся результаты его деятельности. Показателями эффективности педагогического самообразования являются качество учебно-оспитательного процесса обучающихся и повышение профессионально-квалификационных характеристик педагога. Таким образом, самообразование педагога — это наиважнейший компонент развития его профессиональной компетентности. От того, насколько активна позиция педагога в профессиональной деятельности, широки и разнообразны его образовательные интересы,

творческие способности зависит и качество реализации его творческого потенциала, а значит и уровень развития профессиональной компетентности педагога.

Использованные источники:

1. Бедерханова В.П., Остапенко А.А. Педагогическая система: теория, история, развитие. Коллективная монография / – Москва: Народное образование, 2014. – 128 с.
2. Вербицкий А.А. Инварианты профессионализма: проблемы формирования / А.А. Вербицкий, М.Д. Ильязова. - М.: Логос, 2011. - 288 с.
3. Кляпышева Е.В. Индивидуальный образовательный маршрут как средство реализации индувидиальной образовательной траектории. Образование и наука в России и за рубежом: электрон. Версия журн. – 2018.
4. Печеркина, А.А. Развитие профессиональной компетентности педагога: теория и практика: монография / А.А. Печеркина, Э.Э. Сыманюк, Е.Л. Умникова: Уральский государственный педагогический университет. – Екатеринбург, 2011. – 233 с.
5. Санько, А.М. Профессиональная компетентность педагога: банк тестов: учебное пособие / А.М. Санько, Н.Б. Стрекалова. – Самара: Издательство Самарского университета, 2018.

MA’NAVIYATGA YETAKLOVCHI MASKAN

Baxriddinova Muqaddam
Namangan davlat universiteti axborot resurs markazi kutubxonachisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kutubxonachilik kasbi, uning insonlarga foydasi, bugungi kunda kutubxona tizimi va kitobxonlikka qaratilayotgan e’tibor haqida so’z yuritilgan. Insonnning hayotida kasbning ahamiyati haqida xulosalar chiqarilgan.

Kalit so’zlar: kitob, kutubxona, kitobxonlik, elektron kutubxona, elektron adabiyot.

Inson qanday kasbni tanlashi, kelajakda qanday inson bo’lishi ko’p jihatdan oliaviy muhitga, oiladagi tarbiyaga bog’liq, menimcha. Chunki inson ilk tarbiyani, hayotidagi ilk ma’lumotlarni oilasida oladi, oilada shaxs bo’lib shakklanadi. Men ham kutubxonachi kasbini tanlashimning asosiy sababi bu oilamizdagi tarbiya va muhit edi. Yoshligimdan men dadamni ko’pincha qo’llarida kitob bilan ko’rardim, dadam ko’p kitob o’qirdilar, onamning faoliyatlari esa bir umr kitoblar bilan bog’liq, chunki mening onamning kasbi ham kutubxonachi. Dadam va onamga havas qilgan holda men yoshlik paytimdayoq kutubxonachi kasbini tanladim va mana 12 yildan beri shu kasbda ishlab kelmoqdaman. Boshqacharoq qilib aytadigan bo’lsak, kitobxonlarga ziyo ulashishga o’z xissamni qo’shib kelmoqdaman. Shu o’rinda ta’kidlash lozimki, kutubxonachilik dunyodagi eng kerakli va ulug’ kasblardan biri, zero insoniyatning eng buyuk ixtirolaridan biri bo’lgan kitoblarni kitobxonlarga tanishtirish, yetkazish, eng so’nggi kitoblar bilan tanishtirish ishlari aynan kutubxonachilik kasbi bilan bevosita bog’liq, kutubxona esa kitobxonlarni kitob bilan tom ma’noda birlashtiruvchi fayzli maskan.

Orada ma’lum bir vaqtlarda kitob, kitobxonlik, kutubxonaga e’tibor biroz susayganday bo’ldi, kitobxonlar soni kamaydi, rivojlanib borayotgsn shiddatli zamonda insonlar kitobni biroz unutganday edilar, ammo ko’p o’tmay o’tkazilgan turli islohotlar natijasida kitobxonlik yana o’z o’rniga qaytdi, insonlar kitob o’qimasdan rivojlanib bo’lmasligini anglab yetmoqdalar. Buning asosiy sabablaridan biri yurtimizda kutubxonaga, kitobxonlikka berilayotgan e’tibor desak mubolag’a bo’lmaydi. Birgina “Yosh kitobxon” tanlovining o’zi minglab yoshlarni kitobxonlikka chorladi.

Bugungi kunda kutubxonachilik yuksak pog’onaga ko’tarildi. Soha ravnaqiga oid Qonunlar va huquqiy hujjatlarda zamonaviy talablarni hisobga olgan holda kutubxona tarmog’ini taskil qilishni takomillashtirish, o’sib kelayotgan yosh avlodning intellectual ehtiyojlarni qondirish, madaniy, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlab qolishga yo’naltirilgan prinsipial yangi axborot markazlarini barpo etish, ularni zamonaviy bilim va taxnologiyalarni egallaganmutaxassislar bilan ta’minlash masalasiga alohida e’tibor

qaratilyapti. Kutubxonachilik kasbi butunlay yangi, zamonaviy kasbga, uzluksiz ta’limning ajralmas bir qismiga aylandi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2909-sonli Qarorida “Oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash, oliy ta’lim muassasalari talabalari, o’qituvchilari va yosh tadqiqotchilarining jahon ta’lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning electron kataloglari va ma’lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish”, deb alohida vazifa yuklatilgan. Shu nuqtayi nazardan universitetimiz kutubxonasida ham elektron kutubxona shakllantirilgan bo’lib, bugungi kunda o’n olti mingga yaqin elekron adabiyot mavjud. Kitobxonlar bu adabiyotlardan qiyinchiliksiz foydalanib kelmoqdalar. Kutubxonamizdagi barcha xodimlar axborot texnologiyasidan foydalanish ko’nikmasiga ega bo’lib kitobxonlarga beminnat xizmat ko’rsatib kelmoqdalar.

Kutubxonachilik oddiy kasb emas, nazarimda, kutubxonani insoniyat xazinasi deb hisoblasak, kutubxoanchini xazinachi desak , tog’ri bo’ladi. Xazina bo’lganda ham bitmas tuganmas, sendan birov tortib ololmaydigan ma’naviy xazina.

Xulosa o’rnida aytishim mumkinki, kutubxonachilik dunyodagi eng ulug’ va insoniyat uchun zarur bo’lgan kasbllardan biri. Men kutubxonachi ekanimdan fahrlanaman.

ALISHER NAVOIYNING “NASOYIM UL-MUXABBAT” ASARIDA AXLOQIY BARKAMOLLIK MASALALARI

Namangan davlat pedagogika instituti
09.00.04-Ijtimoiy falsafa tayanch doktoranti
Otaxanov Adxamjon Rustam o‘g‘li
otaxanovadxamjon93@gmail.com
+99899-653-28-00

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodining tasavvufiy-biografik asarlaridan biri — “Nasoyim ul-muhabbat” asarida ilgari surilgan axloqiy barkamollik g‘oyalari o‘rganiladi. Asarda zikr etilgan avliyo va oriflar hayoti misolida insonning nafs ustidan g‘alaba qilishi, sabr, halollik, ruhiy poklik va ma’naviy yetuklik orqali komillikka erishish yo‘llari yoritiladi. Navoiy asar orqali axloqiy tarbiyaning muhim jihatlarini, shaxsiy kamolot va ijtimoiy taraqqiyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi. Maqolada asarning tarbiyaviy ahamiyati bilan birga, undagi axloqiy g‘oyalar zamonaviy inson kamoloti bilan uyg‘un holda tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, axloqiy barkamollik, tasavvuf, avliyo hayoti, ruhiy poklanish, sabr, halollik, komil inson, ma’naviy tarbiya

ПРОБЛЕМА НРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В ПРОИЗВЕДЕНИИ АЛИШЕРА НАВОИ “НАСОИМ УЛЬ-МУХАББАТ”

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется произведение Алишера Навои «Насоим уль-мухаббат» как ценный источник нравственного и духовного самосовершенствования. Через описание жизни святых, их борьбы с низменными желаниями и стремления к духовной чистоте автор раскрывает пути достижения нравственной зрелости. В центре внимания — такие ценности, как терпение, честность, смирение и самопожертвование. Навои подчеркивает значимость этих качеств как основы личностного развития и общественного прогресса. В статье освещается актуальность нравственного послания Навои в контексте современного воспитания.

Ключевые слова: Алишер Навои • Насоим уль-мухаббат • Нравственное совершенство • Суфизм • Жизнеописание святых • Духовная чистота • Терпение • Честность • Совершенный человек • Духовно-нравственное воспитание

MORAL PERFECTION IN ALISHER NAVOI’S NASOYIM AL-MUHABBAT

ANNOTATION

This article investigates Alisher Navoi’s Nasoyim al-muhabbat as a vital literary work emphasizing the pursuit of moral and spiritual perfection. Through the biographies of Sufi saints, the text outlines the path toward ethical maturity by overcoming desires, cultivating patience, honesty, spiritual purity, and self-discipline. The article highlights how Navoi presents these virtues not only as personal goals but also as foundations for collective progress. The relevance of Navoi’s ethical ideals is analyzed in the context of modern moral education and human development.

Keywords: Alisher Navoi • Nasoyim al-muhabbat • Moral perfection • Sufism • Life of saints • Spiritual purification • Patience • Honesty • Perfect human • Moral upbringing

KIRISH

Sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlari asrlar davomida inson komil bo‘lishiga xizmat qilgan ulug‘ g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan. Bu an’anaviy tafakkur tizimida axloq, odob, halollik, sabr-toqat, ruhiy tozalik kabi tushunchalar markaziy o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida bu g‘oyalar badiiy-estetik va tasavvufiy-falsafiy yondashuv bilan boyitilgan. Navoiy o‘z asarlarida inson tabiatining eng nozik, eng chuqur qatlamlariga nazar tashlaydi, uni axloqiy poklanish, ichki uyg‘onish va ilohiy haqiqatga yetishish sari yetaklaydi.

Shu jihatdan “Nasoyim ul-muhabbat” asari alohida e’tiborga loyiqdir. Bu asar faqatgina tasavvuf tarixining mashhur avliyo va oriflarini tanituvchi manba emas, balki insoniy komillikning falsafiy ifodasi, ma’naviy yuksalish sari yo‘l ko‘rsatuvchi bebaho risoladir. Asarda axloqiy barkamollik, komil inson g‘oyasi, ruhiy yuksalish mezonlari kabi masalalar chuqur talqin etiladi. Ushbu maqolada aynan shu masalalarga — Navoiy asaridagi axloqiy-falsafiy g‘oyalarga, inson kamoloti va komil inson idealining badiiy ifodasiga e’tibor qaratiladi.

Axloqiy barkamollikning jamiyatdagi o‘rni. Alisher Navoiy asarlarida axloqiy barkamollik g‘oyasi chuqur ijtimoiy mazmun kasb etadi. U buni faqat shaxsiy o‘sish yoki individual fazilat sifatida emas, balki butun jamiyat taraqqiyoti va barqarorligining asosi sifatida talqin qiladi. Navoiyga ko‘ra, inson o‘z qalbini tarbiya qilmasa, na o‘z hayoti to‘g‘ri yo‘lga tushadi, na jamiyat obod bo‘ladi. Demak, axloqning ildizi har bir inson qalbidadir, uning mevasini esa jamiyat butunligida ko‘ramiz.

“Nasoyim ul-muhabbat” asarida bayon etilgan avliyolar va oriflar nafaqat shaxsiy komillik sari intilganlar, balki o‘z vaqtida jamiyatning ma’naviy ustuniga aylanganlar. Ularning halolligi, tavozesi, fidoyiligi, mehribonligi — bularning barchasi Navoiy tomonidan ijtimoiy axloqiy me’yor sifatida ilgari suriladi. Ularning hayoti orqali jamiyatga qanday ta’sir ko‘rsatish mumkinligi, axloqiy yetuklik orqali ijtimoiy uyg‘onish qanday sodir bo‘lishi aniq ko‘rsatiladi.

Bugungi zamonda ham bu qarashlar o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, aksincha, yanada ahamiyatli bo‘lib bormoqda. Global miqyosda yuz berayotgan axloqiy va madaniy inqirozlar, zo‘ravonlik, befarqlik, xudbinlik kabi illatlarga qarshi kurashda Navoiy ilgari surgan axloqiy barkamollik tamoyillari kuchli vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Chunki bu g‘oyalarda insoniylik, mas’uliyat, sabr, halollik va bir-biriga mehr bilan qarash kabi qadriyatlar yotadi.

Agar har bir inson o‘z axloqini to‘g‘rilashga, qalbini poklashga intilsa, bu jarayon butun jamiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Odamlar orasida ishonch mustahkamlanadi, mehr-oqibat kuchayadi, ijtimoiy totuvlik shakllanadi. Aynan shu ma’noda, axloqiy barkamollik — bu faqat bir shaxsning tarbiyasi emas, balki jamiyat barqarorligining tayanchi, komil insonlar orqali quriladigan mustahkam poydevordir.

Shunday qilib, Alisher Navoiy ilgari surgan axloqiy barkamollik g‘oyalari bugungi zamonaviy ta’lim, tarbiya, ijtimoiy hayot va ma’naviy yangilanish jarayonlarida keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan muhim va bebaho konsepsiyalardir. Ular orqali biz jamiyatda chinakam ijobiy o‘zgarishlar sari qadam tashlashimiz mumkin.

Muhabbat va sadoqat. Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida muhabbat va sadoqat tushunchalarini tasavvufiy-falsafiy va axloqiy ma’noda chuqur talqin etadi. Bu asarda muhabbat — oddiy insoniy his emas, balki ilohiy haqiqatga yetaklovchi eng yuksak ruhiy holat sifatida talqin qilinadi. Navoiyga ko‘ra, chinakam muhabbat Allohga bo‘lgan cheksiz mehr, samimiyat va qalb pokligidan

tug‘iladi. Bunday muhabbat insonni nafs va dunyoviy hirsdan voz kechishga, ilohiy haqiqatga intilishga undaydi.

Asarda zikr etilgan ko‘plab avliyolar hayoti aynan Allohga bo‘lgan sadoqat va muhabbat bilan yo‘g‘rilgan. Ularning harakatlari, so‘zlari va hayotiy yo‘llari ilohiy muhabbat bilan yo‘naltirilgan bo‘lib, ular bu yo‘lda o‘z nafsini yenggan, dunyo zavq-shavqidan kechgan, hayotlarini xalq va Haq xizmatiga bag‘ishlagan. Misol uchun, Junayd Bag‘dodiy yoki Rabi’a al-’Adaviyya kabi siymolar Allohga bo‘lgan muhabbatda o‘z borlig‘ini eritgan, boshqa hech narsani bu tuyg‘udan ustun qo‘ymaganlar.

Navoiy sadoqatni esa muhabbatning ajralmas jihati sifatida ko‘rsatadi. Sadoqat — bu muhabbatdagi sobitlik, sodiqlik va doimiylikdir. Asardagi ko‘plab hikoyalarda oriflar shiddatli sinovlar, azob-uqubatlar, turli mashaqqatlarga qaramasdan, Allohga bo‘lgan sadoqatidan chekinmaganlar. Bu orqali Navoiy chinakam muhabbat faqat og‘izdagi so‘z emas, balki amaliy harakat, fidoyilik va sobitlik orqali namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi.

“Nasoyim ul-muhabbat”dagi muhabbat va sadoqat g‘oyalari insonning ichki olamiga, uning ruhiy kamolotiga, komil inson bo‘lish yo‘liga bevosita ta’sir qiladi. Navoiy uchun bu ikki tushuncha – muhabbat va sadoqat – nafaqat so‘fiylikning, balki haqiqiy insoniylikning ham asosi bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, asar bugungi o‘quvchi uchun ham yurakni tozalovchi, ruhni uyg‘otuvchi, muhabbatni samimiylik va sadoqat bilan uyg‘unlashtirishga undovchi ilhom manbaidir.

XULOSA

Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asari – bu insonni axloqiy komillik sari yetaklovchi, ruhiy va ma’naviy poklanishga da’vat etuvchi betakror asardir. Bu kitobda Navoiy tarixiy shaxslar haqida so‘z yuritish bilan kifoyalanmaydi, balki ularning hayotiy yo‘li, fazilatlari, ilohiy muhabbat va sadoqat orqali komillikka erishgan jihatlarini chuqur tahlil qiladi. Asarda tasvirlangan oriflar misolida u ma’naviy yuksalish, nafsni poklash, halollik, sabr, shukr, muhabbat va sadoqat kabi oliy fazilatlarni targ‘ib etadi.

Navoiy bu asar orqali o‘quvchiga komil inson bo‘lish yo‘lining murakkab, ammo yuksak ma’naviy mazmunga ega yo‘l ekanini ko‘rsatadi. Inson nafaqat o‘zini, balki jamiyatni ham axloqiy jihatdan uyg‘otishga qodir bo‘lgan kuch sifatida talqin etiladi. Bugungi kunda, axloqiy qadriyatlar tobora o‘zgarib borayotgan bir zamonda, “Nasoyim ul-muhabbat”da ilgari surilgan g‘oyalar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois bu asar yosh avlodni ma’naviy barkamollikka, poklikka, sabrli va fidoyilik bilan yashashga chorlaydigan, ularning axloqiy dunyoqarashini boyitadigan bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi. Navoiy ilgari surgan insonparvarlik, komillik va ilohiy muhabbat g‘oyalari har qanday davr va jamiyat uchun doimiy qadriyat bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 5-jild. Xamsat ul-mutahayyirin. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013.

2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 6-jild. Hayrat ul-abror. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013.

3. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 9-jild. Lison ut-tayr. Majolis un-nafois. Mahbub ul-qulub. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013.

4. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. Nasoyim ul-muhabbat. Muhokamat ullug‘atayn. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013.

5. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. 4 tomlik. 1-4-tomlar. – Toshkent, “FAN” nashriyoti, 1983-1985-yillar.

6. Бертельс Е.Б. Сўфизм ва тасаввуф адабиёти. Рус тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. Тошкент, “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” нашриёти, 205. 7. Ислом тасаввуфи манбалари. Тузувчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи филолсгия фанлари доктори, профессор Ҳамидулла Болтабоев. – Тошкент, “Ўқитувчи” нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2005.

8. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 2009.

9. Тасаввуф адабиёти лингвопоэтикаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2011.

10. https://n.ziyouz.com

UDK: 81'25

ANTROPONIMLAR, TOPONIMLAR VA TERMINLARNING TARJIMA STRATEGIYALARI

Sevara Baxodir qizi Yoqubjanova
ORCID:0009-0000-0013-5341
Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti
2-bosqich tayanch doktoranti
sevarabaxodirqizi1@gmail.com Tel.: +998(99)510-02-24

Annotatsiya. Ushbu maqolada antroponimlar (shaxs ismlari), toponimlar (joy nomlari) va maxsus terminlarning tarjima strategiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida Li Kuan Yuning “Singapur tarixi” asari tanlandi. Asarda uchraydigan ismlar, joy nomlari va terminlar transliteratsiya, transkripsiya, izohlash, adaptatsiya hamda ekvivalent tanlash strategiyalari asosida o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, antroponimlar ko‘pincha transliteratsiya va transkripsiya orqali, terminlar esa izohlash va ekvivalent tanlash orqali tarjima qilingan. Ushbu strategiyalar tarjimaning ekvivalentligi va adekvatligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: antroponim, toponim, atamalar tarjimasi, adaptatsiya, transliteratsiya, transkripsiya, izohlash.

Annotation. This article analyzes the translation strategies of anthroponyms (personal names), toponyms (place names), and specific terms. Lee Kuan Yew’s *The Singapore Story* was chosen as the object of study. The names, place names, and terms found in the book were examined through transliteration, transcription, explanation, adaptation, and equivalence strategies. The results demonstrate that anthroponyms are mostly translated through transliteration and transcription, while terms are rendered by means of explanation and equivalence. These strategies play a crucial role in ensuring the equivalence and adequacy of translation.

Key words: *anthroponyms, toponyms, terms, adaptation, transliteration, transcription, explanation.*

Kirish. Tarjima nazariyasida antroponimlar, toponimlar va terminlarning tarjimasi doimo dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan. Chunki ular nafaqat lingvistik, balki madaniy va tarixiy ma’lumotlarni ham o‘zida mujassam etadi. Li Kuan Yuning “Singapur tarixi” asari Singapur tarixini bayon qilish bilan birga, ko‘plab shaxs ismlari, joy nomlari va o‘ziga xos terminlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu birliklarning tarjimasi ularni qabul qiluvchi auditoriya uchun tushunarli va madaniy jihatdan mos bo‘lishi zarur. Shu sababli mazkur maqolada antroponim, toponim va terminlarning tarjima strategiyalari ilmiy tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. Antroponim va toponimlarning tarjimasi yuzasidan turli tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Vinay va Darbelnet (1958) tarjimada ekvivalentlik masalasini o‘rtaga qo‘yib, leksik birliklarni turli strategiyalar asosida tarjima qilish zarurligini ta’kidlashgan. Newmark (1988) esa antroponimlarni ko‘pincha transliteratsiya, ayrim hollarda izohlash orqali berish lozimligini qayd etadi. Baker (2018) terminlarning tarjimasi kontekstga bog‘liq ekanligini ta’kidlab, deskriptiv izoh va ekvivalent qo‘llashni tavsiya qiladi. Ushbu nazariy qarashlar “Singapur tarixi” asaridagi misollar orqali tahlil qilinadi.

Metodologiya. Tadqiqot sifatida Li Kuan Yuning “Singapur tarixi” asaridan tanlab olingan antroponimlar, toponimlar va terminlar tahlil qilindi. Analitik-deskriptiv yondashuv asosida quyidagi bosqichlar amalga oshirildi: avvalo, matndan ismlar, joy nomlari va terminlar ajratib olindi. So‘ngra ularning tarjima variantlari transliteratsiya, transkripsiya, izohlash, adaptatsiya va ekvivalent tanlash strategiyalari bo‘yicha tasniflandi. Natijalar lingvistik nazariya asosida tahlil qilindi va tarjima amaliyotida qo‘llanishi baholandi.

Natijalar. Tarjima jarayonida antroponimlar (shaxs ismlari), toponimlar (joy nomlari) va maxsus terminlar muhim o‘rin tutadi. Ularning tarjimasi transliteratsiya, transkripsiya, izohlash, adaptatsiya yoki ekvivalent qo‘llash orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu bobda Li Kuan Yuning “Singapur tarixi” asari misolida tarjima strategiyalari tahlil qilinadi. Tarjima nazariyalariga ko‘ra, antroponimlar, toponimlar va terminlarni tarjima qilishda quyidagi strategiyalar ishlatiladi:

1. Transliteratsiya – asl shaklini saqlash (misol: Lee Kuan Yew → Li Kuan Yu).
2. Transkripsiya – tovushiy jihatdan moslash (misol: Merlion → Merlayon).
3. Izohlash – qo‘shimcha tushuntirish kiritish (misol: HDB flats → Ijtimoiy uy-joy binolari).
4. Adaptatsiya – mahalliy madaniyatga moslashtirish (misol: GRC (Group Representation Constituency) → Millatlararo saylov okrugi).
5. Ekvivalent tanlash – muqobil so‘zdan foydalanish (misol: Rule of Law → Huquqiy davlat tamoyili).

Muhokama. Antroponimlar odatda transliteratsiya yoki transkripsiya orqali tarjima qilinadi. Xitoy, hind va malay ismlari talaffuzga qarab transkriptsiya qilinishi kerak. Rasmiy transliteratsiya mavjud bo‘lsa, uni saqlash maqsadga muvofiq. “Singapur tarixi”da muhim shaxslarning ismlari quyidagidek tarjima qilingan:

Asl ismi	Transliteratsiya	Transkripsiya	Kim?
Lee Kuan Yew	Li Kuan Yu	Li Kvan Yu	Asar muallifi
Goh Chok Tong	Goh Chok Tong	Gox Chok Tong	Singapur sobiq bosh vaziri
S.Rajaratnam	S.Rajaratnam	S.Rajaratnam	Etnik hind siyosatchisi
Yusof Ishak	Yusof Is’hak	Yusuf Is’hoq	Malayziyalik musulmon yetakchi

Toponimlar (joy nomlari) transliteratsiya yoki izoh bilan berilishi mumkin. Orchard Road yoki Marina Bay Sands kabi nomlar sayyohlik va tarixiy ob'ektlar bo‘lgani uchun transliteratsiya qilinadi. Bukit Timah kabi nomlar esa qisman izohlab berilishi mumkin.

Asl nomi	Transliteratsiya	Izoh bilan tarjima	Izoh
Singapore	Singapur	Singapur	Rasmiy nomi saqlanadi
Marina Bay Sands	Marina Bay Sands	Marina Bay Sands mehmonxonasi	Izoh bilan berilishi mumkin
Orchard Road	Orchard Road	Orchard savdo-korxonasi	Joyning xususiyatini tushuntirish kerak
Sentosa Island	Sentoza oroli	Sentoza dam olish oroli	Madaniy moslik uchun izoh qo’shish zarur
Bukit Timah	Bukit Timah	Bukit Timah tepaligi	“Bukit” so’zi malaycha “tepa” degani

Texnik iqtisodiy terminlar rasmiy ekvivalent orqali semantik tarjima qilinadi.

Asl termin	Transliteratsiya	Semantik tarjima	Izoh
GDP(Gross domestic Product)	YaIM	Yalpi ichki mahsulot	Rasmiy iqtisodiy atama
Public Housing	Davlat uy-joylari	Ijtimoiy uy-joy loyihalari	O’zbekiston sharoitiga moslashtirilgan
FDI(Foreign Direct Investment	XFI	Chet eldan to’g’ridan-to’g’ri investitsiya	Texnik termin sifatida ekvivalenti saqlanadi.

Siyosiy terminlar esa ma’no asosida yoki yumshatilib beriladi.

Asl termin	Transliteratsiya	Semantik tarjima	Izoh
Meritocracy	Meritokratiya	Bilim va mehnatga asoslangan boshqaruv	Mos ekvivalent yo’qligi sabali izoh kerak
Soft Authoritarianism	Yumshoq Avtoritarizm	Markazlashgan boshqaruv shakli	“avtoritarizm” so’zi neytralroq tushuntiriladi

Rule of Law	Qonun ustuvorligi	Huquqiy davlat tamoyili	“qonun ustuvorligi’ keng qo’llaniladi

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, antroponimlar asosan transliteratsiya va transkripsiya orqali tarjima qilinadi. Toponimlarda esa fonetik shaklni saqlash bilan birga, ba’zan mahalliy yozuvga moslashtirish zarur bo‘ladi. Terminlarning tarjimasi kontekstga bog‘liq bo‘lib, izohlash va ekvivalent tanlash eng samarali usullar sifatida qo‘llaniladi. Shu bois, tarjimon mazkur birliklarni tarjima qilishda lingvistik-me’yoriy va madaniy omillarni inobatga olishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Baker, M. (2018). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.
2. Lee Kuan Yew. (2020). *From third world to first: The Singapore story*. HarperCollins.
3. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation.* London: Prentice Hall.
4. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1958). *Stylistique comparée du français et de l’anglais*. Paris: Didier.

ISMOIL SOMONIY MAQBARASI MARKAZIY OSIYO ME’MORCHILIGINING NOYOB ARXITEKTURAVIY YODGORLIGI

To‘xtasinov Mira’zam Abdujabbor o‘g‘li
Namangan Davlat Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Tarix yo‘nalishi talabasi
mirazamtohktasinov@gmail.com **+998973731234**

Annotatsiya. Maqolada Somoniylar sulolasining eng yorqin vakillaridan biri bo‘lgan Ismoil Somoniy (907-914) davrida bunyod etilgan Ismoil Somoniy maqbarasining qurilishi hamda uning O‘rta Osiyo va jahon me’morchiligida tutgan o‘rnini ilmiy asoslangan ta’riflar orqali yoritib berilgan. Shu bilan birgalikda so‘ngi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida “Ismoil Somoniy maqbarasi” Markaziy Osiyodagi dastlabki qabr ustiga bunyod etilgan maqbara ekanligi isbotlandi. Ismoil Somoniy maqbarasini qurilishi, dizayni va qurulishda foydalanilgan xom ashyolar haqida tarixiy manbalar va adabiyotlarga asoslangan holda ma’lumotlar ketirib o‘tilgan.

Абстрактный. В статье поясняется конструкция мавзолея Исмаила Сомони, который был построен в период правления Исмаила Сомони (907-914 гг.), одного из ярчайших представителей династии Сомони, и его место в архитектуре Средней Азии и мира. через научно обоснованные определения. При этом в результате научных исследований, проведенных в последние годы, доказано, что «Мавзолей Исмаила Сомони» представляет собой мавзолей, построенный на вершине первой могилы в Центральной Азии. На основе исторических источников и литературы собраны сведения о сырье, использованном при строительстве, проектировании и строительстве мавзолея Исмаила Сомони.

Abstract. In the article, the construction of Ismail Somoni's mausoleum, which was built during the reign of Ismail Somoni (907-914), one of the brightest representatives of the Somoni dynasty, and its place in the architecture of Central Asia and the world are explained through scientifically based definitions. At the same time, as a result of scientific research conducted in recent years, it has been proved that "Ismail Somoni mausoleum" is a mausoleum built on top of the first grave in Central Asia. Based on historical sources and literature, information about the raw materials used in the construction, design and construction of the Ismail Somoni mausoleum was collected.

Kalit so‘zlar. Somoniylar sulolasining oilaviy maqbarasi, tuya suti va xo‘roz qoniga qorilgan loy, sug‘diylar me’morchiligi va arab me’morchiligini qorishmasi, peshtoq, ravoqlar galeriyasi, gumbaz, tosh taxta, yarim shar shaklidagi kubba, dinamik kvadrat, sentrik kompozitsiya.

Ключевые слова. Семейный мавзолей династии Саманидов, глина, смешанная с верблюжьим молоком и петушиной кровью, смесь согдийской архитектуры и арабской архитектуры, галерея арок, купол, каменная плита, полусферический купол, динамичная площадь, центрическая композиция.

Key words. The family mausoleum of the Samanid dynasty, clay mixed with camel milk and rooster blood, a mixture of Sogdian architecture and Arab architecture, a gallery of arches, a dome, a stone slab, a hemispherical dome, a dynamic square, a centric composition.

KIRISH

Yurtimiz juda qadimiy va betakror tarixiy obidalarga boy mamlakatlardan hisoblanadi. Mamlakatimiz hududida ming yillar avval barpo etilgan me’moriy obidalarning mavjudligi va ularning qurulish arxitekturaviy dizayni necha ming yillardan beri nafaqat yurtimiz me’morlarini balkim dunyo me’morlarini xayratda qoldirib kelmoqda. Samarqand, Buxoro va Qashqadaryo hududlarida barpo rtilgan me’moriy yodgorlik buning yorqin dalilidir. Qadimiy va ko‘hna Buxoroda Somoniylar davrida bunyod etilgan ‘Ismoil Somoniy maqbarasi” ham shular jumlasidandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida G.A. Pugachenkovaning “Мавзелей Исмаила Самани” va Shamsiddin Kamoliddinning “Исмоил ибн Ахмад ас-Сомоний” asarlari metodologik manba bo‘lib belgilandi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, xronologik, izchillik va obyektivlik usullardan keng foydalanildi. Ismoil Somoniy maqbarasining qurulish tarixi obyektiv ochib berildi. Jumladan ushbu maqbara tarixi o‘rganishda va ta’mirlash jarayonoda ishtorok etgan buxorolik tarixchi M.Saidjonov, Vasiliy Vyatkin, B. Zasipkin, Usta Shirin Murodov, va professor M. Bulatov kabi olimlar ham o‘z fikrlarini bildirganlar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Somoniylar sulolasi davri me’morchiligi durdonasi hisoblangan Ismoil Somoniy maqbarasi Somoniylar sulolasining yirik vakili Ismoil Somoniy tomonidan qurilgan. Ismoil Somoniy maqbarasi Buxoro shahrining g‘arbiy qismida Registon yaqinidagi madaniyat va istirohat bog‘ining hududida joylashgan. Markaziy Osiyodagi qabr vazifasini o‘tagan birinchi maqbara hisoblanadi. Ismoil Somoniy maqbarasi mo‘g‘ullar hujumi chog‘ida sahrodagi bo‘ronlar paytida qumga ko‘milgan edi. Shu tufayli hujumlardan hech qanday zarar ko‘rmasdan omon qolgan maqbara bugungi kungacha saqlanib qolgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Chingizxon qo‘shinlari shaharga yaqinlashayotganidan xabar topgan Buxoro ahli Ismoil Somoniy maqbarasini butunlay tuproq bilan ko‘mib yuborishadi. Shuning uchun qo‘shin chiroyli inshoot o‘rnida kichkinagina tepalik ko‘radi va yonidan o‘tib ketadilar. Xavf ortda qolganidan so‘ng Buxoro aholisi maqbarani ehtiyotkorlik bilan qazib oladilar. Ular Chingizxonning qo‘shini o‘z yo‘lidagi barcha narsalarni vayron qilib ketishini yaxshi bilar edilar. Shuning uchun ular shunday yo‘l tutganlar. Bu yodgorlik xalq orasida va ilmiy adabiyotlarda Somoniylar sulolasining eng atoqli namoyondasi Ismoil Somoniy maqbarasi nomi bilan ma’lum va mashhurdir. Mozorning bir qismida Ismoilning otasi Ahmad dafn qilinganligi Ismoilning qabri ham shu yerda ekanligi haqida ma’lumotlar bor. Bundan tashqari, maqbara peshtoqining ravog‘i tepasidagi tosh taxtada Ismoilning nabirasi Nosirning ismi ham zikr qilingan. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida keltirilgan ma’lumotga ko‘ra, “o‘rta asrlarda bu yerda Naukanda qabristoni bo‘lgan. O‘rta aslarda Buxoroda Naukanda nomli ariq ham bo‘lib, u X asrda yashagan al-Istaxriy va Ibn Xavqalning geografik asarlarida ham ushbu joy haqida ma’lumotlar qayd etilgan. Arxeologik qazilmalar natijasida shu narsa aniqlandiki, ilgari Ismoil Somoniy maqbarasidan shimoli–sharqda yana bir nechta maqbaralar bo‘lib, ularda Somoniylar oilasining a’zolari va ularga yaqin bo‘lgan odamlar dafn etilganligi aniqlandi. Bu ma’lumotlar shuni tasdiqlaydiki, bu joy Somoniylar sulolasining oilaviy maqbarasi ekanligini va bu maqbara haqiqatdan ham Ismoil Somoniyga tegishli ekanligi o‘zining ilmiy tasdig‘ini topdi. Yodgorlikning qurilishi arablar istilosidan so‘ng Markaziy Osiyo me’morchiligining tiklanish davriga to‘g‘ri keladi. Inshoot shakli bejizga tanlanmagan. Uning har bir qismi ma’lum bir ma’noni o‘zida mujassam etgan. Misol uchun kub yerning ramzidir, gumbaz esa osmonning ramzi hisoblanadi. Bular birgalikda esa dunyoning birligini anglatuvchi ramzlardir. Ayrim tarixchi olimlarning fikricha bu maqbara dunyoning kichraytirilgan nusxasidir.

XX asrning 1-yarmida yashagan buxorolik tarixchi M.Saidjonovning ma’lumotiga ko‘ra, Ismoil Somoniy maqbarasi turgan yer ilgari “Ku–yi Chahor gumbazon” ya’ni To‘rt gumbaz ko‘chasi deb atalgan. Ismoil Somoniy maqbarasining to‘rt tomoni bir xil chordara shaklida jimjima g‘ishtin bezaklari chiviqli to‘siq yoki qamish, bo‘yra to‘qimasini eslatadi. Inshoot qabr vazifasini bajarganligi sababli, uning intereri uch pog‘onali (to‘rtlik–to‘rt devor, sakkizlik devordan tomga o‘tish qismi va gumbaz–tom ko‘rinishdagi) bir xonali kvadrat shaklni tashkil qilgan. Uning qurilishida pishgan g‘isht, tosh va yog‘ochdan foydalanilgan. Ayrim manbalar va rivoyatlarga ko‘ra, g‘ishtni terishda orasiga tuya sutiga qorilgan loy ishlatilgan. Boshqa bir afsonalarda aytilishcha esa obidaning qurilishidagi loy uchun qizil xo‘rozning qonidan foydalanilganligi haqida hikoya qilinadi, shu sababli maqbara g‘ishtlari hech qanday rangli bo‘yoqlarsiz ham hozirgacha o‘z jozibasini yo‘qotmagan.

Maqbaraning dizayniga to‘xtaladigan Devor qalinligi 1,8 m, tarhi tashqarisi 10,80×10,70 m, ichkarisi 7,20×7,20 m. Usti gumbaz bilan qoplangan. To‘rt burchagi ustunsimon shaklda ishlangan, gumbaz atrofiga to‘rtta qubba o‘rnatilgan. Devor tepasida 40 ta kungirasimon darcha mavjud. Har bir darcha hoshiyalangan. Ravoq tepasidagi qanos g‘ishtin tangachalar marjoni bilan chegaralangan. Ikki chetiga mayda-mayda g‘ishtdan chorsu tumor yasalgan. Bino ichkarisi tashqaridagi bino bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uslub jihatidan bir xil. Ichki devor gumbaz osti bag‘alidagi ustma-ust ravoqchalar ustunchalarga tayangan. Ravoqchalar sakkiz qirrali gumbaz asosini tashkil qiladi. Qirralar burchagiga gumbazga tirgaklik qiluvchi ustunchalar ishlangan. Ismoil Somoniy maqbarasining tashqi devorlarida past tomoni uchli, tepa tomoni esa gorizantal bo‘lgan va o‘rtasidan vertikal chiziq bilan ikkiga bo‘lingan uchburchak shakldagi ramzlar ham bor. Hosil bo‘lgan ikkita uchburchakning ichida o‘simlik tasviri bor. Bu ramzlar har bir eshik tokining tepasida yuqorida tasvirlangan buddaviy ramzlarning o‘rtasida bittadan joylashgan bo‘lib ularning umumiy soni to‘rtta bo‘lgan. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra bu ramzlarda otashparastlarning otashdoni ifoda etilgan. Sakkiz burchakli tokning janubiy ravoqidagi pishiq g‘ishtdan ishlangan panjara shunday terilganki, g‘ishtlar orasidagi bo‘shliqlar hamma tomonlari teng bo‘lgan xoch shaklini beradi. Shuni ham aytish kerakki, maqbarada islom davri bilan bog‘liq birorta belgi yoki yozuv yo‘q. Taxmin qilinishicha maqbara islomdan olingi dehqonlar saroyi yoki so‘g‘d me’morchiligida keng tarqalgan ajdodlar xotirasini eslash uchun qurilgan maxsus bino shaklida qurilganligi ham, yuqoridagi fikrlarimizni yorqin dalilidir. Bundan shuni anglash mumkinki Ismoil Somoniyning islomdan oldingi ajdodlari moniy bo‘lganlar. Ismoil Somoniy ajdodlarining diniy e’tiqodini yodda tutib, unga hurmat bilan qaragan va ularning ramzlarini Buxoroda qurdirgan sulolaviy maqbaraning devoriy naqshlarida buni ifoda etgan.

Ushbu arxitekturaviy yodgorlik XI asrdan ortiq vaqt ichida dastlabki holi to‘laligicha saqlanib qolgan obida sanaladi. Arxeologik qazilma vaqtida (1927-yilda) xona sahnida ikkita yog‘och sag‘ana borligi aniqlangan. M. Saidjonov topgan vaqfnomada qayd qilinishicha, otasi amir Ahmad mozoridan Registongacha yerlarning bir qismi maqbaraga vaqf etilgan. 1568-1569 yillarda qayta yozilgan vaqf nizomiga ko‘ra, 868-yilda Ismoil Somoniy davrida otasi Ahmad ibn Asad qabri ustida qurilgan. XX asr boshlariga kelib, saqlanib qolgan maqbara atrofida sharq tomondan bitta kirish eshigi bo‘lgan baland devor bilan o‘ralgan kichik qabristongina qolgan.

Maqbara birinchi marta 1924-yilda Moisei Ginzburg ekspeditsiya guruhi tomonidan o‘rganilgan. 1925-yilda Buxoro tarixiy va san’at yodgorliklarini muhofaza qilish komissiyasining ilmiy kotibi Muso Saidjonov bino gumbazining astarlarini tiklashni tashkil qilgan. Keyingi arxeologik tadqiqotlar Vasiliy Vyatkin tomonidan 1926-1928-yillarda olib borilgan qazishmalar davomida nekropol (qabriston) ichida bir nechta qabrlar, jumladan Ismoil Somoniyning jasadi saqlanib qolganligi aniqlandi. Binoni ko‘mib yuborgan zax tuproqlardan tozalanib, 1937-1939-yillarda B. Zasipkin va Usta Shirin Murodov boshchiligida ta’mirlangan. Ming yildan ortiq vaqt davomida qad ko‘tarib turgan maqbara katta o‘zgarishlarga uchramagan. Maqbaraning kimga tegishliligi, shuningdek, uning qurilish davri Ismoil Somoniy davriga oidligi 1926-yilgacha xalq afsonasiga asoslangan edi. Bu ma’lumotlar Muso Saidjonovning tadqiqotlari tufayli ilmiy asoslandi. Olib borilgan tadqiqotlarlar natijasida Ismoil Somoniy maqbarasi o‘rta asrlarning rivojlangan davrida (IX-X asrlar) 864-868-yillar oralig‘ida barpo etilganligi o‘z tasdig‘ini topdi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, 1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha obidalar qatorida Ismoil Somoniy maqbarasi ham qayta ta’mirlandi. 1993-yilda Buxoro shahrining tarixiy markazi (1-sessiya, Kolumbiya) “Butunjahon madaniy meroslari ro‘yxati”ga kiritildi. 2000-yilning 30-avgustida „Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risi“ dagi qonun qabul qilindi. Davlat tomonidan qabul qilingan ushbu qonunlar me’moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolati hisoblanadi.

2021-yil Buxoro viloyat hokimligida viloyat hokimi o‘rinbosari Botir Shahriyorov Janubiy Koreyaning “New Layer Co., Ltd”, “EGIS Co., Ltd”, “J-TOD Co.,Ltd”, kompaniyalari va “LX” korparatsiyasi vakillari Lee Kwang Se, Kang Seokchan, Park Choondong, Dongho Lee, Lim Seong Ha, Kim Jeungsoo, Jung Inhyelardan iborat delegatsiya vakillari bilan uchrashdi 2021-yilning 27-sentabridan 20-oktabrga qadar mamlaktimizda bo‘lishi rejalashtirilgan delegatsiya vakillarining asosiy maqsadi Koreya Respublikasi axborot texnolagiyalarini rivojlantirish milliy agentligining umumiy qiymati 150 ming AQSH dollari bo‘lgan grand loyihasi asosida Buxoro shahrining tarixiy markazida joylashgan Ismoil Somoniy maqbarasining “Digital Twin”, 3D-texnologiyalari va geografik ma’lumotlar yordamida birga-bir raqamli nusxasini (egizagini) yaratish va “Google maps” tizimiga biriktirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirishdan

ko‘zlangan edi. O‘z o‘rnida koreyaliklar ham so‘nggi yillarda shaharsozlik, madaniy meros, arxeologiya sohalarida keng qo‘llanilayotgan “Digital Twin”, “D-T win” (raqamli egizak) texnologiyasining yutuqlari bo‘yicha ma’lumot berishdi. Xususan, “D-Twin” yordamida modellashtirish, obyektlar va mexanizmlarni monitoring, diagnostika hamda pragnoz qilishda foydalanish mumkinligini ta’kidlashdi. Shuningdek, uchrashuv davomida madaniy meros obyektlari 3D-platformasining kichik taqdimoti ham bo‘lib o‘tdi.

Mazkur loyiha amalga oshirilgandan so‘ng orttirilgan tajriba asosida Xiva, Samarqand va Shahrisabz shaharlarining tarixiy qismlari, Qoraqolpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi qal’alar, arxeologik topilmalarning 3D nusxalarini yaratish, shu kabi ishlarni doimiy olib bora oladigan texnik guruh va uskunalarni shakllantirishni qamrab oluvchi umumiy qiymati 6 mln. AQSH dollari bo‘lgan grand loyihasi bo‘yicha ishlarni boshlash rejalashtirilgan. Grand loyihasi muvofaqqiyatli amalga oshsa yaqin yillarda ikkinchi bosqich ishlari ham boshlab yuborilishi rejalashtirildi.

Xulosa

O‘rta Osiyonong me’morchilik durdonalaridan biri hisoblangan Ismoil Somoniy maqbarasi va uning qurulish arxiteturaviy dizayni, shu ko‘rsatadiki bu davrda diniy ilmlar bilan bir o‘rinda dunyoviy ilmlar ham rivojlanganligi buning yorqin namunasidir. Bu me’moriy inshootning yaratilgan davridan boshlab hech qanday talofatlarsiz saqlanib kelganligi Somoniylar davrida me’morchilik eng yuksak darajada bo‘lganligidan darak beradi. Ushbu maqbaraning qurulishida foydalanilgan xom ashyolarning vas hu bilan birgalikda qanday barpo etilganligi sir asrorlari mana necha ming yillar bo‘ldiki insoniyat uchun jumboqli bo‘lib kelmoqda. Boshqa me’moriy obidalar qatorida Ismoil Somoniy maqbarsi ham yurtimizning ko‘rkiga ko‘rk bag‘ishlab kelmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Анатолевна Г. Исмоил Сомоний мақбараси. –Т:, 1964. Б. 17.
2. Камолиддин Ш. Исмоил ибн Ахмад ас-Сомоний. Scholars press. 2017. Б. 93.
3. To‘rayev H. Buxoro tarixi. -Buxoro. Durdona:,2020. B. 321.
4. Bobojonova F. Buxoro me’moriy obidalari tarixi. Buxoro:. Fan va ta’lim. 2022. B. 285.
5. https://www.trtavaz.com.tr/haber/uzb/avrasyadan/somoniylar-maqbarasi-o-rta-osiyome-morchiligi-durdonasidir/61cecfb101a30a1e504c4238.
6. http://guide.beeline.uz/uz/site/view?id=96.
7. https://darakchi.uz/oz/132895.
8. https://meros.uz/object/ismoil-somoniy-maqbarasi.
9. https://yuz.uz/uz/news/ismoil-somoniy-maqbarasining-3d-nusxasi-yaratiladi.
10. https://www.mirarab.uz/ruknlar/1229.
11. https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=2572.0.
12. https://uza.uz/oz/posts/buxoroning-yetti-tarixiy-obidasi-icesconing-islom-olami-merosi-royxatiga-kiritildi_285661.
13. https://uzsmart.uz/encyclopedia/encyclopedia/45440.html.
14. http://world.meros.uz/uz/wonder/view?id=48.
15. https://daryo.uz/2022/06/09/tangri-jamoli-yoxud-baxtli-maskan-tarixi-asrlarga-tutashuvchi-ozbekistonning-birinchi-poytaxti-bolgan-afsonaviy-buxoro-shahri-haqida.
16. https://www.advantour.com/rus/uzbekistan/bukhara/history.htm.
17. https://arboblar.uz/uz/people/ismail-samani.
18. https://www.trt.net.tr/uzbek/dasturlar/2017/11/03/ona-diyor-obidalari-22-qism-840186.
19. https://qomus.info/oz/encyclopedia/i/ismoil-somoniy-maqbarasi/.
20. https://uz.advisor.travel/poi/Ismoil-Somoniy-maqbarasi-767.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Madraximova Moxira Imomaliyevna
FarDU mustaqil izlanuvchisi mohiraxonmadrahimova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishning samarali metodlari tahlil qilinadi. Kompetentlik*

yondashuvi asosida o‘qituvchining nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, pedagogik madaniyati hamda innovatsion faoliyatini rivojlantirish yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, maqolada interaktiv metodlar, refleksiv yondashuv, muammoli o‘qitish, integrativ ta’lim va loyiha asosida o‘qitish kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning afzalliklari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda amaliyot bilan nazariyaning uzviy bog‘liqligini ta’minlash, ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *Bo‘lajak o‘qituvchi, boshlang‘ich ta’lim, kasbiy kompetentlik, pedagogik texnologiya, interaktiv metodlar, refleksiv yondashuv, innovatsion ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, integrativ yondashuv.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются эффективные методы формирования и развития профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов. На основе компетентностного подхода раскрываются пути совершенствования теоретических знаний, практических навыков, педагогической культуры и инновационной деятельности педагога. Также обоснованы преимущества использования современных педагогических технологий, таких как интерактивные методы, рефлексивный подход, проблемное обучение, интегративное образование и проектное обучение. Результаты исследования показывают, что важным фактором развития профессиональной компетентности является обеспечение взаимосвязи теории и практики, а также широкое внедрение инновационных подходов в образовательный процесс.*

Ключевые слова: *Будущий учитель, начальное образование, профессиональная компетентность, педагогические технологии, интерактивные методы, рефлексивный подход, инновационное обучение, проектное обучение, интегративный подход.*

Annotation: *This article analyzes effective methods for developing and enhancing the professional competence of future primary school teachers. Based on the competency-based approach, it highlights ways to improve teachers’ theoretical knowledge, practical skills, pedagogical culture, and innovative activity. The paper also substantiates the advantages of applying modern pedagogical technologies such as interactive methods, reflective approach, problem-based learning, integrative education, and project-based teaching. The findings indicate that ensuring the interrelation between theory and practice, as well as the broad implementation of innovative approaches in the educational process, plays a key role in the development of professional competence.*

Keywords: *Future teacher, primary education, professional competence, pedagogical technology, interactive methods, reflective approach, innovative education, project-based learning, integrative approach.*

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimining modernizatsiyasi, ayniqsa boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘qituvchilar tayyorlash jarayoni jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Chunki boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki shaxs kamolotini shakllantiruvchi, ijtimoiy qadriyatlarni singdiruvchi, mustaqil fikrlovchi avlodni tarbiyalovchi asosiy shaxsdir. Shu bois, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik — bu o‘qituvchining o‘z kasbiga oid chuqur nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, kommunikativ madaniyat va ijodkorlik faoliyatining uyg‘unlashgan tizimidir. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini faqat nazariy darslar orqali emas, balki amaliy mashg‘ulotlar, pedagogik amaliyot, loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyatlar tahlili kabi interaktiv usullar orqali rivojlantirish zarur. Shu yo‘l bilan o‘qituvchi o‘z faoliyatida mustaqil fikrlovchi, innovatsion yondashuvlarga tayyor, zamonaviy texnologiyalarni egallagan mutaxassis sifatida shakllanadi.

Zamonaviy ta’limda kompetentlik yondashuvi markaziy o‘rinda turadi. Bu yondashuv talabaning faolligini oshirish, ta’lim jarayonini amaliyot bilan uzviy bog‘lash, ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini

rivojlantirishda refleksiv tahlil, muammoli o‘qitish, integrativ yondashuv hamda loyiha asosida o‘qitish metodlari o‘zining samaradorligi bilan ajralib turadi.

Shu munosabat bilan, mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodlarning mohiyati, mazmuni va amaliy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida nazariya bilan amaliyotning uyg‘unligini ta’minlash, ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ASOSIY QISM

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Chunki kompetentlik darajasi o‘qituvchining ta’lim sifatiga, o‘quvchilarning bilish faoliyatiga va ta’lim jarayonining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda innovatsion, interaktiv va refleksiv metodlardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy kompetentlik o‘z mazmuniga ko‘ra, o‘qituvchining nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, kommunikativ malakalari, shaxsiy fazilatlari hamda pedagogik madaniyatining uyg‘unlashgan tizimini ifodalaydi. Bo‘lajak o‘qituvchi o‘z faoliyatini to‘g‘ri tashkil eta olishi, ta’lim jarayonini boshqarish, o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, ularning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur. Bu esa o‘z navbatida ta’lim jarayonini metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirishni, o‘z ustida muntazam ishlashni va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishni talab etadi.

Kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv metodlarning o‘rni beqiyosdir. Masalan, “muammoli vaziyatlar tahlili”, “aqliy hujum”, “rol o‘ynash”, “klaster”, “case-study” kabi metodlar o‘quvchi-talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tahliliy yondashuv va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu metodlar nafaqat bilim berish, balki kasbiy faoliyatda zarur bo‘lgan hayotiy kompetensiyalarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, refleksiv yondashuv bo‘lajak o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarini aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi. Refleksiya jarayonida talaba nafaqat o‘z ishiga tanqidiy nazar bilan qaraydi, balki o‘z kasbiy o‘sishi uchun yangi yo‘nalishlar belgilaydi. Bu yondashuv orqali o‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyatida doimiy rivojlanish, yangilikka intilish va yangicha fikrlash ko‘nikmasini hosil qiladi.

Integrativ yondashuv esa turli fanlar, metodlar va o‘quv jarayonining tarkibiy qismlarini bir butun tizimga birlashtirish orqali o‘qituvchining keng qamrovli bilimini shakllantiradi. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi bir vaqtning o‘zida til, matematika, tabiiy fanlar, san’at va texnologiya yo‘nalishlarini uyg‘un holda o‘rgatishi lozim. Shu sababli, integrativ ta’lim metodlari o‘qituvchining didaktik tafakkurini kengaytiradi, o‘quvchilarning bilimini tizimlashtirish va fanlararo bog‘liqlikni anglash imkonini beradi.

Loyiha asosida o‘qitish ham kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. Ushbu metod orqali bo‘lajak o‘qituvchilar muayyan mavzu bo‘yicha amaliy topshiriqlarni bajaradilar, izlanadilar, ma’lumot to‘playdilar va natijani taqdim etadilar. Bunday jarayon ularni mustaqil o‘qishga, mas’uliyatli qaror qabul qilishga va jamoada ishlashga o‘rgatadi. Loyiha asosida o‘qitish, shuningdek, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni faol qo‘llashni talab etadi, bu esa o‘qituvchining zamonaviy ta’lim muhiti bilan uyg‘unlashuvini ta’minlaydi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda nazariya va amaliyotning uzviy bog‘liqligi muhim rol o‘ynaydi. Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar nazariy bilimlarini real o‘quv muhitida sinab ko‘radilar, ta’lim jarayonini boshqarish, darslarni tahlil qilish va o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olishni o‘rganadilar. Bu esa ularning kasbiy o‘zini anglashini, pedagogik mas’uliyatini va o‘z ishiga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

Ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llash, raqamli resurslardan samarali foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning kompetentligini yanada chuqurlashtiradi. Chunki bugungi kunda raqamli savodxonlik, onlayn ta’lim vositalaridan foydalanish, interaktiv platformalarda ishlash o‘qituvchining kasbiy mahoratining ajralmas qismiga aylangan.

Shunday qilib, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, interaktiv va innovatsion metodlarni qo‘llash, refleksiv va integrativ faoliyatni yo‘lga qo‘yish orqali barkamol, ijodkor va raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash imkoniyati yaratiladi.

XULOSA

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish — ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va o‘qituvchi shaxsini yangi davr talablariga mos shakllantirishning muhim yo‘nalishidir. Zamonaviy ta’lim jarayoni o‘qituvchidan nafaqat puxta bilim va ko‘nikma, balki mustaqil fikrlash, innovatsion yondashuv, axborot texnologiyalarini samarali qo‘llay olish, kommunikativ madaniyat va refleksiv tahlil qobiliyatini ham talab qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bo‘lajak o‘qituvchilar kompetentligini rivojlantirishda interaktiv, refleksiv, integrativ va loyiha asosida o‘qitish metodlarining qo‘llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur metodlar o‘quvchi-talabalarda ijodiy tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish, jamoada ishlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va pedagogik jarayonni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning samaradorligi, avvalo, nazariya va amaliyotning uzviy bog‘liqligiga, o‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etishga, shuningdek, pedagogik refleksiya va tahlil faoliyatining yo‘lga qo‘yilishiga bog‘liq. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishini doimiy ravishda rag‘batlantirish, malaka oshirish kurslari va amaliy seminarlar orqali ularni yangi pedagogik tendensiyalar bilan tanishtirib borish ham muhim omildir.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish — bu uzluksiz, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan murakkab jarayon bo‘lib, u shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy o‘sishni bir butun tizimda birlashtiradi. Kompetent, ijodkor va innovatsion fikrlovchi o‘qituvchini tayyorlash esa mamlakat ta’lim sifatini oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli va vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalashning eng muhim garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonova Q. S. Pedagogik kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
2. O‘rinboyeva N. A. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: TDPU ilmiy to‘plami, 2021.
3. Jo‘raeva M. T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash asoslari. – Namangan: NDPI nashriyoti, 2020.
4. Nishonova Z. I. Pedagogik mahorat va kasbiy kompetentlik: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
5. Rasulova D. R. Ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanishning samaradorligi. // “Boshlang‘ich ta’lim va innovatsiyalar” ilmiy jurnali. – 2022. – №2. – B. 45–52.
6. Mamatov A. A. Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv kompetentlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari. – Toshkent: TDPU, 2020.

MUNDARIJA

1.	**Talabalarning ijtimoiy moslashuvi muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari** A.A.Isoqboyev	3
2.	**Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida aksiologik pozitsiyani rivojlantirishni mazmuniga qo‘yiladigan zamonaviy talablar tahlili** J.A.Yuldashev	5
3.	**Ta’lim tizimida manbaashunoslik madaniyati hamda milliy ma'naviy tamoyillar harakteri** R.A.Tursunov, J.Umarov	8
4.	**Yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash hamda kadrlarning kasbiy mahorati va ko‘nikmalarini oshirishning dolzarb muammolari** M.T.Nabijonov	10
5.	**Inklyuziv ta’limda musiqa savodxonligini oshirish: zamonaviy pedagogik usullar va strategiyalar** A.M.O‘rmonjonov	13
6.	**Изучение иностранного языка в инклюзивном образовании: возможности и проблемы** М.К.Тошматова	16
7.	**Global makonda talabalarning ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy dunyoqarashi: Yaponiya va O‘zbekiston tajribasi misolida** O.O.Jakbarov	19
8.	**Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining o‘rni va ahamiyati** **D.R.Ochilova**	21
9.	**Global makonda talabalarning ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy dunyoqarashi: ijtimoiy moslashuvi va ma’naviy tarbiyasi** **D.R.Ochilova, N.N.Nuriddinova**	24
10.	**Yoshlarni ota onalik mas‘uliyatiga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari** T.A.Islomova, S.A.Ravshanov	26
11.	**Talabalarining kognitiv kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillar** G.A.Amanova	28
12.	**Talabalarda uchraydigan stressli holatlari va ularni bartaraf etish imkoniyatlari** J.B.Majidov	30
13.	**Vokal asoslari nazariyasi** I.N.Po‘latjonova	33
14.	**Turli xalqlarning musiqiy an’analari** I.N.Po‘latjonova	34
15.	**Masofaviy ta'limda akademik shaffoflikni ta'minlash vositasi sifatida autoproctoring texnologiyalarining samaradorligi va muammolari** M.K.Saidov, U A.Rustamov	35
16.	**Enhancing university programming education through artificial intelligence** U.A.Rustamov, M.K.Saidov	39
17.	**Business ethics and culture** M.M.Urazov, M.Choriyev	42
18.	**Трансформация социально-культурной деятельности молодежи в современных условиях: инновационный потенциал и пути развития** С.Ж.Нишонов	45

19. **Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kreativ yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar orqali o‘quvchilarni nutqini rivojlantirish metodikasi** 47
D.O.Otamurodova
20. **Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limiy va tarbiyaviy faoliyatni uzviy bog‘liqligi** 49
U.X.Yo‘ldosheva
21. **“Raqamli ta’lim muhitida “robototexnika asoslari” fanini o‘qitishning innovasion metodlarini takomillashtirish** 51
D.D.Yavqochdiyev
22. **Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish** 53
A.E.Nuriddinov, Ch.A.Erkinova
23. **Назначение приемов технологии критического мышления при развитии основных компетенций школьников** 57
Д.Махмудова
24. **Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarini shakllantirish: raqamli liderlik** 60
D.A.Ergasheva
25. **Raqamli texnologiyalar asosida fizika darslarini samarali tashkil etish metodikasi** 62
F.Y.Ramazonova
26. **Технологии контроля степени сформированности компетенций учащихся на уроках рки** 64
Р.М.Мухибиллаева
27. **Методологические подходы к исследованию влияния социальной среды на формирование языковых компетенций** 66
О.К.Ахмаджанов, М.У.Уктамова
28. **Kichik maktab yoshidagi bolalar hissiy komponentlari kreativlikni shakllantirishning asosi sifatida** 69
M.K.Jabborova
29. **Yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash hamda kadrlarning kasbiy mahorati va ko‘nikmalarini oshirishning dolzarb muammolari** 71
M.X.Mamadjanov
30. **Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining o‘rni va ahamiyati** 74
U.Z.Soipov, Z.N.Tursunboyeva
31. **Oilaviy-qo‘shnichilik jamiyatida tarbiyaviy ishlarni tizimli rivojlantirishning metodologik asoslari** 76
Z.A.Jumaniyazova
32. **O‘quvchilarning neyropedagogik xususiyatlari va bilish jarayonlari** 80
Sh.A.O‘tbosarova, .N.Jamoldinova
33. **The influence of ai on Uzbekistan’s economy** 82
G.K.Djannazarova, H.Avazova, S.Mukhiddinova
34. **Globalizatsiya va yoshlarning ma’naviy yuksalishi: bugungi talaba – ertangi jamiyatning yetakchisi** 85
D.A.Abduraximova
35. **Boshlang‘ich ta’limda nutq o‘stirish nazariyasi** 87
A.O.Usmonova
36. **Global makonda talabalarning ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy dunyoqarashi: ijtimoiy moslashuvi va ma’naviy tarbiyasi** 90
M.A.Muhammadjonova
37. **Tarbiyasi qiyin o‘smirlar psixologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari** 93
M.T.Bozorova

38. **Yangi O‘zbekistonda talaba-yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish choralari** 95
R.O.Orifjonov
39. **Yangi O‘zbekiston o‘quvchi-yoshlarining ma’naviy tarbiyasini shakllantirishda tarixiy tafakkurni o‘rni** 98
A.B.Qambarov
40. **Global makonda talabalarning ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy dunyoqarashi: ijtimoiy moslashuvi va ma’naviy tarbiyasi** 99
M.Dovranova
41. **Технологии развивающие орфографические навыки учащихся на уроках русского языка** 102
Ф.К.Фазлиддинова, О.К.Ахмаджанов
42. **Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida pedagogik loyihalash kompetentligini rivojlantirish mazmuni** 104
M.Sh.Dehqonova, S.M.Marupova
43. **Fostering entrepreneurial thinking in the context of a digital learning environment** 106
R.G.Davletbaeva, Z.A. Umirova
44. **Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda transformatsion liderlik nazariyasining o‘rni** 109
M.B.Rasuljonova, U.A.Azimov
45. **Loyiha texnologiyasi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni** 111
K.Sh.Nishonova
46. **Texnokratik ta’lim paradigmasi sharoitida talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish da amaliyot va innovatsiyalar uyg‘unligini ta’minlash zaruriyati** 113
Sh.R.Sultanov
47. **Talaba yoshlarning ma’naviy-axloqiy e’tiqodini takomillashtirish masalalari** 116
A.Z.Ismayilov
48. **Talabalarda liderlik ko‘nikmalalarini shakllantirish orqali ijtimoiy faolligini rivojlantirish** 119
D.K.Rafikova, M.M.Muhammadqosimova
49. **Pedagogika va ta’lim olishning zamonaviy usullari-yoshlarni yetakchillik va tadbirkorlikka yo‘naltirishning ta'limiy jihatlari** 121
I.Qosimova
50. **Миллий қадриятлар-тарбиянинг мухим омили сифатида** 123
М.А.Исомиддинова, А.Турғунбоева
51. **Ta’lim tizimida axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi tushunchasi va uning tarkibiy tuzilmasi** 125
S.Q.Inadullayeva
52. **Yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining transformatsion ta’siri** 127
B.O.Ergashev, G.Y.Ziyatova
53. **Tanqidiy fikrlashning o’zlashtirish va mustaqil fikrlashdagi ahamiyati** 130
G.Tajiboyeva, M.Ergashaliyeva
54. **Yoshlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirishda liderlik ko‘nikmalarining zamonaviy o‘rni** 132
Azimov S.M., Isroilova Ch.A.
55. **Current issues of preparing young people for the labor market and improving the professional skills and abilities of personnel** 134
Isroilova Ch., Zokirjonova M.
56. **Neyropedagogikada neyrodidaktik yondashuvlarning ahamiyati** 138
Jamoldinova S.N.

57. **Pedagogika va ta’lim olishning zamonaviy usullari va bunda xalq peadgogikasidan foydalanish** 141
Asqarov M.A.
58. **Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarni xalq pedagogikasidan foydalanib tarbiyalash texnologiyasini shakllantirish** 143
Joniyeva T.B.
59. **Zamonaviy ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarni tanqidiy va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish omili** 145
Ismoilova G.U., Rasulova M.
60. **Falsafiy bilimlarning jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati** 148
Abdullaxo‘jayev A. I., Alijonova R.M.
61. **Tibbiy ta'limda blueprint texnikasidan foydalanish: bakalavriat talabalari uchun strategik qo‘llanma** 151
Rakhmonov R.N.
62. **Hofiz Xorazmiy didaktik qarashlari asosida yoshlarning ijodiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari** 153
Kurbanova Sh.Y.
63. **Ijtimoiy tarmoqlar va axloqiy ong: yosh avlod qadriyatlariga yangi tahdidlar va imkoniyatlar** 155
Abdullayeva M.M.
64. **Raqamli kommunikatsiya makonida ijtimoiylashayotgan talabalarning ma’naviy-axloqiy qarashlariga virtual axborot muhitining transformatsion ta’siri** 159
Abdullayeva M.M.
65. **Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining o‘rni va ahamiyati** 163
Mamasoatov O.Sh.
66. **Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va yoshlar liderlik salohiyatini rivojlantirish usullari** 164
Alixonov S.A.
67. **Yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash :ta’lim va amaliyot uyg‘unligi masalasi** 166
Boytillayev M.O., Inomjonova D.E.
68. **Maktabgacha ta’lim tizimida imkoniyati cheklangan bolalarga tarbiyachining shaxsiy munosabati** 168
Sharipov M.T., Rahimjanova M. R.
69. **STEAM ta’limi va uning yosh liderlar tayyorlashdagi o‘rni** 169
Karimov J.J., Shermirzayev B.
70. **Maktabgacha ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning xorijiy tajribasi** 173
Azimjonova M.B.
71. **Bolani maktabda o'qishga aqliy va axloqiy irodaviy tayyorligi** 177
Madatova D.Z.
72. **Fizika fanini o'qitishda talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish orqali tadbirkorlik sifatlarni shakllantirish** 179
B.Z Polvonov, B.S. Ruzimatova
73. **Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni ijtimoiy moslashtirishda pedagogik ta’sir strategiyalari** 182
Urazbayeva S.T., Z.A.Jumaniyazova
74. **The functional responsibilities and role of youth in the implementation of youth policy** 185
Arslonov Z.D.

75. **Yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda liderlik ko‘nikmalarining shakllanishi va ularning jamiyatdagi o‘rni** 188
Nasriddinova K.X., Ismanov T.T.
76. **Yangi O‘zbekistonda - xotin-qizlarning liderlik ko‘nikmalarini o‘rni va ahamiyati** 190
Qodirova S.A.
77. **Pedagogikada torrens testlarining afzalliklari** 193
S.Qodirova, B.A.Jo’rayeva
78. **Sifatli ta’lim – taraqqiyot poydevori va globalashuv talabi** 195
M.Davlatova
79. **Pedagogik muloqotning o’quvchilarda milliy o’zlikni anglashga ta’siri** 198
Mirzaraximova Z.M.
80. **Oliy ta’limda ma’naviy tarbiyaning yangi strategiyalari va metodlari** 200
Nuraliyeva L.X., Jabborova G.Sh.
81. **Talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishda tanqidiy va kreativ fikrlashga doir texnologiyalardan foydalanish usullari** 203
Nabixonova M.I.
82. **Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari** 205
Tillayeva R.T., Nabixonova M.I.
83. **Yoshlarning ijtimoiy hayotga moslashuvida ta’lim muassasalarining rolini oshirish** 209
Usmonov Y.T.
84. **Hozirgi yoshlarni mehnat bozoridagi o‘rni, kasbiy malakalarini oshirishning dolzarb muammolari va yechimlari** 211
Boymurodov B.E., Abdullajonova D.N.
85. **Global makonda talabalarning ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishda tarixiy bilimlarning o‘rni** 213
Teshaboyeva Sh.X., Tillayev B.A.
86. **Yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash hamda kadrlarning kasbiy mahorati va ko‘nikmalarini oshirishning dolzarb muammolari** 215
D.N.Turayev
87. **Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining o‘rni va ahamiyati** 217
Po‘latova R.A., Jamoldinova S.N.
88. **Yan amos komenskiy - pedagogika nazariyasining asoschisi sifatida** 219
Abdualiyeva J.A., Jamoldinova S.N.
89. **Maktabgacha ta’limda rivojlanish markazlarning bolaning har tomonlama rivojlanishidagi ahamiyati** 222
Ahmadjonova D.T.
90. **Savodxonlikka o‘rgatish mashg‘ulotlarida bolalarning tayanch-kompetensiyalariga integratsion yondashuvning didaktik imkoniyatlari** 226
Zokirjonova L.B., Tursunaliyeva D.A.
91. **Yangi O‘zbekiston yoshlari o‘rtasida ma’naviy-axloqiy tarbiya hamda milliy qadriyatlarni uyg‘un holda shakllantirish bosqichlari** 229
Matqurbonova S.
92. **Pedagogika va ta’lim olishning zamonaviy usullari – yoshlarni yetakchilik va tadbirkorlikka yo’naltirishning ta’limiy jihatlari** 231
Rahimov S.J.
93. **Maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish** 233
Tursunaliyeva D.A., Zokirjonova L.B.
94. **Pedagogika va ta’lim olishning zamonaviy usullari – yoshlarni yetakchilik va tadbirkorlikka yo’naltirishning ta’limiy jihatlari** 236

Ro’zmatova M.T., Yuldasheva N.J.
95. **Mamlakatimiz yoshlarining siyosiy jarayondagi faolligi** 237
B. Tillayev, D. Olimova
96. **Globallashuv davrida talabalarning ma’naviy immunitetini shakllantirish** 239
M.D.Xidirnazarova, G.K.Mardiyeva
97. **O’qituvchilarida kasbiy malakalarini shakllantirish yo’llari** 240
L.Xonto‘rayeva
98. **Tyutorlik faoliyatinining talabalar rivojlanishidagi ahamiyati** 242
G.I.Yuldasheva
99. **Учитель и студент в середине интервью в обмене образование синтетический, интегральный, социальный использование формы** 245
Тоджибаев Б.Р., Тоджибоев Б.
100. **XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning talaba-yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishdagi ahamiyati** 247
Ahmadjonov A.A.
101. **Global makonda talabalarning ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy dunyoqarashi: ijtimoiy moslashuvi va ma’naviy tarbiyasi** 249
B.A.Tillayev
102. **Xalqaro baholash tizimining asosiy xususiyatlari va ta'lim sohasidagi ahamiyati** 250
O.K Abdullayeva
103. **Fostering logical reasoning in youth: a foundation for innovative growth** 252
N.Sh.Erkaboyeva, D.U.Abdullayeva
104. **Yoshlar liderlik ko’nikmalarini shakllantirishda is’hoqxon to’ra ibrat g’oyalarining ahamiyati** 258
A.Abdullaxo‘jayev
105. **Global makonda talabalarning ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy dunyoqarashi: ijtimoiy moslashuvi va ma’naviy tarbiyasi** 261
N.A.Dadaboyeva
106. **Yangi O`zbekistonda yoshlar haq-huquqlarining kafolatlarining yaratilishi** 263
M.J.Tolibjonova, B.A.Tillayev
107. **Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari** 266
D.M.Buzrukova
108. **Bo`lajak texnologik ta`lim o`qituvchilarida vizual tafakkur va innovatsion dizayn rivojlantirishda transformatsion yondashuvning o`rni** 268
Sh.Sh.Shuxratov, G.B.Butayeva
109. **Методика применения искусственного интеллекта в формирования речи школьников по русскому языку** 271
С.Хожикурбонова
110. **Pedagogik jarayonlarda tizimli tahlilning innovasion pedagogik texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari** 273
U.X.Axrorova
111. **Yoshlarning ma’naviy va ma’rifiy dunyo qarashlarini rivojlantirishda jadid maktablarini ahamiyati** 277
L.P.Mamasaidov
112. **Milliy-ma’naviy tiklanish g’oyasida ma’naviyatning o’rni** 280
Sh.U.Qoraboyev
113. **Abu Ali ibn Sinoning pedagogik qarashlaridan – zamonaviy metodik usullarda foydalanish** 282
A.A.Inomjonov

114. **The role and pedagogical potential of english language lessons in developing leadership skills** 283
Z.F.Jamolova
115. **O‘qituvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirish orqali ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish omillari** 286
D.K.Kenjayeva
116. **Bo‘lajak o‘qituvchilarning transversal kompetensiyalarini rivojlantirishda kasbiy refleksiyaning o‘rni** 290
Shuxratov Sh.Sh., Askarova B.A.
117. **The modern trends of translation and interpretation studies** 293
P.Lutfullayev
118. **Zamonaviy ta‘lim jarayonlarini rivojlantirishda jadidlarning tutgan o'rni** 295
U.A.Nabijanov
119. **Zamonaviy kinematografiyaning yoshlar ma’naviy dunyosiga ta’siri** 297
I.I.Karimov
120. **Ma’naviy tarbiya mazmuni, usul va vositalarini zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish zaruriyati** 300
N.Zaynobbidinova, Q.K.Abduvoxidov
121. **Формы дистанционного обучения. Электронный учебник как средство дистанционного образования** 302
М.Дадамирзаева
122. **Talaba-yoshlarda dunyoqarashini shakllantirish: axborot xavfsizligi va internet madaniyati** 304
D.M.Boydadayev
123. **Kelajakka yo‘l ochuvchi yoshlar** 306
M.N.Tojiboyeva
124. **Muzey pedagogikasi innovatsion pedagogik texnologiya sifatida** 307
B.X. Baydjanov, S.M.Dadaboyev
125. **Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik ko‘nikmalarining o‘rni va ahamiyati** 310
H.Abdullayeva
126. **San’at va madaniyatdagi zamonaviy estetik qadriyatlarning milliy tarbiya klasterlariga ta’siri** 314
S.M.Botirova, N.M.Shobekova
127. **Учитель и студент в середине интервью в обмене образование синтетический , интегральный , социальный использование формы** 316
Тоджибаев Б.Р.
128. **Scientific methods of pre-school pedagogics: the system of preschool organization in Uzbekistan** 319
T.Abduraxmonov, D.Muxtarova
129. **Customs and traditions of european countries** 323
T.Abduraxmonov, D.Muxtarova
130. **O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv muloqotning psixopedagogik asoslari** 326
J.K.Yoqubjonov
131. **Most attractional places in european** 329
T.Abduraxmonov, D.Muxtarova
132. **The role of teacher’s gesture in the classroom** 331
S.Azimova, D.Muxtarova
133. **The influence of digital media on reading and writing practices** 333
T.Abduraxmonov, D.Mukhtarova
134. **Exploring Word Formation: Compounds, Prefixes, Suffixes, and More** 336
T.Abduraxmonov, D.Mukhtarova

135. **Assessment of acquired knowledge of a foreign language in different age groups** 338
Sh.Moydinova, M.Shukurillayeva
136. **Raqamli texnologiyalar orqali shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish va uning kommunikativ kompetensiyaga ta’siri** 340
Yuldasheva D.E.
137. **Развитие профессиональной компетенции педагога** 341
Гафурова М.А.
138. **Ma’naviyatga yetaklovchi maskan** 344
Baxriddinova M.
139. **Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muxabbat” asarida axloqiy barkamollik masalalari** 345
Otaxanov A.R.
140. **Antroponimlar, toponimlar va terminlarning tarjima strategiyalari** 348
Yoqubjanova S.B.
141. **Ismoil Somoniy maqbarasi markaziy osiyo me’morchiligining noyob arxitekturaviy yodgorligi** 350
To‘xtasinov M.A.
142. **Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodlari** 353
Madraximova M.I.